TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TO'LEPBERGEN QAIPBERGENOV

36

84(5Ozb-6Qor)
Q-12

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TO'LEPBERGEN QAIPBERGENOV

36
SIZZAX DPU
№ 149193
AXBOROT RESURS MARKAZI

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TO‘LEPBERGEN QAIPBERGENOV

36
JIZZAX DPU
INV № 149193
AXBOROT RESURS MARKAZI

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

84(5O4Zb-6Qor)
Q-12

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TO‘LEPBERGEN QAIPBERGENOV

36
UZZAX DPU
INV № 149193
AXBOROT RESURS MARKAZI

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.121-3
KBK 84(5O'zb-6Qor)
T 96

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Orziqul Ergash

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8570-3-2

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

XALQ BITIGI

Muazzam Sharq adabiyotida noma ko'pqirrali janr sanaladi. U maktub tarzida yozilgan asar ham, biror tarixiy shaxs yoki adabiy qahramonning sarguzashtlari, safar taassurotlari, ichki kechinmalari yoritilgan asar ham, keng ko'lamli epik asar ham, she'riy yo nasriy asar ham bo'lishi mumkin. Masalan, Abulqosim Firdavsiy o'ttiz yil Eron va Turon xalqlarining to'rt ming yillik tarixini chuqur o'rganib, X asrda "Shohnoma"(shohlar haqidagi bitik)dek olamshumul doston yaratdi. XI asrda Kaykovus Qur'on suralari, hadislar va hikmatli hikoyatlardan keng foydalanib "Qobusnoma" nasriy asarini yaratdi. Asarning forscha nomi "Nasihatnomayi Kaykovus" bo'lib, "Qobusnoma" o'zbekcha nomidir. XIV asrda Xorazmiy "Muhabbatnoma" she'riy asarini yaratdi. Garchi bu doston oshiqning ma'shuqaga yo'llagan ishqiy maktublaridan tuzilgan bo'lsa-da, unda ilohiy ishq, Haqqa oshiqlik tarannum etiladi. XV asrda Zahiriddin Muhammad Bobur olamga mashhur "Boburnoma" nasriy asarini yaratdi. VII asrda turkiy bitik-nomalar (masalan, "Bilga xoqon bitigi") toshga o'yib bitilgan bo'lsa, Bobur shoh o'z hayoti va o'z zamondoshlari haqidagi qarashlarini oq qog'ozga baayni toshbitiklardek o'chmas qilib bitdi... Ko'rinib turibdiki, "noma" yakka bir shaxsning ham, butun boshli xalqning ham orzu-istaklarini, dard-alamlarini, qo'ying-chi, butun ichki dunyosini yaqqol ko'rsata oladigan serqirra janr hisoblanadi. Shuning uchun ham odamlar bunday asarlarni ashula qilib kuylaganlar. Barcha turkiy xalqlarning umumiy meroslari hisoblanmish "Almopish", "Go'ro'g'li" va boshqa ko'plab dostonlarni baxshilar bo'zlab kuylashlari bejiz emas. Axir, turkiy "kuy" o'zagida ham "kuymoq", ham "kuyinmoq", ham "kuydirmoq" ma'nolari bor-da. "Kuygandan kulli balo chiqadi", deydi ko'pni ko'rgan xalqimiz. Kuygan ko'ngillar esa, kulli balolarni daf qila oladigan mo'jizalar yaratishga qodir! Agar kuygan ko'ngillarning bo'zlab yaratgan bir

mo'jizasi kuy, bir mo'jizasi doston bo'lsa, yana bir mo'jizasi nomadir. Til uchida yengil-yelpi aytiladigan xonish-u xirgoyi emas, bo'g'izda bo'g'riqib-bo'zlab, yonib-kuyib, o'zi ham titrab, tinglovchini ham zir titratib aytiladigan "kuy"da ular!

Atoqli qoraqalpoq adibi To'lepbergen Qaipbergenov o'z ijodining cho'qqisi bo'lmish "Qoraqalpoqnoma" roman-essesini yaratishga Firdavsiy "Shohnoma"ga bag'ishlagan umridan ko'p bo'lsa ko'pki, kam umrini sarflamadi. O'ttiz yildan ko'proq qizg'in ijodiy tayyorgarlik va ijodiy jarayon hosilasi bo'lgan bu asar 1985-yilda qoraqalpoq tilida, 1990-yilda kamina tarjimasida o'zbek tilida, keyinchalik qozoq, rus va boshqa tillarda nashr etilgan.

"Qoraqalpoqnoma"ga qadar To'lepbergen Qaipbergenov talay qissalari-yu romanlari bilan yaxshi tanilib ulgurgan edi. Atoqli o'zbek adibi Abdulla Qahhor tarjima qilgan "Sovuq bir tomchi" qissasi va boshqa qissalari, "Ko'z qorachig'i"dek yirik romani, ayniqsa, "Qoraqalpoq qizi" roman-dilogiyasi bilan "Qoraqalpoq dostoni" roman-trilogiyasi nafaqat Qoraqalpog'iston va O'zbekistonda, balki butun jahonda keng dovrug' qozondi. Atoqli shoirimiz Mirtemirning "Qoraqalpoq daftari" she'riy kitobi va sevimli adibimiz Asqad Muxtorning "Qoraqalpoq qissasi" asari bilan bir qatorda turib, bu ikki kitobning kuchini o'zida jamlay olgan "Qoraqalpoq qizi" roman-dilogiyasi olamda "qoraqalpoq" degan o'ziga xos bir xalq borligini o'quvchining ko'ziga ravshan ko'rsatib qo'ygan edi. Lev Tolstoyning "Anna Karenina" romani va Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasi bilan bo'ylasha oladigan bu asar asosida o'z vaqtida "O'zbekfilm" kinostudiyasida ayni shu nomdagi badiiy film yaratilgani, albatta, bejiz emas edi.

Adibning "Qoraqalpoq qizi" roman-dilogiyasidan keyingi jahon kitobxonlari tomon qo'ygan navbatdagi dadil ijodiy qadami, tabiiyki, qariyb yigirma yil mobaynida yaratilib, boshqa tillarga peshma-pesh tarjima qilingan "Qoraqalpoq dostoni" roman-trilogiyasi bo'ldi. Ushbu trilogiyani tashkil etuvchi "Mamanbiy afsonasi", "Baxtsizlar" va "Gumrohlar" tarixiy romanlarining har biri haqida ko'p gaplarni yozish mumkin, albatta. Ayniqsa, uch romandan iborat ulkan asarning "Qoraqalpoq dostoni" deb atalib, "dos-

ton" so'zi xalq nomi bilan birga turkiy xalqlar adabiyotida ilk bor yirik asar nomiga olib chiqilgani alohida tahsin, tahlil va talqinga loyiq. Trilogiyani o'zbek tiliga tarjima qilgan Lola Tojiyeva, adibning boshqa asarlarini o'girgan Fathiddin Nasriddinov, Haydarali Niyozov kabi tarjimonlarning ijodiy tajribalari xususida ham aytaversak gap ko'p. Gapning qisqasi shuki, "Qoraqalpoq qizi" dilogiyasidan keyin bu jafokash xalqni jahonga yanada kengroq tanitgan mazkur asar, shak-shubhasiz, Muxtor Avezovning "Abay yo'li" tarixiy tetrologiyasi, Oybekning "Navoiy" tarixiy romani va Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasidan keyingi ulkan voqea, faqatgina qoraqalpoq adabiyoti emas, butun mintaqa xalqlari adabiyotiga taalluqli ijodiy yutuq bo'ldi. Bu asar atoqli qozoq adiblari Ilyos Esenberlinning "Ko'chmanchilar" tarixiy tetrologiyasi bilan Abdujamil Nurpeisovning "Qon va ter" tarixiy trilogisi tajribalarini ijodiy rivojlantirib, butun bir xalqning bir necha asrlik tarixiy taqdirini keng epik miqyoslarda badiiy gavdalantirib berdi. Shuning uchun ham mazkur asarning rus tiliga tarjimasi 1984-yilda sobiq SSSR Davlat mukofoti bilan taqdirlangan edi. Mazkur asar bunday yuksak mukofot bilan taqdirlangan yagona tarixiy trilogiya ekani uning badiiy quvvati va tarixiy ahamiyati naqadar yuksakligini yaqqol namoyish qildi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ko'rinib turibdiki, "Qoraqalpoqnoma" roman-essesi To'lepbergen Qaipbergenovning ayni ijodiy kamolot pallasida, ellik olti yoshida yozib tugallanib, yorug'likka olib chiqilgan uchinchi ulkan nasriy asari hisoblanadi. Mintaqamiz nasrini jahonga tanitgan Chingiz Aytmatov, Abish Kekilboyev, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov kabi mashhur adiblarning asarlari va Mixail Bulgakov, Gabriyel Garsia Markes, Fozil Iskandar singari o'tgan XX asr jahon adabiyotining eng yorqin namoyandalari yaratgan mashhur asarlar, afsona-rivoyatlar asosiga qurilgani barchaga yaxshi ma'lum. To'lepbergen Qaipbergenovning o'zi ham "Qoraqalpoq dostoni" trilogiyasining birinchi kitobini shuning uchun "Mamanbiy afsonasi" deb nomlaganki, asarda xalq va uning qahramoniga xos tarixiy taqdir naql qilingan kichik bir afsona butun boshli romanga aylantirilgan edi. Lekin "Qoraqalpoqnoma" roman-essesi bu asarlardan, avvalo, shunisi bilan keskin farq

qiladiki, unga xalqning tarixiy taqdiri va milliy xususiyatlarini ayon ko'rsatuvchi jami yuzga yaqin (!) afsona-rivoyatlar "qalovini topib, zichlab" sig'dirilgan. Bu badiiyat durdonalarini muallif butun umri mobaynida to'plagan, o'rgangan, tashbeh o'rinli bo'lsa, baayni Imom Buxoriy bobomizga o'xshab, ularning saragini sarakka, puchagini puchakka ajratgan va eng saralarini asar hazmi ko'taradigan tarzda muayyan tartib-intizom, badiiy talqin va ilmiy tahlil bilan birgalikda joy-joyiga qo'yib chiqqan.

Muqaddimada mazkur asarning yozilish sabablari va nega shunday atalgani xususida mulohaza yuritar ekan, muallif kelgusida tildan tilga o'tib, o'ziga xos afsonaga aylanib ketishi muqarrar bo'lgan bir ijodiy niyatini bayon qiladi. Ma'lumki, musulmon xalqlari yangi tug'ilgan chaqaloqning qulog'iga azon aytib, o'ktam ovoz bilan "Sening isming falonchi!", "Sening isming falonchi!", "Sening isming falonchi!" deya uch marta xitob qiladi. Ko'zi ochiq tug'ilgan chaqaloqning tanglayini ko'tarish bilan birga uning qulog'ini shu tarzda "ochadilar" va o'zini o'ziga tanita boshlaydilar! Bu qutlug' an'anaga tayangan holda muallif ona xalqining o'zini o'ziga va jahon ahliga yaxshiroq tanitish niyatida "Qoraqalpoq qizi" dilogiyasi bilan "Qoraqalpoq dostoni" trilogiyasini yozgani, endi yozishga chog'langani "Qoraqalpoqnoma" roman-essesi mana shu yo'ldagi uchinchi xitob — uchinchi kuy, xalq nomi bilan atalgan uchinchi kitob, xalq haqida xalqona tilda bitilgan uchinchi bitik ekanini aytadi. Uncha-muncha yozuvchiga muyassar bo'lavermaydigan ajoyib ijodiy topildiq, uncha-muncha folklorshunos olimning xayoliga kelmaydigan o'ziga xos ilmiy kashfiyot bu! Xalqimizning "Xayr uchgacha" degan eng hikmatli gapi bilan "Uch og'a-ini botirlar" degan eng purhikmat ertagi bejiz yaratilmagan-da, axir.

Kelajakda biron qoraqalpoq yo o'zbek olimi To'lepbergen Qaipbergenovning mazkur "Qoraqalpoqnoma" roman-essesi bilan atoqli avar shoiri Rasul Hamzatovning "Dog'istonim" asarini qiyosiy tahlil qilib jiddiy bir ilmiy tadqiqot yaratishi mumkin va kerak deb o'ylayman. O'tgan asrdagi jahon adabiyotida sezilarli voqea bo'lgan bu ikki asar o'rtasida mushtarak va farqli jihatlar talaygina. Xususan, Qaipbergenovning ota-bobolari-yu ovuldosh-

lari aytgan hikmatli gaplar, xalqona ibora va naqllar, ayniqsa, afsona-rivoyatlar Rasul Hamzatovning otasi, shoir Hamzat Sadasa, yana bir shoir ovuldoshi Abutolib, boshqa ovuldoshlar aytgan hikmatli gaplardan oshsa oshadiki, zinhor qolishmaydi. Har ikki asarda muallifning ona xalqiga, ona xalqi yaratgan har bir hikmatli gap, naql va afsonalarga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbati yolqinlanib-yallig'lanib turadi. Ayni chog'da, shu hol ham shak-shubhasizki, "Dog'istonim" asarini o'qib, kitobxon bir paytlar "Avar xoqonligi"dek ulkan saltanat qura olgan qadimiy avar xalqi va umuman, Dog'istondagi jamiki tog'li xalqlarning tarixiy taqdiri xususida to'la-to'kis va yorqin tasavvur hosil qilolmaydi. Asar muallifida o'z paytida mavjud imkoniyatlar ham bunga keng yo'l bermagan edi, albatta. Lekin "Qoraqalpoqnoma" roman-essesini qoraqalpoq xalqining tarixiy taqdiri, milliy xususiyatlari, butun o'zligi o'ziga xos tarzda aks etgan badiiy qomus desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. "Dog'istonim" ona Vatanga, "Qoraqalpoqnoma" ona xalqqa bitilgan nasriy qasidadir. "Qoraqalpoqnoma" "Bilga xoqon bitigi" bilan "Kultegin bitigi"dan qolishmaydigan tarixiy bitik, xalq haqida bitik, xalq bitigidir.

Kamina keyingi o'ttiz yil mobaynida To'lepbergen Qaipbergenov yaratgan jami to'rtta yirik asarni o'zbek tiliga tarjima qilgan bo'lsam, bu to'rtala asarni ham o'ziga xos qomus deyish mumkin.

1993-yilda tarjima qilinib, 1995-yilda kitob sifatida nashr etilgan "Bobomga xatlar (Qoraqalpoqlar ikkinchi vatanlariga ko'chmoqchi)" badiasi ham o'ziga xos qomusiy asar. Orol fojiasining tub sabablari-yu mudhish oqibatlarini ochib ko'rsatuvchi, ota Orol bilan ona Amudaryo va Sirdaryo haqida to'la-to'kis ma'lumot beruvchi bu muxtasar qomusning ham tayangani-yu suyangani Orol bilan ikki daryomiz haqidagi har biri tilloga teng afsona-rivoyatlardir. Asrimiz boshlarida o'zbek tiliga tarjima qilingan "Sahro bulbuli" va "Ming tilloga baholangan bosh" tarixiy dramalari — bular ham Berdaq bilan Oydo's bobodek qoraqalpoq xalqining faxri-g'ururi bo'lgan ulkan tarixiy shaxslar, buyuk qahramonlarning insoniy qismatlari to'la-to'kis ochib ko'rsatilgan o'ziga xos badiiy qomuslardir.

Tarjimon sifatida, ayniqsa, ko‘z ochib ko‘rganim “Qoraqalpoq-noma” roman-essesi xususida yozaversam gap ko‘p, lekin afsuski, umr oz!

Bu o‘rinda asarning mazmun-mohiyatini kengroq tahlil qilish-dan o‘zimni to‘xtatib, uni uqib o‘qish shavqini o‘zingizga havola qilib, mazkur asar tarjimasi va nashrlariga doir ayrim xotiralarim bilangina o‘rtoqlashgim kelib turibdi.

1985–1986-yillarda o‘zbek tiliga tarjima qilingan “Qoraqal-poqnoma” roman-essesidek qomusiy asar ham o‘ziga yetgulik zahmat-mashaqqatlar bilan amal-taqal yo‘l ochdi. Mazkur asar tarjimasidan boblar 1986–1989-yillarda “Guliston”, “Saodat”, “O‘zbekiston ovozi”, “Yoshlik” singari ko‘pgina gazeta-jurnallar-da peshma-pesh e’lon qilindi. 1988-yilda romandan boblar “Sharq yulduzi” jurnalida yorug‘lik ko‘rgan zahoti, bir guruh chalamulla dindorlar xudosizlik avj nuqtaga ko‘tarilgan davr talabi bilan bitil-gan ayrim gaplarga qattiq tirg‘alib, muallif bilan tarjimonni dahriy-likda aybladilar. Xolbuki ana o‘sha “yangi tug‘ilgan dindor”lar-ning o‘zlari dahriy tuzum tarbiyalagan muallif bilan tarjimondan ming karra dahriyroq edilar. “Mevali daraxtga tosh otilar”, deydi ko‘pni ko‘rgan bilgamish xalqimiz. Xayriyatki, o‘shanda oradan salgina o‘tib, asarning o‘zbek tiliga tarjimasi Mahmud Koshg‘ariy nomidagi xalqaro mukofot bilan taqdirlandi. Rus tiliga tarjimasi esa Rossiyaning “Roman-gazeta” nashrida uch million nusxada nashr etildi. Bu ikki tarixiy voqea bahamjihat holda asar atrofida-gi har xil mayda-chuyda gaplarni pildir-pis qilib, unga keng yo‘l ochib berdi.

Ayniqsa, Mahmud Koshg‘ariy nomidagi mukofot “Qoraqal-poqnoma” roman-essesi va uning muallifiga juda-juda yarashadi. Atoqli shoirimiz Abdulla Oripovning Mirtemirga bag‘ishlangan “Karvon” she’rida “Siz bois o‘zbekcha yangragan edi Koshg‘ariy-dan qolgan til sadolari” degan quyma satrlar bor. Menimcha, bizning zamonamizda “Koshg‘ariydan qolgan til sadolari”ni o‘z asarlarida baralla yangrata olgan ikkita yozuvchi bo‘lsa, shulardan biri Mirtemir, ikkinchisi To‘lepbergen Qaipbergenov. “Qoraqalpoq-noma” asarini qadim turkiy so‘zlar, iboralar va hikmatli gaplar-ning o‘ziga xos xazinasi desak yanglishmaymiz.

Natija shu bo‘ldiki, 1990-yilda yumshoq muqova, gazeta qog‘ozida yorug‘lik ko‘rgan asar oradan atigi yetti yil o‘tib, 1997-yilda “Sharq” nashriyotida qayta chop etiladigan bo‘ldi. Qalin muqova, oppoq qog‘oz, go‘zal bezak! Ayniqsa, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning “Xalqona hikmatlar guldastasi” degan so‘zboshisi uzukka qo‘yilgan ko‘zdekkina bo‘lib yarashib turganini aytmaysizmi! Asar haqida o‘zbek tilida bitilgan ilk maqola edi bu!

Oradan o‘n ikki yil o‘tib, 2009-yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasida To‘lepbergen Qaipbergenov tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy anjumanda o‘z ma’ruzam bilan qatnashdim. Ma’ruzam matni “Sharq yulduzi” jurnalida “Ijodiy tajriba maktabi” degan maqola sifatida e’lon qilindi. 2012-yilda nashr etilgan “So‘z san’atidan saboqlar” kitobimda Asqad Muxtor, Ozod Sharafiddinov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov asarlari haqidagi maqolalar qatorida bu maqola ham “To‘lepbergen Qaipbergenov qiyofasiga chizgilar” sifatida nashr etildi. 2019-yilda nashr etilgan To‘lepbergen Qaipbergenovning “Tanlangan asarlar”i “Qoraqalpoqnoma” roman-essesi bilan boshlanib, kaminaning “Ijodiy tajriba maktabi” maqolam bilan yakunlandi.

Yaqinda muharrir ukam “Qoraqalpoqnoma” turkiy xalqlar adabiyoti yuz jildligida nashr etilyapti, shunga so‘zboshini moslab ixchamlashtirib bering”, dedi. Qarasam, asar haqidagi ustoz Odil Yoqubovning birinchi maqolasi yozilganiga yigirma to‘rt yil, mening maqolam yozilganiga o‘n ikki yil bo‘libdi. “Butun maqolani buzib-yorishga nisbatan yangi maqola yozganim ma’qul, buning xonasi yana keladimi-yo‘qmi!”, deb o‘ylab qoldim.

Ushbu asarning to‘rtinchi nashriga yozilayotgan so‘zboshi ustoz Odil Yoqubovning “Xalqona hikmatlar guldastasi” bilan o‘zimning “Ijodiy tajriba maktabi” mendan keyingi uchinchi maqola — uchinchi kuy bo‘lib qog‘ozga tushdi. Xudoning shu kunlarga omon-eson yetkazganiga ming qatla shukur!

Chiqargan xulosalarimdan biri shuki, besh nafar adibimiz Rabg‘uziy qissalaridan eng ko‘p ijodiy ta’sirlangan ekanlar. Bular Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Mirkarim Osim, Asqad Muxtor va To‘lepbergen Qaipbergenov. Ayniqsa, “O‘tkan

kunlar", "Kecha va kunduz", "Chinor" va "Qoraqalpoqnoma" romanlarini "Qisasi Rabg'uziy" asari bilan qiyoslab o'qigan har bir kitobxon bu asarlardagi ajib hamohangliklar va asriy an'analarimizga bog'liq o'ziga xos qonuniyatlarni dil-dildan his qila oladi, deb o'ylayman. Aminmanki, kelajakda "Qoraqalpoqnoma" asari yanada chuqurroq o'rganilib, mintaqamiz va butun jahon adabiyotida dunyoga kelgan boshqa mumtoz asarlar bilan qiyosiy tadqiq etiladi.

Kitobxonlikka davlat miqyosida ulkan e'tibor qaratilayotgan hozirgi paytda sizga maroqli o'quv va uquv tilayman, azizlar!

Otauli,
filologiya fanlari nomzodi

QORAQALPOQNOMA

Otang bolasi bo'lma,
Odam bolasi bo'l.
Xalq maqoli

O'zing haqingda yaxshi fikr aytsang, ishonuvchilar kam bo'ladi, yomon fikr aytsang, hamma ishona qoladi.
Monten

BIRINCHI QISM

So'zboshi o'rnida o'zimga o'zim bergan intervyu

Savol: Nima uchun gapni o'zimga intervyu berishdan boshlamoqchiman?

Javob: Inson umrining ma'nosi — mudom o'z-o'ziga hisob berishdan, o'z-o'zini tergab turishdan iborat. Ana shundagina odam kechmish-kechirmishlariga teranroq nazar tashlaydi. O'z taqdiriga teranroq nazar tashlash esa, xalq taqdirini teranroq anglash demakdir. Axir, har bir odam — xalq tarixini o'zida muayyan darajada aks ettiruvchi ko'zgu emasmi!

Xalqidan o'z ko'nglini ravshan etuvchi ziyo qidirmoqni ixtiyor etgan odam avvalo bunday ziyoni o'zidan topa olishi kerak. Kimki o'z uyining keng olam bilan birlashib ketishini istasa, olamning bir parchasini o'z uyidan topmog'i shart. Shundagina har bir tirik jon boshqa odamlar bilan, xalqi bilan, butun insoniyat bilan hamnafas bo'la oladi.

Odamning o'z-o'ziga savol berib, o'z savoliga javob qidirib yashashi bamisoli nafas olib, nafas chiqarishdek gap. Nafassiz tiriklik yo'q! Mening maqsadim — tevaragimni qurshagan odamlar bilan hamnafas bo'lish.

Savol: Ma'lumki, hozir axborot vositalari behisob. Shu bois ayrim yoshlar yigirmaga to'lib-to'lmay behad ko'p narsani bilgan, oq-qorani to'la tanib olgan, hatto charchab-toliqqan bir kayfiyatdaki, kitob o'qishni o'zlari uchun ortiqcha dahmaza deb hisoblay-

dilar. Qolaversa, qog'oz degani dunyodagi eng mushkul muammolardan biriga aylanib qoldi.

Odamni jiddiy o'ylab ko'rishga undaydigan yana bir holat: yaqinda matbuotdan Londonda antiqa katalog chop etilgani haqida o'qidim. Keyingi 400 yil (1556–1956) mobaynida Yer yuzida nashr etilgan barcha kitoblarning to'la ro'yxati jamlangan mazkur katalog 754 jilddan iborat bo'lib, 527 sahifalik har bir jildda 1340 ta kitob nomi tilga olingan. Bunga keyingi yillarda nashr etilganlarini ham qo'shib, har bir o'quvchini qanchadan qancha kitob kutib turganligini tasavvur qila olasizmi? Mana shunday bir vaziyatda yangi kitob yozishga qanday jur'at etish mumkin?!

Javob: Berdaq shoirning she'rlaridan norozi bo'lib yurgan xon bir kuni uni huzuriga chaqirtirib: "Seni dono deyishadi, shu gap rost bo'lsa, ayt-chi, dunyoda qancha odam yashaydi?" deb so'rabdi va o'zida aniq ma'lumotlar borligini ham eslatib: "Agar xato qilsang, kallang ketadi", debdi.

Shoir o'ylab o'tirmasdan: "Dunyoda bir yuz to'qson to'qqiz milliard bir yuz to'qson to'qqiz million bir yuz to'qson to'qqiz ming bir yuz to'qson to'qqiz odam yashaydi", deb javob beribdi.

— Noto'g'ri! Dunyoda ikki milliardcha odam yashaydi! — debdi xon qovog'ini uyub.

— Bilaman. Biroq siz odamzodning bir guruhinigina aytdingiz, men bo'lsam uchala guruhini qo'shib hisobladim, — debdi shoir.

— Qanaqa uch guruh?.. — deb ajablanibdi xon.

— Odamzod uch guruhga bo'linadi, — debdi buyuk shoir. — Bir guruhi — yer ostida yotibdi, ikkinchisi — hali tug'ilmagan, siz hisobini aniq aytgan uchinchi guruh esa, siz-u biz, barcha tiriklar, ya'ni, hukmdorlardan ro'shnolik va adolat talab qilguvchilardir.

Xon bu gaplarni o'ylab ko'rib, g'azabdan tushishga majbur bo'libdi.

Kitoblarning taqdiri ham, Berdaq shoir aytgan odamzodning taqdiriga o'xshab uch xil: bir guruhi hali mualliflar qalbida, ikkinchi guruhi yaratilishi bilanoq o'qilmasdan axlat qutisiga tashlanadi, uchinchi guruhi esa, tiriklarga safdosh-safardosh.

Kitob yozishga jazm etishdan avval oqibatini astoydil o'ylab ko'rish ijodkorning nafsoniyati, fahm-farosati, halolligiga bog'liq. Dunyoga kelgan kitobning taqdiri qanday bo'lishi esa... bu davrning, qolaversa, hamisha odil hakam — Vaqtning ishi!

Davr ushbu kitobimga uzoq umrni ravo ko'rgudek bo'lsa, umid qilamanki, u o'z ehtiyojini o'zi qondira oladi...

Yana: Esimda, bir paytlar onam ikkovimiz xolamning uyiga mehmon bo'lib borganmiz. Qaytishda xolam onamga kattakon tog'ora sovg'a qilgan edi. Onam: "Endi mushkulim oson ko'chadigan bo'ldi, ichida bir tandir nonning xamirini biryo'la qoraman", deb suyuna-suyuna olishga oldi-yu, biroq tog'ora unga qo'shimcha yuk bo'ldi. Sababi — piyodamiz, yo'l-yo'lakay mendek bir injiqning xarxashasiga chidashi — dam-badam meni ham ko'tarishi kerak. Ertakka o'lgudek qiziqmaymanmi, o'shanda onam meni alahsitish uchun, yetaklagancha ertak boshladi. Charchoqni ham unutib, halvillagan ko'ylagining etagidan mahkam ushlab olgancha, onamga ergashdim. Ertakka ko'ra, biz yashayotgan Yer yassi va keng. Uni bahaybat Ko'k ho'kiz shoxlarida ko'tarib turar ekan. Toliqqanda yerni bir shoxidan ikkinchisiga o'tkazarkan. Ana shundan yil fasllari o'zgarib, dam yoz, dam kuz, dam qish, dam ko'klam bo'larmish...

Ertak tinglab boryapman-u, o'zimcha shu Ko'k ho'kizdek qudratli bo'lishni orzu qilib, onam ko'tarib olay desa, ro'yxush bermay yonida pildirayman, onam dam-badam to'xtab, peshonamdagi terlarimni artadi. Goho tog'orani boshiga qo'yib, meni ko'taradi... Mana shunday ming mashaqqatlar bilan kun botarga yaqin ovulga yetib kelsak, ahvol chatoq: ovul yoqasidagi Cho'rtanboy soyida suv limmo-lim oqib yotibdi: Amudaryoning biron joyidan yana urib ketgan shekilli-da. Onam andak taraddudlandi: ortga qaytgani yo'l olis; yordam so'rab qichqirgani uyaladi. Sababi baqiroq ayollarni ovulimiz oqsoqollari xush ko'rishmaydi. Kechib o'tayin desa — soy chuqur. Bir payt, tog'orani suvga soldi. Uning niyatini tushunib, qo'rqqanimdan to'qayga qarab qochgan edim, onam ikki hatlab quvib yetdi-da, meni dast ko'tarib olib kelib... tog'oraga o'tqazdi. Ikki qo'limni majburan tog'oraning gardishiga bosib, mahkam ushlashimni buyurdi va soy sathida

asta-sekin itara boshladi. Men vahimadan dag‘-dag‘ titrab, tog‘oraning ichiga qapishib olib, uning gardishini changalladim. Onamdan ko‘zlarimni uzmayman. Go‘yo onam ertakdagi Ko‘k ho‘kiz, o‘zim o‘tirgan tog‘ora esa, Ko‘k ho‘kiz shoxlarida ko‘tarib turgan yerdek, har qadamda bir chayqalib, ko‘nglimda goh yoz, goh kuz, goh qish, goh ko‘klam hissi hosil qiladi; dam titrab-qaqshayman, dam terlab-tepchiyman, dam allanechuk taskin-tasalli topgandek bo‘laman. Vahimani unutish uchun narigi qirg‘oqqa qancha qoldi ekan, deb, soyga qarayman: soy cheki-chegarasi yo‘q osmonga o‘xshaydi; yana onamga qarayman: ko‘zlari o‘rkach-o‘rkach qora bulutlar orasidan miltiragan qo‘sh yulduz misol menga jovdiraydi... Bir mahal, onamning oyoqlari yerga tegdi, shekilli, tog‘orani qo‘sh qo‘llab ko‘tardi-da, entika-entika bazo‘r nafas olar ekan: “Sere[1], qo‘rqmadingmi, bolam?” deb so‘radi.

Xavf-xatardan omon-eson qutulganimga ko‘zim yetib, botirligim tutdi. “Yo‘q, qo‘rqmadim”, dedim. Biroq ovozimdagi titroq o‘zimga ham sezilib turardi.

Onam ro‘molining bir cheti bilan yuzini artarkan:

— Sezdim, biroz qo‘rqding. Bundan keyin qo‘rqma. Onasi yonida ekan, bola hech nimadan qo‘rqmasligi kerak, — dedi.

Onamning bu nasihati xotiramga o‘chmas bo‘lib muhrlandi.

Vatanni onaga qiyoslashlari bejiz emas! Vatani borning tayanchi bor! Tayanchi bor odamga hech nima qo‘rqinchli emas!

Garchi ona Vatanim dunyo xaritasida bir paytlar meni suv ustida ko‘tarib turgan tog‘oradek mo‘jazgina bo‘lsa-da, u meni hech qachon, hech qanday vahimaga solib qo‘ymaydi.

Savol: “Qoraqalpoq qizi”, “Qoraqalpoq dostoni” romanlaridan keyin yangi kitobni “Qoraqalpoqnoma” deb nomlashdan maqsad nima?

Javob: Fikrimcha, bu savolga kitobning o‘zidan javob topiladi. Bu yerda... Ulkan to‘y tantanalarida shunday bir udum bor: ayollar qorilgan xamir oshib, tandirga non yopgunlariga qadar tamaddi qilish uchun uning bir uchidan cho‘qqa ko‘mma pishiradilar yo bir-ikki patir yopib oladilar. Erkaklar to‘yga so‘yilgan molning

[1] To‘ng‘ich bo‘lganligim uchun eski urf-odatga ko‘ra, onam o‘z ismimni aytmay, “Sere” der edi, “Sara”, “Asl” ma’nosida.

go‘shti ulkan qozonda pishguncha uning tezpishar joylaridan o‘tda qovurib yeydilar.

Xuddi shunday, kitobni o‘qib bitirguncha sabri chidamaydigan betoqatroq o‘quvchining ko‘nglida muayyan tasavvur hosil qilish uchun “xamir uchidan patir” keltirishim kerak bo‘ladi.

Xalqimizda chaqaloq tug‘ilganda ovulning eng tabarruk oqsoqoli kelib unga ism qo‘yadi. Biroq bundan ota-ona orzusi hisobga olinmaydi, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak, albatta. Ota-onalar, qarindosh-urug‘lar bilan maslahatlashiladi, kitoblar qaralib, chiroyli ismlar izlanadi. Bir ism hammaga ma’qul tushganidan keyin ovul oqsoqoli chaqaloqni oldiga olib, uning ismini uch marta qulog‘iga qichqirib aytadi.

Chaqaloq bu g‘aroyib qichqiriqni eshitib, chirillab yig‘ladimi — tamom!

Oqsoqol: “Mana, yangi mehmon o‘z ismini eshitdi! Endi bu ismni hech kim o‘zgartirolmaydi!” deya chaqaloqni ota-onasiga qaytarib beradi.

Kitobga nom qo‘yish odamga ism qo‘yishdan biroz boshqacharoq...

Ko‘cha biyi[1] *aytgan afsona:* Yer yuzida odamlar ko‘payishib, har xil qabila va urug‘larga bo‘linib yashay boshlaganlarida Alloh taolo ularni bir-birlaridan ajratib idora etish uchun bir qator nomlarning ro‘yxatini olib yo‘lga ravona bo‘libdi. Qaysi qabilaga borsa, ro‘yxatiga bir ko‘z tashlab olarkan-da, nom qo‘yib ketaverarkan. Har bir qabilaga nom qo‘yishda Parvardigorga xos o‘ktam tovush bilan uch marta: “Sening isming Ingliz! Ingliz! Ingliz!” yoki “Sening isming Rus! Rus! Rus!”, “Sening isming Fransuz! Fransuz! Fransuz!” yoxud “Sening isming O‘zbek! O‘zbek! O‘zbek!” deya olamga eshittirib uch marta jar solarkan. Nomini Alloh taoloning o‘z og‘zidan eshitganlarning sevinchi

[1] **Ko‘cha biyi** — har bir ovulda, har bir urug‘-aymoqda ko‘pchilik tarafidan saylangan yoki yuqoridan bo‘ladigan buyruqqa ko‘ra tayinlangan boshliqlardan tashqari, hech kim saylab yo tayinlab qo‘ymasa-da, shu ovulning yoxud urug‘-aymoqning hamma ishiga aralashib ketaveradigan, to‘y-ma’rakalarni boshqarishga uquvli, so‘zga chechan, aqlli odamlar bo‘ladi. Ular “ko‘cha biylari” deb ataladi.

ichiga sig'may, chug'urchuqday chug'urlashib, o'ynab-kulib qolaverisharkan.

Shunday qilib, Alloh taolo ro'yxatidagi hamma nomlarni tugatib qaytayotgan ekan, Amu degan daryoning dengizga quyilaverishdagi ikki sohilni makon tutgan bir guruh odamlarga ro'para kelib, to'xtab qolibdi va:

— Kimsizlar? — deb so'rabdi.

— Seni nom qo'yishga keladi deb kutib o'tirgan bandalaringmiz, — debdi ovul odamlari.

— Ro'yxatdagi bor nomlarni tarqatib bo'lgan edim, balki kattaroq bir qabilaga qo'shilib, ularning nomi bilan yashaganlaring ma'qulroqdir? — deb so'rabdi Alloh taolo.

— Sen bizni Yaratgan zotsan, hammani birdek ko'rguvchi Odil zotsan, Sendan o'tinchimiz — bizga ham alohida nom qo'yib ber! — debdi ovul odamlari bir ovozdan.

Parvardigor o'ylanib qolibdi-da:

— Oz bo'lsalaring ham o'taketgan o'jar ko'rinasanlar. Bosh kiyimlaringga qarab, hozircha Qoraqalpoq bo'la turinglar, — debdi.

— Nima desang rozimiz, ishqilib, bizning nomimizni ham boshqalardek uch marta qichqirib aytsang bas, nomimizni olam eshitsin! — deyishibdi yana ajdodlarimiz.

— Avval ro'yxatga nomlaringni yozmay turib olamga jar solib bo'lmaydi, — debdi Xudo.

— Qachon yozasan? — deb so'rashibdi bobolarimiz.

— Balki sizlardek unut bo'lganlar yana bordir, shuning uchun farishtalarimni qayta yig'ib, qo'shimcha nomlarning ro'yxatini tuzib chiqay, keyin yana aylanib kelaman, — debdi Xudo.

Ovul ahli: "Unday bo'lsa, mayli", deb rozi bo'libdi.

Xudoning yodidan faromush bo'libdimi, U qayta kelmabdi. Bobolarimiz ko'p kutishibdi, juda ko'p kutishibdi. Axiyri, Alloh taolo nomimizni qaysidir boshqa qit'ada yashovchilar ro'yxatiga qo'shib yuborgandir, degan ilinjda o'z nomlarini qidirib dunyo kezibdilar, ellardan ellarga o'tibdilar. Shunday qilib, Yevrop xalqlari ro'yxatida "Pecheneglar", "Chorniye klobuki" degan qo'sh nomlarni uchratib, "Ehha, bizning "Qoraqalpoq" degan

mi unutib, shunday nomlarni bervorgan ekan-da!" deya o'ylab ur-da, kim "Pecheneg!" deb chaqirsa ham, "Chorniye klobuki!" o chaqirsa ham, "Labbay!" deya javob berib yashayverishibdi. roq Xudo jar solib nom qo'ygan xalqlardek o'zlarini olamga mitolmabdilar.

So'ngra ular Osiyo xalqlari ro'yxatida bo'sh qolgan "Kulohi yoh", "Qalpoq", "Qora bo'rklilar" degan nomlarning borligini shitib, yana ortga qaytibdilar va kimda-kim shu nomlarning qaysi birini aytib chaqirsa, "Labbay!", "Men!" deya javob berib yura-werishibdi. Biroq bu ishdan ham biror natija chiqmabdi. Nomsiz yashash — noma'lum yashash! Xo'rlik-ku bu! Oxir-oqibat ular, garchi jo'ngina, tahqiromuz bo'lsa-da, har qalay, Yaratganning o'z og'zidan "Qoraqalpoq" degan nomni eshitgan qadimiy makonla-riga qaytib kelibdilar. Va endi makonlarini o'zgartirmaslikka ahd qilib yashayveribdilar.

Shunday qilib, bizning xalqimiz, nomi Xudo tomonidan qu-log'iga uch marta qichqirib aytilmagani uchun olamga noma'lum bo'lib qolavergan ekan.

Romanlarim nomlanishida xalq nomini uchinchi bor qo'llash-dan maqsadim xalqimga o'gay boladek qaragan (O'zi kechirsin!) Xudo o'rnida o'zim xalqimga bir farzand sifatida bu olamga "Qoraqalpoq!", "Qoraqalpoq!", "Qoraqalpoq!" deya uch marta bor ovozim bilan jar solmoqdir.

Savol: Bu kitobning yozilish uslubi siz uchun yangilik emasmi?

Javob: Xalqimizda "Kim o'z xatosini ikkinchi bor takrorlasa — adashgani, biroq yangilik yaratish yo'lidagi dastlabki xato — hali xato emas" degan naql bor.

Men shu naqlga suyandim.

Otam har safar: "Sen yangi uy qurmoqchi bo'lsang, yurt maqtagan uylardan kamida o'n ikkitasini ko'rib, shundan keyin-gina qurishni boshla. Biroq bu ulardan birortasiga taqlid qil, de-gani emas. Sen o'zingnikidan qolma, hech kimni takrorlama", deb nasihat qilar edi. Ko'cha biyimiz esa: "Agar sen sozanda bo'lishni xohlasang, qo'lingdagi dutorni huda-behuda ting'irlatavermay, eng yaxshi sozandaning torlari tarang, ovozi tiniq dutorini olib, o'n ikki pardasini birma-bir chertib ko'rgandan keyin, o'z duto-

2 - 22-319

JIZZAX DPU
INV № 149193
AXBOROT RESURS MARKA

ringdan kerakli ohangni topishga harakat qil", deb o'rgatardi. Bir paytlar suvdan qo'rqib qochganimni esidan chiqarmagan onam: "Agar sen yaxshi suzishni o'rganmoqchi bo'lsang, mashqni sayozroq suvdan boshla, biroq har safar tanangni suvga o'rgatish uchun o'n ikki marta sho'ng'ib ol-da, keyin suzaver", derdi.

Men quruvchi ham, sozanda ham, suzuvchi ham bo'lolmadim. Biroq har bir yangi kitobimni boshlar ekanman, ular aytgan nasihatlarga sodiq qoldim, Sa'diy, Monten... kabi ulkan so'z san'atkorlarining asarlarini, qadimgi dunyo va o'rta asr faylasuflarining har xil mavzulardagi risolalarini, "Ming bir kecha", "Qobusnoma" singari ko'plab o'lmas obidalarni el-yurt maqtagan yaxshi imorat namunalari sifatida takror-takror nazardan o'tkazdim. Ularning har birini torlari sozlangan, ohangi maftunkor dutor kabi qo'limga olib, avj pardalarini izladim. Ulkan mutafakkirlarning dengizdek teran hikmatlari olamiga sho'ng'ib, bu olamni o'zimcha bo'yladim.

Yoshligimda ota-onamdan, bobomdan, ko'p yashab ko'pni ko'rgan donishmand qariyalardan, ko'cha biylaridan, adabiyot muallimimdan eshitgan behisob hangoma va afsonalar, hikmatli naql va rivoyatlardan, birinchi murabbiyimning maslahatiga ko'ra tutgan kundaliklarimdan shu kitobda foydalanar ekanman, men ularni qurilajak yangi imoratning poydevori va g'ishtlari deb bildim. O'zim chertishga chog'langan dutorning torlari va ohang pardalariga aylantirish uchun harakat qildim.

O'sha asarlar umr aravamga qo'shiladigan yangi bir asov otni durustroq jilovlab, ko'ngildagi manzil tarafga qichab-yo'rttirishda menga ulkan madad berdilar.

Shu o'rinda yana bir holni eslatib o'tmoqchiman: kitobga kiritilgan afsonalar va har xil hangomalarni tarixiy haqiqat deb tushunmaslik lozim. Ko'pgina afsona va rivoyatlar dunyoda hali yozma adabiyoti shakllanmagan xalqlarning tinch-totuv yashash, yagona bir maqsad yo'lida birlashish uchun ayrim so'z ustalari tomonidan og'zaki ravishda yaratilgan adabiyotning bugungi kunga qadar yetib kelgan bebaho nuqralaridir. Men ularni o'zaro payvandlab, yangilikning qimmatini bo'rttiribroq ko'rsatish yo'lida foydalandim, xolos.

Umid qilamanki, zehn qo'yib o'qigan kitobxonga bu hol ayon seziladi.

Bir xalq boshqa xalq uchun yechilishi mushkul jumboq bo'lganidek, bir odam ikkinchi odam uchun ham mutlaq muammo, sirli bir dunyodir.

Qadimgi donishmandlarga ko'ra, muayyan xalqning kechmishlarini bilib olmoq uchun uning bir avlodiga xos qismatni to'laroq o'rganish ham goho yetarli. Xalqni tushunish uchun uning hamma vakillari bilan birma-bir suhbatlashish shart emas. Ba'zan birgina odam bilan gaplashish ham kifoya, chunki bir odamning boshqa birov bilan suhbati yechilishi mushkul ikki jumboqning juftlashuvi yoxud ikki qorong'u olamning birlashib zimistonga aylanishi emas, aksincha, juft jumboqning birvarakayiga yechilishi, yorug' olamga tushgan ikki soyaning daf'atan ikki chiroqqa aylanishi, insoniyat osmonida yangi juft yulduzning paydo bo'lishi! Shunday emasmi?..

Bu savolga roman-essening men tanlagan shakli, ishonamanki, to'la javob bera oladi.

1

Tibbiyotchilarning aniqlashicha, qirq beshdan keyin odamning ko'zi tobora xiralashaveradi. Mening ham ko'zoynak taqishimga to'g'ri keldi. Ko'zoynakning foydasi shuki, xuddi yoshlik chog'larimdagidek, mayda harflarni ham qiynalmay o'qiy oladigan bo'ldim. Shundan keyin ko'nglimda yana bir orzu uyg'ondi: "Bolalik chog'larimdan to bugunga qadar o'zim guvoh bo'lgan barcha voqea-hodisalarni bir chekkadan to'la-to'kis xotiramda qayta tiklay oladigan asbob bo'lsa ekan!.."

O'ylay-o'ylay:

— Yo'q! — dedim o'zimga o'zim. — Yoshligimni ko'z oldimda to'la gavdalantirishga qodir asbobning bo'lmagani yaxshi! Aks holda kishi yoshligida yo'l qo'ygan xatolari-yu nodonliklarini eslab, o'zi zamondoshlarining oldida uyalib, mulzam bo'lib qolardi. Qarilik ko'pchilik uchun uzoq umr yo'lining o'ziga xos farog'atli manziliga emas, ko'ngillarni hasrat, afsus-nadomatga

to‘ldiruvchi dahshatli qiynoqqa aylanardi. Axir, pushaymonga to‘la bir kun goho quvonchli haftalar, oylar, hatto yillarni yutib yuborishga qodir yuho emasmi!

Bunday yuholar qay birimizda yo‘q deysiz!

Axir, hammamiz ham tirik jon, xom sut emgan bandalarmiz-da!

Ekkaningni o‘rasan, deb uqtirardi otam.

“Puxta o‘ylamay ekilgan urug‘dan hosil olish u yoqda tursin, o‘sha urug‘ning o‘zidan ajrab qolishing ham hech gap emas!” derdi Ko‘cha biyimiz.

* * *

Asarlarim nashr etilib, yozuvchi degan nom qozona boshlaganimdan beri bir oshnam menga uch marta ro‘para keldi. O‘shanda har gal uning savollariga bergan javoblarim bot-bot esimga tushadi-yu, qattiq xijolat chekaman.

Dastlab uchrashganimizda o‘sha oshnam mendan: “Yozuvchi deganlari kim o‘zi?” deb so‘rab qoldi. Men: “Yozuvchi — ishchi, biroq oddiy ishchimas, ish kunini tugatgach, apil-tapil tamaddi qilib, o‘z xohishiga ko‘ra darhol ikkinchi ish kunini boshlab yuboraveradigan ishchi! Tanho, betinim ishlayveradigan ishchi, bilginki, yozuvchi bo‘ladi”, dedim.

Mendan boshqacharoq javob kutgan shekilli, o‘sha lahzadan e’tiboran oshnamning menga munosabati o‘zgardi-qoldi. Gohida uchrashsak, u o‘zini ziyoli, meni ishchi fahmlab, aql o‘rgatadi, har xil pand-nasihatlar qiladi...

Oradan bir necha yillar o‘tib, romanlarim matbuot sahifalarida maqtala boshlaganidan keyin, o‘sha oshnam oldimga kelib, muloyimgina bo‘lib so‘radi: “Qoraqalpog‘istonda nechta yozuvchi bor? ”

Men o‘ylab ham o‘tirmay: “Ikkita”, dedim. U: “Kimlar? ” deb so‘radi. Men: “Qaipbergenov va boshqalar”, dedim.

U ensasi qotibroq qaradi-da: “Maqtanchoq!” deb po‘ng‘illagancha nari ketdi. Oradan ko‘p o‘tmay, yo‘l ustida yana ro‘para kelib qoluvdik, salom-alikdan avvalroq so‘roqqa tutdi: “O‘sha ikki

yozuvchining qay biri zo‘r?" O‘ylab o‘tirmasdan javob berdim: "Albatta, boshqalar zo‘rroq".

Uning chiroyi ochilib, men bilan iliq xayrlashdi.

Goho o‘zgacharoq tasavvurda yurgan paytlarim esimga tushsa, endi xijolatdan yonib ketgudek bo‘laman...

Ammo bu olamda o‘tmishingni eslashdan ko‘rqib, kelajakdan noumid bo‘lib yashashdan yomoni yo‘q. Odammisan — odamligingni ayt, faqat rost gapni ayt! Kim boshqalarni aldamoqchi bo‘lsa, avvalo o‘zini aldabdi!

Ko‘cha biyining aytgani: — O‘mirbek laqqi begona yurt ko‘chalaridan qo‘shiq aytgancha o‘tib borayotgan ekan, o‘yinqaroq bolalar uni qurshab, tuya bosdi[1] qilishibdi. O‘mirbekning ularga kuchi yetmay, holdan toyib, o‘lar holga kelganida shumligi tutib:

— Bolalar, narigi ovulda bir saxiy ko‘ringan odamga etak-etak olma ulashyapti. Olmasi tugab qolmasdan borib olinglar. Keyin men bilan o‘ynayverasanlar, — debdi.

Bolalar gapga laqqa ishonib, qo‘shni ovul tarafga yugura ketishibdi.

Yolg‘iz o‘zi qolgan O‘mirbek ust-boshini qoqib, qo‘lini peshonasiga soyabon qilgancha, bolalarning ortidan bir muddat qarab turibdi-da: "Iye, men yolg‘on aytgan edim shekilli! Biroq mabodo yolg‘on bo‘lsa, shuncha bola ishonarmidi? Men ham olmadan quruq qolmay", deya o‘ylab, bolalarga ergashibdi...

"Yozganlariga, avvalo, o‘zi ishonmadimi, bunday yozuvchi kitobxonni ham ishontira olmaydi", derdi adabiyot muallimi.

* * *

Yoshligimda onamdan: "Odam uchun eng qiyin narsa nima?" deb so‘ragan edim, u darhol: "Odam uchun eng qiyin narsa boshqalardan aql o‘rganish", deb javob berdi.

O‘shanda javob menga ma’qul tushgan edi. Sababi kattalardan ko‘proq narsani o‘rganishga qancha urinmay, buni uddalay olmay qiynalib yurgan kezlarim edi.

---

[1] **Tuya bosdi** — bolalar o‘yini. Ko‘pchilik bolalar birgalikda o‘zlaridan kuchliroq bolani o‘rtaga oladi, ko‘plashib yiqitishadi.

Ulg‘ayib, o‘zim ota bo‘lgach, onamdan yana so‘radim: “Odam uchun eng qiyin narsa nima?” Onam bu safar ham darhol javob berdi: “Odam uchun eng qiyin narsa boshqalarga aql o‘rgatish”.

Bu javob ham menga ma’qul tushdi. Sababi o‘z bolalarimga ko‘p narsalarni o‘rgatay deyman-u, hech nimani o‘rgatolmay kuyib-yonib yurgan kezlarim edi.

Xo‘sh, bugun men uchun eng qiyin narsa nima?

“Qoraqalpoqnoma” degan nom qo‘yib kitob yozish.

Nega?

Birinchidan, hozir hamma aqlli. Nazarimda, hatto ko‘pchilik kimga aql o‘rgatishni bilolmay hayron-u sarson yuribdi. Bu kitob esa, yana nasihatgo‘ylikdan iborat bo‘lib qoladiganga o‘xshayapti. Ikkinchidan, xalqimning nomini ro‘kach qilib, o‘zim haqimda kitob yozayotgandekman.

Bas, shunday ekan, o‘zining ko‘rgan-bilganlarini boshiga sig‘dirolmay, qo‘shimcha bosh sifatida yon daftarchasini cho‘ntagida asraydiganlarda bu kitobga qanday ehtiyoj bo‘lishi mumkin?

Afsuski, ba’zilar o‘zlarini shunqor sanab, naq osmonni ko‘zlagani bilan, aqalli pashshachalik uchishni eplolmaydi! Goho bitta pashsha bir qozon oshni harom qilishi mumkinligini kim bilmaydi deysiz?

Og‘izdan chiqqan bir kalima odamni boshqalarga el qilishi ham, yov qilishi ham mumkin.

Odamlar bor — oqar daryoga o‘xshaydi: biri ikkinchisiga qo‘shilib, ummon hosil qiladi-da, ona zaminimizni yashnatadi.

Odamlar bor — biri itfe’l, ikkinchisi mushukmijoz. Ular uchrashganida bir-biriga hurpayishib, o‘zlariga ham, tevarakdagilarga ham kulfat orttiradi.

Otalar bor — farzandlar dong‘i uchun yashaydi, farzandlar bor —otalar shoni deb!..

Men-chi?

Yigirmanchi asrimiz favqulodda ziddiyatlar asri.

Birovlar qo‘shnisinikiga mehmonga chiqish uchun zirakka zor, birovlarni esa, ko‘ngli dunyoning yana qay burchini tusab qolar ekan, deb tovushdan tez uchar samolyotlar yo‘lida muntazir.

Birovlar bitta-yu bitta raqibini o'z izmiga bo'ysundirish uchun allaqaysi chakalakzorda o'q-yoy yasash bilan mashg'ul. Yana birovlar butun dunyoni yoppasiga o'z izmiga bo'ysundirish uchun atom va yadro bombalarini beto'xtov ishlab chiqarmoqda.

Bu hol har bir odamdan faol umr, teran mushohada, mustaqil, yangicha fikrlay olishni talab qiladi.

Biroq kitob yakkash hikmatli gaplar majmui bo'lsa ham qizig'i yo'q, sababi hayotga endigina qadam qo'yayotganlar bor...

Har bir odam o'z xalqining yorug' va qorong'u taraflarini o'zida aks ettiruvchi ko'zgu. Donishmand boshqalarning erkinroq yashashi, ertasiga ishonch ko'zi bilan qarashi uchun qanchalik purma'no rivoyatlar, afsonalar o'ylab topmasin, bu hali o'sha odamning xalq timsoli, o'z xalqining tili va dili bo'lishi uchun kifoya qilolmaydi...

* * *

Ellik yoshga to'lganimda do'stlarim yig'ilishib, yarim asr yashab qo'yganimni vaqtincha bo'lsa-da unuttirish uchunmi, uni ikkita yigirma beshga bo'lib, ko'ngil ko'taruvchi gaplar aytdilar. Men bu gaplarning samimiyligiga ishondim.

Ishonch birovni baxtli, birovni baxtsiz qiladi. Shaxsan men odamlarga ishonishni istayman. Agar kimdir bu ishonchimni poymol qilsa, fikrimcha, men emas, o'sha odamning o'zi baxtsiz!..

Baxt ham, baxtsizlik ham avvalo tansihatlikka, qolaversa, odamning fe'liga bog'liq. "Fe'liga yarasha" deganlari bejiz emas, axir!

Qo'rqoqlik baxtsizlik belgisi. "Qo'rqoqlik" deganda faqat o'lim yo sovuq qurol kabi "ko'zga ayon ko'rinib turgan" dahshatdan qo'rqishni tushunish xato. Nojo'ya gap aytishdan qo'rqish — chinakam dahshat mana shu! Xalqning "O'ylamay so'zlagan og'rimay o'ladi", degan ibratli maqolida naqadar ulkan hikmat bor!

Notavon ko'ngil, deydilar. Albatta, hech kim o'z ko'nglini notavon hisoblamaydi. Shunday bo'lsa-da, mudom nimadandir gumonsirab, xavotir olib yashaydi.

Kim bilsin, balki odamzod o'z ko'nglining notavonligini bilolmay armondadir?..

Mana, mening ko'nglimni ham gumon chulg'ab oldi: o'zimdan o'zim har xil shubhalarga boraman. Aytgan gapimga ishonmaydiganlar ko'pchilik emasmikin, deb xavfsirayman.

Uchinchi yigirma besh (chorak) cho'qqisiga oyoq qo'yarkanman, umr yo'limda birinchi chorak qanday o'rin tutgani haqida xayolga cho'mib, ko'rgan-kechirganlarim, quloqqa chalingan gaplar, ayrim xulosalarim, behisob afsus-attanglarim, oz bo'lsada o'zimga ko'pdek ko'rinayotgan ba'zi bir ish tajribalarimga asoslangan holda ko'nglimda yig'ilib qolgan gaplarimni ro'yi-rost izhor etsam, menga hamma ishonarmikin?

"Birovlarga o'z ovulidan chiqqan dononing og'zi sassiq tuyuladi", derdi otam.

"Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q", deb ko'p ogohlantirardi onam.

"O'z uyidan topilgan oltinning qimmatini biladiganlar kamdan kam", derdi Ko'cha biyimiz.

Agar inson umrini muhtasham binoga qiyoslasak, yigirma besh yoshdan nechtasini yashashidan qat'i nazar, dastlabki yigirma besh yil — shu muhtasham binoning poydevori, keyingi umri — to'rt devori-yu jihozlari. Ba'zilar uyni poydevor ko'tarib turishiga yetarli e'tibor bermaydilar. Ularni ko'pincha uy devorining pishiqligi, qanday jihozlar bilan bezatilgani qiziqtiradi. Bu holga havas qilib bo'lmaydi. Ko'p narsa poydevorga bog'liq.

Ko'cha biyining aytgani: Qoraqalpoqlar bir paytlar uy solganida ulsiz qurardilar. Agar poydevorlik uyni uchratib qolsangiz ham, diqqat bilan qarasangiz, u odatda xas-xashakdan yo changaldan, nari borsa qamishdan yupqagina, shunchaki devorni qiyshiq urib qo'ymaslik uchun to'shalgan nomigagina ul bo'lardi. Uyning o'ziga zeb berishga-ku, butun hunari, topgan-tutganini ayamay sarflayverardi. Qarabsizki, bir necha yil rosa bezatilgan uyda yayrab o'tirardi-da, oradan o'n yilcha o'tar-o'tmas poydevor nurab, uy egasini bosib qolgudek holga kelardi.

Men ayrim ijodkor ziyolilarimiz orasida, ayniqsa ularning asarlarida qoraqalpoqlarning uy qurish taomiliga xos alomatlarni,

ya'ni ulsizlik — tagzaminsizlikni sezgandek bo'laman. Bu albatta, afsuslanarli hol.

* * *

Taraddudlana-taraddudlana, nihoyat bu kitobni davom ettirishga o'zimda jur'at sezarkanman, avvalo ellik yoshga to'lgan kunimda sha'nimga aytilgan iliq gaplarning barchasini yana bir karra xayol elagidan o'tkazdim. Va shunga amin bo'ldimki, darhaqiqat, hozirga qadar qanday yaxshi-yomon ishlar qilgan, qanday kitoblar yozgan bo'lsam, ularning barchasi umrimning birinchi choragida o'zlashtirgan bilimlarim, o'qib-o'rganganlarim, ko'rgan-kechirganlarim, eshitgan-bilganlarim bilan bog'liq ekan.

Biroq bu holni ro'kach qilib birinchi yigirma besh yosh haqida batafsil gapirish tugul gapirishga chog'lanishning o'zi maqtanchoqlikka o'xshaydi.

Maqtanchoqlik — qarilik alomati.

Bunday deb keksalarni ranjitish ham to'g'ri emas. Qariyalar bo'lmasa, yoshlar o'zlarining yoshligini tushunmay, xuddi chiroqlari o'chgan shahar ko'chalarida qolgandek bo'lar edilar.

Otam aytgan afsona: Qadimda Eron va Turon podsholari o'zaro ixtilofda ekan. Ular o'rtasidagi nizolarga bosh sabab: har biri o'z podsholigining qonun-qoidalari, xalqining urf-odatlarini ikkinchi podsholikka ham tadbiq qilishni xohlar ekan. Biroq har ikki podsholikda bir xil taomil — nogiron tug'ilgan bolalar-u qariyalarni el-yurtdan olis sahroga oborib tashlash odati bor ekan. Chunki ular o'z qornini o'zi to'ydirolmaydigan odamlarni boqishni ortiqcha dahmaza deb bilarkanlar. Qaysiyam bir yilda ikki davlat o'rtasidagi nizolar keskinlashib, qattol urush boshlanibdi. Ikki tarafning ham kuchi baravar kelib, urush uzoqqa cho'zilibdi. Unisi hujum qilsa, bunisi chekinib, unisi qochsa, bunisi quvib, axiyri jang cheki-chegarasi yo'q sahroga kelib to'xtabdi. Ikki tarafning ham ahvoli tang bo'libdi, lashkarlar qultum suv topolmay bir chekkadan qirila boshlabdi. Oxir-oqibat, ikki podsho bir-biriga elchi yo'llab, urushni vaqtincha to'xtatish, suv topib jon saqlash maqsadida o'zaro maslahatlashishga majbur bo'libdi. Chor atrofga

chopar yo'llashibdi. Hech kim yaqin tevarakdan suv topolmabdi. Lashkarlar suvsizlikdan qirilib bitayozibdi. O'shanda Turon lashkaridan bir yosh navkar shoh oldida bosh egib:

— Shu atrofdan suv topish yo'lini ko'rsata oladigan bir odam bor, — debdi.

— Qayerda o'sha odam?! — deb so'rabdi podsho.

— Bir qoshiq qonimdan kechsangiz aytaman, — debdi navkar.

— Kechdim, ayt, — debdi podsho.

— O'sha odam mening otam...

— Qanaqasiga?.. Cho'lga oborib tashlamaganmiding? — debdi podsho ajablanib.

— Otam menga juda mehribon edi. Kichkinaligimda o'ta nimjon, nogiron edim. Otam meni orqalab o'stirdi, davolab, parvarishladi, sizga navkarlik darajasiga yetkazdi. Shu bois, qarigach, oldidagi qarzimni uzish uchun cho'lga oborib tashlamadim. Ixchamgina sandiq yasattirib, ichiga o'tqazdim-da, hozirgacha o'zim bilan birga orqalab olib yuribman. Sizning Eron podshosi bilan maslahatingizni aytuvdim, otam: "Men suv topib beraman, podsho huzuriga olib bor", dedi...

— Qani, sandig'ingni yerga qo'yib, tezroq ochsang-chi! — deb shoshiribdi podsho.

Navkar sandiqni ochibdi. Qordek oppoq soqoli ko'ksini qoplagan nuroniy bir chol sandiqdan chiqib:

— Bolaligimda shu sahroda jang bo'lgan edi. Bizlar yengilib, chekinayotganimizda, dushman foydalanmasin deb bir buloqni ko'mib ketgan edik, — debdi.

— O'sha buloqni hozir topa olasanmi? — deb so'rabdi podsho.

— Topa olaman, — debdi chol.

Podsho cholni bedov otga o'tqazib, yoniga beshta navkarini qo'shibdi. Chol qum ustida ot choptirib yura-yura, nihoyat, yonidagi navkarlarga bir tepalikni ko'rsatibdi-da: "Oching!" debdi. Tepalikning yarmi kavlanmasdanoq zilol suvli buloqning ko'zi ochilibdi. Butun lashkari bilan izma-iz yetib kelgan podsho bu najotbaxsh mo'jizadan benihoya ta'sirlanib:

— Keksalardan ajralish — aql-donishdan ajralish bilan baravar ekan. Bundan keyin kim qariyalarni cho'lga oborib tashlasa, boshi o'limda, moli talonda! — deya farmon beribdi.

Buloq suvidan Eron lashkarlari ham bahramand bo'libdilar.

Shu buloq boshida ikki yurt podshosi do'st tutinib, o'ylashib-kengashib, o'sha qariyaga mangulik soyabon hamda donishmandlik nishonasi bo'la oladigan, hech qachon rangi o'ngmas, hech qachon to'zmas chiroyli bir qalpoq in'om etganmish...

Odamlar yo'ldan adashmaslik uchun zarur yulduzlarning ikki turi bor: biri tun zulmatini yoritib, bepoyon osmonda charaqlab turgan tabiiy yulduzlar. Ikkinchisi ko'p yashagan, ko'pni ko'rgan qariyalar, der edi onam.

Adabiyot muallimining aytganlaridan: Keksalarga hurmat o'tmishga hurmat demakdir. Biroq g'arbiy Yevropadagi ayrim yoshlarning xatti-harakatlarida o'tmishga hurmatsizlik seziladi. Bu hol ko'proq Sharq adabiy merosini baholashda ayon seziladi.

Agar ona yerimiz bo'lmasa, koinot haqidagi tasavvurlarning o'zi qayoqda edi? Odamzod osmonga chiqish uchun ham yerdan quvvat oladi. Xuddi shunday, G'arbni Sharqning o'zi yaratmaganmi? Shu nuqtayi nazardan qarasak, o'rta asrlardagi va bugungi G'arb adabiyotiga Sharq klassik didaktikasi poydevor bo'lganini inkor etish behuda.

Vaqt o'tishi bilan har qanday chuqur quduqni ham davrlar pardasi qoplaydi. O'z paytida favqulodda teranlikka ega bo'lgan Sharq mumtoz adabiyotini quruq didaktika, shunchaki pand-nasihat deya inkor etish o'rniga bu adabiyotni Sharqning ko'p jabr-u jafolar, zulumotlarga to'liq olamni gullatib-yashnatish yo'lida avlodlarning yana adashib-uloqmasligi uchun qoldirgan xaritasi yoxud shamchirog'i sifatida baholash to'g'riroq bo'lur edi.

Hozirgi elektr nurlari shamchiroq shu'lalari ostida kashf etildi. Buni inkor etish hali fikri qo'nim topmagan bolakayning: "Meni onam emas, otam tug'di", deyishidek gap!

Nachora, har bir odamning dunyoga mustaqil o'ziga xos qarashini ham inkor etib bo'lmaydi.

Hatto qadrdon do'stim nega mendek o'ylay olmaydi deya uni ayblash ham insofdan emas.

"Alloh taolo o'z bandasini zulmatdan asragay", derdi onam har oqshom uyquga yotish oldidan. "Qodir Egam vaqtida tong ottirganiga ming qatla shukur", derdi momom tong-saharda uyqudan bosh ko'tara turib.

Odamzod uchun ikki quyosh bor: birinchisi tabiiy oftob, ikkinchisi ruhiy oftob, ya'ni, kitob. Quyoshsiz tiriklik yo'q! Kitobsiz tiriklar qalbini tag'in zulmat egallab olishi hech gap emas.

2

Ba'zilar: "Men falon kitobni o'qiy boshlagandim, uxlab qoldim", deb kitobning yomon yozilganiga ishora qiladilar. Menda esa aksincha: yotish oldidan qo'limga olgan kitobim yaxshi bo'lsagina yaxshi uxlayman, ya'ni yangi bir dunyoga kirib, o'zligimni unutaman-da, ertalab uyg'onganimda yuzimni kitob yopib qolganini ko'raman. Yotish oldida yomon kitob qo'limga tushib qolgudek bo'lsa, menda achinishmi, g'ijinishmi, ijirg'anishga o'xshash kayfiyat uyg'onadi-da, uyqum qochadi. Kitob-ku, oxirigacha o'qilmay qolib ketaveradi, biroq allamahalgacha uxlay olmayman.

Bu "injiq" fe'limni o'ylab, goho men o'z xayolim, o'z tasavvurlarim bilan boshqalardan ajralib, dunyoda tanho-yolg'iz qolgandek sezinaman. Bu holatdan dahshatga tushaman.

Odamni yolg'izlik ozdirib-to'zdiradi, deydi donolar.

Rostdan ham, yolg'izlikning turgan-bitgani azob. Hayotning turfa chigalliklari yodingizga tushadi. Bilib-bilmay yo'l qo'ygan xatolaringiz ortingizda qolgan chakalakzor emas, manzilingizni qoplab olgan changalzordek umringizni azobga qo'yadi, joningizni egovlaydi.

Ayni paytda tanho yotib yo tanho yurib o'y surishdan lazzatliroq hech nima yo'qdek. Butun yer kurrasini xayolan kaftingizga qo'ndirib, uning past-balandini, qayerida qanday ishkali borligini ko'rib, biron-bir hukm-xulosaga kelish erki o'zingizga beriladi. Albatta, bunday o'tkir ko'z hammada bo'lavermasligi mumkin.

Bo‘lgan taqdirda ham, hamma bir xilda ko‘ravermasligi tabiiy. Agar dunyoda yashagan jami odamlar olamning bino bo‘lishidan o‘zicha kam-ko‘st topib, uni to‘ldirishga ixtiyor qilganida yoxud ortiqcha dahmazalarni topib, ulardan xalos bo‘lishga chog‘langanida edi, yer kurrasi o‘ydim-chuqur emas, allaqachon tep-tekis bo‘lur edi.

O‘ylab qarasangiz, bu dunyoning kam-ko‘stlari son-sanoqsiz. Ammo ularni tuzataman deb yangi bir ishkal hosil qiluvchilar, ya’ni qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqaruvchilar ham yo‘q emas.

Har qalay, eng dahshatlisi dunyoga loqayd qarovchilar!

* * *

Yolg‘izlikda kechgan o‘y, ko‘p hollarda favqulodda qudratga, hatto dunyoni “ko‘tarish”ga qodir! Yer yuzini shov-shuvlarga ko‘mib, ne ajabki, goho tahlika-yu g‘ulg‘ulaga solib turgan turfa-tuman ilmiy kashfiyotlar yolg‘izlikdagi o‘ylardan tug‘ilgan; eng noyob, umrboqiy kitoblar tanholikda kechgan o‘ylar mahsuli — yakkalikda yozilgan.

Baxtga qarshi, dunyoni zir titratib, odamzod boshiga ne-ne ofatlarni boshlab kelgan qirg‘in-barot urushlar, mislsiz qon to‘kishlar ham avvalboshda jamoaviy o‘y-fikrlar mahsuli bo‘lmagan.

Agar hokimiyat tepasida turgan ayrim xudbin kimsalarning shaxsiy o‘y-rejalari amalga oshgudek bo‘lsa edi, dunyo ostin-ustun bo‘lib ketardi. Bunday taloto‘p zamonlarni ko‘hna tarix yaxshi biladi. Bu yorug‘ olamga mangu o‘chmas qora dog‘ solib ketgan shoxdor Iskandar Zulqarnaynning, yovvoyi Chingizxonning, qonxo‘r Gitlerning butkul dunyoni toptab, yagona hukmdor bo‘lish rejalari ham yolg‘izlikda surilgan xomxayollar mahsuli edi. Bunday paytlarda yolg‘izlikdagi o‘ylar tufayli hosil bo‘lgan muammoni yechishga, xudbin niyatlar bilan ko‘tarilgan qilich damini kesishga jamoat fikri kerak bo‘ladi.

Tanholikda tug‘ilgan o‘ylariga yolg‘iz o‘zining ko‘zi bilan qarab, boshqalar fikriga beparvo-loqayd bo‘lishga hech kimning haqqi yo‘q!

Onamning nasihatlaridan: Yolg‘izlikda miyangizga kelgan fikrlar goho ko‘lmak suv yuzasida bir ko‘rinish berib, qay-

ta sho'ng'igan aldamchi baliq, goho bulut ostidan bir miltirab, ko'zdan yo'qolgan yulduz. Ularning orasidan xalqingizga foydalisini, xalqingiz orqali insoniyatga keragini ajrata olish, amalga oshirish — o'zligingizni topishdagi o'ta mashaqqatli yo'l shu...

O'zligingizni topish yo'lida ayni paytda xayolingizga kelgan fikr — kasallikni arituvchi shifobaxsh giyoh, kech kelgan fikr — sog' taningizni yemiruvchi baloyi azim.

Bir qarashda oddiygina haqiqatlarni kech tushunib yetganligim sababli o'z umrimda qancha-qancha yutuqlarni qo'ldan boy bermadim!

Vaqtida foydalanilmagan fikrlarning qancha-qanchasi vaqtida ichilmagan qatiqdek achib-bijg'idi, ichilmay to'kildi!

Qariyalarning hangomalaridan: Umrida ko'p jabr-u jafolar ko'rgan Berdaq shoirning ko'ngil sandig'i zamona dardlariga to'lib ketsa, o'z chekiga tushgan dard-alamlariga tanish-bilishlari, do'st-birodarlarini sherik qilib, ularning ham ko'nglini cho'ktirmay qo'ya qolay deb dengiz qirg'og'iga borarkan-da, oq yolli to'lqinlarga termulgan ko'yi yo bo'lmasa, Amudaryo yoqasiga kelib, uning hayqirib oqishiga ko'z tikkan ko'yi shunday hasrat qilar ekan:

— Ey, jo'shqin daryo, menga yo'l ko'rsat, maslahat ber. Bu dunyoning ishlarini tushunolmay qoldim-ku! Birovlar ko'ngliga qarab ish qilsam, meni teskari tushunishadi. Ba'zida, endi teskari tushunsin, deb jo'rttaga chapaqay ish qilsam, bunisini shu turishicha tushunadilar. Agar adashsam, jo'rttaga adashyapti, deb o'ylashadi. Yaxshi ish qilsam, o'zini o'ylab qilyapti, deb gumonsirashadi. Men nihoyati shoirman, dunyoning yiqilmas ustuni emasman, axir! Men ham odamman-ku! Odamning o'zini o'zi idora qilolmay qoladigan paytlari ko'p bo'ladi. Mayli, meni kim qanday tushunsa, shunday tushanaversin, o'zimcha haqman, dunyoning haqligini tilayman, haqlik uchun qo'shiq yozaman, haqlik uchun ishlayman. Butun umrim haqqa, haqiqatga bag'ishlangan. Shunda ham bu dunyo bilan til topisholmay dog'daman. Nachora, ko'rgulik ekan, til topishar paytlar ham kelar-da...

O'zi haqida, yuragidagi eng ezgu, pinhoniy tuyg'ulari haqida baralla gapirish imkoni buyuk shoir yashagan zamonda yo'q edi,

albatta. Shu sababli ham tarixda ne-ne Berdaqlar "tushini suvga aytgan", "Iskandarning shoxi bor"ligini ko'ra-ko'ra, to'lib ketgan yuragini quduqqagina izhor etgan, xolos.

Shukur, bizning zamonamiz boshqacha. Bunga birgina yorqin misol: rassom Konenkov avtoportreti uchun o'z davridagi oliy mukofotga sazovor bo'ldi.

Har qalay, odam bolasining bir-birini to'g'ri tushunish yo'lidagi intilishi — abadiy hodisa!

* * *

O'zimdan ham o'zligimni, ham xalqimni topish uchun o'zim haqimda ochiq-oshkor fikr yuritishni astoydil istasam-da, baribir nimagadir ko'nglimni andisha, istihola hissi qamrab olaveradi. Berdaqning tilini tugik, o'zini tortinchoq qilib qo'ygan sabr-toqat, qanoat, andisha tuyg'ulari qonimda hali-hanuz yashab kelmayotganmikin? Yo nuqsonlarimni yurtga oshkor etishdan qo'rqamanmi? Xullas, nimadir yo'limda g'ov...

Balki bu "nimadir" o'zimni o'zim kam bilishimni boshqalardan yashirishning alomati bo'lib chiqar? O'zing haqingda gapirib, o'zing xatoga yo'l qo'yishing qanday oqibatga olib kelishi esa barchaga ayon.

Har qalay, ko'ngilga kelgan gaplarni vaqtida aytib xumordan chiqmoq kerak. Aks holda, odam bolasi aslida bepoyon bu olamda, cheksiz-chegarasiz kenglikda umr kechiradi-yu, o'zini xuddi eshiksiz-tuynuksiz, to'rt devor ichida qamalib qolgandek sezadi.

Onamning nasihatlaridan: O'z fikrining yo'qligi uchun donolar o'zini ayblaydi, nodonlar esa do'stini...

Donolik — yog'siz-piliksiz chiroq, u har qanday zim-ziyo zulmatda ham sizga yo'l topib beradi.

Nodonlik — og'ir ko'rgulik. U sizni kuppa-kunduzi jar yoqasiga yetaklaydi, sahrodayoq dengizga cho'ktiradi, dengizda esa qumga ko'madi.

Otam aytgan afsona: Qadim zamonda Buyuk Turon shohi qo'l ostidagi yurtlarga chopar yo'llab:

— Xaloyiq, menga Alloh taolodan vahiy keldi, kimning ko'nglida Xudodan ne o'tinch bo'lsa, kelib aytsin, men Parvardigor-

ga yetkazaman. Biroq bitta shartim ham bor: kim agar Xudoga o'z tilagini aytmoqchi bo'lsa, avvalo bir oyog'ini kestiradi, — debdi.

Bu g'aroyib shartga, tabiiyki, hech kimning yuragi dov bermabdi.

Oradan bir necha kun o'tib, nihoyat bir mard topilibdi. Shoh huzuriga kelib, shartga binoan uning ko'z oldida bir oyog'ini kestiribdi.

Shoh bu mard odamga ajablanib qaragancha:

— Qani endi, tila tilagingni? — debdi.

— Pushti panohimiz! Shu tilagimni Xudoga yetkazingki, Uning o'z bandalari uchun jannatni yaratganiga mingdan-ming qulluq. Biroq do'zaxini butunlay yo'qotsin! — debdi haligi odam.

Shoh miyig'ida kulib:

— Shu oqshom tilagingni Xudoga yetkazaman. Xotiring jam bo'laversin, do'zax manguga buzib tashlanadi, — debdi.

Mard odam bir oyog'i badaliga butkul odamzodga yaxshilik qilganidan mamnun: "Endi hamma mendan minnatdor bo'ladi, yo'limga poyandoz to'shaydi", deb o'ylab sevinchdan olamga sig'may, xirgoyi qilganicha uyiga qaytib borayotgan ekan, bir nechta yo'lto'sar duch kelib, nogironligini ko'rishlari bilanoq, o'rtaga olibdi va egnidagi butun kiyim-kechaklarini yechintirib ketishibdi. Haligi odam bu nohaqlikdan yurak-bag'ri xun bo'lib, bir muddat o'ylanib o'tiribdi... Keyin qahr-u g'azabga to'lib, shoh oldiga qaytib boribdi. Iltimos qilib ikkinchi oyog'ini ham kestirib tashlabdi.

— Tag'in qanday tilaging bor? — deb so'rabdi shoh, allanechuk qahrli ovoz bilan.

— Ikkinchi oyog'im evaziga Alloh taologa tezda yetkazsangiz, do'zaxini zinhor buza ko'rmasin! — debdi u.

Shoh beixtiyor iljayib kesilgan ikkinchi oyoqni hovlidagi itning oldiga tashlatibdi-da, bosh vazirini chaqirib:

— Shu bugundan e'tiboran mening do'zaximni ham tezroq qurib bitiringlar! — deb buyuribdi.

— Iye, sizning ham do'zaxingiz bormi? — deb so'rabdi mard odam.

— Qo'l ostimdagi tartibbuzarlarni, saltanatga qarshi turuvchilarni tashlaydigan zindon mening do'zaxim, — debdi shoh.

Shunday deb u xazinasidan sheroziy qora bo'rk oldirib, mard odamning boshiga kiydiribdi-da:

— Ko'nglimdagi ishni tezlatishga sababchi bo'lganing uchun mendan senga sovg'a, — debdi.

Biz, qoraqalpoqlar, ana o'sha ikkala oyog'idan ajragan odamning avlodi bo'lsak ajab emas.

Ayrim odamlarimizning uncha-muncha ishga dadil qo'l urolmay sabr-qanoat, boriga shukur qilib yashash kayfiyatlari bobokalonimizdan bizga qolgan meros bo'lsa kerak.

— Jabr ko'rganlar qatorida bo'lsang ham, jafo qilganlar qatorida bo'lmaganing yaxshi, — der edi onam.

— Og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi-da! — derdi otam.

* * *

O'zi haqidagi rost gapni tan olmaslik odamiylikdan emas. Men o'z umrimda juda ko'p xatolarga yo'l qo'ydim. Goho yozgan kitoblarim ham yo'l qo'ygan xatolarim bo'lib tuyula boshlaydi.

Agar men biron-bir ishda xatoga yo'l qo'ysam:

"Xatolardan keyin donolik keladi", derdi bobom.

Men bu gapga ishonardim.

"Beayb — Parvardigor. Xato qilish — yaratgan Egamning o'zidan boshqa barchaning peshanasida bor", der edi momom.

Men bu gapdan yupanardim.

"Xato qilaveradigan yigit — qoqilib-surinaveradigan ot, bunday ot bilan hech kim olis safarga chiqmaydi", derdi onam.

Men sergak tortib, endi xato qilmaslik uchun bel bog'lab, yeng shimarardim.

"Odam bo'lib tirik yurganingga shukur qilaver, bir amallab kun ko'raverasan", derdi otam.

Men shashtimdan tushib, bamaylixotirlikka berilardim.

Bunday paytlarda onam otamga tik qarab: "Bir amallab kun ko'rganlarning hammasi ham odam bo'lavermaydi", derdi.

Men o'ylanib qolardim.

Baribir xato qilishda davom etayotgandekman.

3

Afsuski, butun umri davomida tuzukroq uy qurolmay yo faqat poydevor qo'yish bilan, yo poydevorsiz chiroyli uy solish bilan mashg'ul ustalarning ishini eslatuvchi insoniy qismatlar ham uchrab turadi. Bundaylarning umri bolalikdan yana bolalikka qarab yo'nalgan, zoye ketgan, boy berilgan umr. Bunday umr ibrat emas, mevasiz daraxt, ishlatilmay so'rrayib qolgan quruq yog'och, yo'nilmagan tayoq. Bunday umr nafaqat odamning o'zi yoxud qarindosh-urug'lari uchun, balki butun insoniyat uchun ham, davr uchun ham isnod, fojea, yo'qotish...

Tirikligi uchun boshqalarni suyuntira olmagan odamning ko'rgan kuni chivinning ko'rgan kunidek bemazmun. Chivinning qanoti bor, biroq unga hamma jirkanib qaraydi. Odam bolasining eng ezgu tilagi hech kimga jirkanch ko'rinmaslik, ayanchli tuyulmaslik.

Bu dunyoda yoshlik bilan qarilik orasini ko'ngildagidek yashay olmaydiganlar, afsuski, ko'pchilik.

To'g'ri, rost gapni aytish — barcha davrlarda jasorat sanalgan. Biroq majruhni "majruh", cho'loqni "cho'loq", deb chaqirish o'taketgan nodonlik.

Ko'chamizda yashaydigan ko'zlari ojizroq bir qariyani bolalar "So'qir ota" deyavergani uchun u ko'chib qutildi.

Goho donoga nodon desang, miyig'ida kulimsiraydi. Biroq ahmoqqa nodonsan, deb ko'r-chi! Boshingga balo orttirasan.

Xatoyingni tan olish, yo'l qo'yilgan xatoying uchun boshqalardan uzr so'rash mardlik. Va yana, xatoni tuzatish donolik, takrorlash nodonlikdir. Takrorlangan xato — yurak jarohati, poyabzaling ultonidan nish chiqarib, tovonga qadaluvchi mix, bunday xato o'lganda tobuting ostidan ham mix bo'lib chiqaveradi.

Ko'cha biyining aytgani: Xorazmning zolim hukmdori Olloqulixon umrida ko'pgina begunoh odamlarni o'ldirib, hadsiz-hisobsiz gunoh-u zinolar bilan dong chiqargan ekan. Hech qachon hech kimdan kechirim so'rashni xayoliga keltirmagan xon bir kuni dardga chalinib, o'lim sharpasi ko'ziga ko'ringan paytdagina yuvosh tortib, dunyo bebaqo, toj-taxt bevafoligini tushunib

yetibdi. Biroq notavon ko'ngil, o'zidan keyin yomon ot qoldirmaslik ilinjida odamlarni to'plab: "Mening gunohlarimni kechiringlar, qazo qilsam, xonlar qabristoniga ko'minglar!" deya o'tinibdi. Tirikligida hech kimga bo'y bermagan hukmdorni odamlar xonlar qabristoniga olib boruvchi yo'lakka ko'mibdilar. Yo'lakdan o'tgan har bir odam qabrni tepkilab, bir tupurib o'tadigan bo'libdi.

Hozirga qadar Xivaga sayohatga borgan sayyohlar shu qabrni tepkilab, unga bir tuflaydilar.

"Umr bo'yi gunoh qila-qila, oxir-oqibat "so'figa aylanish"dan ortiqroq nodonlik yo'q", deya ko'p takrorlardi otam.

"Har qanday ishga qo'l urishdan avval oqibatini o'yla. Bu ishingdan boshqalarga zarar yetmaydigan bo'lsin", deb o'rgatardi onam.

"Yaxshi umr kechirayotgan bo'lsang ham, o'liming qanday bo'lishini o'yla. Buni o'ylamaslik xatoga olib keladi", derdi momom.

4

Yoshligimda qaysi qariyaning xizmatini qilmayin, barchasining duosi bir xilda bo'lardi: "Umring oftobday yorug' bo'lsin".

O'z vaqtida men bu duolarning ma'nosini teran anglab yetmay, "Yomon bo'lsa, nega Xudo tunni yaratdiykin?" deya ajablanardim.

Bundan ham ajablanarlisi:

"Tun yaxshi", derdilar qovun o'g'irlashga boradigan bolalar.

"Tun yaxshi", derdilar menga xat tashitadigan oshiqlar.

Keyinchalik tushundimki, keksalarning: "Umring oftobday yorug' bo'lsin", deganlari asli: "Hayotingda o'zingga sirdosh, jondosh-qondosh, gaplaringga chanqoq, qadrdon, dilkash suhbatdoshlaring ko'proq bo'lsin", degani ekan. Hayoting ham, ko'ngling ham oftobday charog'on bo'lishi uchun bunday suhbatdoshlar juda-juda zarur ekan.

Hatto notanish odam bilan suhbatlashishning ham gashti bor: yangi bir dunyo kashf etgandek bo'lasan.

Bu hikmatli gap umrimning hech qachon so'nmas yo'lchi yulduzi bo'lib qoldi.

* * *

Zamonga xos behisob imkoniyatlarni to'laroq ishga solib, do'st-birodarlarim bilan tez-tez gaplashib turay, yangi-yangi do'stlar orttiray, boshqalar ham men bilan do'st tutinsin, degan niyatda uyimga telefon tushirdim. Afsuski, men o'ylagandek bo'lib chiqmadi, uydagi hayot maromi tubdan o'zgardi-qoldi. Kutilmaganda telefon jiringlaydi. Bir seskanib, shosha-pisha go'shakni ko'taraman. "Kimsan?" so'raydi birov. "Men!", deyman. "Kimning uyi?" deydi. "Bizning uy!" deyman. "Ahmoq!" deydi-da, go'shakni joyiga qo'yadi. Sal o'tmay telefon yana jiringlaydi. Go'shakni shoshilinch qo'limga olaman, "Kimsan?" deydi. "Men!" deyman. "Men deganing kim?" "Qaipbergenovman!". Telefon yana uzilib qoladi. Birozdan so'ng tag'in jiringlaydi. Tag'in go'shakka quloq tutaman. Yana o'sha savol! Gapni cho'zmaslik uchun "Qaipbergenovman!" deyman. "Qaysi Qaipbergenov?"— deb so'raydi. "Qoraqalpog'istonlik Qaipbergenov" deyman. Yana "Ahmoq!" degan so'zni eshitishga ulguraman, xolos. Ko'p o'tmay, tag'in jiringlaydi. Yana o'sha savol: "Kimsan?" Bu meni boshqa biron Qaipbergenov bilan adashtiryapti shekilli, deb o'ylab, keyin-keyin, xuddi harbiy xizmatni o'tayotgan askardek, dam "O'rtoq Qaipbergenov eshitadi", dam "Laureat Qaipbergenovman", dam "Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi Qaipbergenovman", deya barcha unvon-u atoqlarimni qo'shib aytadigan bo'ldim. Baribir...

Bu holga ham ko'nikdim. Goho ishxonamda ham ba'zi bir nohaqliklarga toqat qilolmay, amaldorroq birovning kamchiligini yuziga ro'y-rost aytsam, xoliroq joyga chaqirib, dag'daga qiladi: "Kimsan o'zi?!" Boshqa bir vaziyatda ko'nglini topish uchun uning sha'niga iliq so'zlar aytsam, miyig'ida kulib, yana so'roqqa tutadi: "Menga yaxshi ko'rinmoqchimisan? Xo'sh, o'zing kimsan?.."

Bora-bora bu ahvolga ham ko'nika boshladim.

Bir gal jo'ralarimga ergashib begona odamning uyiga mehmonga bordim. Uy egasi gap orasida "Kimsiz?" deb so'radi. Men "Yozuvchiman!"dedim. U esa, hazillashibmi, ajablanibmi, ensasi qotibmi, shunday dedi: "Iye, men sizni odammikin, desam..."

Bunday dilxiraliklarga o'rin qoldirmaslik uchun, birov senga

"Kimsan?" demasidan avvalroq o'zing o'z oldingga shu savolni ko'ndalang qo'yib yashaganing ma'qul ekan.

"Men kuniga necha marta ostona hatlab tashqariga chiqsam, shuncha marta keng dunyoga qo'shilganim, necha marta ichkariga kirsam, shuncha marta uyimni bu keng olamga oshno qilganim", derdi otam. Shunday degan otam kim edi o'zi?

Qariyalarning hangomalaridan: O'zini mutlaq hukmdor deb bilgan Sulaymon podsho: "Kimda-kim mening xizmatimda bo'lib, buyruqlarimni bekam-u ko'st bajo etsa, o'sha odam tilagiga yetadi", deb yurtga jar soldiribdi. Boshlariga qora qalpoq kiygan bir guruh odamlar uning xizmatiga yeng shimarib borishibdi. Sulaymon podsho: "E-e, qoraqalpoqlar, mening birodarlarim!", deb ularni maqtab-maqtab ishlataveribdi. Qoraqalpoqlar uning maqtovlaridan shishinib, kun-u tun tinim bilmay ishlayveribdi. Och qolsalar "ochqadik" demabdilar, qahratonda "sovqotdik", saratonda "oftob urdi" deb zorlanmabdilar. Podshoning qo'l ostida yashovchi boshqa xalqlar esa, oldiga har xil talablar bilan bot-bot kelib, ishlarini bitirib ketaverishibdi. Sulaymon podsho ularning talablari bilan hisoblashib, ilm so'raganga ilm, boylik so'raganga boylik, mansab so'raganga mansab, unvon so'raganga unvon berib, og'zidan chiqqanini jag'iga yopishtirib o'tiraveribdi. Kun-u tun xizmatida yurgan qoraqalpoqlilar esa, hech narsa so'ramaganligi uchun podshoning marhamatidan chetda, shunchaki sodiq xizmatkor bo'lib qolaveribdilar. Bir kuni ularning boshlig'i Sulaymon podshoga: "Bizlarga erkinlik ber" degan ekan, podshoning qahri kelib: "Ko'ngli erkinlik tusab qolgan kimsan o'zi?", deb so'rabdi. Shu gapdan so'ng ular Sulaymon podshoning qo'l ostidan birin-sirin qochib, quyi Amudaryo yoqasidagi qalin qamishzorlar orasidan o'zlariga boshpana tiklab, kuni o'tganiga quvonib yashayverishibdi. Podshoning oldiga arz-dod bilan borishmabdi. Podsho ham kechagi sodiq fuqarosining holi ne kechayotgani bilan qiziqmabdi. Faqatgina ko'z oldida yurganlar bilan, oldiga tez-tez arz-u dod bilan kelib, har xil talablar qo'ygan chapdastlar bilan ish ko'rishda davom etaveribdi...

Mabodo shu xalq adolatsiz podshoga: "Bizga nisbatan bunday

adolatsizlik qilding, xo'sh, o'zing kimsan muncha?" deya qat'iy savolni ko'ndalang qo'yganida edi, u nima deb javob berardi? Albatta, savol tegishli javobsiz qolmasdi-ya! Ammo buning uchun ular, avvalo, o'z oldilariga "Biz kimmiz?" degan savolni qat'iy qilib qo'yishlari kerak edi.

* * *

"Kimsan?" degan savolni, avvalo, o'ziga o'zi qo'ya olmagan odam o'zgalarning javobidan qanoat hosil qilolmaydi. Chunki hali o'zini o'zi tushunib yetmagan odam boshqalarni qandoq tushunsin?!

Tushunmaslik ham, tushuntirolmaslik ham barcha nodonliklarning ibtidosi. Shu bois har bir odamning, avvalo, o'z-o'zidan "Men kimman?" deb so'rashi insoniyat bino bo'lgandan beri mavjud dastlabki savol deb qarash bilan birga bu savolni o'z oldingizga har kuni takror-takror qo'yib yashash kerak bo'ladi. Aks holda xatoga yo'l qo'yasiz. Xatolardan donolik tug'iladi, deya o'ylab ayni xatoni takrorlayverish esa, yuqorida aytilganidek, aqldan emas. O'z xatoyingizni eng avvalo o'zingiz kechirib qo'ya qolish ham odamiylikdan emas.

Bu savolga javob izlash yo'lida xatolardan butunlay xoli odamni topish qiyin. Shuning uchun boshqalar bilan muomalada ehtiyot bo'lish kerak. Ammo ehtiyot bo'lish bilan ish bitmaydi. Bu ish ko'r odamning oldinga qadam tashlashdan avval o'z yo'lini hassasi bilan paypaslayverishidek gap. Holbuki, ko'r-ko'rona xatti-harakatlar bilan xalqingizni tanimoq tugul o'zingizni o'zingiz tanishingiz ham mushkul. Xullas, inson umrining tub mazmuni — "Kimsan?" degan savolga durustroq javob topish. Buning uchun esa, g'oyat murakkab bu dunyoning kalava iplari chatishib-chigallashib ketgan xilma-xil yo'llaridan, avvalo, xalqingizning yo'lini ajratib olish, undan o'z so'qmog'ingizni topib yashash kerak bo'ladi.

"Kimsan?" degan savolga eng oson javob "Odamman!" deyish.

Biroq o'zingizning odamligingizga boshqalarni ishontirish uchun butun bir umr kerak bo'ladi.

* * *

...Bir qarashda, odamning o'zi haqida gapirishi ham, yozishi ham juda osondek. Aslida juda qiyin ish bu!

Osonligi — odatda odam o'zini shu qadar yaxshi biladiganga o'xshaydiki, hatto uni bu keng olamda o'zidan boshqa hech kim tushunmaydigandek, hech qachon tushunolmaydigandek tuyulaveradi.

Qiyinligi — odam o'zi haqidagi rost gapni hech qachon to'la-to'kis aytolmaydi: ba'zi hollarda bu andak noqulay tuyuladi, boshqa vaziyatda sir-asrorini o'zgalarga oshkor etishdan qo'rqadi, o'ziga oshiribroq baho beradi yoxud ko'nglidagi to'g'ri bahoni o'ziga munosib ko'ravermaydi, xullas, qiyin! Xalq haqida ham xuddi shunday.

Mana, bugun men ham "Kimsan?" degan so'roqqa ro'y-rost javob bergim keladi. Biroq gapni nimadan boshlashni bilmay hayronman.

Balzak o'zi haqida gapirgudek bo'lsa, ulug' odamga hurmat ma'nosida avval bosh kiyimini olib, keyin gap boshlar ekan. Albatta, bu ma'lum darajada mubolag'ali, hazilomuz naql. Ammo har qanday mubolag'ada yoxud hazilda haqiqat zarrasi bo'ladi.

"To'tiqush patlarining chiroyliligi uchun emas, odamlarning so'zini takrorlagani uchun qadrli", degan edi otam.

Holbuki kim to'tiqush bo'lishni xohlaydi?

Hech kim!

To'tiqushni gapirtirishga, butun olamni o'zgartirishga qodir kuch — odamning o'zi!

Lekin, har qalay, ba'zi odamlarning xatti-harakatlarini zehn solib kuzatsangiz, ularning "Kimsan?" degan savolga javob berishida o'zini maqtashga moyilligi seziladi. "Mana men!" degan xitoblar quloqni qomatga keltirgandek bo'ladi. Ayrim fahm-farosatliroq, mulohazakorroqlari esa, "Men!" degan nidoning ost-ustini andavalab tashlaydi.

Har qalay, "Men!" deya ko'ksiga uradigan ayrim manman odamlarni ayblashdan avval, o'z "Men"ini teranroq bo'ylash, unga sinchkovlik bilan chuqurroq nazar tashlash kerak bo'ladi. Bu ish odamning o'zi uchun ham, boshqalar uchun ham foydaliroq.

"Kimsan?" degan so'roqqa "Do'stlarga tayanchman!" degan

javobing bo'lsin", deb o'rgatardi onam.

* * *

"Attang, hayotda ichi po'k "tayanch"larning hali-hanuz topilib turishi odamni o'kintiradi-da", derdi otam.

"Inson uchun eng mustahkam, mangulik tayanch — xalqi", deb ko'p uqtirardi bobom.

Bizning xalqimiz makondan makonga darbadar kezish, o'z makonini yovdan himoya qilish yo'lidagi ko'pdan ko'p qirg'in-barotlar natijasida qirilib-kamayib, Orol dengizining toshqinidan hosil bo'lgan ko'lmak suvda yakkalanib qolgan baliqlardek oz bo'lsa-da, urf-odati, hayotdan umidi ko'p xalq. Unda ummon baliqlarining fe'l-atvori bo'lsa ne ajab! Xalqimiz ana shu fazilati bilan baxtli. U o'z farzandlari uchungina emas, barcha do'st-birodarlari uchun ham mustahkam tayanch!

* * *

Ota-onadan farzandga ba'zi bir xususiyatlar meros bo'lib o'tganidek, xalqdan uning har bir vakiliga ham ko'p fazilatlar o'tadi. O'z navbatida, ayni lahzalarda paydo bo'lib, xalqingizning kundalik turmushiga chuqur singdirish lozim bo'lgan urf-odatlar ham talaygina. Buning uchun har bir odam avvalo o'z xalqini anglashga intilib yashamog'i lozim.

Xalqda uning har bir vakilida alohida-alohida zuhur ko'rsatgan xarakter xususiyatlari mujassamlangan. Shu sababdan xalqni anglash uchun odamga butun bir umr kerak bo'ladi.

Muayyan xalqning boshqa xalqlardan farqli jihatlarini anglab yetish ham oson ish emas, barcha xalqlarga xos mushtarak fazilatlar sohibi bo'lish esa — har bir odam bolasi uchun eng ezgu niyat, muqaddas orzu, ushalmas armon...

Xalqlarning bir-biridan farqli tomonlarini anglash uchun avvalo chaqaloq yotgan beshikka diqqat bilan razm solish kerak bo'ladi.

Onam ukalarimni beshikka belar ekan, cho'chimasin degan maqsadda yostig'ining ostiga nonmi, kitobmi yo pichoqmi — nimadir qo'yardi. Bu narsalar bir paytlar mening ham yostig'im

ostida bo'lgani shak-shubhasiz. Onamning aytishicha, noni bor odamga balo-qazo tahdid solmaydi. Kitobi bor odamni xavf-xatar chetlab o'tadi. Pichog'i bor odamdan esa har qanday yovuzlik ham hayiqib turadi.

"Chaqaloqning boshiga tilla buyum qo'yib bo'lmaydi, — deya ogohlantirardi onam. — Bu yorug' olamdagi jamiki ofatlarning, janjal-nizolarning, qattol urushlarning asosiy sababchisi — kasofat oltin".

Menga nimagadir chaqaloq yostig'ining ostiga pichoq qo'yish odati ham yoqavermaydi. Hatto pichoqqa bag'ishlab she'r yozgan shoirlarga ham ko'nglimda ginam bor. Qancha maqtalmasin, pichoq — pichoq, uning birlamchi vazifasi nimanidir kesish, so'yish...

So'yish?..

Beixtiyor vujudingiz seskanadi!

Onamning nasihatlaridan: Sovuq qurol bilan faxrlanish botirlarning ishi emas, qo'rqoqlarning ishi.

Pichoq do'stlashtirmaydi, yovlashtiradi.

Pichoq tutgan odam bilan yo'ldosh bo'lsang, mudom hadikda yashaysan.

Qariyalarning hangomalaridan: Kunlardan bir kuni bekorchilikdan zerikib o'tirgan Xorazm xoni: "Merganlar musobaqasini o'tkazish kerak", deb yuboribdi. Uning og'zidan nima chiqsa, shuni muhayyo qiladigan vazirlari uch kun ichida xonlikdagi barcha mohir merganlarni Xiva qal'asiga yig'ibdi. Merganlar san'atini baholash uchun xonlikning nomdor odamlari qatorida Berdaq shoir ham chaqirtirilibdi.

Bu voqea kuz paytida bo'lgan ekan. Musobaqa sharti bo'yicha xon Xiva osmonidan qibla tarafga qaytayotgan g'oz yo oqqushlar galasidan qaysi bir qushni ko'rsatsa, merganlar ayni shunisini otib tushirishi kerak ekan.

Berdaqning elatidan borgan mergan: "Bir o'q bilan o'nta qushni otib tushiraman", deb maqtanibdi. Hamma hayron qolibdi.

— Qani, ot-chi! — debdi xon olisdan uchib kelayotgan bir gala g'ozlarni ko'rsatib.

Mergan uzoq ko'zlab turib otibdi. Oradan biroz vaqt o'tar-

o‘tmas, g‘ozlar galasi pitrab, birin-ketin yerga qulab tushaveribdi. Faqat ayrimlarigina galadan ajralib chiqib olis-olislarga qochib qolibdi.

— Shoir, elatingdan kelgan merganning g‘alabasi senga ham qutlug‘ bo‘lsin! Men bu merganni saroyga olmoqchiman! Ayt-chi, unga qanday mukofot berganim ma’qul? — debdi xon.

Berdaq merganga yaqinlashib: “Sen bir o‘q bilan o‘nta g‘ozni qanday otib tushirding?” deb so‘rabdi.

— Men miltig‘imga oddiy o‘q solmadim, yigirmatacha so‘na soldim. Ular qushlarga yetib borib, har ikkitasi bittadan g‘ozning ko‘zlarini chaqaverdi. Ko‘zlarini so‘na chaqqan g‘ozlar hech nimani ko‘rolmay, yerga qulab tushaverdi, — debdi mergan o‘z tadbirkorligidan g‘ururlanib.

Umrida xon oldida bo‘yin egmagan Berdaq shoir to‘satdan uning oyoqlariga bosh urib:

— Ulug‘ xonimiz, bu merganning jazosi o‘lim! — debdi.

— Nega endi?! Menimcha, bu mergan yangi bir ilm yaratgan-ku? — deb ajablanibdi xon.

— Bunday ilm bir kun kelib xalqimizning boshiga yetadi, sizdek ulug‘ xonning ham boshiga yetadi, — debdi shoir.

Buyuk shoirning o‘tinchlariga hech qachon quloq solmagan xon ajablanib yon-veriga qarabdi, jamoaning shoirni quvvatlab bosh chayqayotganini ko‘rib:

— Bu gaping yolg‘iz o‘zingning fikringga o‘xshamaydi-ku, shoir? — deya so‘rabdi.

— Shoir hamisha xalqning fikrini aytishi, hukmdorlar oldiga ko‘pchilik uchun zarur talablarni qo‘yib yashashi kerak, — debdi Berdaq.

— Atoqli shoirning tilagi bajo keltirilsin! — deb buyuribdi xon...

Onamning nasihatlaridan: Erta hammaning vaqti xushligiga sababchi bo‘lsang, bugun o‘zingning bir marta yig‘laganingga o‘kinma.

Ertaga bolalaringning tinch-osuda uxlashiga ko‘zing yetsa, uyqusiz, tunlaring uchun ham o‘kinma.

Insonning baxti o‘zining ham, o‘zgalarning ham farog‘atli umr

kechirishiga sababchi bo'lishida. Agar bu ish umringni talab qilsa ham, o'kinma!

Otamning nasihatlaridan: Odam o'zining odamligini bir lahzaga bo'lsin unutdimi, u o'z umriga zomin bo'libgina qolmay, insoniyat hayotining yashnab turgan daraxtiga tushgan qurtga aylanadi.

Odam biron joyga borgan mahalida, qayer o'zining munosib o'rni ekanini bilishi shart.

Taklifsiz to'rga o'tma, kamtar bo'laman deb o'zingga tegishli o'rinni har kimga bo'shatib beraverma.

O'z o'rningni xalqimning o'rni deb tushun. Uni qadrlash, avaylab-asrash, hamisha baobro' o'rin bo'lib qolishiga erishish mening ishim emas, boshqalarning ishi, deb bir chetda qo'l qovushtirib turgan farzand xalqidan ajraladi.

Xalq o'z o'rnini aqli raso o'g'il-qizlari orqali olamga ko'z-ko'z qiladi.

Dono farzand otasining ham, xalqining ham bo'sag'adagi o'rnini to'rga olib chiqadi.

Nodon farzand otasining ham, xalqining ham to'rdagi o'rnini poygakka tushirib qo'yadi.

* * *

"Qoraqalpoqnoma"ni yozib o'tiribman-u, nimagadir avvalo o'z umrim haqida o'ylab, o'zimni ko'zguda ko'rib turgandek bo'laveraman. Balzakka o'xshab Buyuk odamga (har qalay, Balzak o'zi orqali xalqining buyukligini nazarda tutgan bo'lsa kerak) hurmat deb, o'zim haqimda hangoma aytish oldida bosh kiyimimni olishga-ku, yuragim dov bermaydi-ya! Biroq, baribir, ming turli xayolga boraman. Mabodo o'zim deb xalqim haqida nomaqbul gap aytib qo'ymasmikinman, qabilidagi gumon iskanjasida qolaman. Bu notavon ko'nglim o'zini osmon chog'lamayaptimikin, deya xavotirlanaman.

"Mevali daraxtning shoxi pastga qarab egiladi", deyiladi xalq donoligida.

"Kamtarlik — donolarning nodonligi", der edi Ko'cha biyi.

Bobom bilan gurunglashganimda, har gal u: "Dunyoda o'zidan

iz qoldirishni niyat qilmaydigan odam bo'lmaydi", derdi.

Demak, mening ham niyatim shu kitob orqali o'zimdan, nachora, osmondan kelsam ham aytay, xalqimdan munosib bir iz qoldirish emasmi?

Muhimi — odamning o'z ortida qanday iz qoldirishidagina emas, zamondoshlari va kelgusi avlodlarning uni qanday tushunishida ham.

Ko'cha biyining aytgani: Amudaryoning quyi sohillaridagi to'qayzorlar orasida yashaydigan ovul odamlari kunlardan bir kuni o'zaro maslahatlashib:

"Tevaragimizda, daryoning narigi tarafida ham ovullar bormiyo'qmi, odam yuborib bilishimiz kerak. Agar bor bo'lsa, bordi-keldi qilishimiz kerak", degan ahd-u qarorga kelishibdi. Esemurod degan bir odam davradan otilib chiqib: "Bu ishni men bajaraman", debdi-da, yo'lga ravona bo'libdi. Ovuldoshlari unga yaxshi tilakldr bildirib, izzat-ikrom bilan kuzatib qolishibdi. Esemurod shu ketishda daryoning narigi tarafiga suzib o'tibdi. Bu yerda ham xuddi o'zlaridek odamlar borligini ko'rib quvonibdi. Ular bilan tanishib-gurunglashish ishtiyoqida ovul chekkasidagi bir uyga kiribdi. Bu uyning egasi Kenjamurod degan odam ekan. Esemurodning gaplarini tinglab-tinglab oxiri qo'ni-qo'shnilarini yig'ibdi-da: "Mana, ovuldoshlar, ovulimizga begona odam keldi, bu odam elni buzadi", deya vahima qilib, oxir-oqibat Esemurodni pichoqlab o'ldiribdi. Ovuldoshlari Kenjamurodni ovulning dono, tadbirkor himoyachisi fahmlab, unga tirikligidayoq loydan haykal o'rnatishibdi. Bir necha yildan keyin Esemurodning qanday halok bo'lganligini eshitgan elati: "Bizning ovulimizga do'st qidirib chiqqan birinchi dono edi", deb unga ham loydan haykal o'rnatibdi.

Albatta, har bir ovul o'zicha haq!

Tarixiy ma'lumotlardan: Magellan ekspeditsiyasi a'zolari 1521-yilda Filippin orollariga qadam qo'yadi. Ular Ispaniyadan yangi orollarni kashf etish maqsadida yo'lga chiqqan edilar. Biroq, Maqtan orolida yashovchi odamlar ekspeditsiya a'zolarini bizni qirib tashlashga kelgan dushmanlar, deb o'ylab, Lapulapu ismli yo'lboshchilarining buyrug'iga ko'ra, ularga qarshi urush

ochadilar. Bu jangda Magellan o'ldiriladi. Lapulapuga haykal o'rnatiladi. Mana shu Lapulapu haligacha maqtanliklarning vatan himoyasi yo'lida jon bergan dastlabki qahramoni sifatida hurmat bilan tilga olinadi.

Har bir inson o'zining ezgu niyatlari va oliyjanob ishlari bilan xalqining qismatiga, tarixiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi tabiiy hol. Shu sababdan ham ko'hna donishmandlar: "Har kim o'z o'rnida xalq", deya takror-takror uqtirganlar.

Bobomning nasihatlaridan. Har bir odam ertalab ishga ketayotib o'ziga o'zi "Kimsan?" deb so'roq qo'ysa, kechqurun uyquga yotishda "Bugun sen kim bo'lding?" desa, bunday odamdan o'ziga ham, xalqiga ham, insoniyatga ham ziyon-zahmat yetmaydi.

Odam uchun eng a'lo fazilat — o'ziga ziyon-zahmat yetkazmagan hech bir jonzotga jabr qilmaslik.

Har inson o'z xalqining bir jigarbandi. Har insonga o'z xalqi — tiriklik baxsh etuvchi qon tomiri.

Agar kimdir birovga jabr-zulm yetkazishga chog'lansa, u bir xalqning jigarini ezgani.

* * *

Odam bolasining o'z o'tmishiga ahyon-ahyoda bir nazar tashlab olishi tepadan pastlikka yoxud yorug' joydan qorong'ulikka qarashi emas, bo'y-bastini to'la-to'kis ko'rsatuvchi ko'zguga qarashdek gap. Ko'zguning qiyshiq ko'rsatadigani ham, to'g'ri ko'rsatadigani ham bo'ladi. Muhimi ko'zguning qandayligini, avvalo, o'zing yaxshi bilishing kerak!

Olam bino bo'lgandan beri odamlarning biri ikkinchisi haqida gapirish odati bor. Afsuski, ko'pincha biri ikkinchisidan kamchilik qidiradi. Agar har kim avvalo o'zidan kamchilik, o'zgalardan fazilat axtarib yashaganida edi, dunyo allaqachon yaxshilar ko'nglidagidek go'zal bo'lardi.

Yaxshilarsiz birlik yo'q. Har qanday guruhda yaxshi odam bo'ladi. Kurramizning o'z o'qidan toyib ketmay bir maromda aylanishi, osmonning yerga qulab tushmay, joyida turgani ham yaxshilarning sharofatidan.

Ishqilib, har bir odam o'z umr yo'liga nazar tashlasa, goh

uzun, goh qisqa yozilgan so'zlardek qadamlarni, goh bejirim, goh qing'ir-qiyshiq, goh o'qlog'dek-o'qlog'dek, goh chumoli izi harflardek qadam izlarini ko'rishi shubhasiz.

Bu qadamlar, bu izlar uning umr narvonidagi pillapoyalardir. Qay bir pillapoyada o'zini bardam sezdi, qay pillapoyada tizzasi qaltiradi, qay bosqichda kimga suyandi, qay bosqichda yiqildi — bunisini avvalo har kimning o'zi aytishi kerak. O'zingiz haqdagi haqiqatni bo'yab-bejamasangiz, tevaragingizdagi baholovchilar ham yanglishmaydilar.

Ba'zilarning umr yo'lidagi adashuvi o'zini bu dunyoning ustuni deb xayol qilishida. Boshqalarning adashuvi to'ysa, o'zini hech qachon ochqamaydigadek, ochqasa hech qachon to'ymaydigandek sezishida. Yana birovlarning adashuvi kimgadir yoshlik, kimgadir qarilik manguga berilgandek tuyulishida.

Qariyalarning hangomalaridan: Qadim zamonlarda qaysidir xonlikning atoqli polvoni bo'lgan ekan. Xon uni maqtab-maqtab, hech qachon uylanmasdan polvonlik qilaverishi uchun: "Uylansang, kuching qolmaydi", deb ishontiradi. Maqtovsuyar polvon mutlaqo uylanmaslikka ont ichadi. Do'st-birodarlari ahdidan qaytib, uylanishni maslahat beradilar. U maslahatlarga quloq solmaydi. "Kuchimni o'zimda saqlab qolaman", deb ahdida qattiq turib oladi. "Xonga bergan noma'qul va'dangdan qayt", degan do'stlarini quvib yuboradi. Ana shunda bolalik qadrdonlaridan nimjonroq bittasi polvonning oldiga kelib: "Yaxshi, polvon jo'ra, mayli, sen uylanmay kuchingni tanangda saqlayver, men sen bilan yigirma besh yildan keyin kurash tushaman" deydi. Polvonning ham qaysarligi tutib: "Yaxshi, yigirma besh yildan keyin sen bilan kurash tushib, suyaklaringni sindirmasam, o'zimning ko'zlarimni o'zim o'yib olganim bo'lsin", deb qasam ichadi. "Ko'ramiz, o'shanda seni yerparchin qilmasam, men ham o'z ko'zlarimni o'zim o'yaman", deydi nimjon jo'rasi. Ular shartlarini qog'ozga tushirib, xon huzurida ahd-paymon qiladilar.

Inson umridek tezoqar daryo bormikin sira! Ko'z ochib yumguncha yigirma besh yil ham o'tib ketadi. Shartlashilgan kuni, ularni xon huzuriga chaqirib, kurashni tomosha qilish uchun ko'p qur yig'adi. Soch-soqoli oppoq oqarsa-da, hali beli bukilmagan

Polvon, yo‘g‘on bilaklarini silab-siypab avvalgidek taltanglagancha maydonga chiqib keladi. Narigi tarafdan uning nimjon jo‘rasi ham alpqomat uch yigit qurshovida o‘rtaga chiqadi. U avvalgisidan ham nimjonlashgan, soch-soqoli oppoq oqarib, qaddi yoydek egilgan edi. Buni ko‘rgan polvon xoxolab kulib:

— Sochilajak suyaklaringni yoningdagi yigitlarga terdirish uchun ergashtirib kelyapsanmi? — deydi tegajoqlik bilan.

— Yo‘q, avvaliga sen mana shu yigitlar bilan kurashasan! — deydi nimjon.

— Nega endi?! — deb Polvon qahr bilan unga qo‘l uzatayotganida yigitlardan bittasi qo‘lini shappa ushlaydi.

— Qo‘yvor! — deydi Polvon.

— Nega qo‘yvorarkan? — deydi nimjon jo‘ra. — Sen xonning maqtoviga uchib: “Men kuchimni bo‘yimda saqlayman”, deb uylanmaganding. Men bo‘lsam uylanib, o‘z kuchimni yetti bolamga taqsimlab berdim. Haliyam to‘rttovini uyda qoldirib, kattaroq uchovini ergashtirib kelganim. Qara, ulkani yigirma to‘rt yashar, o‘rtanchasi yigirma ikki yashar, kichkinasi yigirma yashar. Hozircha shu uchovini yengib ko‘r-chi! O‘shanda meni yengganing!

— Yasha, azamat! Yutuq seniki! — deya guvranishdi odamlar.

O‘shanda Polvon afsus-nadomat bilan:

— Oh, g‘aflatda kechgan umrim-a! — deb peshonasiga qo‘sh qo‘llab urgan ekan, ikki ko‘zi oqib tushibdi...

Hayotda nimalar bo‘lmaydi, qanday o‘kinch-armonlar yo‘q deysiz!

Ayrim odamlarning boshidan kechirganlari kimgadir ertakdek, yana kimgadir mubolag‘adek tuyulishi mumkin. Ularni qanday tushunish, hayot saboqlaridan qanday ta’lim olish har kimning o‘z ishi, albatta.

Ko‘cha biyi aytgan afsona: Berdaqni xon o‘z huzuriga chaqirtiribdi-da:

— Bu dunyoda menga ko‘p narsa kulgili tuyuladi, degan ekansan. Xo‘sh, aytaylik, mening nimam kulgili? — deb so‘rabdi.

— Aldaganimni, tulkiligimni xalq tushunmaydi, deb o‘ylab qilgan qing‘ir ishlaringizning barchasi kulgili, — debdi shoir.

Xon uning bu oqilona javobiga tan berish o'rniga ich-ichidan zil ketgancha xayolga cho'mibdi-da, bir payt:

— Sen qanday odamlarni o'zingga dushman hisoblaysan?— deb so'rabdi.

— Xalqning yelkasiga o'tirib olib, men xalqni boshlab boryapman, degan odamni o'zimga dushman hisoblayman, — debdi Berdaq.

— Qanday dushmanlardan qo'rqmaysan? — deb yana so'rabdi xon.

— O'zimdan aqlli dushmanimdan qo'rqmayman. Aqlli dushman yengishiga ishonmaguncha meni behuda ovora qilmaydi, — debdi shoir.

Xon yana o'ylanib qolibdi-da, shoirga zarbof to'n kiydirib:

— Qalay, meni maqtasa arziydimi? — deb so'rabdi.

— Arziydi,— debdi Berdaq kulimsirab.— Biroq xon saroyi birovlarning patini yulib, boshqa birovlarga qanot qilib yopishtiriladigan joyligi avvaldan ma'lum.

— Ulug' xonimizga til tekkizma! — debdi laganbardor vazir. — Bir dono bosh mingta xumkallani xo'rlaydi.

— Rost aytasiz, — debdi Berdaq. — Bir aqlsiz boshning mingta dononi xo'rlaydigan paytlarini ham ko'rib yuribmiz...

Laganbardor vazirning jazavasi tutib, Berdaq shoirdan bu gapga dalil talab qilibdi.

— Ba'zi odamlarning nodonligi, — debdi shoir dangal, — o'zining nohaqligini yashirish uchun suvdan o't chiqarishga urinishida.

Vazir dovdirab, xonga qarabdi:

— Nodonlar umri bo'yi osmonga tosh otishadi, — debdi xon. — Biroq ular osmonga otilgan tosh o'z boshiga qaytib tushishini o'ylamaydilar.

— Ba'zi birovlar odamlarning boshiga chiqib oladilar-da, o'zlarini osmon sanaydilar. Biroq odamlar bir silkinsa, oyoqosti bo'lishlarini o'ylab ko'rmaydilar, — debdi shoir.

Xon qahr bilan qovog'ini uyubdi.

Jallodlar Berdaqning boshi ustida qilich o'ynatishibdi.

Shoir ahvolining tangligini sezib, shunday tagdor gap qilibdi:

— Ulug‘ xonimiz, ijozat bersangiz, yana bir ko‘rgan-bilganimni aytib o‘lsam. Biz dengiz yoqasidagi qamishzorlar orasida o‘sganmiz. O‘sha yerda bir holning shohidi bo‘lganman: tunda qamishzorlar oralab yursangiz, kutilmaganda ko‘zingizga nimadir yaltirab ko‘rinadi. Oldiga yaqinroq borsangiz, qimirlaydi. Qo‘lingizga olib qaraysizki, nihoyati tilla qo‘ng‘iz ekan!

Shoir shunday debdi-da, xon bilan saroy ahli bu gapning mag‘zini chaqib ulgurguncha saroydan chiqib ketibdi.

Onamning nasihatlaridan: Dushmanining yo‘qligi odamning donoligini bildirmaydi.

“Mening dushmanim kim uchun, nima maqsad bilan yashayapti?” deya o‘zingizga o‘zingiz savol berib yashasangiz, umr yo‘lingizda pand yemaysiz.

Do‘stiga qarabgina emas, dushmaniga qarab ham odamning kimligini bilsa bo‘ladi.

Mehmonning oldiga tansiq taom qo‘ymasangiz ham, dasturxon ustida ochiq yuragingiz tursin. Bundan bisotingiz kamayib qolmaydi.

Xalqimiz saxiy. Ota-bobolarimiz: “Topgan-tutganingni mehmonning oldiga qo‘y, eng tansiq taomingni mehmonga ilin, mehmon otangday ulug‘, kabi ko‘p hikmatli nasihatlar qoldirganlar. Afsuski, ba’zilar bu yaxshi taomilni o‘zlaricha talqin qilib, laganbardorlik yo ta’magirlikka aylantirib yuborishlarini ham sezib qolasizki, bu achinarli holdir.

Har qanday urf-odat odamning kiygan to‘niga o‘xshaydi: to‘zsa yangilaysiz, biroq kimdir to‘zmagan to‘nini o‘zgartirmoqchi bo‘lsa, u avvalo o‘z uyidagi odamlarga jabr qiladi.

5

Har bir odam boshidan kechirganlarini xotirlar ekan, o‘z zamoni, muhiti, tevaragidagi odamlarni nazarda tutgan holda, hayotida ro‘y bergan xush yo noxush onlarni ular bilan uzviy bog‘liqlikda baholashga harakat qiladi. Mening otam yo bobom bolalik chog‘larini eslab, ko‘p narsalardan o‘kinsalar-da:

— Bizning yoshligimiz qancha og‘ir bo‘lmasin, har qalay, sizlarni baxtiyor kunlarga yetkazgani uchun quvonamiz, — dedilar.

Bugungi kunda men ham bolalarim hayotini o‘zimning bolalik hayotimga qiyoslab, bu ikki o‘rtadagi yer bilan osmondek farqni ko‘rib, ko‘nglim dam faxrga, dam iztirobga to‘ladi. Bu, albatta, 1941–1945-yillardagi urush barcha tengdoshlarim qatori mening ham qalbimga solgan o‘chmas jarohatlarning izi. Lekin bu og‘ir bolalik yillari farzandlarimizga tinchlik-farovonlik baxshida etgani uchun bugun menga mutlaqo afsuslanarli tuyulmaydi. Otalar umri bizga, bizning umrimiz farzandlarimizga nechog‘li baxt-saodat olib kelgan bo‘lsa, bolalarimiz hayoti o‘z bolalarining yanada nurafshonroq hayotiga poydor bo‘lishini qaysi ota-ona orzu qilmaydi deysiz! Har bir ota-ona kelajak uchun yashamaydimi, axir! Biroq, afsuski...

Ko‘cha biyining aytgani: Ovulimizdagi bir beva ayolning yolg‘iz o‘g‘li bor edi. Urushqoqroq bola edi. Bir kuni kim bilandir mushtlashib, burni pachoqlanib keldi. Ona arzandasini tezda do‘xtirga ko‘rsatgan ekan, do‘xtir unga: “O‘g‘lingizni puchuqlikdan qutqara oladigan yagona yo‘l tog‘aylari butun boshqa burun qo‘yish”, debdi. Kim unga o‘z burnini beradi? “Mening burnim bo‘ladimi?” deb so‘rabdi bechora ona do‘xtirdan. “Yaxshi bo‘ladi, hatto o‘g‘lingizga boshqa burun o‘rnatilgani ham bilinmay ketadi, husni ham buzilmaydi. Biroq o‘zingiz-chi?”, debdi do‘xtir. Ona: “Meni qo‘yavering, bolamni isnoddan qutqarsangiz bas”, deya yalinib-yolvorib jarrohlik stoliga yotibdi... Bolaga onasining burni yaxshi bitib, xuddi hech nima ko‘rmagandek shifo topib, kasalxonadan qaytibdi. Biroq mushtipar ona puchuq bo‘lib qolibdi. O‘g‘lini tarbiyalab qatorga qo‘shibdi. Bolasi er yetib, uylanmoqchi bo‘libdi. Mana shunda arzanda o‘g‘il: “Qizlar puchuq onamdan jirkanib menga tegishni istamaydi”, deb o‘ylab, onasini uydan haydab yuborishning payiga tushibdi. Bu ayol bir kuni menga ko‘rgan-kechirganlarini aytib:

— Uydan bosh olib ketardim, biroq ovuldagi ko‘rgan-bilganlar o‘g‘limga: “Sen o‘z onasini uydan haydagan onabezorisan”, deb qizlarini bermay qo‘yishidan qo‘rqaman, — dedi.

Men unga qanday maslahat berishni bilmay o'ylanib o'tirgan edim, ayol o'z rejasini aytdi:

— Kindik qonim to'kilgan ovul ahli rozi bo'lsa, men o'g'lim bilan shaharga ko'chardim, — dedi.

— Bu arzandang seni shaharda xo'rlamaydi deb o'ylaysanmi? — deb so'radim.

— Bir gap bo'lar, — dedi ayol.

Oradan ko'p o'tmay, ular shaharga ko'chishdi. Keyinchalik eshitsam, ona bisotidagi bor dunyosini sotib, bolasiga uy olib beribdi. O'zi yaqin tevarakdagi odamlarning kirini yuvib yashayveribdi. O'g'li uylanibdi. Yosh oilada chaqaloq tug'ilibdi. Kelin-kuyovlar o'zlarining ota-ona bo'lganlaridan quvona-quvona, go'dakning chirqillab yig'lashiga toqat qilish u yoqda tursin, uni yer-ko'kka ishonmay, navbatma-navbat qo'llarida ko'tarib parvarishlay boshlabdilar. Biroq... Yosh onaning bola tarbiyalashda tajribasizligini bilgan puchuq kampir og'iz-burnini oppoq ro'mol bilan tang'ib, ularning uyiga kelibdi. Ish qidirib yurganini aytibdi. Yosh ona undan bolasiga enagalik qilishni o'tinibdi. Kampir rozi bo'libdi. Enaganing bolajonligidan mamnun bo'lgan beka bir kuni: "Boshqa ko'chadan qatnab yurguncha, bo'sh turgan xonaga birato'lasi ko'chib kela qoling", deya o'tinibdi. Kampir hali ularga og'iz-burnini ko'rsatmagan ekan, bu yerga birato'lasi ko'chib kelishi mumkin emasligini anglatish uchun ro'mol ostidagi burnining puchuqligini ta'riflabdi. "O'zingiz begona bo'lsangiz ham, onalik mehringiz hurmatga loyiq ekan, bundan keyin yuzingizni ochib yuravering", debdi beka. "Unday bo'lsa, avval ering bilan maslahatlash-chi, qizim, agar ering ham mendan jirkanmasa, mayli, ko'chib kelay", debdi.

Yosh ona eri bilan maslahatlashibdi. Yigitning ko'zlariga yosh quyilib, xotinining oldida boshini xam qilgancha bor haqiqatni aytib beribdi. Ana shundan keyin yosh ota-ona kampirning oyog'iga yiqilib kechirim so'rabdi. "Agar joni jonimizga payvand manavi jigarbandimiz biz qarib ayanchli ahvolga tushganimizda tashlab ketsa... bunday noinsoflikni hech kim ko'rmasin", deyishibdi.

Kampir jimgina o'tirgan ko'yi bir qo'li bilan o'g'lining, ikkinchi qo'li bilan kelinining boshini silabdi. Shu payt uyqudan

uyg'onib chirqillab yig'lagan go'dakka uchovlon baravar talpinibdi...

Bir-birini tanimaydigan begona odamlar orasidagi munosabatlar goho tushunarsiz bo'lsa, buning ajablanarli joyi yo'q. Biroq ona bilan farzand o'rtasida ham ro'y beradigan anglashilmovchilik dahshat! Dunyodagi jamiki kulfatlarning ibtidosi mana shu, axir!

Momomning nasihatlaridan: Ota-onalarning o'z bolalariga yaxshilik tilashi ularning donoligini anglatmaydi. Bunday tilagi yo'q ota-onaning es-hushi joyida emas. Biroq shunisiga hayron bo'lamanki, ba'zi ota-bolalarni ko'rib, nima balo, bular o'zaro dushmanmi, deb o'ylab qoladi kishi! Odam bolasi uchun bundan ortiq bedodlik bo'lmas!

Mabodo vijdoningizga xilof, nojo'ya ish qilsangiz, avvalo, xalqingizdan, qo'ni-qo'shnilaringizdan, ayniqsa, o'z bolalaringizdan qo'rqing!

Otam aytgan afsona: Qadim zamonlarda Mo'min ismli bir bechora durustroq ish axtarib ko'p ellarni keza-keza axiri qaysi bir yurtdagi xon saroyining oldiga kelib to'xtabdi.

Shu kunlarda xonning yolg'iz qizi xastalanib yotgan ekan. Tabiblar fikricha, qizning qoshidan jilmay, kun-u tun uning yuzini yelpib o'tira oladigan chidamli, ahdiga sodiq, xolis niyatli odam kerak bo'lib turgan ekan. Qancha tuhfa atalsa-da, bu mushkul ishga hech kimning yuragi dov bermay, yuragi dov berganlarning chidami-yu pokligi yetmay turgan ekan. Mo'min bu mushkul ishni bajarish istagini bildiribdi. Xon uni sinab, chidamliligi, niyati pokligiga ishonch hosil qilgach, qizining qoshiga o'tirishga ruxsat beribdi. U qizning boshida o'tirib, bir kun yelpibdi, ikki kun yelpibdi, uch kun, to'rt... yetti... Oradan bir yil o'tibdi, ikki yil o'tibdi, uch yil o'tibdi, qiz sira o'ziga kelmasmish. Qizning sog'ayavermaganidan kuyuna-kuyuna xon ham kasalga chalinibdi. Shunday qilib, xon o'limi oldidan: "Qizim, hushingga kelsang, yuzingni yelpib o'tirgan Mo'minga turmushga chiq, u mening o'rnimga taxtga o'tirsin, butun mol-dunyom ikkovlaringga nasib qilsin", deb vasiyatnoma yozib, xasta qizining ko'ksiga qo'yibdi. Mo'min vasiyatnomani ochib ham ko'rmasdan, avvalgidek qizni yelpib o'tiraveribdi. Oradan yana yetti yil o'tibdi. Kunlardan bir

kun Mo'min zarurat yuzasidan ko'chaga chiqibdi-da, eshik odida qo'l cho'zib turgan devonadan bir muddat qizning yuzini yelpib turishni o'tinibdi. U eshikdan chiqar-chiqmas, qiz kutilmaganda ko'zlarini ochibdi. Hushiga kelib, ko'ksida turgan vasiyatnomani ochib o'qibdi, O'qibdi-yu, o'zining necha yillardan beri behush yotganini anglab:

— Mening boshimdan hech qayoqqa jilmay yelpib o'tirgan senmisan? — deb so'rabdi devonadan.

— Ha, menman, — debdi devona.

— Unda men sening jufti halolingman! — deb, qiz devonani o'ziga tortib quchoqlab, o'pishayotganlarining ustiga Mo'min qaytib kiribdi.

— Ket, ket! — debdi devona, qizni undan qizg'anib.

— Ket! — debdi qiz ham devonaga qo'shilib.

Mo'min ular oldida bosh egib, bor gapni ayta boshlabdi, biroq qiz gaplarga ishonmay, tezroq shu yolg'onchidan qutula qolay, degan xayolda sovg'a deb boshiga qora qalpoq kiygizibdi-da, yurtidan badarg'a qilibdi... Bizlarga, bolam, aldanib-laqillab yashash, o'z mehnatimizning rohatini ko'rolmay yashash ota merosdek gap.

Momomning aytgani: Qaysi xonadon ahli o'zaro tinch-totuv, ahil yashasa, o'sha uydan qut-baraka, baxt-saodat arimaydi. Xuddi shuningdek, tinch-totuv yashagan el-yurt ham baxtli.

Tinch-totuv yashagan odamning umri uzun bo'ladi. Ko'p yashashdan ortiq baxt bormi sira! Shunday deyman-ku, biroq o'zim qatorilar o'lib ketib, meni tuproqqa qo'yguvchilar orasida umr yo'limni ko'rgan-bilgan, yaxshi-yomonligimni esga olib gapiradigan odam qolmasa, bunday uzoq umr xuddi qumga singgan yomg'ir tomchisiga o'xshaydi. Bunday uzoq umr o'z ovulingdan begona ovulga ko'chib borib yashashdek ko'ngilsiz.

Ishqilib, odam bolasining avvalo o'zini o'zi tushungani ma'qul. Ana shunda odam do'st-birodarlarini, xalqni tushunadi. Qarabsizki, odamzodni tushunishning tor so'qmog'i vaqti kelib, keng va ravon yo'lga tutashadi. Keng yo'l esa, odamni olislarga yetaklaydi.

Ba'zilar o'zini maqtay desa, boshqalarga erish tuyulishidan hadiksiraydi, boshqa birovni maqtay desa, hammaning darrov ishona

qolishidan xavfsiraydi. Mana shunday ortiqcha maqtovlardan-u behuda hadik-xavotirlardan saqlan, o'zingga o'zing zavol bo'lma.

Odamning ko'ngli nozik, guldan ham nozik!

6

Odatda har bir odam o'zining kimligini anglashga yo anglatishga chog'lanar ekan, gapni dastlab tug'ilgan kunidan boshlaydi.

Avvaliga men bu odatga zid ish qilmoqchi edim. Sababi, qachon, qayerda, qay sharoitda tug'ilganimning kimga qizig'i bor? Muhimi odam bo'lib yashash emasmi, axir!

Keyinroq bilsam, bu masalaga bir tomonlama qarash ekan.

Ilk bor ovuldan shaharga o'qishga otlanarkanman, pasport olish uchun tug'ilganligim haqidagi guvohnoma zarur ekan deng, guvohnoma uchun... qachon tug'ilganimni aniq bilish kerak bo'lib qoldi.

Ovul idorasiga bordim. Hujjatlarda tug'ilgan yilim ikki xil ko'rsatilibdi. Uyga kelsam, otam bir kunni, onam boshqasini aytadi. Bu sanalardan birida qat'iy to'xtash ham mumkin edi, biroq hech kim quruq gapga ishonib guvohnoma yozavermaydi. "Bolam, sen tugul otangning ham, mening ham tug'ilgan kunimiz noma'lum, biroq senikini aniqlaganimiz bo'lsin", deb bobom ko'nglimni xotirjam qildi-da, meni to'ppa-to'g'ri rayon ZAGS bo'limiga yetakladi.

ZAGS bo'limi binosining eshigini asta ochsam, bo'lim boshlig'ining qoshida yana bir notanish odam o'tiribdi. Unga qarab, ko'cha biylaridan biriga o'xshaydi, deb o'yladim. Eshikni qayta yopdim. Egnidan harbiy gimnastyorka tushmaydigan ZAGS bo'limining boshlig'i eshik ochilganida meni emas, bobomni ko'rib qolgan shekilli, ichkariga chaqirdi:

— Ha, ota, nevarangizga guvohnoma kerak bo'lib qoldimi? — deb so'radi u bobom bilan quyuq ko'risharkan.

Bobomning ajin qoplagan qoramag'iz yuzi bulut ostidan chiqqan quyoshdek charaqdab ketdi:

— Shunday, bo'tam, shunday! — deya soqolini tutamladi.

— Ota, o‘zingiz qachon tug‘ilgansiz? — deb yana so‘radi boshliq miyig‘ida kulgancha.

Bobom yelka qisdi.

— To‘g‘risini aytsam, bilmayman, chirog‘im.

ZAGS bo‘limining boshlig‘i endi beixtiyor iljaygancha:

— Loaqal otingizni bilarsiz? — deb so‘radi tegajoqlik bilan.

— Ota-onamning qulog‘imga azon ayttirib, uch marta qichqirib qo‘ydirgan oti Hakimniyoz, — dedi bobom.

— Xo‘sh, gapingizning rostligini tasdiqlaydigan qog‘ozingiz bormi?

— Qog‘ozim yo‘g‘-u, biroq esimni taniganimdan buyon Hakimniyozman. Eringanlar qisqartirib Hakim deb ham chaqiradi. Aytganday, sovet hukumatining dastlabki yillaridan boshlab majlis o‘tkazganda, har gal kim kelib, kim kelmaganini belgilashardi. O‘sha qog‘ozlardan mening ham otim chiqsa kerag-ov.

ZAGS bo‘limining boshlig‘i yerga qaragancha andak o‘ylanib o‘tirdi-da, boshini ko‘tarib dedi:

— Xalqimizning taqdiri ham siznikiga o‘xshaydi, oqsoqol. Hatto uning qachon paydo bo‘lgani, nomi eng avval qayerda, kim tomonidan qo‘yilgani ham haligacha jumboq. Tarixchilarimiz har xil taxmin qilishadi. Biroq shunisi aniqki, xalqimiz Osiyodan Yevropaga, Yevropadan Osiyoga ko‘chib-qo‘naverib juda ko‘p sarson bo‘lgan...

Ko‘cha biyi aytgan afsona: Ota-bobolarimiz haqiqat, adolat, peshonalarini silar pushtipanoh izlab, tog‘lardan tog‘larga, vohalardan vohalarga, ellardan ellarga kezib umr kechirganlar. Qidirganlarini hech qayerdan topmay, sarson yurganlarida, dunyoning bir burchida “Kuyov o‘ris elati”[1] degan mamlakat bormish, shu mamlakatning podshosi barcha odamlarga do‘stlik qo‘lini cho‘zgani uchun uzun qo‘lli Yuriy[2] nomi olgan ekan. Bu odam barchaga mehribonmish, asli bizning xalqqa kuyovmish, qabilidagi gaplarni eshitib, o‘sha yurtga qora tortib boribdi. Uzun qo‘lli Yuriy rostdan ham mehribon, bag‘rikeng inson bo‘lgan ekan. Elga

[1] **Kuyov o‘ris** — Kiyev Rusi deyilmoqchi.

[2] **Uzun qo‘lli Yuriy** — Yuriy Dolgorukiy, XII asrdagi Suzdal va Ulug‘ Kiyev knyazi.

el qo'shilsa — davlat, deb ularga yurtining sharqiy chegarasidagi serhosil yerlarni ajratib beribdi. O'sha vaqtlarda xalqimiz "Peshonalilar", ya'ni, "Keng manglaylilar" deb nomlanar ekan. Bobolarimiz uzun qo'lli Yuriy podsho eliga sharq tarafdan hujum qilgan bosqinchilarga qarshi turib: "Agar bitta qolmay qirilib ketsak ham, bizga marhamatini ayamay yer bergan kuyov o'risning bir qadam yerini yovga berib qo'ymaymiz", deyishib, yovga qarshi ko'ksini qalqon qilibdilar. Podsho bu fidoyiliklari uchun sovg'a tariqasida, qolaversa, boshqalardan ajralib tursin deb bobolarimizning har biriga qubbador uzun qora qalpoq kiydirgan. Bunday qalpoqni kuyov o'rislar eli "Chorniy klobuk" deyisharkan. O'shandan bizning botir xalqimiz "Chorniye klobuki", ya'ni qoraqalpoqlar degan nom olibdi. Shunday qilib, bobolarimiz tili va dinining boshqaligiga qaramasdan, o'zlaridek oqko'ngil, botir kuyov o'ris eli bilan qiz olishib, qiz berishib, quda-anda bo'lib yashayverishibdi. Uzun qo'lli Yuriy podsho tirikligida qanotliga qoqtirmay, tumshuqliga cho'qitmay ularga g'amxo'rlik qilibdi. Afsuski, uzun qo'lli Yuriy podshodan keyin mamlakatga allaqaysi yovuz, qudratli dushman bostirib kelib, el-u elatlar pardek to'zg'ib ketibdi. Bobolarimiz tag'in boshpanasiz, vatansiz qolib, yana sarsonlikka tushibdilar. Avvaliga Bolqon tog'lari tevaragida "qora bo'rklilar" degan nom bilan yashabdi. Yana bir payt "hap sanimi" deb yurgan dushmanlari ularni tirqiratib quvganida, naq Sulaymon tog'i etaklarida bir to'xtab, bu atrofda "Qavmi kulohi siyoh" nomi bilan yashabdi. Keyinchalik ular bu makonda ham muqim yashashga imkon topmay, Turkistonga kelibdi. Qismat ularni bu yerda ham uzoq ushlab turmabdi; vaqti kelib, tag'in har tarafga to'zg'ib ketishibdi.

* * *

Xalqimizning fe'l-atvori, urf-odatlari, dunyoqarashini teranroq bo'ylab, o'zingizcha mushohada qilib ko'rsangiz, bu afsonalarning barchasi rostga o'xshaydi. Darhaqiqat, xalqimiz tarix o'yinlarida sarsari koptokdek dunyoning u chekkasidan bu chekkasiga, u makondan bu makonga ko'p badarg'a bo'lgan. Bobolarimiz davrlar to'fonlarida goh ummonlar qa'riga cho'kib, goh yana yuzaga qalqib chiqib, har gal omon qolib yashayverganlar. Davr suronlaridan

omon chiqishga-ku chiqqanlar. Biroq, baribir, qoraqalpoqlar xalq sifatida bu behalovat va sershovqin olamni yashnatish-yashartishga qanday hissa qo'shdi, bu yo'lda kimlarga qanday ta'sir qilib, kimlarga qanday ziyon-zahmat yetkazdi, degan savollar ham beixtiyor oldingizda ko'ndalang bo'ladi. Qoraqalpoqar tarixi yarim ko'chmanchi, mabodo qo'nim topgudek bo'lsa, mehnatdan bo'yin tovlamaydigan dehqonning tarixi, saraton otashida kuyib, tog'-toshlarda tovoni tilinib mol haydagan podachining tarixi. Bu xalqning tarixini yozgan harflar vatandan vatanga darbadar kezgan paytlarida qo'noq joylarda qolgan o'choqlar. Uning o'z tarixini yozgan qalamlari — yangi makonini gullatib-yashnatish umidida yer haydagan omoch-bo'yinturuqlari. Uning o'z tarixini yozgan siyohi — makon tutgan yerini himoya qilish yo'lida ayollar va norasida bolalarning otalar qoniga aralash-quralash oqqan ko'z yoshlari! Bu xalqning fe'l-atvoridagi allanechuk olazaraklik qo'sh haydaganda bir ko'zi omochida, ikkinchi ko'zi tevaragida, ko'chsa bir ko'zi oldinda, ikkinchi ko'zi ortida, qo'nsa bir ko'zi uyquda, ikkinchisi notinch yotganining natijasi. Bu xalqning ozligi, nochorligi, ustiga ustak, ko'p urug'ga bo'linganligi sabab, bir urug'ining boshqasiga ola qaraganligi tufayli yig'gan-terganlarini kuchlilar bosib olaverganlar. Shuning uchun bo'lsa kerak, bobolarimiz hech qayerga ma'lum va mashhur bosh qal'a, poytaxt ham tiklay olmaganlar. Bugungi arxeologlar-u tarixchilar "Qoraqalpoq shaharlari" deya o'rganib va boshqalarga o'rgatib yurgan joylar yovdan himoya qiluvchi qo'rg'on sifatida, suv toshqinlaridan saqlagulik to'g'on sifatida goh tepa-tepa, goh uzunchoq qir shaklida uyilgan tuproqlargina xolos.

Bu xalqning eng yaxshi fazilati — bir makonda andak o'troqlashsa, suv topsa, non topsa, darrov qo'shni qidirgan, do'st izlagan, o'zlarining oz sonligini, ojiz-nochorligini tushunib, kuchliroq panoh izlagan.

Odamzodning bosib o'tgan yo'li, ko'rgan-bilganlari, hayotiy tajribalari bir-birining davomiga, yagona ummonga kelib quyilguvchi daryoning har xil irmoqlariga o'xshaydi. Ayni paytda, har qaysisining qismati bir-biriga o'xshash, shu barobari, biri ikkinchisini yorqinroq ko'rsatuvchi turfa ranglardan iborat kamalakni

eslatadi. Agar insoniyat tarixini bepoyon ummonga qiyoslasak, unga kelib quyiluvchi daryo irmoqlaridan birida, garchi ko'zga yaqqol tashlanavermasa-da, har qalay, xalqimning ham nomi borligi odamni quvontiradi.

Tarixiy daraklardan: Yozma tarixi yo'q ko'plab xalqlar kabi qoraqalpoqlarning kelib chiqish tarixi uzoq yillar muammo bo'lib kelgan edi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, o'g'iz-pecheneg qavmlaridan bir guruhiga nisbatan qo'llanilgan, "qoraqalpoq" so'ziga hamohang "Chorniye klobuki" atamasi XII asrdagi rus yilnomalarida uchraydi, "Chorniye klobuki"lar rus knyazlari bilan shartnomalar tuzib, keng maydonni egallagan, ular yurtining markazi Porosoldagi Torchesk qal'asi bo'lgan.

Ular Kiyev Rusi knyazligi fuqarolari hisoblanib, rus askarlari bilan birga har xil tashqi dushmanlarga qarshi janglarda ko'p qatnashganlar.

Bu bilan "qoraqalpoq" so'ziga mazmunan yaqin etnonim ilk bor Ukraina hududida mavjud edi, deya tasdiqlash ham qiyin, albatta. Sharqshunos P.P. Ivanov Abu Fazl Bayhaqiyning "Tarixi Bayhaqiy" kitobini o'rganib, XV asrdagi Xorazm shohlarining lashkarida "Qalpoq" ismli lashkarboshi bo'lganini, biroq bu "qalpoq" atamasining lashkarboshiga daxli yo'qligini, o'sha paytlardagi taomilga ko'ra, lashkarboshiga o'zi boshqaruvchi xalq nomi berilishini alohida ta'kidlaydi. Shunday qilib, olim "Qoraqalpoq" so'ziga ma'nodosh "Qalpoq" etnonimi XI asrda Orol bo'ylarida yashagan, degan fikrga keladi. U mazkur fikrga dalil sifatida qoraqalpoq folklorida "qoraqalpoq" so'zining tutgan o'rniga, o'z she'rlarida "qalpoq" so'zini ko'p qo'llagan Berdaqning "Shajara"siga asoslanadi. Tarixchi An-Nuvayrning XIV asrga mansub xalqlar ro'yxatida polovets — qipchoq toifalari ichida "qora bo'rkli" degan atama uchraydi. P.P. Ivanov fikriga ko'ra, garchi qoraqalpoqlar qipchoqlar uyushmasiga "qora bo'rklilar" nomi bilan qo'shilsalar-da, milliy o'ziga xosligini saqlab qolganlar, biroq til va etnografik xususiyatlar kuchli ta'sirga uchragan.

Qoraqalpoqlarning aniq nomi ilk bor shayboniylar sulolasidan 1583–1598-yillarda hukmronlik qilgan Abdullaxonning Sig'noq-

dagi Ziyoviddin maqbarasiga 1598-yilda bergan yorliqnomasida uchraydi. Abdullaxon bu yorliqnomasida Sig'noq atrofida yashaydigan o'troq, yarim ko'chmanchi har xil urug'lar qatorida Qoraqalpoq xalqining nomini to'liq keltirgan.

1723-yilgi Jungor xonligining Turkistonga bosqini sababli har tomonga qochib, "oqtovon chuvrindi" nomini olganlar qatorida qoraqalpoqlar katta o'rin tutgan. Ular uch guruhga bo'linib ketganlar...

* * *

Qoraqalpoq xalqining bu bo'linishi bir o'tovning uchga bo'linishi, bir qozonning uch bo'lakka ajralib sinishidek gap edi. O'shanda qoraqalpoqlarning bir guruhi Xitoy, Afg'on ellariga qarab ko'chadi. Ikkinchi guruhi O'rta Osiyoning keng dalalarida bo'linib-bo'linib yashab qoladi. Uchinchi guruhi esa hozirgi Qoraqalpog'istonda yashovchi qoraqalpoqlarning bobokalonlari. Ulug' rus yozuvchisi I.S. Turgenevning "Rossiya bizlarsiz yashayveradi, biroq bizlarning hech birimiz Rossiyasiz yashay olmaymiz", degan dono fikrini ertaroq anglab yetganlar, shekilli, ular: "Bizga Ulug' Rossiyasiz omonlik yo'q", degan qadimiy e'tiqod sabab bobokalonlarining afsonalarida rus yilnomalarida saqlanib qolgan o'tmishiga sodiq qolib, Rossiya tarafga yo'l oladilar. Biroq qahraton qish, ocharchilik uzoq safarga imkon bermaydi. Ular Sirdaryoning quyi sohillari, Orol dengizi yoqalarini makon tutib, qozoqlarning kichik yuz xonligi tarkibida yashab qoladilar. Bu orada ularning oqsoqollari kichik yuz xonligi bilan birga Rossiya davlatiga qo'shilish harakatiga tushadilar.

1743-yilda qoraqalpoqlarning atoqli botiri Mamanbiy boshchiligida Peterburgga elchilar jo'nab ketadi. Maman qirolicha Yelizaveta Petrovnaning qabulida bo'lib, undan Ulug' Rossiya davlatiga qo'shilganliklari xususidagi yorliqnomani olishga musharraf bo'ladi. Biroq saroydagi ichki nizo-janjallar kuchayib, qirolichaning qoraqalpoqlarga bergan yorlig'i unutiladi. Qoraqalpoqlar qo'shni xonliklar tarafidan yana quvg'inga uchraydi. Lekin baliqqa kon Orol dengizidan olislab ketolmay, Amudaryoning quyi sohillariga tomon ko'chib, Xiva xonligining qo'l ostiga

o‘tadi. 1873-yilda Rossiya saltanatidan general Kaufman boshliq harbiylar bostirib kelib, qoraqalpoqlarning Rossiya imperiyasiga batamom qo‘shib olinganligini tasdiqlaydi, Xiva xonligidan ajratilganini bildiradi...

* * *

Otam aytgan afsonalar: Chimboy bozoriga ko‘p marta borib, talay jarchilarning gaplarini eshitganman, biroq shulardan ikkitasi hech esimdan chiqmaydi. Birinchisida otam bilan borgandim. Otam bozordan mayda-chuyda xarid qilib chiqquncha, eshakni ushlab turib tingladim. Allaqanday ola yovmit ot mingan bir jarchi paydo bo‘ldi-da, otini qamchilagan ko‘yi, bozor oralab, ovozi boricha baqirib-chaqiraverdi:

— Xaloyiq, tinchlaninglar, eshitinglar! Shahrimiz hokimi yerning kindigi Peterburgga borib keldi. U nomi olamga mashhur Oqposhshoni ko‘ribdi, Oqposhsho u bilan gaplashibdi! Xushxabarni eshitinglar!.. Tinchlaninglar!..

Bir payt ola-g‘ovur bozor suv quygandek jimib qoldi. Jarchi uzangiga oyq tirab, ot ustida tik turgancha:

— Xaloyiq! Shahrimizning hokimi savdo ishi bilan Peterburgga borganida, bir jinko‘chadan o‘tib borayotgan ekan, kutilmaganda gala otlar qurshovida soyabonli, hashamatli foytunni ko‘rib, yo pirim, shu aravadagi odam Oqposhshomasmikin, deb yuragi hapriqib ketibdi. Shu payt allakim foytundan boshini chiqarib: “Ey, kimsan o‘zing?” deb so‘rabdi. Hokimimiz zehn solib qarasa, Oqposhsho janoblarining xuddi o‘zlari! Hokimimiz suyuna-suyuna: “Qoraqalpoqman! Chimboy shahrining hokimiman!” debdi. “Hoy nodon, yo‘lni bo‘shat!..” debdi Oqposhsho. Ana shunday, xaloyiq! “Oqposhsho hazratlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, uning o‘z og‘zidan tanbeh eshitish ham biz qoraqalpoqlar uchun ulkan baxt! Men baxtliman!” deb keldi shahrimizning ulug‘ hokimi. Shu bilan xushxabar tamom! — dedi-da, jarchi narigi bozor tarafga ot choptirib ketdi.

Bozor ahli o‘zaro gurunglashib, kulishib, kimdir shahar hokimini, kimdir podshoni goh maqtab, goh so‘kib, har kim o‘z gapini ma’qullab qolaverdi.

Ikkinchi marta, sovet hukumati davrida shunday bo'ldi.

O'sha paytlar men Bekniyoz oqsoqol degan odamning otboqari edim. U Chimboy shahrida allaqanday idoraga kirib chiqquncha, otini ushlab turgandim. Shu kuni ham bozor edi. Xuddi bolalik paytlarimda ko'rganimdek ola yovmit ot mingan jarchi bozor oralab ot choptirgancha:

"He-ey, xaloyiq, tinchlaninglar, eshitinglar! Olloyor Do'stnazarov[1] dunyodagi yagona qizil shahar — ulug' Moskvadan qaytib keldi. U qizillar dohiysini ko'ribdi, u bilan gaplashibdi", deb ovozi boricha qichqiraverdi. Bir payt, bozor ahli tinchlanib, quloqlar ding bo'ldi. Jarchi otini minbar qilib, ustida tik turgancha gap boshladi. Hali-hali esimda, shunday dedi: "Xaloyiq! Do'stnazarov dunyoda yagona qizillar shahri Moskvadan kelibdi...".

Ko'cha biyi aytgan afsona: 1924-yili tuzilgan maxsus komissiya majlisida O'rta Osiyo xalqlarining milliy chegaralanishi masalasi muhokama qilinib, har bir xalqni mustaqil milliy respublikaga aylantirish muammosi hal qilinayotgan ekan. Majlisda o'z xalqining nomi tilga olinmaganidan dili og'rigan Do'stnazarov o'rnidan uchib turib:

— Qoraqalpoqlarni unutishga kimning haqqi bor?! — debdi.

— Qoraqalpoqlar dengiz bo'yida yashaydigan, boshiga qora qalpoq kiygani uchun shunday nom olgan Xorazm o'zbeklariku! — debdi bir ovoz.

— Yo'q, qozoqlarning qora qalpoqli bir urug'i, — debdi yana bir ovoz.

— Yo'q, qoraqalpoqlar oq qalpoqli qirg'izning qora qalpoqli egizaklari, — debdi tag'in kimdir.

— Yo'q, ular turkmanlarning uzoqroq bir urug'i, — debdi yana bir ovoz.

Ulardan so'ng, yer ostidan chiqqandek bo'g'iq bir ovoz:

— O'rta Osiyoda qoraqalpoq degan alohida millat bor ekanmi o'zi? — deya ajablanibdi yuraklarga g'ulg'ula solib.

Do'stnazarov bu gaplarga parvo qilmay, majlis raisidan ruxsat

[1] **Olloyor Do'stnazarov** — Turkiston KP Qoraqalpog'iston obkomi birinchi ta'sis Qo'mitasining mas'ul kotibi

ham so‘ramay, to‘ppa-to‘g‘ri minbarga chiqib boribdi:

— O‘rtoqlar! Do‘stlar! Qoraqalpoq xalqi bor! — debdi.

Shovqin-suronlar andak bosilgan paytda allakim:

— Do‘stnazarov, tilingiz kimlarga yaqin? — deb so‘rabdi.

— Qoraqalpoqlar o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, ozarbayjon, tatar, boshqird, qumiq, no‘g‘ay tillari bilan bir daraxtning har xil shoxlariga o‘xshaydi, degan ekan nomi tillarda doston Mamanbiy, — debdi Do‘stnazarov.

Keyin u qoraqalpoq xalqining milliy xususiyatlari, urf-odatlari haqida gapiribdi. So‘ng, o‘tmishimizning hazin qo‘shig‘i “Bo‘zatov”ni aytib beribdi. Uning gaplarini cho‘qqisoqol Kalinin quvvatlabdi. O‘zbek Fayzulla Xo‘jayev, qozoq Saken Sayfullin, turkman Qayg‘isiz Otaboyev va boshqalar so‘zga chiqib, qoraqalpoqlar alohida bir xalq ekanini aytibdi. Ana shundan keyin hamma bir ovozdan: “Qoraqalpoqlarga avtonomiya berilsin!”, deb baqirib-chaqirib, yurtchilik emasmi, odatdagidek bir qo‘lini emas, ikkala qo‘lini baravar ko‘tarishibdi.

ZAGS bo‘limi boshlig‘ining aytgani: O‘sha chegaralarni belgilashga bag‘ishlangan majlisda zaldan yana bir ovoz:

— Har bir millatning atoqli odamlari bo‘ladi. Biroq bizlar shu paytga qadar qoraqalpoqlarning atoqli odamlarini eshitmagan ekanmiz, — deb po‘ng‘illagan ekan, Do‘stnazarov shunday javob qilibdi:

— Qoraqalpoq degan xalq borligini eshitmagan sizdek qulog‘i og‘ir odam uning atoqli farzandlarini qayoqdan bilsin? Durustroq eshitib oling, men aytay: o‘zbeklar uchun Navoiy, turkmanlar uchun Maxtumquli, qozoqlar uchun Abay, ukrainlar uchun Shevchenko, ruslar uchun Pushkin qanday qadrli bo‘lsa, o‘tgan asrda yashagan Berdaq degan shoirimiz qoraqalpoqlar uchun xuddi shulardek aziz! Davlat boshliqlaridan bir misol aytsam, ruslar uchun Pyotr Birinchi ardoqli bo‘lsa, o‘n sakkizinchi asrda yashagan afsonaviy Maman biy biz — qoraqalpoqlar uchun shunday ardoqli. Agar Pyotr Birinchi Rossiyadan Yevropa tarafga eshik ochgan bo‘lsa, biz qoraqalpoqlar uchun Maman biy ulug‘ Rossiya tarafga shunday eshik ochgan, deb o‘ylaymiz. Asrimizga kelib to‘xtasak, Fayzulla Xo‘jayev — o‘zbeklarning, Saken Sayfullin

— qozoqlarning, Qayg'isiz Otaboyev — turkmanlarning or-nomusi, milliy ravnaqi uchun qanday kurashgan bo'lsalar, mana, men Olloyor Do'stnazarov ham shular safida turibman! — deb gapini tamomlabdi Do'stnazarov.

— Bolam, aslida bu afsonalarning tagida rost gap yotibdi, menga ishonaver. Endi manovi nabiramning tug'ilgan yili, oyi, kunini belgilab qog'oz yozib ber, — dedi bobom ZAGS bo'limining boshlig'iga.

— Ota, nevarangiz o'z vaqtida ovul Sovetining ZAGS daftarchasida ro'yxatdan o'tmagan ekan. Bu, albatta, sizning aybingiz emas, nevarangiz qatorilarning ko'pchiligi guvohnomasini endi olishyapti. Biz nevarangiz u yoqda tursin, xalqimizning tug'ilgan yilini aniqlashda haliga qadar afsonalarga asoslanamiz. Endi, siz nevarangizning tug'ilgan yilini aniqlashim uchun biron-bir dalillaringiz bo'lsa, aytsangiz, — dedi ZAGS bo'limining boshlig'i.

— To'lepbergen mening to'ng'ich nevaram, — dedi bobom qordek oppoq soqolini silab-siypab. — Shuning uchun o'zimning umrimga bog'liq voqealarning o'ndan to'qqizini unutib yuborsam ham, unga bog'liq hamma ko'rgan-bilganlarim yaxshi esimda. Birinchi dalilim shuki, nevaram yilqi yili tug'ilgan edi. Ikkinchi dalilim — etik taqsimlash yili tug'ilgan. Uchinchi dalilim — "O'zbekistonning atoqli shoiri Hamza Hakimzoda Niyoziy Shohimardonda toshbo'ron qilib o'ldirilibdi", degan shumxabar kelgan yili tug'ilgan. (Hamza Hakimzoda Niyoziyni eslashimning birinchi sababi — mening ham otim Hakimniyoz, ikkinchi sababi — sovet hukumati o'rnatilgan yillarda bu odam bizning yurtimizga kelib, Xo'jayli bozoridagi qovurdoqxonalar tevaragida o'ralashib yurgan yetim bolalarni yig'ib yurganini o'z ko'zim bilan ko'rganman.)

— Eskilar ham juda aqlli bo'lishgan-da! — dedi ZAGS bo'limining boshlig'i, oldida turgan kalendarga ko'z tashlar ekan. — Yil hisobini har o'n ikki yilda bir almashadigan qilishgan. Yoshni aniqlash uchun o'n ikki yilga adashish mumkin emas. Yillarning jonivorlar oti bilan belgilanishida ham teran ma'no bor. Masalan, quyon yili, it yili, cho'chqa yili, sigir yili, sichqon yili... tug'ilganlarning har birida yilini eslatuvchi qandaydir bir belgi bo'ladi...

Nevarangizning yili yilqi ekanligi ham to‘g‘ri. Bilasiz, kolxozlashtirish yillarida yuk aravalariga qo‘shish, ekin maydonlarini shudgorlash, ekinga ishlov berish, ovuldagi yaxshi-yomon xabarni uzoq-uzoqlarga tezroq yetkazishda asosiy ulov — yilqi edi.

— Hali aytdim-ku, To‘lepbergen to‘ng‘ich nevaram. Ini og‘aga qarab o‘sadi. Gohida ukalari tortolmagan aravani sudrash ham shu bolaning gardanida-da, — deb bobom uning gaplarini o‘zicha to‘ldirishga unnab ko‘rdi.

— Yilqining xosiyati ko‘p, masalan, kavsh qaytarmaydi, suv ichsa odamga o‘xshab og‘zini chayib ichadi... — dedi ZAGS bo‘limining boshlig‘i barmoqlarini bir-bir bukib. — Xullas, inim, ko‘rinib turibdiki, 1929-yilda tug‘ilgansan. Endi-chi, men senga aytsam, inim, har bir ishingda yilqi fe’lingni oqla! Bir ishni ikki qilma. Mabodo yozuvchi bo‘lsang, boshqalarga o‘xshab bir voqeani dam hikoya, dam doston, dam pyesa qilib yozaverma. Ota, endi siz menga, etik taqsimlash yili, deganingizni tushuntirib bering.

Bobomning javobi: Nevaram tug‘ilgan kuni tong-saharda eshik oldiga bir chopar kelib: “Etik taqsimlashga bag‘ishlangan yig‘ilishga borasiz”, deb ketdi.

Ovulda yangi artel tashkil etilayotgan edi. U paytlarda yig‘ilishga desa, odamlar xuddi to‘yga chaqirilganday yugura-yugura borishardi. Men ham shosha-pisha yig‘ilish bo‘ladigan joyga bordim. Borsam, artelning hamma a’zolari yig‘ilibdi. Artel boshlig‘i — Kenjamurod degan batrak qizil mato yopilgan stol oldida turib:

— Ovuldoshlar, rayondan artel a’zolariga etik yuborishgan ekan. Etik taqsimlashga bag‘ishlangan yig‘ilishni ochsam, qarshilik yo‘qmi? — deb so‘radi. O‘tirganlar: “Ochaver, ochaver!” deb baravariga chuvullashdi.

— Unday bo‘lsa, etik taqsimlashga bag‘ishlangan majlisimiz ochiq, — dedi Kenjamurod vazminlik bilan. — O‘zlaringizga ma’lum, men artel boshlig‘iman. Nimam ko‘p, kunni kun, tunni tun demay yurishim ko‘p. Shuning uchun bir juft etik menga tegishli bo‘lsa kerak?..

— Tegishli! — deyishdi ko'pchilik.

— Tegishli deb bilganlar qo'l ko'tarsin! — dedi boshliq.

Hammamiz qo'l ko'tardik.

— Bilasizlar, mening hamma tashvishlarimga xotinim Tursun ham sherik. U vaqtida ovqatimni pishiradi, ko'rpa-to'shagimga gard yuqtirmaydi, xullas, aytaversam ishi ko'p. Unga ham bir juft etik tegishlidir? — deb so'radi boshliq.

— Tegishli! — deyishdi yana allakimlar.

— Unday bo'lsa, qo'l ko'taringlar! — dedi boshliq.

Hammamiz qo'l ko'tardik.

— Bilasizlar, mening yolg'iz o'g'lim To'liboy jiyron qashqamning yem-xashagiga qaraydi. Bundan tashqari, kechqurunlari Likbezga ham qatnaydi. Qorong'ida qoqilib-surinishi mumkin. Shuning uchun unga ham bir juft etik tegishli bo'lsa kerak, albatta?

— Tegishli! — deyishdi odamlar.

— Unday bo'lsa, qo'l ko'taringlar! — dedi boshliq.

Hammamiz qo'l ko'tardik.

— O'rtoqlar, bor-yo'q etiklarni taqsimlab bo'ldik. Shu bilan etik taqsimlashga bag'ishlangan yig'ilishimiz yopiq, — dedi boshliq.

ZAGS bo'limining boshlig'i kulgidan lab-lunjini bazo'r yig'ishtirib:

— Bu voqea ham 1929-yilda bo'lgani ko'rinib turibdi, — dedi. — Men armiyada farg'onalik bir yigit bilan birga xizmat qilgan edim. U Hamza Hakimzoda Niyoziyni og'zidan qo'ymay, 1929-yilda Shohimardonda hasadchilar tomonidan toshbo'ron qilib o'ldirilganini ko'rganman, derdi. Demak, sizning to'ng'ich nevarangiz uchala hisob bo'yicha ham aynan 1929-yilda tug'ilgan ekan. Aytgandek, nevarangizning ismi nega To'lepbergen?

— Qaipbergen, To'lepbergen degan ikki o'g'lim bor edi. Kichigi so'zakka chalinib qazo qildi. Yolg'iz o'g'lim qolgach, uni ertaroq uylab qo'yuvdim. Alloh taolo tilagimni dargohida qabul qilib, o'lgan o'g'lim To'lepbergenning o'rniga o'g'il tug'ildi. Men ham ko'p o'ylab o'tirmay, uning otini To'lepbergen deb qo'ya qoldim. Buyog'ini so'rasang, Xudo o'lgan o'g'limning o'rniga

o‘g‘il to‘lab berdi, tag‘in otasining otiga uyqash.

— Nevarangiz yig‘lab tug‘ilganmidi yo uxlabmi? — deb so‘radi ZAGS bo‘limining boshlig‘i, bobomga andak tegajoqlik bilan.

— Kampirim necha bola tuqqan bo‘lsa, birontasida ham uyda bo‘lmagan edim. Shu nevaram tug‘iladigan kuni quvona-quvona o‘tovning sirtidan eshitib turdim. Tug‘ilishi bilanoq chirillab yig‘layverdi. Chamamda u bu dunyoda yashashdan ham guvohnoma olishning qiyinroqligini o‘shandayoq bilganmi, deyman-da!

O‘tirganlar gurra kulishdi, ZAGS bo‘limining boshlig‘i xushnud iljaygancha guvohnoma yozishga tutindi.

— Endi-i, bu bolaning tug‘ilgan kunini men belgilay, — dedi Ko‘cha biyi.

Bobom ham, ZAGS bo‘limining boshlig‘i ham unga itoatkorlik bilan qaradi.

— Men hamma gaplaringizni jimgina tinglab o‘tirdim,— dedi Ko‘cha biyi ko‘kragini andak kerib. — To‘lepbergenning tug‘ilgan yili havodan olingan ma’lumotlar orqali aniqlandi hisob. Mana shundan abadiy xotira bo‘lishi uchun yaxshi gaplarni havoga taratadigan radio kuniga to‘g‘irlab, “7-may kuni tug‘ilgan” deb guvohnomaga yozilsin.

ZAGS bo‘limining boshlig‘i menga guvohnomani tutqazar ekan:

— Mana, To‘lepbergen Qaipbergenov, sen 1929-yilning 7-may kuni tug‘ilgansan. Cho‘rtanboy ovulida. Unutma! — dedi.

7

Elsiz yer yetim.

Yersiz el yetim.

Vatansiz inson yetim!

Cho‘rtanboy! Bu so‘z asli daryoning nomi. Bolalik paytlarimda limmo-lim bo‘lib oqardi. Boshqa baliqlarga qaraganda cho‘rtanga boyroq bo‘lgan ekan. Har ikki sohili ola-quroq ovullarga to‘la bu daryoning suvi tortilib, o‘zanini o‘t-o‘lan qoplaganiga ko‘p yillar bo‘ldi. Shunda ham mening ko‘zimga Cho‘rtanboy yoqalari olovdek ko‘rinadi, hatto, qovjirab-quruqshab yotgan o‘t-o‘lanlari

ham men uchun to'tiyodek, jing'illari — gulloladek!

Bola kezlarimda Cho'rtanboy yoqalarida ovulimizdan boshqa ovullar ham borligini bilsam-da, baribir, butkul Qoraqalpog'istonning kindigi bizning ovul bo'lsa kerak, deb o'ylardim. Sababi ovulda biron kishi to'y qilsa yo birovning qazosi yetsa, odamlar yig'ilib, chor tarafga xabarchilar otlanib qolishardi. Ana undan keyin qarabsizki, bu to'y yoki ma'rakaga bizlarga notanish, tashqi qiyofalari ovuldoshlarimga o'xshamaydigan odamlar oqib kelaverishardi. Bundan tashqari, allaqayoqlardan to'y-ma'rakaga aytuvchilar tez-tez kelib turishardi. Shularga asoslanib men "Bizning ovul butun Qoraqalpog'istonning markazi, axir, hech qayerda to'y-ma'raka ovulimiz odamlarisiz o'tmayapti-ku", deb o'ylab qolardim.

Uyimizda (boshqa uylar ham bizning uyimizga o'xshasa kerak, deb o'ylayman) biron-bir quvonchli voqea ro'y bersa, bundan butun Qoraqalpog'iston xabardor-u, biz bilan baravar suyunayotgandek, ko'ngilsizlikdan esa butun Qoraqalpog'iston bizga qo'shilib xafa bo'layotgandek tuyulardi. Agar uyimizda kimdir nojo'ya ish qilib qo'ysa yo bobom o'z o'g'li (otam) bilan, momom kelini (onam) bilan gap talashib qolsalar, qo'shnilar buni sezib qolishidan xavotirlanishib, ovozlarini pasaytirib, ohista gaplashardilar. Bunday paytlar bobom har safar: "Astaroq, qo'shni eshitsa, butun el-yurtga yoyiladi", deya ogohlantirardi. Balki shuning uchundir, menga qo'shnimizning uyi butkul Qoraqalpog'istonning ko'rar ko'zi, eshitar qulog'idek tuyulardi. O'sha paytlar men butun Qoraqalpog'istonga baho berish uchun qo'shnimizning uyini yaxshi bilish yetarli, butun olamga baho berish uchun esa, Qoraqalpog'istonni yaxshiroq bilish kifoya bo'lsa kerak, degan xayolga borardim. Hozir ham shu fikrdaman. Basharti, insoniyatning tarixiy taraqqiyot yo'liga, bu taraqqiyotning biron-bir davriga nazar tashlash darkor bo'lsa, ovulimiz men uchun o'ziga xos bir teleskop vazifasini o'taydi. Ovulimiz tarixi orqali butun Qoraqalpog'iston, qolaversa, butun jahon tarixini tasavvur etish mumkin, deb o'ylayman.

Shundaylikka shundayku-ya, biroq, baribir, tarixchilar o'tmishga doir qancha-qancha mantiqli xulosalar, taxmin-farazlarni o'rta-

ga tashlamasinlar, ularning hech biriga ko'nglim to'lmaydigandek. Sababi, har bir odam o'tmish yo kelajakka baho berar ekan, avvalo o'zi yashagan davr ko'zi bilan qaraydi, o'z davrining tafakkur tarzi, o'z muhiti va shaxsning muqarrar ravishda cheklangan imkoniyatlaridan kelib chiqib baholaydi.

Quruvchilar tili bilan aytganda, har bir avlod o'zidan avval yashab o'tgan avlod ustiga urilgan devor, kelgusi avlodlar uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Yuzaki qaraganda, avlodlar bir-birlarini takrorlab yashayotganga o'xshaydi. Turfa xil qismat, maqsad, orzu-niyat va ilinjlar bilan yashayotgan odam bolasini avvalo bir narsa birlashtiradi — shu ona yer! Hamma ham yerga oyoq tirab yashaydi. Hech bir avlodning yangidan kashf etgan o'z yeri yo'q, otameros makoni bor, uning chegarasi bor. Ajdodlarimiz ham biz bugungi kunda yashab turgan yer ustida yashaganlar.

Xullas, avlodlarni ham, butkul odamzodni ham shu tabarruk zamin birlashtiradi. Insoniyatni, qolaversa, butkul olam tarixini ko'z oldimizda yastanib yotgan mana shu qutlug' zamin o'z kiftida azot ko'tarib turibdi. Odamzodning quvonch-qayg'usi, shodlik-g'amini saxovatli siynasiga sig'dirgancha, ne baxtki, o'z mehvarida bir maromda aylanib turibdi.

Insonga ko'p narsa o'z onasi orqali o'tadi. Shuning uchun ham yer onaga qiyoslanadi, ona yer deb ta'riflanadi. U umr shami so'ngan inson jismini o'z og'ushiga olgani uchun ona yer atalmagan, odam bolasiga hayot baxshida etgani uchun ona yer atalgan. Ona Zaminni yashnatib-yashartib, unga ona qalbi, ona saxovatini in'om etgan kuch tiriklar. Zaminni yashnatuvchi ham, xarob etguvchi ham odamlarning o'zlari! Bugungi kunda ona yerga bag'ishlab qancha-qancha qasidalar, ne ajabki, qancha-qancha marsiyalar bitish mumkin.

Yer — falsafiy kategoriya. Ayni paytda Yer bizning har birimiz kabi jonli organizm.

"Yaratgan onamiz — Yer!" deya uqtirishdan charchamasdi onam.

"Yer — Xudo, u mangulik timsoli", deyiladi afsonalarda.

"Qochgan ham Xudo deydi, quvgan ham" maqolidan foydalanib aytsak, Yer "Menga odam kerak", deydi, odam "Menga Yer kerak", deydi.

Bizga qadar yashab o'tgan odamlarning o'ziga xos qismatlari, orzu-armonlari Yer va inson munosabatlarini yana bir karra eslatgandek bo'ladi. Podsholar-u xonlar: "Xalq meni qo'llab-quvvatlasin!" deb fuqarodan umidvor yashasa, xalq: "Bizga g'amxo'r bo'lsin, yo'l boshlasin", deb podsho-yu xonlardan umidvor yashagan. Yer bilan Odamning bir-biridan umidi ham shu. Yer: "Odam bolasi menga xizmat qilsin!" deydi. Odam: "Yer menga xizmat qilsin!" deydi.

* * *

"Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug'".

Bir umr zulmatda sarson-sargardon yashagan mening xalqim bu hikmatli gapga qat'iy ishongani sababli nurli kelajakdan umid uzmagan— oz sonli bo'lsa ham keng yerni egallagan.

Qariyalarning hangomalaridan: Qadim zamonlarda bir qoraqalpoq biyi soliqdan yig'ilgan pullarni xonga olib borib topshirish uchun yo'lga otlanibdi. Qaytishda bola-chaqasi uchun sovg'a-salomga ayirboshlash maqsadida bir botmon guruch olib ketmoqchi bo'libdi. Xurjunining bir pallasiga — guruch, ikkinchi pallasiga — tosh solib, ot ustiga ortibdi. Shu payt o'n yashar nevarasi oldiga kelib: "Bobo, meni ham shaharga ola keting", deb yolvoribdi.

— O'zimdan boshqa ikki botmon yuk bo'ldi, ustiga seni ham mindirsam, otga og'ir bo'lmaydimi, bolam? — debdi biy.

— Xurjunning ikkinchi ko'zidagi tosh nimaga kerak? — deb so'rabdi nevarasi.

— Shunday qilmasam, xurjun ot ustidan og'ib ketadi-ku, bolam, — debdi chol.

— Bobo, bir maslahat bersam maylimi? — deb so'rabdi nevarasi.

— Qani ayt-chi?

— Xurjunning bir ko'zidagi toshlarni to'kib, guruchni ikkala ko'ziga baravarlab solish kerak, — debdi nevarasi.

Soddadil chol bolakayning aqliga qoyil qolib, cho‘nqayib uning peshonasidan o‘pibdi-da, guruchni nevarasi aytgandek yuklab bo‘lgach:

— Qani endi to shahargacha yo‘l soyabonli bo‘lganida edi, otni aravaga qo‘shardim-da, hamma nevaralarimni birga olib ketardim, — debdi.

— Soyabonli yo‘lning nima keragi bor? — deb debdi yana nevarasi.

— Saraton jaziramasi bo‘lsa, ochiq aravaning ustida yosh bolalarni kun urib ketmaydimi, chirog‘im? — ajablanib so‘rabdi qariya.

— Buning yo‘li oson, — debdi o‘shanda nevarasi. — Aravaning to‘rt burchiga to‘rtta xodani mixlab, ustiga bir ko‘rpa tashlab qo‘yilsa, tap-tayyor soyabon bo‘ladi-qo‘yadi.

Qari biy o‘n yashar nevarasining donoligidan suyuna-suyuna o‘sha safarini boshqa kunga qoldiribdi-da, hamma ovuldoshlarini yig‘ib, xonga olib boradigan pullarni egalariga tarqatibdi, keyin:

— Xaloyiq! Qoraqalpoqlar! Nevaralarimiz juda aqlli bo‘lib ulg‘ayayotgan ekan. Ertangi xalqimiz aqlli bo‘ladi degan so‘z bu! Demak, bundan keyin har tarafga tarqalib makon qurish kerak! Ko‘p yer egallash kerak! Kelgusi avlodga ko‘p aql qoldirmasak ham, ko‘p yer qoldiraylik! Ana o‘shanda nima qilishni ularning o‘zlari biladi! — deb nasihat qilibdi.

* * *

Qoraqalpoqlar egallagan yer, darhaqiqat, keng, biroq o‘ta zax.

— Bu zaxlikning sababi shuki, asrlar bo‘yi har xil niyatlarda ustida o‘ynoqlagan otlardan quyilgan behisob terlar, mushtipar onalar-u norasida bolalar to‘kkan shashqator ko‘z yoshlari, — deyishadi ko‘pni ko‘rgan oqsoqollar.

— Bu oz sonli bo‘sh-bayov xalq chekiga tushgan shuncha keng yerning hammasi unumdor bo‘lganida edi, burungi talon-torojlar zamonida bosqinchilar bu yerni ham peshonasiga sig‘dirmay, yana ko‘chirib yuborgan bo‘lardi, — deydi tarixchilar.

— Agar savodim bo‘lganida, bizning yerimiz qadimda butkul dunyoning hasrat kindigi bo‘lganligini olamga jar solib yozar

edim, — degan edi bobom.

Bobom aytgan afsona: Odam Atoning farzandlari ko'payishib, bir uyda yashash mushkullashgach, u har biriga alohida uy qurib, bo'lak chiqarish harakatiga tushibdi. Har bir odamning o'z o'chog'iga o't yoqib, o'z ko'mochiga kul tortishi uchun esa dastavval yer kerak. Shuning uchun Odam Ato hamma bolalarini yig'ib, kim qayerda yashashni xohlasa, o'sha yerni mangulik vatan qilib olsin, debdi. Bu keng olamni ularga taqsimlab berajakligini aytibdi. Biroq, oldimga navbat bilan kelinglar, deb buyuribdi. Bolalari suyuna-suyuna, xuddi ota-onasidan ajralib chiqsa olam guliston bo'ladigandek, har kim, chekimga eng yaxshi yer tushsa edi, deya oshiqib, ota eshigi oldida navbat kutibdi. Yer talashish boshlanibdi. Og'a-inilarning eng yaxshi yerni qo'lga kiritish uchun talashib-tortishayotganini ko'rib, dili og'rigan otaning Qoraqalpoq ismli kichikfe'l bir farzandi: "Otamning qulog'ini hech bo'lmaganda bir tovushdan tinch qo'yay", degan xayol bilan uxlab-uxlab, talashish-tortishish tugagandan keyin, huzuriga boribdi.

Ota uchun hamma farzand baravar!

— E-ey, bolam-ey, shu paytgacha qayoqlarda yuruvding? Senga tuzukroq yer qolmadi-ku! — debdi u bo'sh-bayov o'g'liga achinib.

— Hecham qolmadimi?

— Qolmadi emas, qoldi! Biroq olishga hech kimning yuragi betlamagan, qumloq deb qumloq emas, tog'-tosh deb tog'-tosh emas, biydek dala deb dala emas, ko'l deb ko'l emas, sahro deb sahro emas, jonli mavjudot borsa, tirik qaytishi mushkul, hech bir qardoshing xohlamagan "Borsa kelmas" deya dovruq qozongan dardisar yer qoldi, bolam! — debdi Odam Ato.

— Mening o'z yerim bo'lsa, bas, Ota, — debdi Qoraqalpoq.— Giyoh o'smaydigan yerni gul qiladigan ham, o'sgan giyohni tag-tomiri bilan quritadigan ham, yerdan elni qochiradigan ham, yerga elni qo'ndiradigan ham, sening avloding — o'zimiz emasmi, Ota?

Odam Ato bo'sh-bayov, lekin aqlli farzandining bu gapidan mamnun bo'lib manglayini silabdi-da, "Borsa kelmas" qay taraf-

daligini ko'rsatibdi. Bola otasi ko'rsatgan tarafga qarab sekin yo'lga tushibdi. "Borsa kelmas"ni topib boribdi. Taqdiriga shukur qilib, ovloq bir chekkada qamishdan kapa quribdi.

Qariyalarning hangomalaridan: "Borsa kelmas"da yashash, yegulik-ichgulik topish bobokalonimiz uchun juda mushkul kechibdi, shunda ham u taqdiriga shukur qilib, o'ziga tekkan yerni bir chetdan o'zlashtirish harakatiga tushibdi. Dastlabki yillari har qancha mehnat qilmasin, bolalarining qornini to'ydirolmay, amal-taqal qilib umr kechiribdi. Har qalay, o'zining sabr-toqat bilan qilgan astoydil mehnati tufayli Ona yerida dastavval uch xil o'simlik ko'kartirishga muvaffaq bo'libdi.

Birinchisi To'rang'il deb ataladi. Uning shoxlari tarvaqaylab ketgan, po'stlog'i g'adir-budir, ko'pincha egrayib-bukrayib o'sadi. O'tga tashlasang, lovullab yonadi, biroq yolqini ko'p saqlanavermaydi.

To'rang'ilning bukrligi bobolarimizning serzahmat mehnatdan egilgan belini anglatadi. Shoxlarining tarvaqaylab ketishi qadimda bobolarimizning chor tarafdan najot izlab, aftodahol yashaganini ko'rsatadi. Po'stlog'ining g'adir-budirligi "Borsa-kelmas"ni odamzodga foydali ekinzorga aylantirish uchun biydek dalada jazirama oftob tig'i ostida ter to'kib qilingan og'ir mehnat tufayli qorayib, dag'allashgan yuz-u qo'llarining belgisi. O'tda yongan paytdagi otash yolqini odamzodga mehr-muhabbatidan nishona. Cho'g'ining ko'p saqlanmasligining boisi "Borsa kelmas"da o'sgan bobolarimiz avlodlarining ozligidan, zaifligidan nishona. Biroq, baribir to'rang'il o'z yerining ko'rki. Imoratlarning tepasi shu to'rang'il bilan yopilgan, tobutlar shu to'rang'ildan yasalgan...

Ikkinchisi Mayalish deb ataladi. Uni qor ostidan sug'urib olib suvga botirib, o'tga tashlasangiz ham lovullab yonaveradi. Bu qoraqalpoqlarning *Mehnat* desa ham, *Dushmanga qarshi jang* desa ham, hamisha shay turishidan nishona. Odam bolasiga taft berish uchun har qanday sharoitda lovullab yonishga shayligidan nishona.

Uchinchisi Qovg'a deb ataladi. Uni bir necha kun quyoshda quritib, keyin olovga tashlasangiz ham yonmaydi, molga bersan-

giz, mol yemaydi. Bu ba'zi bir qoraqalpoq bobolarimizning odam qatorida, xalq qatorida yurgani bilan, o'zidan va o'z urug'idan boshqaga batamom loqayd fe'lidan nishona.

Mana shu uchta o'simlik "Borsa kelmas"da ko'kartirilgan dastlabki giyohlar edi. Bobodehqonlarimiz bulardan tashqari yana ko'plab mevali daraxtlar ekib ko'kartirishga harakat qilganlar. Qo'li gul inson mehnati mislsiz mo'jizalar yaratishi mumkinligiga amin bo'lganlar. Kelgusi nasllarga mehnatsevarlikni vasiyat qilib qoldirganlar. Avlodlar ham bobolar vasiyatiga sodiq yashaganlar. "Borsa kelmas"ni obod o'lkaga aylantira boshlaganlar. Ming afsuski, ko'plab talafotlarning ibtidosi yer emasmi! Odamzodni tahlika-yu g'ulg'ulaga solib, bir xalqni ikkinchisiga yovlashtirgan talay-talay qattol urushlar mana shu yer uchun bo'lmaganmi, axir.

Ko'cha biyining aytgani: Ovulimizdagi ko'hna qo'nish degan ko'chada yashaydigan ikki qo'shni hovlilari o'rtasida urilgan paxsa devor birining yeriga bir qarichcha o'tib ketgani uchun hali-hanuz janjallashadi.

* * *

Qoraqalpoq yeridan bir kaft tuproq olib, hidlasangiz, undan qon isi anqiydi. U "Borsa kelmas"da yo'l topolmay adashib, bir-biri bilan g'ajishib o'lgan hayvonlar qoni emas, odam qonining isi. Istagan yerga belkurak ursangiz, belkuragingiz nimagadir shaqirlab tegadi. Bu shaqirlayotgan tosh emas, o'lgan hayvonlarning suyagi ham emas, odamning suyagi, "Borsa kelmas"ni gullatib-yashnatish yo'lida jonini tikkan bobolarning suyagi. Tug'ilgan yeriga to'kilgan ko'z yoshlarini quritish yo'lida serzahmat mehnatda jon taslim qilgan avlodlarning suyagi! Ona-yurtni tashqi dushmandan himoya qilish maqsadidagi ko'pgina qonli olishuvlar tufayli behisob joylarning "Qumbosgan", "Qizketgan", "Bolashahid", "Qo'yqirilgan", "Maslahattepa", "Qonli ko'l", "O'tesh botirning qabri", "Qonli yop", "Tuproqqal'a", "Ellikqal'a", "Yonboshqal'a", "Nozlimxon suluv" kabi minglab tarixiy nomlar bilan atalishi bejiz emas! Qatrada quyosh aks etganidek, bu atamalarning har qaysisi turli-tuman afsonaga asos bo'lgan. Har bir afsona

esa, o‘zicha bir tarix, o‘zicha doston, butun boshli bir davr.

Mahalliy atamalar haqida qariyalar gurunglaridan: Qumbosganning nega “Qumbosgan” deb atalishi haqidagi afsonalardan birini eshiting: qadim zamonlarda bir dono dunyodan ko‘z yumish oldidan Hasan-Husan o‘g‘illarini yoniga chaqirib gap boshlabdi:

— Bolalarim, o‘zlaringizga ma’lum, har qaysisi bir tanobdan ikki bo‘lak yerim bor. Bir bo‘lagi unumdor, ikkinchi bo‘lagi sho‘rxok. Ikkovingga har bo‘lakdan yarim tanob-yarim tanobdan berishim ham mumkin edi. Biroq men bunday qilmoqchi emasman. Sababi, ikkovingiz vaqtida bir qoringa siqqan bo‘lsalaringiz ham, bu keng dunyoda tinch-totuv, qo‘shni bo‘lib, bir yerda yashay olmaysizlar. Buni men odamlarning qismatlarida ko‘p ko‘rdim. Shuning uchun har biringiz alohida bir bo‘lagiga ega bo‘ling. Sho‘rxok tarafi kimning chekiga tushsa, men unga butun mol-dunyomni qo‘shib meros qoldiraman. Chunki sho‘rxok yerni epaqaga keltirish uchun ko‘p kuch kerak.

Bu oqilona taqsimotga bolalari darrov rozi bo‘lishibdi. Shunda ham otasi ularni norozi qilmaslik uchun chek tashlabdi. Hasanga unumdor bir tanob yer, Husanga sho‘rxok bir tanob yer bilan birga mol-dunyo meros tegibdi.

Egizaklar chekiga tushganidan quvona-quvona, alohida alohida uy solib yashay boshlabdilar.

Husan o‘ziga tekkan sho‘rxok yerni epaqaga keltirish o‘rniga otasidan qolgan mol-dunyoning kuchi bilan aysh-ishratga mukkasidan ketibdi. Ko‘p o‘tmay, bor bud-shudini sovurib, tamomlabdi.

Endi u akasi Hasandan yordam so‘rashga majbur bo‘libdi. Hasan uning iltimosiga bir marta xo‘p debdi, ikki marta xo‘p debdi, uch marta xo‘p debdi. Axiri achchig‘i chiqib:

— Yerni epaqaga keltirish o‘rniga hamma pulingni aysh-u ishratga sarflab bitirding, endi senga hech nima bermayman, — debdi.

Husan akasidan xafa bo‘lib ketibdi-da, sobiq ulfatlarini chaqirib, ular bilan birga uyining qoshiga qum tashishga tushibdi. Ancha kun tashibdi. Kattakon uyum hosil bo‘libdi. Bir oqshom Husanning uyidan Hasanning uyi tarafiga qarab kuchli dovul turibdi.

Husan fursatdan foydalanib, tezda ulfatlarini chaqiribdi-yu, qum uyumini osmonga to'zg'itaveribdi. Tuni bilan to'zg'itibdi. Ertalab qarasalar, Hasanning unumdor dalasini yoppasiga qum bosib qolibdi. "Qumbosgan" degan nom mana shundan qolgan ekan.

— Qoraqalpog'istonning bir yeri sho'rxok, bir yeri qumloqligi o'sha Hasan-Husan avlodlarining bir-birlariga ola qarashlari sababli ekan-da!..

— Shunday, shunday!

— Nukus shahrining qoq o'rtasidan kesib o'tadigan Qizketgan soyining nomi nima uchun "Qizketgan" deb atalishi haqidagi ko'pdan ko'p afsonalardan men ham bittasini aytib bermoqchiman, eshitinglar: Amudaryo bir paytlar "Jayhun" deb atalgan. Jayhun daryosidan bir yarim chaqirim olisda joylashgan kichkina bir ovul daryodan qovoqda suv tashib ekinini sug'orar ekan. Bu ovuldagi bir beva ayolning yuzlari oydek, sochlari tundek, qoshlari qunduzdek nihoyatda suluv Oysha ismli bir qizi bor ekan. Oysha ovuldoshlarini mushkul ahvoldan qutqarish maqsadida bir kuni ko'chaga chiqib: "Kimda kim Jayhundan ovulgacha ariq qazishga bel bog'lasa, men o'sha odamni sevaman", deya jar solibdi.

— Bir yigit qazib bitkaza olmaydi-ku! — deyishibdi ovul odamlari.

— Nechta yigit qazishga chiqsa, hammasini suyaveraman! — debdi qiz.

Odamlar Oyshaning bu gaplarini noto'g'ri tushunib, uni ovuldan badarg'a qilishibdi. Qiz ovuldan bosh olib ketgancha, boshqa ovullardagi yosh yigitlarni yig'ib, qazuvni boshlab yuboribdi. Ariq qazilib, ovuliga suv kelgan kuni qiz ariq yoqasiga chiqib:

— Yigitlar, men va'damga vafo qilib, barchangizni baravar sevaman, sizlarga bundan keyin ham ruhan madad bo'laman! — deya hayqirib, toshqin soyga o'zini otibdi...

Xalq ana shu yangi soyga "Qizketgan" deb nom qo'yibdi.

— Men bo'lsam, sizlarga "Bolashahid" haqida aytib bermoqchiman: bir ota-bir onadan tug'ilgan Hasan bilan Husanning avlodlari yillar o'tib, o'zlaridan ko'payib, naq ikki ovul bo'libdi. Bobokalonlari bitta bo'lgani bilan, har birida o'zicha urf-odatlar, dunyoqarash-u fikrlash tarzi shakllanib, bu ikki ovul o'rtasidagi

tafovutlar ziddiyatlarga aylanibdi. Ularning har birida xudbinona, yovuz niyatlar uyg'onibdi. Bir yili Hasanning avlodida bolalar juda ko'p tug'ilib, chorak asrdan keyin ovul uchun joy torlik qilib qolishi mumkinligi ularni o'ylantirib qo'yibdi. Bu tashvishli o'ylar qo'shni ovulga ham ma'lum bo'lib, ular chorak asrdan keyin Hasanning ovuli tarafidan kelish ehtimoli bo'lgan xavf-xatarning oldini olish uchun turli-tuman hiyla-nayranglar o'ylab topish harakatiga tushibdilar. Axiri bir tullak biyni qo'shni ovulga elchi qilib jo'natibdilar-da, ularning bolalarini tarbiyalab berishga xohish bildiribdilar. Ovul odamlari bolalarning o'z ota-onalarini unutib yuborishlaridan qo'rqib, bu taklifni rad qilishibdi. Shunda elchi bo'lib kelgan biy o'z tarbiyalariga olmoqchi bo'layotgan bolalarning ro'yxatini tuzib, ularning har biri uchun tilxat berajagini, kerak bo'lsa, qachon ota-onalarini ko'rishni istasalar, ovul darvozasi ochiq turajakligini ma'lum qilibdi. Xullas, ularni ishontirib, bolalarni o'z tarbiyasiga olibdi... Oradan bir oy o'tar-o'tmas, ko'pchilik ota-onalar o'z bolalarini ko'rish uchun kelsalar, bittasiyam yo'q emish.

— Bolalarimiz qani? — deb so'rashibdi ular, bosh biyning huzuriga kirib.

U ota-onalarni yangi qabristonga boshlab boribdi.

— Bu qanaqa qabriston? — deb so'rashibdi ota-onalar, yuraklari uvishib.

— Yigirma besh yildan keyin ovulimiz boshiga yog'iladigan xavf-xatarning oldini olib, mana shu yerda bolalaringizni shahid qildik, — debdi biy.

Ota-onalarning fig'oni falakka chiqib, biyga tashlanibdilar. Uning go'shtini nimta-nimta qilib, qabristonga sochib tashlabdilar. Baribir bu bilan hech kim alamdan chiqolmabdi, hech nima o'zgarmabdi. O'sha qabriston esa "Bolashahid" deb atala boshlanibdi.

— O'sha yovuz odamlar bizlarning bobolarimiz emasmikin?

— Oz sonli bo'lib qolganimizga sabab bunday yomon illatlarning yuqumli irsiy kasallikdek nasl surishidan bo'lsa ajab emas!

"Qo'yqirilgan" nomining kelib chiqishi haqida men shunday afsona eshitganman: Hasan-Husanga o'xshab bir ota-onadan

tug‘ilgan ikki o‘g‘ilning avlodlari o‘sib-unib, gurkirab turgan ikki elat bo‘lib yashayotgan yillarda, bir ovulga narigi ovulning dalasi o‘ta hosildor ko‘rinib, uni qo‘lga kiritish yo‘llarini axtarishga tushibdi. Shu maqsadda begona yurtlardan qurol-aslaha keltiribdi-da, elatdoshlarining ovulini qurshovga olibdi. Qurshovda qolgan ovul odamlari ahvolning tangligini sezib: “Hamma homilador ayollarni, demakki, naslimizni omon saqlab qolishning yagona yo‘li shu”, deb jamiki qo‘ylarni bir chekkadan bo‘g‘izlabdilar. Ikkiqat ayollarning ustiga qo‘y terisini yopib, ovuldan birin-ketin chiqarib yuboraveribdilar. Tevarakda payt poylab turgan qurolli navkarlar tizilishib kelayotgan “qo‘ylar”ni birin-ketin otib o‘ldiraveribdilar. “Qo‘yqirilgan” degan nom ana shundan qolganmish.

Bugun o‘zimcha shunday tusmol qilamanki, ikkiqat ayollarni qo‘y terisi ostida qurshovdan qutqarishni maslahat bergan odam qo‘shni ovulning ayg‘oqchisi bo‘lsa kerak.

* * *

— “Hech bir elni chetdan kelgan yov yengolmaydi, ichingdan chiqqan yov yomon”, “O‘zingdan chiqqan baloga, qayga borarsan davoga” deganlari haqqosti rost, — derdi bobom.

— Ichki sir-asroringni bilishga ishqiboz do‘stingdan qo‘rq, — derdi otam.

— Hamma janjal-to‘polonning, qirg‘inbarotlarning ildizi yerga to‘ymaslik. Boriga shukur qilishni o‘rganish kerak, — derdi onam.

— Odamning ko‘zi bir siqim tuproqqa to‘ladi, degan naqlga o‘zim og‘riganimdan beri ishonib qoldim. Masalan, endi menga keragi ikki qulochgina yer! — derdi xasta yotgan momom.

...Har qalay, eng mushkul paytlarda ham xalq otameros yerini sevdi, asrab-ardoqladi, uni gullatib-yashnatish yo‘llarini axtardi. Zamonlar suroni boshiga qanday ofat, kulfat toshlarini yog‘dirmasin, barchasiga mardona bardosh berdi.

Agar qudratli yov bobolarimiz suv ichgan daryo bo‘ylarini ishg‘ol etgudek bo‘lsa, ular qaqroq dalalarini peshona terlari bilan sug‘ordilar. Agar qudratli yov qora bulut bo‘lib, quyoshli osmonni to‘sib qo‘ysalar, ular ekin dalalarini o‘zlarining otash nafaslari

bilan isitdilar. Xullas, zamonlar oqimining ne-ne qattol suron-u to'fonlariga sabot-matonat bilan bardosh berdilar. Lekin bu xalq boshqalarga zug'um o'tkazish fikridan yiroq bo'ldi. Vaqti kelib dushmanlarimizga otamiz, degan shum niyat bilan qo'ltig'iga tosh yashirmadi. Odamlarning, odamzodning mehriga ishonib yashadi. Garchi qachonlardir ro'y bergan qudratli suronlar, dosh berish mushkul bo'lgan bosqinlar tufayli o'z makonlarini tashlab ketishga majbur bo'lsa-da, hech bir avlod hech qachon o'z otamakonini unutmadi. Oradan necha-necha yillar, asrlar o'tsa-da, oxir-oqibat, otameros yurtiga qaytib kelaverdi. Yana o'sha "Borsa kelmas"ni gullagan bog'-u bo'stonga aylantirishdek azaliy ishi bilan mashg'ul bo'laverdi.

Davrlar suronlari ajdodlarimizni qanday mushkul ahvollarga giriftor etmadi deysiz? Bobolarimiz kechmishlari vaqti-vaqti bilan, xuddi o'z bandidan uzilgan kuzgi yaproqdek, sargardonlik bo'ldi va har gal yangi kurtak bo'lib qayta nish urib chiqaverdi! Goh arg'umoq ot oldida haydalgan asir, goh o'zgalarning aravasiga qo'shilgan jafokash ot bo'ldi. Gohi yillari baland tog' bag'rida beg'am-betashvish shataloq otib o'ynagan jayron yanglig' emin-erkin yurganida davr zilzilalaridan larzaga kelib qulagan tog' ko'chkilarining ostida yoppasiga gala-gala bo'lib qirildi.

Ammo butun boshli xalqni qirib bitirish mumkin emas. Xalqning umrini qisqartirish ham mumkin emas! Bobolarimiz qaqnus qushdek kul ostidan yana qad tiklab, tag'in otameros yerini yashnatish harakatiga tushaverdilar...

Har qanday jarohat vaqt o'tishi bilan shifo topadi, biroq uning izlari saqlanib qoladi. Dunyo xaritasiga diqqat bilan qarasangiz, butkul Yer yuzida "Borsa kelmas" deya nomlangan ikki nuqta borligini ko'rasiz: biri — hozirgi Qoraqalpog'istonda, ikkinchisi — Orol dengizining qoq o'rtasida. Ikkalasi ham eng qadimiy, cheki-chegarasi yo'q "Borsa kelmas"ning qoldiqlari. Biz yashab turgan o'lka bir paytlar "Borsa kelmas" bo'lganiga hozir hech kim ishonmaydi. Qoraqalpog'iston bo'ylab o'tgan temiryo'lning bir stansiyasigina o'sha ko'hna nom bilan "Borsa kelmas" deb ataladi.

8

Bizlar bir ota-onadan tug'ilgan to'rt o'g'il, ikki qiz — olti aka-singilmiz. Har qaysimizning fe'l-atvorimiz ham, dunyoni tushunishimiz ham har xil. Bundan qat'i nazar, uka-singillarim meni bir tomondan yoshi katta deb hurmatimni joyiga qo'ysalar, ikkinchi tomondan siz boshqacharoq tarbiyalangansiz, deyishib, qarindoshlar orasida menga ko'proq mas'uliyat yuklashga moyillik bildirishadi. Ulardagi bu mayl xususida o'ylarkanman, beshalasining fe'l-atvori bir-biriga o'xshashdek, dunyoqarashlarida ham allanechuk mushtaraklik bordek, faqat men ulardan ajralib turadigandekman, boshqacharoqdekman. Nega? Sababi o'zimning ulardan avvalroq tug'ilib, ota-onamning to'ng'ich o'g'li, bobom bilan momomning to'ng'ich nevarasi sifatida hamisha diqqat-e'tibor ostida bo'lganim, umr alifbosini to'rttalasidan barvaqt o'rganganim, to'rt xil saboqni o'zaro muqoyasa qilib o'sganimda bo'lsa kerak. Bu to'rt murabbiy esa, meni shunday tarbiyaladilarki, har biri o'z umrida yo'l qo'ygan xatolarni takrorlamasligim uchun qanday yutuqqa erishgan bo'lsalar, barchasini menga baxshida etib, yutuqlarim ko'proq bo'lishi uchun astoydil harakat qildilar. To'g'ri, ular barchamizga xolis niyat bilan qarardilar, albatta. Biroq, nazarimda, hamma gap shundaki, men o'zimdan kichikroq beshta uka-singillarimga nisbatan bobom bilan momomning tarbiyasini ko'proq olib ulgurdim. Bobom Hakimniyoz, garchi alifni kaltak deb bilsa-da, o'zi yashagan davr talablariga, turmush falsafasiga tez moslashuvchan odam edi. Momom Bibizohida ham savodsiz edi. Ammo turmush doshqozonida obdan qaynab-pishgan, hayot haqida o'zining sobit tushunchalariga ega, bu tushunchalarini o'zgartirishni ko'pda istayvermaydigan odam edi. Xullas, bobom ham, momom ham o'z davrining, ta'bir joiz bo'lsa, tipik vakillari edi.

Bobom bilan momom tabiatan o'zaro sig'ishavermaydigan odamlar edi-yu, biroq juda ahil yashardilar. Biri ikkinchisiga ovozini andak ko'tarib gapirganini eshitmaganman. Nazarimda, ular bir tanganing ikki tarafi, bir choponning avra-astariga o'xshardilar.

Har qalay, momom menga o'tmishning eng og'ir, mudhish

tomoni bo'lib ko'rinardi. U kishi aytgan tarixiy hangomalar biz nevaralarning ko'z oldimizda qora o'tmishning dahshatli manzaralarini paydo qilardi. Bu kampir tabiatan o'ta kamgap edi. Mabodo ko'ngli iyib biron-bir yangi hangoma, ertak, afsona aytgudek bo'lsa, kutilmaganda chechanlashib ketardi. Bu afsonalar, odatda, Xudoning nomi bilan bog'lanmasdan qolmasdi. Momom afsona boshlaganida biz nevaralar tugul bobom ham, ota-onam ham ma'yus tortib, vahimadan titrab-qaqshab o'tirardik. Xuddi kuppa-kunduzi bexos yerto'la zulumoti bostirib kelgandek, uy derazalariga qora parda tutilgandek tuyular edi.

Men maktabda o'qib, ajabtovur savod chiqargach, momomning oldiga har qancha yangiliklar, xushxabarlar olib kelmayin, u o'zining umr falsafasidan bir qadam ham chekinmadi. Bu falsafaning mohiyati: "Odam bolasi yolg'izlikka mahkum. U xoh ota-onasi yo qarindosh-urug'lari, xoh do'st-birodarlari, xoh o'z farzandlari davrasida bo'lsin, baribir, yolg'izlikka mahkum bo'lib qolaveradi. Sababi har bir odam bu dunyoda yakka-yolg'iz holda tug'iladi, shu yakka-yolg'izligicha o'ladi".

Momomning bu falsafasi hech qachon yodimdan chiqmasdi. O'zim o'qigan har bir kitobdan uni rad etuvchi javob qidirardim, biroq hech bir kitob meni to'la qanoatlantira olmasdi. Shuning uchun momom bilan bahslasholmasdim ham. Momom o'z umrining oxiriga qadar (1945-yilning yozida qazo qildi) besh vaqt namozini kanda qilmadi. Qattiq og'rib yotganida ham, hech bo'lmaganda qo'llarini harakatga keltirib namoz o'qirdi. Goho uyda kartoshkadan boshqa yegulik qolmasa-da, kartoshka ota-bobolarimizning yemishi emas deb, uni biron marta tatib ko'rmagan ko'yi, dunyodan ko'z yumdi.

Bugun o'sha antiqa fe'lini eslarkanman, bechora momomning o'zi o'z uyida, o'z bola-chaqasi, nevaralari qurshovida ham yakka-yolg'iz yashagan ekan-da, degan xayolga boraman.

Har qalay, keyinchalik — pedinstitutda o'qib yurgan kezlarimda momomning yolg'izlik haqidagi qo'hna falsafasi xayolimni bolalikdagidek asir qilmasdi. Lekin o'zimda uning ta'siri borligini sezardim.

Bobom, ta'bir joiz bo'lsa, kiyila-kiyila to'zgan eski chopon-

ga o'xshardi. Biroq u aytgan hangomalar, pand-nasihatlar, uning ko'pgina odat-ko'nikmalari, xatti-harakatlari bizning zamonamizda ham bemalol kiysa bo'ladigan, hech qachon ohori o'chmas choponga o'xshardi...

Bobom 15–20 yoshlarida Berdaqni o'z ko'zi bilan ko'p marta ko'rgan, gaplarini tinglagan. Uning qiziq-qiziq hangomalari aksar Oydo's bobo haqida bo'lardi. El orasida "Oydo's biy sotqin bo'lgan" qabilidagi har xil gaplar yurishiga qaramasdan, uning otini o'zgacha bir hurmat-ehtirom bilan tilga olardi. Hech qachon "Oydo's biy", demasdi. Hamisha "Oydo's bobo" deya e'zozlab tilga olardi. Berdaqning "Oydo's bobo" dostonini shoirning o'z og'zidan eshitganini faxrlanib uqtirardi-da, keyingi paytlarda aytilib yurgan "Oydo's bobo" dostonidan norozi bo'lib: "Buni qaysi do'zaxi o'zgartirib xalq orasiga yoydiykin-a?", deya jig'ibiyroni chiqardi. Men, ko'pincha, bobomning hangoma-yu afsonalariga qiziqib, oqshomlari pinjiga kirib yotardim. Bunday paytda bobom to uxlab qolgunimga qadar gapdan to'xtamasdi. Qovun qo'riqlovda-ku hamisha birga yotardik. Bobomning har galgi odati — menga ovqatdan keyin qanday fotiha qilishni, qo'rqqanda yoki uyqu oldidan qanday kalima keltirishni bir marta takrorlatib olgandan keyingina uzoq-uzoq hangomalarga o'tardi.

Ba'zan qovunpoiiz tepasida uxlamasdan gaplashib yotsak ham, qovunimiz o'g'irlanganini yo bo'lmasa eng shirin qovunlarni shoqollar bilan itlar chala-yarim yeb ketganini faqat tong otganda bilib qolardik. Bobom juda afsuslanib: "Hay attang-a!", deya o'kingancha o'tirib qolardi. Men esa unga rahmim kelib, qoziqqa bog'langan qo'zichoqdek tevaragida aylanaverardim. Shu payt yo'lda biron-bir odam ko'rinib qoldimi, tamom, bobom qayg'usini darrov unutardi-qo'yardi. O'zining nosvoy shishasi to'la bo'lsa ham, yo'lovchiga peshvoz chiqib, nosvoy so'rardi-yu, uni suhbatga tortardi. Suhbat chog'i meni yonidan jildirmasdi. Agar suhbat qizisa, suv bosib ketsayam yoxud qovunlarni it yeb yotgan bo'lsayam, meni ishga buyurmasdi. Suhbatdoshi ketganidan keyin, suv bosgan dala boshida yalangoyoq loy kechib yurgan ko'yi: "Hechqisi yo'q, bolam, hozir suvni pastlikka endiramiz, haligiday gurungga ishqiboz odamlarni bo'lsa, topish

qiyin", derdi.

Polizni suv bossa ham qimirlamay eshitgan afsonam: Chingizxon o'ziga qarshi bosh ko'targan elatlarni yo'l-yo'lakay yakson qilib, o'rislar mamlakatining chegarasiga yetib kelganida, to'satdan qattiq qorbo'ron boshlanibdi-da, bir muddat to'xtashga majbur bo'libdi. Qahri qattiq xon bekor yotishdan zerikib, lashkariga: "Kim agar qordan odam yasasa, unga otning kallasidek oltin in'om etaman", deb ma'lum qilibdi. Hamma navkarlar qordan odam yasashga kirishib ketishibdi. Agar kimdir qordan odam yasagani haqida xonga xabar yetkazsa, xon o'sha zahoti borib, qor odamni qilichi bilan chopib tashlarkan, tamom-vassalom! Na biron gap aytarkan, na va'da qilgan in'omini berarkan. Navkarlar orasida yolg'iz o'g'li bilan yurgan bir chol bor ekan. U xonning kutilmaganda bunday ermakka ruju qo'yib qolganining ma'nosini o'ylay-o'ylay, o'zicha xon "Navkarlarim yaqinroq o'ris ovullaridan odamlarni asir olib, ularni qorga ko'mib, qor odam yasarmikan", degan shum niyatda bo'lsa kerak, deya taxmin qilibdi. Biroq bu taxminini hech kimga aytolmay jimgina yuraveribdi. Umri bino bo'lgandan beri kambag'allikdan boshi chiqmay yashagan qariya: "Yolg'iz o'g'limni qanday baxtli qilsam ekan?" deb ko'pdan beri bosh qotirarkan. Hech kim Chingizxonning ko'nglidagidek qor odam yasay olmayotganini ko'rgan chol, nihoyat, o'g'lini oldiga chaqirib:

— Bolam, biz yetti otasi ham qorni to'ymay o'sgan xalqning avlodimiz. Hech bo'lmaganda sendan keyin yashaydigan avlodlarimizning tashvishini qilsak bo'larmidi, — debdi.

O'g'li ajablanib:

— Xo'sh, nima qil deysiz? — deb so'rabdi.

— Mening taxminimcha, Chingizxon nochor-notavon, kasalmandroq navkarlarning qor odamga aylantirilishini kutib yotganga o'xshaydi. Shuning uchun bugun tunda men dalaga chiqib sovuqda tik turay. Sen muzdek suvni olib kelib ustimdan quyaver. Qarabsanki, tarashadek qotib qolaman. Ertalabgacha qor yog'sa ustimga yopishadi. Ana shunda sen Chingizxonning oldiga borasan-da, qordan odam yasadim, deb xabar qilasan. U senga otning

kallasidek oltin beradi.

— Yo‘g‘-e, qo‘ysangiz-chi, bunday qilib boyigandan... — achchiqlanibdi o‘g‘il.

— “Yo‘q”ing nimasi?! — debdi cholning ham jahli chiqib. — Baribir umrim bitib turibdi. Bugun bo‘lmasa ertaga o‘laman. Bekorga o‘lib ketaveraman. Meni ko‘madigan siyoqing ham yo‘q. Otasining o‘ligini ko‘chada qoldirdi, deb odamlar sendan kulishadi. Meni qor odamga aylantirsang, ulug‘ xonning shartini bajarib, tuhfa olasan, boy bo‘lasan. Otning kallasidek oltini bor odamning otasini hamma hurmatlab, tobutini yelkasida ko‘taradi. Men sho‘rlik o‘lib bo‘lsayam “Mana men” degan lashkarboshilarning yelkasiga bir minib xumordan chiqay.

O‘g‘il o‘ylanib qolibdi. Chol unga yalinib-yolvorib, o‘g‘lining boyib ketishiga sabab bo‘lsa, bu dunyodan armonsiz ketajagini aytib, axiri ko‘ndiribdi.

Shunday qilib, navkar otasini o‘zi maslahat bergandek qor odamga aylantiribdi-da, ertalab xon chodiriga xabar yetkazibdi. Chingizxon choshgohga yaqin lashkarboshilarini ergashtirib qor odamni ko‘rishga kelibdi. Qarasa, naq ko‘nglidagidek ish. Xon bir norg‘ul navkariga qor odamni qilich tig‘idan o‘tkazishni buyuribdi. Navkar qor odamga qulochkashlab qilich tortibdi. Qor odam ikkiga bo‘linib qulaganida uning haqiqatan ham odamligini ko‘rib, hamma dong qotib qolibdi.

— Yasha, shartimni ko‘ngildagidek bajaribsan! Oltinni olishdan avval ayt-chi, bu qanday odam o‘zi! — deb so‘rabdi xon.

— Otam edi, — debdi yigit.

Chingizxon navkarning javobini eshitgan zahoti uni imlab ko‘rsatib:

— Buning o‘zi ham qilich tig‘idan o‘tkazilsin! — deb buyuribdi.

— Nega endi?! — deb so‘rabdi yigit yig‘lamsirab.

— Navkarlarimning aqli bo‘lsa, yaqinroq ovullardagi o‘rislarni olib kelib, mana shunday qor odamlar yasar, deb umid qilgan edim. Men seni fahm-farosatli navkar deb oltin bermoqchi edim. Otning kallasidek oltin uchun o‘z otasini ayamagan sendek oqpadar erta bir kun dushmanlarim mushtdek oltin berib, “Shu oqshom

lashkarlarning chodiriga o't qo'y" yo "Chingizxonni o'ldir" desa, tap tortmay bajaraverishing mumkin ekan. Sendek haftafahmning umri qisqaroq bo'lgani ma'qul, — debdi.

Shundan keyin Chingizxon yigitning qaysi xalqdan ekanligini so'rab bilibdi-da, qo'l ostidagi navkarlar orasida qoraqalpoq borki, hammasini qirib tashlabdi...

* * *

Bobom uyga qariyalarni bot-bot chaqirib, ular bilan hangomalashishni yaxshi ko'rardi. Uy ichidagilardan kimdir bu fe'lini yoqtirmay qovoq uysa: "Sen unday qilma! Mehmon atoyi Xudo, dunyoning darakchisi", derdi.

Mehmon kelmagan kuni u meni ergashtirib Ko'cha biyining uyiga borardi yo bo'lmasa, uni uyga chaqirib qaytardi.

Qariyalar yig'ildi deguncha o'choq tevaragida hangoma qizib ketardi. Qadimda o'tgan shoirlar, donolar, botirlar, xalqimiz tarixi haqida uzoq-uzoq suhbatlar, bahs-munozaralar boshlanadi. Hadeb mehmon kutaverish uydagilarga andak malol kelardi, albatta. Sababi — boshqalarni mehmon qilish tutul, o'zimizning to'yib ovqat yeyishimiz qiyinlashgan paytlar, har qalay, bo'lib turardi.

Bunday hollarda bobom:

— Endi-i, har bir xalq nimasi bilandir faxrlanadi. Masalan, tog'li elatlar tog'-toshlari bilan, osmonni bo'ylagan shunqorlari bilan maqtanadi. Anovi cho'qqining narigi tarafida sen bilmaydigan go'zal o'lkalar bor, ajoyib bog'-rog'lar bor, deb maqtanadi. Bizda unday tog'lar yo'q. Biz maqtanadigan tog' — uyimizning ostonasi. Kim bo'sag'amizni hatlab ichkari kirsa, unga maqtanadigan go'zal o'lkamiz — bola-chaqamiz. Ko'z-ko'zlaydigan ajoyib bog'-rog'imiz esa, bisotimizda bori to'kilgan dasturxon. Bizlar maqtanadigan shunqor — mehmon sha'niga so'yadigan tovug'imiz, — derdi jo'shib.

Bobom uyda yegulik hech vaqo yo'qligini ham o'zicha oqlardi: "Mehmon o'z nasibasi bilan keladi. Xudo uning rizqini mehmon keladigan uyga qirq kun avval sochib qo'ygan bo'ladi, shuning uchun hech qisinmanglar, mehmon kelsa, uyimizdagi o'z

nasibasiga keladi", deb hammamizni yupatardi.

Tabiatan otam momomga, onam bo'lsa, bobomga yaqinroq edi.

Onamning mehmonga qovoq uygan vaqti bo'lgan emas. Kunduzi ishdan charchab kelsa ham, peshonasini tirishtirmay, yelib-yugurib, mehmonlarning xizmatini qilardi. Onamga asosiy ko'makchi o'zimman. Ko'pincha o'choqqa o't yoqib turaman. Mol yemay qolgan dag'al xashak qozonni yo qumg'onni tez qaynatishi u yoqda tursin, o'choqni ham tezda qizdira qolmaydi. Shuning uchun xashakni o'choqqa ortini uzmay peshma-pesh tiqib turishim shart. Charchab yoki bo'lmasa sovuq kunlari olov taftida mudrab andak tek qolsam, onam biqinimni qattiq chimchilab: "Gapni eshit!" deydi. Eshitmay qolishdan qo'rqaman. Onam ham, xuddi bobomga o'xshab ertasi kuni: "Kecha mehmonlar nimalarni gaplashishdi?" deb albatta so'rab-surishtiradi. Javobdan adashsam, qattiqqo'l onamdan ta'zirimni yeyman — kamida bir shapaloq deyvering.

Onam ovuldoshlari orasida so'zga chechanligi, hozirjavobligi bilan dovruq qozongan ayol edi. Ovulda to'y-ma'raka bo'lsa, onam bosh-qosh, qizlar bilan yigitlarning "choyxo'rlik" kechalarida qizlarga bosh yanga o'zi. "Choyxo'rlik" hozirgi til bilan aytganda, qizlar bilan yigitlarning tanishuv kechasi. Bazm taomiliga ko'ra, qizlar bilan yigitlar bir uyga yig'iladilar-da, ikki tarafga bo'linib choy ichadilar. Qizlar bir qatorga tizilishadi, yigitlar ikkinchi qatorda chordona qurib yo cho'kkalab o'tiradilar. Xullas, kim dastlab kelgan paytida qanday o'tirgan bo'lsa, to bazmning oxiriga qadar shu alfozda o'tirishi shart. Yigitlar tarafni "yigit og'asi", qizlar tarafini "qizlar yangasi" boshqaradi. Bundan maqsad, albatga, choy ichishgina emas, avvalo bir-birlarining irodasi, fe'l-atvorini sinash. Bazm davomida qizlar ham, yigitlar ham har xil hikmatli gaplar, purma'no hangomalar aytishadilar, xushmuomalalik, odob-ikrom, nazokat-nafosat qoidalariga nechog'li rioya qila olishlarini amalda ko'rsatadilar. Onam meni bu bazmlarning hech biridan qoldirmasdi. Hamisha yonida olib o'tirardi. Bazmlar odatda yarim kechaga qadar davom etardi. Mabodo mudray boshlasam, onam biqinimni chimchilaydi:

"Gaplarni eshit!" deydi. Andak o'tib, yana mudray boshlasam, yana chimchilaydi, qattiqroq chimchilaydi: "Tingla!" deydi. Qaytishimizda meni orqalab yo yetaklab kelayotib, bugungi bazmda nima bo'lganini, nimalarni eshitganimni so'raydi. Javobimni erinmay tinglaydi. Ertasiga yo bo'lmasa uch-to'rt kundan keyin ham bo'shroq vaqti bo'lsa, yana so'raydi. Mabodo unutgan bo'lsam hamishagidek jazolaydi! Tag'in bir narsani onam qat'iy ogohlantirgan: "Mening oldimga maslahat so'rab kelgan qizlardan birontasining sirini ikki oyoqli bandaga oshkor qilsang, osting — yer, usting — tepki bo'ladi", degan. Onam bir so'zli ayol edi. Umr bo'yi o'z so'zining ustidan chiqib yashadi.

Mehmon kutish-ku, bizning asosiy ishimizdek edi. Onam ishining ko'pligiga qaramasdan: "O'g'il-qizi bor uy ozoda bo'lishi kerak", deb uyning ichi tugul, tashqarisini ham, o'n-o'n ikki qadamcha atrof-tevaragini ham yog' tushsa yalagudek qilib supurgani supurgan; tansiqroq taom pishirsa: "Mehmonga tursin", deb ilingani ilingan edi.

Bobom bo'lsa kechga tomon hovlida yo darvoza oldida o'tirib, atoyi xudo — mehmon kutgani kutgan edi.

Endi o'ylab qarasam, bobom ham, onam ham bizlarga uy tarbiyasini kam bilib, ovul tarbiyasidan, keng jahon tarbiyasidan imkon qadar ko'proq tajribalarni uyga olib kirishga intilib yashagan ekanlar.

* * *

...Otam ham, onam ham savodsiz edi. To'g'ri, vaqtida kechki likbezda o'qigan emasmi, otam "Qaipbergen" deb, onam "Gulxan" deb ismlarini lotin alifbosida bir amallab yoza olishardi. Biroq boshqa biror so'zni na o'qish, na yozishni bilishardi. Shu savodsizligi uchunmi, ishqilib, otam zveno boshlig'idan yuqoriroq lavozimga ko'tarilmadi.

Onam esa shu savodi bilan (xotira kuchi, amaliy bilimlar tufayli) traktorchilik kursida o'qib, urush yillarida traktorchilik qildi. Og'ir yillar taqozo etgan bo'lsa kerak, onam o'z kasbini shu qadar chuqur o'zlashtirgan ediki, to hayotining so'nggi oylariga — yetmish to'rt yoshiga qadar, uy oldidan biron-bir traktor o'tib qolsa,

qayerida qanday illati borligini tovushini eshitiboq ayta olardi. Bu gapda mubolag'a yo'q, men xotira, tajriba, amaliyotning buyuk qudratini ta'kidlamoqchiman, xolos.

Otam bilan o'zimning oramizda qandaydir dilsiyohliklar ro'y berganini eslayolmayman. Lekin shu gap xotiramda yaxshi saqlanib qolganki, bir gal bobomdan: "Bobo, otangizning qaysi gapi esingizda qolgan?" deb so'raganimda u shunday javob qilgan edi:

— Men er yeta boshlaganimda, otam: "Bolam, ikkovimiz bir-birimizni tushunolmay qolyapmiz-ku?" degan edi. O'shanda otamning bu gapidan ajablangan edim. Keyinchalik o'zimning bolam (sening otang) er yetganida, men ham unga otam aytgan gapni takrorlashga majbur bo'ldim: "Bolam, ikkovimiz bir-birimizni tushunolmay qolyapmiz-ku?" dedim. Balki vaqti kelib u ham senga shu gapni aytar, sen ham hali o'z bolalaringga shunday dersan.

Rostdan ham, ulg'ayib yigit bo'lgan paytimda otam: "To'lepbergen, seni tushunolmay qoldim-ku?.." deya ajablangan edi.

Mana, o'zimning bolalarim ham er yetdi. O'ylab qarasam, ota-bola bir-birimizni yaxshi tushunmaydiganga o'xshaymiz. Demak, kishilik jamiyatining rivojlanishi uchun dunyoni tushunish borasida avlodlararo tafovut abadiy ekan-da?..

* * *

Men otamning yigirma bir yoshida, onamning o'n to'qqiz yoshida ko'rgan to'ng'ich farzandiman. Garchi, onamning issiq bag'rida, otamning suyib-erkalashlari ostida o'sib-ulg'aygan bo'lsam-da, oiladagi asosiy tarbiyani bobom bilan momomdan olganman.

Bobom bir gapni ko'p takrorlardi; "Bolam, yig'lagandan so'rama, kulgandan so'ra. Yig'lagandan so'rasang — o'lgani, kulgandan so'rasang — ko'rgani bo'ladi".

Momom bot-bot nasihat qilardi: "Bolam, yo'ldan biron narsa topib olsang: yo'ldoshingga ayt, yo'ldoshing bo'lmasa: "Shunday narsa topib oldim!", deb uch marta qichqir. Keyin uni birinchi duch kelgan odamga berib ket!"

Men o‘z vaqtida bu nasihatlarga qanchalik amal qilganimni aytib, maqtanolmayman ham, afsuslanolmayman ham. Biroq ulg‘aya boshlaganimda yuragimdan mustahkam o‘rin olgan ikki tuyg‘uni his qilganim yodimda: birinchisi — kimdir yig‘lab turgan bo‘lsa, mening ham yig‘lagim keladi, kimningdir sho‘x-xandon kulayotganini eshitsam, mening ham ko‘nglimda allanechuk yengillik paydo bo‘ladi, xaxolamasam ham, har qalay, beixtiyor iljayaman. Ikkinchisi — hali-hanuz yo‘ldan biron nima topib olsam yo bolalarim topib, uyga olib kelsa, uni ro‘zg‘orda foydalanishdan or qilaman. Kimgadir topshirib qutulaman. Bu gaplarni, albatta, o‘zimni maqtash uchun aytayotganim yo‘q. Demoqchimanki, har bir odam avvalo odam, binobarin, odamiylik uning qonida bor. Hamma gap o‘sha “qon”ni harakatga keltirishda.

“Odam degan so‘z — boshqalarga bo‘lgan mehr-oqibatning o‘lchovi”, derdi momom.

“Odam” degan so‘z ostida “Sen boshqalarga qanchalik keraksan?” degan savol ham yotadi. Kim o‘ziga bu savolni berolmas ekan, u odam bolasi emas, odam shaklidagi nojins”, derdi bobom.

9

Yosh avlodni tarbiyalashda har bir el, har bir xalqning o‘z tajribasi, milliy taomili bo‘lganidek, har bir oila ham o‘z tajribasiga, o‘z tarbiya usullariga ega.

Endi o‘ylab qarasam, bunday ta’lim-tarbiya tajribasi bizning oilamizda ham bo‘lgan ekan: avvalo bobom yo momom, otam yo onam ko‘p aytadigan har xil hikmatli gaplar, afsonalar, naqllar, hayotiy hangomalar... Qolaversa, ayrim urf-odatlar, marosimlar, to‘y-ma’rakalar. O‘yinlarni aytmaysizmi!.. Ayniqsa uzun kechalari to‘shakka kirib, chiroq o‘chirilgach, o‘zaro aytishadigan “Bizdan bir chumchuq qochdi”, deb boshlanuvchi og‘zaki o‘yinimiz bo‘lardi. Odatda, unga uydagi yosh-u qari hamma ishtirok etardi. O‘yinning tartibi, masalan, shunday:

— Bizdan bir chumchuq qochdi, — deydi birinchi odam.

— Qanday? — deb so‘raydi ikkinchi odam.

— Quloqlari qalqonday, — deydi yana birinchi odam.

— Nechta o‘g‘il, nechta qizi bor? — deydi ikkinchi odam. Birinchi odam andak jim qoladi-da, keyin: “To‘rt o‘g‘li, uch qizi, ikki sigiri, to‘qqiz qo‘yi bor...” deydi. Yoki: “yetti o‘g‘li, uch qizi, momosi bor, qurayotgan imorati bor, o‘n olti tovug‘i bor...” deydi. Xullas, ovulimizdagi bir uy o‘yin boshlovchining xayolida turadi. Uni topish uchun har kim o‘zicha ovuldagi kimning uyida nechta bolasi bor, uy-joyi, turish-turmushi qanday, birma-bir xayolidan o‘tkazib: “To‘rt o‘g‘li, uch qizi, ikki sigiri, to‘qqiz qo‘yi bor uy Esemurotning uyi”, deydi. Yoxud: “yetti o‘g‘li, uch qizi, momosi, qurilayotgan imorati, o‘n olti tovug‘i bor uy Qallibekning uyi”, deydi. O‘yin boshlovchi o‘zi nazarda tutgan uy aytilmaguncha “Yo‘q!”, “Yo‘q!” deb yotaveradi. Boshqalar esa, bilgan uylarini birin-birin aytaverishadi. Agar sir tutilayotgan o‘sha uyning biron-bir muhimroq belgisi unutilib qolsa, topish qiyinroq bo‘ladi. Bunday hollarda aytuvchi aybdor. Agar bunday uylar bir nechta bo‘lsa, o‘sha sir tutilayottan uyning o‘zigagina xos biron-bir belgi ham qo‘shib aytiladi. Masalan, “Ayoli sotuvchi” deyildimi, Esemurotning uyi emas, Karomatdinning uyi bo‘ladi. Kim topishmoqni to‘g‘ri va tez topsa, o‘sha odam — g‘olib. G‘olib o‘z navbatida “Bizdan bir chumchuq qochdi...” deb, yangi o‘yin boshlashi mumkin.

Biz — bolalar ko‘proq o‘yin boshlovchi bo‘lish uchun ertasidan boshlab ovulimizni yaxshiroq bilib olish harakatiga tushib qolardik. Ovuldan ko‘chib ketgan xonadon ham yoki ovulimizga yangi ko‘chib kelgan odamlar ham biz — qiziquvchan bolalar nazarimizdan chetda qolmasdi. Bulargina emas, faqat bizning uyimiz bilan bordi-keldisi bor, boshqa ovullarda yashovchi qarindosh-urug‘larimizning uy ichini bilish ham o‘yin uchun asqotib qolardi-da, axir.

Endi o‘ylab qarasam, bu o‘yin ermak uchun aytiladigan shunchaki oddiy topishmoq emas, balki uyqu oldidan ovulimizni, ovuldagi har bir oila, har bir odamni ko‘z oldingga keltirib, ularning turfa qismatlari, kechmish-kechirmishlarini birma-bir xotirlash maqsadida bobolarimiz yaratgan muhim tarbiya vositalaridan biri ekan. Bugun endi tengdoshlarim bilan o‘tirganimda uni qo‘msab: “O‘sha o‘yin hozirgi bolalar uchun ham juda kerak-da!”,

desam, ular: "Hozir radio bor, televizor bor...", deya e'tiroz bildirishadi. To'g'ri, e'tirof etmoq lozim, bugungi bolalar dunyoning qay burchida, qay bir ovloq mamlakatda nimalar ro'y berayotganini yaxshi bilishadi. Ammo o'z ovulida, shundoqqina devor-darmiyon qo'shnisining xonadonida nimalar bo'layotganligini mundoq bir so'rab ko'ring-chi!..

Momom bot-bot takrorlaydigan bir juft afsona: Qadim zamonlarda bir donishmand Cho'rtanboy to'qayini oralab o'tgan so'qmoq yo'lda eshagining ustida non kavshab borayotgan ekan, nonning bir ushog'ini bexos yerga tushirib yuboribdi. Darrov eshagini to'xtatibdi-da, o'sha non ushog'ini izlabdi. Bir kun izlabdi, ikki kun izlabdi, bir hafta izlabdi — topolmabdi, Axiri o'sha non ushog'i odamlarning oyoqlari ostida toptalmasin deb, yaqinroq ovulga eshagini sotibdi-da, puliga non ushog'i tushgan yerning tevaragini to'rt devor bilan qurshab chiqibdi.

Eslaringda bo'lsin, nonning o'zi ham non, ushog'i ham non, deya hikoyasini yakunlardi momom.

Rostdan ham, Cho'rtanboy to'qayini kesib o'tgan ko'hna yo'l yoqasida usti yopilmagan to'rt devor bo'lardi. Momom bizga bu ko'hna devorni o'sha non ushog'i ustiga tiklangan qo'rg'on, deb tushuntirardi. Yo'l-yo'lakay non kappalasak, o'sha eshakli kishi esimizga tushardi. Hatto kechalari tushimizga kirib chiqardi. Bizga nonni avaylab-ardoqlash kerakligini uqtirgandek bo'lardi.

Yana: Qadimda bir boyning arzandi o'g'li bo'lgan ekan. Bir kuni u yozilib bo'lganidan keyin yarimta nondan kesak o'rnida foydalanibdi-da, hojatxona devorining tirqishiga tiqib qo'yibdi. Oradan hafta o'tmay, shunday bir dovul boshlanibdiki, hamma ekinlarni payhon qilib tashlabdi. Yurtda ocharchilik avj olibdi. Odamlar ochlikdan o'la boshlabdi. Boyning erkatoy o'g'li ham ochdan o'lar holda shishib yotar ekan, birdan o'sha hojatxona devorining tirqishiga o'zi tiqib qo'ygan non esiga tushib qolibdi. Sudralib borib tirqishga qarasa, non haligacha o'sha joyda turgan ekan. Olay desa, shishib ketgan qo'li tirqishga sig'may, tili bilan olish uchun og'zini bosganida, tirqishning narigi tarafidan bir ilon chiqib, uning tilidan chaqibdi. Bola til tortmay o'libdi. Ana shun-

dan keyingina elda yana to'qchilik boshlanibdi.

...Bizlar bola paytimizda qo'limizga non ushlasak, darrov bu rivoyatlar esimizga tushardi-da, non ushog'ini uvol qilish u yoqda tursin, mabodo yo'limizda non uvog'i ko'rib qolsak, darrov terib olardik-da, yo o'zimiz suvga chayib yerdik, yo qushlarmi-tovuqlargami yedirardik.

Shu narsani komil ishonch bilan aytolamanki, menga tengdosh do'st-birodarlarim orasida nonni oyoqosti qiladigan odam yo'q. Mana men degan puldorlari ham oyog'i ostida bir dona guruchdek non ushog'i yotganini ko'rsa, engashib olib, puflab-tozalab og'ziga soladi yoki qushlar yeb ketsin deb yo'l yoqasidagi daraxt butog'iga qo'yib ketadi.

Non odam mehnatining mahsuli. Faylasuflar ta'limotiga ko'ra odamning o'zini ham mehnat yaratgan. Demak, mehnat barchamizning ustozimiz, volidayi mukarramamiz. Odam o'z ustozini yo onasini hamisha qadrlab-e'zozlashi lozim.

"Mehnatsiz tiriklik yo'q", deya bot-bot takrorlardi bobom.

Ko'cha biyi aytgan afsona: Qadimda bir elatda Qardus degan birov yashagan ekan. G'ilay ko'zi uchun emas, qing'ir ishlari uchun odamlar unga "qiyshiq" degan laqab ko'yishibdi. O'ziyam "qiyshiq" deganlaricha bor ekan. O'taketgan toshbag'ir, ko'zga ayon ko'rinib turgan aybini aytsangiz ham, bo'yniga olmaydigan suvyuqmas, tirik jonga ozor berishdan rohatlanadigan tengi yo'q kazzob ekan. Ovuldoshlari uning ustidan arz qilib, ovuldan quvib yuborishni o'tinib borganda, oqsoqollar: "Yana biroz sabr qilaylik, tarbiyalab ko'raylik-chi, balki insofga kelib qolar", deyishibdi. Xullas, hech bir yig'in, to'y-ma'rakadan uni ham chetda qoldirmabdilar. O'sha paytlarda shahar olis bo'lgani uchun ovul orasidan besh-olti odamni saylab, hamma ularga topgan-tutganini topshirib, bozorga yuborar ekan. Bir safar ovuldoshlar: "Qardus qiyshiqqa ham ishonch bildiraylik-chi, qani, ishonchimizni oqlarmikin", deyishib, sinamoq uchun uni besh odamga qo'shib, Xiva bozoriga jo'natishibdi. U bozorga ketayotib, yo'lni kesib o'tgancha zuv qatnayotgan chumoli galasiga duch kelibdi-da: "Bu qumursqalar nega mening yo'limni kesib o'tadi? Hammasini o'ldiraman!",

deya g'azablanib chumolilarni bir chekkadan toptayveribdi. Hamrohlari: "Qo'y endi, yur, bozordan kech qolamiz", desa ham quloq solmabdi. Axiri, hamrohlari uni qoldirib, yo'llarida ketaverishibdi. Xiva bozorida savdo-sotiqni bitirib, ortlariga qaytayotib qarasalar, Qardus qiyshiq chumoli uyasi ustiga yiqilib tushgan, qumursqalar uning og'iz-burnidan kirib-chiqib yotgan ekan...

Ojiz deb hatto chumoliga ham noo'rin ozor yetkazsang, o'shaning qo'lida o'lasan, derdi momom.

Biz aka-ukalar ertak aytisharkanmiz, bu afsonani bot-bot eslab, o'zimizdan kichikka hech qachon ozor bermaslikka ahdlashardik.

Xalqimizning qadimiy urf-odatiga ko'ra, faqat o'g'il bolalargina mol so'yishi mumkin. Biz aka-ukalar uchun bu taomil yoqmasdi. Uyga kelgan mehmonga tovuq so'yish zarurati tug'ilsa, onam bizlarni tutolmay, tovuqni qo'shnilar uyiga olib chiqishga majbur bo'lardi.

Men go'sht yeyishni juda yaxshi ko'raman, lekin shu kunga qadar qoramol u yoqda tursin, tovuqni bo'g'izlayotgan odamning yonida turolmayman. Dahshatli manzara-da bu, axir!

Onam aytgan afsona: Qadim zamonda bir serfarzand kishi bola-chaqasini qalin to'qayzor ichidagi kapasida qoldirib, o'zi shaharda, bir boyning eshigida ishlar, shunday qilib, bazo'r ro'zg'or tebratar ekan. Birovning qo'lidagi og'ir mehnatdan charchab-toliqib, shunda ham bolalarining qornini to'ydirolmay boshi qotib yurganida, allaqanday tog' etagida oltin bor emish, degan gapni eshitib qolibdi-da, o'sha tarafga yo'l olibdi. Ro'zg'or tebratish o'n ikki yashar to'ng'ich o'g'lining gardaniga tushibdi. U ukalari bilan birga yerto'la yonidagi to'qaydan o'tin yig'ib, avvaliga yaqinroq uylarga orqalab oborib sotib, jamg'argan puliga eshak sotib olibdi. Keyin o'sha eshak bilan o'tinni shaharga olib borib sotadigan bo'libdi. O'tin chopish barobarida to'qayning bir chekkasidan kunda-yu tomirlarni tozalab boraveribdi. Erta bahorda omoch, ho'kiz va urug'lik sotib olib, o'sha ochilgan yerga bug'doy ekibdi. Bug'doy bexato ko'karib, kuzda o'zi bug'doy sotish darajasiga yetishibdi.

Ota o'sha ketganicha uch yilcha ovora-yu sarson bo'lib, hech qayerdan oltin topolmay, biroq uyiga ikki qo'lini burniga tiqib

bo‘sh qaytishga yuzi chidamay, shahardagi bir boydan ozgina qarz so‘rash uchun ketayotib, qarasaki, o‘g‘li bir ko‘chada qop to‘la bug‘doy sotib turganmish. Ajablangancha, uning qo‘lidan ushlab:

— Bu qanaqasi, o‘g‘lim?.. — deb so‘rabdi.

Bola bor gapni aytib beribdi.

Ana shunda ota avvaliga: “Iye, oltin shundoqqina uyimizning yonida ham bor ekan-ku!” deya benihoya hayratga tushibdi. Keyin o‘g‘liga ergashib uyiga qaytibdi-da, yangi yer ochib, dalasini kengaytirishga kirishibdi.

Kimki astoydil mehnat qilsa, uyining yonidagi qumtepani oltinga aylantira oladi, deydi dono xalq.

Sidqidildan mehnat qilgan odamning yuzi yorug‘ bo‘ladi. Tinch-totuv, beminnat umrning negizi mehnat, deb uqtirardi onam.

Bobom bot-bot takrorlaydigan afsona: Buxorolik bir savdogar Chimboyga ko‘p kelib yurib, bir mulla bilan tanishib qolibdi-da, u bilan qiyomatli do‘st tutinibdi. Shu orada bir safar buxorolik savdogar Chimboy bozoriga olib kelgan molini sotolmay xunobi chiqib, qaytarib olib ketishga og‘rinib o‘tirgan ekan, yoniga mulla do‘sti kelib:

— Bunaqa ovora bo‘lib yurguncha, o‘tmas matohingni menga qoldirib keta qolsang-chi, — debdi.

— Do‘stim, men sotishga o‘rgangan odamman. Evaziga nima berasan? — debdi savdogar.

— Mabodo sen o‘lib qolsang, janozangni bepul o‘qiyman, — debdi mulla.

Savdogar rozi bo‘lib, sotilmagan molini unga qoldirib ketibdi.

Biroq bu safardan ko‘rgan zarariga qattiq achinib, uning o‘rnini qoplash maqsadida Hirot shahriga borib kelishni niyat qilibdi. Shu orada Hirot yo‘lida kallakesar yo‘lto‘sarlar ko‘p ekan, degan ovoza tarqalibdi. Yonida yo‘ldoshi, tuyalariga bosh-qosh bo‘lib boradigan odam topilavermabdi. Topilganda ham, ko‘p pul talab qilibdi. Ana shunda savdogar to‘ppa-to‘g‘ri chimboylik mulla do‘stining oldiga borib:

— Men bilan birga Hirotga borishingga to‘g‘ri kelib turibdi, — debdi.

— Nega? — deb so‘rabdi mulla ajablanib.

— Hirot yo‘lida kallakesarlar ko‘p deyishadi. Mabodo meni yo‘lda o‘ldirib ketishsa, janozamni o‘qiysan, — debdi savdogar.

Mulla noiloj rozi bo‘libdi...

Do‘stlik xolis bo‘lmay, qarzga berilgan pulga o‘xshasa, bunday do‘stlik bamisoli mo‘rt ip bilan kiyimga qadalgan tugma, qayerda tushib qolganini o‘zing ham bilmay qolasan.

Odam o‘z do‘stining xatolarini kechirib o‘rganmasa, do‘stsiz qoladi. Do‘stingning yonida turib o‘zingni o‘ylayversang, bu ham xato. Ikki o‘rtada ko‘rinmas jarlik hosil bo‘ladi. Bu jarlik esa odatda, dushmaningga juda-juda qo‘l kelishi mumkin.

Bobolarimiz qoldirgan afsona va naqllar, hikmatli gaplar haqida o‘ylasangiz, goho har qanday purma’no afsona ham yolg‘onga o‘xshaydi. Afsona boshqa, hayot boshqadek tuyuladi. Axir, hayot o‘z nomi bilan hayot-da! Unda hamisha beistisno bir tarzda amal qilish mumkin bo‘lgan yagona dasturni topish mushkul-da, axir!

Esimni taniy boshlaganimdan beri men do‘stsiz qolishdan mudom xavotirlanib-qo‘rqib yashadim. Sababi, boshqa tanish-bilishlarimga nisbatan o‘zim uchun vaqt o‘ta ziq, noyob bir ne’matdek tuyulardi. Har kuni belgilangan bir ishni tugallab yo biron-bir kitobni o‘qib bitirolmay shoshganim shoshgan edi. Bu injiq fe’lim meni talay do‘stlarimdan judo qildi.

Talabalik yillarimda bir qadrdon do‘stim menga kinoga boraylik, deb qoldi. Men kechasi o‘qiy boshlagan kitobimning oxiriga yetguncha betoqat edim, uzrimni aytdim. U mendan hafsalasi pir bo‘lib, ketib qoldi. Qaytib kelmadi. Kitobni o‘qib tugatgach, o‘zim qidirib bordim. “Senga do‘st emas, kitob kerak ekan, o‘qiyver!” dedi u.

Odatda, do‘stlashish uchun orzu-intilishlar, xohish-istaklar, dunyoqarashlar mos kelishi kerak. Biroq har qadamda qildan qiyiq qidiraversang, o‘zingga qiyin. Odamning bir navi umr kechirishi uchun muayyan ob-havo, yegulik-ichgulik kifoya qiladi. Ammo chinakamiga baxtli yashash uchun avvalo sodiq do‘st kerak ekan. Bunga men o‘z umrim badalida ko‘p bor amin bo‘ldim.

Mangulik do'st axtarish — o'z umringizni mangulik sinovga qo'yish bilan barobar. Goho uni bosh bilan tosh yo'nishga qiyoslash ham mumkin.

Bosh qattiqmi, tosh qattiqmi deganda bosh qattiq demakning ma'nisi shu! Chunki chinakam do'stlik o'z-o'zidan bino bo'lmaydi. Yo siz o'z irodangizni do'stingizning irodasiga bo'ysundirishingiz kerak, yo do'stingiz o'z irodasini sizning irodangizga bo'ysundirishga majbur.

Do'stlarning bir-birlarini beistisno tushunishlaridan qudratliroq kuch yo'q. Lekin buning uchun o'zingizda mavjud imkoniyatlarni to'la safarbar etishingiz kerak bo'ladi.

Nazarimda, odamning umrini ikki qismga ajratish mumkin: do'st axtarib yashash, do'st bilan yashash. Butun umr do'stsiz yashash ham, do'stlar o'rtasida vaqtinchalik anglashilmovchiliklar ro'y berishi ham mumkin. Bu yerda birlamchi shart, eng muhimi — odamning o'zida chinakam do'stlik tuyg'usining bor yoki yo'qligida.

Inson hayoti ham jonli vujudga o'xshaydi: u xuddi o'zidek umrga doya bo'ladi. Do'stlik ham jonli vujud: sizning do'stligingiz xuddi o'zidek do'stlik yaratsa, buning hech bir ajablanarli joyi yo'q.

O'zingizni chinakam do'stlikka chog'lash, yosh avlodda mustahkam do'stlik tuyg'ularini qaror toptirish uchun, albatta, u qadar ko'p narsa kerak emas. Chunki odam bolasi esini taniganidan beri o'zini qurshab turgan muhit bilan imkon qadar faolroq munosabat uchun yo'l qidiradi.

Bu yo'lning chinakam do'stlik yo'liga aylanishi aksariyat hollarda har bir odamning o'ziga bog'liq.

Chinakam do'st — mustahkam tayanch, yurakka quvvatgina emas, ko'ngildagi har qanday jarohatga malham bo'la oluvchi asl mo'miyo.

Bobom bot-bot takrorlaydigan afsona: Oydo's boboning oyog'iga allaqanday yara chiqib, uyida yotganini eshitgan bir do'sti ko'ngil so'rash uchun uning oldiga kelibdi. Jarohat Oydo's boboga qattiq azob berayotgan ekan. Do'sti uning qattiq qiynalayotganini ko'rib, juda achinibdi. Achingani shunchalikki, o'z uyiga qaytgan

zahoti: "Do'stim voy oyog'imlab zor qaqshab yotganida, mening o'ynoqlab yurishga haqqim yo'q", deb o'z oyg'iga o'zi pichoq uribdi.

Vaqti kelib, Oydo's boboning oyog'i tuzalibdi. Do'stining jarohati esa, oyog'iga urgan pichoq zanglagan ekan, gazak olib, yiringlab, axiri cho'loq bo'lib qolibdi.

Ahvoldan xabar topgan Oydo's bobo o'z joniga o'zi qasd qilgan cho'loq do'stiga hamdardlik bildirish u yoqda tursin: "Kallasi yo'q odam hech qachon sodiq do'st bo'lolmaydi", deb uning holidan xabar ham olmabdi.

Do'stning nodonligi har ikki tomonga kulfat keltiradi. Muhtoj paytingizda suyanchiq bo'lolmagan do'stning bahridan o'tgan ma'qul. Nomard bilan uzoq do'st bo'lib, axiri ajralishganingizda odatda shuncha yillik samimiy tuyg'ularingizning yelga sovurilganiga emas, shuncha yillik ishonch-e'tiqoding toptalganiga achinadi kishi. Ammo, har qalay, bu dunyo to'yxona bo'lmaganidek, bir muddat qo'nib o'tiladigan mehmonxona ham emas. U odamning mudom o'kinaverishi, yakkash afsus-nadomat chekaverishi uchun yaratilmagan. Bu dunyo har bir odamni xushnudlik bilan kutib oladi-yu, ammo ozmuncha mashaqqat, zahmat, kulfatlarga giriftor etadimi? Ularga sabot-matonat bilan bardosh berishning birlamchi omili — xalqqa do'stlik, xalq bilan hamnafaslik. "Dunyoda eng to'g'ri yo'l xalq tanlagan yo'l", degan hikmatli gap bejiz aytilmagan, axir.

Bobomning nasihatlaridan: Qordek oppoq kiyim tez kirlangani singari, do'stlikni ham oppa-oson gard-g'ubor qoplashi kunduzgi quyosh, tundagi oydek aniq-ravshan narsa. Lekin bundan do'stingni yangilab turishing kerak, degan ma'no kelib chiqmaydi, albatta. Kiyimning yangisi, do'stning eskisi yaxshi.

Odam bolasidagi eng birlamchi fazilat — do'stning manfaatlarini o'z manfaatlaridan yuqori qo'yish. Eng yomoni — do'stingdan bunga munosib javob ololmaslik. Shuning uchun ham donolar: "Hisobli do'st ayrilmas" deganlar.

Ikki odam o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashning asosiy shartlari qanday bo'lsa, ikki mamlakat o'rtasidagi do'stlikda ham xuddi shunday.

Kim manman bo'lsa, o'sha odam do'stidan tezda ajralib qoladi.

Manfaat asosiga qurilgan do'stlik — soyadek o'tkinchidir.

Onamning nasihatlaridan: Dunyoga ko'z qarashlari o'zaro mos kelmaydigan do'stlar bir omochni ikki tarafga tortayotgan qo'sh ho'kizga o'xshaydi.

Dunyodagi eng og'ir yuk — do'stlik. O'zaro bahslashganda ehtiyot bo'lmagan, do'stining ko'ngliga qaramagan odam o'z yukini do'stining yelkasiga ag'darayotganini sezmay, ikki orada malollik paydo qiladi.

Bir-birining qadamini poylab yashaydigan odamlar hech qachon chinakam do'st bo'lolmaydi.

Chinakam do'stlik avvalo ota-onangga, qolaversa, o'z xalqingga qadrdonlikdan boshlanadi. Ana shundagina sen har bir do'stingning qadrini bila olasan.

Otam qayta-qayta takrorlaydigan afsona: Qadim zamonda tug'ma ko'r bir bolakay bo'lgan ekan. U: "Nega meni bunday yaratding?" deb Xudoga nola qilibdi. "Buning sababi — sening otang ham, onang ham g'irt yolg'onchi, baloxo'r edi" degan nido kelibdi g'oyibdan. Bola bunga javoban lom-mim deyolmay, qismatiga tan berib yashayveribdi. Kunlardan bir kuni u nimagadir qoqilib yiqilibdi. Nimaga qoqilganini bilish uchun paypaslab qarasa, yarmi yerga ko'milgan toshdek og'ir bir narsa ekan. Bazo'r ko'tarib, yonidan o'tib borayotgan odamdan: "Manovi nima?" deb so'rabdi. "Iye, oltin-ku!" debdi o'sha odam hayratlanib. "Ma, sen ola qol!" debdi bolakay. "Iye, sen hali oltinning nimaligini bilmaysanmi?" deb so'rabdi notanish kishi battar hayratga tushib. "Oltin haqida ko'p eshitganman, uning nimaligini yaxshi bilaman. Biroq bu oltin meniki emas", debdi bola. Yo'lovchi insof-diyonatli odam ekan: "Oltining o'zingga buyursin", deb yo'lida davom etibdi. Bola hayron bo'lib: "Hey, oltin yo'qotgan bormi?" deb jar solibdi. Hech kim indamabdi. Uyiga olib borishga ota-onasidan qo'rqib, oltinni to'ppa-to'g'ri qoziga eltib topshiribdi.

O'sha kunning ertasiga bola uyqudan uyg'onsa, ko'r ko'zlari ochilganmish...

Ko'cha biyining aytgani: Men shunday bir voqeaning shohidi

bo'lganman. Ovulimizda Obod jar yorilgan yili bir bola tug'ilib, otasi uning otini Obod — Yoriq qo'ygan edi. U o'taketgan yolg'onchi, g'irt tuhmatchi, baloxo'r bo'lib ulg'aydi. Ana shundan so'ng o'z otasi ham, odamlar ham uning "Obod" degan otini unutib, laqabi bilan "Yoriq" deb chaqiradigan bo'lishdi. Bir kuni men uning qo'shni ovul tarafdan qizil sigir yetaklab kelayotganini ko'rib qoldim. Biroq sigirni o'g'irlab olib kelyapti deb xayolimga ham keltirmadim. Ertasiga qo'shni ovuldan birov: "Qizil sigir o'g'irlatdim", deb iz quvib, bizning ovulimizga keldi. Men kecha Yoriq degan odamning qizil sigir yetaklab kelayotganini ko'rganimni aytdim. Sigirning egasi meni ergashtirib to'ppa-to'g'ri Yoriqning oldiga bordi-da: "Bir qizil sigir yo'qotdim, mabodo ko'rmadingmi?" deb so'radi. "Ko'rgan bo'lsam, ikki ko'zim oqib tushsin", dedi Yoriq.

Sigir egasi uning ichgan qasamiga ishonmay, og'ilxonasiga bostirib kirdi-da, saldan so'ng o'zining sigirini yetaklab chiqdi. Aslida u yaramasni o'sha kuniyoq militsiya qo'liga topshirish kerak edi. Biroq u: "Endi bunaqa noma'qul buzoqning go'shtini yemayman", deb yalinib-yolvorib omon qoldi... omon qoldi, deyish to'g'ri bo'lmas, chunki ertasi qarasa, ko'zlari ko'r bo'lmasayam, har qalay, qiyshayib qolibdi. O'sha kundan ovul odamlari uni Yoriq qiyshiq deb chaqiradigan bo'lishdi. Attang, uni sizlar ko'rolmay qoldingizlar-da, o'tgan yili o'lib ketdi.

Esimda, o'shandan keyin o'zim-u ukalarimda bir odat paydo bo'ldi: shu rost gapiryaptimi o'zi, deb ikkilansak, darrov bir-birimizning ko'zimizga qaraymiz.

Onam aytgan afsona: Qadimda Eron shohi qay bir yurtni bosib olganida, avvalo bolalarni asir olibdi. O'taketgan yovuz — qattol shohga hech bir onaning ko'zyoshi-yu iltijosi zig'irchayam ta'sir qilmabdi. Yosh bolalarni qo'ydek haydab o'z yurtiga — qibla tarafga ketaveribdi. Ona bechoralar ovul chetidagi baland tepalikning ustiga chiqib, bolalari ko'zdan yo'qolguncha bo'tadek bo'zlab qolaverishibdi. Bolalarni haydab ketayotgan shoh biron marta ortiga qayrilib qaramabdi.

Oradan yetti yil o'tib, shoh qaysiyam boshqa bir yurtni bosib

olish uchun shu yurt tuprog'idan o'tib borayotgan ekan, ovul chekkasidagi baland tepalikning ustida qibla tarafga ko'z tikib turgan bir to'da ayolni ko'rib qolibdi. Ularning oldiga yaqinlashib, nimani kutib turishganini so'rabdi.

— Bolalarimizni kutib turibmiz, — deyishibdi ayollar.

— Bolalaring qayoqqa ketgan? — deb so'rabdi shoh.

— Eron shohi asir olib ketgan edi, — debdi onalar.

— Qachon? — deb so'rabdi shoh.

— Bundan yetti yil avval, — debdi ayollar.

— Yetti yildan beri shu yerda turibsizlarmi?! — deb so'rabdi shoh.

— Bolalarimiz ketganidan beri hech birimiz pastga tushib ovqatlanib kelganimiz yo'q, — deyishibdi ayollar.

Shoh otdan tushib tepalikka ko'tarilibdi. Tepalikning g'arbiy yonbag'ridagi qabristonga kuzi tushib:

— Bu qanaqa qabriston? — deb so'rabdi.

— Bolalarini kuta-kuta umidsizlikdan bag'ri ezilgan onalarning qabristoni, — deyishibdi ayollar.

Shohning oyoqlaridan mador ketib, turgan yerida yiqilibdi-da, tepalikdan yumalay-yumalay to'ppa-to'g'ri qabristonga qulab tushibdi...

Otamning nasihati: Bizda: "Ota qarg'ishi o'q, ona qarg'ishi...", degan gap bor. Bu — birovlarning o'ylab topgani. Jahonda ona qarg'ishidan kuchliroq qarg'ish yo'q. Chunki ona qarg'ishi — ona yer qarg'ishi. Ona qarg'ishi — kindik qoning to'kilgan, seni tarbiyalab kamol toptirgan ona Vatan qarg'ishi!

10

Meni besh yoshimdayoq maktabga berish haqida uyda maslahat bo'ldi. Bobom bilan momom kenjatoy qizlarini (otamning kichik singlisi Aruvxon, u mendan besh yosh katta, avvalgi gal muallim chaqirib kelganida momom: "Qizim o'qimaydi!" deb oyoq tirab turib olgan edi) men bilan birga maktabga berishga ahd

qildi.

Lekin bu maslahat hadeganda amalga oshavermay, bobom bilan momom o'rtasidagi bahs-munozara anchaga cho'zildi. Momom: "Bularni avvaliga eski mullada o'qitib, ikkovimiz ham narigi dunyoning qarzidan qutulaylik", desa, bobom: "Hech qanday mulla-pulla kerak emas, to'ppa-to'g'ri sovet maktabiga oboraveraman", deb o'z so'zini ma'qullaydi.

Mullaga kechalari qorong'i tushganda borish kerak ekan. Momom bo'g'irsoq pishirib, tovoqqa solib, Aruvxon ikkimizni ikki qo'lida yetaklay boshlasa, bobom bizning bo'sh qo'limizdan mahkam ushlab, uydan chiqarmaydi. Ertalablari esa, bizlar uyg'ongan zahoti bobom hol-jonimizga qo'ymay, ikkovimizni ikki qo'lida maktabga yetaklasa, bo'sh qo'llarimizga momom tirmashib, bo'sag'a hatlatmaydi.

Aruvxonga ham, menga ham baribir edi: mulla yaxshimi, muallim yaxshimi — bilmaymiz, lekin mullaga qorong'ida obormoqchiligiga qaraganda, uning yashirincha o'qitmoqchiligini fahmlagandek bo'lardik.

Axiyri bu kurashda momom g'alaba qozondi. Ro'zaning birinchi kuni kechqurun ammam ikkovimizni ikki qo'lida yetaklab, bo'g'irsoq to'la tog'orani boshiga qo'yib, mullaga olib bordi.

Mulla uyida ekan. U tayoqday ozg'in, ko'sanamo, yuzi olovda obdan kuygan rapidadek qop-qora odam ekan.

— Ha, Bibizohida kampir, qizing bilan nevarangni o'qishga olib keldingmi? Niyating dargohida qabul bo'lsin! — dedi u sajdaga bosh qo'yib o'tirgan ola-quroq ko'rpachasidan qo'zg'almay.

— Olib keldim, mullam. Ikkovining ham eti sizniki, suyagi bizniki, — dedi momom.

Mulla yuz tuzilishi o'ziga o'xshab ketadigan, xodadek ozg'in o'n besh-o'n olti yashar o'g'liga im qoqqan edi, bola tashqariga chiqib ketdi. Sal o'tmay, qaytib kirdi-da, otasiga "yo'q" degandek ishora qildi.

Mullaning aytgani: Xudo odamzodni yaratib bo'lib, qani endi, shu bandamni boshqalaridan aqlliroq, bilimliroq qilib yaratay-chi, deb tag'in bittasining boshiga ko'proq miya quyibdi-da, alohida o'qitibdi. Vaqti kelib uni sinash uchun boshqabandalari qatori ol-

diga chaqirib:

— Qani, bandalarim, men senlarni yaratdim, aql ato qildim, jamiki tiriklikka senlarni bosh qilib sayladim. Xo'sh, menda ham kamchilik bormi? — deb so'rabdi.

— Sizda kamchilik nima qilsin! Umr bo'yi sizdan minnatdor bo'lib yashaymiz, — debdi hamma bir ovozdan.

Ana shunda uning alohida o'qitib, aqlliroq qilib yaratgan bandasi ohista o'rnidan turib:

— Qudrati cheksiz Xudoyim! Manovi bandalaring noto'g'ri aytyapti. Rostini aytsam, ko'p ishlaring noraso! — debdi.

Xudo uning nimalarni nazarda tutayotganini fahmlabdi-da, farishtalaridan biriga im qoqibdi. U ildam borib, o'sha bilimli, aqlli odamning boshiga qora qalpoq kiydiribdi. Qalpoq odamning aqlini kamaytirib, bilimini yo'qotishdek favqulodda kuchga ega ekan. Bilimli odam boshiga qalpoq kiygan zahoti o'zining nima deyayotganini ham tushunib yetmay: "Qodir Egam, men xom sut emgan bandangni afv et, xato qildim!" debdi...

Ana, ko'rdingmi, yaratgan Egam o'sha qarg'ishini endi-endi unutib kelayotganida qoraqalpoq avlodiga ko'p bilim berishning keragi yo'q. Besh mahal namoz o'qishni bilsa, oz-moz pul sanashni bilsa shuning o'zi bas-da. Sovet hukumati Xudoga qarshi o'qitadi. Bolalaring kasriga ota-qoraqalpoq yana Xudoning qarg'ishiga uchrab qolmasin, kampir!

Yana: Ko'hna rivoyatlarda aytilishicha, odam bolasi loydan bino bo'lgan ekan. Yaratgan Egam dastlab bir gala odamning tanasini qolipdan chiqaribdi-da, har bir tanaga ulash uchun sog'roq tuproqdan kalla yasash maqsadida qo'shimcha loy qoribdi. Kallaning loyini obdan qorib pishitibdi.

Shunday qilib, kallalar tayyor bo'lgach, qator yotgan tanalarga bitta-bittadan kalla ulab ketaveribdi. Biroq o'ntacha tanaga kalla yetmay qolib, qo'shimcha loy iylashga majbur bo'libdi. Bunga qadar tanaga ulangan kallalar bo'sh yotmasin deb, ularga vaqtincha bosh kiyim kiydirib qo'yibdi. Yaratgan egam qo'shimcha kallalarning loyi pishib yetilguncha sabri chidamay, ularga birato'lasi jon ham ato qilib yuboribdi.

Ular qatorida hali bosh ulanmagan bir gavdaga jon bitib, o'rnidan qo'zg'olibdi. O'sha kallasi yo'q tana kimning bobokaloni ekani hali-hanuz noma'lum, lekin kimda-kim besh vaqt namozini kanda qilsa, bilginki, o'sha boshsiz odamning avlodi.

* * *

Besh yashar bolaning ham o'ziga yarasha o'y-fikri bo'ladi. Men o'shanda mullaning hikmatlarini unchalik tushunmay qoldim. Biroq noiloj edim, chunki uning gaplari momomga ma'qul kelayotgandi. Shunday qilib, avvalboshda momomga ishtiyoq bilan ergashgan bo'lsam, endi hammasi puchga chiqib, uyga yelsiz pufakdek bo'shashib-shalvirab qaytdim. Yo'l-yo'lakay momom ham lom-mim demadi.

"Yaxshi bilan hamroh bo'lsang, yaxshilik, adolat, aql-donish haqidagi hangomalarni tinglaysan. Yomon bilan hamroh bo'lsang, o'g'rilik, zo'ravonlik, tarkidunyochilik haqidagi sovuqdan sovuq gaplar tanangni junjiktiradi", deb nasihat qilardi bobom.

"Agar ot bilan eshakni yonma-yon qo'ysang, eshakning nuqsi otga ko'proq uradi. Chunki odatda yaxshilikdan ko'ra yomonlik yuqumliroq bo'ladi", deb nasihat qilardi onam.

O'sha kunining ertasiga bobom bizlarni tong-saharda uyg'otib, maktabga olib borish taraddudiga tushib qoldi. Nimagadir o'qishga hafsalam qolmagan edi, lekin bobomga qarshilik qilib o'rganmaganman — unga ergashdim.

Bir paytlardagi Shulen boyning uyi maktab ekan. Biz kelganimizda, talay bolalar yig'ilib ulgurishibdi. Oralarida o'n besh-o'n olti yoshli o'smirlar ham, qiz bolalar ham bor.

Muallim keldi. Chamamda, yigirma yoshlardagi, o'ta sipo kiyingan, istarasi issiq yigit ekan. U bobom bilan quyuq ko'rishib:

— Hakimniyoz ota, nevarangiz hali yoshga o'xshaydi-ku, — dedi.

— Yosh bo'lsayam qizimdan qolishmasligiga imonim komil, — dedi bobom.

— Unday bo'lsa, mayli, ko'ramiz, qolaversin-chi. Aruvxon ammasiga esh bo'lib yurar,— deya muallim rozi bo'ldi.

Muallimning aytgani: Bolalar, o'qish, bilimli bo'lish inson umridagi eng ezgu ish. Kim yaxshi o'qib, puxta bilim egallasa,

yolg'iz otasining emas, o'z xalqining, qolaversa, butkul insoniyatning asl farzandi bo'ladi. Bunday odamlar haqida hali sizlar ko'p narsa bilib olasizlar. O'qishdan kechikdim, yoshim o'tib qoldi, deb afsuslanish kerak emas. Men bir misol aytay. Bizning ota-bobolarimizga o'xshab dengiz yoqasida o'sgan Lomonosov degan yalangoyoq rus dehqonining o'n to'qqiz yashar o'g'li uyidan qochib ketadi-da, o'qib-o'rganib, oxir-oqibat, otasi Lomonosov nominigina emas, butun rus fanini dunyoga tanitadi. Insoniyat nomini hurmat bilan tilga oladigan bilimdon odamga aylanadi.

Muallim bu gaplarini shu qadar hayajonlanib aytdiki, "Lomonosov degani bu odamning qadrdon jo'rasi ekan-da", degan xayolga borish mumkin edi. Shunday xayolga bordimi, ishqilib:

— Endi o'zingiz haqingizdayam gapirib bering,— dedi bolalardan biri.

— Men ham sizlardek savodsiz bir dehqonning bolasiman. Rayon markazida ochilgan besh yillik maktabda o'qidim...

Garchi, muallim o'zi haqida qisqagina gapirgan bo'lsa-da, ko'pchilik bolalarda unga havas uyg'ondi. Muallim bizlarni ergashtirib qo'shni xonaga olib chiqdi. U yerda qatorasiga terib qo'yilgan kosalarda to'la shirguruchning bug'i burqirab turardi. Muallimning ko'rsatmasiga binoan har birimiz bir kosaning oldiga o'tirdik-da, yeyishni boshlab yubordik. Ammam esa kosani nariroq surib qo'ydi-da, jimgina o'tiraverdi. Muallim uning yoniga yaqinlashib: "Sovutmasdan olsang-chi!" degan edi, o'shanda ham qo'l qovushtirib o'tiraverdi.

— Saharlik qilganmiding? — deb so'radi muallim.

— Ha, — dedi Aruvxon.

— Yo ro'za tutasanmi? — deb so'radi muallim.

— Saharlik qilgan odam ro'za tutadi-da! — dedi ammam.

Bolalar gurra kulishdi.

Ammam nimadandir hurkkan uloqdek sakrab turdi-da, mening bilagimdan mahkam ushlagancha, eshik tomon sudradi....

O'sha-o'sha ammam maktabga qaytib qadam bosmadi. Ammamning baxtiga, bu mojarodan bir haftacha o'tar-o'tmas oilamiz boshqa ovulga ko'chdi. Bunga sabab — bobomning Bekniyoz degan tug'ishgan inisi bor edi. Ikki oiladan ikki odam: narigi uydan

Bekniyoz bobomning xotini Mengli momom, bizning uydan esa otam kolxozga a'zo edi. Lekin ikki oilaga ajratilgan yerimiz bor edi. Bir kuni kolxoz raisi eshik oldida ot o'ynatgancha bobomni chaqirib:

— Sening uyingdan keliningni, Bekniyozning uyidan uning o'zini kolxozga a'zo qilmasang, ovuldan ko'chasan, gap shu! — dedi-da, bobomdan javob ham kutmay, dabdurustdan yuziga ustma-ust qamchi tortib yubordi.

Bobom yuzidan oqqan qonni sidirgancha, dong qotib qolaverdi. Kechqurun inisi — Bekniyoz bobom bilan maslahatlashgan edi, u ko'chishni taklif qildi. Otam ham ko'chish tarafdori edi. Yangi ko'chib kelgan ovulimiz bizlarni yaxshi kutib oldi. Otam ham, onam ham bab-baravar kolxozga a'zo bo'lib kirdilar.

Bobom meni shu ovuldagi maktabga olib borgan edi, kichkinasan deb qabul qilishmadi. Aruvxon uchun muallimning o'zi keldi, biroq ammam ko'nmadi. Bobom ham, otam ham, onam ham maktabga borsang-chi, deb qistadi, hatto yalinib-yolvordi, u esa momomning pinjiga suqilib, bu gaplarni eshitmagandek turaverdi. Ammam tengi qizlarning maktabda o'qib, uyda o'zimga o'xshash ukalariga harf o'rgatib o'tirganlarini ko'rib havasim kelardi. Shuning uchun: "Amma, o'qisangiz-chi!" deganimda u: "Mullaning aytganlari esingdan chiqdimi?" deb meni jerkib bergan edi. Men ammamni maktabga qiziqtirib: "Muallimning gaplari esingizdami?" deganimda, ammam gapni qisqa qildi: "O'qishda ulgurolmay, boshsiz odamning qizi degan nom olishni istamayman, tamom-vassalom!"

Bobom meni maktabga ertaroq olishlari uchun har qancha jon kuydirmasin, bu niyatiga oradan roppa-rosa uch yil o'tgandan keyingina erishdi.

11

Bir gal naq qish chillasida, kechki qora sovuqda bizning uyga to'rt nafar qariyani ergashtirib Ko'cha biyi kelib qoldi. Garchi kutilmagan mehmonlar uy ichini andak tashvishga qo'ygan bo'lsalar-da, hamma ularni ochiq chehra bilan kutib oldi. Uyimizda

tishga bosgudek bitta-yu bitta tovuq qolgan edi, otam uni so'ydi, momom patini yulib, qozonga bosdi, onam tovuq sho'rva bilan yeyishga qotirmoch non yopish uchun bir kepchik jo'xorini tozalab, qo'l tegirmonga o'tirdi, men o'zimning odatdagi mashg'ulotimga kirishdim — o'choqqa o't yoqishga tutindim. Bobom mehmonlar bilan hangoma boshlab yubordi. Ammam uyning bir burchagida ukalarimni yig'latmay-siqtatmay o'ynatib o'tirdi.

Qariyalarning gurunglaridan: — Mehmon kutishdan mehmon bo'lish og'irroq. Buning sababi shuki, sen o'zingni kutayotgan darajaga loyiqsanmi-yo'qmi, buni bilish oson emas...

— Birovlarning bergan qaymog'idan o'z onang bergan achchiq ayron afzalroq.

— Ba'zi uylar orasidagi bordi-keldiga teranroq nazar solsang g'alati bir holni sezasan kishi! Bizga o'xshash oddiy odam amaldorroq birovning uyiga mehmon bo'lib borsa, o'zi yeb-ichadiganidan tashqari, uy egasiga ham biron nima olib boradi. Amaldor o'zining qo'l ostidagi birovning uyiga kelsa, aksincha, qo'l qovushtirib keladi-da, to'yguncha yeb-ichib, ustiga ustak, o'zi bilan biron nima olib ketishni o'ylaydi.

— Ayrim odamlarning saxiyligi — uyiga kelgan mehmonni dushmandek ko'rib, uning ko'nglini yumshatish uchun yo'l qidirayotgan ustamonning tullakligiga o'xshaydi.

— Lekin xalqimiz ochiqko'ngil. Qaysi qoraqalpoq bilan uchrashsang, sen bilan hozir tugul ertaga qanday gaplashishni ham avzoyidan bilib turasan kishi...

— Aldanganlar orasida bo'lsang ham, aldovchilar orasida bo'lma, deb bobolarimiz bekorga nasihat qilmagan-da!

— Ibn Sino, qancha mol-dunyo to'plama, yegan-ichganing o'zingniki, qolgani boshqalarniki, degan ekan.

— Bo'shanglik ham, anqovlik ham bolalikning bir belgisi. Xalqimiz orasida hali odamzodning bolalik chog'larini boshidan kechirayotganlar qancha bo'lsa, o'ttiz-qirq yoshidayoq yetmish yashar cholga o'xshab qolganlar ham o'shancha.

— Har qalay, mehmon kutish xalqimizning azaliy udumi. Birovlar mehmon kutishni ortiqcha dahmaza hisoblab chimirinadi. Bu — nodonlik! Mehmon kutishga hamisha shay odam yaxshi

Yana: O‘sha serfarzand, piri-badavlat ota bolalarini ovul chekkasidagi tepalikka olib chiqib, ularga hayotning past-u balandini tushuntirib o‘tirgan ekan, yonlaridan bir uyur yilqi quyundek yelib o‘tib qolibdi. Bir otning tuyog‘i toshga tegib, chaqin chaqnabdi. Otasining uzundan uzoq nasihatlarini noiloj tinglab o‘tirgan bir o‘g‘li o‘rnidan uchib turib, yilqilar ortidan yuguribdi.

— Hoy, bolam, mendan beruxsat qayoqqa ketyapsan? — deb so‘rabdi otasi.

O‘g‘li esa:

— Sovqotib ketdik-ku, ota! Haligi otning tuyog‘idan o‘t olib kelmoqchiman, — deya javob beribdi.

Xalqimizning suprasidan un, dasturxonidan non arisa ham, o‘chog‘idan olov arimaydi. Shunisiga qaraganda, bizlar o‘sha ot tuyog‘idan olov qidirib ketgan oqko‘ngil yigitning avlodi bo‘lsak kerak, deya taxmin qilsa bo‘ladi.

* * *

Men bu hangomalarga mahliyo bo‘lib o‘tirganimda onam tegirmondagi unni sidirib, o‘sha xolam bergan kattakon tog‘oraga solib xamir qorishga tushganini bilaman, bir payt o‘ng oyog‘im jizillab achishdi. Mudray boshlaganimni sezib, ko‘zlarimni ochib qarasam, o‘ng oyog‘imning bosh barmoqlari orasidan qon sizyapti. Onam chap qo‘li bilan otashkurakni qo‘limga tutqazib: “Uxlama, eshit!”, deb shivirlaydi. O‘shandagina qo‘limdan tushib, o‘choq taftida qizib turgan otashkurakning uchi oyog‘imga bosilganini anglab yetdim.

Uyqudan asar ham qolmadi. Yig‘lay desam, onamdan qo‘rqaman. Onam mehmonlarga sezdirmaygina oyog‘imdan oqqan qon ustiga bir chimdim sovuq kul sepdi. Qon-ku, kul ostida qoldi, biroq oyog‘imning achishib og‘rishi battar kuchaydi, shunda ham chidadim.

* * *

Bu yorug‘ olamga kimlar kelib, kimlar ketmagan!

— Men bu bepoyon olamni ko‘nglimga sig‘dirib yashadim. Biroq o‘zim bu keng olamga sig‘madim, — degan ekan devonayi

Mashrab.

— Men o'lganda sadaqa bermang, ko'zim ochiqligida och-yupunlarga o'zim ko'p sadaqa berdim, — degan ekan Maxtumquli.

— El-yurt yukini yelkangda ko'tarib, kam quvonib, ko'p dard chekking kelsa — shoir bo'l, — degan ekan Berdaq.

— Mening umr yo'lim xalqimning umr yo'li, xalqimning umr yo'li mening umr yo'lim, — degan ekan Jiyan jirov...

Bir gal Chimboy qal'asining hokimi yosh shoirlar musobaqasini o'tkazibdi. Yosh Berdaq shoirning she'rlari boshqalarnikidan zo'rroq chiqib, hokim unga besh tillo in'om etibdi. Umrida buncha ko'p pul ushlab ko'rmagan yosh shoir eshikdan tashqariga chiqish uchun yo'nalgan ekan, ro'parasidan ikki navkar ustidan baliq hidi anqiyotgan bir odamni sudrab shahar hokimining oldiga olib kiraveribdi.

— Hokim hazratlari, — debdi navkarlardan biri. — Manovi odam Orol dengizidan baliq tutib, shaharga olib kelib sotish bilan shug'ullanadi. Bugun u balig'ini siz belgilib qo'ygan narxdan qimmatroqqa sotmoqchi bo'ldi.

— To'qqiz darra urilsin! — deb buyuribdi hokim o'ylab o'tirmay.

— Hokim hazratlari, bir qoshiq qonimdan kechsangiz, — debdi o'shanda yosh Berdaq. — Siz hozirgina mening she'rlarim uchun besh tillo berdingiz. Manovi baliqchi mening otam Qarg'aboy bo'ladi. Agar bu odam baliq ushlab sotib, meni o'qitmaganida, men bugun sizni ulug'lash baxtiga erishmagan bo'lardim. Shuning uchun otam Qarg'aboyni emas, uni o'qitmay, och-yupun baliqchi holida qoldirib ketgan otasini topib jazolasangiz to'g'riroq bo'lar edi, — debdi.

— Yasha, Berdaq, tilingga qaymoq. Senga shunday biyron til bergan onangga rahmat! — debdi shahar hokimi bu bama'ni gapdan ta'sirlanib, so'ng navkarlariga buyuribdi.— Shoirning otasini ozod qilib, zarbof cho'pon kiygizinglar.

— O'rinli aytilgan so'z bamisoli mo'miyoyi asil — har qanday kasalga shifo bag'ishlaydi.

— So'z bamisoli palaxmon toshi — borib tushgan joyini

qo‘porib yuboradi. So‘z bamisoli havo — qafasga qamab, zanjirband qilib bo‘lmaydi. So‘z bamisoli odamni yuksaltiruvchi qo‘sh qanot. So‘zdan to‘g‘ri foydalana olgan Berdaq shoirning tuprog‘i yengil, joyi jannatdan bo‘lsin!

— Bolalarimizga dono shoirning yo‘lini bersin! Ular oyog‘idan qoqilsalar ham, tilidan qoqilmasinlar.

* * *

Mehmon chollarning bu hangomalariga ishtiyoqim shunchalik ekanki, oyog‘imning achishganini batamom unutib: “Qani, men ham shunday shoir bo‘lsam edi!” deya orziqib qo‘ydim.

Bu menda kimgadir o‘xshash istagining ilk bor uyg‘onishi edi.

Bobom, xuddi xayollarimni uqayotgandek, men tarafga tikilgancha, andak jim qoldi-da, kutilmaganda orziqib:

— Qani, mehmonlar, mening nevaramga oq fotiha beringlar-chi, u ham el yukini ko‘tara oladigan shoir bo‘lsin, — dedi.

Qariyalar menga sinchkovlik bilan tikilib qolishdi.

— Nechanchi sinfda o‘qiysan? — deb so‘radi bir chol.

— Uchinchida, — dedim men.

Suhbatga aralashavermay, ko‘proq tinglab, o‘choqdagi olov taftida mudrabmi, xayol suribmi ko‘ksiga tushgan qorday oppoq soqolini barmoqlari bilan taroqlagancha, ko‘zlarini yumib o‘tirgan qariya birdaniga sergak tortib, menga tikildi. Allanechuk nursiz, biroq katta-katta ko‘zlari juda o‘tkir ekan, men yerga qaradim. U gap boshladi:

— O‘n ikki yashar paytimda bir she’r yozib, otamga o‘qib bergan edim. Otam quvona-quvona o‘sha kuniyoq meni Berdaq shoirning oldiga oq fotiha uchun olib bordi. Berdaq shoir ozg‘in-qotma, biroz siyrakroq soqoliga endi-endi oq oralay boshlagan odam ekan. She’rimni o‘ta diqqat bilan tinglab o‘tirdi-da, shunday dedi: “Bolam, hali hayotni chalaroq tushunar ekansan. Shoir eng avval hayotning nimaligini teran tushunishi kerak. Biroq bu o‘ta qiyin ish. Bir qarashda, hayot sen-u men, shu ko‘zga ko‘rinib turgan narsalar. Aslida hayot deganlari — o‘t bilan suv, gul bilan tikan, quyosh bilan zulmat, kulgi bilan yig‘i, insoniy ruh bilan hayvoniy ruh aralash-quralash tugilgan bir tugun. Bizga

qadar bu tugunni tuzuk-quruq yechib, ichidagilarini bir-biridan durustroq ajratib bergan odamni topishning o'zi qiyin. Balki bunday odam bizdan keyin tug'ilar. Biroq har bir tirik jon hayotni o'zicha tushunib, hayot mening bu yorug' olamni ko'rar ko'zlarim desa, uning bir ko'zi muhabbat, ikkinchisi do'stlik. Agar umr men tayanib turgan ikki oyog'im desa, biri muhabbat, ikkinchisi do'stlik".

Bu gaplarni eshitgan otam qo'rqib, Berdaqdan oq fotiha so'ramadi, men ham shoir bo'lish niyatidan voz kechdim.

— Maxtumquli bolaligida eski, serqatnov ko'prikning ostida uch kun uxlagan ekan, shoir bo'lib uyg'onibdi, — deya gap qo'shdi mehmonlardan biri.

Hamma bir muddat jim qoldi.

Bobom dedi: Mening nevaram ko'prikning ostida Maxtumquliga o'xshab uch kun emas, yetti kun uxlashga chidaydi. "Hayot" deganlari bo'lsa, u qadar tushunib bo'lmaydigan jumboq emas. Gap shundaki, uni har kim har xil tushunaveradi. Men, masalan, ellik yoshimda tushundim.

Voqea bunday bo'ldi: bolalikdan qadrdon bir do'stim bor edi. Yoshligidanoq boshqalarga o'xshab o'yin-kulgi bilan ishi bo'lavermasdi. O'ta kamgap, mehnatkash edi. Men gohida uni masxara qilib: "Odam degan ham bunchalik tinim bilmay ishlayveradimi?" desam, u: "Avval uylanib olay, ana undan keyin dam olaveraman", derdi. Uylandi. Lekin o'sha mehnati o'sha mehnat. Bir kuni uning oldiga borib: "Uylangandan keyin dam olaveraman degan eding, nega yana tinim bilmaysan", deb so'radim. U miyig'ida kulib: "Bolalarim yosh, endi shularni odam qatoriga qo'shib olay, keyin..." dedi. Ketdim. Oradan talay yillar o'tib, endi bolalari er yetdi-ku, qarilik gashtini surib yurgandir, deb qidirib borsam, o'zi yo'q. Dunyodan ko'z yumibdi. "Umr deganlari shu ekan-da!" deb o'ylab qoldim. Aziz mehmonlar, men nevaramga umrning nimaligini tushuntirishdan hech qachon charchamaganman, charchamayman. Nevaramga sizlarning oq fotihalaringiz kerak.

— Nevarangga uzoq umr tilama, mazmunli umr tila, — dedi davraning bir burchida bosh tebratib o'tirgan bir qariya. — Yosh-

ligimda xizmatlarini qilsam, qariyalar: "Umring uzoq bo'lsin, bolam", deb duo qilardi. Bu duoni eshitib, boshim ko'kka yetgudek bo'lardi. Sababi, onam meni tug'aman deb olamdan o'tgan. To'qqiz yoshimda otam suvga cho'kib o'lgan. O'sha duo-fotihalar zoye ketmadimi, mana, 90 yoshga yetib keldim, ikki tizzamdan mador ketdi, ko'zlarimda nur qolmadi, quloqlarim og'irlashdi. Bu davraga ham hali evaram yetaklab keldi. Agar shu alfozda yana o'n yil yashaydigan bo'lsam, holim ne kechadi, hayronman. Rostini aytsam, buyog'iga endi yashagim yo'q. Sababi, meni biladigan tengdoshlarim qolmadi hisob. Menimcha, umr o'zing yashay olsang qiziq. Har kuni ertalab menga xizmat qilish uchun bir evaram maktabidan kech qoladi. Boshqalarning oyog'iga tushov bo'lib ko'rgan kuning kun emas ekan asti!

Qariyalar xuddi tubsiz choh ro'parasida turgandek vahima aralash og'ir entikdilar.

— Hayot, baribir, o'z bilganidan qolmaydi, hech kimga bo'ysunmaydi, — dedi bobom.

— Hakimniyoz, sening uyquchi nevarang oyog'iga onasi otashkurak bosgani uchun noilojdan gap tinglab o'tirgan edi, shekilli. Ha, mayli, so'zing yerda qolmasin. Qani, o'tyoqar, qaddingni tik tutib, o'rningdan tur, qo'lingni och, — deb buyurdi ko'sanamo chol menga.

Onam yelkamdan ko'tarib o'zi ham o'rnidan qo'zg'aldi.

Bobom uxlab qolgan otamni, kichik nevaralari orasida yotgan momomni uyqularidan uyg'otib keldi.

Hammamiz fotihaga qo'l ochdik.

Qariyalar:

— Hakimniyoz oqsoqolning to'ng'ich nevarasi To'lepbergen shoir bo'lsin! — deya oq fotiha berdilar.

Mehmonlar uydan chiqar-chiqmas, oyog'imning achishib og'rishi darrov sezildi. Qontalashib, shishib ketgan oyog'imni bosolmay hakkalab borib, to'rda to'shalgan yirtiq-yamoq kigizning ustiga o'zimni tashladim.

Shoir bo'lish orzusi oyog'imning og'rishini andak yengillatganga o'xshardi. Shu payt xayolimga boshqa bir o'y o'rnashib

oldi: "Shoir, avvalo, hayotning nimaligini teran tushunishi kerak...". Berdaq shoir aytgan bu gap men uchun yechilmas jumboq bo'lib tuyuldi. Otashkurak jarohatlagan oyog'im o'rniga endi boshim og'riy boshladi: "Hayot degani nima o'zi?..".

12

...Shunday qilib, hayot degani nima o'zi?

Bu savolga javob axtarib bosh qotirmaydigan odam bormikin? Menimcha, yo'q bo'lsa kerak!

Hayotni tushunish uchun qanchalik ko'p va teran o'ylasangiz, shunchalik tushunarsiz tuyulaveradi.

Hayotda hamma jonzotlar juft-juft bo'lib yashaydi. Bunday yashash hayotni davom ettirish, uni yangi bosqichga ko'tarish uchun zarur.

O'zaro qarama-qarshi ikki jins dunyoda tiriklikni davom ettiradi.

Hayot kun va tundan tarkib topadi.

Qarama-qarshi zaryadlar odamzod uchun zarur yorug'lik manbaini hosil qiladi.

Kulgi va yig'i odamzodning yashayotganidan dalolat berib turganday...

Odamlar bor — mehri daryoyi azim.

Odamlar bor — qahri tosh-metin.

Odamlar bor — biri o't, ikkinchisi suv. Agar shularning bir qutbi bo'lmasa, ikkinchi qutbining o'zi bilangina hayot to'kis-tugal bo'larmidi?

Aslo!

Shunday ekan, hayot degani, insoniy umr degani nima o'zi?

Umr —bu dunyoga kelish va ketish oralig'idagi masofa.

Dunyoda milliard-milliard yillardan buyon hayot mavjud bo'lganligi ma'lum. Modomiki shunday ekan, har bir odam bolasi bu dunyoga kelib-ketar ekan, avlodlarga qanday meros qoldiradi?

Avvalo, bobo Quyosh bilan ona Zaminni!

Quyosh bilan yerni bizlar ham kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirishimiz kerak.

Hayot shundangina iboratmi?

Yo‘q! Insoniy tiriklikning ma’nosi-yu mazmuni cheksiz. Biroq eng asosiy ma’nosi ikkita.

Hayot — odamning odam bilan, avlodlarning avlodlar bilan do‘stligi.

Hayot — odamning odamga, avlodlarning avlodlarga muhabbati.

* * *

“Mening hayotim o‘lganimdan keyin boshlanadi”, degan ekan Berdaq shoir.

“Hayot — xalq baxti uchun kurashib yashash, har bir odam shu maqsad yo‘lida chaqindek chaqnab, bahordek yashnab yashamog‘i kerak”, deya vasiyat qilgan Ernazar olako‘z.

Qariyalar gurungidan: — Hayotning o‘zi bahor emas, hayotni mehnat bahordek yashnatadi.

— Umr yakkash bahor bo‘lganida qishning nimaligini, umr yakkash qish bo‘lganida yozning, kuzning nimaligini bilmay qolish xavfi bor. Shuning uchun umrning to‘rttala fasli ham kerak.

— Bizning keng dalamiz osmono‘par tog‘larga boqib, yuksak tog‘ bo‘lishni orzu qiladi. Yuksak tog‘lar esa, keng dala bo‘lishni orzu qilsa ehtimol...

— Tog‘ qanchalik baland bo‘lsa, uning bag‘ri shunchalik sovuq: unda mangulik qor yotadi, muz yotadi. Keng dala esa, har mavsumda o‘zgarib turadi... Tabiat hodisalari odamzod hayotini teranroq anglashning bir vositasiga o‘xshaydi, kishini muqoyasaga undaydi.

— Ba’zilar o‘zini hayot bezagiga aylantirish uchun yashasalar, ba’zi birovlar, aksincha, hayotni o‘ziga zeb-u ziynatga aylantirish ilinjida yashab yurgandek. Hayotning mana shunday past-balandini teran anglab yashash koni azob. Bunday odam ko‘p hollarda ehtiyotkor, qo‘rqoq bo‘lib qoladi. Biroq hayotda eng dahshatli narsa — quvlik-shumlik, makr-hiyla aralashgan ish. Makkorlik xuddi yumshoqqina kulga o‘ralib olgan cho‘qqa o‘xshaydi, kuli kaftingga xush yoqadi-yu, qo‘ling kuyganini bilmay qolasan.

— Ko‘p odamlar donolik bilan shumlikni farqlay olmaydi. Aslida ular o‘zaro zid narsalar. Donoga hamma ergashadi, shumlik-

dan hamma qochadi. Mabodo oqil odam shumlik yo'liga o'tdimi, guruchning kurmakka, bug'doyning suliga aylangani mana shu! Bunday odam bamisoli ko'rinmas choh. Yaxshiyamki, ko'pincha, odam bolasi birovga qazigan chohga o'zi yiqiladi.

— Agar makkor kimsa qoshidagi bir-ikki odamni aldab-laqillatsa, bunga toqat qilish mumkindir. Biroq kattakon bir idoraning boshlig'i yo butun bir xalq nomidan so'zlash imkoniyatiga ega bo'lgan odam makkorlik qilsa, xalqning holiga voy deyavering!

— Hayotdagi eng xatarli illat — badnafslik kasali. Odam hayotni to'g'ri anglab yetmoqchi bo'lsa, yana yolg'ondan, buzg'unchilikdan, xalq nomiga isnod keltirishdan saqlanmog'i kerak.

Ko'cha biyining aytgani: Bir qo'shnimizning er yetgan o'g'li jaholat ustida otasiga qo'l ko'targanini ko'rganman. O'shanda qo'ni-qo'shnilar yig'ilishib, ularni ajratish uchun yigitning qo'liga yopishdik.

— Hoy, yaxshilar! Bizning ishimizga aralashmaganlaringiz ma'qul. Avvalboshdan otalik burchini tuzukroq ado etolmagan odamning jazosi shu. Birinchidan, bu odam yoshligida o'z otasini (mening bobomni) ko'p uqubatlarga duchor qildi. Men o'z uyamda ko'rgan ishimni qilyapman. Ikkinchidan, meni o'qitmay, qatordan past qilib qo'ydi. Endi unga johillikning nimaligini ko'rsatyapman. Uchinchidan, bu odam har kuni kechqurun ichkari uyga biqinib olardi-da, yoniga pichoqni qo'yib, onamdan yashirin pul sanardi. Endi bilsam, bu odam poraxo'r ekan. Ushlanmagan poraxo'rni bugun o'zim ushlab savalayapman, — dedi o'g'il g'azabdan bo'g'riqib.

Men o'shanda hayotning yana bir past-balandini tushundim.

Qariyalar gurungidan: — Ota mehrini tuymagan farzand ham, o'z farzandining ertasini o'ylamagan ota ham bir-birlarining umriga zavol bo'ladi. Ular, avvalo, o'zlariga, qolaversa, xalqiga isnod keltiradi.

— Odam bolasi o'zidan balandroqlarga tenglashish uchun bo'y cho'zib yashaydi. Biroq har bir tirik jon bu dunyoni o'zicha ko'radi, o'zicha his qiladi.

— Dengiz ham irmoqlardan yig'ilganiday, bu dunyoda har

bir odam o'z fe'l-atvori, o'z aql-idroki bilan yo ummonga borib qo'shiladi, yo yarim yo'lda qurib bitadi.

— Bu hayotda nodonlik borki, donolik bor, donolik borki, nodonlik bor, deganlar aqli rasolar.

— Besh barmoq baravar bo'lganida, musht qayoqda edi? Hayotni har kim o'zicha tushungani uchun ham bu hayot bor-da!

— Bog' har xil mevasi bilan fayzli bo'lganiday, hayot ham o'zining serqirraligi, xilma-xilligi bilan go'zal.

Ko'cha biyining aytgani: Bir kuni eshik oldida tursam, qo'shnim nimadandir xafa bo'lib, bo'shashgancha kelayotgan ekan. Qo'shning shod — sen shod, qo'shning xafa — sen xafa, deydi xalqimiz. Qo'shnidan ko'ngil so'rash uchun kechqurun uyiga chiqdim. Yolg'iz o'zi uyda xayol surib yotgan ekan, meni ko'rib noiloj, xushlamayroq o'rnidan qo'zg'aldi. Shu orada to'rt yashar o'g'ilchasi kirib, erkalanib orqasiga tirmashgan edi, u bolakayni alahsitish, qolaversa, xoliroq gaplashish uchun:

— Qo'raga kirib qara-chi, bolam, tovuq tuxum qildimikin? — dedi.

Bolakay otasining buyrug'ini eshitgan zahoti tashqariga chopqilladi.

— Qani endi qo'l ostimdagilar ham mana shu bolamday itoatkor bo'lganda edi, olam guliston bo'lardi-ya! — dedi qo'shnim og'ir xo'rsinib.

Ahvol menga bir qadar oydinlashganday bo'ldi.

— Nachora, odamzod bolalik davriga endi hech qachon qaytolmaydi, — dedim uni yupatmoqchi bo'lib.

Qo'shnim boshini xam qilgancha gapning po'stkallasini aytdiqo'ydi:

— Kichik bir idoraga boshliq edim. Bugun majlisda "Noto'g'ri buyruq beradi", "Orqa-oldiga qarab ish ko'rmaydi", deb hamma meni siquvga olsa, bunisi yetmagandek, saylov qog'ozidan nomimni o'chirib tashlashsa bo'ladimi!

Men unga hamdarlik bildirib:

— Hayot shunaqa ekan-da! — dedim.

U og'ir xo'rsindi:

— Ha, hayot oqimiga qarshi suzmoqchi bo'lgan odamning holi

shu ekan...

Har bir mansabdor odam qo'l ostidagilarning nafratiga duchor bo'lmay turib, noma'qul ishlari bilan ularda norozilik uyg'otgani uchun, avvalo o'zini ayblashi, o'zini o'zi jazolashi kerak.

"Nodonga aql kirishini kutmoqchi bo'lsang, qo'l qovushtirib o'tiravermay, o'zingni, qolaversa xalqingni ulug'laydigan biron-bir foydali ish bilan betinim mashg'ul bo'lib kut", derdi onam.

Mansab kimgadir qanot, kimgadir chiroq bo'lib xizmat qiladi.

"Mansab sening hayoting o'zinggagina emas, boshqalarga ham darkorligini anglatish uchun senga bog'langan qo'sh qanot, o'zingu boshqalarning yo'lini yoritguvchi nur", derdi otam.

Bobomning aytgani: Qadimda o'tgan bir boyning arzanda, ishyoqmas o'g'li bor ekan. Ko'zim ochiqligida buning ovul boshqarganini ko'ray deb, xon huzuriga boribdi-da, uning ovulga biy qilib tayinlangani haqida farmon olib kelibdi. Oradan ko'p o'tmay boy dardga chalinib, o'limi oldidan o'g'liga:

— O'g'lim, bir nasihat aytsam, bajarasanmi? — debdi.

— Bajaraman, — debdi o'g'li.

— Mabodo qo'l ostingdagilar sening to'g'ri gapingga ishonmay qo'ygudek bo'lsa, bunday qilib ko'rgan kuningdan o'lganing yaxshi, narigi uyning xarisiga dor bog'lagin-da, o'zingni os! — debdi.

Yosh biy befarosatroq ekan, yor-jo'ralariga yoqish umidida bud-shudini sovurib, kafangado bo'libdi. Uning xazinaga qo'shgulik mol-dunyosi qolmaganini bilgan xon saroyga chaqirib mansabidan benasib qilibdi. Yosh biy xafa bo'lib kelayotgan ekan, oldidan bir yo'lbars chiqib, unga hamla qilibdi. Uzoq olishuvlardan so'ng yigit yo'lbarsni o'ldiribdi. Ovulga yetib kelsa, ulfat-jo'ralari bir uyda bazm qurib o'tirishgan ekan. Ularning oldiga kirib, andak nafas rostlagach, xon saroyidan qaytishda yo'lda yo'lbarsga ro'para kelganini, uni qanday qilib o'ldirganini aytib beribdi.

— Yolg'on ham evi bilan-da! Odamni laqillatmoqchi bo'lasan-a! — debdi jo'ralari biri olib, biri qo'yib.

— Yo'lbarsning yolg'iz odamga bo'y berishi osonmi?

Yigit o'jarlanib har qancha tushuntirmasin, baribir ularning

ishonmasligiga ich-ichdan iqror bo'lib, uyiga qaytib kelibdi. Ota vasiyatiga ko'ra ichkari xonaga kelini olib kirib, xariga arqon tashlab, bir uchini bo'yniga bog'labdi-da, kelini oyoqlari bilan tepib yuboribdi. Uning salmog'iga xari qirsillab sinib ketibdi. Xarining ichi kovak bo'lib, kovak har xil tillo, kumush tangalarga to'la ekan, boshidan shovva quyilibdi.

Yigit tangalarning bir qismini xonga olib borib, o'zining biylik lavozimini qaytarib olibdi. Xonning oldidan kelgan kuniyoq bir uyda bazm qurib o'tirishgan yor-birodarlarining oldiga kirib boribdi. Saroyga nima maqsadda borganini, xondan o'zining biyligini qanday qaytarib olganini aytib beribdi. Bu gapni eshitib, hamma uni o'zidan to'rroqqa o'tqazish ilinjida o'rnidan tura boshlabdi.

— Yo tavba, hadeb menga yo'lbars ro'para kelaveradiya! — debdi yigit to'rga chiqib o'tirgach, jo'rttaga. — Bu yoqqa qaytib kelayotganimda yo'lda naq yettita yo'lbars oldimdan chiqsa bo'ladimi! Otdan tushdim-u, unisini u yoqqa, bunisini bu yoqqa uloqtirdim. Yettovi ham yer tishlab qoldi!

— To'g'ri aytasan! — debdi o'tirganlar uning gaplarini ma'qullab. — Men bir odamning oltita yo'lbarsni o'ldirganini ko'rganman-u...

— Men birvarakayiga o'nta yo'lbarsni yenggan odam bilan gaplashganman.

— Sizday mard dunyoga bir marta keladi!..

Yigit bir muddat jim qolibdi-da:

— Eh, falakning gardishi-yey! — debdi og'ir xo'rsinib.

Qariyalarning hangomalaridan: Qadimda Bekkeldi ismli bir boy bu dunyodan ko'z yumibdi. Bekkeldi xonning eng sevimli biylaridan bo'lgan ekan. Shuning uchun birato'lasi uning o'rniga Do'stkeldi degan inisini biy qilib tayinlash maqsadida xon janozaga kelibdi. Bekkeldining janozasiga xonning o'zi qatnashayotgani uchun fotihaga juda ko'p odam yig'ilibdi. Fotihadan so'ng xon hammaning uy-uyiga ketishiga ijozat berib, ular ko'zdan yiroqlashganda Do'stkeldini qoshiga chaqiribdi:

— Sen anovi olomonni qayta yig'ib kel, ularga bir gap aytishni unutibman, — debdi.

— Iye, xon hazratlari, ular mening chaqirganimga kela qolishmaydi-ku, — debdi Do'stkeldi astoydil ajablanib.

— O-o, bechora Do'stkeldi! Ularning gapingga itoat etmasligini bilmaydi deb o'ylaysan shekilli? Ularning ortidan borib: "Sizlarni xon chaqiryapti!" deb mening nomimdan gapirishga fahming yetmadi-ya! Men seni ovulingga Bekkeldi biy qilib ketmoqchi bo'lsam, sen bechora Do'stkeldi bo'lib qolaverishni so'rab turibsan-a! — debdi xon.

Ko'cha biyining aytgani: Tilim zaharroq bo'lgani uchun kolxozimizning avvalgi raisi bilan ikkovimizning yulduzimiz to'g'ri kelmay qoldi. U ko'pchilikning oldida lom-mim demasdi-yu, ikkovimiz xoli qolgudek bo'lsak: "Sen ovuldan ko'chib ket, mening obro'yimga putur yetkazyapsan", deyaverardi. "Qanaqa putur?" deb so'rasam: "Ayrim odamlar maslahat so'rab mening oldimga kelish o'rniga sening oldingga borarkan", derdi. To'g'risini aytsam, bunday obro'yim borligini sezmagan ekanman. Ichimda o'zimdan mamnun bo'lsam-da, oz-moz qo'rqay dedim. Sababi kolxozda amali hammadan yuqori odam bilan san-manga borish kundalik tirikchiligimni tang ahvolga solib qo'yishi mumkin-da! Unaqasiga o'ylanib, bunaqasiga o'ylanib, axiri rayonda militsiya boshlig'i bo'lib ishlaydigan jiyanimning idorasiga bordim. U meni ko'rishi bilan qabulidagi odamlarga ruxsat berib yubordi-da, xavotirlanib qaradi:

— Tinchlikmi? Kimning ustidan shikoyat qilib keldingiz? — deb so'radi.

— Shunday, o'zim... — dedim men.

Jiyanim:

— Biz shikoyat bilan keluvchilarni tinglab o'rganganmizda, — deb o'zini oqlagan bo'ldi. Keyin: — U holda, menga qanday iltimosingiz bor? — deb so'radi.

— Yolg'iz iltimosim shuki, kolxozimizga borganingda rais bilan gaplashib qaytavermay, meni oldingga chaqirtirib, qo'limni olsang bo'ldi, boshqa tilagim yo'q, — dedim.

— Iltimosingizni o'shanda aytasizmi? — deb so'radi u tagdor qilib.

— Vaqtida ko'ramiz-da, — dedim men ham ma'noli kulib.

U kula-kula xayrlashib qoldi. Bir kuni maktabdagi ota-onalar yig'ilishidan uyga qaytib kelayotuvdim, shahar tarafdan bir mashina zuvillab kelaverdi. Oldini kesib o'tishga ulgurolmay, kutib turishga majbur bo'ldim. Mashina ro'paramga kelganida "g'iyq" etib to'xtadi. Ichidan militsiya boshlig'i sakrab tushdi-da: "Iye, tog'a, assalomu alaykum!" deb qo'limni oldi. Shu orada mashinadan yana bir odam tushib keldi. Qarasam kolxozimizning raisi! U ham: "Iye, iye, assalomu alaykum ovulimizning ministriga!" deb quyuq salomlashdi. Militsiya boshlig'i hol so'ray ketdi: "Ahvollaringiz qanday, tog'a? Yaxshi yuribsizmi? Menga qanday iltimosingiz bor?.." "Rahmat, ahvolim yaxshi, biroq yaxshi odamning aytganlari bo'lavermas ekan, nachora", dedim. "Qani, xo'sh, mashinaga o'tiring, uyingizga oborib qo'yaylik", dedi jiyan. "Rahmat, sizlar shoshilib turganga o'xshaysizlar, mening manovi uyda bir ishim bor edi", deya yolg'ondakam yo'lning narigi tarafidagi bir uyga ishora qildim.

U quyuq xayrlashib, mashinasiga o'tirdi.

O'sha-o'sha kolxoz raisi meni ko'rgan yerida to'xtab salomlashadigan bo'ldi, avvalgi do'q-po'pisalardan asar ham qolmadi.

Qariyalar gurungidan: Agar amal va amaldorlar haqida gap qo'zg'olsa, avvallari: "Amal bersang boyga ber, uning ko'zi to'q bo'lganligi uchun poraxo'rlik qilavermaydi", deyishardi. So'ng: "Mansab bersang kambag'alga ber, u boshqalarni ham o'ziga teng ko'rib, barchani baravar to'ydirish harakatini qiladi", deyiladigan bo'ldi.

— Men o'z umrimda ko'p mansabdorlarni ko'rib, mansabdan foydalanishning uch yo'li borligini sezdim. Mansab birovlar uchun gulqaychidek gap ekan: gulqaychi bachki shoxlarni kesgandek, o'ziga yoqmagan xizmatchilarni ishdan chetlashtiraveradi. Mansab yana birovlar uchun bamisoli soyabondek ekan: hammaga g'amxo'rlik qilayotgandek ko'rinish maqsadida sanoqligina yaxshi odamlarga qo'shib yakkash laganbardorlarni soyasiga olaverarkan. Mansab uchinchi bir odamlar uchun ochiq-oydin osmonga o'xsharkan: uning ostida mansabdorlarning o'zi ham, boshqalar ham emin-erkin, bahamjihat yashayverisharkan.

— Idoramizning avvalgi direktori suyagi yirik odam edi. Er-

kak tuyaqushdek hamisha tumshug'i qizarib yurardi. Mansabdan bo'shatilgan kuni odamlar uni kurk bo'lgan tovuqqa o'xshatishdi. "Ana mansabdorning ahvoli!" deyishdi.

— Mansab ko'pchilikning bir odamda mujassamlashgan kuch-qudrati, xalq irodasi.

— Mansab ko'zga ko'rinmas nur, kimnidir yoritadi, kimgadir soya tashlaydi.

— Mansabdor odam uch holda yomon ahvolga tushib qoladi: birinchisi, mansab kursisiga o'tirgach, o'z irodasining jamoa irodasiga aylanganini sezmay, o'zinigina o'ylashda davom etaversa; ikkinchisi, mansabi o'zidan quyiroqlarga qashqir, yuqoriroqlarga tulki terisini yopinib muomala qiladigan ustasi farang bo'lsa; uchinchisi, o'ziga yaqinlarni gul, uzoqroqlarni nayza bilan kutib oladigan bo'lsa.

— Bularning barchasi bilgan odamga — Hayot maktabidan olingan saboqlar.

Bobomning aytgani: Men yoshligimda oqsoqol-qariyalarning xizmatlarini qilib, ikki xil olqish eshitardim. Birlari: "Uyingda mushuging ko'p bo'lsin", deb duo qilsa, boshqalari: "Uying oltinga to'lsin!" deb duo qilishardi. Birinchi xil duo qilganlarni yoqtirmay, ikkinchi tilakni eshitganda xursand bo'lardim. Endi o'ylab qarasam, birinchi xil duogo'ylar uyingda don ko'p bo'lishini tilarkanlar: bir yili ekkan bug'doyimiz mo'l hosil berib, uyimiz don-dunga chunonam to'lib-toshdiki, uyda sichqonlar ko'payib ketdi. O'shanda bitta emas, ikkita mushuk asrashga majbur bo'ldik. Keyin, ular ham bolalab berdi desangiz. Har qalay, uyingda don mo'lligiga nima yetsin!

"Uying oltinga to'lsin!" deganlari olqish emas, aslida qarg'ish ekan. Qo'shnim savdogar edi. Uyida tillosi ko'paydi. O'zi, ayoli, qizlari u yoqda tursin, o'g'illari ham barmoqlariga uzuk taqib yuradigan odat chiqarishdi. Oltin odamning aql-hushini o'g'irlab qo'yadi shekilli, ularning uylaridan janjal arimasdi. Bir qarasangiz: "O'g'li allaqaysi shaharda qo'lga tushib, qamalibdi", yana bir qarasangiz: "Suyuqoyoqligi uchun qizini eri haydab yuboribdi", degan sovuq xabarlar eshitiladi, deng. Oradan ko'p o'tmay, o'sha savdogar tanish bir do'kondor bilan o'z xotinini

ushlab olib o'ldirgani uchun qamalib ketdi. Yana ko'p o'tmay: "Savdogarni qamoqda allakim pichoqlab o'ldiribdi", degan xabar keldi.

Hozir o'sha oltin to'lib-toshgan uy o'rni tap-taqir maydondek. Bunaqa yerda o'simlik ham o'smas ekan.

Mana, buni ham hayot deydilar.

Ko'cha biyining aytgani: Bir paytlar shaharda yashaydigan tog'amning o'g'li to'y qilgan edi. Betochar payti hamma yangi kelinni bir ko'rish umidida uymalashib turuvdi. Davradan chetroqda turgan bir ayolga ko'zim tushib qoldi. Yonidan o'tayotgan odam, shu moxovga biron yerim tegib ketmasin degandek chetlabroq o'tadi. Ayolning suv ostidagi toshdek yiltillagan ko'zlari tevarakka jovdirab boqadi. G'ijimlangan qog'ozdek burishib-tirishgan yuzlarida allaqanday nadomat, mung balqiydi. Men bu ayolni birinchi marta yigirma besh yil avval bir uylanayotgan yigitning tug'ilgan kuniga atab berilgan ziyofatda ko'rgan edim. O'sha ziyofatga yig'ilganlar: "Hozir Aytjonovning xotini kelarmish", deya shivirlashib, taraddudlanib qolishdi. Oradan sal o'tmay, allakimning: "Ana, kelyapti! Qani, yo'lni ochib qo'yinglar!" qabilidagi tanbehlari ostida davra qoq ikkiga ajralib, o'rtada uzunchoq yo'lak hosil bo'ldi. Hamma tahlika-yu betoqatlik bilan kutgan "Aytjonovning xotini" to'rt ayolning qurshovida as'asa-yu dabdaba bilan yo'lak bo'ylab yurib kelaverdi. Yo'lakning ikki chekkasidagi izdihom "Aytjonovning xotini" ro'parasiga kelganda oldinga talpinib, u bilan qo'l olishib ko'rishish harakatiga tushib qoldi. Ayolning kaltagina, biqqa qo'llariga qo'l tekkizib ulgurganlar o'zlarini baxtli sanab, qo'li yetmaganlar "sho'rpeshonaligidan" afsus-nadomatlar chekib qolaverishdi. O'shanda baxtli bo'lish ilinjida ko'pchilik qatori men ham tavakkal deb qo'l cho'zdim. Lekin ayol men tarafga qarab ham qo'ymay oldimdan o'tib ketgan, men "baxtsiz" bo'lib qolavergan edim.

Atrofimga ko'z yugurtirib, bundan yigirma besh yil ilgarigi o'sha ziyofatda qatnashgan, "Aytjonovning xotini" bilan qo'l berib salomlashgan "baxtiyorlar"dan birini ko'rib qoldim-da, uni hozirgi to'yda bir chekkada mung'ayib, "unutilib" turgan "Aytjonovning

xotini" tarafga imladim.

U qulog'imga shivirlab: "Hayot shu ekan-da!" dedi. Ortidan izoh berishga tushdi: "Bir paytlar bu ayolning eri shaharda katta mansabdor edi. Avvaliga poraxo'rlikda ayblanib ishdan bo'shatildi. Ko'p o'tmay, o'lib ketdi. Bugun unga kulyapmiz-u, ertaga o'zimizning ayolimiz qanday ahvolda qolishini oldindan ayta olamizmi?..".

Mana, bu ham hayotning turfa-tuman evrilishlaridan biri.

* * *

Inson o'z umrida necha marta yig'lab, necha marta kulmaydi deysiz: har qalay, odamzod bino bo'lgandan beri kulgi bor joyda yig'i ham bor, bir odamning boshqa birovdan o'rganishi ham, bir odamning boshqa birovga o'rgatishi ham tabiiy bir hol.

Ajdodlar avlodlarga meros qoldirib, ajdodlar avlodlarga voris bo'lib yashaydilar. Yosh avlodning har bir xatti-harakati, fe'l-atvorida bundan ko'p yillar, asrlar avval yashab o'tgan ajdodlarga xos xislatlar — fazilat va illatlar takrorlanayotganining guvohi bo'lish mumkin. Bu ham tabiiy bir hol. Mabodo ota-bobolarimiz o'zlari yaratgan ma'naviy-madaniy boyliklar, axloqiy qonun-qoidalar, eng yaxshi urf-odatlariga kelgusi avlod amal qilmasligini aniq bilsa, u holda kelgusi nasllardan hafsalasi pir bo'libgina qolmay, ota-onalik baxtidan ham voz kechgan bo'lar edilar. Biroq hech kim bu dunyoda hayotning batamom to'xtab qolishiga sababchi bo'lishni istashi mumkin emas. Har qalay, hayotda nimalar bo'lmaydi deysiz? Odamzod ne-ne kulfatlarni boshidan kechirib, qanday falokatlarga qarshi ko'ksini qalqon etmagan? Shu boisdan ham birov birovni yupatmoqchi bo'lsa: "Tirikchilik — tirriqchilik ekan-da! Nachora, bu yolg'onchi dunyoning ishlari shunaqa ekan-da!" qabilidagi gaplar bilan ko'ngillarga taskin beradi.

"Menimcha, hayotdagi barcha urush-janjallarning bosh sababi odamlarning qanoatsizligida", derdi bobom.

"Odam bolasining o'zi to'ysayam ko'zi to'ymaydi", derdi onam.

Dunyodagi eng aqlli, eng qudratli jonzot hisoblanmish odamzodning umr yo'liga teranroq nazar tashlab, o'ylab qarasangiz, aksincha, uning ko'p hollarda o'ta aqlsiz va nochor-notavonligiga, g'oyatda mo'rtligiga iqror bo'lasiz.

Sirasini aytganda, odam bolasini bir og'iz gap bilan suydirish, bir ogiz gap bilan kuydirish mumkin.

Odamning baxtga esh oylari kundek, kunlari lahzalardek yugurik, aksincha, motamsaro chog'larida lahzalar soatdek, kunlari yildek uzun tuyula boshlaydi. Mana shunday paytlarda odamzod naryog'ini qo'yib turaylik, lahzalardan, soatlardan, kunlardan tarkib topgan roppa-rosa 1997 yillik umrni qanday yashab qo'yganiga ajablanadi kishi!

Otamning nasihatlaridan: Hayotining ma'nosizligi uchun har kimning o'zi aybdor. Hayotdan nolimay, aybni o'zingdan qidirish — donolik alomati.

Hayot — alg'ov-dalg'ovlardan, kuchlilar bilan ojizlarning hayot-mamot kurashidan iborat. Har bir odam uchun eng muhimi o'zining qay tarafda, kimlar bilan birgaligini teran anglay bilishida.

Umring suronlarga qancha boy bo'lsa, shuncha qiziq. Umrni g'aflatda mudrab o'tkazgan odamning o'likdan farqi kam.

* * *

Tarix qancha-qancha shafqatsizliklar shohidi, behuda qon to'kishlar guvohi bo'lmagan deysiz! Tarix sahifalarini birma-bir varaqlaganingiz sayin, tosh yuraklar ham hazin tortib, ummonlarda bo'ron, sahroda to'fon ko'rgandek hayrat-u taajjubga tushadi kishi! Goho o'zingizga tasalli berish uchun tirikligingizga ham shukur qilasiz!

Bundan chiqdi, "umr" deganlari "tiriklik"mi?

— Umr —tanangda joning bor paytlar, — derdi momom.

— Yo'q, umr — odamzodga foydali kunlaring, — deb o'jarlik bilan uqtirardi bobom.

Ko'cha biyining aytgani: Bolalik chog'imda ovul chekkasidagi to'qayzorga o'tin tergani boruvdim. Qarasam, qalin o'sgan chaka-

lakning narigi tarafida bir ayol bilan bir erkak olishib yotibdi. Bola emasmanmi, qo'rqqanimdan chakalak ostida yashirinib yotgan holda ularni kuzata boshladim. Bir payt erkakning qo'lida xanjar yaltiradi. U qo'lidagi xanjar bilan ayolga tashlandi. Ayol qaltirab-titrab ortga chekindi. Erkak:

— Joning ko'zingga ko'rindimi? Endi meni o'zingga payg'ambar deb bil! — deb uning ustiga bostirib boraverdi. Nogoh erkakning oyog'iga tuyasingir o'ralishib yiqildi-da, xanjari qo'lidan uchib ketdi. Ayol jon-jahdi bilan xanjarga tashlanib, qo'liga oldi-yu, uzala tushib yotgan erkakning ustiga minib:

— Jonni ko'zga ko'rsatish qanday bo'lishini endi tushungandirsan?! Endi sen menga "Payg'ambarsan" de! "Halol-poksan" de! Bo'lmasa!.. — deya g'ijinib o'dag'ayladi.

Erkak ikki qo'lini ayolning oyoqlariga ipdek chirmashtirib, ularni o'pgan ko'yi titrab-qaqshab:

— Payg'ambarim!.. Poksan!.. — dedi.

Ayol cho'nqayib uning boshini silashga tushdi.

Mana, bu ham umr!

* * *

...Umrning favqulodda evrilishlari har xil "payg'ambar"larni yaratishga o'ta mohir. Biroq tiz cho'kib "payg'ambar" bo'lgandan hech kimga egilmasdan podachilik qilgan ming karra afzalroqdir.

— Hayot ne-ne asov-beboshlarni tizginlab, osmondan yerga tushirib qo'yishga ham mohir. Agar sen hayotda o'z o'rning, o'z mavqeyingni bilmasang el-yurt orala, o'zligingni topasan, — deya nasihat qilardi bobom.

— Qisqasi: "Ot qilib o'yna", deb bolangning qo'liga tayoq tutqazsang, vaqti kelib bolang: "Suyanib yuring", deb qo'lingga tayoq ushlatadi. Mana shu ikkovining oralig'ini umr deydilar, — der edi onam.

Har qalay, odamninng umrida ikki xil sinov bor: birinchisi turmush sinovi, ikkinchisi yillar sinovi. Har ikkisi ham shafqatsiz sinov. Tan-joni sog' odam turmush sinovlaridan o'z mehnati bilan o'tishi mumkin. Biroq yillar sinovi ayovsiz. Dunyodagi eng yovuz kasallik — qarilik!

— Odam o'z umrida bolalikni ikki bor yashaydi. Ikkinchi bor qariganda, — derdi bobom.

Balki bu kimgadir yangilik bo'lib tuyulmas, har qalay, mening nazarimda, hayot — odamlarning bir-birlariga do'st-birodarligi; hayot — odamlarning bir-birlariga mehr-muhabbati. Har ikki ta'rif xuddi bebaho kashfiyot yanglig' yuragimni orziqtiradi, ruhimda ajib bir farah uyg'otadi.

Balki aslida ham shundaydir?..

13

"...Umr — odamning odam bilan, avlodlarning avlodlar bilan do'stligi...".

"Do'stlikning ming bir sharti bor".

"Do'stlik — butun boshli bir tarix", deydi xalq donoligi.

Tarix — qachonlardir bunyod etilib, chertishga sozlab qo'yilgan sozning qo'sh tori: bir toridan — do'stlik, bir toridan — dushmanlik ohanglari yangraydi. Qaysi torni qanday chertish sozandaning ishi, uning dunyoni tanish darajasiga bog'liq. Har qalay, bugungi kunda bu sozning har ikki tori motam sadolarini emas, tiriklik navosini, do'stlik kuyini taratmog'i lozim.

Har bir odamning dunyoga betakror, faqat o'zigagina xos qarashlari bo'lganidek, har bir xalqning faqat o'zigagina tegishli xususiyatlari bor, o'ziga xos turmush tarzi, urf-odatlari, demakki, o'zi yaratgan cholg'u asbobi bor.

Odatda har bir xalq o'zini o'zi tanish darajasiga yetgandan keyingina o'zini boshqalarga tanitish yo'liga o'tadi. Ya'ni sozlangan, lekin hali chertilmagan cholg'u asbobini qo'liga olib, chalishga tutinadi. Ko'p hollarda yomon chalmaydi. Biroq bir vaqtlar chalinmay sabil qolgan cholg'u tovushlarini deb, o'zining bugungi kun uchun yoqimsiz nag'masiga zo'r beruvchilar, bunday nag'malar bilan ko'pchilikning qulog'ini qomatga keltiruvchi kimsalar ham hayotda uchrab qoladi.

Shuningdek, jahon tarixi kengliklaridan o'z xalqiga mansub cholg'u asbobini qidirib, uni jaranglatib-yangratish umidida zarur torga emas, allaqachon bitib ketgan dil yaralariga qo'l yuborganini, uni o'siq tirnoqlari bilan timdalay boshlaganini sezmay

qolish, mabodo sezgan taqdirda ham, bu tarixiy cholg'u-ku, deya hasratli nidolarga rohatlanib quloq tutish hollari ham bo'lgan. Bunday bag'ritoshliklar o'tmishning o'zi uchungina emas, kelajak uchun ham dahshatli saboqlardir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bobolarimiz kechmishlarida shundayin haqiqatlar borki, aytsangiz hech kim ishonmaydigandek. Shundayin afsonalar borki, aytsangiz hamma ishonadigandek... Har qalay, ajdodlaringizni ham, o'zingizni ham beshafqatlar orasida emas, mehr-shafqat sohiblari orasida ko'rganga nima yetsin! Axir, odam bolasi bu dunyoga imkon qadar totliroq luqmalarni yamlamay yutish uchun emas, olamni yashnatish uchun, kelgusi avlodlarga mumtoz obidalar, beqiyos donoliklarni meros qilib qoldirish uchun kelmaydimi! Kimlar bunday ezgulik yo'lida jon fido qilgan bo'lsa, kelgusi nasllar ularni olqishlab yashaydilar. Ularning fidoyilarcha chekkan zahmatlari avlodlargagina emas, avvalo, o'zlariga beminnat xizmat qilaveradi. "Mangu barhayotlik" deganlari shu bo'lsa kerak! Avlodlarning hamkorligi, do'st-birodarligi ham mana shu!

Do'stlikka erishish yo'li son-sanoqsiz qarama-qarshiliklar, zahmat-mashaqqatlarga to'la.

Odatda, odamlar o'zaro zid narsalarni "Yer bilan osmonday", deya izohlaydilar. Bu maqbul muqoyasa emas. Odamni yer kiftida ko'tarib, turfa balo-qazolardan himoya qilib turadi. Chinakam do'st yer-u osmon vazifasini birato'la ado etadi.

"Do'stlikning birinchi sharti — o'zingni o'z irodangga bo'ysundira olishingda", derdi onam.

"Sen menga eng yaqin do'stingni ko'rsat, sening kimligingni ham, umring qanday kechayotganini ham aytib beraman", deyishadi qarilar.

Odam o'z umriga o'zi to'g'ri baho bera olishi uchun, avvalo, do'stlari haqida bosh qotirmog'i joiz. Bu uning o'zligini, qolaversa, xalqini anglash yo'lidagi ko'pdan ko'p adashishlardan qutqaradi.

"Xastaning o'zini baxtiyor sezishi uchun birgina tilagi bor, bu — tezroq sog'ayish. Sog'lom odam o'zini baxtiyor deb bilishi uchun minglab tilakka ega", degan Ibn Sino.

Bosh tilak — chinakam bir do'stning bo'lishi. Chinakam do'sti bor odam bamisoli mevali daraxt. Chala-yarim do'st — chidam-toqatingiz yetsa meva beradigan, g'aflatda qolsangiz, hosil o'rnida qurt-qumursqalar izg'igan mevali daraxtdir.

Do'stlik degan so'z qanday kelib chiqqan? Qachon paydo bo'lgan?

Amudaryo yoqasida qo'nim topgan ovullardan birida bo'layotgan to'yga har xil elatdan odamlar chaqirilib, hammalari ulkan o'tovga taklif qilinibdi. Mehmonlar bir-birlari bilan tanishib, bazm endi boshlangan paytda, bir odam eski qora qalpog'ini qo'ltig'iga qisgancha, eshikdan kirib kelibdi. To'rda o'tirganlar orasida ola do'ppili bir odam o'rnidan otilib turib, u bilan quyuq salomlashibdi, hol-ahvol so'rashibdi.

— Do'stim, — debdi bir payt eshikdan kirgan odam ovozi andak titrab. — Sening shu yerda ekaningni eshitib kelgan edim. Bu yil sovuq ertaroq tushib, ekinim pishmay qoluvdi...

Ola do'ppili odam gapning davomini kutmay, kissasidan bir siqim pul chiqarib beribdi. Yordam so'rab kelgan odam unga qayta-qayta rahmat aytib, suyuna-suyuna chiqib ketibdi. U ketgandan keyin, ola do'ppili odamning ko'zlari yoshlanib, ma'yus tortib qolibdi.

— Ha, o'zbek, senga nima bo'ldi? Haligi odam qarzga olgan pulini qaytarmay, yeb ketadi deb tashvish tortyapsan shekilli? — deb so'rashibdi yonida o'tirganlar.

— Yo'q, og'aynilar! Shu odam mening eng qadrdon do'stim. Do'stimning ekini pishmay xazon bo'lib, bola-chaqasining och qolgani kamdek, oldimga bosh egib kelishiga — hammaning ko'z oldida xijolat chekishiga sababchi bo'ldim. O'zim uyiga borib hol-ahvolini bilmaganimga, hali so'ramasidan turib do'stona yordam ko'rsatmaganimga xafaman, — deb javob beribdi ola do'ppili odam.

"Xalqlar do'stligi — ikki odamning o'zaro qadrdonligidan boshlanadi", derdi bobom.

"Do'stsiz yashash — to'qayzor ichiga qoqilgan qurg'oq og'och holiga tushishdir".

"Do'sting shuhratparast bo'lsa, kunlardan bir kun teringga somon tiqadi", deya ogohlantirardi Ko'cha biyi.

"Har bir odam bolasining bu dunyoga o'zi bilan yangi jumboq olib kelaverishi meni hayron qoldiradi", der edi onam.

Hayotingizni chigallashtiradigan narsa sizni qurshagan tashqi olamgina emas, siz bilan muloqotda bo'layotgan odamlarning jumboqligi. Shular haqida chuqurroq o'ylaganingiz sari ko'nglingizda asl do'stlaringizga nisbatan ham beixtiyor shubha uyg'onadi. Gumon aralashgan do'stlik esa, muz ustiga qurilgan uyga o'xshaydi.

Mening xalqim davrlar suronida talay-talay sodiq do'stlaridan ajralib, dam onasini, dam egizagini yo'qotgan shumshuk qo'zidek qaylarda tentiramadi! Qaylardan panoh qidirib, najot istab nola qilmadi!

Har bir xalq milliy taraqqiyot darajasiga ko'ra o'z tog'lariyu, o'z cho'qqilariga ega. Biroq bugungi kunda har bir odamga butun olam besh barmoqdek ayon bo'lib qolgan davrda bunday osmono'par tog'lar-u yuksak cho'qqilar xususida tuzukroq o'ylab ko'rmay gap yuritish tug'ma ko'rning allaqanday buyumni paypaslay turib "Manovining rangi oq", "Manovining rangi qora" deganiga o'xshab qolishi mumkin.

Qoraqalpoqlarga o'z tarixi haqida so'z ochgudek bo'lsangiz, ba'zi birovlari: "Qo'l qo'lni yuvadi, shuning uchun ham ayrim hukmdorlar kelajagidan umidvor bo'lib, o'zidan avval hukm surgan xon-u biylarni do'st bilib, ularga haykal o'rnatadi", deydi.

Agar shunday bo'lganida, Yer yuzida haykaldan o'rmonlar barpo bo'lmasmidi!

Qoraqalpoqlarga o'z tarixi haqida so'z ochgudek bo'lsangiz, tag'in birovlari: "Qo'l qo'lga kir chaplaydi, shuning uchun ham ayrim hukmdorlar o'zidan avval hukm surgan xon-u biylarni dushman bilib, ularning qabriga palaxmon toshini otadi", deb ham aytadilar.

Balki, dunyoda buyuklar sha'niga tiklangan haykallarning kamligiga sabab shudir?

Do'stlik — o'z umringni do'stingga baxshida etish demakdir.

Biroq shuning o'zi kifoyami?

Odamning ikkinchi yuragi — kafti, degan hikmatli gap bor. Shu boisdan ham kaft kaftga tekkanda g'animlik toshi mumdek erib, do'stlik poydevori qo'yildi.

Lekin hamma vaqt ham shunday bo'ldimi? Bizga qadar qancha-qancha xolis niyatli do'stlar-u, qancha-qancha qora niyatli... birodarlar yashab o'tganlar!

— Xolis niyatlilardan nima qoldi?

— Odamlararo, xalqlararo mehr-oqibatning, chin muhabbatning timsollari qoldi.

— Qora niyatlilardan nima qoldi?

— Odamning odamga, xalqning xalqqa shubha-gumonlari qoldi. Son-sanoqsiz noma'lum qabrlar qoldi! Vayron etilgan shaharlar qoldi!..

* * *

Kishining do'stlari yo dushmanlariga nisbatan uning taqdiriga loqayd qarovchilar ko'proq bo'ladi, degan hikmatli gap barchaga ma'lum. Loqaydlarning eng xavfli tomoni shundaki, ular ko'p hollarda do'stga emas, dushmanga aylanishi oson bo'ladi.

Bruno Yasenskiy so'zlari bilan aytganda, "Men do'stlarimdan qo'rqmayman — nari borsa ular og'ir kunda menga sotqinlik qilar, dushmanlarimdan ham qo'rqmayman — nari borsa, ular meni bir amallab o'ldirar. Men uchun eng dahshatli odamlar taqdirimga loqayd qarovchilar, ularning qachon nima qilishini bilish mushkul".

Jiyan jirov zamonida birov ayb ish qilsa, uni och qoldirisharkan-da, eng yomon ko'radigan dushmanini qoshiga o'tqazib, unga o'zgacha hurmat-ehtirom ko'rsatisharkan.

Berdaq zamonida kim ayb ish qilsa, uning otasini jazolasharkan.

"Bolalik chog'imda ovulimizda kim o'z do'stiga xiyonat qilsa, ovul oqsoqollari o'sha xiyonatkorning dushmanlarini uyiga chaqirib kelib, yetti pushtini bir sidra so'ktirardi", derdi Ko'cha biyi.

Qariyalar gurungidan: — Ovulimizda O'tagan boy degan g'alati bir odam bo'lardi. U farzandlarining kelajagi uchun ko'p

qayg'urardi. Har bir farzandining o'zidek boy bo'lmasa ham, katta amaddor bo'lishini, ularni kam deganda ovul biyining o'rnida ko'rishni orzu qilardi. 1917-yilgi to'ntarish sabab u butun boyligidan ajraldi-qoldi. Mashaqqat ko'rmay o'sgan bolalari qattiq qiynalishdi. Bu orada hukumat kambag'al-yetimlarni o'z panohiga olib o'qitdi. Qarabsizki, kechagi yetim bechoralardan muallimlar, rahbarlar yetishib chiqdi. O'tagan boyning ularga havasi kelib, o'g'lini ham qandaydir yo'llar bilan o'qishga kiritgan edi, yolchitib o'qimadi. O'tagan boyning alami kelib: "Bolalar yetimlik ko'rgandagina esli-hushli bo'lib, o'qiy olarkan. Yaxshisi — mening bolalarim ham yetim qolib, ertaroq es-hushini yig'ib olsin-u, men orzu qilgan mansablarga erishsin", deb bir kuni osilib o'lgan ekan...

— Bu hangomang nodurust. Boy deganlari bunday anoyi bo'lmaydi. Ular pixini yorgan tullak bo'lishadi.

— Ernazar olako'z haqida shunday naql bor: u do'stlar o'rtasida tenglik bo'lishi kerakligini aytib: "Bilasizlarmi, biz Xivaga borganda kattaroq amaldorlarga salom berib: "Holingiz qanday?" deb so'rasak, xafa bo'lishadi. Aksincha, bizdan ular: "Holingiz qanday!" deb so'rab qolishsa, xursandlikdan o'zimizni yo'qotib qo'ygudek bo'lamiz", degan ekan...

— Har qalay, kiyimning yangisi, do'stning eskisi yaxshi.

— Agar do'stlaringni xush ko'rmaydiganlar orasidan o'zingga do'st qidirsang, avvalgi do'stlaringni dushmanga aylantirasan.

— Do'st bo'lib yurib dushmaningga aylangan odam sir-asroringni bilmaydigan yuzta dushmandan xavfliroq.

"Odamning eng mehribon do'sti ham odam, eng yovuz dushmani ham odam", deydi donolar.

Ko'cha biyining aytganlari:

Birinchisi: Maktabda o'qib yurgan kezlarimda Esemurod degan do'stim bor edi. U bilan egizak qo'zilardek birga yurib, birga dars tayyorlardik. Esemurod andak beboshroq edi. Bir kuni qo'shnisining qovun poliziga o'g'irlikka tushibdi. Ertalab Esemurod ikkovimiz dars tayyorlab o'tirgan edik, qovunning egasi iz quvib kelib, karavot tagiga yashirilgan ikkita qovunni topib oldi. Bir payt u Esemurodning qulog'idan cho'zib, sen o'g'risan, deb

shovqin-suron ko'tardi. Shu orada qo'shnilar yig'ila boshladi. Qo'shnilari oldida do'stimning yuzi shuvit bo'lib qolishi mumkinligini sezib: "U emas, men o'g'irladim", dedim. Qovunning egasi endi mening qulog'imdan cho'zib to'ppa-to'g'ri maktabga olib bordi. Aslida qovunni o'g'irlagan Esemurod esa menga beparvo qarab turaverdi. Rost gapni bo'yniga olmadi. Men do'stlikning haqqi-hurmati gapimni ikki qilmay: "Men o'g'irladim!" deb turaverdim. O'sha kundan boshlab bolalar mening otimni aytmay, "Hoy, o'g'ri!" deb chaqiradigan bo'lishdi. Bu holdan xo'rligim kelib, otamga aytgan edim, otam: "O'g'lim, do'stlikka sadoqat bo'lgani yaxshi, endi Esemurodni sotmay qo'ya qol-u, biroq bunday do'stdan o'zingni chetga tortganing ma'qul", deb ertasidan bizni boshqa ovulga ko'chirib olib ketdi...

Ikkinchisi: Ovuldosh do'stlarimizdan biri qo'shni rayon markazidagi katta bir lavozimga ko'tarilib ketdi. (Bu odam qazo qilgan. Marhum sha'niga yomon gap aytishni xalqimiz ma'qul ko'rmaydi. Shuning uchun uning otini aytmay, "Bir yigit" deya qolay). O'sha "Bir yigit" oradan ikki yilcha o'tib, ovulga aylanib keldi, eski qadrdonlaridan besh kishini uyiga taklif qildi.

"Do'stingni kuttirma — yo'lidan qolar, dushmaningni kuttirma — siringni olar", deb o'rgatgan xalqimiz. "Xo'p" dedig-u, uyiga bordik. "Bir yigit"ning eshigini ochsak, uyida naq ostonaga qadar eng qimmatbaho gilamlar to'shab tashlangan. Ichkariga kirganimiz sari hayratimiz oshaverdi. Olti xonaning hammasida bittadan garnitur. Ularning har birini sotib olish uchun bir odam ikki yuz so'm oylik bilan oziq-ovqatga, kiyim-kechakka, boshqa kundalik zaruratlarga pul sarflamasdan besh yil ishlashi kerak bo'ladi.

Mezbon xizmat yuzasidan tashqariga chiqib ketgan edi, beshovlon hayratimizni ichga sig'dirolmay, o'zaro gaplasha boshladik.

— Buncha mol-dunyo poradan to'plangan bo'lsa kerak, — dedi oramizda birov.

— Yo'q, uchiga chiqqan savdogar bo'lsa kerak, — dedi yana birov.

— Balki, o'g'ridir? — dedi uchinchimiz.

Shu orada "Bir yigit" kirib: "Kuy tinglab o'tiringizlar, do'st-

lar", dedi-da, yonimizdagi stol ostidan magnitofon chiqardi. "O'zi qanday kuyni yoqtirarkan, o'shanisiga qarab kasb-korini bilib olamiz", degan xayolda betoqatlik bilan kuta boshladik. Bir payt magnitofon tilga kirdi. U tashqariga chiqishdan avval bizga sezdirmay murvatini burab ketgan ekan deng, kim nima degan bo'lsa, hammasi bir boshdan takrorlanaverdi: "Buncha mol-dunyo poradan to'plangan bo'lsa kerak...", "Yo'q, uchiga chiqqan savdogar bo'lsa kerak...", "Balki o'g'ridir?.." Hammamiz ajablanib bir-birimizga qaradik.

— Do'stlarim, mendan shubhalanmanglar, bu rayonning odamlari shunaqangi mehribon ekanki, o'zlari olib kelib berisharkan. Men yolg'iz sizlargagina muhtoj bo'lib turgan edim, — dedi "Bir yigit" aytgan gaplarining fahmiga borib-bormay.

— Poraxo'rga pok do'stlikni in'om etish unga pora berish bilan barobar, — deya do'stlarimizdan biri gapning po'stkallasini aytgancha o'rnidan turgan edi, hammamiz qo'zg'aldik.

O'shandan keyin hech kim uning uyiga qadam bosmadi. Mabodo o'zi qo'ng'iroq qilgudek bo'lsa, ovozini eshitishimiz bilan gapni qisqa qilishga kelishdik: mayli, haromdan to'plagan mol-dunyosi bilan do'stlashib yuraversin!

Oradan ko'p o'tmay, "falonchi o'libdi", degan xabar keldi. Aniq sababini bilish uchun doktorga borsak, u "Yuragi siqilib o'lgan. Puli ko'p ekan-u, do'stlari yo'q ekan!" dedi.

Uchinchisi: Qrimda kurortda bo'lganimda shunday bir afsona eshitdim: atoqli rus knyazlaridan biri Voronsov degan odam Qrimning Alupka degan eng so'lim yerida qurdirgan hashamatli saroyida bamaylixotir dam olib yotgan ekan, eshik oldida basavlat bir odam paydo bo'libdi. Bo'sag'ani qo'riqlab yotgan it unga qarab vovullayveribdi.

— Tek yot, men knyaz Voronsovning do'stiman, — debdi basavlat odam itga qarab.

Shunda birdan itga til-zabon bitib:

— Do'stligingga ishonamanku-ya, biroq men knyaz Voronsovning itiman. Shu sabab beruxsat ichkariga kiritmayman, — debdi.

Ichkarida bu gaplarni eshitib yotgan knyaz Voronsov o'rnidan

turib derazadan mo'ralasa, uzoqdan uni o'ldirish niyatida kelgan, biroq iti tufayli uyga kirolmay ortiga qaytib ketayotgan dushmanini tanib qolibdi.

O'z hayotida qismatdosh, maslakdosh bo'lgan talaygina do'stlarining hech biriga haykal o'rnatmagan knyaz Voronsov o'sha iti o'lganida uni shon-shavkat bilan dafn etib, ustiga tosh haykal o'rnatibdi.

Do'sting it bo'lsa ham senga sodiq bo'lsin, degan hikmatli gap o'shandan qolgan bo'lsa ajab emas!

* * *

Tanho qolib, do'stlar haqida xayolga cho'mganda dam ajablanadi, dam faxrlanadi, dam afsuslanadi kishi!

Ayrim do'stlaringizning har bir yutug'ingizdan astoydil suyunishi oila a'zolaridan birining hayotida ro'y bergan biron-bir quvonchli voqeadan suyunishiga o'xshaydi. Odatda har bir oila a'zosining umumiy g'alabaga qo'shgan hissasi naqadar salmoqli bo'lsa, demakki, sevinchi ham shu qadar cheksiz bo'ladi. Eng muhimi — o'zingnikimi, o'zganikimi, yutuqlardan astoydil quvona olmoq kerak!

Onamning nasihatlaridan: Odamlar ko'p holda o'ziga kerak bo'lmay qolgan buyumni boshqaga oshirish yo sotish uchun maqtaydi. Do'sting seni ko'z oldingda maqtay boshladimi, hushyor tort, tag'in sotib yurmasin!

Do'stlik goho lavozim bilan bog'langanday bo'lib qoladi: sen yuqori lavozimlarga ko'tarila borganing sari: "Men senga do'stman", deya ko'ksiga urib keluvchilar ham oshib-toshib boraveradi. Biroq mansabingdan bo'shashingni bilgan zahotiyoq, aksincha, sendan yuz o'giribgina qolmay, sening kamchiligingni qidirib ustingdan yumaloq xat yozuvchilar tobora ko'payaveradi.

Ko'cha biyining aytganlari: Bir paytlar meni mas'ul lavozimlardan biriga tayinlashdi. Darrov do'stlarim ko'paydi.

Bir kuni kutilmaganda ishdan bo'shadim. Bu gapdan xabardor uch do'stimga ro'para kelib qoldim:

— Namuncha xomushsan, boshing xam, kasalmisan? — dedi biri salom-alikdan avval.

— Seni biz faqat mashinalarda yurish uchun yaratilgan deb

o‘ylardik, piyoda qolibsan-ku! — deb pichiŋg qildi ikkinchisi.

— Aqling o‘zimiz qatoriligiga endi ishongandirsan? — deb pichingni yanayam kuchaytirdi boshqasi.

Bu odamlar uyimga tez-tez kelib turishardi. To‘rtovlon apoq-chapoq edik. Gurunglashganda dunyoni unutib yuborgudek bo‘lardik. Zaharolud gaplarini eshitmagandek: “Qani, do‘stlar, uyga yuringlar”, dedim. Avvallari uchalasi ham mening taklifimni kutib o‘tirmay uyga kelaverar: “Sizning uyingizga kelib turmasak, o‘zimizni xuddi yetim qo‘zidek sezamiz”, deyishardi. Bu safar o‘zim taklif qilsam ham, birontasi uyimga qadam bosmadi. O‘shandan beri har bir do‘stimga shubha bilan qaraydigan bo‘ldim. Hammadan gumonsirayverish fazilat emas, albatta. Biroq, nachora, do‘stdan ham gumonsirab yashashga majbur bo‘lar ekan kishi!

Yana: Bayram kunlaridan birida shahardagi ko‘rlar jamiyati oshxonasining oldidan o‘tib borayotgan edim, qattiq baqir-chaqirni eshitib, ichkariga bosh suqdim. Uch-to‘rt odam bayram munosabati bilan pivo ichishayotgan ekan. Zehn solib qarasam, piyolalarga ichimlik quyilgani sayin: “Menga oz, senga ko‘p quyilibdi”, deya biri ikkinchisining piyolasiga barmog‘ini suqib ko‘rishyapti. Shovqin-suronning boisi shu ekan.

Shubha va hasad — do‘stlar orasidagi eng dahshatli, bedavo kasalliklardandir.

* * *

Odam bolasiga xos bir nuqson — o‘zini hamisha balandroqdan ko‘rsatish, mehnat qilayotganlar orasida emas, nasihat qilayotganlar orasida bo‘lishga moyillik. Bu nuqsonni talay-talay do‘stlardan judo bo‘lgandan keyin tushuna boshlaydi kishi! Do‘st topish oson emas. Birov bilan do‘st bo‘lish uchun vaqtida uning mayli bilan hisoblashish yo sizning maylingiz bilan u hisoblashishi kerak bo‘ladi. Aks holda do‘stlikka putur yetadi. “Odamning ko‘ngli bir otim nosvoydan (hozir “bir dona sigaretdan”) qoladi”, degan gap bejiz aytilmagan.

Eng ezgu do‘stlik — xalqing bilan do‘st bo‘lmoq!

Xalq siz-u bizning do‘stligimizga muhtojmi?

I.S. Turgenev fikrini andak o'zgartirib aytganda, xalq sizsiz ham, mensiz ham yashayveradi. Biroq bizning hech qaysimiz xalqsiz yashay olmaymiz.

Xalqning bag'ri keng, sabr-toqati benihoya!

Xalqqa xos bag'rikenglig-u benihoya sabr-toqatni o'sha xalqqa mansub buyuk shaxslarda ham yaqqol ko'rish mumkin.

Qariyalar hangomalaridan: Hazrat Navoiy o'zining eng yaqin shogirdlari qurshovida qandaydir yig'indan qaytib kelayotgan ekan, Husayn Boyqaro saroyining g'alamis a'yonlaridan biriga ro'para kelibdi. Navoiy hamrohlaridan ajralib chiqib, unga ta'zim qilibdi.

Shogirdlaridan biri ajablanib:

— Axir, bu odam sizning dushmaningiz emasmidi, hazratim? — deb so'rabdi.

— To'g'ri, biroq mana shunday dushmanlarim bo'lmaganida edi, men sizlardek do'stlarni topolmagan bo'lardim, — debdi dono ustoz.

Darhaqiqat, har bir dushmaningiz sizni do'st axtarishga undaydi.

"Chinakam bir do'st umringga yangi mazmun, yangi shodlik baxsh etuvchi yana bir yoshlik", degan ekan Berdaq shoir.

""Do'stlik — bir odamning boshqa odamga ishonchi". Ayni paytda "Hisobli do'st ayrilmas", degan gap ham bor. Menimcha, do'stlarning bir-birlariga yordamini pisanda qilib, o'zaro hisoblashaverishi do'stlikni mustahkamlashga yordam bermaydi. Shuning uchun ham hayotdagi eng og'ir sinov — do'stlarning bir-birini tushunish imtihoni", derdi onam.

Do'stlik sinovidan ham og'irroq yana bir sinov borki, bu vaqt sinovidir. Vaqt ertadir-kechdir hamma narsaning saragini sarakka, puchagini puchakka ajratib tashlayveradi.

Bu sinovlardan o'zim durustroq o'ta olmadimmi yo ba'zi bir do'stlarimmi, yoki har kimni har xil qismatga duchor etuvchi hayotning chigal so'qmoqlari sabab bo'ldimi, xullas, yoshim ellikdan oshib ortimga qarasam, atigi uchtagina do'stim bilangina bordi-keldi qiladigan bo'lib qolibman. O'zim bilan to'rttamiz.

To‘rtovlon yig‘ilsak, dunyoning to‘rt qutbi birlashgandek bo‘ladi. Kasb-korimiz to‘rt xil bo‘lishiga qaramasdan, juda ahilmiz: kimdir xafa bo‘lsa, qolgan uchovimiz uchta suyanchiq bo‘lib uning ko‘nglini ko‘tarishga harakat qilamiz. Gohida bittamiz qolgan uchtamizning irodamizga bo‘ysunsak, goh aksincha, uchtamiz bittamizning gapimizga amal qilamiz. Ba’zida to‘rt xil davlat rahbarlarining qo‘shma majlisida o‘tirgandek sezamiz o‘zimizni. Bu hol hech birimizda hech qanday malollik uyg‘otmaydi. Mehmondorchilikka borsak, bir-birimizni o‘zimizdan to‘rroqqa taklif qilib, birimizning paltomizni yechishda ko‘maklashishga boshqamiz tayyor turamiz. Bu juda yaxshi kunlar ekan. Oradan vaqt o‘tishi bilan to‘rttalamizning fe’l-atvorimiz ham, shunga bog‘liq holda o‘zaro munosabatlarimiz ham o‘zgara boshladi. Birimiz yoshligimizda ro‘yobga chiqara olmagan orzularimiz yo‘lida betinim ishlaydigan mehnatkashga, ikkinchimiz pulga tuzoq qo‘ygan dunyoparastga, uchinchimiz ezma-takabburga aylandik. To‘rtinchimiz esa: “Esiz, zoye ketgan yoshligim”, deya afsuslana-afsuslana, “ishq bazmi” — aysh-ishratga mukkasidan keta boshladik.

Fe’l-atvordagi bu keskin o‘zgarishlar natijasida endi to‘yma’rakalarda — to‘rni, bir mashinaga o‘tirgudek bo‘lsak — oldingi o‘rindiqni o‘zaro zimdan talashadigan bo‘lib qoldik.

Odatda, dushmanlaringiz nochorligingizni bilib qoldimi, bas, yuzingizga balchiq chaplash “mashg‘uloti”ni kuchaytirib yuboradi. To‘rttalamizda ham paydo bo‘lgan fe’l-atvor oramizdagi jarlikni tobora kengaytirib har birimizning yuzimizga loy chaplash uchun qulay imkoniyatlar paydo qildi. Dushmanning bu “ish quroli”ni do‘stlardan biri ushlab olib, egasining o‘ziga qarab uloqtirmasa, har qancha abjir bo‘lganda ham, u ustingizga kelib yopishaverar ekan. Qarabsizki, balchiq sizga ziyon-zahmat yetkazmasa ham, ust-boshingizdan qo‘lansa hid anqiyveradi.

To‘rtovimizdan to‘rt xil hid anqiy boshladi.

Fe’l-atvorimiz to‘rt tarafga qarab ketgach, endi bir-birimiz bilan uchrashib qolganimizda, loaqal kimning ustida qanday hid anqishini aytib qo‘ymaslikka harakat qiladigan bo‘lib qoldik. “To‘g‘ri gap tuqqaningga yoqmaydi” qabilidagi bahonalar topildi.

Mabodo qiziqqonlik qilib, ustidan qo'lansa hid baralla anqib turgan do'stimizni poklanishga undab, xavf-xatardan ogohlantirsak, u gaplarimizga mutlaqo ishonmaslik odatini chiqardi. Yoki "Sen avval o'zingni bilsang bo'larmidi", deya o'zaro pichingnamo gap otishdek yangi odatlar paydo bo'ldi. Mana shundan keyin soxta takallufga ruju qo'ya boshladik. Bir-birimizda buzilishga yuz tutgan odamiylikning qo'lansa hidini sezganimizda ham: "Sen chinakam aql-donishga konsan, yuzlaringdan nur yog'iladi-ya!" deya zo'r berib maqtashga tushib ketdik...

Nega shunday?

"Odamning ortida qolgan barcha gunohu savob ishlari qarigan paytida oldiga o'tadi. Mana shu sinovga hamisha hozir turmoq kerak", der edi uyimizga kelgan qariyalar.

"Nuqsonlaringni ro'y-rost aytgan odamni dushman hisoblama", deb nasihat qiladi bobom.

"Rost gapni aytyapman deb, do'stingning aybini yuziga tamg'a qilib bosaverish ham do'stlikdan emas", derdi Ko'cha biyi.

"Do'stlaring ko'p bo'lishini xohlasang, odamlarning yaxshiligiga ishonib yasha", derdi onam.

"Adashganga dushmanlik qilma", deb qayta-qayta uqtirardi otam.

14

Shunday qilib, "Umr — odamning odamga, avlodlarning avlodlarga muhabbati..."

— Odamning ko'ngildagidek umr kechirishi uchun butkul insoniyatni sevish shart emas. Bir odamni astoydil sevish bilan ham ruhiy farog'atga erishish mumkin, — deydi donolar.

— Seni butkul insoniyat sevishi ham shart emas, bir odam astoydil sevsa, olam guliston! — deydi qariyalar.

— Bu dunyoda seni chin dildan sevadigan odam borligiga ishonishdan ortiqroq baxt yo'q, — deydi onam.

Bobom aytgan afsona: Kunlardan bir kuni xon Berdaq shoirni huzuriga chaqirtirib, dabdurustdan:

— Xalq nima uchun meni yaxshi ko‘radi, sababini ayt-chi? — deb so‘rabdi.

— Sizni yaxshi ko‘rishga xalqni ikki narsa majbur qiladi: birinchisi — xalqni to‘ydirguvchi farmoningiz, ikkinchisi — xalqni qo‘rqitguvchi qilichingiz! — debdi shoir.

— Unday bo‘lsa, xalq seni nima uchun yaxshi ko‘radi, buning ham ikkita sababini ayt-chi! Oldindan ogohlantirib qo‘yay: shoirligim uchun, gap sotib non topaman, so‘zim bilan sevdiraman, dema. Kasb-koring men uchun bir chaqa! — debdi xon.

Shoir o‘ylanib ham o‘tirmasdan:

— Birinchisi mening xalqqa bo‘lgan farzandlik muhabbatim, ikkinchisi xalqning menga onalik muhabbati, — deb javob beribdi.

* * *

Yer yuzida hayot paydo bo‘lgandan beri “Dastlab erkak yaralganmi yo ayolmi?” degan azaliy jumboq mavjud. Bu jumboqning bir qarashda jo‘ngina, ammo eng to‘g‘ri yagona yechimi bor: ikkalasi baravar! Muhabbatsiz hayot yo‘q, hayotning abadiyligi yo‘q! Uzluksiz hayot oqimining ibtidosi ham, manbai ham muhabbat!

Muhabbat tenglikni talab qiladi. Totuvlik mangu bo‘lishi uchun sizning unga muhabbatingiz bilan uning sizga muhabbati baravar kelmog‘i kerak bo‘ladi. Ota-bobolarimizning: “Sen suya olsang, u ham suya oladi”, deyishlari bejiz emas.

Afsuski, muhabbat haqidagi tumanli tasavvurlariga ko‘ra, hayot so‘qmog‘ida adashib-uloqib yurgan odamlar oz emas. Qizig‘i shundaki, ular adashganlarini ko‘p hollarda o‘zlari bilavermaydilar, bilsalar ham, tan olavermaydilar. Shu boisdan bo‘lsa kerak, “Muhabbatda tentaklargina baxtli”, “Muhabbatda benomuslar baxtli” qabilidagi gaplar ham yo‘q emas. Bular, mohiyatan olganda, mutlaqo noto‘g‘ri fikrlar, albatta.

Muhabbat ko‘z oldimizda dunyoni munavvar qilib turgan qudratli ziyo! Ayni paytda Yer yuzidagi ko‘pgina urush-nizolarga sabab bo‘lgan, ko‘plab ko‘ngillarni vayron qilgan kuch ham muhabbat! Ota-bobolarimizning: “Yaxshi bo‘lib tug‘ilish mumkin,

yaxshi bo'lib yashash qiyin", degan naqlida ham avvalo muhabbat nazarda tutilgandek.

Muhabbat ko'p hollarda sabr-qanoat, chidam-toqat, sadoqat, sabr-matonat, jasorat tushunchalari bilan hamohang.

— Qizlarning sabr-toqatliligi haqida o'ylasam, ko'z oldimda dunyo torayib qolganday tuyuladi, — derdi Ko'cha biyi.

— O'zim ayol bo'lsam ham: "Menga qiz berma!" deb Xudoga ko'p nola qildim, lekin... — deya zorlanaverardi momom.

— Ayriliqqa chidab, muhabbatga erishish — umrning qizig'i mana shu, — derdi otam.

Har bir odamning muhabbatini uning umr pasporti, deyish mumkin. Kimning umri qanday boshlanib, qanday tugashi shu "umr pasporti"ni qanday olishga bog'liq. Farq shundaki, rasmana pasport oshkora, tantanali ravishda taqdim etiladi. "Umr pasporti" — muhabbat esa har bir odamning botiniy tuyg'usi, u yashirin boshlanadi, yurakda pinhon tutiladi, oshkoralikni yoqtiravermaydi...

Qariyalar aytgan afsonalardan: Qadim zamonda Orol dengizining bo'yida yashovchi bir elatning atoqli urug' oqsoqoli yolg'iz qizi bilan tul qolibdi. Qizi chunonam go'zal bo'libdiki, oy desa og'zi, kun desa ko'zi bor, suqsurday suluv ekan.

Urug' oqsoqoli yagona qizi erga tegib ketsa, o'zi yakka-yolg'iz qolishidan qo'rqib "Kim agar Orol dengizining suvini qirg'oqqa tashib quritsa, qizimni o'sha odamga beraman", deb e'lon qilibdi.

Bu g'alati shart hammani o'ylatib qo'yibdi. Axir, bir odam butun umr tinim bilmay ishlasa ham, Orol dengizi suvini chelaklab tashib tugatishi mumkinmi sira?

O'sha elatdagi bir kambag'alning yolg'iz o'g'li urug' oqsoqolining suluv qiziga oshiqi beqaror ekan. Shartni eshitgan zahoti otasiga: "Ota, men bugundan boshlab Orol dengizining suvini tashib tugatishga kirishmoqchiman", debdi. Otasi uning niyatini fahmlabdi-da:

— Bolam, avval qizning otasiga ko'rinsak bo'larmidi, — debdi.

— Vaqtni o'tkazib nima qilamiz, ota? Dengizning suvini quritib, shartini bajargandan keyin birato'lasi siz sovchilikka borar-

siz. Atoqli urug‘ oqsoqoli, albatta, shartidan tonib ketmas, — dedi o‘g‘li.

— Unday bo‘lsa, bolam, yolg‘iz o‘zingga og‘irlik qilar. Men senga yordamlashay, — deb, otasi ham qo‘liga chelak olib o‘g‘liga ergashibdi. Shunday qilib, ular Orol dengizining suvini chelaklab olib tashqariga to‘kishni boshlab yuboribdilar. Oradan bir oy o‘tibdi, ikki oy o‘tibdi, uch oy... yil... Ota-bola tinim bilmay dengiz suvini chelaklab qirg‘oqqa to‘kaveribdi.

Hech kimning sovchilikka kelmayotganidan mamnun urug‘ oqsoqoli qizini yigitlardek kiyintirib, ovga o‘rgatibdi. Ovchilik — hayotning ko‘pdan ko‘p tashvish-u g‘alvalarini unutishning bir yo‘li. Ular qizg‘in ov bilan mashg‘ul bo‘lib, o‘zlarini ovutib yuraveribdilar. Bir kuni keng dalada quyundek uchib yurgan bir kiyikka duch kelibdilar. Ota-bola kiyikni ushlash niyatida ortidan ot qo‘yibdilar. Kiyik jon-jahdi bilan Orol dengizini yoqalab qocha-qocha bir chakalakzorga o‘zini uribdi-yu, ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi. Ikkovlon kiyikni qidirib topish umidida chakalakzorni oralay-oralay, axiri topolmay, charchab-horib sayhonlikka chiqsalar, dengiz yoqasida ikki odam ko‘rinibdi. Bular kim bo‘ldiykin deb uzoqdan tikilib qarasalar, ikkovining qo‘lida ikki chelak, tevaragida nimalar bo‘layotganiga parvoyi palak, xuddi o‘zaro musobaqalashayotgandek, har biri o‘z chelagini Orol suviga apil-tapil botirarmish-da, qirg‘oqqa qarab choparmish. Suvni to‘kar-to‘kmas yana dengizga qarab yugurarmish. Urug‘ oqsoqoli bilan qizi: “Bular qanaqa esi past odamlar o‘zi?!” deya ajablana-ajablana ularga yaqinlashibdi.

— Hoy, odamlar, nima qilyapsizlar? — deb so‘rabdi urug‘ oqsoqoli.

Ota-bola ularni tanimay:

— Ko‘rib turibsiz-ku, dengizning suvini qirg‘oqqa to‘kib quritmoqchimiz, — deyishibdi-da, boshqa so‘z qotmay yana shosha-pisha ishlarini davom ettiraverishibdi.

— Hoy ahmoqlar, — debdi endi urug‘ oqsoqoli oshkora mazax bilan. — Dengizning suvini chelaklab quritib bo‘larkanmi?!

— Nega bo‘lmasin? — ajablanib so‘rabdi yigit.

— Mumkin bo‘lmasa, elatimizning atoqli urug‘ oqsoqoli qizini

uzatish uchun bunday shart qo'ymasdi, — debdi otasi.

Urug' oqsoqoli hayron bo'libdi. Shu payt qiz otidan tushib, otasi minib turgan otning oldingi oyoqlarini quchoqlabdi.

— Meni ularning yonida qoldirib ketishingizni o'tinib so'rayman, ota, — deb yolvoribdi.

Urug' oqsoqoli gap nimadaligini endigina fahmlab:

— Nimaga? Bular hali dengizning suvini qirg'oqqa to'kib tugatmadi-ku! — debdi.

— Ota! — debdi o'shanda qiz. — Orolning suvini hech kim hech qachon tashib quritolmasligini bila turib, mana shunday shart qo'yganingizda so'zingizga ishonadigan oqko'ngil, muhabbatga sodiq yigit qidirgansiz. Mana, o'shanday yigit ro'parangizda turibdi-ku!

Oqsoqol qizining bu gaplariga nima deb javob berishni bilmay, ovga chiqqanida kiyadigan qora choponini qoq ikkiga yirtib, bo'lg'usi kuyovbola bilan qizining boshiga tashlabdi-da, indamasdan ortiga qaytibdi.

Amudaryoning quyi sohillari bilan Orolning janubiy qirg'o-g'ida yashagan ota-bobolarimiz ana o'sha yigit bilan qizdan tug'ilib, o'sib-ungan bo'lsalar ajab emas!

Yana: Sulaymon podsho qizlaridan birini nihoyatda kambag'al bir yigitga erga beribdi. Yigitning boshqalardan farq qiladigan bir xususiyati bor ekan: yuragi shundoqqina ko'rinib turarkan. Yangi kelinchak boshqa ayollarning yaxshi kiyinib, bezanib-taqinib yurishlariga havasi kelib, bir kuni podsho otasiga:

— Meni ko'rinib turgan yuragidan boshqa hech vaqosi yo'q odamga erga berguncha, yaxshi yashab, yaxshi ichib-yeyishga qurbi yetadigan boy-badavlatroq odamga bersangiz bo'lmasmidi, ota, — deb o'z taqdiridan nolibdi.

Aytishlaricha, Sulaymon podsho Xudo bilan gaplasha olar ekan. Gaplashib, qizining iltimosini bajo keltiribdi. O'sha kundan e'tiboran yigit boyib ketibdi. Biroq avvalgidek yuragi qizga ko'rinmaydigan bo'lib qolibdi.

Kelinchak endi ko'ngli tusagan qimmatbaho kiyimlarni istagancha sotib olarmish-u, biroq erining yuragi zim-ziyo emish. Bu holdan afsuslanib, tag'in otasining oldiga kelibdi. Endi u ak-

sincha:

— Ota, menga hech qanday mol-dunyosi kerak emas, erimning yuragi avvalgiday ko'rinib tursa bo'lgani! — deb yolvoribdi.

— Mayli, biroq eringning yuragi tag'in kaftdagidek ko'rinib tursin desang, buning uchun Xudoga ikki ko'zingning nuri kerak bo'ladi, qizim, — debdi Sulaymon podsho.

— Baribir sevganimning yuragini ko'rolmasam, bundan nima foyda? — deb ajablanibdi qizi.

— O'shanda sen eringning yuragidan boshqa hech nimani ko'rolmaydigan bo'lib qolasan, — debdi otasi.

— Unday bo'lsa, roziman. Ishqilib erimning yuragini ko'rib yashasam bas! — debdi qizi.

"Ayrim xislatlar urug' quvlaydi, nasldan naslga o'tadi. Sevganiga bir umr sodiq ayollar Sulaymon podshoning o'sha qizidan tug'ilgan emish. Bunday ayollarning aksariyati Amu bo'ylarida yasharmish", deydi Ko'cha biyi.

Hayotda kim o'z nafsiga qul bo'lsa, undan hamma jirkanadi. Muhabbatda ham shunday!

Muhabbat — o'ta achchiq ne'mat, tatib ko'rsangiz, beixtiyor ko'zlaringizdan yosh chiqaradi. Muhabbat — o'ta shirin ne'mat, tatib ko'rsangiz, shirasi tilni yorgudek, o'zingizni sarxush etgudek. Shu boisdan ko'hna donishmandlar muhabbatda sabr-toqat, vafo-sadoqat eng oliy baxtning garovi, deganlar... Lekin, baribir, hayotda muhabbatga yengil-yelpi qarash uchrab turadi.

— It — vafo, xotin — jafo, — deydi ayrim erkaklar.

— Erkaklarga ishonib bo'lmaydi, — deydi ayrim ayollar.

Nega?

— Ishq-muhabbat bor joyda, rashk, qizg'anish hissi ham bo'ladi. Biroq kimning ko'ngil mulkida rashk tuyg'usi oshib-toshib ketgan bo'lsa, demak, bunday odam o'zga birovni emas, o'zini sevgani. Odam bolasi o'z rashkiga qul bo'lib qolmasligi kerak, — derdi onam.

Bobomning aytgani: Bolalik chog'imda bir mulla qo'shnimiz bo'lardi, o'zi o'taketgan rashkchi edi. Ayolini uyidan tashqariga chiqarmasdi. Xotini esa nihoyatda xushmuomala, oqko'ngil, halol-pokiza ayol edi. Bir kuni eshiklarining oldidan bir tilanchi

o'tib ketayotgan ekan, ayolning unga rahmi kelib, non olib chiqib beribdi.

Shu payt eri uyiga qaytib kelayotgan ekan, ayolining begona erkak qoshida turganini ko'ribdi-yu, uyga yetaklab kirib dabdurustdan: "Uch taloqsan!" debdi.

U paytlardagi taomilga ko'ra, eri "uch taloq" qo'ygan ayol uydan bosh olib chiqib ketishi shart bo'lgan. (Agar keyinchalik eri bu gapni achchiq ustida aytib yuborganidan pushaymon bo'lsa, xotini boshqa bir erkak bilan vaqtinchalik nikohdan o'tib, ajralishgandan keyingina avvalgi eri bilan qayta nikohdan o'ta olgan.)

— Iye, men nima gunoh qildim o'zi? — deb so'rabdi ayol hang-mang bo'lib.

— Sen begona erkak bilan gaplashding, — debdi mulla.

— U odam soqov edi, — debdi xotini.

— Soqov bo'lsa, u sening yuzingga boqib rohatlangan, — debdi eri.

— Axir, uning ko'zlari ko'r edi-ku, — debdi ayol.

— U holda o'sha erkakning yuziga boqib sen rohatlangansan, — debdi eri.

Xullas, ular ajrashib ketibdilar...

Ayol muhabbati tip-tiniq bir ko'zgu. To'g'ri, ikki tomonlama ko'zgu ham bo'ladi. Bunday ko'zguning bir tomonida o'zingizni ko'rsangiz, narigi tomonida kimdir turganday tuyulaveradi. Bunday ko'zguga qaray olish kerak. Odatda tiniq narsani tez gard-g'ubor qoplaydi. Tiniq narsaga dog' tushirishni istovchilar ham topilib turadi.

— Muhabbat — odam umrining tuz-namagi, uning me'yorini bilmagan kishining umri yo maza-matrasiz, yo achchiq bo'ladi, — derdi onam.

Otam aytgan afsona: Sohibqiron Amir Temur qarib, o'lim to'shagida yotganida uning bolalik qadrdoni:

— Qani, o'lim oldidan rostingni ayt-chi, sen bu shon-shavkating uchun kimdan minnatdorsan? — deb so'rabdi.

Amir Temur o'ylab o'tirmay:

— Uch odamdan minnatdorman, — deb javob beribdi.

— Ular kimlar? — deb so'rabdi qadrdon jo'rasi.

— Birinchi odam — xotinim, — debdi jahongir. — Men jang-u jadaldan charchab-horib, dushmanlarimdan qaqshatqich zarba yeb, g'am-alamga g'arq bo'lib qaytgan paytlarimda u har gal xush muomalasi, shirin-shakar so'zlari bilan ko'nglimda taskin tasalli uyg'ota oldi. Uyimga dushmanim kirib kelgan taqdirda ham qovog'ini uymay, uning oldiga dasturxon yozaverdi. Sidqidildan yozilgan to'kin-sochin dasturxon ustida qattol dushmanlarim yuvvosh tortib, mening oldimda bosh egadigan, keyinchalik ko'rgan joyida quyuq salomini kanda qilmaydigan bo'lishdi.

— Xo'sh, ikkinchisi kim? — deb so'rabdi jo'rasi.

— Ikkinchi odam ham — xotinim, — debdi Amir Temur. — Mening olis yurtlardan g'alaba bilan qaytishimni intizorlik bilan kutgani yetmaganday, "Erim mag'lubiyatga uchrab xafa bo'lib kelsa, ko'rib ko'ngli ko'tarilsin, mabodo yov qo'lida o'lsa, esdalik bo'lar", deb nomimga qasrlar, minoralar, madrasalar qurdirar edi.

— Yana kimdan minnatdorsan? — deb so'rabdi jo'rasi.

— Men minnatdor uchinchi odam ham — xotinim, — debdi Sohibqiron. — Men bu dunyoda ko'pdan ko'p urushlarni ko'rdim. Agar jang maydonida o'lsam, dushmanlarim jasadimni qarg'a-quzg'unlarga yem qilishlari aniq edi. Shuni bilib, mening o'ligimni ko'chada qoldirmaydigan, vaqti kelib qazo qilsam, saltanatimni, toj-taxtimni egallab, chala qolgan ishlarimni davom ettira oladigan farzandlar tug'ib berdi.

Ko'cha biyining aytgani: Ernazar olako'z xalqni xonlikka qarshi isyonga uyushtirishda bahamjihat ish ko'rish maqsadida oltmish biy bilan ahd-u paymon qilib, bir olmani bo'lishib yeb, ko'ngli xush bo'lib o'tirgan ekan, dabdurustdan: "Biz xonlikning do'zaxidan qutulganimizdan keyin ham ayrim uylar do'zaxligicha qolaveradi", debdi. Biylar ajablanib: "Qaysi uylar?", deb so'rashibdi. "Qaysi uyning bekasi yomon bo'lsa — o'sha uy naq do'zax", debdi Ernazar olako'z.

"Odamzod bir-biriga mehmon, degan naql bor. Biroq uzatilgan qiz erining uyida o'zini mehmondek his qilsa, bundan ortiq kulfat yo'q", degan edi otam.

"Odam muhabbatni o'ziga vaqtinchalik mehmon deb bildimi,

asl baxtsizlik mana shu", degan edi onam.

Qariyalar gurungidan: — Dunyodagi eng og'ir yuk ham, eng yengil yuk ham muhabbat yuki. Uni yanada og'irlashtirish yo yengillatish har bir odamning o'ziga bog'liq.

— Dunyodagi eng zaif ip ham, baquvvat ip ham muhabbat rishtasi. Uni uzish yo mahkamroq bog'lash har bir odamning o'ziga bog'liq.

— Birovlar: "Muhabbat do'zaxga o'xshaydi", deb hasrat qiladi. Boshqalar esa: "Muhabbat jannatga o'xshaydi", deya og'zidan bol tomadi.

— "Do'zax", "Jannat" haqidagi tasavvurlarda jon bor. Muhabbatni do'zax yo jannatga aylantirish ko'pincha har kimning o'z qo'lida.

— Odamning o'z-o'ziga yaratgan do'zaxi — muhabbatga xiyonati. Bundan ham mudhishroq do'zax — rashkchiligi!..

— Odamning o'z-o'ziga yaratgan jannati — ezgu niyati, muhabbatga sadoqati, ishonchi!

— Odamning olamga muhabbatini ikki xil ko'z bilan o'lchash mumkin. Birinchisi badbinona ko'z, ikkinchisi nekbinona ko'z, — deydi donolar.

Badbinona ko'z qildan qiyiq axtaraveradi. Nekbinona ko'z har bir narsaga hayrat, zavq-shavq, oshuftalik bilan boqadi. Dunyoga nekbinlarcha qarash bolalikka xos. Biroq, xayriyatki, bu noyob fazilat ayrim katta yoshdagi odamlarda ham saqlanib qoladi. Aks holda olam biz uchun bus-butun nuqsonlar-u xatolardan iborat bo'lib qolarmidi, kim bilsin!

Bugungi kunda hayotga badbinlarcha, tanqidiy ko'z bilan qarash bolalarda ham yo'q emas. Sababi jahonda neki bor, barchasi kun-bakun televizor ekraniga, axborot vositalariga jo-bajo, ularning ko'z oldida muhayyo etilmoqda. Lekin bolani bola demaslik, kichkintoylarning aqli kattalar bilan baravar deb xayol qilib, tarbiyadan chetda qoldirish odamzodning bu yorug' olamga bo'lgan muhabbatiga putur yetkazish bilan barobar. Bolaning muhabbat xususida xuddi kattalardek mulohaza yuritishi — hali muhabbatning o'zi emas. Nechog'li bilimdon bo'lmasin, har bir odamning, ayniqsa, bolakayning his-tuyg'ulari parvarishga, e'zozga, tarbiya-

ga hamisha muhtoj.

Sababini bilmayman-u, lekin, har qalay, menda hayotga nekbinlarcha qarash ustun. Hali-hanuz meni hayratga solmaydigan odam ham, buyum ham, hikmatli gap ham, rivoyat ham yo'qdek.

Qariyalar aytgan afsonalar: Bir mamlakatning donishmand podshosi qarigach: "Endi toj-taxtimni o'g'limga topshiray-da, ko'zim tirikligida unga yurt boshqarish sirlarini o'rgatay. Toki erta bir kun tiriklik bilan vidolashar paytimda uning adolatli hukmdor bo'lib qolajagiga ishonch hosil qilib, dunyodan bearmon ketay", degan fikrni ko'nglidan kechiribdi. Xullas, o'n besh yashar o'g'lini taxtga o'tqazibdi. Bola podsho avvaliga yurtni otasining maslahatlariga amal qilgan holda boshqarishga kirishibdi, lekin oradan yillar o'tgan sari tobora zolimlashib boraveribdi. Huzuriga najot istab kelgan arzgo'ylarni sabr-toqat bilan tinglash, haqni nohaqdan ajratish o'rniga ikkala tarafni ham ayblab yo ikkala tarafni ham oqlab yuboraveribdi. Ahvol shu darajaga yetib boribdiki, shahzoda shahar ko'chalaridan o'tganida, o'tirganning orqasiga, turganning boshiga qamchi urmay o'tmaydigan bo'libdi. Qari podsho bu ahmoqliklarga chiday olmay xoli qolganlarida, nasihat qilsa, o'g'li: "Yaxshi-yaxshi", deb rozi bo'larkan-da, yana ko'ngli tusagan ishni qilaverarkan. Uning zulmidan sabr kosasi to'lgan xalq najot istab ota huzuriga kela boshlabdi. Ana shunda qari podsho: "Buning es-hushi joyidami o'zi?" deya ajablanib, qo'shni yurtdan mashhur bir folbinni oldirib, fol ochiribdi.

Folbin folini ochib, natijasini aytish chog'ida qari podshodan o'g'li bilan yonma-yon o'tirib tinglashni o'tinibdi.

— Agar foling yolg'on chiqsa, boshing ketadi, — debdi yosh podsho.

— Ikkovingizni yonma-yon o'tqazishdan maqsadim ham shu — rost gapni aytish. Shahzodam, siz o'g'il emas, qiz bolasiz, — debdi folbin.

Qari podshoning rangi o'zgaribdi.

— Shohim! — debdi folbin ohistagina. — Agar malikam tezroq turmushga chiqmasa yo butun el-yurtni xonavayron qiladi, yo o'zini-o'zi bo'g'ib o'ldiradi.

Bola podsho otasiga tikilibdi. Uning o'tli qarashlariga dosh

berolmagan qari podsho ko'zlaridan shashqator yosh oqib, noiloj tan olibdi:

— Nachora, podsho ham xom sut emgan banda ekan, — debdi u. — Uzoq yillar farzand kuta-kuta, axiri o'g'illik emas, qizlik bo'ldim. Nima bo'lsa ham shu farzandim toj-taxtimga egalik qilib, o'rnimda qolsin, degan niyatda xalqqa: "O'g'il tug'ildi" deb ovoza qilgan edik. Keyinchalik bu sirni oshkor qilolmadim.

Malika suyuna-suyuna folbinning oyog'iga bosh qo'yibdi...

Muhabbat — bu bir kasallik, uni vaqtida davolay olish kerak.

Yana: Sulaymon podshoning yolg'iz qizi bo'lgan ekan. Kunlardan bir kun qizi balog'atga yetgach, uni tezroq uzatish tashvishida shaharga chiqibdi-da, katta guzar yoqasiga borib o'tiribdi. Soxt-sumbati kelishgan bir yigit o'tib borayotganini ko'rib, quyuq salom beribdi. Uyida balog'atga yetgan qizi borligini aytibdi. Yigit podshoga bir qarab: "Shoshilinch ish bilan ketayotgan edim. Haliroq uyingizga borarman", debdi-da, o'tib ketaveribdi.

Sulaymon podsho o'zicha: "Taklifim bu yigitning ko'ngliga o'tirishmadi shekilli, yo'qsa paysalga solmasdi", deb o'ylabdi-da, uning izidan kelayotgan yana bir yigitni to'xtatib, uyida balog'atga yetgan qizi borligini aytibdi. Bu yigit ham qayoqqadir zarur ish bilan ketayotganini aytib: "Kechroq uyingizga boraman", debdi. Sulaymon podsho o'zicha: "Bu ham mening podsholigimdan qo'rqib, quruq va'da bilan jo'navordi", deya xayol qilibdi-da, kechga qadar kuta-kuta, axiyri nariroqdan o'tib borayotgan bir yigitni ko'rgan zahoti to'xtatibdi. Oldiga boribdi. Hol-ahvol so'rashibdi. Axiyri avvalgi ikki yigitga aytgan gaplarini takrorlabdi; uyida qizi balog'atga yetib o'tirganini ma'lum qilibdi.

Bu yigit avvalgilardek paysalga solib o'tirmay, darrov rozi bo'libdi. Sulaymon podsho uni ergashtirib saroy darvozasining oldiga borganida boyagi ikki yigitning ikki tarafdan shosha-pisha kelayotganiga ko'zi tushib, yuragi shuvullabdi. "Agar bu ikkovi ham va'da bo'yicha qizingizga kelyapmiz, desa qanday javob qilaman? Axir, podshodan lafzsizlik chiqsa...", deb o'zidan xafa bo'lib, najot istab ko'kka qo'l cho'zibdi: "Ey qodir Egam, men yanglishdim, o'zing yo'l ko'rsat", deya iltijo qilibdi. Nogoh qulog'iga: "Yigitlarning uchalasini ham uyingga boshlab kiraver",

degan sado eshitilibdi. Bu gapdan ko'ngli taskin topib, uch yigitni ergashtirgancha ichkariga kirib qarasa, uyda yolg'iz qizi emas, uch qiz yonma-yon o'tirganmish. Uchalasi ham egizaklarday, birini ikkinchisidan farqlab bo'lmasmish. Ichida Yaratganga shukronalar aytib, uch qizni uch yigitga tanishtiribdi, baravariga to'y qilib uzatibdi. Oradan biror yil o'tib, qizlarini sog'inib, ularning uylariga borishga bel bog'labdi.

Avvaliga uyi yaqinroq qizinikiga boribdi. Qizi bilan kuyovi uni yaxshi kutib olibdi, mehmon qilibdi, sarpolar kiydiribdi. Ertasiga ketish oldidan kuyov bolasidan: "O'g'lim, xotining durustmi, totuvmisizlar?" deb so'rabdi.

— Yaxshi-yu, biroq ba'zida arzimagan sabab bilan itday yumma talaydi, qo'shnilarim oldida sharmanda qiladi, — debdi kuyovi.

Sulaymon podsho o'ylanib qolibdi. "Hov o'shanda, Xudoning qudrati bilan uyimdagi qizlarim uchta bo'lib qolgan kuni itim yo'qolgan edi. Qodir Egam meni yigitlar oldida o'sal bo'lmasin, deb itimni qizga aylantirgan, shekilli. Manovi o'sha qizga aylangan itim ekan-da", deya xayolidan kechiribdi-yu:

— Nachora, bolam, toleying shu ekan, endi chidayverasanda, — deya tasalli bergan bo'lib, ikkinchi qizinikiga yo'l olibdi.

Ikkinchi qizinikida ham bir kun mehmon bo'lib, ertasiga xayrlashuv oldidan kuyov bolasidan: "O'g'lim, xotining durustmi, totuvmisizlar?" deb so'rabdi.

— Totuvlikka totuvmiz. Biroq mushuknikiday o'tkir tirnog'i bor. Aytganini qilmasam naq yuzimga chang soladi, — debdi kuyovi.

Sulaymon podsho sukutga tolib: "Hov o'shanda Xudoning qudrati bilan qizlarim uchta bo'lib qolgan kuni mushugim yo'qoluvdi. Qodir Egam meni yigitlar oldida o'sal bo'lmasin deb mushugimni qizga aylantirgan, chog'i. Manovi qizga aylangan o'sha mushugim ekan-da", deya xayolidan o'tkazibdi-yu:

— Nachora, bolam, toleying shu ekan, endi chidayverasanda, — deya tasalli bergan bo'lib, uchinchi qizining uyiga ravona bo'libdi.

Uchinchi qizinikida ham bir kecha mehmon bo'lib, ketar ol-

didan odatdagidek kuyov boladan: "O'g'lim, xotining durustmi, totuvmisizlar?" deb so'rabdi.

— Totuvmiz, ota. Shu paytga qadar na u mening yuzimga, na men uning yuziga tik qaraganimiz yo'q, — debdi kuyovi.

Sulaymon podsho mana shu qiz o'zining asl qizi ekanini tushunib, mamnunligini yashirolmay:

— Tole senga kulib boqqan ekan, bolam! — debdi va ular bilan bordi-keldi qiladigan bo'libdi.

Yana: Tinchgina tirikchiligini qilib, mehnat bilan mashg'ul bo'lib yurgan qoraqalpoq yurtiga kutilmaganda yov bostirib kelib, el orasidagi o'n yoshdan ellik yoshgacha jamiki erkaklarni asir olib, qo'llarini bog'lab o'z yurtlariga qul qilib haydab ketish taraddudiga tushibdi. Bibioysha ismli jasur, biyron, suluv bir kelinchak yov lashkarboshisining oldiga dadil kirib borib, undan elga zug'um qilmay, mehr-shafqatli bo'lishni talab qilibdi.

Lashkarboshi hech bir musulmon yurtida bunday jasur ayolni ko'rmagan ekan. Andak taraddudlanib turib:

— Sening kiming bor o'zi? — deb so'rabdi.

— Qirq yashar erim bilan o'n yashar o'g'lim haydalib ketyapti, — debdi ayol.

— Ham suluv, ham jasur, ham so'zga chechan ayolga o'xshaysan. Mayli, senga bittasini qoldira qolay. Xo'sh, ering qolsinmi yo o'g'ling qolsinmi? — deb so'rabdi lashkarboshi.

— Erimni qoldiring. Erim omon bo'lsa, hali o'g'illik bo'laverarmiz, — debdi ayol tap tortmay.

Lashkarboshi ko'zlari kosasidan chiqquday chaqchayib:

— Topding-a, la'nati! Agar o'g'limni qoldir, deganingda, seni beboshvoq deb kallangni olmoqchi edim. Qani, endi mening xotinim ham senday vafodor bo'lsa! Senday eriga sadoqatli, dono ayol uchun ovulingdan hech kimni asir olmaganim bo'lsin! — deb hamma bandilarni ozod qilib yuboribdi.

Ana, ayol! Ana, muhabbatga sadoqatning oqibati!

Har kuni ertalab paypoq kiyayotganimda otashkurakdan oyog'imda qolgan tirtiqqa ko'zim tushadi-da, onamning "Gap tingla!.." deganlari quloqlarim tagida qayta yangrayotganday, dunyo-

dagi jamiki onalar bir ayolning ovozi bilan: "Gap tingla!" deya uqtirayotganday bo'laveradi. Shu boisdan onamning ogohlantirishlari hamisha esimda. Aytaylik, hech bir qizning ichki sirini oshkora qilmoqchimasman. Faqat bu o'rinda "choy ichish" marosimidan ko'zda tutiluvchi maqsadni ravshanlashtirish maqsadida bir gal ro'y bergan kichik bir voqeani eslatib o'tmoqchiman.

...Onam har gal "choyxo'rlik" boshlanishdan avval qizlarni alohida o'tqazib moyso'kka, yog' topilmasa, quruq so'kka obdan to'yg'azardi. Ayniqsa mechkayroq qizlarga so'kni majburlab yedirardi. Bundan maqsadi bazm paytida qizlarning dasturxonga hadeb qo'l cho'zaverishlariga ehtiyoj qoldirmaslik, yigitlar uzatgan choyni olib ichishga ishtiyoqlarini oshirish. Har gal onam yana shunday nasihat qilishni ham unutmasdi: "Kim bilan tovoqdosh bo'lsang ham, uning ko'proq yeyishiga imkoniyat ber. Biroq bu niyatingni sezdirib qo'yma. Tovoqdoshingdan avval ovqatga qo'l uzatma. Undan keyin qolib yeyishni davom ettiraverma!".

Onam bu nasihatini uyda ham ko'p takrorlardi.

Bir gal har doimgiday bazm nihoyasiga tomon hammaning qo'li yuvdirilib, palov tortildi. Qizlar tarafga bir tovoq, yigitlar tarafga bir tovoq qo'yildi. Taomil bo'yicha, yigitlar birinchi bo'lib ovqatga qo'l uzatadilar. Qizlar orasidan Anor degan bir qiz yoqasidan to'g'nag'ich olib, bir dona guruchni sanchib yeya boshlagan edi, onam uning biqinini chimchilab, yigitlar tarafga im qoqdi. Men ham qaradim. O'rinboy degan bir yigit cho'ntagidan qalamtaroshini chiqarib, bir guruchni ikkiga bo'lib, har yarmini og'ziga bir solib, tamshanib o'tirgan ekan. Shunday qilib, sipolikda qizlar tarafning yengilgani hammaga ayon bo'ldi.

Onam noxush bir kayfiyatda o'tirdi-da, "Choy ichish" tugagach, qizlarni to'g'ri uyga ergashtirib kelib, Anorni andak koyidi:

— Hamma yigitlar laganga qo'l uzatib bo'lguncha chidamay, nega to'g'nog'ichga osilding?! Erkak — igna, bizlar — ipmiz, hech bo'lmasa ojizaligingni unutmay, yigitlarning hammasi tovoqqa qo'l cho'zishini kutishing kerak edi-ku, qizim?!

Ertasiga oqshom chog'i onam uch qizga chanqovuz chalishni o'rgatib o'tirgan edi, eshikdan qovog'i uyulgancha Anor kirib

keldi.

— Tinchlikmi? — deb so'radi onam xavotirlanib.

— Kechagi sipo O'rinboydan sovchilar kelib, menga non ushatildi, — dedi u norozilik bilan yig'lamsirab.

— Qanchaga baholashdi? — deb so'radi qizlardan biri.

— O'n mingga, — dedi u ming'irlab.

— Meni o'n mingga baholashsa jon-jon derdim, — deb orziqdi Tursungul ismli bug'doyrang qiz.

— Menga o'n besh minglik qalin moli to'lamasa, hech kimga tegmayman, — dedi oqqubadan kelgan O'ringul.

— Mening onamni rozi qilib, o'rnimga bir sog'in sigir qoldirishsa ham rozi bo'lardim, — dedi do'mboqqina, qorachadan kelgan qiz — Oyxon.

— Sen nega indamay qolding? — deb so'radi onam Anordan.

— Bu qizlarning hamma gaplari noma'qul. Mening narxim bilganga arzon, bilmaganga qimmat, — dedi u hasrat bilan.

— Masalan, senga qancha qalin to'lasa, rozi bo'lar eding? — deb so'rashdi qizlar baravariga.

— Kim mening muhabbatimga yarasha muhabbat in'om etsa, shugina kifoya edi, — dedi u.

Onam Anorni bag'riga bosib, peshonasidan o'pdi-da:

— Eshitdinglarmi, qizlar?! — dedi hayajonlanib. — Har biringizning asl bahoyingiz mana shu!

...O'sha yillar qizlar to'p-to'p bo'lib shaharga borishni, shaharda kinolarga tushib yo pista chaqib yurishni havas qilardilar. Anorga bog'liq voqeadan so'ng ovulimiz qizlari kunba-kun o'zgara boshladilar: ayrim qizlar bozorga borganda sotayotgan qovunidan bir tilim uzatgan yigit bilanmi, pista chaqishini ko'rib, gap otgan yigit bilanmi, yo bo'lmasa, "Choy ichish" oqshomida gap-so'zlari o'ziga yoqib tushgan yigit bilanmi tezda ahd-u paymon qilishib: "Muhabbatimga yarasha muhabbat topildi" deyishib, qochib ketaveradigan odatni boshlab yubordilar.

Muhabbatga bunday yengiltaklarcha munosabat asrlar mobaynida shakllangan milliy psixologiya, yaxshi urf-odatlarni tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin emas, albatta. Har qalay, bugun-

gi kunda ham muhabbat ko'pchilik yoshlarimiz uchun eng jiddiy sinov, eng jumboq tuyg'u, insoniylik mezoni bo'lib qolmoqda. Bu tuyg'uning hamisha kim uchundir undov, kim uchundir so'roq belgisi bo'lib qolaverishiga shak-shubha yo'q.

Hayotda har bir odam faqat o'zigagina qarashli so'roq belgisi yo undov belgisiga ega. Goho kimningdir qismatidagi so'roq belgisi boshqalarning taqdiri uchun undov belgisiga aylanishi yo aksincha, kimningdir qismatidagi undov belgisi boshqalarning taqdiri uchun so'roq belgisiga aylanishi mumkin. Ayni shu boisdan ham dunyoda xilma-xil nuqtayi nazarlar, anglashilmovchiliklar, ixtiloflar ko'p bo'lsa ehtimol. Ayrim odamlar u yoqda tursin, butun bir xalqning kechmishiga teranroq nazar tashlagan sari, yakka shaxs taqdiri bilan u mansub xalq taqdiri o'rtasida juda ko'p mushtarak jihatlar borligiga iqror bo'ladi kishi!

Qoraqalpoq xalqining kim qanday atasa, shunga rozi bo'lib, goh "qalpoq", goh "Chorniye klobuki", goh "qora bo'rkli", goh "kulohi siyoh", goh "qoraqalpoq" degan nomlar ostida, xuddi shamol uchirgan tuyaqorindek, Osiyodan Yevropaga, Yevropadan Osiyoga sarson-sargardon tentirashlardan iborat shum qismati taqdiri azalga qaratilgan ulkan savol alomati emasmi, axir?!

Onamning nasihatlaridan: Otasini qadrlamagan odamni bolasi xo'rlaydi.

O'z otasiga chinakam farzand bo'la olgan odam xalqiga ham farzand bo'la oladi.

Kim elim desa, eli uni farzandim deydi.

Yurting uchun o'lish — o'lim emas, aslida qayta tug'ilish, deydi donolar.

Bobomning nasihatlaridan: Agar kim, birinchidan, va'dasiga vafo qilmasa, ikkinchidan, do'stlikda rostgo'y bo'lmasa, uchinchidan, hamma joyda o'z sha'nini munosib qadrlamasa, bunday odam muzdan bino tiklab, o'z nomini qorga yozgani!

Afsuski, muzdan tiklangan binoning sirti yaltiroqligiga qarab, undan ibrat olish kerak, deydiganlar ham, undaylardan ibrat olib yashashga harakat qiladiganlar ham oz emas bu yorug' olamda!

Inson boshqa birov bilan gaplashganida: "Men birgina odam

bilan emas, butun boshli bir xalq bilan, butkul insoniyat bilan so'zlashyapman", deb o'ylasa, demak, o'zligini izlab, odamga o'xshab yashagani shu!

Ko'cha biyining aytgani: Bir mehmondorchilikda o'tirganimizda kutilmaganda bosh bilan soch haqida shunday tortishuv bo'ldi:

— Nima uchun odamning boshi boshqa a'zolaridan yuqoriroqda joylashganini o'ylab ko'rsang, uni hamisha hurmatlab, e'zozlash kerakligi ma'lum bo'ladi, — dedi birov.

— Bosh butun gavdadan yuqoriroq joylashgani to'g'ri. Biroq hamma tashvishlar ham shu boshga yog'iladi. Qolaversa, qarilik ham, yoshlik ham, donolik ham, nodonlik ham boshda ro'y-rost ko'rinib turadi, — dedi yana birov.

— Og'izdan nojo'ya so'z chiqsa ham, oyoq bejo qadam bossa ham, qo'l rasvo narsani ushlasa ham, ko'z iflos narsaga tikilib qarayversa ham, hammasiga bosh aybdor, — dedi uy bekasi.

— Birovga to'g'ri baho berishdan avval uning boshiga zehn solib qaragan ma'qul. Boshi ishlaydigan odamni uning sochidan bilsa bo'ladi, — dedi yana kimdir.

Qariyb tengdosh, aksariyati ellikdan oshgan hamsuhbatlar orasida hali sochining bir tolasi ham oqarmagan Bekjon ismli odam jimgina gap tinglab o'tirgan edi. Hazil-mutoyibaga ishqiboz-roq bir odam: "Iye, Bekjonning boshida nega bitta ham oq tola yo'q?" deb so'radi sodda mug'ombirlik bilan. Boshqasi esa, xuddi shu savolni kutib turganday, "munosib" javob qildi: "Boshida sochini oqartguli miya bo'lmaganidan keyin, oqarmaydi-da!..".

Gurra kulgi ko'tarildi. Sababi davrada sochi oqara boshlaganlar ko'pchilik edi. Sochlari qop-qora Bekjon ko'pchilikning kulgisiga javoban hech nima deyolmay, miyig'ida kulib o'tiraverdi. Uning bu kulgisi sochi oqarganlar ustidan masxaraga o'xshardi.

Mezbon ayol yana gapga aralashdi:

— Mehmonlar, gaplaringizga, kulgilaringizga qaraganda sizlar hali yosh bolaga o'xshaysizlar. Axir, bilmaysizlarmi, miya soch ozig'i-ku. Odamning miyasi kamaygan sari boshdagi soch oqaraveradi-da.

Oq sochlilarning qovog'i uyuldi. Sochi qora Bekjon oshkora

mazax bilan xaxolab kulmadi-yu, lekin, har qalay, qaddini g'oz tutib, o'tirganlarga gerdayib qaradi.

Garchi tibbiyot nuqtayi nazaridan qay bir talqin to'g'ri ekanini aniqlash mushkul bo'lsa-da, uy bekasining gaplaridan so'ng hamma jiddiy xayolga cho'mdi.

* * *

Mana, bugun men ham yuzimga ko'zgu tutib, o'z sochlarimga qarayman-da, ich-ichimdan zil ketaman: sochimda oq tolalar kunba-kun ko'payib bormoqda. Demak, ularning ozuqasi, ya'ni miya kamayib bormoqda... Qaysi ishlarim evaziga bu oq tolalar, bilmayman. Ko'nglimda g'ashlik, iztirob, alam, taajjub!.. Bu holat — soch oqidan emas. O'zim shu paytga qadar baholi qudrat mashg'ul bo'lib kelayotgan ish — chinakam ijodiy mehnatning qachon boshlanganini bilolmaslikdan tug'ilgan hayrat, bilishga ishtiyoq...

Kim uchundir umr yo'li tug'ilgan kundan boshlanadi. Boshqa birov chinakam umrni turmush qurgan kunidan boshlab hisoblaydi. Yana birov uchun to'ng'ich farzandi tug'ilgan kun — bu dunyoda o'z ortidan iz qoldirgan kundan boshlanadi. Ya'ni u umr yo'lini bolasining yoshi bilan belgilaydi. Chinakam umri o'lgan kunidan boshlangan odamlarni ham ko'hna tarix yaxshi biladi. Qanday boshlanishi, qanday hisoblanishidan qat'i nazar, har bir odam tirikligi uchun kimningdir oldida o'zini qarzdor his qiladi. Agar uni ochiq-oshkor tan olish imkoniyatiga ega bo'lmasa, yuragida sir tutadi. Eng muqaddas bisot yanglig' boshqalardan pinhon saqlaydi.

Mening umr yo'lim qanday boshlangan? Kimdan qarzdorman?

Bobom har gal men bilan gaplashganida: "Odam bolasi balog'atga yetgandan keyin uch xil qarz bilan yashaydi: birinchisi — o'tmishdan qarz, ikkinchisi — bugundan qarz, uchinchisi — ertangi kundan qarz. Biror qarzingni unutsang, o'zingni o'zing qarg'ishga giriftor qilasan", derdi. Bu gaplar ko'pincha bobom aytgan hangomalarning yo muqaddimasi, yo xotimasi bo'lib mudom takrorlanaverardi.

Chuqurroq mushohada yuritgan sari o'z jamiyatimdan, o'z

xalqimdan qarzdorlik hissini ham tobora teranroq his qilaman. Chunki avvalo o'zim mansub jamiyat tufayli, xalq tufayli mening hayotimda yorug' kunlar ko'p bo'ldi. Shular orasida kunduzi quyoshdek, kechasi oydek ravshani — mening adabiyotdek fusunkor olamga dastlabki qadamni qo'ygan kunim.

"Adabiyot — insonshunoslik, inson esa, o'z jamiyati, o'z zamonining barcha musbat va manfiy jihatlarini ravshan aks ettiruvchi ko'zgu", deya takrorlashdan charchamaydi har bir adabiyotshunos.

"Yozuvchilik shuhrati deb yozuvchilik guvohnomasini qo'lga kiritgan talay odamlarning yaxshi badiiy asar yaratish o'rniga g'iybat, ig'vo, shikoyatbozlik bilan mashg'ul bo'lib qolganini ko'p ko'rganman", deydi bizning Ko'cha biyi.

Yozuvchi mehnatini naq afsonaviy do'zaxga qiyoslasa bo'ladi. Yozuvchilikning olovli kursisiga favqulodda iste'dod va sabot egalarigina bardosh bera oladi. "Adabiyotga shon-shuhrat axtarib kirib qolgan-u, topolmagach, qaytib chiqib ketolmay yurganlarning ancha-munchasi ichog'riqqa o'xshaydi: ularning yurgan yo'lida qo'lansa hid qoladi", degan edi O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor.

Men qanday qilib yozuvchi bo'lib qoldim? To'g'risi, bu boshqalar tugul o'zimga ham jumboq.

Tan olishim kerakki, men o'tirishlarda qiziq-qiziq latifalar aytib kuldirmaganman. Tesha tegmagan gaplarni qoyillatmaganman. Yoki bo'lmasa, birov bilan bahslashib, so'zga chechanligimni ko'rsatib, yengib chiqqanimni ham eslay olmayman. Nimadandir kuyinsam yo suyunsam, kimgadir aytishim kerak bo'lgan gaplar keyinchalik — yolg'iz o'zim qolganimda, uyga kelib tanho to'shakka cho'zilib yotganimda yodimga tushaveradi. Shunda o'rnimdan turib, meni bahsda yenggan odamning oldiga qaytib borgim keladi. Iloj qancha, bobomning: "Vaqtida foydalanilmagan qilichni toshga ur", degan nasihatini eshitib ulg'ayganman. Qarabsizki, o'z vaqtida aytilmagan gap tashqariga yo'l topolmay, ichni kuydiruvchi o'tga aylanadi. Ich kuyib, o'z yog'ingizga o'zingiz qovrilib yotishdan og'irroq azob bormikin bu dunyoda?!

Odam diltortar qadrdoni bilan gurunglashsa, hovuri tarqay-

di. Men ham yuragimda qaynab-toshgan hovurni sirtga chiqarib yengillashay deyman. Biroq yonimda o'zimni tushunadigan odam topolmay, stolga o'tiraman-da, yozishga tushaman. Hamma o'qiganda tushunadigan, zerikmaydigan shaklga keltirish harakatida qayta-qayta yozaman. O'chiraman, ko'chiraman, o'chiraman, ko'chiraman... Kunlardan bir kun bu yozganlarim asar holiga keladi. Shunday qilib, nazarimda, yozuvchi bo'lganga o'xshayman. Goho o'zimning bu taxminimga ham shubhalanib qolaman. Sababi — yozuvchilik favqulodda chidam-toqat, sabot-matonat, zahmat demakdir. U yoniq dil taftida obdan toblangan fikrlarning pishiqligi. Shu fikrlarni o'z vaqtida, muxtasar badiiy shaklda qog'ozga tushirish uchun kursiga mixlanib o'tira olish layoqati... Uylanganimdan so'ng, oradan biror hafta o'tar-o'tmas, onam meni xoliroq joyga chaqirib oldi:

— Bolam, — dedi u. — Vaqti kelsa, choynak-piyola ham cho'qishadi. Er-xotin bir-birini qanchalik suyib turmush qurmasin, ahyon-ahyonda ikki o'rtada dilsiyohliklar, o'zaro gap talashishlar bo'lib turadi. Bunday paytda erkak kishi o'zini tutishi, jahlga erk bermasligi kerak. Biroq buning bir og'ir tomoni — alamingni ichingga yutish. Ayol kishining jahli chiqsa, mushukni urib, tovoq-qoshiqlarni bir-biriga urishtirib, nari borsa bir-ikkitasini sindirib yengil tortadi. Erkak kishi ichini yengillatish uchun o'ziga ma'qul ish topishi kerak. Bu jihatdan sening omading bor. Sababi she'r yozasan. Xotiningdan achchig'lansang, indamay borib yozuv stolingga o'tir...

Men onamning nasihatlariga amal qilishga intilib yashadim, Balki, shu sababli yozuvchi bo'lgandirman.

Otamning nasihatlaridan: Kimning bo'sh vaqti ko'p bo'lsa, o'sha odam janjalga moyil bo'ladi.

Aqlli yigit hech qachon bekor qolmasligi kerak.

* * *

"Bola qalbi hali hech narsa yozilmagan oq qog'oz", degan ekan buyuk pedagoglardan biri. Bu gapning ilmiy jihatdan to'g'ri yo noto'g'riligiga kafolat berolmayman. Lekin, har qalay, shunisi aniqki, kichkinaligimda o'ta ta'sirchan edim. Og'zim ochilib,

nafasimni ichimga yutib tinglaganim ayrim afsonlarning bosh qahramonlariga havasim kelib, tezroq o'shalarday bo'lishni orzu qilardim. Ba'zi afsonalarning qahramonlari yuragimda dahshat uyg'otib, qo'rqqanimdan tuni bilan uxlolmay chiqardim.

Bunday ruhiy holatlarni qay bir bolakay boshidan kechirmagan deysiz? Biroq ularning barchasi yozuvchi bo'lganmi?

Yo'q!

Yozuvchi boshqalardan ortiqmi?

Yo'q!

Aqlliroqmi?

Yo'q, yo'q!!!

...Yozuvchilik, nazarimda, boshqa odamlar va ayniqsa, o'z xalqing qismatiga mas'ullik demak; o'zingda xalqingni, xalqingda o'zingni ko'ra olish demak; xalq (uning ichida o'zingiz ham borsiz) manfaatlari yo'lida betinim kurashish, xalqning sizga bergan tarbiyasini o'ziga qaytarish demakdir.

O'zini dono hisoblab boshqalarga maslahat berish, aql o'rgatish u qadar qiyin ish emas. Ammo o'zingizning mustaqil fikringizni muayyan izchilikka, badiiy so'z vositasida qog'ozga tushirish, ko'pchilik maroq bilan o'qigudek shaklda yozish esa, aksincha, oson ish emas. Yozuvchi mana shunday eng mushkul ishga o'z ixtiyori bilan qo'l urgan... sarkotib! Chinakam yozuvchi o'z xalqining sarkotibi, o'z zamondoshlarining sarkotibi, o'z davrining sarkotibi!

Men butun umr mana shunday sarkotib bo'lish orzusi bilan yashadim. Bu haqda Sizlar bilan ushbu kitobning ikkinchi qismida batafsilroq, ro'y-rostroq so'zlashishga harakat qilaman.

IKKINCHI QISM

Har bir odam o'tmishga, bugunga, ertangi kunga bab-baravar javobgardir. Kitobning odamdan farqi shundaki, kitob insoniyatning boy hayotiy tajribasi asosida dunyoga keladi. Shu bois ham u ko'proq bugungi kun, yanada ko'proq insoniyatning kelajagi uchun mas'uldir.

Adabiyot muallimining gaplaridan

...Onam oyog'imga cho'g'lanib turgan otashkurak bosib olgan oqshomdagi oqsoqol mehmonlarning hangomalari, ularning menga shoirlik tilab qilgan duolari kunduzi soyadek ergashib, kechalari tushimga kirib, xotiramga bir umr muhrlanib qoldi.

Har kuni ertalab uyqudan uyg'onganimda, balki kechasi shoirga aylanib qolgandirman deya o'ylab, allaqanday mo'jiza kutaman. Afsuski, hech qanday mo'jiza ro'y bermadi — menga shoirlik qayoqdandir kelib qolmadi! Bu holdan tashvishga tushaman, beixtiyor g'ashlanaman, kimdandir madad kutaman, nimagadir talpinaman.

Bobom mendagi o'zgarishlarni sezib, uyga kitob olib kelish ishqiga tushdi. Shaharga — bozorga borsa, kitobsiz qaytmaydigan bo'ldi. Bobomga, ishqilib, kitob bo'lsa bas edi. Uyimizda ona tili, arifmetika, tarix, geografiya darsliklari bir nechta nusxadan yig'ilib qoldi. Shular qatorida naq oltita "Alpomish" dostoni borligi esimda. Bitta-yu bitta dostonning boshqa nusxasida yangilik bordek, bobom har qaysini hijjalab o'qitgani sayin o'zimga yod bo'la boshlagan satrlarni kitobga qaramay o'qisam, nazarimda shoirlik u qadar qiyin ishmasga o'xshaydi. Biroq "ichimdan she'r to'qib chiqarish" niyatida oldimga oq qog'oz qo'ysam, biron kalima so'z yozolmay dostondagi satrlarni takrorlayman, xolos!

Bir kuni Maxtumqulining qanday shoir bo'lib qolgani haqida eshitgan afsonam esimga tushib, yozning nofarmon oqshomida uydan chiqib ketdim-da, ovulimizni qoq ikkiga bo'lib oquvchi ariqning ustiga qurilgan ko'prik tagiga kirdim. Niyatim Maxtum-

quliga o'xshab ko'prik tagida bir kecha uxlash. O'shanda men ham ertasiga shoir bo'lib uyg'onishim mumkindek!

Oysiz tun zimistoniga ko'zlarimni bazo'r o'rgatib, ariq bo'yidagi yapasqi toshdan o'zimga qulayroq joy topib, oyoqlarimni endi uzatganimni bilaman, qarasam, shundoq yonimda, suv ichida ikki olachipor ilon bir-biriga chirmashib yotibdi. Nima qilishimni bilmay, hatto qimirlashga qo'rqib, ilonlarga baqrayib tikilgan ko'yi o'tirgan edim, bir payt ilonlardan biri ohista boshini ko'tarib qirg'oqqa chiqqan qurbaqani tishlab oldi-da, men tarafga siljiy boshladi. Butun vujudim titrab-qaltirab, o'rnimdan uchib turdim-u, uyga qarab zing'illadim...

Baribir... shoirlikdan ko'ngil uzolmadim. Nazarimda, qariyalar o'z fotihalari bilan menga shoirlikni qo'shqo'llab tutqazishgan, men esam, landovurlik qilib, qo'limda turgan narsani yo'qotib qo'ygandek edim. Topib olishim kerak! Ishtiyoqim kuchaygandan kuchaydi. Yangi bir she'r o'qisam yana o'qigim kelaveradi... Tilimga qay so'z kelib qolsa yo kimdandir yangi so'z eshitsam, beixtiyor unga ohangdosh so'z qidira boshlayman. Ko'klam chog'i zarang yerni, hatto so'qmoq yo'l, odamlar bilan gavjum, metindek guzar-maydonlarni teshib chiqqan o't-o'lanlarni ko'rib, hayratga tushaman. Qish bo'yi diydirab turgan yalang'och daraxt shoxlarining kurtak yozib, yangi hayotni qay tarzda boshlayotganini ko'rish umidida ularga uzoq-uzoq tikilaman. Kuzda esa, daraxt yaproqlarining shitirlab to'kilishiga termulib turib, ko'nglimda allanechuk mung-hasrat tuygandek bo'laman. Shu kuzatishlarimni she'rga solgim keladi, hech uddalay olmayman. Buning uchun menga mudom nimadir yetishmay turganday, nimadir kamday tuyulaveradi. Nima ekan u? Bilmayman, bilolmayman. Kim bilandir maslahatlashgim keladi. Lekin qani, qayerda o'sha maslahatgo'y? Nima qilishni, kimdan maslahat so'rashni bilmay dog'daman.

To'rtinchi sinfda, katta tanaffus paytida kimdandir, shoirlar, olimlar unutuvchan-parishonxotir bo'larmish, degan gap chiqib, hammamiz hayratga tushib qoldik. Hatto uyga berilgan vazifani tayyorlamay borib har gal unutganini bahona qiladigan bolalar

ham og'izlarini ochib, ko'zlarini lo'q qilib, angrayib qolishdi. Darsdan so'ng uyga qaytarkanman, hayratim taajjubga aylandi: men unutuvchan emasman. Kimdan qanday afsona, ertak, matal yo doston eshitgan bo'lsam, hammasi esimda turganga o'xshaydi. Hatto ayrimlari tushimga kirib, tuni bilan o'sha eshitgan voqealarning ichida "yashab" chiqaman.

Ana shundan keyin, o'ylay-o'ylay, "Men unutuvchan emasman, shuning uchun endi shoirlikdan ko'nglimni uzay", deb turganimda miyamda shunday savollar gujg'on o'ynab qoldi:

"Mana, bobom qo'shnilarnikiga mehmonga chiqsa, dam oyog'idagi kovushini, dam boshidagi cho'girmasini unutib qoldiraveradi. Tag'in, qayerda unutib qoldirganini eslayolmay, uydan qidirgani-qidirgan. Xo'sh, nega bobom shoir emas?"

"Mana, momom kuniga necha marta namoz o'qiganini ham unutib, sal bo'sh qoldi deguncha joynamozini yozib, allanimani pichirlagani-pichirlagan. Xo'sh, nega momom shoir emas?"

"Otam bo'lsa, likbezda muallimi o'rgatgan harflarni yo'l-yo'lakay unutib, uyga kelganda mendan ezmalanib so'ragani-so'ragan. Axir, otam shoirlik qilish tugul o'z otiniyam durustroq yozolmaydi-ku?!"

"Sinfdoshim Bibioysha muallimimizning uyga bergan vazifasini unutib qo'yib, har oqshom bizning uyimizga chopqillab kelgani-kelgan. U nega shoir emas?"

"Sinfimizda haligacha ko'paytirish jadvalini yod olmagan bolalar bor. Ular nega shoir emas?.."

Bu savollar ko'nglimda ajabtovur yupanch uyg'otdi.

Bir kuni muallimimiz darsdan so'ng hammamizni olib qolib: "Bolalar, maktabdagi eng yuqori sinf bizning sinfimiz. Quyi sinflarga ibrat bo'lgudek devoriy gazeta chiqarishimiz kerak. Buning uchun, mayli, sizlarga uch kun muhlat beraman. Har qaysingiz bittadan maqola yo she'r yozib kelasizlar", dedi.

Muallimning topshirig'i menga onamning ko'rsatmasidan ham ortiqroq edi. Uch kun badalida behisob ko'p qog'oz qoraladim. Axiri, sinfdoshim hamda qo'shnim Bibioyshaga bag'ishlab "Yalqov qiz" degan sakkiz qator she'r yozdim.

Garchi bu she'r uchun keyinchalik ko'p xijolat chekkan bo'lsam-da, har qalay, hali-hanuz yodimda saqlanib qolgan:

O'qishdan kechikib qoladi,
Arifmetikadan ikki oladi,
Tarixdan javob bersa,
Yolg'onni qatorlashtiradi.
O'zi suluv, oppoqqina,
Bahona topishga usta,
Otini so'rasang — Bibioysha,
Biroq o'zi yalqov qiz.

Muallim hammaning yozib kelganlari qatorida mening she'rimni ham ichida o'qib chiqdi-yu, yuzimga tikilib turib shunday dedi:

— Qaipbergenov, shu gaplarni qulog'ingga quyib ol: birinchidan, boshqalarni tanqid qilishning ikki turi bor — kamchiligini tuzatish maqsadida tanqid qilish va g'arazli niyatda tanqid qilish. Buni farqlab olish kerak. Ikkinchidan, adabiyotda yolg'onchilik xiyonat bilan baravar. Agar sen hayotda bir odamga yolg'on aytsang, adabiyotdagi yolg'oningni minglab odam o'qishi mumkin.

Muallim bundan boshqa bir so'z demadi, biroq o'sha she'rim qanday bo'lsa shunday holida devoriy gazetaning navbatdagi sonida bosildi.

Garchi Bibioysha o'sha kundan e'tiboran men bilan gaplashishni bas qilgan bo'lsa-da, har qalay, qaytib darsdan kechikmaydigan bo'ldi. Asta-sekin a'lochi o'quvchilar qatoriga qo'shildi. Muallim esa, meni ko'chada tasodifan uchratib qolsa, otimni eslayolmay: "Ha, shoir!", deb chaqirishga odatlandi.

Bu laqab dam maqtovga o'xshaydi, dam haqoratdek tuyuladi. So'zlarni zo'rma-zo'raki qofiyalashtirganim bo'lmasa, o'zimda oshib-toshib yotgan shoirlik qobiliyatini sezavermasdim.

Shunda ham she'r yozishni bas qilolmadim. Kundalik vazifalarni bajarib bo'lgan zahoti bo'yra ustiga yotib olaman-da, she'r yozishga kirishaman. Goho qaddimni ko'tarib o'tirgan ko'yi xayolga tolaman. Onam mening nimadandir qiynalib-zo'riqayot-

ganimni sezib, qoshimga bug'doy qo'g'irmoch yoki so'k qo'yib ketadi.

— Yolg'iz xayol surib o'tiraverib, tag'in jag'ing qarishib qolmasin, chaynab o'tir, — deydi.

Onamning bu hurmat-ehtiromiga munosib she'r yozolmaganimga ichim o'tday yonadi. Nima qilay, chorasizman. O'ylab qarasam, o'zim emas, onam shoirga o'xshaydi. Sababi, u mening nima bilan ovoraligimni so'ramasa ham biladi, ahvolimni his qiladi.

— Nimaiki yozsang muallimingga ko'rsataver, bolam. Bu ovuldagi eng savodxon, eng aqlli odam muallim, — deydi onam doimo.

Bobom aytgan ko'pdan ko'p hangomalarga qaraganda, burungi shoirlar dastlab ovul boshliqlariga, do'st-birodarlariga bag'ishlab qo'shiq to'qib chiqarish bilanoq ko'zga tushaverganlar. Shoirlar har bir odamni butun boshli olam deb tushunganlar.

Men uchun maktabim — bir olam, muallim esa shu olamning egasi. Shunday ekan, muallimga atab she'r yozish mashqiga tushdim. Talay kun mashaqqat torta-torta, axiri bir tundayoq o'zidan o'zi o'n ikki qator she'r paydo bo'ldi.

Muallimga atalgan birinchi she'rim bo'lgani uchun emas, muallimimdan dakki eshitganim uchun bu she'r ham xotiramda saqlanib qolgan. Mana o'sha she'r:

Ovulimizning donosi
Bolalarning panosi —
Uzoq yasha, muallim,
Rahmat senga, muallim.
Seni doim siylaymiz,
Vazifang bajaramiz,
Hech tartibsiz bo'lmaymiz,
Olqish senga, muallim.
Seni ko'rsa qochar mulla,
Ko'rdik buni necha bora,
Ont ichamiz: illo-billo,
A'lo o'qiymiz, muallim.

Bu she'rning o'zimga ma'qul tushgani shunchalikki, ertasiga maktabga bordim-u, muallimimga: "Yangi she'r yozuvdim, o'qib beray", deya o'tindim. Butun sinfdoshlarim oldida g'oz turgancha o'qib berdim.

— Qaipbergenov! — dedi muallim jimgina tinglab bo'lgach. — Sen Berdaq shoirga bir shogirdi she'r bag'ishlab, o'ziga o'qib berganida ustozning nima deganini eshitganmisan?

— Yo'q, — dedim.

— O'tir, eshit! — dedi muallim o'ta jiddiylik bilan. — Senga o'xshagan hovliqmaroq yosh shoir ustozi Berdaqni ko'kka ko'tarib she'r yozib borgan ekan. Ulug' shoir uni jimgina tinglab o'tiribdi-da: "Ertaga kel, she'ring uchun senga mukofot beraman", debdi. Yosh shoir sevinchdan yuragi to'lib-topshb ertasiga va'dalashgan vaqtidan avvalroq yetib boribdi.

Ulug' shoir uni ko'rib-ko'rmagandek pinagini buzmabdi.

— Ustoz, kechagi va'da bo'yicha keluvdim, — debdi axiri yosh shoir chidamay.

— Ko'rib turibman. Bilasanmi, kecha sen meni aldab, suyuntirish umidida tirishib-tirmashgan eding. Hisobni tenglashtirish maqsadida men ham seni aldab, bir kecha quvontirgim keldi, — debdi ulug' shoir.

Bobomning nasihatlaridan: Birinchidan, hech kim boshiga loyiqlab tikilmagan cho'girmani yoqtirmaydi. Ikkinchidan, o'zining bo'z choponiga o'rganib qolgan odamga zarbof to'n sovg'a qilsang: "Bu yerda bir gap bor", deb shubhalanadi. Uchinchidan, o'zi balandda turgan odamni sen balanddasan, deb maqtayverish ko'p hollarda baxillikka o'xshab ketadi.

Qariyalarning hangomalaridan: Berdaq shoir Xivadan kechroq qaytib, ko'zlagan manziliga yetolmagach, yo'l ustidagi notanish ovullarning birida tunash uchun burilgan ekan, guzarda yolg'iz yo'lovchiga ro'para kelibdi. Juda qimmatbaho liboslar kiygan bu yo'lovchi yupungina kiyingan shoir bilan salomlashib, shu ovulda tunab o'tish niyati borligini, biroq hech kimni tanimaganligi uchun qayoqqa borishni bilmay, taraddudlanib turganini aytibdi.

"Qismatimiz bir xil ekan. Yur, qo'noq joyni birga qidiraylik", debdi shoir. Shunday qilib, ular tashqarisi ozodaroq bir uyning eshigini taqillatib, "Xudoyi mehmon"liklarini ma'lum qilishibdi. Uyda qandaydir bir quvonchli voqea sharafiga ziyofat berilayotgan ekan. Bunday paytda mehmon qabul qilmaydigan uy bo'lmaydi. Mezbon ularni ochiq chehra bilan kutib olibdi. Biroq ikki mehmonning bir-biriga notanishligini bilmay, faqat kiyimlarigagina qarab, Berdaqqa poygakroqdan, ikkinchisiga to'rdan joy ko'rsatibdi. El-yurtining taomiliga ko'ra, bunday ziyofatga kelgan mehmon olamda nima gaplar bo'layotganini, loaqal yo'l-yo'lakay ko'rgan-bilganini gapirib, ibratli hangomalar, afsonalar aytib berishi kerak. Ikki mehmon navbatma-navbat gapirib, ko'rgan-bilganlarini hikoya qilib bo'lishi bilan, mezbon ularning o'rinlarini almashtirib o'tqazibdi. Yana biroz gaplashganlaridan so'ng Berdaqni o'tog'asining o'rniga o'tqazibdi. Ikkinchi mehmonning tuturuqsiz gaplaridan bezor bo'lib, mezbon undan ziyofat tugagunga qadar boshqa xonada dam olib turishini iltimos qilibdi.

"Tanigan yerda dono ulug', tanimagan yerda to'n ulug'", deyiladi xalq maqolida.

"Ziyofatga borganingda gap bilmasang, loaqal tilingga mahkam bo'l — bir chekkada o'tirib qaytasan", deydi qariyalar.

Shularni eslab, mening shoirligim boshqalarning g'ashini keltirsa, bunday shoirlikning nima keragi bor, degan xulosaga keldim. Lekin, har qalay, o'zimcha kuymalanib, she'r mashq qilishni tashlamadim. Nazarimda, ichimga sig'mayotgan o'y-fikrlarim, aytmoqchi bo'lgan gaplarim ko'pdek. Ularni qayergadir bo'shatib xumordan chiqishim kerak-ku, axir!

Kimning og'zi bo'shligi sabab bo'ldi — bilmayman, "Hakimniyoz cholning to'ng'ich nevarasi shoir ekan", degan gap qo'ni-qo'shnilar orasida yoyila boshladi. Bu xabar bobomning qulog'iga ham yetib boribdi.

— Yalangoyoq etik kiysa, bosarga yer topmas ekan. Biz bechoralarning uyidan shoir chiqishi ham shunga o'xshaydi. Endi seni Ko'cha biyining oldiga olib borishim kerak, — dedi bobom.

Bobom aytdimi, tamom!

Ko'cha biyi lo'ppi, yapasqi, silliq yuzini men tomon burib, yum-yumaloq ko'zlarini menga qadadi-da: "Kallang kattagina ekan. Shu kallaning ichi to'la miya bo'lsa, bir nima chiqar, chiqmay qolmas", dedi.

— Shoir bo'lmoqchi, — dedi bobom.

Ko'cha biyi soniga shapatilab qotib-qotib kuldi. Bobom uning bu qilig'ini yoqtirmadi. Men o'sal bo'ldim.

— Qani, shoir bola, ayt-chi! Masalan deylik, kolxozimiz raisining ishdan bo'shatilishini istasang-u, biroq u bo'shamay turganida, ishing tushib oldiga borsang, nima degan bo'larding? — deb dabdurustdan so'rab qoldi Ko'cha biyi.

— Rais og'a, falon ish bilan oldingizga keldim, der edim.

— Bunday emas-da! Shoir gapini pardozlab, pardalab gapirishi kerak. Demak, bunday vaziyatda avvaliga: "Sobiq rais og'a!" deb bo'lib (esingda bo'lsin, "sobiq" degan so'zni qo'shib aytsang, uni pichoqsiz so'yganing!), ana undan keyin iltimosingni aytaversang bo'ladi. Mabodo muallimingni yoqtirmay qolsang, unga ham bir gap aytishdan avval:"Sobiq muallim og'a!" deb chaqirsang, asl badiiy so'zning ustasi bo'lasan-qo'yasan.

— Yasha, chirog'im, nevaramga shoir bo'lishning yo'llarini o'rgat, ko'p o'rgat!— o'tindi bobom Ko'cha biyiga ixlos bilan termulib.

Ko'cha biyining aytgani: — Men yoshlik paytimda ovulimizdan bir shoir chiqdi. Shoir deganlari dastlabki paytlarda yengiltabiatroq, hovliqmaroq bo'ladimi deyman. O'tirishlarda, hatto shunchaki uch-to'rt odam yig'ilib qolsa bas: "She'r o'qib beraymi?" deb qistalang qilaverardi. Hech kim so'ramasa ham o'rnidan turib she'r o'qiyverardi. Avvaliga biroz zehn qo'yib tinglagan odamlar ham bora-bora undan zerika boshlashdi. O'sha shoir bilan barobar ovulimizda bir qo'chqor urishtiruvchi ham chiqib qoldi. To'y bo'lsa bas, ovul-aymoq uning qo'chqoriga ishqiboz bo'lib ortidan ergashaverardi. Urishqoq qo'chqori tufayli ovulda uni bilmaydigan odam qolmadi. Anovi shoirimiz esa, ko'p o'tmay, shaharga ko'chib ketdi. Ahyon-ahyonda gazetada nomini ko'rib qolamiz. Lekin qo'chqor urishtiruvchi to umrining oxirigacha ovulimizdagi eng mashhur odam bo'lib qolaverdi. Boshi yorilgan qo'chqorini

so‘yib, bola-chaqasi bilan quling o‘rgilsin sho‘rvasini ichib yotaverardi. Qo‘ni-qo‘shnilarni, ovul ahlini ham sho‘rvadan benasib qoldirmasdi. Nevarangiz hali hayotning asl mohiyatini yaxshi tushunmaydiganga o‘xshaydi, oqsoqol, — deya naqlini xotimaladi Ko‘cha biyi.

— Shuning uchun ham oldingga yetaklab keldim-da, — dedi bobom.

Ko‘cha biyining aytgani: Yoshligimda qarmoq bilan baliq ovlashni yaxshi ko‘rardim. Ko‘l bo‘yiga borib, qarmoqqa iladigan chuvalchanglarimni tovoqchaga solib qo‘ygan edim, bittasi o‘rmalab tovoqchadan chiqib oldi. Qarmog‘imni qo‘limda ushlagan holda, qani nima qilarkin, deb chuvalchangning ortidan qarab turaverdim. U ozodlikka chiqqaniga quvonib, shosha-pisha burilib-eshilib o‘rmalayotgan edi, qayerdandir bir chumchuq uchib kelib, chuvalchangning tepasiga qo‘ndi-da, uni cho‘qilab yeyishga tutindi. Yeb bo‘lgach, qanotini quyoshga toblab, huzur qilib o‘tiraverdi. Shu orada qayerdandir qirg‘iy paydo bo‘lib, chumchuqni tishlagancha ko‘l yoqasidagi to‘rang‘il shoxiga borib qo‘ndi. Shu yerda chumchuqning patlarini to‘zg‘ita-to‘zg‘ita yeb, shoxga qanotlarini yozib endigina mizg‘igan edi, ko‘z ochib yumguncha bo‘lmay lip etib shoqol paydo bo‘ldi-da, qirg‘iyni bo‘ynidan g‘archcha tishlab oldi. Shoqol to‘rang‘il oralab ketayotgan edi, kutilmaganda nimadir “sharaq” etdi-yu, shoqolning fig‘oni ko‘kka chiqqudek bo‘ldi. Shu orada nariroqdagi to‘rang‘il panasidan bir odam chiqib keldi. Ana shundagina men shoqolning qopqonga tushganini bildim. O‘sha odam suyungancha yugurib borib, shoqolning boshiga qo‘lidagi uzun temir bilan qulochkashlab ikki marta urdi-da, oyog‘idagi qopqonni bo‘shatib, boyagi o‘rniga qayta qurib qo‘ygach, mening yonimga keldi. Men qarmog‘im qimirlamasin deb gapirmadim. U mening ko‘nglimdan o‘tganini fahmladimi, jimgina ortiga qaytib, shoqolning terisini shilib oldi. Terini oftobshuvoqqa yoyib qo‘ydi-da, bugungi o‘ljasidan mamnun bo‘lib, o‘t-o‘lanlar ustiga chalqancha yotdi. Shu orada uning jon halpida chinqirgani eshitildi. Yugurgilab oldiga borsam, bo‘yniga ilon chirmashib olibdi. Unga qo‘limdan kelgancha yordam berishga harakat qildim. Biroq ajal changalidan qutqarib qololmadim. Ilonni men o‘ldirdim.

Mana, senga hayot! Kim mana shunday hayotni yozsa, hayotnoma yozgani.

Bobomning aytgani: Men shu kolxozga a'zo bo'lib kirganimdan beri uch marta rais o'zgarganiga guvoh bo'ldim.

Birinchi rais amalga mingan zahoti hammani xonasiga yig'ida, avvalgi raisning davrida bizga qiyin bo'lganini aytib, endi ahvol yaxshilanishini va'da qilib ish boshladi. Keyinchalik ham u tez-tez shunday majlis o'tkazib, o'zining kolxoz hayotiga kiritayotgan yangiliklarini, har birimizga ko'rsatayotgan g'amxo'rligini eslatib turdi. Kunlardan bir kuni u ishdan bo'shadi. Ikkinchi rais sobiq raisning ishdan bo'shatilgani yaxshi bo'lganini o'zicha dalillab, u boshqargan davr bizlar uchun koni azob bo'lganini, endi bizning hayotimizda juda ko'p yangiliklar ro'y berishini aytdi. Yangi raisning va'dalariga endigina o'rganganimizda u ham ishdan bo'shatildi. Uchinchi raisimiz o'zidan avval ishlagan har ikki rais zamonini biryo'la chippakka chiqardi. Uning so'zlariga qaraganda, shu paytgacha kolxozimiz o'tirib qolgan ekan. Endi bizlar uchun oltin davr boshlanarkan... Bu gaplarga hammamiz astoydil ishondik. Biroq...

Yaqinda o'sha rais ham ishdan olindi. Endi yangi rais nima deb kelishini kutib yuribmiz.

Shu gaplar esimga tushsa, hayot aravasi dam undoq, dam bundoq g'ildirayveradimi yo odamlar zamonga moslashib, aravakashning qo'shig'ini aytib yashayveradimi — tushunmay boshim qotadi. Nima bu, hayotmi, charxpalakmi?!

Albatta, hayot!

Onamning nasihatlaridan: Ahmoqning aqlli tomoni shundaki, u ahmoqligini himoya qilish uchun hech narsadan qaytmaydi.

Aqlli odamning ahmoqona tomoni shundaki, ahmoqlarning aqlli ish qilishidan umidvor bo'lib, o'z aqlini himoya qilishni yoddan chiqarib qo'yadi.

Foydalanilmagan aql — ishlatilmagan pul.

Ishlatilmagan pul — yaltiroq qog'oz.

Bobomning nasihatlaridan: O'taketgan yovuz bo'lmasa, bolaga yomonlik qiluvchilar kamdan kam.

Xalqimiz uzoq asrlar mana shunday bolalik davrini boshidan kechirmaganida, shu qadar oz sonli bo'la turib, balki bugungi kungacha yetib kelolmasdi.

Mehnatsiz yeyilgan bol og'zingda qondek yoqimsiz tuyuladi. Mehnat bilan yegan noning, hattoki mog'orlab ketgan bo'lsa ham, og'zingda boldek eriydi.

Har bir insonning o'z maqsadi bo'ladi. O'z maqsadini xalqining maqsadiga bo'ysundirgan odam hayotda adashmaydi.

Qariyalarning hangomalaridan: Bir ota-onaning yakka-yolg'iz qizi bor ekan. Yolg'izgina arzandalari bo'lgani uchun uning ko'ngliga qarab o'stirishibdi va turmushga chiqarishda qozontovog'igacha hamma ashqol-dashqollarini tayyorlab berishibdi.

Oradan yarim yil o'tib qizdan ota-onaga:

"Otam bergan gilamni yerlar yutdi,
Onam bergan qozonning og'zi bitdi", —

degan bir baytgina xat kelibdi.

Ota-ona qattiq tashvishlanib, qizining uyiga borishsa, u haligacha qozon yuvish, uy supurishni bilmas ekan. Ovqat qilganda qozonni yuvmay, ovqatni qasmog'ining ustiga pishiravergani uchun qozonning ichi tom bitib qolibdi. Gilami esa, biron marta qoqilmagani, yo biror marta yuvilmagani sababli har kimning oyog'iga ilashib kelgan chang-chung bilan yerga singib ketibdi.

Ota-ona bunday qiz o'stirganiga pushaymon bo'lib, noiloj yangi qozon, yangi gilam sotib olib berishibdi. Qizining kiyimlari to'zib, yirtila boshlaganini ko'rgan onasi ketar oldida:

— Qizim-ov, hech bo'lmasa egningga kuniga bir ko'ylak kiyib olishga qo'ling tegmaydimi? — deb uni koyibdi.

Qiz:

— Tushundim, endi shunday qilaman, — deb qolibdi. Vaqti kelib ota-onaga qizidan: "Kiyimlarim og'irlashib, oyog'imga o'ralashib yurolmay qolyapman", degan xabar yetib kelibdi. Ona hovliqib kelsa, qizi onasining maslahati bo'yicha ustiga har kuni bittadan ko'ylak kiyaverib, gupchakdek shishinib, qavat-qavat ko'ylaklarining etagi oyog'iga o'ralashib, yuray desa surinib

yiqilaverarkan. Onasi bunday kaltafahm qiziga nima deb, nima qo'yishni bilmay, o'ylay-o'ylay: "Bitgan aql bo'lmasa, surtgan aql hech nimaga yaramas ekan", deb qizini qayta tarbiyalash uchun uyiga olib ketibdi.

Onamning nasihatlaridan: Yomon niyatli yo'lovchi botar kundan umidvor bo'ladi, yaxshi niyatli yo'lovchi chiqar kundan umidvor bo'ladi. Chiqar kundan umidvor bo'lib yashagin, bolam!

Momomning nasihatlaridan: Ayrim odamlar besh kunlik rohat-farog'ati deb ko'ra-bila turib o'g'rilikni ham qo'llab-quvvatlaydi. Hayotda bilib turib qing'ir ish qilish — chinakam o'g'rilik. Bu dunyoda o'g'rilar ko'pmi, deyman-da. Gaplarimning ma'nisini tushunish uchun sen avvalo aqlingni tezroq tanib ol, qarog'im!

Bobomning nasihatlaridan: Avvalo xalq dono. Odamlarning o'zaro munosabatlaridan, o'zining boshqalar bilan, boshqalarning o'zi bilan muomalasidan tegishli xulosa chiqara bilgan, qolaversa, uni o'rinlatib qog'ozga tushira bilgan odam — yanada donoroq. Bunday odam xalqini ham dono qilib ko'rsata oladi. Bu ish ulug'likning ham alomati!

— Ulug'lik belgisi — ojizlarni himoya qilish, — deb o'rgatardi Ko'cha biyi.

— Ojizlarni himoya qilish — qudratlilikdan nishonadir, — derdi otam.

— Ulug'likning ham, qudratlilikning ham belgisi — halol-pok yashash, — derdi onam.

Qariyalar gurungidan: Bolalik chog'imda ovulimizda o'n ikki muchasini yog' bosib ketgan bir boy bo'lardi. Boyligi oshib-toshib yotsayam bola-chaqasi bilan bo'z ko'rpachada o'tirib, qattiq non yerdi, pishirgan ovqatlari ham quruq yovg'on bo'lardi.

"Siz nega bunaqa ziqnalik qilasiz?" deb so'ragan odamga: "Ovuldagi boshqa odamlar qanday yashasa, men ham shunday yashayman-da, ulardan o'tib qayoqqa borardim", deb javob berardi. Javobni-ku, berardi, biroq hech kimga na bir tovuq, na bir kaft bug'doy bermasdi... Goho-goho shu boy esimga tushsa, uning ulug'ligini ham, ahmoqligini ham bilolmay hayron bo'laman.

Ovulimiz chekkasidagi qamish kapada bir devona yashardi. Uyiga birov borib qolsa, egnidagi bitta-yu bitta choponini yoyib, tagiga to'shardi. Oxirgi yarim nonini dasturxon ustiga qo'yardi. Shu qadar saxiyligi uchunmi ovulimiz bolalari hamisha eshigining oldida girdikapalak edi. O'sha devona esimga tushsa, uning ulug'ligini ham, nodonligini ham bilolmay menham hayron bo'laman.

— Hamma bir tomonga qarab yurganida yer kurrasi o'z o'qidan chiqib ketishi ham ehtimol edi, — deydi otam.

— Jahon xalqlarining ko'pdan ko'p urug'larga, millat-u elatlarga, ayrim-ayrim mamlakatlarga bo'linib, har birining o'z erkicha yashashi dunyoning muvozanatini saqlab turibdi, — derdi goho Ko'cha biyi.

— Agar hamma bir xil bo'lganida, odamlar uchun gap topilmay, hamma zerikishdan o'lib qolardi, — derdi yana Ko'cha biyi.

2

To'rtinchi sinfni tamomlashimiz munosabati bilan maktabimizda ota-onalar majlisi bo'lib, unga uyimizdan bobom qatnashdi.

Muallim birinchi bo'lib mening baholarimni o'qib eshittirganida bobom sevinchini yashirolmay, boshqalarning oldida o'zgacha bir viqor bilan gerdayibroq o'tirdi. Rayon markazidagi o'quvchilar lageriga borish uchun menga bepul yo'llanma berilishini eshitganida, mo'ylovini qayta-qayta silab: "To'lek, men sendan roziman!" dedi.

Onamning "Sere" deb chaqirishini aytmasa, umrim bino bo'lib mening otimni hech kim bunday buzib aytmagan edi. Bobomning nomimni qisqartirib aytganiga bois — ichiga sig'may borayotgan sevinchini tezroq bildirishga shoshilgani bo'lsa kerak, deb taxmin qildim. Muallim miyig'ida kulib:

Berdimurod Berdaq bo'ldi,
Biroq hech kim bilgan emas.

To'lepbergen To'lek bo'ldi,
Biroq hamma bildi, mana, —

dedi. O'tirganlar gurra kulishdi.

Muallimimning nomimni Berdaq bilan yonma-yon qo'yganiga boshim ko'kka yetgudek bo'ldi.

"Shoir bo'lsam, o'zimga To'lek deb taxallus qo'yaman". Shunday deb o'yladim-u, a'zoyi badanimda nimadir o'rmalayotgandek seskanib ketdim: o'zimni buyuk Berdaqning yonida tasavvur qilishdan uyalmaymanmi?!

"Odam bolasidagi eng bebaho fazilat — u hamisha ertasidan umidvor bo'lib yashaydi, o'zini yuksakliklarda ko'rgisi keladi", derdi onam.

"Odamning hayotda ko'pdan ko'p xatolarga yo'l qo'yishiga sabab ham mana shu: o'zini hamisha yuksakliklarda, aqli rasolar orasida xayol qilishining natijasi", derdi bobom.

— Ota, sizga bir juft savol bersam maylimi? — dedi muallim.

Bobom ko'ngli yayrab turgan chog'ida hech narsadan qaytmasdi ham, qo'rqmasdi ham. Gerdayib o'tirib:

— Mayli, — dedi.

— Birinchi savolim: eng quvonchli, yaxshi kunlaringizni ayting-chi? — deb so'radi muallim.

— Eng yaxshi kunlarim — nima bilandir astoydil mashg'ul bo'lgan kunlarim, — dedi bobom.

— Eng qayg'uli, yomon kunlaringiz-chi? — deb yana so'radi muallim bobomning birinchi javobidan mamnun bo'lib.

— Eng yomon kunlarim — ishsiz, bekor qolgan kunlarim,— dedi bobom.

Ota-onalar orasida kimdir:

— Nima uchun? — deb so'rab qoldi.

— Ishsiz, bekor qolgan paytingda miyangga har xil bo'lmag'ur xayollar kelaveradi. O'ylanaverib-o'ylanaverib, eng qadrdon do'st-u birodarlarimdan ham kamchilik topib qolaman, — dedi bobom.

Hamma jiddiy tortdi.

— Bolalar, ta'til paytida Hakimniyoz otaning mana shu javoblari ustida puxta o'ylab, birinchi sentabrga bayon yozib kelinglar, — deb muallim hamma o'quvchilarga ruxsat berdi.

...Maktabdan qaytishda bobom ikkovimiz odatdagiday suhbatni qizitdik. Biroq muallimning bobomga bergan savollari-yu uning javoblari haqida na bobom, na men lom-mim dedik.

— Mualliming shu gal menga juda ma'qul bo'ldi, — dedi bobom. — Ko'ksida ko'zi bor, juda-juda olisni ko'rar ekan.

Bobomning yuziga savolomuz tikildim. U mening tushunmaganimni sezdi.

Bobomning nasihatlaridan: Odam ko'zlarining ko'rish chegarasi bor. Ilm tufayli ochilgan ko'zning esa, ko'rish chegarasi bo'lmaydi. Chunki bu ilm egasining ko'ngil mulkida ochiladi.

Xalq orasida "Eng badavlat odam — ilmli odam", degan gap bor. Buning ma'nosi — ilm odamning yuragida bo'ladi, hech qachon eskirmaydi, o'zi bilan birga yashaydi. Uni qancha ko'p sarflasang, shuncha ko'payaveradi. Boylik bo'lsa, sandiqdami, qopdami, yostiqning jildidami saqlanadi. Uni qanchalik ko'p sarflasang, shunchalik tez kamayib boraveradi. Yana bir farqi shundaki, ilmli odam o'lsa, yaxshi olim edi, deb hamma qayg'uradi. Boy-badavlat odam o'lsa, mol-dunyosi bizga qoladigan bo'ldi deb, hatto o'z bolalari ham xursand bo'ladi.

Muyulishdan Ko'cha biyi chiqib qoldi.

— Ota, nevarangiz a'lochi ekan-a? Ko'p yashasin azamat! O'zi haliyam she'r yozib turadimi? — dedi u.

— Yozib turadi, — dedi bobom.

Ko'cha biyining aytganlari: Shahardagi pedagogika bilim yurtida yoshi o'tmay qarib, "ota" atanib yurgan bir muallim bor. U: "Olim bo'laman, buning uchun dunyoning noz-ne'matlaridan voz kechishim kerak", deb uylanmadi. Men u bilan gaplashib ko'rdim. Gaplarining mag'zini chaqib qarasam, undan olim chiqish u yoqda tursin, aksincha, odam siyoqi ham yo'qolib borayotgandek. Nevarang o'sha muallimga o'xshab qolmasin tag'in.

Yana: Bir gal qo'shnimning tovuqlari katak oldida qoqog'lab yurishuvdi. Dabdurustdan qarchig'ay uchib kelib, ularga tashlan-

di-yu, katta bir tovuqni changallagancha olib jo'nadi. Eshik oldida yer titkilab yurgan xo'rozim qarchig'ayning bu ishini ko'rgan zahoti jon holatda qanotlarini yozib qo'shnining tovuq katagi tarafga uchgan edi, to'ppa-to'g'ri katakka borib urilib, tikonli simlarga o'ralashib qoldi. Ularning orasidan xo'rozimni bazo'r chiqarib oldim. Bir marta uchaman deb go'ng titkilashga ham majoli qolmagan ekan, kechqurun sho'rva bo'ldi.

Nevarangga qarchig'ayga taqlid qilgan xo'rozning holiga tushib qolma, demoqchiman.

Yana: Olimlik bilan shoirlik bir choponning avra-astariga o'xshaydi, hushyor bo'l, demoqchiman. Shoir bo'lish uchun hayotni yaxshiroq o'rgan, demoqchiman.

Qariyalar gurungidan: Yoshlik paytimda ovulimizda kuchanibroq she'r yozadigan bir shoir bor edi. Duch kelgan odam unga "Sen hayotni o'rgan, sen hayotni o'rgan", deyaverdi. Shundan keyin haligi shoir: "Avvalo ovul hayotini o'rganishim kerak", deb ovuldagi hamma uylarda navbati bilan tunab yurdi. Keyin: "Hayotni chuqurroq bilay", deb qo'shni ovullarga o'tdi. Undan keyin: "Hayotni yanayam chuqurroq o'rganishim kerak", deb ovullardan ovullarga o'tib yurib, oxir-oqibat tekinxo'rga aylandi-da, bor bilganidan ham ajrab qoldi.

— Shoirlik degani har bir odamning ichida Xudoning o'zi yaratgan nur bo'lsa kerak. Hech kim hayotni o'rganib shoir bo'lmaydi. Hayotning o'zi shoir qiladi.

— Ba'zilar she'r shodlikni ifodalaydi, deydi. Men bu gapga qo'shilmayman. Axir she'r xalqning orzu-armoni, dardi...

— Bizning zamonda dard bilan armon yo'qolib boryapti.

— Qo'ysang-chi, odam bor joyda dard ham bo'ladi-da! "Dardsiz — kesak", deydilar-ku, axir. To'g'ri, dard-u armonning darajasi bo'ladi. Shunga bog'liq she'rdagi dard-u armonning ham har xil darajasi bo'laveradi...

— Odam — odamga, hukmdor — hukmdorga o'rin bo'shatib berganiday, shoir — shoirga, she'r — she'rga o'rin bo'shatib beraveradi.

Bobomning aytgani: Bir kuni bir yosh yigit oldimga kelib: "Ota, maslahatingiz kerak", dedi. Xo'sh, deb so'radim. "Yaqinda

uylangan edim, hayotiy tajribam kamligi uchunmi, ayolim bilan murosamiz kelishmay turibdi", dedi. "Odamga birgina o'z tajribasi hamisha kamlik qiladi, shuning uchun boshqalarning tajribasiga tayanib ish qil", degan edim. U hayron bo'lib: "Iye, bu dunyoda necha milliard odam bor. Hammasining tajribasini o'rganib chiqish osonmi?" dedi. "Obbo, sen hali faqat tiriklarni aytib turibsan-ku, chirog'im. Tinch-totuv yashash uchun bu kamlik qiladi. Bizga qadar yashab o'tganlarning tajribalarini ham o'rganish kerak!" deb maslahat berdim. Shoirga ham maslahat shu.

Eshitganmisan, fil qayerda bo'lmasin, o'limi oldidan o'z makoniga, albatta, qaytib kelarkan. Hattoki fildan ham o'rgansa arziydi...

Momomning nasihatlaridan: Har qanday vaziyatda jism-u joningni qaqshatib turgan kasallik bilan, o'zing qarzdor odam bilan, umr yo'ldoshing bilan qasdlashma!

Har qanday vaziyatda birinchi ota-onangning, ikkinchi ustozingning yo'lini to'sma!

Yodingda tutki, bobong bilan momong o'zlariga, hatto o'limda ham birinchilikni tilaydi. Ular o'limda avlodlaridan ortda qolib ketdimi, olamdagi eng mudhish baxtiqarolik shu!

3

Bobom lagerda qoldirib ketdi. Notanish bolalar menga suzong'ich qo'zilardek jangari tuyulib, ularga begonasirab qarab, karavotimda jimgina o'tiraverdim. Rostini aytsam, umrim bino bo'lgandan beri bugun birinchi marta karavotga yotmoqchiman. Endi omonatgina cho'zilmoqchi bo'luvdim, novcha, xushbichim, bug'doyrang yigit yonimga kelib:

— Men yetakchiman. Ismim Uzoqbergan. Familiyam Bekniyozov. Chimboy pedagogika bilim yurtining talabasiman, Xo'sh, sen-chi? — dedi.

Men qaddimni g'oz tutib:

— Cho'rtanboy ovulidagi Chapayev nomli boshlang'ich maktabdan kelgan o'quvchiman. Otim To'lepbergen, familiyam Qaipberganov! — deb biyron-biyron javob qildim.

— Mening ham To'lepbergen degan inim bor. U sendan besh yosh katta. Shunday qilib, mana, tanishib oldik. Qani, ayt-chi, qaysi to'garakka qatnashmoqchisan?

"To'garak" degan so'zni birinchi marta eshitishim edi, yelkamni qisdim.

— Ha, darvoqe, sen boshlang'ich maktabdan kelgansan-a. Kelajakda kim bo'lmoqchisan? — deb so'radi u.

— Shoir! — dedim men.

— Unday bo'lsa adabiyot to'garagiga qatnashasan, — deb yigit sumkasidan bir daftar olib muqovasiga mening ismi sharifimni katta harflar bilan yozdi-da, oldimga qo'ydi. — Shu sening kundalik daftaring bo'ladi.

— Bunga nima yozaman? — deb so'radim.

Yigit sumkasidan uchi ochilgan rangli qalam chiqarib, menga uzatdi.

— Kundalikni qanday tutishni, nima yozishni o'zim o'rgataman, — dedi. So'ng bir zum o'ylanib turdi-da: — Nechta she'ring bor? — deb so'radi.

— Hisobini bilmayman, — dedim.

— Sanamaganing yaxshi. Qani, eng oxirgisini o'qi-chi?

Lagerga kelayotganimda yo'l-yo'lakay miyamda pishitib, hali qog'ozga tushirishga ulgurmagan she'rimni yoddan o'qidim:

Ayollarning umri o'tgan tuzoqda,
Erkaklarning umri o'tgan do'zaxda,
Bolalarning umri o'tgan qiynoqda,
Xo'rlikda yashagan qoraqalpoq xalqi.
Ertak, afsonalar bo'ldi kitobing,
Talay og'irlikka chidading,
Do'st axtarib ko'p dunyo kezding,
Bugun ahvoling yaxshi,
qoraqalpoq xalqi.

— She'ringni nima deb nomlagansan? — deb so'radi yangi murabbiyim.

— "Qoraqalpoq xalqi", — dedim men.

— Bu nom she'ring uchun og'irlik qilarkan. Hay, mayli, hali ikkovimiz bamaslahat boshqa nom toparmiz, — dedi u.

Murabbiyim aytib turib yozdirgan birinchi kundalikdan:

1941-yil, 1-iyun. Avvalo, kitobni qadrlash kerak.

Kitob odamga eng sodiq, eng dono, eng dilkash do'st. Kitob bilan do'stlashgan odam — aqli raso odam. Ba'zilar uchun oldida oqqan suvning qadri yo'q. Kitob esa shunday bebaho ummonki, u faqat o'zini emas, yana nimani qadrlash, nimani ardoqlab-e'zozlash kerakligini ham o'rgatadi.

1941-yil, 2-iyun. Kitob — ichi donolikka to'la sehrli sandiq. Kitob yo'lingda yotgan bo'lsa, olib ko'zingga surt, ko'ksingga bos, asrab-avayla, o'qib-o'rgan. O'shanda odamlarning hurmat-ehtiromiga sazovor bo'lasan.

Kitob jildini ichi odamlarga liq to'la uyning eshigi deb bil! Har qanday sharoitda ham shu eshikni ochishdan qo'rqma, erinma, tortinma! Ichidagi odamlar sen bilan suhbatlashishga, sirlashishga mushtoq.

Birov senga: "Anovi uyga kirma, ichida yomon odamlar bor", desa, mayli, ishon. Biroq kitobni yomonlasa, ishonma. Kitobda hayotiy tajribalarning boy xazinasi jamlangan.

Kitobni toptama. Bu ish tirik odamning boshiga oyoq qo'yish bilan barobar.

1941-yil, 3-iyun. Shoir bo'lish uchun ko'p o'qishing, ko'p bilishing kerak. Bir yosh shoir Maksim Gorkiyga: "Hamma narsani bilishim shart emas. Hech kim hech qachon hamma narsani bilolmaydi-ku, axir", deb xat yozganida Maksim Gorkiy: "Menimcha, bu odamdan durustroq yozuvchi chiqmaydi", degan ekan.

Napoleon Bonapart: "Askar o'lsa, o'rnini qoplash mumkin. Biroq shoir o'lsa, o'rnini qoplab bo'lmaydi", degan ekan.

Sohibqiron Amir Temur: "Men avvalo lashkarboshi bilan andishali muomala qilaman. Chunki uning dilini og'ritsam, jahl ustida jonimga qasd qilishi mumkin. Keyin shoir bilan. Chunki uning dilini og'ritsam, elning mendan ko'ngli qolishi mumkin", degan ekan.

1941-yil, 5-iyun. Afinaliklar bilan spartalilar zimdan bir-birlariga adovatda bo'lsalar-da, har qalay, murosayi madora qilib, o'zaro qo'shni yashashgan ekan.

Kutilmaganda spartaliklarga dushman bostirib kelibdi-yu, jangda ularning kuchlari kamlik qilib, qo'shni afinaliklardan yordam so'rashga majbur bo'lishibdi. Afina hukmdori spartaliklarni tahqirlash niyatida birgina mayib-majruh navkarni yordamga yuboribdi. Spartaliklar shunisiga ham shukr qilib, navkarni o'z jangchilari qatoriga qo'shibdi. Afinalik mayib navkar shoir ekan, lashkarning oldiga tushib, jangovar she'r o'qibdi. Uning she'rlari spartaliklarga ko'tarinki ruh bag'ishlab, g'alabaga ishonch uyg'otib yuboribdi. Natijada dushman mag'lub etilibdi.

Demak, gohida bittagina shoir butun boshli lashkardan qudratliroq bo'lishi mumkin.

1941-yil, 6-iyun. "Bir chimdim tuz bilan ta'm kirar oshga, bir tuzsiz so'z bilan g'am tushar boshga", degan xalq maqoli bor. O'ylab ko'rsang, maqol-matallar ulkan dostonlarning, ajoyib-g'aroyib ertag-u afsonalarning tuz-totig'i, pirovard g'oyasi, yetakchi mazmuniga o'xshaydi. Ota-bobolarimiz o'z hayotiy tajribalarini yozib qoldirish imkoniyatiga ega bo'lmaganligi uchun ularni saralab, ixcham shaklga keltirib, avlodlarga meros qilib qoldiravergan bo'lsalar kerak. Ayrim maqol-matallar ko'pchilik xalqlarning mushtarak merosi ekanligi ham tabiiy hol. Chunki avvallari ham xalqlar o'zaro bordi-keldi, savdo-sotiq qilganlar, quda-anda tutinganlar.

Afsuski, keyingi paytlarda ba'zilar shu mo'jaz hikmatlarni o'zlashtirib, o'z kashfiyoti sifatida ko'rsatib, shu asosda kitoblar yozib yurishibdi. Kelajak, baribir, kashfiyotchi kim-u, ko'chirmakash kimligini farqlab, ularning saragini-sarakka, puchagini-puchakka ajratib oladi. Maqol-matallar, qo'shiq, lapar, terma, ertak va afsonalar, hikmatli so'zlardan qadimgi davrlarda yaratilib, bizga qadar obdan sayqal topib, mukammal shaklga kelgan qimmatli tarixiy obidalar sifatida o'rni bilan foydalanganimiz ma'qul. Chinakam shoir uchun ular bir umrlik tekin daromad vositasi emas, ijodiy ibrat manbaidir. Axir, biz muhofazada saqlanayotgan biron bir tarixiy obidani, chiroyli ekan deb, qurilishda foydalanavermay-

miz-ku. Xalq maqollarini she'riy satrlarga tizish, xalq qo'shiqlarini she'rga "aylantirish" ham shunday odamga erish tuyuluvchi samarasiz mashg'ulotdir.

1941-yil, 7-iyun. Agar xalqimiz tarixini chuqurroq o'rgansak, uning tarixiy taqdiri haqidagi asl haqiqatlar asosan, afsona va rivoyatlarda, ko'p yashab, ko'pni ko'rgan qariyalarning hangomalarida saqlanib qolganiga amin bo'lamiz. Biroq bu oz sonli xalqning har xil urug'lardan tarkib topganini hisobga olsak, ayrim ijrochilar o'zlarining urug'chilik mayllari yoki shaxsiy, xudbinona rejalari asosida tariximizni buzib, o'zgartirib ko'rsatishga harakat qilganliklari ham shak-shubhasizdir. Ba'zi tarixchilarimiz bu holga yetarli e'tibor bermay, ko'pincha, "xalq og'zaki ijodi" degan yorliq bilan ayrim uydirma gaplarni ham ayni shamoyilida tarixga mansub deb hisoblayveradilar. Shuningdek, eski yozuvdagi tarixiy kitoblar, yodnoma-yu zafarnomalarni ham o'z davrining tarixiy haqiqati deb bilish xato bo'lur edi, albatta. Inqilobga qadar qog'oz-qalamga egalik, yozish huquqi va imkoniyati faqatgina ilg'or qarashli odamlar qo'lida bo'lavermagani oydek ravshan. Hokimlar uchun esa, o'z davri "Oltin davr" hisoblangani aniq.

1941-yil, 8-iyun. Adabiyotdagi bosh masalalardan biri — komil inson masalasidir. Bu muammo haqida o'ylamaydigan, uni o'zicha tasavvur qilmaydigan yozuvchi yo'q. Ideal obraz, lo'nda qilib aytganda, har bir tirik jon shunga o'xshashni, shunday bo'lishni orzu qiladigan xayoliy odam obrazidir. Bunday obraz yakka shaxs fantaziyasining mahsuli bo'lishi istisno hol, uni davrning o'zi yaratadi...

1941-yil, 9-iyun. Lev Tolstoy o'zining Afanasiy Fetga yozgan xatida: "Bizning ishimiz dahshatli darajada og'ir. Lekin buni o'zimizdan boshqa hech kim his qilolmaydi", degan ekan. Yana bir xatida esa, shunday hasrat qilgan ekan: "Jonimni jabborga berib ishlayapman-u, biroq hech nima yozolmayotganimga xafaman. Ekin ekilishi kerak bo'lgan yerni chuqur shudgorlash yanglig' dastlabki tayyorgarlik ishlari men uchun qanchalik og'ir kechayotganini balki siz tasavvur ham qilmassiz. O'ylab olish, takror-takror o'ylash, yozilajak keng ko'lamli asardagi har bir odamning taqdiri qanday kechishini oldindan puxta o'ylab olish,

qayta boshdan o'ylash, millionlab ehtimollarni o'ylab, o'shandan bittasini ajratib olish — aql bovar qilmas darajadagi mushkul ish bu!".

1941-yil, 10-iyun. Furmanov "Chapayev" romanini yozayotgan paytida "Nari boraman, beri kelaman, yotib o'ylayman, yurib o'ylayman... qat'iy bir shaklni uzil-kesil tanlab ololmayapman sira", deb noligan ekan.

1941-yil, 11-iyun. Odam bir ishni boshlash oldidan o'zida qat'iy ishonch hosil qilolmasa, shu ishni oxiriga yetkazishga ko'nglida gumon uyg'onsa, maslahatgo'y do'st izlaydi. To'g'ri, ko'pchilik bilan kengashish lozim. Biroq o'z bilganingdan qolmasliging ham kerak.

Maslahat so'raganingda ko'nglidagi gapni ro'y-rost aytadigan odamning qadriga yet!

Kundalikka o'zim yozganlarim:

1941-yil, 12-iyun. Yetakchimiz Uzoqbergan og'a Bekniyozovning aytganlarini peshma-pesh qog'ozga ko'chirib, nimani yozdirsa — shuni xatosiz yozgan bo'lsam-da, ulardagi ko'p fikrlarni tushunolmay qiynalaman. Lev Tolstoy degan yozuvchining "Qizil qalpoqcha" ertagidan boshqa hech bir kitobini o'qimaganman. Fet, Furmanov deganlari menga batamom notanish. Uzoqbergan og'a esa, mening tushunmasligimni bilmaydimi yo bilsa ham, o'ksinmasin, o'zi asta-sekin o'qib, bilib, tushunib olar, deydimi, ishqilib, kechagi kun aytib yozdirganlarini bugun so'rabsurishtirmay yangisini yozdiraveradi. Vaqti bo'lsa, yangi she'rlarimni o'zimga o'qitib eshitadi. Oxirida "Yozaver, yana yozaver!" deydi. Tamom.

1941-yil, 13-iyun. Ertalabki badantarbiyadan so'ng cho'milishga borish uchun otradimiz bolalari turnaqator tizilishib turganimizda, Uzoqbergan og'a Bekniyozov kelib qoldi-da, meni safning oldiga chiqarib, so'nggi she'rimni o'qishni buyurdi. Men qisilib-qimtinib safning oldiga chiqdim. Kuni kecha yozgan "Men baxtliman, lager" degan she'rimni o'qidim. O'qib bo'lishim bilan safda turgan bolalar baravar qarsak chalishdi. Bu mening she'rim uchun chalingan dastlabki qarsaklar edi. Sevinchdan yuragim tars yorilgudek bo'ldi.

Uzoqbergan og'a yonimga kelib: "Bugun Nukusga ketadigan odam bor. She'ringni konvertga solib, yelimlab ber. U "Jetkinshek" gazetasiga oborib topshiradi", dedi va qo'limga konvert tutqazdi. Men chodirga kirdim-u, sahifaning quyirog'idagi ochiq joyga "Bu she'rni o'qiganimda otrad qarsak chaldi", degan eslatmani yozib, konvertga soldim, yelimladim va olib chiqib o'sha odamga berdim.

Yana murabbiyim aytib turib yozdirgan kundalik:

1941-yil, 14-iyun. Bugungi kunda ham dunyo xalqlari bir-birlarini yaxshi bilmaydilar. Bir xalqning vakili ikkinchi xalqning vakili bilan uchrashib qolsa, daf'atan ochilib-yozilib gaplasha oladigan umumiy mavzu yo'q hisob. Gap tillarining boshqa-boshqaligidagina emas.

Bog' xilma-xil mevasi bilan qadrli bo'lganiday, dunyo har bir tilning o'zicha yashab, o'z mevasini berayotgani bilan go'zal. Olimlarning kashfiyotlari shunday bir elchiki, u xalqlarni, mamlakatlarni do'stlashtiradi.

Bizning davrimizda qadami qutlug' elchilik rolini ado etish kitobning ham qo'lidan keladi. Kitob odamlarni, xalqlarni o'zaro yaqinlashtiradi. Albatta, bunday kitob osonlikcha yaratilmaydi. Mashaqqatlardan qo'rqmaslik kerak. Qaysi bir xalq bo'lg'usi nasllar taqdirini o'ylamas ekan, demak, o'zini halokatga mahkum etadi. Har bir avlod o'zidan keyingi avlodda yashaydi, unga qoldirgan kitoblarida yashaydi. Yoshlar, tabiiyki, avvalo badiiy adabiyotga qiziqadilar. Jahon yoshlarining ruhiyatini, his-tuyg'ularini uyg'unlashtirib tarbiyalash maqsadida adabiyot yuzasidan ommabop o'quv quroli yaratilsa ekan! Bunday kitob o'quvchiga odob-ikrom, o'zaro mehr-muhabbat, mehr-shafqat, muruvvat, hurmatning nima ekanini ko'rsatib bersa, bu turli mamlakatlarning yoshlari uchrashganida o'zaro dilkash suhbatning asosiy mavzuyiga aylanishi mumkin edi. Bu darslikda jahon adabiyotining jamiki siymolari jamlanmog'i lozim. Biroq, aytaylik, Gomer — yunon, Dante — italyan, Shekspir — ingliz, Lev Tolstoy — rus, Gyote — nemis deb ko'rsatilmagani ma'qul. Shunday bir darslikni o'rganish o'rta maktab dasturiga kiritilsa, naqadar ajoyib ish bo'lar edi! Men bu bilan har bir xalq o'zining milliy adabiyotini o'rganmasin,

demoqchimasman. Hozir qanday bo'lsa, o'shanday o'rganaversin. Lekin o'sha umumiy darslikka qiyoslab o'rgansin. Ana shunda har bir odam o'z adabiyotiga g'oyat yuksak cho'qqidan qarab, ona adabiyotini o'sha cho'qqi tomon yetaklash imkoniyatiga ega bo'lar edi. Xalqlar bir-birlariga basma-bas rivojlanardi.

1941-yil, 16-iyun. Jahondagi barcha xalqlarning qanday yaxshi an'analari, boy yozma adabiyoti, ilm-fani bo'lsa, biz o'shalarning vorislarimiz. Lekin o'zini ruhan tayyor his qilmagan odam boshqalar yaratgan ma'naviy xazinalarning munosib davomchilari bo'la olmaydi. Shuning uchun bizning bolalarimiz ko'p o'qishlari kerak. Juda ko'p o'qishlari kerak! Boshqalardan uch-to'rt baravar ko'proq o'qishlari kerak! Aks holda bir poyezdda borayotgan do'st-birodarlarimiz orasida eng savodsizi, eng nochori bo'lib qolaverishimiz ehtimoldan xoli emas. Albatta, besh qo'l barobar emas. Hech kim, kalta barmog'im nega o'smaydi, deb uni kesib tashlamaydi. Shundaylikka shunday, ammo barmoqlar yagona bir musht bo'lib tugilar chog'i vaqtida harakatlanadigan, mudom zarur barmoq darajasiga yetishmoq kerak. Buning uchun har bir yigit va qiz ko'proq bilishi, o'tmishdagi yo'qotishlarning o'rnini ham qoplab ulgurish uchun astoydil intilib yashashi kerak.

Yana o'zim davom ettirgan kundalik:

1941-yil, 17-iyun. Bugun Bo'z ko'lda cho'mildik. Keyin badiiy havaskorlik jamoamiz qo'shni kolxozning madaniyat saroyida konsert berdi. "Men baxtliman, lager" she'rimni o'qib berdim. Uzoqbergan og'a ertalabdan beri yo'q. Kechqurun lagerda ham ko'rinmadi. Qayoqqa ketdi ekan-a?

1941-yil, 18-iyun. Uzoqbergan og'aning qayoqqa ketganini aniqladim. Onasi kasal bo'lib qolibdi. Unga dori oborib berish uchun shaharga ketgan ekan.

Nazarimda, Uzoqbergan og'asiz lager huvullab qolgandek.

1941-yil, 19-iyun. Hech nimaga qo'lim bormaydi. Na yoza olaman, na o'qiy olaman. Otradimiz bolalarining o'yinlariga ham qo'shilgim kelmaydi.

1941-yil, 20-iyun. Tushlikdan so'ng dam olish uchun palatamga borayotgan edim, uzoqdan xushnud jilmayib kelayotgan

Uzoqbergan og'a Bekniyozovni ko'rib qoldim. Qo'lida allaqanday ko'kimtir qog'oz.

— To'lepbergen, manovi senga! Rayon pochtasidan borib oldim. Redaksiyadan! — deb hayqirdi u uzoqdanoq. Yaqin kelib konvertni qo'limga tutqazar ekan, shoshirdi:

— Qani, tezroq ochib o'qi-chi, nima deb yozishibdi ekan?

Konvertni apil-tapil ochdim-da, Uzoqbergan og'aning oldida savodimni ham ko'rsatib qo'yish umidida ovoz chiqarib, sharillatib o'qiy boshladim:

"Hurmatli To'lepbergen!

Birinchidan, shoir uchun har bir she'ri farzanddek aziz ekanligi hammaga ma'lum. Qo'ng'iz — oppog'im, tipratikon — yumshog'im der ekan. Biroq she'ring bizga o'zing o'ylaganday "oppoq" yo "yumshoq" tuyulmadi.

Ikkinchidan, "otrad qarsak chaldi" debsan. Bo'lsa bordir. Bilasanmi, ba'zi artistlar tomoshabinlarni kuldirganidan suyunadi. Mayli, suyunish yo suyunmaslik har kimning o'z ixtiyorida. Biroq tomoshabinlar o'sha artistning o'z rolini o'xshatolmayotganiga kulayotgan bo'lishsa-chi? Shoirlarga munosabatda ham xuddi shunday. Axir, tinglovchilar shoirning she'ridan zavqlanib qarsak chalishi ham, zerikib qarsak chalishi ham mumkin-ku!

Endi she'r o'qiydigan bo'lsang, tinglovchilarni ko'z qiring bilan dam-badam kuzatib turish yodingdan chiqmasin.

Sening shoir bo'lib shakllanishingga tilakdoshlik bildiramiz.

Salom bilan: "Jetkinshek" redaksiyasi".

Men shu paytga qadar murabbiyimning oldida hali o'sishi kerak bo'lgan bir tup mevali daraxtdek edim. Endi bamisoli kutilmaganda ichini qurt yeb, shoxidan uzilib, iflos yerga kelib tushgan bir dona olmaga aylandim-qoldim.

Murabbiyimning aytganlari: Bu yil qishda ovulimizda Abbos shoir bilan uchrashuv bo'lishini eshitib men ham bordim. Kolxoz raisi uchrashuvni ochib, kirish so'z aytish kerak ekan. Kattakon klubda liq to'lib o'tirgan odamlar oldida rais bir parcha qog'ozga tikilib turib:

— Birodarlar! Ovuldoshlar! Yuragi oltin so'zlar xazinasiga liq to'la Sodiq shoir bilan uchrashuvga bag'ishlangan kechani ochiq deb e'lon qilaman! — dedi.

— Sodiq shoir emas, Abbos shoir, — deb luqma tashladi kimdir.

Rais qog'ozga qayta ko'z yugurtirib:

— Yo'q, Sodiq shoir bilan! — dedi.

— Noto'g'ri aytyapsiz. Axir, Abbos shoir bilan uchrashmoqchimiz-ku! Ana, o'ziyam o'tiribdi-ku! — dedi yana o'sha odam.

— Abbos shoir bilan uchrashmoqchiligimizni o'zim ham ko'rib turibman. Mana, yonimda o'tiribdi. Biroq manovi qog'ozda Sodiq shoir deb yozilgan bo'lsa men nima qilay? Ishonmasanglar, mana, o'zlaring o'qib ko'ringlar! — dedi rais odamlarga baqrayib turib.

Oradan ko'p o'tmay, ovulimizga Japaq baxshi keldi. Kolxozchilar har galgiday klubga liq to'lib uni tingladi.

Baxshi termalar-u dostondan parchalar aytib bo'lgach, rais o'rnidan turdi:

— Rahmat, Japaq og'a! Ovozingiz juda zo'r ekan. Huzur qilib eshitdik, — dedi.

— Dostoni, termasi, do'mbirasiniyam maqtang! — dedi tinglovchilardan biri.

— Baxshining nimasini maqtashni o'zim yaxshi bilaman! — Rais jahl bilan po'ng'illadi.

Oradan yana ko'p o'tmay, ovulga Oyimxon Shomurotova bilan To'xta Rahmanova keldi. Yana klub odamlarga liq to'ldi.

— Oyimxon Shomurotova, To'xta Rahmanova, sizlarga rahmat! Xalq zavqlanib tingladi. Dutor chertishning mashqini olgan ekansizlar,— dedi rais.

Tinglovchilardan biri yana chiday olmadi:

— Kuyni chalgan mashshoq ular emas, boshqalar! To'xta bilan Oyimxonga rahmatni xushovoz xonandaligi uchun aytish kerak!

— Jim o'tir-e, mahmadana! Bu yerda boshliq menman! — dedi rais ko'ksiga mushtlab. — Nima deysan yana? Hov o'shandagi xatomni tuzatdim-ku, bas qil-da endi!

Odamlar, kimdir kulib, kimdir xafa bo'lib, yana kimdir g'azabini ichiga yutib, tarqalishdi.

Xafa bo'lma, To'lepbergen! Redaksiyada ham o'sharaisga o'xshab tap-tayyor javoblar bilan yashaydigan odamlar yo'q emas.

1941-yil, 22-iyun. Murabbiyimiz Uzoqbergan og'a tushlik paytida meni yoniga chaqirib, cho'ntagidan ikki dona danak mag'zi chiqardi-da, birini o'zining og'ziga soldi, ikkinchisini menga uzatdi. Keyin og'zidagi danakni chaynab turib:

— Mazasi zo'r ekan! Seniki-chi? — dedi. Menga bergani achchiq ekan, rostini aytdim:

— Achchiq-ku!

U cho'ntagidan yana ikkita mag'iz olib, tag'in birini o'z og'ziga soldi, ikkinchisini menga uzatdi.

— Qara-ya, bu safar menga achchig'i tushibdi. Seniki-chi? — deb so'radi u.

Meniki mazali ekan, yana rostini aytdim:

— Bunisi shirin ekan.

U qo'lini yelkamga qo'yib:

— Hamisha mana shunday rostini aytish kerak. Endi suhbatimizni kechqurun davom ettiramiz, — dedi.

Tushlikdan keyin, uyqu oldidan u har doim yaxshi uxla deb ketardi. Bu galgi gaplari menga jumboq bo'lib tuyuldi. Palatkaga kirib, o'rnimga cho'zilib yotgan ko'yi redaksiyaning xatini qayta boshdan o'qib chiqdim. Keyin hozirgina vojatiy aytgan kolxoz raisi haqidagi hangomani eslab, voqeaning naqadar kulgili, latifanamoligini o'zimcha tasavvur qildim. Ikki mag'izning ikki xil ta'mini qayta tuygandek bo'ldim. Baribir hech nimaga tushunmadim. Yetakchimiz nima demoqchi?

Har kuni tushlikdan so'ng miriqib uxlardim. Bu gal nimagadir uxlolmadim. Xayol surib, o'ylanib yotaverdim. Kutilmaganda gorn sadolari yangrab qoldi. Favqulodda achchiq, alamli, odamni seskantirar darajada faryod bilan yangradi. Hayron bo'lib, yo miyam charchagani uchun menga shunday tuyulayaptimikin degan xayol bilan boshimni silkita-silkita apil-tapil kiyinib tashqariga chiqdim. Sport maydonchasida hamma tizilishib, qandaydir majlisga tayyor turishibdi. Hech nimaga tushunmay qoldim. Boshqa-

lar ham o'zim qatori. Shu payt lager boshlig'i kelib, bugun kechasi nemis-fashist bosqinchilari urush boshlaganini ma'lum qildi.

Hamma hang-u mang bo'lib qoldi. Mung'ayishlar, g'azablanishlar, ko'zyoshlar!..

Birinchi murabbiyimning nasihatlaridan:

1941-yil, 23-iyun.

— To'lepbergen, sen menga yoqib qolding. Ishonamanki, o'z orzuyingga erishish yo'lidagi mashaqqatlardan qo'rqmaysan. Men nasihat qilishni yoqtirmayman. Ayniqsa, senga aql o'rgatishning keragi yo'q. Lekin shu narsani hamisha yodingda tutki, ona tilimiz gavdamizni ko'tarib turgan ikki oyog'imiz, bizni olis-olislarga olib uchadigan qanotimiz.

Nemis shoiri Gyote bir odam nechta tilni bilsa, u o'shancha marotaba odam degan ekan. Bizning oz sonli xalqimiz shu aqidaga tayansa yomon bo'lmasdi.

Hozir men to'g'ri shaharga qaytib, harbiy komissariatga boraman. Frontga ketaman. Afsonalarga ko'ra, bobolarimiz Kiyev Rusining ozodligi yo'lida jang qilganlar. Men ham, sen ham bobolariga sodiq avlodmiz... Omon bo'l! Dushmanni yengib kelgach, seni o'zim albatta qidirib topaman. Tirishqoqliging menga ma'qul bo'ldi.

Aytganday, ikkovimiz dastlab tanishganimizda sen o'qib bergan "Qoraqalpoq xalqi" she'ring hali xomroq bo'lsayam, aytmoqchi bo'lgan gaping yaxshi edi. O'sha asaring ustida qunt bilan ishlasang (buning uchun bir umr kerak bo'ladi!), keyin uni "Qoraqalpoqnoma" deb nomlasa bo'lar deb o'ylayman.

Adabiyot deganimiz shunchaki afsonalar-u hikmatli gaplarning o'zigina emas, ularni yuzaga keltirgan shart-sharoitlarning, ularni yaratgan hayotning badiiy tasviri, demakdir.

Adabiyot — bu hayotiy tajriba!

Adabiyot — bu insoniyatning qo'shimcha ko'zi.

Adabiyot — inson tafakkurining qaymog'i.

Adabiyot — bu odamzodning quvonch-qayg'ulari, orzu-armonlarini avlodlardan avlodlarga yetkazuvchi xotira.

Adabiyot — bu zamon xotirasi, xalq xotirasi, odamzod tuyg'ularining xotirasi...

Ancha ushlanib qoldim, inim. Hali ko'p gaplashamiz. Eng muhimi — yozaver, tinmay yozaver! Yana bir gap: adabiyot hamma narsani bevosita o'zing o'qib-o'rganishni talab qiladi. O'qiyver, o'rganaver. Hamma narsani o'rgan, o'ylan, yoz!.. Ko'rishguncha omon bo'l, inim!..

U mening peshonamdan o'pdi-da, xayrlashib, shahar tarafga ildam yurib ketdi. Oyoqlarim yerga mixlangandek tek qotib turaverdim.

Bir payt otrad sovetining raisi qo'limdan yetaklab, oshxonaga olib kirdi. Ovqat yeyolmadim. Ko'nglim behuzur bo'laverdi. Tashqariga chiqdim.

Atrof jimjit. Uzzukun daraxt shoxlariga qo'nib chaqchaqlashadigan chumchuqlar ham bus-butun qirilib bitgandek, hamma yoq sassiz-sadosiz.

O'sha-o'sha, palatkaga ham kirmay, to'ppa-to'g'ri ovulga yo'l oldim. Tuni bilan yura-yura, tong bo'zara boshlaganda uyga yetib keldim.

— Kelib yaxshi qilibsan, — dedi bobom.

— Qorong'ida qo'rqmay shuncha joydan yolg'iz o'zing kelaverdingmi? — deb so'radi onam menga ham vahima, ham mehr bilan boqib.

Otam diydor ko'rishganimizdan mamnun bo'lib jilmaydi.

Momom quchoqlab ikki chakkamdan o'pdi.

Ukalarim xuddi baland toqqa qaragandek menga angrayishib qarashdi.

Bu holat ko'pga cho'zilmadi: yana har kim o'z tashvishi bilan mashg'ul bo'ldi.

Tushlikka yaqin onam ishdan kelib, rayon markazidagi MTSga, traktorchilar tayyorlash kursiga bormoqchiligini ma'lum qildi.

Otam kolxoz idorasiga borib keldi-da, xafa bo'lib, meni hozircha armiyaga olmas ekan, deya po'ng'illadi.

Bobom qariligi sababli ishlamasdi. Idoraga borib, boshliqdan eshak so'rab, kolxozda yuk tashuvchi bo'lishga kelishib qaytganini aytdi.

Momom kasalmandroq edi. Munkillab borib, onamning qozon-o'choq yonidagi o'rnini egalladi.

Tushdan keyin maktabga bordim, kolxoz chorvasiga yem-xashak tayyorlash uchun o'quvchilar brigadasi tuzilayotgan ekan, o'shanga yozilib qaytdim.

...Kechasi bilan lagerdan uyga qaytarkanman, shoir bo'lish endi menga nasib qilmaydigandek tuyulgan edi. Shu bir kun ichida ko'z oldimda ro'y bergan voqealar meni qattiq hayajonga soldi. Yangi she'r satrlari xayolimdan bir-bir o'taverdi. Tabiiyki, bu quvonchdan emas, qayg'udan tug'ilgan satrlar edi. Shuning uchun hech kimga o'qib bermadim. Qog'ozga ham tushirmadim. Lekin shoir bo'lish uchun hech nima to'sqinlik qilolmas ekan-da, deb o'ylab qoldim...

Kechasi chiroq yorug'ida birinchi murabbiyim Uzoqbergan og'a Bekniyozov aytib turib yozdirgan kundalikni bir chekkadan yana bir karra o'qib chiqdim...

Kun o'tgan sayin urush tufayli ro'y bergan besaranjomliklarga ham ko'nika bordik. Yigitlar kamayib, ularning har oqshom ovulimiz ko'chalarini yangratuvchi sho'x-shodon ovozlari eshitilmay qolgan bo'lsa-da, hayot o'sha-o'sha — o'z maromida oqayotgandek. Odamlarning bir-birlariga mehr-oqibati ham o'sha-o'sha, yo'q, aniqrog'i, yanada kuchaygandek. Har xil ginaxonliklar-u janjallar, g'iybat gaplar yo'q.

Hamma tong sahardan to shom qorong'usiga qadar paxta dalalarida o'z ishlari bilan mashg'ul. Ishga yaroqli odamlar, hatto kechalari ham qo'nim topmaydilar: oy yorug'ida bug'doy o'radilar, ekinlarni sug'oradilar.

Goho oy nurlari ostida she'r daftarimni qo'limga olaman. Maslahat beradigan murabbiyim yo'q. O'zim bilan o'zimman. Mana shunday oqshomlarda yana ikkita she'r yozib, redaksiyaga yuborganim esimda.

...Bugun meni shu narsa qattiq ajablantiradiki, odatda, "1941–1945-yillardagi urush" deb oppa-oson aytib qo'ya qolamiz. Go'yo shunchaki, oddiy bir faktni qayd etayotgandek. Ba'zi yoshlar esa o'z-o'zlariga yaratib olgan "mashaqqatlar"ni bo'rttirib ko'rsatib, Ikkinchi jahon urushi xususidagi har qanday gaplarni shunchaki odamni mahzun torttirish uchun aytilayotgan uydirma gap, deb xayol qiladilar. Bunday yoshlar ko'pchilik emas, lekin bitta

bo'lganda ham, urush davrining dahshatlarini boshidan kechirganlar uchun malol keladi.

Ne-ne qirchillama yigitlar urush tufayli qirchinidan qiyilib ketmadi. Avvallari hamma pochtachini besabrlik bilan kutardi. Bora-bora hadik-xavotir, qo'rquv bilan kutadigan bo'lib qoldi: goho pochtachi olib keladigan xatlardan ko'ra "qora qog'oz"lar ko'proq bo'lardi-da, axir.

Garchi, front ichkarisida o'qqa uchish xavfi bo'lmasa-da, ochlikdan, uyqusizlikdan o'lib qolish xavfi har bir odamning boshi ustida ko'rinmas qilichdek tahdid solib turardi...

...Kelgusi o'quv yilida beshinchi sinfda o'qish uchun ovuldan yetti-sakkiz chaqirim naridagi o'rta maktabga qatnashga majbur bo'ldik. Shuncha joyga qatnab o'qish malol kelmasdi-yu, lekin dars tayyorlashga vaqt qolmasligi chatoq edi-da. Chunki maktabdan to'ppa-to'g'ri paxtaga chiqamiz — dala shiyponida tushlik pishiriladi, ishlagan odamga bepul tushlik beriladi. Hozir eslasam, ochig'i, aql bovar qilmaydi: biron-bir o'quvchi muallimning uyga bergan vazifasini bajarishga vaqti yo'qligini bahona qilmasdi. Tarix, adabiyot singari fanlardan vazifani yurib ketayotib yo'l ustida o'qiganimiz mayli-ya, hatto matematika misol-masalalarini ham og'zaki, yodaki yechishga o'rgangan edik.

...Qish yaqinlashgan sari odatdagidek ovulda ish kamaydi. Qariyalar yana avvalgiday uyimizga tez-tez yig'iladigan bo'lishdi.

Qariyalar gurungidan: — Yigitlarimiz urushda yengib chiqisharmikin-a?

— "Yigitlarimiz" deganda qoraqalpoq yigitlarini aytyapsanmi?

— Yo'g'-e! Jamiki sovet jangchilari — bizning yigitlarimiz-da!

— Yo'lboshchining zo'rligi ham shunda — xalqlarni o'ziga do'stlashtira olishida-da, oqsoqol.

— Xalqning qudrati bo'lsa, uning bahamjihatligida, Vatanga sadoqatida.

— Shundayku-ya, biroq bu kasofat urush xalqning boshiga ko'-o'p qora kunlarni soldi-da. Oxiri baxayr bo'lsin ishqilib.

— Nachora, urush qurbonsiz bo'lmas ekan-da, oqsoqol. Biroq bir necha xonadonning baxtsizligi butun bir xalqning baxtsizligi emas. Xalq hech qachon baxtsiz bo'lmaydi.

— Har qalay, kuni Gitlerga qolgan nemis xalqining baxti qaro ekan.

— Yo'q, aslo xalqning emas, bu itvachchaning baxti qaro. Hali xalqning qarg'ishi bu qonxo'rni shunday xor qiladiki...

— Birodarlar, uzoqdagi Gitlerni qo'yib, o'z o'tmishimizni eslaylik. Qoraqalpoq xalqi tarixidagi yo'lboshchilar: Maman biy, Oydo's bobo, Ernazar olako'z — shu uchovidan qay biri baxtli, qay biri baxtsiz?

— Oydo's bobo xalqqa xiyonat qilgan. U xiyonatkor bo'lmaganida ikki o'g'lini Xiva xoniga qarshi jang qilishga yubormagan bo'lardi. Nima bo'ldi, ikkisi ham begunohdan begunoh o'ldi-ketdi.

— Ular qoraqalpoqlar ustiga bostirib kelayotgan xon navkarlariga qarshi jang qilib o'lgan. Hamma Oydo'sga o'xshab bolalarini jangga yuborganida edi, yurtimizni Xiva xoni o'ziga bo'ysundirolmagan bo'lardi.

— Oydo's bobo haqida har xil gap ko'p. Biz, baribir, kalavaning uchini topolmaymiz. Undan ko'ra Maman biy haqida gaplashaylik. Juda aqlli odam bo'lgan-da u! Xalqimizning chinakam xaloskori, yo'lboshchisi edi. Biroq avom xalq uni tushunib yetmadi, shuning uchun ortidan ergasholmadi. Ernazar olako'zni bo'lsa, xalqning o'zi yo'lboshchi qilib saylagan edi-yu, biroq u zamona zayli bilan hisoblashmay, oxir-oqibat yengildi.

— Menimcha, Oydo's bobo avom xalqni o'zidan ham balandroq ko'tarmoqchi bo'lgan edi, biroq uning xolis niyatini omi odamlar tushunib yetmadi. Oydo's boboni sotqin deyishlari uni tushunib yetmaganlikdan bo'lsa kerak.

— O'ylab qarasam, biz ham bir-birimizni tushunolmay qolyapmiz. Menimcha, nomi tillarda doston Maman biy, kuch aqlliga kerak, deb adashgan. Oydo's bobo, kuch ojizga kerak, deb adashgan. Ernazar olako'z esa, oz sonli xalqini kuchli bilib, kuch kuchliga kerak, deb adashgan.

— Hammasi bo'lmag'ur gaplar! Oddiyroq tilda gaplashaylik: ba'zilar kichik bir mahkamaga boshliq bo'lib qolsa, darrov ko'zini yog' bosib adashadi. Tag'in birovlar boshliq bo'lib qolsa, salgina kuchga duch kelar-kelmas esankirab adashadi. Har ikkisi baxtsizlik, qo'l ostidagi odamlarning sho'ri...

— Rahnamosi buzg'unchi yurt sho'rpeshana yurt. Bunday paytda: "Onangni qozi zo'rlasa, dodingni kimga aytasan?" qabilidagi maqol to'qishdan o'zga chora qolmaydi.

— Xalqqa rahnamo bo'lish — odamning vaqti-vaqti bilan kiyimini almashtirib turishidek gap. Biroq... qani endi rahbar odamning ko'ngli toza, niyati xolis bo'lsa. O'z xalqini sevsa, unga g'amxo'rlik qilsa! Ana o'shanda xalqi ham uni uvadasi chiqqan chopondek bir chekkaga uloqtirmaydi.

— Yoz chillasida oldinda kuz-u qish borligini, qish chillasida oldinda bahor-u yoz borligini o'ylamaydigan rahbarlar ham bo'ladi. Bunday burnining tagidan narini ko'rolmaydigan kaltabin rahbarlar bizda ham yo'q emas.

— Chinakam rahbarning ishi — xalqidan yaxshilik kutish emas, xalqiga yaxshilik qilish bo'lishi kerak.

— Odamni fikrlashga undamaydigan boshliq ham, boshqalar fikri bilan hisoblashmaydigan boshliq ham yaxshi rahbar bo'lolmaydi.

— Yo'lboshchimiz Stalinda qanday kamchiliklar bor deb o'ylaysizlar?

Kutilmaganda dasturxon ustida bomba portlagandek bu savoldan hamma dahshatga tushib, yonboshlab yotganlar o'rnidan sapchib turdi. Turganlar xayr-ma'zurni nasiya qilib, tashqariga — qahraton sovuqqa o'zlarini urdi. Ko'z ochib yumguncha uyda hech kim qolmadi.

Shundan keyin uyimizga qariyalar yig'ilmaydigan bo'lishdi. Bobomning ham ularni yig'ishga ishtiyoqi qolmadi. Bu hol meni qattiq xafa qildi: qariyalarning har bir gurungi men uchun yangi kitob o'qish bilan barobar edi-da, axir. Endi... Uydagi bitta dostonni yod bilaman. Boshqa qoraqalpoqcha badiiy kitob yo'q. Ma'lum bo'lishicha, "Qoraqalpog'iston adabiyoti va san'ati" jurnali bi-

lan "Jetkinshek" gazetasi yopilib qolibdi. Ahyon-ahyonda "Qizil Qoraqalpog'iston" gazetasi kelib turadi. Hafta sayin bir she'r yozib, shu gazetaga yuboraman — na bosiladi, na rad javobi keladi. Maktabdagi o'zim yaxshi biladigan muallimlar frontga ketgan. Qolganlari o'quvchilarga avvalgidek talablar qo'yaverishmaydi.

Kechqurunlari bolalar oshiq o'ynagani chaqirib kelishadi. Men chiqmasam — oshiq o'yini bo'lmaydi. Sababi: chiroq yog'ini topa oladigan odam yolg'iz o'zimman. Onam traktorchi emasmi, uydan bir shisha yog' olib chiqish menga cho't emas. Endi "shoir" degan laqabning yoniga "chiroqchi" degan yana bir laqab orttirganman.

— "Shoir", "chiroqchi" degan so'zlarning aslida ma'nosi bir. Qadimdan odamlar shoirlarni charog'bon deb bilganlar, — deydi bobom.

— Tengdoshlaring hamisha kerak bilib, seni qidirib kelsalar, o'zing uchun ham, biz — ota-onalar uchun ham zo'r baxt shu! Hamisha charog'bon bo'lib, odamlarga nur ulashib yasha iloyim! — deb duo qiladi otam.

Afsuski, charog'bonligim ko'pga cho'zilmadi.

Qish kunlaridan birida ovuldagi maktab yo'lagida talaygina bolalar yig'ilib oshiq o'ynayotgan edik. Eshik ochiq edi. Kutilmaganda eshik qarsillab yopildi. Hammamiz yalt etib qaradik: eshik oldida ikki erkak, bir ayol bizga darg'azab tikilib turibdi. Uchalasining qo'lida bittadan tayoq. Chirog'imni balandroq ko'tarib qarab, bazo'r tanidim. Erkaklardan biri Qolxon degan bolaning otasi (Qolxon og'a hozir Xo'jayli rayonidagi "Toshkent" sovxozida paxtachilik brigadasining boshlig'i), ikkinchisi O'rozimbet degan bolaning otasi (O'rozimbet og'a hozir "Toshkent" sovxozida suvchi), ayol esa Turg'anbek degan bolaning onasi (Turg'anbek og'a hozir "Qoraboyli" ovulida sotuvchi). Oy yorug'ida eshik oldini qoplab uchovlonning oralarida hosil bo'lgan nurli tirqishga dastaval Turg'anbek o'zini urdi-yu bir zumda qochib qutuldi. Ortidan boshqa bolalar ham zipillab qochib chiqaverishdi. Eshik oldidagilar sermagan tayoq qay biriga tegadi, qay biriga tegmay qoladi. Bir payt tavakkal deb men ham o'zimni eshikka urdim. Biroq qo'limdagi chiroq pand berdi shekilli, ostonaga surinib yiqilsam bo'ladimi! Kimdir sermagan tayoq o'zimga emas, chirog'imga te-

gib uni chil-chil qilgan edi. O‘rnimdan turdim-u, ortimga qaramay to‘ppa-to‘g‘ri uyga quyundek uchdim.

— Ha, qalaysan, qo‘lga tushdingmi? — deb so‘radi bobom miyig‘ida kulib.

— Ular avval... uyga kelishganmidi? — deb so‘radim men ham bobomga ginali qarab.

— Charog‘bonsiz oshiq o‘ynab bo‘lmasligini kim bilmaydi deysan? Albatta, avval bu yerga kelishdi. Biroq men qayerdaliklaringni aytmay aldab yuborgan edim, — deya o‘zini oqlagan bo‘ldi bobom.

Shu orada “izquvarlar” uyimizga ham yetib kelishdi. Ularning meni ayamay uradigan vajohati bor edi, bobom o‘z himoyasiga olib, vaziyatni yumshatishga tushdi:

— Bir safar kechira qolinglar. Endi bu tentakka chiroq ushlatmaganim bo‘lsin, — dedi.

— Xo‘sh, kelin-chi, kelin nima derkin? — Ular baravariga onamga qarashdi.

— Yog‘ traktorgayam kerak. Uning qadri o‘zimgayam ma’lum, — dedi onam bir menga, bir “izquvarlar”ga ma’noli qarab.

Ular:

— Agar shu hol yana takrorlansa, ayab o‘tirmaymiz, — deya menga po‘pisa qilib, birin-ketin chiqib ketishdi.

Ertasi bilsam, Qolxon otasi minadigan otning boshiga yem-to‘rvani ilib qo‘yibdi-yu, oshiq o‘ynagani chiqib ketaveribdi. Bir mahal otasi tashqariga chiqsa, ot yemini yeb bitirgach, bo‘sh to‘rvadan qutulish uchun uni tuyoqlari bilan ezib-yanchib, tilka-pora qilib tashlabdi.

Turg‘anbekning onasi sigirini sog‘ib bo‘lib, qo‘shnisinikiga chiqayotganida o‘g‘liga, buzoqni sigirdan ajratib bog‘lab qo‘yarsan, deb tayinlagan ekan. U esa unutib, oshiq o‘yiniga jo‘nayveribdi. Onasi allamahalda qo‘shnisikidan qaytib kirsa, buzoqcha o‘ynoqlab og‘ilxonadan chiqib ketganmish-u, tashqarida, qahraton qish sovug‘ida serrayib o‘lib qolganmish.

O‘rozimbetga otasi qishki yaxob yaxshi bo‘ladi, tomorqaga suv ochib, to‘lganida bog‘lab qo‘y, degan ekan. Ularning uylari oldidan kattakon ariq o‘tar edi. Odatdagidek, qish payti odamlar

foydalanmasligi uchun ariq to'la suv oqib yotgan ekan. O'rozimbet tomorqalariga suv o'tadigan quvurni endigina ochganida oshiq o'ynovchilarning baqiriq-chaqiriqlari eshitilibdi-yu o'sha yoqqa yugurib ketaveribdi. Suv tomorqani to'ldirib uy bo'sag'asiga kelganida otasi ko'rib, quvurni bekitar-bekitmas, O'rozimbetning adabini berib qo'yish uchun uyimizga qarab yuguraveribdi...

Bu mojarolar ham kulgili, ham achinarli bo'lsa-da, ota-onalarning o'z bolalarini jazolash o'rniga bizning uyimizga dag'daga qilib kelganidan norozi bo'lgan edim:

— Jangda ham yov avvalo bayroq ko'targanni otadi,— deya meni yupatdi bobom. — Chiroq ko'targan sen-ku, axir!

— Yashin eng baland daraxtga tushadi, — dedi momom.

— Ko'pchilikka qalqon bo'lib, ular uchun kaltak yeyish ham baxt, —dedi onam.

5

Muhabbat ezgulikning ibtidosi. Bu ibtidoning kimda qanday o'sib-unishi tarbiyaga bog'liq.

Chin dildan sevish-sevilish har bir odam bolasining muqaddas orzu-armoni. Chin muhabbat tabiat odamzod uchungina ato etgan ikkinchi quyosh: u odamning dilini kunduzdek munavvar qilib turadi. Ikki quyoshdan nur emib yashash naqadar ulkan baxt! Axir, adashmaslikning birlamchi sharti yorug'lik, ziyo...

Garchi, frontdan bot-bot shum xabarlar kelib tursa-da, ovul odamlarining mehnati kun sayin og'rlashib borayotgan bo'lsada, hayot, baribir, avvalgidek shitob bilan oqib o'taverdi. To'g'ri, endi "Choy ichish" tantanalari deyarli bo'lmasdi-yu, biroq qizlar hamon uyimizga kelib turishardi. Farqi shundaki, endi uzoq o'tirisholmaydi. Ko'pincha, kechalari kelishadi, onam bilan suhbatlashishadi, hasratlashishadi. Ayrimlari ammamga o'xshab maktabda tuzukroq o'qiyolmagan, jang maydonidagi yigitidan olgan xatini o'z inilaridan yashirib, menga o'qitish, javob xati yozdirish uchun keladi. Sababi, ular menga o'rganib qolishgan. Buyog'ini so'rasangiz, ishonchliroqman, onam qattiq tayinlagan gapga og'ishmay amal qilaman — hech birining yurak sirlarini birovga oshkor et-

mayman. "Osti — yer, usti — tepki" bo'lishini kim ham istardi axir.

Uyimiz dahlizsiz birgina xona, biroq o'tovimiz ham bor. Qizlar kelganida bobom bilan momom qo'shnilarnikiga chiqib ketadi. Yoki (ko'pincha, shunday bo'ladi) onam ikkovimiz o'sha qiz bilan qish payti sovuq o'tovga, yoz payti, aksincha, dimiqqan uyga kirib gaplashamiz. Goho bobom bilan momomning oldidayoq gaplashaveramiz. Chunki uyimizda birovning gapini boshqaga aytadigan chaqimchiyam, g'iybatchiyam yo'q.

Qizlarga kelgan xatlardan: "Ko'p yozuvchilarning asarlarini o'qib, o'ylab qarasang, muhabbat hayot chirog'i ekan, degan xayolga borasan. Kim qorong'ulikdan chiroq tomonga yursa adashmaydi. Kim yorug'likdan zulmatga qarab yursa, qoqilib-surinaveradi... Meni ziyo bo'lib kut, sevgilim!.."

* * *

"...Men senga muhabbat izhor qilganimda nima deganing esingdami? Aytgan edingki, bu olam pok muhabbatga suyanib turibdi. Chin muhabbat — dunyoning ustuni. Aldoqchilar bu dunyoning ustunini kemirayotgan qurtga o'xshaydi. Biz bir-birimizni aldadikmi, tamom, boshqalar ham bizni alday boshlaydi. Qarabsanki, dunyoning ustuni yemirilib bitishi hech gap emas. Kel, biz ikkimiz dunyoning ustuniga posbon bo'laylik, degan eding. O'shanda sen menga haddan ziyod aqlli tuyulib, "Bu qizga bas kelgudek aqlni qayoqdan olaman?" deb qo'rqqan, shuning uchun sendan yiroqlashgan edim. Nachora, endi o'sha qo'rqoqligimdan pushaymonman. Faqat sen: "Keyingi pushaymon o'zingga dushman", dema, jonim! Endi aqlim kirdi, shekilli-da. Muhabbat Odam Ato-yu Momo Havo bilan baravar dunyoga kelgan sirli-sehrli qudrat ekan. Seni sog'inib..."

* * *

"...Sevgilim! Xatim beo'xshov bo'lsa, kechirasan. Qiz zotiga birinchi marta xat yozishim, Xudo haqqi! Ovulimizdagi To'liboy og'a "Qoraqalpoq yigitlari to'rt xil bo'ladi. Biri "qarsak", ikkinchisi "borsak", uchinchisi "tulki", to'rtinchisi "kulki", derdi. "Qar-

sak"lar bir so'zli: o'z muhabbatini hech kimga oshkora qilmayoq murod-maqsadiga yetishadiganlar. "Borsak"lar qizlarni orqavarotdan kuzatib-sinab, unisi bilan gaplashsammikin, bunisi bilanmi deya o'ylanib-ikkilanib yura-yura muhabbatini qo'ldan boy berib qo'yadiganlar. "Tulki"larning xatti-harakati rostakam tulkilarga o'xshaydi — aldamchi bo'ladi. "Kulki"lar esa, hali erishmagan muhabbatini duch kelganga maqtana-maqtana o'zining ham, muhabbatining ham masxarasini chiqarib yuraveradi. Men hozir sovuq okopda xayol surib o'tirib, o'zimning "borsak"lardan bo'lganligimga iqrorman. Meni kut, ovulga borgan zahoti "qarsak"ka aylanganim bo'lsin!..".

Onamning qizlarga nasihatlaridan: Muhabbat ikki odamning bir o'choqqa olov yoqishi. Ikki tomondan biri ko'ngilsiz bo'lsayam o'choqda o't yonmasdan burqsiyveradi. Burqsigan o'choqning tutuni ko'zlardan yosh chiqaradi. Muhabbat o'chog'i lovullab turibdi, deb g'aflatda qolish ham xavfli — o't sachrab, yuzingni kuydirishi mumkin. Yuzi qora odam boshqalar e'tiboridan qoladi. Muhabbat olovini ehtiyot bo'lib yoqish kerak.

* * *

Muhabbatning ko'zi ko'r bo'ladi. U sevgan odamingning nuqsonlarini ham fazilatdek ko'rsatadi.

Yuragiga emas, ko'zlariga ko'proq ishonib qolgan odamning gul deb xayol qilgani goho chaqirtikanak bo'lib qo'llarini qonatadi. Shuning uchun har bir odam muhabbatda, ko'zlarim aldamayaptimikin, deb o'ylab ko'rishi kerak.

* * *

Har kim har xil umr kechiradi. Er-xotinlarning bir-birlarini tushunishi muhabbatga hokim bo'lish degan so'z. Biroq hamma bir-birini tushunib yashaydimi? Muhabbatga qul bo'lib qolganlar yo'qmi? Bundaylar uchun, yaxshiyamki, xalqda urf-odatlar bor, yo'qsa...

Muhabbat qo'nimsizlik, yengiltaklik emas. Unga sabot-matonat tog'idan oshib, hijron sahrosidan kechib, zahmat-mashaqqat ummonidan suzib o'tganlargina erisha oladi.

Shu mashaqqat-zahmatsiz hayotning qizig'i ham qolmasdi. Agar hamma muhabbatga osongina erishaverganida, odamlar undan ham zo'rroq narsani qidirishga tushib qolar edi...

Qizlarning yigitlarga xatlaridan: "...Sen muhabbatni lovullab turgan olovga o'xshatganingda gaplaringga ishonmagandim. O'zing bilasan, onam qazo qilganiga yaqinda bir yil to'ldi. Otam mendan uch yoshgina katta bir ayolga uylanmoqchi bo'ldi. Qizi qatori ayolga uylanish uyatmasmi? Men uni qanday qilib "ona" deyman? Shuning uchun: "Ota, umrning bahori tugul yozi-yu kuzi o'tib, oldingizda qishi turganida, uylanishning nima keragi bor?" deb so'rasam, otam: "Qizim, muhabbat — olov. Olov odamga qishda kerak-da", dedi.

Ana shundagina sening haqligingga iqror bo'ldim, shunqorim! Kutaman...".

* * *

"...Bir gal shom qorong'isida yurgan edim, ortimdan qandaydir shu'la tushib, ro'paramda soyam paydo bo'ldi. O'z soyamga surinib yiqildim. O'shanda beixtiyor: "Har kimning o'z muhabbatiga qilgan xiyonati soyasi, qachonlardir ro'parasidan chiqadi-da, odam unga surinib yiqiladi", deb o'ylab qoldim.

Yana birda ikki yorug' shu'laning o'rtasida turgan edim. Qarasam, soyam bitta emas, ikkita. Yurolmay qoldim. O'shanda seni ham esladim, menga yozgan xatingning bir nusxasi B...da yurganini esladim. Ota-bobolarimiz aytgan "Ikki kemaning boshini ushlagan g'arq bo'ladi", degan hikmatli gapini esladim.

Afsuski, bu yerdan olisda, frontda yurtni sog'inib yuribsan. Bo'lmasa: "Ayrim yigitlarning muhabbatida eng uzoq bobokaloni maymunning fe'l-atvori haligacha saqlanib qolayotganidan xafaman", degan gapni yuzingga aytgan bo'lardim...".

* * *

"...Bu dunyoga kelgan har bir odam muhabbatni o'zicha yangilaydi, o'zicha tushunadi", deganlari to'g'ri. Bu gapning to'g'riligini dalillovchi ne-ne kitoblar yozilmagan!

Sharqda mashhur "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin" dostonini esla. Naql qilishlaricha, Majnun Layli bilan uchrashuvga va'dalashib, shartlashilgan joyga borib turgan ekan. Layli qanday-dir tashvishlar bilan bo'lib va'dasini unutib qo'yibdi. Oradan yetti kun o'tib zarur bir ish bilan ketayotganida soch-soqoli o'sib ketgan Majnunga to'qnash kelibdi. "Nima qilib turibsan?" deb so'rabdi Layli. O'shanda Majnun yetti kundan beri kutib turganini pisanda qilmay, u bilan uchrashish umidida hozirgina kelganini aytibdi... Farhod bo'lsa, arman qizi Shirinning muhabbatini qozonish uchun tog' qo'porib, ariq ochibdi. Chida!..".

* * *

Bu dunyoda odam bolasi hamma narsaga ko'nikaverarkan. Boshga tushganni ko'z ko'raverarkan. Qirg'in-barot urush avjida. Yigit yoshiga yetganlar oy sayin armiyaga ketib turibdi. Kelayotganlar kamdan kam. Ular ham ishga yaroqsiz mayib-majruhlar. Ovulda turmush og'irlashgani bilan hamma ishlar o'sha qolipda: paxta yetishtirish rejasi o'sha-o'sha, bug'doy va boshqa donli ekinlar rejasi ham o'sha-o'sha; hatto urush arafasidagidan ko'p bo'lsa ko'pki, oz emas...

"Bir kasallik boshqasini yetaklab kelaveradi", deydi tabiblar.

"Kulfat kelsa — qo'shaloq keladi", deydi qariyalar.

Ovulimizda tog'ni ursa talqon qiladigan bo'z yigitlar qolmagani kamdek, 1942-yilning yozida Amudaryo o'zining asriy o'zaniga sig'may, biz tarafga urib ketgani haqida shumxabar tarqaldi. Bu barchani tahlikaga solib qo'ydi. Tahlikadan nima foyda? Xavf-xatarning oldini olish kerak! Kolxozimiz raisi ayni tush payti besh-olti qariya bilan men tengi bolalarni to'plab, kech-qurunga qadar yo'lga oziq-ovqat hozirlashni tayinladi-da, ertasiga tong-sahardan daryo toshqinini to'xtatishga borajakligimizni aytdi. To'g'ri yo'lni suv bosib ketgani sababli aylanib, yo'lda bir oqshom tunab, daryo yoqasiga yetib kelsak, harasot odam. Aksariyati o'zim tengi bolalar, qariyalar, ayollar. Uzunligi o'n ikki-o'n uch metrli omonat so'ri ustidan bizlarga ham yashash uchun joy tegdi. Shu yerga narsalarimizni qo'ydik. Bobomni poyloqchi qilib qoldirdik-da, boshqalarimiz barjaga chiqdik. Barja

bizlarni daryoning narigi qirg'og'idagi qalin chakalakzor yoniga olib borib suvga tushirdi. Boshi-oxiri yo'q chakalakzorni ko'rib, avvaliga yuragimiz dov bermayroq turdi-yu, suvga tushgach ko'nikay dedik. Tumonat odam toshqin suvni kechib shox-shabba kesayapti. Bizlar bilan kelgan qariyalar, ayollar ham boltalarini qo'lga olib, daraxt kesishga tushib ketishdi. Biz bolalar bo'lsak, ular chopgan tolchiviqlarni suv ichida sudrab borib barjaga yuklashga kirishdik. Barja to'lgan zahoti kichkinagina kema uni suv urgan tarafga sudrab ketadi-da, bo'shagach, yuqoriroqdan aylanib qaytadi. Shu alfozda dam ko'krakdan, dam bo'g'izdan keladigan suvdan chiqmay, qosh qorayguncha ishlab, yana o'sha barjada bobom qolgan yerga qaytib bordik. Bobom har kim o'zi bilan olib kelgan ko'rpa-to'shaklarni bir chekkadan yonma-yon to'shab, choy qaynatib, bizlarni kutib o'tirgan ekan. Birinchi kuni — cbdan charchagan emasmizmi, ertaroq yotdik. Tunga yaqin bu chor tarafi ochiq, omonat boshpanaga ilon-u qurbaqalar to'lib ketar ekan. Bobom qo'liga tayoq olib tuni bilan shartillatib yer savalab, tevaragimizda gir aylanib chiqdi...

Tong bo'zarmasidan kema qo'ng'irog'i hammamizni uyg'otdi. Qarasak, tevaragimizda uzik-uzik ipday bo'lib son-sanoqsiz ilonlar o'lib yotibdi. Ulardan qo'rqib o'tirishga ham vaqtimiz yo'q edi. Tushlik chog'i yeydigan nonlarimizni olib, apil-tapil barjaga chiqdik. Yana kechagiday ish boshlandi. Tag'in qorong'i tushganda "boshpanamiz"ga qaytdik. Tag'in choy ichib, non chaynab, uxlagani yotdik. Tag'in bobom tuni bilan posbonlik qilib, bizlarni gir aylanib ilon-u qurbaqalardan qo'riqlab chiqdi. Tongda yana bizni kema qo'ng'irog'i uyg'otdi. Hayot charxpalagi shu tarzda aylanaverdi...

Shoir bo'lish uchun hayotni o'rganish kerak, degan o'gitlar xayolimga ham kelmaydi. Nazarimda, hayotni o'rganayotganga emas, yashayotganga o'xshayman. Biroq she'r yozolmayman. Kuni bilan suvda yurib charchaganlikdanmi, kechqurun to'shakka yonboshim tegdi deguncha toshdek qotaman. Tong-saharda esa qo'ng'iroq tovushi uyg'otadi...

Oradan o'n kuncha o'tganda, chopilgan tollarni yana olib ketish uchun kelayotgan barjada ittifoqo bobom ko'rindi. Nimagadir

qo'lini baland ko'tarib olgan. Zehn solib qarasam, qo'lida allaqanday konvert!

— To'lek, senga, bolam! Oshpaz olib keldi! — dedi.

Sudrab kelayotganim bir quchoq tolchiviqni barjaga irg'itdim-da, bobom uzatgan konvertni shosha-pisha qo'limga oldim. Manziliga qarasam, redaksiyadan!

— Redaksiyadan! — dedim hovliqib.

Konvert qalingina edi. O'zimcha "Bir she'rim gazetada bosilib, o'shani yuborishgan bo'lsa-ya!" deya orziqib, bu mo'jizaga dam ishonib, dam ishonmay konvertni yirtdim-da, ichidan xatni chiqardim. Avvaliga ichimda o'qiy boshladim.

Redaksiyadan xat: Hurmatli To'lepbergen! Yuborgan xatlaringni peshma-pesh olib turibmiz. Biroq yaroqli she'r topolmayapmiz. Shuning uchun redaksiya nomidan senga bir hikoyat yuborishni ma'qul ko'rdik. Diqqat bilan o'qi. Qayta-qayta o'qi!

Ashaddiy bir kissavur bo'lgan ekan. Kunlardan bir kuni dabdurustdan insofga kelib: "Shu yaramas kasbni tashlaganim bo'lsin!" deb qasam ichibdi. O'shandan keyin bozor oralab yursa, qovoq sotib o'tirgan bir anqovning cho'ntagidan o'n so'mlikning uchi chiqib turganmish. Olay desa qasam ichgan. Olmay desa ko'z oldida tayyor o'lja turibdi. O'sha odamning yoniga ikki marta borib, ikkalasida ham bazo'r fikridan qaytibdi: "omon-eson" o'tib ketibdi. Uchinchi marta o'tayotib qarasa, o'n so'mlik pul o'sha alfozda turganmish. Pul egasining oldiga borib, uning quloq-chakkasiga tarsaki tortib yuboribdi. Qovoqfurush: "Iye, nega urasan?" deya o'g'rining yoqasidan olgan ekan, u: "Bo'lmasa nega o'zing pulingni ichkariroq tiqib qo'ymaysan, ablah, naq bo'lmasa qasamimni buzishimga bir bahya qoldi-ya", debdi.

Mabodo sen she'r yozishni qo'yib, boshqa ish bilan shug'ullansang, qasaming buziladimi?

Salom bilan, "Qizil Qoraqalpog'iston" gazeta redaksiyasi.

* * *

Bobom avzoyimdan qanday javob olganimni fahmlagan bo'lsa kerak, barjadan suvga sirg'anib tushdi-da:

— Yur, bolam, odamlar ishlayapti. Sen andak hayallab qolding, shuning hissasiga yordamlashay, — dedi.

Mening bo'g'zimga keladigan suv bobomning yarim beliga yetdi. U ertalabdan beri tinim bilmay, dam-badam peshona terlarini sidirib, xuddi tolchiviqda qasdi bordek betinim ishlayotgan bir ayolning qo'lidan boltasini olib tol kesishga kirishdi. Bobom hali baquvvat ekan. Anovi ayol ikkovimiz uning kesganlarini bazo'r barjaga tashib ulgurardik. Biroq, har qalay, redaksiyaning xatini bobomga sezdirmay konvert-ponverti bilan g'ijimlab suvga otishga vaqt topdim. U olabo'tana suv sathida ko'pikday oqargancha oqib ketdi.

O'sha kuni bobomdan qolishmay jon-jahdim bilan ishlab, qattiq charchagan bo'lsam-da, kechqurun to'shakka kirgandan so'ng har kungidek darrov uxlayolmadim: suv yuzida ko'pikday oqib ketayotgan o'sha konvert ko'z oldimga kelaverdi.

Otam aytgan afsona: Odam Ato o'z avlodlariga yer taqsimlab yurib, ulkan bir daryoga ro'para kelibdi. Daryodan o'tish uchun uning chuqurligini bilish kerak bo'libdi. Odam Atoning bir o'g'li otasining xayolidan kechganini hali u aytmay turib fahmlabdi-da, o'zini daryoga otibdi. Biroq shu kalla tashlaganicha suv yuzasiga qaytib chiqmabdi. Allamahalda qalpog'i suv yuziga qalqib chiqib chayqalgancha oqib ketibdi.

Odam Ato o'ylanib turibdi-da:

— Anovi qora qalpoqning egasidan qolgan bolalar bo'lsa, chaqirib kelib, shu daryoning quyi qirg'oqlariga qo'nim toptiringlar, — deb yer o'lchovchilarga buyruq berganmish.

Ana o'sha daryo — Amudaryo ekan...

* * *

Men suvga otgan konvertni bobom ko'rib qolgan, shekilli-da. Biroq bobomning o'zi bu haqda gap qo'zg'amadi, men ham indamadim. Lekin shunday bir alamli o'ylar xayolimdan kechdi: "Bundan keyin ham manovi daryo dunyoga qing'ir qarashlarni, odam bolasining yuragiga o'qday qadaladigan tahqiromuz fikrlarni, palid so'zlarni po'kakdek oqizib ketadigan daryo bo'lib

qolaverarmikin yo mana shularday xor-xaslar bilan to'lib, oqmay qolarmikin?..

Onamning nasihatlaridan: Nortuya bo'talog'ini iyagi bilan o'ziga tortsa — suygani.

Odam birovga rost gapni qamchidek siltasa — suygani.

Otalarcha hikmatga qarshi nodonlargina musht ko'taradi.

Otamning nasihatlaridan: Yoshlik bor joyda qarilik bor, donolik bor yerda nodonlik bor.

Uyning issiq-sovug'i qish tushganda bilinadi.

Nuqsoningni topib aytgan odam bilan o'chakishish nodonlik.

Aybing borligini bo'yningga ol-da, uni tuzatishga harakat qil!

6

Mutaxassislarning e'tirofiga ko'ra, Amudaryo dunyodagi eng tezoqar daryolardan ekan. Urush keltirgan kulfatlar ozdek, daryo toshqini ovulimizga qo'shimcha ofat bo'ldi. Ko'pgina ovullar qatori bizning ovulimiz odamlari ham o'zlarining asriy makonlaridan judo bo'ldilar. Ovulimiz o'sha 1942-yilning avgustida toshqin suvga g'arq bo'lib, ovul ahli o'n besh chaqirimcha naridagi Obodyormish degan arna bo'yiga ko'chdi. Hosili yetilib turgan ekinlarimiz suv ostida qolib ketdi.

Sentabrdan boshlab o'qiydigan maktabimiz bo'lmagani uchun hozircha yuqori sinf bolalari boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berib turishimiz haqida ko'rsatma oldik. Ya'ni vaqtinchalik muallim bo'lib qoldik. Muallimlik qilish bilan qish ham o'tdi.

1943-yilning fevralida ovul ahli ko'hna Cho'rtanboy bo'yiga ko'chirildi.

Ikki-uch kun ichida har bir oila o'ziga yerto'la qazib joylashdi-da, kolxozning yarim aholisi yangi yer ochishga kirishib ketdi. Qolgan yarmi yigirma chaqirimcha naridan ariq qazib, suv olib kelishga otlandi.

Ovulimizdan mening otam (u kishi 1908-yilda tug'ilgan) tengi yetga-sakkiz odamni shu paytgacha nega armiyaga olishmayotganini endi tushundim. Ular kuch talab qiluvchi og'ir ish — yangi

kanal qazishga jo'natildi. Kolxozning o'zim tengi bolalari ham ularga qo'shildik. Bizlar ham ish berishimiz mumkin edi-da.

Suv toshqini tufayli boshpanasidan judo bo'lganlar birgina bizning ovul ahli emasdi. Yangi kanal qazishga Cho'rtanboy yoqasidagi to'qayzorlar orasida makon qurgan yangi ovullarning hammasidan odamlar kelishdi. Ularning yarmidan ko'prog'i yosh-yosh kelinchaklar, qizlar, bolalar edi.

Shunday qilib, kanal o'sha 1943-yilning ko'klamida qazib bitirildi va ekinzorlarga qadar yangidan ochilgan ariqcha-yu otizlarga suv yetkazib berildi.

Shu kanalni qazish ishlarida men ham otam bilan birga bir yarim oy qatnashdim. Yangi ariq boshlangan yerdagi ovulning har bir xonadonida qazuvchilar yashaydi. Ovulimiz odamlari esa, kolxoz otxonasini epaqaga keltirib, o'sha yerga joylashishdi. Meni shu narsa hali-hanuz qoyil qoldiradiki, hammamiz bir boshpanada yagona oila a'zolaridek nihoyatda ahil yashadik. Katta yoshdagi kishilar: "Bolalar, o'qishlaring to'xtab qolganiga o'ksinmanglar, hali hammasiga ulgurasizlar", deb bizlarni yupatishardi. O'z navbatida bizlar: "Tongotardan kunbotargacha ketmon chopganlaringiz kamdek, tushlik paytida, nonushtaga qadar harbiy mashqda yurib, sizlarga og'ir bo'ldi-da", deyishib, ularga rahmdillik qilamiz.

Kechqurunlari odamlarning nafasi bilanoq yotoqxonamiz isib ketadi. Ovqat yeb bo'lgan zahoti hamma o'zini to'shakka uradi. Lekin darrov uxlab qoluvchilar kam bo'ladi. O'zaro gurunglar boshlanib ketadi. Har xil hangomalar, afsonalar aytiladi. Frontdagi jangchilardan kelgan xatlar o'qiladi. Chiroq o'chirilgandan keyin ham o'zaro suhbatlar davom etib, kim gaplashgisi kelsa gaplashib yotaveradi, eshitgan eshitaveradi. Uxlagan uxlayveradi. Biroq oqsoqollarimiz frontdan kelgan ayrim qayg'uli, mung-hasratga to'la xatlarni uyqu oldidan o'qishni taqiqlab qo'yardilar. Mabodo o'jarroq birov norozilik bildirsa, unga oqsoqollardan biri: "Uxlayolmasang, tashqariga chiqib yot, yoki bo'lmasa, manovi bolalarga maktab ochib, o'qit!" deydi, tamom! Bunday gapga e'tiroz bildirib ko'ring-chi!

Uyqu oldidagi savol-javoblardan: — Ko‘p bo‘lsa qadri yo‘q narsa nima?

— Suv.

— Yo‘q bo‘lsa, odam bor bud-shudiga almashtirib olgisi keladigan narsa-chi?

— Suv.

* * *

— Eng yaxshi odat kimning odati?

— Eng yaxshi odat xalqning odati.

— Eng yaxshi kiyim kimning kiyimi?

— Boshliqning kiyimi.

Bu javobni shart kesamiz:

— Yo‘q, eng yaxshi kiyim — xalq kiygan kiyim!

* * *

— Qaipbergen, to‘ng‘ich o‘g‘lingdan uyalmay rostingni aytchi, sen jufti halolingga dastlab qanday gul taqdim etgansan?

— Paxtaning gulini.

Gurra kulgi ko‘tariladi.

— Kulmanglar, yigitlar! Bu dunyodagi eng bebaho gul — paxtaning guli. U kiyimga aylanadi. U hozir nemis-fashist gazandalariga qarshi o‘q-dori ham bo‘lyapti. Mana shu bizlar qaziyotgan ariq bitsa, suvi dastavval paxta dalasiga ochiladi.

* * *

— Yigitlarga yana bir savol: Agar birovingiz ertaga shoir bo‘lib uyg‘onsangaz, qanday she’r yozardingiz?

— Men “Gitlerga o‘lim!” degan she’r yozardim.

— Men “Ariq qazuvchilar” degan she’r yozardim.

— Men “Ona” degan she’r yozardim.

— Men “Mahmadonalar” degan she’r yozardim.

Kimdir piqirlab, kimdir xaxolab kuldi. Nihoyat, hamma jimib qoldi.

— Xo‘sh, o‘zing shoir bo‘lsang, nima haqda she’r yozar ding? — dedi yo‘g‘on tovushli odam dastlab savol bergan odamga.

— Men "Ayollar" degan she'r yozgan bo'lardim.

— Nega?

— Nega?! — so'radi hamma yana allanechuk jonlanib; kimdir orziqib, kimdir kinoyali iljayib, kimningdir hafsalasi pir bo'lib.

— Negaki, ayollar bo'lmasa, hayot to'xtab qolardi.

Har kim o'zicha xayol daryosiga sho'ng'idi.

* * *

— Kuch nimada?

— Birlikda.

— Yana nimada?

— Yana birlikda.

— Odamni boshqalarga yaxshi ko'rsatadigan ikki a'zoning nomini kim biladi?

— Men bilaman. Odamni boshqalarga yaxshi ko'rsatadigan ikki a'zoning biri — yuragi, ikkinchisi — tili!

— Endi odamni boshqalarga yomon ko'rsatadigan ikki a'zoning nomini kim biladi?

— Yana men aytaman. Odamni boshqalarga yomon ko'rsatadigan a'zolaridan biri — tili, ikkinchisi — yuragi!

— To'g'ri, to'g'ri!..

* * *

— Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida o'ldirilgan yo qamalganlardan ayrimlari haqida: "U otashin inqilobchi edi", "U pok niyatli rahbarlardan biri edi", "Nohaq o'ldirilgan", "Nohaq qamalgan", degan luqmalar quloqqa chalinib turadi. Adolatli tuzum — Sovet davrida nega bunday nohaqliklar ro'y bergan?

— Kimni nazarda tutayapsan? Ochiqroq aytsang-chi!

— Masalan, qoraqalpoqlarga avtonomiya berishni talab qilgan Olloyor Do'stnazarovni aytmoqchiman.

— Qadim zamonda "Garanglar ovuli" degan bir ovul bo'lgan ekan. Rostdan hamma odamlari ham kar, ham gung-soqov ekan. Kunlardan bir kuni kutilmaganda shu ovul ustidan nimadir gumburlab o'tibdi. Uning guldurosi ovul odamlariga ta'sir qilib, hammasining quloqlari ochilib ketibdi. Dabdurustdan tillari ham

kalimaga kelibdi. Bu ajoyib-g'aroyib hodisa hammaning avvalgi ko'nikib-moslashib qolgan ahvolini tubdan o'zgartirib yuboribdi. Ovulda ulkan bayram bo'libdi. Unga barcha qatnashibdi. Bayram tantanalaridan so'ng qarashsaki, kutilmaganda ro'y bergan bu quvonchli voqeadan hamma o'ynab-kulib, irg'ishlab-yugurib yurganida ayrim chalishib yiqilganlar oyoq ostida toptalib yotganmish.

* * *

— Agar ikki ovul urushsa, o'z ovulining yengilishini istaydigan, ikki mamlakat urushsa, o'z mamlakatining yengilishini istaydigan xalq bo'ladimi?

— Agar o'sha ovul yo mamlakatni nodon va qonxo'r odam boshqarsa, shunday bo'ladi. Masalan, hamma aqli butun nemislar o'z mamlakatining yengilishini istayotgani aniq!

— Ana shunda ular Gitlerdan-u gitlerchilardan xalos bo'ladi!..

* * *

— Xon zamonida bir ovsar qoraqalpoqning xonga qanday qilib dono ko'ringanini eshitganmisiz?

— Yo'q, eshitmaganmiz. Qani, ayting-chi!

— Uxlamay eshitamiz, shoshilmay aytavering.

— Inqilobdan avvalgi xon zamonasida "Xonyop" degan yangi ariq ochayotgan qazuvchilar oldiga xon kelib, ularga o'z hisobidan ziyofat beribdi-da: "Endi men senlarning qanchalik dono ekanliklaringni sinab ko'rmoqchiman. Masalan, men lom-mim demay, imo-ishora qilaman. Kim tushunib, so'zsiz savolimga imo-ishora bilan to'g'ri javob topsa, o'shani besh tilla bilan mukofotlayman", debdi. Qazuvchilar hayajonlanib xonga ko'z tikibdilar. Xon bir barmog'ini havoga nuqibdi. Hamma dong qotib turgan ekan, kiyimlari o'lda-jo'lda, o'zi tentakroq bir qazuvchi o'rnidan turib, unga javoban ikki barmog'ini nuqibdi. Buni ko'rgan xon endi barmog'ini o'z chekkasiga nuqibdi. Haligi qazuvchi bo'lsa, qorniga ishora qilibdi. Xon endi kaftini yozib, besh barmog'ini ko'rsatibdi. Qazuvchi bo'lsa, xonga mushtini do'laytiribdi.

— Obbo, xumkalla qoraqalpoq-ey, chinakam dono ekansan! — deb qoyil qolibdi xon. Saroyga qaytib borgach, mukofotni bir navkaridan berib yuborishini aytibdi.

Maslahatgo'ylari bu imo-ishoralarning ma'nosiga tushunib yetmaganliklari uchun xon huzurida ta'zim bilan bosh egib so'rashibdi:

— Xon hazratlari, biz g'ofil bandalarga tushuntiribroq ayting-chi, siz nima dedingiz-u, manovi qoraqalpoq nima dedi?

Xon shunday javob beribdi:

— Dastlab men bir barmog'imni ko'rsatib, "Xudodan boshqayam dono bormi?" deb so'ragan edim, u ikki barmog'ini ko'rsatib: "Osmonda — Xudo, yerda — siz, ikki dono bor", deb javob berdi. Keyin men barmog'im bilan o'z chekkamga nuqib: "Miyasi ko'p odam aqllimi?" deb so'rasam, u qornini ko'rsatib, "Yo'q, qorni to'q odam aqlli", deb javob berdi. Uchinchisida men besh barmog'imni ko'rsatib: "besh tillani hozir hammaning oldida beraveraymi?" deb so'ragan edim, u mushtini ko'rsatib "Yo'q, bu odamlarning ko'pchiligi o'g'ri, shuning uchun yashirincha berib yubora qoling", deb iltimos qildi.

Xon huzuriga kirolmay qolganlar o'sha dono qazuvchini qurshab:

— Qani, mundoq tushuntirib ayt-chi, xon nima dedi-yu, sen nima deding? — deb so'rashibdi.

Qazuvchi bunday tushuntiribdi:

— Avvaliga xon menga: "Bir ko'zingni o'yib olaymi?" deb bir barmog'ini ko'rsatib po'pisa qilgan edi, men ikki barmog'imni ko'rsatib: "Sening ikkala ko'zingni o'yib olaman", deb uni qo'rqitdim. Ikkinchisida u o'z chakkasiga ishora qilsa ham, aslida: "Boshingni olsam, qo'lingdan nima keladi?" deb dag'dag'a qilgandi, men unga qornimni ko'rsatib: "Avvalroq men sening qorningni yorib tashlayman", deb es-hushini joyiga tushirib qo'ydim. Uchinchisida u menga besh barmog'ini ko'rsatib: "Shapaloqqa tobing qalay?" deb so'ragan edi, men unga mushtumimni do'laytib: "Bir musht ursam, o'lasan-qolasan", dedim. Ana shunda xonning kapalagi uchib ketdi-da, qo'rqqanidan menga mukofot va'da qildi.

— Basirga o‘z hassasi dunyoning ustunidek tuyuladi, degan hikmatli gapning ma’nisi shu bo‘lsa kerak-da, — deya xulosa qildi otam.

— Odil podsho bo‘lsa, u avvalo kimlarni o‘z xizmatiga olar edi? — deb so‘rab qoldi kimdir uyqusirab yotib.

— U o‘ziga odam tanlayman deguncha laganbardorlar-u yaltoqi yaloqxo‘rlar jamiki amal kursilarini egallab ulgurishadi, — deb javob berdi yana mening otam.

— Ahmoq qay paytda aqlli ko‘rinadi?

— Jim tursa.

— Dono qay paytda ahmoq ko‘rinadi?

— Maqtanchoq, mahmadana bo‘lsa,

— Qay holda odamning uyqusi qochaveradi?

— Cho‘ntagida puli ko‘paysa.

— Odamni qay paytda uyqu bosaveradi?

— Aqli kamaysa.

— Soppa-sog‘ odam dabdurustdan qutura boshlasa, qanday kasalga chalingani?

— Kasalga chalingani emas, puli ko‘paygani.

— Odamning o‘zi yaxshi biladigan nima narsasini boshqalar ko‘p tilga oladi?

— Ismini.

— Odamni uzoq yashashga undaydigan eng asosiy kuch nima?

— Uning ertangi kundan umidi.

— Odamning umrini qisqartirishga-chi?

— Uning ertangi kundan umid uzishi.

— Dabdurustdan javob berish mushkul savol nima?

— “Uxlayapsanmi?” degan savol...

* * *

Uyqu oldidagi gurunglardan: — Maktabda o‘qisin-o‘qimasin, har bir odamdan talab etiluvchi narsa — poklik. Pok dil, pok yuz, pok so‘z... Iflos so‘z, avvalo, aytgan odamning yuzini qaro qiladi.

— Bema’ni so‘z yirtiq pulga o‘xshaydi. Kimga bersang, o‘zingga qaytaraveradi. Og‘zingdan chiqqan tikanli so‘z avvalo o‘zingni jarohatlaydi. Gapirgan gaping gujum bo‘lsa, soyasida

o‘zing ham bahra olasan. Og‘u bo‘lsa, o‘zingni ham zaharlaydi. Bol bo‘lsa, o‘zing ham maza qilasan.

— Yaxshi so‘z bilan ilon inidan chiqadi, degan gap bekorga aytilmagan, axir.

— Devorning umri qalangan g‘ishtlarning sifati-yu to‘g‘ri terilishiga bog‘liq bo‘lganidek, aytilgan gapning qiymati so‘zlarning ma’nosi va o‘z o‘rnida qo‘llanilishiga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, quruvchilik bilan yozuvchilik o‘zaro yaqin kasblarga o‘xshaydi. Biroq quruvchilar bir uy qurmoqchi bo‘lsalar, g‘isht teruvchi, suvoqchi, bo‘yoqchiga bo‘linib, har biri o‘ziga belgilangan ishni bajaradi. Yozuvchi asar yaratayotganda hammasining ishini yolg‘iz o‘zi bajaradi. Eng qudratli texnika ham unga yordam berolmaydi.

— Har qanday tilda eng ardoqli ikkita so‘z bor: “ona”, “muallim”. Lekin qoraqalpoq tilining o‘zigagina xos birgina so‘zni kim ayta oladi?

— Bu — “hovva” degan so‘z. Bu qutlug‘ so‘z tasdiq ma’nosidan tashqari, kimning qoraqalpoq ekanini yoki Qoraqalpog‘istonda yashashini ko‘rsatib turadi.

— Qoraqalpog‘istonliklar mehmonga “hovva” degan so‘zdan boshqasini kam aytishadi. Shuning uchun ham har bir mehmon bu so‘zga tez o‘rganib ketadi.

— Bizning ona tili muallimimiz: “Har bir til o‘zining lug‘at boyligini oshirish bilan bir qatorda har bir so‘z bajaruvchi vazifalarni ham oshirib boraveradi. Yozuvchilar so‘zni yo‘nib, silliqlab, ishlov va jilo beradigan ustalar”, deb o‘rgatgan edi.

— Har bir tilning lug‘at boyligigina emas, hattoki yozuvdagi tinish belgilari ham ba’zan odamning taqdirini hal qilishi mumkin. Adabiyot muallimimizning aytishicha, Viktor Gyugo degan fransuz yozuvchisi kitobini chiqaradigan nashriyotga qo‘lyozmasini jo‘natib, xat o‘rniga birgina savol alomati (?) yuborgan edi. Nashriyot direktori esa unga javob o‘rnida undov (!) belgisini yuborganmish.

— Ana tildan mohirona foydalanish, ana qisqalik! Birgina imlo belgisida qancha ma’no!

— Imloni maqtayvermanglar! Bobolarimiz imlosiz ham tuppa-tuzuk gaplashib, hatto doston-u qo'shiqlar yaratib yashashgan. Buyog'ini so'rasangizlar, mening likbezni tashlab ketishimga o'sha la'nati imlo sabab bo'lgan edi.

— Nega?

— Harflarni to'la o'rganib, so'z qurashtirib o'qishga tushgan edik, bir kuni muallim: "Endi grammatikani o'rganishga kirishamiz!" dedi. Hamma hayron bo'lib qoldi. Muallim ham bizlarning hayron bo'layotganimizga andak ajablanib qarab turdi-da: "Men hozir taxtaga bir sodda gap yozaman, uning ega-kesimini topamiz. Keyin grammatikaning nima ekanini tushuntiraman", dedi. Shunday dedi-yu, taxtaga harfini o'qlog'iday-o'qlog'iday qilib: "Aytjon uylandi", deb yozdi. Jon-ponim chiqib o'rnimdan uchib turdim-da:

— Yolg'on! Men hali uylanganim yo'q! — dedim.

Muallim o'zini oqlamoqchi bo'ldi:

— Bu gapni ega-kesimini topish oson bo'lsin deb yozdim...

— Sizga — oson, menga — qiyin! — dedim yana. — Ismim Aytjon ekanini bila turib atayin yozdingiz! Endi odamlar nima deb o'ylashadi? Endi uylanadigan qizim nima deydi? Tuhmat bu! Muallim bo'lsangiz ham sudga beraman!

— Kechirasiz, bilmabman. Mayli, unday bo'lsa: "Aytjon tushunmadi", deb yoza qolaylik.

— Nega tushunmas ekanman? Eshakmiya, demoqchimisiz? — dedim bu gapdan battar jinim qo'zib.

Sinfdagilardan hech kim orachilik qilolmasligini ko'rgan muallim yelkasini qisgancha andak o'ylanib:

— Mayli, o'rtoqlar, bo'lmasa yana o'zgartiraylik, — dedi-da, tag'in katta-katta harflar bilan "It hurdi" deb yozdi.

— Endi itga tenglashtirdingizmi? — deb yana o'rnimdan sapchib turdim.

— Yo'q, bu gapda "it" ega, "hurdi" kesim demoqchiman, — dedi u.

— Shuyam dars bo'ldi-yu! — deb jahl bilan eshik oldiga bordim-da, sinfdoshlarimga: —Yuringlar, "it hurdi"ni yozolmasak ham tuppa-tuzuk gaplashib yuribmiz, — dedim.

Sinfda yigirmatacha o'quvchi bor edi, beshtasi ortimdan er-

gashib chiqdi. O'shanda menga ergashib chiqqanlardan manavi mening yonimda yotgan Qaipbergen, Sayilxon, Safarniyoz, Erniyozlar tirik. To'g'rimi?

— To'g'ri, — dedi birov ko'rpa ostida piq-piq kulgancha. — O'shanda senga ergashmaganimizda bugun hech bo'lmasa frontga o'zimiz xat yozardik. Bizlarni armiyaga olmay yurganlarining sababi ham shu savodsizligimiz! O'shanda beshinchimiz O'tamish edi. Armiyaga ketgandan beri xat yozmadi. O'ldiga chiqarib yursak, yaqinda xat kelib qoldi. Yarador bo'lib gospitalga tushibdi. Bir mehribon o'zbek bilan tanishgan ekan, xatni o'sha odam yozib beribdi. Ikki og'iz hol-ahvolini yozibdi-yu, davomida: "O'qinglar, qoraqalpoqning savodsiz bolasi askarlik tugul Xudoga ham kerak emas ekan, bolalarni o'qitinglar!" deb qayta-qayta tayinlab bir betni to'ldirib nasihat yozdiribdi...

— O'rta Osiyo xalqlarida avvallari familiya bo'lmasdi. Tarix ajdodlarga ajoyib bir haykal o'rnatdi: ularning ismlari bolalari tugul nevara-chevaralariga ham mangulik xotira bo'lib qoldi. Mana, To'lepbergenga qaranglar. Otasi Qaipbergen yonida yotibdi. Demak, u Qaipbergenov bo'ladi. Endi To'lepbergenning bola-chaqalariyam Qaipbergenov bo'laveradi. Qarabsizki, manovi yotgan ariq qazuvchi Qaipbergen mangulik familiyaga aylanadi.

Ochig'i, men odamlardagi milliy ayrimachilik tugul har birida alohida ism-familiya bo'lishiga ham qarshiman. Sababi, oti aytiladimi, tamom, u boshqalardan ajralib ko'rsatiladi.

— Har bir odam o'zining ismi bilan boshqalardan ajralib qolmay o'z taqdirining betakrorligi bilan ajralib turadi.

— Har bir odamga qo'yilgan ism, avvalo, uning bu dunyoda buzuvchimi yo tuzuvchi ekanini ajratib ko'rsatish uchun kerak bo'ladi.

Uyqu oldidan aytilgan ertaklardan: Bir xon qarigan chog'ida o'g'lining yurtni qanday idora qilayotganini ko'rib, bu dunyodan xotirjam ko'z yumish uchun tirikligida toj-taxtini topshiribdi. Taxtga o'tirgan kunining ertasigayoq yosh xonning ishtahasi bo'g'ilib, bir hafta o'tar-o'tmas o'rnidan bazo'r turadigan holga kelibdi. Axiyri otasining oldiga borib:

— Menga ishtaha ochadigan dori kerak, — debdi.

— Ko‘ngli tusagan narsani muhayyo qilolmasa, bu qanaqa xon bo‘ldi? — debdi otasi o‘g‘lidan xafa bo‘lib.

Yosh xon o‘ylana-o‘ylana, qo‘shni mamlakatlardan bo‘lsayam shunday dorini topib kelaman, deb yo‘lga ravona bo‘libdi. Shahardan chiqaverishda terlab-tepchib ariq qaziyotgan bir tanishini ko‘rib qolibdi-da, undan hol so‘rabdi.

— Xon hazratlari, yo‘l bo‘lsin? — ajablanibdi qazuvchi.

— Yurt taxtiga o‘tirdim-u, ovqatga ishtaham paqqos yo‘qoldi. O‘shanga ishtaha ochadgan dori axtarib ketyapman, — debdi xon.

— Bunday dori menda bor, — debdi ariq qazuvchi.

— Iye, bor bo‘lsa, meni boshqa yurtning xoni oldi-da bosh egdirib nima qilasan, o‘sha doringni menga ber-da, — debdi xon.

— Mayli, beraman. Biroq uyda edi. Borib kelishga vaqt ziq. Manovi ariqni tezroq bitirmasam bo‘lmaydi. Ekin-tikin vaqti o‘tib ketyapti, — deb zorlanibdi qazuvchi.

— Sen uyga borib o‘sha dorini olib kelguningcha o‘rningga men qazib tura qolay, — deb xon otidan tushibdi-da, uning qo‘lidan ketmonini olibdi.

Qazuvchi xonning ketmon urishini andak kuzatib, ixlos bilan ishlashiga ko‘zi yetgach, uyiga ketibdi. Xon tinim bilmay ariq qazibdi. Kunbotarga yaqin ishni bitirib, peshona terini sidirgancha nafas rostlayotgan ekan, qazuvchi yetib kelibdi.

— Doring qani? — deb so‘rabdi xon.

— Qancha olib kelishni bilmadim. O‘zingiz uyga borib, xohlaganingizcha ola qolarsiz, — deb u xonni uyiga ergashtirib boribdi. Qazuvchining ayoli kechki ovqatga bir qozon jo‘xori go‘jani pishirib, sovutolmay xunob bo‘lib turgan ekan, xon ochlikka chiday olmay:

— Doringdan avval manovi go‘jangdan quyib bermaysanmi? — deb so‘rabdi.

Uy bekasi bir kosaga go‘ja quyib beribdi. Xon: “Judayam lazzatli ekan...” deb maqtay-maqtay yana bir kosa go‘ja quyib berishini so‘rabdi. Ayol darrov quyib beribdi. Xon ikkinchi kosaniyam bir non bilan paqqos tushirib, obdan to‘yganidan keyin:

— Mayli, endi men ketay, doringni ber, — debdi qazuvchiga.

Qazuvchi miyig‘ida kulib:

— Mana dori, — debdi-da, devorga suyab qo'yilgan ketmonni olib, xonning oldiga qo'yibdi.

Shundagina yosh xon gap nimadaligini anglab yetibdi. Otasining oldiga qaytib, toj-taxtdan voz kechajakligini ma'lum qilibdi.

Menimcha, o'sha odam bizning bobokalonimiz bo'lsa kerak.

Yana: Keng-darxon dalada yashab o'tgan atoqli bir mergan bolalariga merganlikni o'rgatish maqsadida ularni oldiga chaqiribdi-da, avvalo, o'zining nishonni bexato uradigan mohir ovchi ekanini ko'rsatib qo'yish maqsadida nariroqdagi bir daraxt shoxiga qo'nib turgan chumchuqni mo'ljallab otibdi. Biroq o'q tegmay, chumchuq "pirr" etib uchib ketibdi.

O'shanda merganning Qoraqalpoq ismli bolasi:

— Rahmat, ota! — debdi astoydil suyunib.

— O'q nishonga tegmadi-ku. Nimasiga rahmat aytyapsan? Yo odamni masxara qilayapsanmi? — deya achchig'lanibdi otasi.

— Bechora jonivorga rahm qilib, jo'rttaga tegizmaganingiz uchun rahmat aytyapman, — debdi o'g'il.

Otasi Qoraqalpoqqa bir olayib qaragan ekan, u otasining yoqtirmay qolganini tushunib, endi betgachoparlik qilmaslikka ont ichibdi. Bu ontini o'z bolalariga ham vasiyat qilib qoldiribdi.

Yana: ...Zolimligi uchun Ivan Grozniy atalgan rus podshosining bir dono boyaringa qahri tushib, uni nima qilib bo'lsayam jazolash maqsadida:

— Uch kun ichida menga temirdan choksiz tikilgan etik olib kelasan, yo'qsa o'ldiraman, — debdi.

Oradan aytilgan uch kun o'tibdi. Boyarin kelavermabdi. Ivan Grozniy oldiga chaqirishgayam sabri chidamay, o'zi nayzabardorlari bilan uning uyiga kirib boribdi. Qarasa, boyarinning ayoli eshik oldiga ilonizi qilib qum to'kib, ustidan suv quyayotganmish.

— Hoy, nima qilyapsan? — deb so'rabdi podsho.

— Qumni suvga qorib ip eshmoqchiman, — debdi ayol.

— Qanaqa tentak xotinsan o'zi? Qumdan ip eshib bo'larkanmi? — debdi qahri qattiq Ivan Grozniy beixtiyor qahqah otib.

— Siz buyurgan temir etikni choksiz tikish uchun qumdan ip yigirish kerak-da, — debdi ayol.

Ivan Grozniy shartta ortiga qaytib, yurtidagi barcha boyonlarni huzuriga yig'ibdi:

— Aqlni chegaralash odamzodga ziyon! Bugundan boshlab rus qizi dunyodagi qaysi xalqning yigitiga tegaman desa, qarshilik qilmanglar, — deb buyuribdi. — Ular qayerda yursalar ham yurt uchun qanday xizmat qilishni o'zlari yaxshi bilishadi!

Yana: Chingizxon lashkarboshilaridan birini yoqtirmas ekan. Dabdurustdan o'ldirib yuborishga avvalgi xizmatlarini yaxshi biladiganlardan hayiqib: "Sen mening oldimga o'n yashar uloq, yigirma yashar qashqir, o'ttiz yashar yo'lbars, qirq yashar shoqol, ellik yashar tulki, oltmish yashar tuyaqush olib kelasan. Qayerdan bo'lsayam topasan!" deb antiqa shart qo'yibdi. Yigit butkul O'rta Osiyo o'lkalarini kezib chiqibdi-yu Chingizxon aytgan jonivorlardan aqalli birontasini topolmabdi. O'limini bo'yniga olib, ozib-to'zib Amudaryoni yoqalab borayotgan ekan, qarasa, bir qiz qovoqchada ekiniga suv quyib yurganmish. Yigit to'xtab qizdan qultum suv so'rabdi. Qiz suv uzata turib yigitning yuzi za'farondek sarg'ayib o'lar holga kelganini ko'rib unga rahmi kelibdi. Hol-ahvol so'rabdi. Yigit unga Chingizxonning shartini aytibdi.

— Chingizxon aytgan hayvonlarning hech biri o'sha yoshga yetmasligi hammaga, qolaversa, uning o'ziga ham ma'lum-ku. Demak, u sizga yomonlik qilmoqchi bo'lganga o'xshaydi, — debdi qiz. — Yaxshisi, siz xon oldiga aytgan jonivorlarni emas, o'sha yoshdagi erkaklarni ergashtirib obora qoling. Odam o'n yoshida — uloqday, yigirma yoshida — qashqirday, qirq yoshida — shoqolday, ellik yoshida — tulkiday, oltmish yoshida — tuyaqushday bo'ladi...

Yigit suyuna-suyuna qiz maslahat bergandek o'n yashar bolakayni yelkasiga o'tqazib, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish yoshdagi odamlarni ergashtirib, Chingizxon huzuriga kirib boribdi.

— Buni kim o'rgatdi? — deb so'rabdi xon ikki ko'zi qonga to'lib.

— Amudaryo yoqasida yashaydigan bir qiz o'rgatdi, — debdi yigit ro'y-rost.

Chingizxonning ko'zlari o'tdek yonib, o'sha qizni olib kelib dorga osishni, Amudaryo yoqasidagi elatlarning jamiki qizlarini qilich tig'idan o'tkazishni buyuribdi.

O'shandan beri Amudaryo yoqasida qo'nim topgan elatlardagi qizlar begona odam bilan gaplashishdan, o'z aqlini huda-behuda oshkor qilishdan qo'rqadigan bo'lib qolgan.

O'sha dahshatli qirg'in qoldirgan asoratlar hozirga qadar sezilib turadi...

Uyqu oldidan o'qilgan askar maktublaridan: "Oyi! Menga o'q tegadi deb qo'rqmang. Yoshligimdan badantarbiya bilan shug'ullanganim zap ish bo'lgan ekan. Hozir asqotib turibdi.

Ba'zi tunlari dushman tarafdan qip-qizil cho'g'dek yonib o'q uchib keladi. Ko'rsam bo'ldi — o'zimni dam u yoqqa, dam bu yoqqa tashlayman, dam o'qning ustidan sakrayman. Hech bo'lmaganda biqinib qolaman... Komandirim: "Obbo, qoraqalpoqning shovvozi-ey, yasha! Judayam abjir ekansan-a!" deb maqtaydi.

Qo'shnimizning qizi Gulifani kelin qilsam derdingiz, manavi xatni ungayam o'qiting. Men borgunimcha oyisi bilan maslahatni pishitib qo'yavering. Borgan kuni biryo'la ikki to'y bo'lsin...".

* * *

"Suyuklim Oysha!.. Jufti halollikka seni tanlab adashmagan ekanman deb o'zimcha qattiq suyunaman. Kichkinaligimda bolalar bilan o'ynagani chiqsam onam hamisha: "Qorning ochib qolmasin tag'in", deb cho'ntagimga non solib qo'yardi. Mana, sen ham onamga o'xshab har bir xatingda:"Ozib ketmadingmi, suyuklim? Vaqtida ovqatlanib turibsanmi?" deb so'raysan. Yaxshisi men senga diviziya komandirining so'zlari bilan javob bera qolay. Kuni kecha polkimizga diviziya komandiri kelib qoldi. Hammamizni safga tizib, birma-bir ko'zdan kechirib chiqqach: "Uylaringizdan xat olib turibsizlarmi? Ovqatlar yetarlimi?" deb so'radi. Shu orada birdan menga ko'zi tushib oldiga chaqirdi-da: "Ha, qoraqalpoq, qalaysan? Yaxshi, ancha to'lishibsan, molodes! Boshqalarda haqingni qoldirmay yeb tur!" dedi... yeb turibman. Ishtaham juda

zo‘r. Yurtga semirib, kuchga to‘lib qaytaman. O‘zing ham meni kutaverib ozib qolma, vaqtida ovqatlanib tur...”.

* * *

“Otajon! Onajon! Bu xatni uch kunlik otpuskamning oxirgi kunida yozib o‘tiribman. Uch kungacha komandirning yerto‘lasida yonma-yon qo‘yilgan karavotda maza qilib uxladim. Komandir nima yesa men ham o‘shani yedim. Komandir tashqariga chiqib ketgan paytlarida hisobot berishga kelgan kichik komandirlar menga gapirishga botinolmay ruxsat so‘raydi...

To‘s-to‘polon urush paytida qanday qilib otpuska olganim, albatta, sizlarni qiziqtirsa kerak. Sababi, men bitta ham o‘qni zoye ketkazmasdan naq o‘n beshta fritsni asir olib keldim. Qanday qilib, demoqchisizlar-da? Bunday bo‘ldi: tunda qor gupillab yog‘ib turgan edi. Birdaniga behisob fritslar bostirib kelib qoldi. Qars-qurs nayzabozlik boshlanib ketdi. Xuddi “Qo‘blon” dostonidagidek, zang‘arlarning oldini nayzalab bo‘ldim deguncha ortidan yana g‘ovlab chiqaveradi, ortini nayzalab bo‘ldim deganda oldi g‘ovlab keladi. Xullas, talay fritsni narigi dunyoga jo‘natdim. Bir galasi ortiga qochuvdi, izidan yolg‘iz o‘zim tiraqaylatib quvishga tushsam bo‘ladimi! Allamahal, xuddi tushga o‘xshaydi, naq ro‘paramda turgan fritslar ko‘zdan g‘oyib bo‘lib qoldi. Odamning qoni qaynab ketganida ko‘zlariga hech nima ko‘rinmay qolarkan. Sal hovurimdan tushib qarasam, qarshimdagi eski xandaqda o‘ntacha kaska qimir-qimir qiladi. Avvaliga: “Ha-a, yigitlarimiz dam olib o‘tirishgan ekan-da” deb o‘yladim. Xandaqqa sakrab tushsam, chuldirashgan fritslar! Yuragim “shuvv” etdi. O‘shandayam qo‘rqqanimni sezdirmay, bittasini sal nariroqqa itarib o‘zimga joy ochib oldim. Yonimda turgan frits o‘rischani o‘zim qatori bilarkan, bir amallab gaplasha boshladik.

— Kimsan? — deb so‘radi u.

— Sovet jangchisiman, — dedim.

— Sovet jangchisi ekaningni bilaman, millating nima?

— Qoraqalpoqman, — dedim.

— Dunyoda shunday xalq borligini bilmas ekanman? — dedi u menga ajablanib qarab.

— Nega bilmaysan? Axir, dunyoda qoraqalpoqlar yashamaydigan mamlakat yo'q-ku, — dedim men astoydilgina qilib.

— Dunyodagi eng ko'p xalq xitoylar, innaykeyin... — deyvergan edi, gapini shartta uzib:

— Rostingni ayt, sening yurtingda ham mehnatkash, ham sodda, ham dono odamlar bormi? — deb so'radim.

— Undaylar har bir millatda topiladi,— deya iqror bo'ldi xumpar.

— Ana o'shalar qoraqalpoq! — dedim men.

U birdan xaxolab kuldi. Yonidagilar turtib nega kulayotganini so'rashdi shekilli, ishqilib, yana o'zaro chuldirashib qolishdi. Bir payt o'ng biqinimda turgan qo'shnim:

— Dono bo'lsang ayt-chi, sening xalqing dunyoning kindigi qayerdaligani biladimi? — deb so'rab qoldi.

— Albatta biladi-da! — dedim.

— Amerikadami, Germaniyadami? — yana so'radi u besabrlik bilan.

Qo'yib bersam, uning talay o'smoqchilashini sezib:

— Dunyoning kindigi Nukusning ostida, — deb gapning po'stkallasini aytdim-qo'ydim.

— Nukus degani qayer?

Qarang-a! Nukusni bilmaydi-ya bu ablah!

— Nukus — Qoraqalpog'iston avtonom respublikasining poytaxti! "Ana, bilmasang bilib ol!"

— Bizga shunisi ma'lumki, har bir ittifoqdosh respublika o'zining milliy bayrog'iga ega. Xo'sh, sizlar-chi?

— Bizda har bir millat tugul, har bir odamning o'z bayrog'i bor, — dedim.

— Shu vaqtgacha bizga noma'lum qanaqa bayroq bo'ldi bu?

— Bu bayroq har bir odamning yuzidagi kulgi. Hozir butun sovet xalqining bir jon-bir tan bo'lib sizlarga qarshi jangga otlanishidan maqsadi ham mana shu bayroqni saqlab qolish. Bu yaxshi niyat, shuning uchun ham g'alaba biz tomonda! — dedim.

Shu payt tong bo'zarib kelayotgan edi, u yuzimga tikilib turib:

— Bunday dono gaplarni qayoqdan o'rgangansan? — deb so'radi.

— Qardoshlardan, — dedim.

U tag'in yonidagilarga allanima degan edi, hammalari nimalarnidir chuldirasha-chuldirasha axiri o'rinlaridan turishdi. Yonimda turgani yelkamga qo'lini qo'yib:

— Qani, boshla! — dedi.

— Qayoqqa? — deb so'radim.

— Tarixda oti noma'lum sizlardek xalqniki shuncha donolikka erishtirgan ekan, sovetlarga qarshi nega urushyapmiz o'zi?! Sen bizlarni ularning oldiga boshlab bor, — dedi.

Shunday qilib, norg'ul-norg'ul o'n besh nemisni hech bir ziyon-zahmatsiz shtabga ergashtirib keldim...

Ana, bolalaringizning donoligi-yu mardligi! Faxrlansangiz arziydi!"

* * *

Frontdan kelgan qora xatlar sabab ovulda yig'i-sig'i, dod-faryod tez-tez eshitilib turadi. Buning ustiga, kattaning ham, kichikning ham ishi og'ir, yeyish-ichishining tayini yo'q. Lekin hayot deb atalmish ko'hna charxpalak, ming mashaqqat bilan bo'lsada, har qalay, betinim aylanib turibdi... Har oqshom aytiladigan hangomalar, ertag-u afsonalardan, jangdagi yigitlarning goh jo'rttaga mubolag'ador, goh rost gaplar yozilgan qiziq-qiziq xatlaridan so'ng qariyalar ham, o'rta yoshdagi kishilar ham, biz, bolalar ham charchoqni unutamiz. Ba'zi kechalari gurung bilan tong ham otadi. Biroq hech kim uyqusi chala qolganidan xafa bo'lmaydi. Tong otar-otmas hamma ish qurolini olib ariq qazishga chiqib ketaveradi.

Roppa-rosa bir yarim oy deganda arig'imizga suv ochildi. Bu voqea quvonchi ovulimiz odamlari bilan taqdirdosh bo'lib, Cho'rtanboy to'qayiga makon qurgan barcha ovullar uchun frontdagi jangchilarning yangi bir shaharni ozod qilishidan kam emasdi. Cho'rtanboy to'qayi orasida bir oqshom ulkan to'y-tantana bo'ldi. "Bizning kechagi shovqin-suronimiz hatto Germaniyaga ham yetgan bo'lsa kerak!", dedi ertasiga kimdir birov.

Chatoq tomoni shunda ediki, yangi ariqda suv turishi qiyin bo'larkan. Kutilmagan yeridan urib ketaveradi. Shuning uchun,

xuddi chegara qo'riqlangandek, ariqning butun uzunligi kolxozlararo taqsimlanib, har bir ovul o'ziga ajratilgan masofaga ariq yoqalovchilar qo'ydi. Kolxozimizdan men, Sarsenboy (hozir u Xo'jaylida mexanizator bo'lib ishlaydi), Shomurod (u ham traktorchi) uchovimiz ariq poylovchi bo'lib qoldik. Kechqurunlari navbat bilan ovuldan yegulik-ichgulik olib kelishga borishimizni hisobga olmaganda, to kuzga qadar ariq yoqasidan bir qadam jilmadik. Bekor o'tgan kunimiz bo'lgani yo'q. Kuniga kamida uchta-to'rtta joydan urib ketgan suvni vaqtida to'xtatib qolamiz. Buyog'ini so'rasangiz, o'rtoqlarimning ikkalasi ham gapga chechan, ertakka kon. Xullas, zerikishga vaqt yo'q.

Yozning so'nggi kunlarida suvga zarurat andak kamaygach, hammamiz ovulga qaytdik. Bizlar kelishimiz bilanoq ikki kolxoz o'rtaligidan tomshuvoq maktab qurish ishi boshlab yuborildi. Biz bolalarni ham ajablantirgan, ham suyuntirgan hol shu bo'ldiki, hali maktabdan boshqa biron-bir tomshuvoq uy qurilgani yo'q, hamma-hamma avvalgicha yerto'lalarda, qamish kapalarda yashaydi...

Maktabimiz sentabrning oxirlariga "bitdi-bitdi" bo'lib, birinchi oktabrdan o'qish boshlandi. Biroq eng yuqori sinf — beshinchi sinf edi. Bizlarni to'rtinchi sinfda o'qitgan Qaipbek og'a Pirimbetov maktabga direktor bo'ldi. Meni beshinchi sinfni qaytatdan o'qish uchun chaqirib kelishdi. O'sha yili yettinchi sinfda o'qishim kerak edi. Beshinchi sinfda nima qilaman?

— Shoirliging bor edi — o'shani davom ettirasan. Maktabdagi devoriy gazetaning redaktori bo'lasan, — dedi direktor.

Bu taklif menda qiziqish uyg'otishi tabiiy edi.

7

1945-yilning yanvarida orzularimga yangi qanot bog'lagan, hayotimda keskin burilish yasagan bir voqea ro'y berdi: maktab direktori o'z kabinetiga chaqirib:

— Tushgacha 6-sinf o'quvchisisan, tushdan keyin 2 va 4-sinflarni qo'shib o'qitadigan muallim bo'lasan, — dedi.

"Nahotki? Yo'g'-e!.." Hayajonlanganingizda tilingiz kalimaga kelmay qolar ekan.

Bu kutilmagan taklif tuynukdan kelib tushgan quyosh nuri bo'lib kulbamiz ichini ham, ko'nglimizni ham yorishtirib yubordi. Yuzlari sevinchdan charaqlab turgan onam birdan taraddudlanib qoldi:

— Muallimning tuzukroq kiyim-kechagi bo'lishi kerak-ku?!

Ana shundagina o'zim kiyib yurgan guppi chopon ming yamoqligiga, ustiga ustak, ular har xil rangdagi mato bilan har xil vaqtda yamalgani uchun guppining asl(qora) rangini aniqlash buyoqda tursin, oxirgi yamoqlarning ham bir qatori to'zib, yana yamoqtalab bo'lib turganiga e'tibor qildik.

Yangi guppi sotib olishga uyda pul yo'q, sotib pul qilgulik mol yo'q, yangiroq kigiz, ko'rpa yo boshqa bisot yo'q. Hatto onamning bir-ikki kiyib, to'ng'ichimga kelin tushirganda chiqaraman, deb sandiqqa bosib qo'ygan ko'ylaklarining eng so'nggisi ham bu yil qishda yarim botmon jo'xoriga ayirbosh bo'lib ketgan.

— Har bir xursandlik o'z ortidan kutilmagan xafagarchilikni ham ergashtirib keladi, — dedi momom.

Bobom uzoq o'ylanib o'tirib, axiyri siniq tovushda:

— Bir iloji topilar, — deb bizni yupatgan bo'ldi.

Hamma unga umidvor ko'zlarini qadadi. Biroq bobomning qanday iloj topmoqchiligi bizga qorong'i edi.

— Bugun ertalab qazo qilgan qo'shni cholning o'tgan yili shahardan sotib olib kelgan shineli hali yirtilmagan edi, shekilli? — deb so'rab qoldi bobom shu payt maslahatomuz ohangda.

— Ha, nima edi, umringda qilmagan ishni qilib, o'lik yuvmoqchimiding?! — dedi momom andak achchig'lanib.

— Kolxozda o'zini Xudo sanaydigan anovi tentak raisning oldiga bosh egib, yordam so'rab borgandan ko'ra, o'lik yuvgan afzalroq. Bu ham savob ish, ham o'lik yuvganga uning bir kiyimi tegadi. Ko'p yashagan qariyadan nevaramga esdalik bo'lsin, deb o'sha shinelni so'rab ko'rmoqchiman.

— U odam qarilikdan o'lgani yo'q. Qo'ni-qo'shnilari tugul o'z uyidagilar jirkanadigan kasal bilan og'rib o'ldi. Unday kasaldan qolgan kiyimni to'ng'ichimning egniga yaqin keltirmayman! — dedi onam.

— Buning yo'li oson, — dedi otam onamga qiya qarab. — Qorabaroqning kuliga yaxshilab yuvsang top-toza bo'ladi-qo'yadi.

Mening muallim bo'lishim haqidagi xushxabar dastlab uyga yashin tezligida iliq nur olib kirgan bo'lsa, shunday tezlikda yeldirimdek yo'qolib, uy ichini sovuq bir zulmat qopladi — hamma jimgina o'z o'rniga yotdi. Tong-sahardan odatdagidek har kim o'z ishiga ketdi. Bobom hech kimga hech nima demay kecha o'lgan cholning uyiga yo'l oldi. Tushgacha o'qib, uyga kelganimda bobom menga har galgidek mehribonlik bilan qarab:

— Keldingmi chirog'im, — dedi-da, eshik yonidagi devorga qoqilgan ilgichdan eski shinelni qo'liga oldi. — Ma, kiy bolam. Kamlikning kamoli ham bo'lar. O'lgan odamning kiyimini kiyish gunoh emas, savob. Men o'lganimda ham kimdir kiyimimni so'rab keladi, — dedi.

Men bobomning so'zini ikki qilgan emasman.

Shinelga hali yamoq tushmagan bo'lsa-da, yenglari yirtilgan ekan. O'lgan chol pakanaroq odam edi, shinel menga lop-loyiq keldi.

— Kelinning qo'li ishdan bo'shayvermaydi. Momongning ko'zlari nochor. Sen bilan otang uchovimiz igna-ipga no'noqmiz. Yenglarini chunoq qilib qirqib tashlaguncha yaxshisi qayirib qo'ya qolganing ma'qul. Yenglarini qayirib, bilaklarini shimarib yurgan yigit ulug'sifat ko'rinadi, — dedi bobom,

Bu gap menda ko'tarinki ruh paydo qildi. Guppining o'rniga bobom ushlab turgan shinelni kiyib (o'sha paytlarda qanday bo'lmasin shinel kiyish bolalarning orzusi edi), yenglarini qayirdim-da, muallimlik ishimni boshlab yuborishga ketdim.

Maktab direktori Qayipbek og'a meni uzoqdan ko'rdi-yu, soxt-sumbatimga qarab turib, xushnud iljaydi:

— Ana, azamat bo'libsan-qopsan! Endi o'quvchilaringning oldida ham er yetgan muallimdek ko'rinasan!

Eski shinel meni katta yigit qilib ko'rsatishga ko'rsatdi-yu, biroq bir gal tushlik paytida kolxozchi qiz-kelinchaklar bilan bir lagandan ovqat yeydigan bo'lib, go'shtini to'g'rayotganimda shinelimning yenglari sidirilib tushib ketib odamni shunaqangi o'sal qildiki! Baribir shinelni tashlamadim, chunki boshqa ki-

yimim yo'q edi. Muallimlik qilib olgan oyligimni esa, onam yozgi kiyim-kechak uchun jamg'ara boshladi.

* * *

Kolxozning ahvoli hammaga ayon. Armiyadan kelayotganlar esa, ishga emas, ko'proq maslahat berishga yaraydi. Shunday ekan, kolxozda o'quvchilar hal qiluvchi kuch.

Muallimlar bizlar bilan dalada birga yurib, ham yangi dars o'rgatib, ham o'tilgan darslarni so'rab ulguradi. Faqat matematikaning ishi og'irroq. Matematika muallimi chap qo'lini butunicha jang maydonida qoldirib kelgan yigit edi. Shu odamgina o'jarlik qilib, o'z fanidan dars o'tish uchun o'quvchilarni sinfga yetaklab kiradi...

Maktab direktori menga ko'proq she'r yozishni topshirib qo'ygan. She'rlarim, asosan, kolxozdagi ilg'orlarni maqtab, qoloqlarni tanqid qilib bitilgan satrlardan iborat. Har kuni tushlik paytida bir brigadaning dala shiyponida she'r o'qiyman. Ba'zan Sovinformbyuro xabarlarini ham she'rga aylantirgan paytlarim bo'lgan.

She'rlarimni yana redaksiyaga jo'nata boshladim.

Redaksiyadan olingan yana bir javob:

"Hurmatli To'lepbergen! Yana she'rlaringni bizga yomg'irday yog'dirishga tushding. Sen yozishdan charchamasang, biz o'qishdan qiynalmaymiz. Biroq uchta narsadan ogohlantirib qo'ymoqchimiz.

Birinchidan, o'zani tor, suvi sayoz ariq shaldirab oqadi. Ba'zi yoshlarning adabiyotga kirib kelishi mana shunday ariqning oqishiga o'xshaydi. Sen hali yoshsan, albatta.

Yuborgan she'rlaring ham shoshqaloq, ham yalqov, ham nodon quruvchining uy qurish niyatida poydevorsiz to'rt devorni tiklar-tiklamas, qing'ir-qiyshig'ini tekislamay, suvamay, ustini yopmay turib "bitdi-bitdi" qilib komissiyaga ko'rsatganidek gap.

Ikkinchidan, shoirlik fikr-tuyg'uning tiniq chashmasi. Sen o'z she'rlaring bilan chuqur quduqqa kichkinagina chelak tushirib, uni ham to'lar-to'lmas tortib olayotgan shoshqaloq kelinchakka o'xshaysan.

Uchinchidan, ayrim chalasavodlar hamma allaqachon ko'rib-bilib turgan narsadan bexabar yuradi-yuradi-da, kunlardan bir kuni to'satdan eshitib-ko'rib qolgudek bo'lsa, go'yo katta bir yangilikni kashf etayotgandek bu ko'rgan-eshitganini aytib dunyoga jar soladi. O'zini o'ta savodxon, bilimdon ko'rsatishga tirishadi...

Sen ham o'qirkansan, ham o'qitarkansan. Shuning uchun biliming kam, savoding chala demoqchimasmiz. Adabiyot maxsus savodxonlikni talab qiladi. Bu gapni mendan boshqalar ham bilmasmikin, deb hayiqibroq ish ko'rishni talab qiladi.

Yozaver, biroq daftaringga emas, ko'proq yuragingga yoz.

Salom bilan, "Qizil Qoraqalpog'iston" gazetasi redaksiyasi".

Bu gap ham men uchun bexos boshimga kelib tushgan yana bir cho'qmor bo'lib, talay paytgacha garangsib yurdim.

"Birov kamchiligingni yuzingga dangal aytsa, jahling chiqadi. Ana shunda labingni qattiq tishlab jahlingni ichingga yuta olsang, o'zingni ham, aybingni yuzingga aytgan odamni ham tushunib yetasan", derdi bobom. Men endi o'zimni-yu kamchiligimni ko'rsatgan odamni to'g'ri tushunish harakatida bo'ldim.

* * *

Otam, onam, bobom — uchalalari ishga erta ketishardi. Garchi kasali qayta qo'zib, uzzukun ko'rpa-to'shak qilib yotsa-da, ukalarimga momom uyda bosh-qosh edi. Bir tunda — Bibifotima, Bibizuhra ismli egizak singillarimning tug'ilganiga ikki oy to'lay deb qolgan edi (ular 1945-yilning 14-martida tug'ilgan) — momom qattiq og'rib chiqdi. Momomning vaqt bemahal ahvoli og'irlashib qolaverishiga ko'nikib qolganligimiz uchun apil-tapil kiyinayotgan edim, beshikdagi singillarim chirillab yig'layverishdi. Ularning yig'isiga ham o'rganib qolganmiz. Chunki odatda biri yig'i boshlasa, ikkinchisi uning tovushigayoq uyg'onadi-da, ikkovlon jo'r bo'lib yig'lay-yig'lay, axiri tinishadi.

Mening maktabga otlanayotganimni ko'gan momom:

— Qaddimni tutishgayam holim kelmay, sillam qurib turibdi, bolam. Singillaringni onangning oldiga oborib emizib kel yo non chaynab berib, qorinlarini to'ydirib ket, — deb qoldi.

Maktab devoriy gazetasini kecha uyga olib kelib tayyorlagan edim. O'qishimga kechiksam, direktorga shuni bahona qilarman. O'qitishga kechikmasam bo'ldi-da, deya o'ylab, qayta yechindim.

Momom og'zidagi yagona tishi bilan har burchidan bir tishlay-verib, yum-yumaloq bo'lib qolgan, ustiga ustak talaygina kirlagan bir chaqmoq qandni yostig'ining ostidan olib, menga uzatdi-da:

— Nonga manovini qo'shib chaynab og'izlariga solmasang yemaydi. Juda ayyor-da bu qizlar, — dedi.

Shunday qilib, egizak singillarimni tupugim bilan qand aralashtirib ho'llangan nonga to'ydirib, choshgohga yaqin uydan chiqdim. Bir ariqning yoqasidagi do'nglikka chiqib, maktab tarafga ko'z yugurtirsam, o'quvchilar, hozirgina qafasdan ozod etilgan kiyiklardek, maktabdan o'ynoqlab chiqib chor tarafga tarqalishayotgan ekan.

Rahima (ikkovimizning onalarimiz qarindosh, bir sinfda o'qib, bir partada o'tiramiz) men tomonga yugurib kelaverdi. Dam-badam surinib yiqiladi. Turib yana yuguradi. Ko'prik men turgan yerdan sal yuqoriroqda edi. Odatda Rahima shundan aylanib o'tardi. Bu gal to'ppa-to'g'ri ro'paramga kelib o'zini suv to'la ariqqa otsa bo'ladimi. Hech nima ko'rmayotgandek. Bazo'r qo'lidan tortib chiqardim.

— Bu qanaqasi? Tinchlikmi? — deb so'radim yarim po'pisa, yarim taajjub bilan.

U entika-entika bazo'r: "Xalilakam kelyapti. Ibodullakam kelyapti!" dedi-da, yana oldinga intildi. Ortidan men ham yugurib:

— Ayt, qayerda? Oldiga chiqaylik-da! — deyman.

U eshitmaydi.

— Urush to'xtabdi! Akalarim kelyapti!.. Oyimga aytaman! Oyimga tezroq yetkazaman!.. — deya qichqirgancha yelib ketaverdi. To'xtab ortidan qarab qoldim. Har o'n-o'n besh qadamda yiqilib yer quchoqlaydi-da, otilib turib yana yuguradi. Yana yiqiladi, yana turadi...

Bu — 1945-yilning 9-mayi edi. Ovulimiz rayon markazidan o'ttiz chaqirimcha olisda, radio yo'q... Keyin bilsam, rayondan xushxabarni tezroq yetkazish uchun ovullarga otliq choparlar jo'natilgan ekan. Shulardan biri maktabimiz oynasini urib sindirib,

yo'l-yo'lakay: "Urush to'xtadi! Urush to'xtadi! Armiyadan yigitlarimiz kelishyapti!.." deya hayqirgancha, o'tib ketgan ekan.

O'sha kuni ovulimizda qanday bayram bo'lganini ta'riflashga til ojiz. Har qalay, tirik jon borki u yoq-bu yoqqa yugurgiladi, irg'ishlab o'ynadi, baqirib-chaqirdi, qo'shiq aytdi... Ovul to'yida kamgapligi, sipoligi bilan dong taratgan bir oilaning kenja qizi Rahima, uning otasi, onasi, opasi, kenja akasi tarki odat qilib, biri-biriga basma-bas shundaqangi ajoyib qo'shiqlar aytishdiki!.. Hech kim hech qachon ko'rmagan o'yinlari bilan ovul ahlini shunaqangi hayratda qoldirdiki!..

Ovul odamlarining ayniqsa bu oilaga e'tibor qilib, hayratga tushishining boisi bor edi; yuraklari orziqib, "ana keladi", "mana keladi" deb kutganlari — Xalil, Ibodulla ismli azamat yigitlarning ikkalasi ham halok bo'lgani haqida allaqachon qora qog'oz kelgani ularning o'zlaridan boshqa barchaga ayon edi...

Bu shodlikni motamga aylantirib, bolalarining o'limini aytishga esa hech kimning yuragi dov bermasdi.

Hatto bobom ham, onam ham bu ishni zimmalariga olishdan qat'iyan bosh tortdilar.

— Mening tug'ishgan opam Bibixon ajoyib ayol. "Ertasidan umid odamning umrini uzaytiradi", deb ko'p aytardi. Mayli, kutaversin, uni ertasidan noumid qilmaganimiz ma'qul, — dedi onam ovul oqsoqollariga.

— "Kichkina xalq katta orzu bilan yashaydi". "Ota-ona tirik ketgan farzandining tirik qaytib kelishiga ishonib yashaydi". "Bugungacha ma'lum qilinmagan qora xatlar endi hamishalik sir bo'lib qolaversin", — deyishdi ovul oqsoqollari.

1945-yilning 9-mayidan keyin ovul ko'chalari qayta jonlandi. Kechqurunlari yana ulardan shodon kulgilar-u sho'x-xandon tovushlar eshitiladigan bo'lib qoldi. Biroq, baribir, urush arafasidagidek avji baland emas. U yoq-bu yoqqa o'tib borayotgan qo'ltiqtayoqli mayib-majruhlar ko'rinadi. Ularning atigi to'rt yarim yil, hattoki bir-bir yarim yil avval kuchini qayerga sig'dirishni bilmay yurgan azamat yigitlar bo'lganini eslaysan-da, beixtiyor hazin o'ylarga cho'masan, kulib kelayotgan bo'lsang jiddiy tortasan, tez kelayotgan bo'lsang qadamingni sekinlatasan, ohista

kelayotgan bo'lsang qadaming ildamlashadi. Xullas, loqayd qololmaysan...

Shunday kechinmalar ko'nglimda hazin she'r bo'lib betinim kezadi. Yozay deyman — hech kelishtirolmayman...

"Bu yil yettinchi sinfda o'qiganim ma'qulmikin yo muallimlikni davom ettiraversammikin?" deya ikkillanaman. "Ishlashim kerak, olis shaharlarga o'qishga ketish uchun pul to'plashim kerak", degan fikrga kelib to'xtayman. Shu fikr xayolimga mustahkam o'rnashib oladi.

Avgustning o'rtalarida egizak singillarimni hovlida o'ynatib o'tirgan edim, o'zim ikkinchi sinfda o'qitgan bolalardan biri yonimga yugurib kelib, maktabga kelgan RayONO inspektori meni chaqirayotganini aytdi. Uyda singillarimni olib qoladigan hech kim yo'q edi, shu sababdan ikkovini ikki yelkamga o'tqazdim-da, yalangoyoq holimda inspektorga ro'para bo'ldim. Men uning tashqi qiyofasidan inspektor ekanini bildim. Biroq u meni tanimadi. Hatto "Kimsan?" deb bir og'iz so'ramadi. "Hoy bola, ukalaringni yig'latmay uyga olib ketsang-chi", deb jerkib berdi. Ortimga qaytib ketaverdim. Biroq yo'l-yo'lakay tanamga o'ylab, uning chaqirishga chaqirib, bir og'iz gaplashmagani qattiq alam qildi. Onam endigina ishdan kelib, non yopish uchun tandirga o't qalayotgan ekan. Qayoqdan kelayotganimni, inspektorning muomalasini oqizmay-tomizmay aytib berdim. Onamning qattiq jahli chiqib ketdi. Ertasiga ham jahli tarqamadi. "Inspektorga ikki og'iz so'zni aytolmagan lapashang, endi ovuldan jo'na-yu, o'qishni o'zing top!" deb yana uzoq koyidi. Hatto bir-ikki do'pposladi ham. Axiyri biror haftalik yeguligimni g'amlab, bir to'rvaga solib, orqamga tang'ib bog'ladi-da:

— Qani, jo'na, shu ketganingdan biron o'qish topib kirmasang ostona hatlab qaytib kelma! — deb tayinladi. Mening ovuldan chiqib ketganimga ishonch hosil qilish uchun bo'lsa kerak, talay joygacha kuzatib bordi.

Onamning nasihatlaridan: To'ng'ich farzand keyingi farzandlar yuradigan yo'l.

To'ng'ich farzand — keyingi farzandlar o'tadigan ko'prik.

To‘ng‘ich farzand — keyingi farzandlar intilib o‘sadigan baquvvat chinor.

Bobom aytgan afsona: Odam Ato o‘zining hadsiz-hisobsiz o‘g‘il-qizlariga “O‘zbek, o‘ris, grek, italyan, nemis, tatar, gruzin, qoraqalpoq...” deb ot qo‘yib, mustaqil oila bo‘lishdan avval har biriga enchi taqsimlash uchun ularni yig‘ibdi-da, oldilariga to‘rt qopning og‘zini ochib qo‘yibdi. Qoplardan biri oltinga, ikkinchisi donga, uchinchisi pichoqqa, to‘rtinchisi kitobga liq to‘la ekan. Ota o‘g‘il-qizlariga qoplarni ko‘rsatib: “Kim nimani xohlasa o‘shani olsin!” debdi. Odam Ato kichik o‘g‘illaridan biri Qoraqalpoqni yaxshi ko‘rar ekan. Shu o‘g‘li oldiga kelganida donni ko‘rmay, yo oltin, yo kitobni ola qolsin, degan niyatda o‘rnidan turib, donli qopning ustiga o‘tiribdi. Qoraqalpoq Otasining niyatini fahmlamay, “Ota, bundoq tura turing-chi!” deb qopdan bir kaft donni enchi sifatida olibdi. Odam Atoning oyoqlari ostiga to‘shalib yotgan tol chiviqlaridan birini so‘ramayoq olibdi-da, o‘z o‘rniga borib turibdi.

— Bu chiviqlar bilan men-ku, aytganimni bajarmagan farzandlarimni savalayman. Xo‘sh, sen nima qilmoqchisan? — deb so‘rabdi Ota.

— Agar olgan donim hosil bermasa, men bu chiviq bilan mol boqib kun ko‘raman, — deb javob beribdi Qoraqalpoq.

“Bobomiz o‘shanda kitobga yopishganida edi, bilimdon otaning avlodi bo‘lardik”, deb o‘kinadi bobom.

“Otaning xatosini tuzatgan farzand — otaga sodiq farzand”, deb uqtiradi onam.

* * *

Ostonagacha — bitta yo‘l, ostona hatlab chiqsang — mingta yo‘l, deydi aqli rasolar.

Uydan onamning “zug‘umi” bilan yolg‘iz o‘zim chiqib ketgan bo‘lsam-da, rayonga borgach, menga qismatdoshlar — o‘qish qidirib yurganlar topilib qoldi. Qo‘shni kolxozdan Hasan Karimov (hozir u Kegeyli rayonida vrach), To‘liboy Irsekeev (hozir u Nukus rayonida muallim) degan bolalar bilan uchrashib, tanishib,

maslahatlashib, uchovlon to'ppa-to'g'ri Chimboy shahridagi pedagogika bilim yurtiga yo'l oldik.

Chimboy deyish bilan ko'nglimda najotbaxsh umid uyg'ondi. "U yerda birinchi murabbiyim Uzoqbergan og'a Bekniyozovni topib olsam zo'r bo'lardi-da! O'sha odam yordam berardi. Menda u kishi aytib turib yozdirgan kundalik bor-ku, o'shani ko'rsatardim. Ko'rishi bilan meni eslardi, keyin shoirlikka o'rgatardi".

"Agar urushdan omon qaytmagan bo'lsa-chi?"

Bu shubha butun vujudimni titratib yubordi. Bir muddat tizzalarimdan mador qochdi.

— To'lepbergen, yettinchini bitirganing haqida guvohnoma olmaganmisan? — deb so'rab qoldi Hasan mening xayolimni bo'lib.

— Yo'q, — dedim.

— Bilim yurtiga yettinchini bitirmaganlarni olmasligi mumkin, — dedi u.

Yuragim shuv etib ketdi.

— Menda oltinchi sinfni bitirganim haqidagi guvohnoma bor, — dedi To'liboy. — Uniyam urush boshlangan yili olgan edim.

— Menda ham shunday, — dedi Eson. — Urush boshlangan yili oltinchini bitirgandim. Lekin guvohnomani yaqindagina yozdirib oldim.

— Mendayam oltinchining guvohnomasi bor. Shu yil bitkazganman. Agar o'rtada uzilish bo'lmaganida, hozir sakkizinchi sinfni bitirgan bo'lardim, — dedim men.

Chimboy yo'lidagi Moyyop ko'prigi ustida o'tirib, to'rvalarimizdan yarimta-yarimtadan non olib, suvga botirib yegancha o'zaro maslahatga tushib ketdik. Endi nima qilamiz? O'qishga ketdik deb chiqib, kirolmay, ikki qo'limizni burnimizga tiqib ortga qaytsak, o'lim bo'lmagan taqdirda ham, har qalay, uyat!

— Menda bir fikr bor, — dedi To'liboy bug'doyrang ko'zlarida kulgi o'ynab.— Bilasizlarmi, oltini sakkizga aylantirish juda oson. Guvohnomalar, toshbosma emas-ku, siyohda yozilgan.

Hasan Karimovning qovurilgan bug'doydek qoramag'iz, yapasqi yuzi gul-gul yashnab ketdi. To'liboyni quchoqlab, o'pib oldi-da, uni maqtashga tushdi:

— Ana, aql! Ana, miya! Sen bu kallang bilan Sovnarkom bo'lishing kerak! Mana, sen bilan biz urush tufayli to'rt yil yutqazganmiz. To'lepbergen ikki yil yutqazgan. To'lepbergen bizlardan yoshroq, shuning uchun mayli, u umrida hech nima yutqazmagan bo'lsin. Mayli, biz ikkovimiz ikki yildan yutqazgan bo'la qolaylik. Shu gap oramizda qolsin. Kelishdikmi?

— Kelishdik! — dedi To'liboy.

— Kelishdik! — dedim men.

Uchalamiz ham guvohnomalarimizni chiqardik. Darhaqiqat, hammasi siyohda yozilgan.

U paytlarda avtoruchkaning nima ekanini bilmasdik, biroq hammamizda rangli (kimyoviy) qalam bor edi.

— Qalam uchini til bilan yalab turib tuzatsak, sezilib qolishi mumkin. Suvga botirib yozish kerak! — dedi Hasan. Shunday qilib, uchovlon qo'l ushlashib ko'prik tagiga tushdik-da, sunbulaning tiniq suvi yoqasida g'ozdek qator o'tirib olib, "Qani, boshladik!" degan komanda bilan har birimiz o'z guvohnomamizdagi olti raqamini sakkiz raqamiga o'zgartirdik.

— Ana, qoraqalpoq bolalarining aqli! — deb xitob qildi Hasan.

— Endi birato'lasi ikkinchi kursga kiradigan bo'ldik, — astoydil suyundi To'liboy.

Bilim yurtining qabul komissiyasida hujjatlarimizni qabul qila turib "Sizlar ikkinchi kursga olinishlaringiz kerak, faqat ona tilidan yozma imtihon topshirasizlar", deyishdi. Mening shu yili oltinchi sinfni bitirganim ish berdi, shekilli, yozma imtihondan yaxshi o'tib, ikkinchi kursga qabul qilindim. Hasan bilan To'liboyning to'rt yil o'qimagani pand berdi: ular yozma imtihondan yiqilgani uchun birinchi kursga qabul qilindi. Bu hol meni o'ylantirib qo'ydi. "O'qishga birga kelib ulardan ikki-uch yosh kichik bo'la turib, bir kurs yuqorida o'qish uyatmasmi? Buning ustiga, aybim ham bor. Men ham oltini sakkizga aylantirganman!" Shuning uchun ular bilan maslahatlashib, ertasidan ikkinchi kursga emas, birinchi kursga kirib o'tiraverdim.

Oradan bir kun o'tib, bilim yurti o'quv bo'limining mudiri (hozir Nukus shahrida yashaydi, nafaqada) sinfimizga bostirib kirdi-da:

— Hey Qaipbergenov, boshingdagi aqling qorningga, qorningdagilar boshingga almashib ketgan qanaqa bolasan o'zi?! — dedi jig'ibiyroni chiqib.

Bu gap menga qattiq botdi. Noiloj o'rnimdan turib, o'z kursimga chiqdim.

...Bilim yurtida bo'sh vaqtimiz ko'pga o'xshaydi. Shu bois endi shoirlikka ishtiyoq meni o'ziga butunlay asir qilib oldi. O'zim uchun boshdan oyoq yangilikdan iborat bo'lgan shaharda har bir narsa meni hayajonga soladi. Kechqurunlari ko'rgan-bilganlarim haqida she'r yozishga o'tiraman. Biroq, baribir, hech kelishtirolmayman. Birinchi murabbiyim Uzoqbergan og'ani qanday bo'lmasin topib olishim kerak, deb ahd qildim. Axtarishga tushdim. Bilim yurtining shu yerlik xizmatchilaridan so'rab-surishtirib daragini topdim. Qarangki, Uzoqbergan og'a shu pedagogika bilim yurtidan frontga ariza berib, ketganicha qaytib ishga kelmagan ekan. Uyining manzilini olib, borib kelishga otlandim. Qorao'zak rayonining o'ninchi ovulida — Andreev nomidagi kolxozda yasharkan. Chimboydan piyoda yarim kunlik yo'l ekan. Topib borishim qiyin bo'lmadi.

Afsuski, yaxshi niyat bilan qilgan safardan barcha umidlarim puchga chiqib, ko'nglim xufton bo'lib qaytdim. Uzoqbergan og'a ham, u kishining ukasi To'lepbergen og'a ham urushda qahramonlarcha halok bo'lgan ekan. Meni ularning ota-onasi — ikkala azamatidan judo bo'lib, yakka-yolg'iz qolgan, sochlari oppoq, munkillagan chol-kampir kutib oldi. Meni hayratga solgan narsa shu bo'ldiki, Uzoqbergan og'ani eslab, ho'ngrab yig'laganimda ham chol yig'lamadi.

— Bolam, o'z yurtini himoya qilib, dushman o'qidan o'lgan yigit shahid bo'ladi. Bundaylarga yig'lamaslik kerak. Ular bilan faxrlanish kerak, — dedi Bekniyoz ota.

Kampir choy qaynatib yurib, gap orasida mening urug'imni, oti-zotimni so'rab-surishtira boshladi. Javoblarimni eshitib Bekniyoz ota qattiq hayajonlandi:

— Iye, o'zimizning Hakim og'aning nevarasimisan? Buni qara-ya! Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida bobong bilan birga ishlashganman. Men oqsoqol edim. Hakim og'a mendan o'n yosh

katta edi. Otboqarim edi. Sovet hukumatini birga qurganmiz. Jamay dushmanlariga qarshi birga jang qilganmiz.

— To'lepbergen, sen mening Uzoqberganjonimni ko'rganingda tuzukroq nasl-nasab so'rashmagan ekansan-da, a? — deb so'radi kampir ovozi titrab, nimadandir umidvorlik bilan.

— So'rashganida u armiyaga ketishdan avval pioner lagerida Hakim og'aning nevarasini ko'rdim, deb aytgan bo'lardi-ku! — uqtirdi Bekniyoz ota. — Bilasan-ku, kampir, Uzoqberganjonning fe'li yangicha edi. Hovva. Hozirgi yoshlar bizlardan aqlliroq. Ular bir-biri bilan urug' tugul millat so'rashmaydi. Oz sonli xalqimizning avvalboshdan mayda urug'larga bo'lingani sababli rivojlanishdan orqada qolib ketganini Uzoqberganjonim juda yaxshi bilardi!

Men ulardan Uzoqbergan og'aning so'nggi xatlarini so'radim. Kampir ko'hna sandig'ini ochib:

— Manovinisi Uzoqberganjonning xatlari, manovinisi To'lepbergenjonning xatlari, — deya ikki taxlam xat uzatdi.

Xatlarga bir chekkadan ko'z yugurtira boshladim. Talaygina xatlar she'r bilan yozilgan edi.

— Ikkalalari ham shoir ekan-ku! — dedim men hayratimni yashirolmay.

Onaizor mung'ayib ko'zlariga yosh oldi. Bekniyoz ota:

— Hovva! Biroq Uzoqbergan zo'rroq yozardi! — dedi soddadillik hamda g'urur bilan.

Kampir tag'in sandig'iga qo'l uzatib, undan bir dasta daftar oldi.

— Manavilarning hammasi Uzoqberganjonimning she'rlari. Qora qog'oz kelgani bilan o'lganiga ishonmayman bolamning! Ketayotganida bularni menga berib:"Oyi, omon-eson qaytib kelaman, o'shangacha ehtiyot qilib saqlab qo'ying", degan edi...

— To'lepbergen ham o'zimizning o'g'limiz, ko'rsin, keyin yana olib qo'yarsan, — dedi Bekniyoz ota.

— Manavinisini bo'lsa, shundoq bir ko'r-da, o'qimay qaytib ber, — dedi kampir oxirida qalingina daftarni uzatarkan.

Nachora, men daftar muqovasiga yozilgan so'zlarnigina o'qiy oldim. Unda: "Kundalik. U. B." "Biz qoraqalpoq yoshlari ilmni,

insoniyat to'plagan boy xazinani endigina o'rganishga kirishdik. Avvaliga o'zimizni tarbiyalab, keyin tezroq xalqimizni tarbiyalashga o'tishimiz kerak. Buning uchun shoshilish kerak! Hozir hammadan orqadamiz..." deb yozib qo'yilgan edi.

Bir daftarda Pushkindan, ikkinchisida Lermontovdan, uchinchisida Shekspirdan, to'rtinchisida Gyotedan tarjimalari bor ekan. O'zi yozgan she'rlardan qo'limga tushgan bir nechasini o'qib ko'rib, o'zimning shoir bo'lish niyatida yurganimdan uyalib ketdim.

...Inson umrida qanday o'kinchlar, pushaymonlar, afsus-nadomatlar bo'lmaydi deysiz?! Ularning aksariyatiga odamning o'zi sabab, o'zining uquvsizligi, nodonligi, yo'l qo'ygan xatolari sabab! Bunday paytda odam o'zini, avvalo, boshqalarning oldida kechirolmaydi! Men ham o'shanda bu mushtipar chol-kampirdan Uzoqbergan og'aning barcha xatlarini, kundaliklari-yu she'rlarini, jamiki daftarlarini so'rab olib ketmaganim uchun o'zimni hech qachon kechirolmasam kerak. Men borib ketgandan keyin oradan ikki yilcha o'tib, Amudaryoning bir toshqinida Uzoqbergan og'aning ovuli suv ostida qolib ketibdi. Ko'pchilik o'z boshini omon olib chiqishga bazo'r ulguribdi. Oradan sal o'tmay, bechora chol-kampir ham bu dunyodan ko'z yumibdi...

* * *

Chimboyda bir oycha o'qib, kursdoshlar bilan endi tanisha boshlaganimizda, kunlardan bir kuni bilim yurtiga bizga qo'shni kolxozdan Faxriddinov Bahoviddin degan bola o'qishga keldi. U hammamizdan bir necha yosh kattaroq edi. Urush yillarida kolxozda hisobchi bo'lib ishlagan ekan. U paydo bo'ldi-yu, bizda halovat yo'qoldi.

— Bolalar, bunday bilim yurtida yurguncha Nukusdagi ped-institutning bir yillik tayyorlov kursiga kirsak, kelgusi yili o'qishni birinchi kursdan boshlab ketaverardik, — deb qoldi u bizni hovliqtirib.

— Zo'r fikr! — dedi Hasan. — Bilim yurtini uch yilda bitirib, keyin kirgandan shunisi ma'qul! Urushning kasofati bilan yo'qotgan yillarimizning zararini to'la qoplaymiz!

To'liboy boqibeg'amroq, kim nima desa rozi bo'laveradigan bola edi. U ham tarki odat qilib:

— Tezroq oliy ma'lumotli bo'lardik! — dedi astoydil hayajonlanib.

Birinchi murabbiyimning o'z kundaligi muqovasiga "Shoshilish kerak!" deb yozib qo'ygani beixtiyor esimga tushdi-yu, men ham bu taklifga bajonidil qo'shildim. Ertasi saharmardonda Nukusga boradigan bir yuk mashinasiga o'tirdik.

Nukusda Qizketgan soyning yoqasidagi uylardan biriga joylashdik. Hasan ikkovimizning shapkamiz bir xil matodan tikilgan bo'lib, tikilishi ham qariyb bir xil edi. Ertalab turib qarasak, Bahoviddin Hasanning shapkasi soyavoniga rangli qalamda otning qashqasidek qilib "To'lepbergen" deb yozib qo'yibdi.

Hasan bilan Bahoviddin tengdosh, qolaversa, ovuldosh bo'lganliklari uchunmi, juda inoq edi. Lekin shu hazil sabab kutilmaganda ikkovi mushtlashib qolishdi. To'liboy ikkovimiz bazo'r ularni ajratib ko'ydik. Odatda, ular: "Ini degan og'asining hurmatini qilishi kerak" deb, o'z yuklarini menga ko'tartirishardi. Mushtlashuvdan so'ng ijaraxonadan chiqishda: "O'zingdan kichkinani avaylash kerak!" deb, ikkalasi baravar mening yukimni ko'tarmoqchi bo'lishdi. To'liboy meni astagina bir chekkaga tortib: "Sezayapsanmi, ikkalasi ham seni o'z tarafiga og'dirib olishning payiga tushib qoldi. Mana shunaqa, kattalar mushtlashsa, ko'pincha buning kichkinalarga foydasi tegib qoladi", deb shivirladi.

Institutga yaqinlashganimizda Hasan shapkasini qo'liga olib:

— Manovi bezorinamo yozuv bilan meni institutga olmaydi, — deb yo'l ustida taqqa to'xtab qoldi.

— Bilasizlarmi, biz qoraqalpoqlarning ota-bobolari hisobkitobni yaxshi bilmagani uchun, o'z haqlarini ajratolmay kun kechirgan. Yaxshisi institutni qo'yib, Xo'jaylidagi moliya texnikumiga kirsak qanday bo'larkin? — Bahoviddin ham ikkilanib taraddudlanib qoldi.

Hasan Chimboyga qaytib borishga, direktorning "Qayoqda yuribsanlar?" deya koyib-tergashidan qo'rqqani uchun bo'lsa kerak, Bahoviddinning bu taklifiga darrov rozi bo'la qoldi.

Xo'jayli moliya texnikumi bizlarni qabul qilmadi. Nima qilishni bilmay, boshimiz qotib, axiyri texnikum bilan bir binoda joylashgan pedagogika bilim yurtining direktoriga uchrashish kerak, degan to'xtamga keldik.

Suyaklari buzuq, norg'ul, yuzi cho'zinchoq odam — bilim yurtining direktori Yukinish Odilov bizning gaplarimizni jimgina tinglab o'tirdi-da:

— Qani, hujjatlaringni ko'raylik-chi, — dedi.

Bahoviddindan boshqalarimiz Chimboydagi bilim yurtidan hujjatlarimizni olmasdan, Huloguning itidek laqillab yurganimizni tushunib, qattiq o'kinishga tushdik.

Direktor miyig'ida kuldi-da:

— Oralaringda kichigi sen ekansan. To'g'risini ayt, Chimboy bilim yurtining nechanchi kursida o'qiysanlar? — deb menga qaradi.

— Ikkinchi kursida, — dedim men.

Kutilmaganda u o'rnidan turdi-da:

— O-o, bechoralar! Urush bo'lmaganida hozir hammangiz institutda yurgan bo'lardingizlar-a! Qani, ortimdan yuringlar-chi, ikkinchi kursga oborib o'tqazaman, — dedi.

Uch o'rtog'im baravar o'rnidan turib, og'zi qulog'iga yetgudek holatda direktor ortidan yurdi. Men ham ularga ergashdim.

Bu — 1945-yilning oktabri edi...

"Til —odamlarni bir-birlariga yaqinlashtiruvchi vosita", derdi til muallimi. "Adabiyotning birlamchi unsuri — til", derdi u adabiyot darsida.

Hamma yerda bo'lganidek, Xo'jayli pedagogika bilim yurtida til darslarini ham, adabiyot darslarini ham bir muallim o'qitardi.

Mening butun fikri-zikrim — adabiyotni ko'proq o'qib-o'rganish, adabiyotni chuqur tushunish. Muallimimiz yaqindagina harbiy xizmatdan kelgan yigit ekan. Bir qarashda adabiyotning ashaddiy ishqivoziga o'xshaydi. Ammo nimagadir ona tili darslarini alohida hafsala bilan o'tardi. Buning ma'nisini keyinroq tushundim...

8

...Dunyoni yaxlit bir organizm deb tasavvur qilsangiz, undan son-sanoqsiz tirtig'-u chandiqlarni — behisob kam-ko'stlarni ham ko'rasiz. Bu kam-ko'stlarning ko'pligiga bosh sabab — odam bolasi foydalanadigan tillarning benihoya xilma-xilligida, degan xayolga ham borasiz goho. Lekin... aslida tillarni har xil qilib yaratgan kuch — odamlarning o'zlarimasmi?!

Eng so'nggi ma'lumotlarga qaraganda, insoniyat 2796 tilda so'zlaydi. Yer yuzida sakkiz mingga yaqin sheva bor. Har bir tilning lug'at tarkibi o'sha tilda so'zlaydigan xalqning milliy boyligi, hech nima bilan almashtirib bo'lmaydigan bebaho boyligi! Uning bir so'zini noo'rin qo'llash tirik odamning bir a'zosini jarohatlash bilan barobar.

Hattoki, har bir so'z jonli organizmga o'xshaydi. U qachonlardir tug'ilgan. Tug'ilgan narsa esa, vaqti kelib o'ladi ham.

— Jonivorlar bilan muomala qilganda ehtiyot bo'lish kerak. Yo'qsa yo o'zingni, yo uni mayib qilib qo'yasan, — derdi onam.

Bobom uyga mehmon boshlab kelganida, har safar uy ichidagilarga: "Mehmon deganni suyunib kutib olinglar, issiq ovqatlaring bo'lmasayam issiq-issiq so'zlaring bo'lsin", deb uqtirardi.

Har bir so'z yechilishi mushkul jumboq. Uni to'g'ri yechsangiz, yurar yo'lingiz-u qalb qo'ringizni yorishtirib yuboradi. Chunki har bir so'z jumboq bo'lish bilan birga bu jumboq dunyoni tushunish-u tushuntirishning o'ziga xos kaliti. Til odamlarni birlashtirishning eng qudratli vositasi!

Lekin, o'ylab ko'raylik, tili bir, millati bir, vatani bir odamlar bir-birlarini beistisno tushunyaptilarmi? Pasportida ayni millat nomi yozilgan, "ona tiling" degan savolga aynan javob yozadigan butun-butun xalqlar o'zaro inoq, tinch-totuv yashashyaptimi? Ming afsuski, yo'q! Bugungi arablar yoxud forslarning foje qismatlarini tasavvur qiling!.. Xo'sh, ingliz, fransuz yoxud ispan tilida gaplashuvchilar-chi? Ularni o'zaro ahil deb bo'ladimi?

Tillari o'zaro yaqin o'zbek, qirg'iz, turkman, ozarbayjon, tatar, boshqird... xonliklari o'rtasida birlik bor edimi?

Rus tili kerak! Bu til, avvalo, birlashtiruvchi qurol sifatida juda-juda zarur!

Qoraqalpoq tilidagi dastlabki alifbe rus yozuvi asosida yaratildi!

Qariyalar hangomalaridan: Olloyor Do'stnazarov qoraqalpoq xalqiga avtonomiya berilishiga erishibdi-yu, biroq oqibatini o'ylab boshi qotibdi. Axir avtonomiya bo'lganidan keyin idoralardagi turli-tuman rasmiy yozishmalar, yig'ilishlar qoraqalpoq tilida olib borilishi kerak. Do'stnazarov qoraqalpoq tilida ish yuritishga kirishay desa, xalq yoppasiga savodsiz. Bu hol-ku, unga avvaldan ma'lum edi. Loaqal xalqning savodini chiqarish uchun qulayroq bir alifbe bo'lsa ekan! Nima qilishini bilmay, avtonom respublika bo'lmay qo'ya qolsakmikin, deya ikkilanib, yana Moskvaga otlanibdi. Moskvada uni qoraqalpoqlarning yo'lboshchisi sifatida kutib olishibdi-da:

— Do'stnazarov, hech nimadan xavotirlanma, har qalay, arab harflarida yoza oladigan savodli odamlar bor-ku! Mana, Sibirda paydo bo'lganidan beri shu paytgacha yozuv nimaligini bilmaydigan xalqlar yashaydi. Hattoki shu xalqarda ham o'z ona tilida o'qish-o'qitish ishi yo'lga qo'yilyapti. Yaxshisi, sen tezda o'z yurtingga qaytib bor-u, qoraqalpoq alifbesini tuzdiraver! Hech nimadan qo'rqma! — deb ortiga qaytarishibdi.

Yurtiga ko'ngli tog'day o'sib kelgan Do'stnazarov barcha savodi borlarni yig'ib, ularga dastlabki qoraqalpoq alifbesini yaratishni topshiribdi:

— Biroq yigirmanchi yillarga kelib, ayrim ziyolilar aslida bu xalqlarning do'stligiga raxna solish maqsadida ozarbayjon, o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tatar, boshqird, qoraqalpoq, no'g'ay, qumiq... tillarini birlashtirish, bu tillarning barchasi uchun yagona yozuv, yagona alifbe tuzish kerak, deb chiqdilar.

Bu fikrni dalillash uchun ular: "Aks holda, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq, no'g'ay, qo'miq... singari kam sonli tillarda kelajakda roman yaratish mumkin emas", degan bahonani ro'kach qilishgan ekan.

Ana o'shanda:

— Yo‘q, bu noto‘g‘ri gap! Qoraqalpoqlar serfarzand xalq. Uning o‘n bolali bir oilasiga kirib, bolalaringning biri gapirsin, boshqalari uning gapini takrorlasin desang, seni quvib yuboradi. To‘qqiz bolaning to‘qqiz xil o‘ylash qobiliyatini yagona odam o‘z gardaniga olishi mumkin emas! — debdi Olloyor Do‘stnazarov.

— Olmazor boqqa kirib, bir tupidan boshqasini kesib tashlaymiz, ularning ham mevasini qolgan yagona tupdan olaveramiz, desang, har bir o‘zbek dehqoni “esi joyidami buning?” degan xayolga boradi. Shuncha tillarning turfa xil mevasini birgina til bera olmaydi! — debdi Fayzulla Xo‘jayev.

— Xalqni o‘z tilidan judo qilish — uning o‘tmishinigina emas, buguniyu kelajagini o‘zi bilan birga qo‘shib yerga ko‘mish ekanini har bir qozoq yaxshi biladi. Bizga qadar qozoq tilida yaratilgan adabiyotning taqdiriga kim javob beradi? — debdi Saken Sayfullin.

— Davr shamollarida uchib boshqa yurtlarga bosh olib ketgan turkmanlarga Vatanni unuttirishga hech kimning haqqi yo‘q! Inqilob sabab hovliqib chet elga ketgan turkmanlar ona tilini sog‘inib o‘z yurtlariga qaytganida, biz ularga nima deymiz? — debdi Qayg‘usiz Otaboyev.

— Baravar yonib turgan o‘n chiroqning moyini bir chiroqqa quyib, kattakon bir chiroq yoqaman deyish o‘taketgan ahmoqlik! — debdi bir moskvalik tilshunos.

Axiri har bir xalq, jumladan, qoraqalpoqlar ham o‘z yozuvi, ona tilidagi alifbeni yaratish ustida ish boshlabdi.

* * *

Dekabrning oxirlarida kursimizda bir ayol paydo bo‘lib qoldi. Uning yurish-turishi, gap-so‘zlaridanoq eri bilan ajralishgani, oila qurgan juvonligi bilinib turardi. Dabdurustdan paydo bo‘lib qolgan bu ayol tufayli butun kurs ahlida kutilmagan o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. Til va adabiyot muallimimiz endi tilga nisbatan adabiyot darslarini o‘zgacha bir shavq-u ishtiyoq bilan o‘tadigan bo‘ldi. Bir kuni Navoiydan, boshqa bir kuni Maxtumqulidan, uchinchi kuni Abaydan, to‘rtinchi kuni Berdaqdan ishqiy she’rlarni yodaki o‘qiydi. Nemis shoiri Geynedan, rus she’riyatining quyoshi Push-

kindan tarjima deb o'qigan she'rlari ham mazmunan yoddan aytgan she'rlariga juda-juda o'xshab ketardi.

Kimning she'ri bo'lsa bo'lavermaydimi, ishqilib, u she'r o'qisa bas, hammamiz jon qulog'imiz bilan tinglaymiz. Qizig'i shundaki, kursda hech kim o'sha yagona juvonning ismini aytmaydi. Yoshi kichikroqlar "Adabiyot opa", yoshi kattaroqlar "Adabiyot singlim" deb chaqirishadigan bo'lishdi. U ham bunday g'alati laqabdan xafa bo'lmaydi. Adabiyot darslarida muallim allaqaysi shoirdan tarjima deb o'qigan she'rlarni diqqat bilan tinglab o'tiradi-da, dabdurustdan: "Siz u shoirni shaxsan tanisangiz kerak?" deb so'raydi. Muallim esa: "Yo'g'-e!" deya zavqlanib kuladi. Xullasi kalom, bu juvonning soddaligi yo mug'ombirligi, adabiyot muallimining esa shunchaki she'r ishqibozi yo shoirligi, yana boshqa ko'pdan ko'p narsalar biz uchun yechilmas jumboq bo'lib qoldi.

Adabiyot muallimining aytganlaridan: — Qadim zamonda ikki mamlakat yo ikki xalq o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirib, do'stlikni mustahkamlash maqsadida o'zaro qiz olish-qiz berishlar rasm bo'lgan. Bizning davrimizda bu vazifani adabiyot bajaradi, kitob bajaradi. Shu bois har bir xalqning adabiyotini o'sha xalqning balog'atga yetgan qiziga qiyoslash mumkin. Shu ma'noda boshqa tilga tarjima qilishga yaroqsiz kitob — qariqiz!

— Adabiyot va muhabbat so'zlari aslida ma'nosi bir-biriga yaqin, qariyb sinonim so'zlar. Axir, adabiy asarning tub mohiyatida muhabbat yotishi ham bejiz emas-da.

— Muhabbatga erishish yo'li qanchalik mashaqqatli bo'lsa, adabiyotga kirib kelish yo'li ham shunchalik mashaqqatli.

— Hamma ham muhabbat ko'chasidan bir marta o'tadi. Xuddi shunday, hamma ham adabiyotda o'zini bir karra sinab ko'rish orzusi bilan yashaydi.

— Muhabbatda notayin odam — tuzsiz ovqat. Adabiyotda yomon yozilgan kitob ham — tuzsiz ovqat.

— O'zi baxtsiz odam o'zgani ham baxtli qilolmaydi. Xuddi shunday, o'z xalqiga manzur bo'larli kitob yaratolmagan yozuvchi hech qachon xalq nomidan gapirolmaydi.

— Adabiyot so'zi "odob" va "uyat" deb atalmish ikki so'zdan tarkib topgan. Muhabbatda ham zaruri — odob bilan uyat.

— Muhabbat jamiki tiriklikning onasi. Muhabbat — quyosh. Xuddi shunday, adabiyot ham jamiki tarbiyaning ibtidosi. Kitob — oftob. Ming afsuski, quyoshga ham qora chaplash niyatida yurganlar yo'q emas. Ular qayoqdan paydo bo'ladi, holi nima kechadi — bu savollarga ham munosib javobni adabiyot bera oladi.

Xulosa shuki, har bir xalqning jamiyat tarixida tutgan o'rni avvalo o'sha xalqqa mansub adabiyotning darajasi bilan belgilanadi.

"Adabiyot opa"ning aytganlaridan: — Odamzod tabiatidagi qanoatsizlik psixologiyasini adabiyot va muhabbatga bog'lab izohlash to'g'ri emas.

— Yagona manglay ostidagi ikki ko'z bir-birini ko'rolmaganiday, er-xotinlarning bir-birini ko'rgani ko'zi, otgani o'qi bo'lmasa-da, sirti yaltiroq, ichi qaltiroq oila bo'lib yashayverish hollari uchrab turadi.

— Ayol yomon er bilan, er yomon ayol bilan murosa qilolmagani kabi hech kim yomon kitob bilan murosa qilib yasholmaydi.

Adabiyot muallimi aytgan afsona: Alisher Navoiy ulkan bir gujum soyasida o'zining yosh shogirdlarini yig'ib, yangi yozgan g'azalini o'qib berayotgan ekan. Yonlaridan o'tib borayotgan yengiltabiat bir juvon to'xtab:

— Hoy, Navoiy, sen nega bu yosh-yosh yigitlarni o'zingga ipsiz bog'lab, boshlarini qotirib o'tiribsan? Hozir bir qosh qoqaman-u, hammasini ortimdan ergashtirib ketaman, — deb maqtanibdi.

O'shanda Navoiy juvonga:

— To'g'ri, shogirdlarimning ko'pchiligi senga ergashib ketsa ajab emas, chunki past ketishdan yuqoriga chiqish og'irroq, — debdi...

* * *

Shu afsona adabiyot muallimining bizga aytgan eng so'nggi hikmatli gapi bo'ldi. "Adabiyot opa" may oylarida matematika muallimiga turmushga chiqqan edi, qaytib bilim yurtiga qadam bosmadi.

Matematika muallimimiz nihoyatda kamgap, biroq poshnasi g'archillaydigan tufli kiyib yurardi. Adabiyot muallimi navbatdagi

til darsiga kirganida, sinfimizdagi bir sarkashroq bola tinchgina o'tirolmay: "Muhabbatda nutq tovushidan ko'ra oyoq tovushi chopag'onroq ekanmi deyman? Bu muammo adabiyotda qanday?" deb so'ragan edi, muallimimizning yuzi sholg'omdek qizarib, sinfdan otilib chiqib ketdi-yu, o'sha-o'sha qaytib qorasini ko'rsatmadi.

Haftada ikki marta, loaqal bir marta adabiyot darsi bo'lmasa, boshqa hamma fanlar rangsiz-tussiz, shu bois ko'ngilsiz tuyulardi. Mening bilim yurtida shoir bo'lish umidim ham o'sha adabiyot muallimimiz bilan birga ketib qolgandek edi.

9

Ikkinchi kursdan uchinchi kursga o'tish imtihonlari boshlangan kuni bilim yurtining direktori Yukinish Odilovning o'zi sinfimizga kirib, jurnaldan familiyalarimizni birma-bir o'qib yo'qlama qilib chiqqach: "Kim ona tili va adabiyotdan bugunga qadar olgan baholarining o'rtachasiga rozi bo'lsa, qo'l ko'tarsin?" deb qoldi.

Qochib ketgan til va adabiyot muallimimiz bahoga saxiyroq edi, shuning uchun hamma baravariga qo'l ko'tardi.

Odilov biz o'qiydigan pedagogika bilim yurti direktorligidan tashqari Xo'jayli shahridagi birinchi bo'lim xalq sudyasi, shahar xalq maorifi bo'limining boshlig'i ham bo'lib ishlar ekan. Bularga qo'shimcha endi u bizga qoraqalpoq tili va adabiyotidan dars bera boshladi. Bu hol bizda ham qo'rquv, ham taajjub, ham faxr hissini uyg'otdi.

Odilovning aytganlaridan: Til xalqning eng noyob bisoti. Unga xiyonat qilish xalqqa xiyonat, onaga xiyonat bilan barobar. Bu bisotdan to'g'ri foydalanishga esa ko'proq gazeta-jurnallar-u kitoblar o'rgatadi.

Adabiyot — bu hayot. Har bir asar hayotning badiiy so'z bilan yozilgan bir parchasi. Badiiy asar o'quvchining hayotni kengroq va teranroq tushunishiga yordam beradi. Hayotdan atroflicha saboq olishni astoydil xohlovchi adabiyot ixlosmandlari uchun shahar xalq maorifi bo'limi bilan sud idorasining eshiklari hamisha ochiq!

— Odam xayolida mangu yashaydigan uch mamlakat bor: aql mamlakati, boylik mamlakati, orzu mamlakati. Nachora, har bir inson ayni paytda shu uchala mamlakatning fuqarosi bo'lishni xohlaydi.

Biroq bunday fuqarolikni shu uch mamlakat e'tirof etadimi-yo'qmi, odam shu uch mamlakat yo'lida sarson-sargardon qolib ketmaydimi — har bir insonning hayotidagi bosh vazifasi shunday muammoni o'zicha hal etish.

Bu dunyoda har bir odam bolasi zimmasiga nimaiki yuklangan bo'lsa — shularning barchasi adabiyotning ham gardanida!

Yangi vazifalarni ko'ngildagidek ado etish uchun yangi yo'l qidirish lozim.

Uzoq safarga chiqmoqchi bo'lgan odam dastlab o'ziga tanish so'qmoqlardan yurib, mashqini olish kerak bo'ladi.

Yangi uy qurmoqchi bo'lgan odam uchun boshqalarning uyini tomosha qilish kifoya emas, ularda yashab ham ko'rish kerak...

Qoraqalpoq tili imlosini ishlab chiqishda shunday talablarga asoslanilgan.

Gazetalardan xabarlar. "...Qoraqalpoq tili yozma adabiy til sifatida 1924-yildan beri mavjud, o'sha qoraqalpoq tilidagi dastlabki gazeta arab grafikasida chop etildi".

"...1930-yilda arab grafikasi lotin grafikasi bilan almashtirildi".

"...1940-yilda lotin grafikasining o'rniga rus grafikasi qabul qilindi".

"Rus grafikasini qabul qilish qoraqalpoq xalqi uchun ikki jihatdan foydali edi, ya'ni yagona grafika vositasida har ikki tilda baravar yozish va o'qish imkoniyati paydo bo'ldi".

Yana Odilovning aytganlaridan: Rus tili hech bir xalqlarning ona tiliga, jumladan, qoraqalpoq tiliga hech bir ziyon-zahmat yetkazmagan holda o'z boyligi bilan birga buyuk madaniyat karvonini ham boshlab keldi. Bu karvon xazinalari — jahon taraqqiyparvar madaniyati, shu bilan birga mamlakatimizdagi Ukraina, Belorussiya, Boltiqbo'yi, Zakavkazye va O'rta Osiyo xalqlarining boy milliy madaniyatlari edi. Shu karvon tufayli har bir xalqning milliy madaniyati ham o'ziga qaytib kelgani barchaga ayon. Bugungi kunda boyigan, to'lishgan, yangilangan milliy madaniyat

namunalari rus tili orqali yana boshqa xalqlarga yetib bormoqda. Boshqacha aytganda, rus tili har bir xalqning zo'r sur'atlar bilan rivojlanayotgan milliy madaniyati bilan boshqa xalqlarni yaqindan tanishtiruvchi vosita, tillararo elchi vazifasini ado etmoqda.

Biz qoraqalpoqlar rus tili ado etayotgan madaniy robitalik rolidan har qancha minnatdor bo'lsak arziydi. Bugun endi dunyoning qay burchidan mehmon kelib, milliy tilimizning hozirgi rivojlanish darajasi bilan tanishmoqchi bo'lsa, avvalgidek uyalib o'tirmaymiz. Adabiy tilimizdagi yutuqlarni kimdir yaxshi ko'rolmas ekan, bunga endi, o'sha odamdagi ko'rish qobiliyatining nochorligi sabab...

...Qoraqalpoq tilining lug'at tarkibini boyitishda tarjimaning roli beqiyosdir. Yaxshi tarjimon asliyatdagi har bir so'z va jumlaga o'z tilidan mutanosib so'z va ibora qidirish jarayonida unda kamdan kam qo'llaniladigan yoxud mutlaqo qo'llanilmaydigan so'z va iboralarni topib, muomalaga olib kiradi. Natijada til tobora boyib boraveradi.

...Tilimizning lug'at tarkibini boyitish uchun hech bir begona so'zdan qo'rqmaslik kerak, xalq bu so'zni asta-sekin tushunib, o'rganib-o'zlashtirib olishi muqarrar.

* * *

Odilovning sudyalik kabinetida o'tgan darslaridan: Kichkina bo'lsa ham yuzlari qarimsiq, ko'zlarida kattalarga xos mung cho'kkan o'n ikki yashar jinoyatchiga adabiyot muallimi Odilov:

— Qani, inim, yigitchasiga gaplashaylik-chi. Rostingni ayt, uyingga kelgan mehmonni nega bolta bilan chopib o'ldirding? — deya xayrixohlik, achinish bilan tikildi.

— U mehmon emas, kolxozimizning brigadiri edi. Otam frontga ketgach, brigadirlik shu odamga qoldi. Otamning urushda qahramonlarcha halok bo'lgani haqida qora xat oldik. Shundan keyin bu odam uyimizga tez-tez kelib, yotib qoladigan odat chiqardi. Bir kuni u otamning to'shagida yotib, "Charxpalak dunyoni qara-ya! Avvaliga brigadirligini oluvdim, mana, endi xotinini..." deb maqtana boshladi.

— Oying bilan til topishgandirki... — Odilov achchiq kuldi.

— Yo‘q, bo‘lishi mumkin emas! Otamni frontga kuzatayotib onamning “O‘lgunimcha kutaman, to‘shagingni hech kimga toptatmayman”, deb qasamyod qilganlari shundoqqina esimda turibdi axir! Yigit bo‘la turib onamning otamga sadoqatini himoya qilmasligim kerakmidi?..

Odilov aytgan afsona: Qadim zamonda senga o‘xshagan bir yigit o‘zining beva onasini juda-juda hurmat qilar ekan. U o‘zining biron-bir yaxshi ishi uchun kimdandir olqish eshitishga muyassar bo‘lsa, hamisha “Kechirasiz, olqishni menga emas, onamga ayting. Onang uzoq yashasin deng!” deya iltimos qilaverarkan. Bir kuni uylariga notanish odam mehmon bo‘lib kelibdi. Bola unga sidqidildan xizmat qilibdi. Notanish mehmon ertasiga ketayotib:

— Bolam, menga ko‘rsatgan izzat-ikroming uchun ko‘pdan ko‘p rahmat, umring uzoq bo‘lsin, — deb duo qilibdi.

— Yo‘q, aziz mehmon, onangga rahmat, onang uzoq yashasin, deb duo qiling! — debdi yigit.

— Voy, nodon bolam-ey, onam uzoq yashasin desang, nega uni erga bera qolmaysan? — deb miyig‘ida kulibdi mehmon.

Yigitning bu gapdan achchig‘i chiqib:

— Siz nega onamni haqorat qilyapsiz? — deb mehmonni urmoqchi bo‘lgan ekan, onasi oraga tushib:

— Mehmonga yomon gapirma, bolam, bu odam to‘g‘ri aytyapti, — debdi.

Shu gapdan keyin yigit katta to‘y qilib, onasini notanish odamga uzatibdi...

Jinoyatchi bola o‘ylanib qoldi...

* * *

Yana bir kuni: O‘n yetti-o‘n sakkiz yoshlardagi bir yigit eshikdan otilib kirdi-yu, adabiyot muallimimiz Odilovga:

— Grajdanin sudya, siz nega adolatni himoya qilmadingiz? — deb malomat yog‘dirdi.

— Nima gap o‘zi? O‘tirib, hovliqmay bir boshdan aytsangchi, — dedi adabiyot muallimi yigitga joy ko‘rsatib.

Yigit o'tirar-o'tirmas qizishib hasrat qila boshladi:

— Men 1941-yilda ovulimizdagi bir yigit bilan yon qo'shnimizning Gulifa ismli bo'y yetgan qizi o'rtasida xat tashuvchilik qildim. Gulifa opa yigitni jonidan ortiq yaxshi ko'rardi. U yigit bilan uchrashuvga borganida, meni ota-onamdan so'rab, o'zi bilan birga ergashtirib ketardi. Ota-onasiyam qizini men bilan borganida istagan joyiga ishonib yuboraverardi. Ko'pincha ovul chekkasidagi to'qayga o'tin tergani chiqardik. Men Gulifa opaning erkalab-suyib, boshimni silashlaridan suyuna-suyuna, yigit bergan ikki chaqmoq qandni so'ra-so'ra, qiz uchun ham, o'zim uchun ham o'tin teraverardim. Ular bo'lsa, gaplashib o'tiraverishardi. Shu orada kutilmaganda urush boshlanib, yigit harbiy xizmatga chaqirildi. Gulifa opam u bilan birga frontga ketmoqchi edi, olishmadi. Sababi u ikkiqat ekan.

Ahvolni bilgan ovulimiz kayvonilari apil-tapil yeng ichida Gulifa opani yigitning uyiga kelin qilib tushirdilar. Oradan ikki kun o'tib, yigit jangga otlandi.

O'shandan keyin Gulifa bilan do'stligimiz tag'inam mustahkamlandi. Ikkovimiz uzoq-uzoq hasratlashamiz, erini kim o'zarga maqtaymiz. Chaqaloq tug'ilganida unga qanday ism qo'yishning maslahatini qilamiz. Talaygina otlarni yoqtirmay, axiri o'g'il tug'ilsa — "Yengish", qiz tutilsa — "Yengishgul" qo'yadigan bo'ldik. Oradan o'n besh-yigirma kun o'tar-o'tmas frontga ketganlardan xat kela boshladi. Nimagadir yolg'iz Gulifaning eridan xat kelmaydi. Bir oy kutdik, ikki oy kutdik, hech qanday xat-xabar yo'q.

Oradan uch oy o'tganda ovulga ikki militsioner kelib, yigitning uyini tintuv qildi. Gulifa opam ham, men ham nima gapligini tushunmaymiz. Uchinchi kuni o'sha ikki militsioner to'qay tarafdan soch-soqoli o'sib ketgan bir odamni ovulga haydab keldi. Qarasak, Gulifa opamning eri. Armiyadan qochib, ovul sirtidagi to'qayda yashirinib yurgan ekan. Gulifa opam bu gapni eshitib, erining turqini ham ko'rishni istamabdi, uzzukun yig'lab-siqtabdi. Kechqurun mening oldimga kelib, o'z ahdini ma'lum qildi.

— Bu sotqinning zuryodini tug'mayman!

Men uni yupatib:

— Bunday qilmang, opa, u sizning bolangiz, axir siz yaxshi-siz-ku, — deb yolvordim.

U indamasdan ortiga qaytib ketdi.

Tuni bilan yuragim hapriqib, uyqum kelmay, tong saharda uyiga borsam, Gulifa opam yo'q. Odatda saharmardonda turib yerto'ladagi mol-holga qarashini bilardim. Ko'rib ko'nglimni taskin toptirish uchun yerto'laga tushsam, Gulifa opam to'rda qulochini yozib chalqancha yotibdi. Qornining ustida tegirmontosh, ikki oyog'i qon. Tegirmontoshni bazo'r ko'tarib, "Gulifa opa, Gulifa opa!" desam, indamaydi. Dunyodan ko'z yumibdi... Ana shu ayolning, qolaversa, tug'ilajak farzandining o'limiga sababchi bo'lgan o'sha nokas endi ovulda bemalol yuribdi. Uni siz sudlab, siz ozod qilibsiz!

— Qochoqlar uchun amniyat bo'ldi, inim.

— Axir u ikki odamning qotili-ku! Nega loaqal shu ikki odamning o'limi uchun javob bermaydi?!

Adabiyot muallimi Odilov boshini ushlagan ko'yi jim qoldi...

Yana bir kuni: Bir militsioner ikki ayolni oldiga solib, Odilovning kabinetiga kirib keldi.

— Kechirasiz, o'z boshlig'im kabinetida yo'q ekan, sizning oldingizga kirishga majbur bo'ldik, — dedi militsioner. — Bu ikki ayol hammomdan chiqaverishda bir-biri bilan soch yulishib turgan ekan.

— Ismlaringiz nima? — deb so'radi adabiyot muallimi o'ta vazminlik bilan.

— Mening ismim Shirin, millatim qoraqalpoq, — dedi qiyiq ko'zli, suyaklari buzuqroq ayol. — Biroq manavi manjalaqining qoraqalpoqligiga gumonim bor.

— Bunday iflosga men otimniyam, millatimniyam aytmayman! — dedi Shirinning oldida uning qizidek ko'rinadigan jikkakkina ozg'in-qotma ayol.

— Ismingizni aytmasangiz ham nima gapligini aytarsiz? — deb so'radi adabiyot muallimi unga sovuqqon va qahrli nazar bilan tikilar ekan.

— Bu ayolni hammomda birinchi ko'rishim edi. Noiloj bir xonada yechindik. Birga cho'milib, birga kiyindik. U mening

oltin uzugimga qiziqib, "Qani, bir taqib ko'ray-chi", deb so'rab olgan edi. Mening o'rta barmog'imga taqadigan uzugim uning chinchalog'iga lop-loyiq keldi. "Yarasharkan", dedi-da, qaytib bermadi-qo'ydi. "Bermaysizmi, axir bu uzuk onamning ko'zini ko'rgan yagona bisot edi" desam, "Bor-e!", deb jerkib tashladi. Janjalimiz shundan boshlandi.

— Yo tavba, ayol ham shunchalik behayo bo'ladimi?! — deya Shirin uzukli chinchalog'i bilan yanog'ini sidirdi — "Bu uzuk meniki" deb qay yuz bilan aytyapsan o'zi? "O'rta barmog'imga taqardim" deydi-ya tag'in bu uyatsiz!.. Erim o'lsin degan shum niyatdagi g'ar ayollargina o'rta barmog'iga uzuk taqadi, bildingmi?! Yana bu behayoning uyalmay-netmay: "Onamning ko'zini ko'rgan" deyishini qaranglar! Bunday behayo bilan hammomga tushish u yoqda tursin, bir shaharda, yagona yer usti-yu osmon ostida yashab turganimdan o'lganim yaxshiroq, voy sho'rim!

Adabiyot muallimi bir u ayolga, bir bu ayolga qarab:

— Kimning haqligini hozir oppa-oson aniqlaymiz, biroq ungacha mening bir shartim bor, — dedi.

— Mayli, ayting shartingizni, — dedi ozg'in ayol mayin tovush bilan.

— O'limdan boshqa ishning tezroq bo'lgani yaxshi! — dedi Shirin hovliqib.

— Shartim shuki, oltin uzuk kimniki bo'lsa, o'sha ayol manovi talabalarning ko'z oldida yechinsin! — dedi adabiyot muallimi.

Shirin apil-tapil yechina boshladi. Ozg'in kelinchak esa:

— Voy o'lmasam, shunaqayam ahmoqona shart bo'larkanmi! — deya yuzini kaftlari bilan bekitgancha tashqariga otildi.

Adabiyot muallimi: "Senday yuzsizlarning boshqaga tuhmat qilishidan osoni yo'q!" dedi-da militsionerga uyalmay yechina boshlagan Shirinning chinchalog'idagi oltin uzukni tashqariga chiqib ketgan ayolga oborib berishni buyurdi va bizlarga qarab shunday dedi.

— Hayotdagi ayrim chigalliklarni o'ylaganing sari adolatning gavharga o'xshab yuzada emas, o'ta chuqurda yotajakligiga amin bo'lasan kishi! Unga yetib borolmaslik yo ko'ra-bila turib undan ko'z yumish — o'taketgan so'qirlik!

Odilovning goronodagi kabinetida o'tgan darslaridan:

Biz kabinetga kirib borganimizda adabiyot muallimi Odilov keksaroq bir muallim bilan suhbatlashib o'tirgan ekan, suhbatini davom ettiraverdi:

— Oqsoqol, hozir talab boshqacha. Loaqal bilim yurtida sirtdan o'qisangiz ham mayli edi...

— Manavi yoshlar bilan bir partada o'tirishdan uyalmasdim, biroq endi algebra, ximiya, astronomiya deganlari miyamga kirarmikin? — dedi keksa muallim mung'ayib.

— Rahmat, oqsoqol, to'g'risini tan oldingiz! Men ham o'rningizni bilim yurtini bitirgan yoshlardan biriga bo'shatib berish to'g'riroq bo'lmasmikin, deyish maqsadida sizni bu yerga chaqirtirgan edim.

— Mening o'qitadiganim birinchi sinf. Kitobni sharillatib o'qiyolmasam, ko'psonlarni ko'paytirish, bo'lishni bilmasam ham, har qalay, alifbeni, yuzgacha sanashni bilaman. Birinchi sinf bolalariga shuning o'zi kifoya emasmi? Men ikkinchi sinfga dars beray, deb sendan hech qachon so'ramayman. Xo'p desang, bir afsona aytay.

Keksa muallim aytgan afsona: Bir yurtning podshosi kutilmaganda o'lib qolibdi-yu maslahatgo'ylar nima qilishni bilmay, o'ylashib-kengashib axiyri allaqaysi shaharda ko'p o'qib, bilimdon bo'lib qaytgan bir yigitni yurtga podsho qilib ko'tarishibdi. Bilimdon yigit taxtga o'tirishi bilan tevaragidagilar, hatto o'zini podsholikka ko'targan maslahatgo'ylar ham unga besavod, shu sababli aqlsiz ko'rinib, "Sen o'qimagansan! Sening biliming yo'q!" deya ro'para kelgan odamni ayblab, ko'pchilikni qiynay boshlabdi. Omi xalq bilan-ku, mutlaqo gaplashmaydigan bo'lib qolibdi. Oxir-oqibat barchaning noroziligi kuchayib, yurtda qarindoshga qarindosh yarog' ko'tarib, kon to'kishlar boshlanajakligini sezgan maslahatgo'ylar yana o'zaro kengashgani yig'ilibdilar. Ulardan biri: "Podshomizning bilimini kamaytirib, oddiy xalq darajasiga tushiradigan dori topaylik", debdi. O'shanday dorini topib podshoga ichirishgan ekan, podshoning bilimi o'rtacharoq holga kelib, xalq bilan til topisha oladigan dono podshoga aylanibdi.

Adabiyot muallimi miyig'ida kulib so'radi:

— Manovi talabalar ham bilim yurtini bitirgach, bu yerda olgan bilimlarini unutib, birinchi sinf darajasiga tushishlari kerak, demoqchisiz-da, a?

— Hamma ham afsonalarning mag'zini to'g'ri chaqavermaydi. O'zing gorono mudiri bo'lsang ham, gaplaringdan adabiyot muallimining nafasi kelib turibdi. Rahmat, inim! — deb keksa muallim mamnun holda o'rnidan turdi-da, bizga tikildi. — Bolalar, shuni unutmanglarki, xalqimiz afsonalarga, dono naqllarga nihoyatda boy. Ularning mag'zini chaqish ham tarbiyaning bir turi.

Odilovning nasihatlaridan: Eshitishimcha, rus yozuvchisi Fyodor Dostoyevskiy: "Biz barchamiz Gogolning "Shinel"idan chiqqanmiz" degan ekan. Xo'sh, biz qoraqalpoqlar shunga o'xshash nima gap aytsak bo'ladi? "Xalqimizning dono afsonalari-yu ertaklaridan chiqqanmiz" desak adashmaymiz.

— Ko'p, juda ko'p o'qib-o'rganish kerak. O'zlaringiz ham Dostoyevskiydek yangi fikr aytish, yangilik yaratishga intilib yashashlaringiz kerak.

— Insoniyat hayotidagi eng noyob fazilat omonatga xiyonat qilmaslik, — degan donolar.

— Shogirdlikni ko'ngildagidek ado etish — ustozlikka tayyorgarlik degan so'z. Har bir adabiyotchi o'z holicha ustoz.

— Yoppasiga ustozlikka intilish yaxshi, biroq hamma narsa o'z o'rnida aziz.

— Ovulimizda bir odam to'satdan qattiq kasal bo'ldi-yu tibbiy yordam bo'limida hamshira bir penitsillin ukol qilgach, kutilmaganda otdek bo'lib ketdi. Buni ko'rib ovulda kim nima bilan og'rimasin, o'sha hamshiraga penitsillin ukol qildirish uchun yuguraverib, ko'pchilik eski kasalini ham qo'zdirib olgani sababli o'sha hamshirani haligacha qarg'aydi.

Adabiyot hamma narsani bevosita o'rganib, o'qish, uqqaningni uqtirish demak!

* * *

...Bilim yurtini bitkazishimizga bir haftacha qolganida redaksiyadan yana bir xat oldim.

Redaksiyadan xat: "Hurmatli To'lepbergen! "Tilagim" degan she'ringni oldik! Bu she'rimni adabiyot muallimimning maslahatlariga amal qilgan holda yozdim debsan. Gaplaringga to'la ishonish bilan birga javob tariqasida bir hikoyat yozib yuboramiz.

Qadimda Serjon ota degan odamning Qallibek ismli juda aqlli, hozirjavob bir o'g'li bo'lgan ekan. Otasi nimaiki buyurmasin, "Xo'p bo'ladi" deb bajaraverarkan. Qo'ni-qo'shnilar o'z bolalarini koyiganlarida ularga Qallibekni ibrat qilib ko'rsatisharkan. Shunga qaramasdan kunlardan bir kuni Serjon otaning o'z o'g'lini chinqirtirib urayotganini ko'rgan qo'shnilari uning atrofiga yig'ilishib:

— Iye, Serjon ota, butun ovul ahlining sizga hurmati baland edi. Bu qanaqasi? Axir ko'chamizda o'g'lingiz Qallibekdek buyurgan ishingni "xo'p" deb bajaraveradigan mehnatkash, itoatkor bola yo'q-ku! Hammamiz o'z bolalarimizga o'g'lingizni ibrat qilib ko'rsatsag-u, siz bo'lsangiz, uni do'pposlayapsiz. Shu ham adolatdanmi?! — deya qattiq norozi bo'lishibdi.

— Obbo, qo'shnilarim-ey! — debdi Serjon ota qizishib. — To'g'ri, mening o'g'lim mehnatsevar, itoatkor. Aytilgan ishni hech gap-so'zsiz bajaraveradi. Men uni aynan shuning uchun do'pposlayapman-da! Agar bu ko'rnamak yaxshi odam bo'lsa, aytganimni bajaraverguncha o'zi bilib, o'zi o'ylab, odamga ayttirmay o'z ko'nglidan chiqarib nimadir qilishi ham kerak-da!

Bu gapdan so'ng qo'shnilar uy-uylariga jimgina tarqalishibdi..."

...Redaksiyadan yuborilgan bu hikoyat men uchun yechilishi mushkul yana bir tilsim bo'lib tuyuldi.

Murabbiyim Uzoqbergan og'aning aytib turib yozdirganlarini qayta-qayta o'qib, undan tilsimlar eshigini ochishga qodir sehrli kalit qidirdim. Shu vaqtga qadar o'zim eshitgan hikmatli gaplar, afsonalar, hangomalarni bir-bir xotirladim. Nazarimda, ochilishi lozim bo'lgan tilsimlar kundan kunga ko'payib borayotgandek.

Shoir bo'lishni sidqidildan xohlasam, endi men uchun yagona yo'l — oliy o'quv yurtiga borib o'qish!

Bilim yurtini bitirgandan keyin ham shunday orzu bilan ovulga kelib, avvalo, bobom bilan maslahat qildim. Bobom meni yana Ko'cha biyining oldiga yetaklab bordi.

— Maksim Gorkiy oliy o'quv yurtini bitirmayoq atoqli yozuvchi bo'lgan-ku! — dedi u.

Men ovulda muallim bo'lib ishlay boshladim.

10

Sababi hali-hanuz men uchun jumboq, rayono o'zim yashaydigan ovulda o'n yillik maktab bo'lishiga qaramasdan ovuldan besh chaqirimcha naridagi kolxozning yetti yillik maktabiga yo'llanma berdi. Direktor menga 4-sinfga to'la, 5–6-sinflarsa esa matematikadan dars beruvchi muallim sifatida buyruq chiqardi. Yarim yildan keyin maktab pionerlarining murabbiysi qilib tayinladi. Garchi direktor o'zi qoraqalpoq tili va adabiyotidan dars berayotgan bo'lsa-da, maktabdagi adabiyot to'garagini boshqarishni ham menga topshirib qo'ydi.

Zimmamga qancha ko'p ish yuklangani sari o'zimga nisbatan ishonch-u hurmat ham shunchalik ortib borayotgandek tuyulib, jon-jahdim bilan ishlashga tushdim.

Bobom aytgan afsona: Qadim zamonlarda bir odam o'zining ko'pgina bolalari orasida mehnatkash, itoatkor, ham jussasi kichkina, ham o'zi xushfe'l bir o'g'lini juda yaxshi ko'rarkan. Qayerga borsa, uni ham yonida olib yurarkan: og'irroq yukini ko'tartirarkan, ovqat pishirtirarkan, gulxan yoqtirarkan. Bu xizmatlar uchun bolasini hovliqtirib: "Aqlli bolam, sensiz men kun ko'rolmay qolardim", deb maqtayverarkan. O'g'il otasining bu maqtovlaridan shishinib, aka-opalarining o'z ixtiyorlariga ko'ra erkin yashab, qay biri o'qib, qay biri savdogarlik bilan shug'ullanib — boyib, qay biri qurol-yarog' ishlatib — shuhrat qozonib yurganiga parvo qilmay, otasining xizmatlarini bajaraverarkan. Kunlardan bir kuni akalari uylanib, opalari erga chiqib, qo'sha-qo'sha farzandlar ko'rib, o'z boshpanalariga ega bo'layotganiga uning ham havasi kelib, otasidan: "Nima, men shunday yuraveramanmi?" deb so'rabdi. Otasi: "Endi aqling kirdimi?" deya kulibdi-da, uni Amudaryoning quyi sohillari, Orol dengizi yoqasiga yetaklab kelib: "Shu dengizdan baliq tut, bolam", deb topshiriq beribdi. Bola otasi aytgandek daryoga qarmoq tashlab o'tirganida, uyli-joyli akalari-

dan biri otasini tayyor oshga taklif qilib kelibdi. Ota baliq ovlayotgan bolasini paqqos unutib, uyli-joyli o'g'lining ortidan ergashib ketaveribdi...

Bizlar o'sha otasi unutib ketgan mehnatkash, itoatkor, ishonuvchan yigitning avlodlari bo'lsak ne ajab! Haddan tashqari ishonuvchanlik ham odamga pand beradigan paytlar bo'lib turadi.

Onam aytgan afsona: Bobong aytgan odamga o'xshash yana bir serfarzand kishining bolalaridan biri ham aqlliroq, ham ota-onasiga boshqalardan ko'ra mehr-oqibatliroq bo'lib ulg'ayibdi. Shuning uchun uni hamma bolalaridan ortiq ko'rarkan. Biroq qarindoshlarida unga nisbatan g'araz, ko'rolmaslik avj olib, qayoqdagi tuhmat gaplar bilan uni otasiga yomonotliq qilibdi. Hattoki qozini qo'lga olib, o'lim jazosiga mahkum etibdi. Otasi suyukli o'g'liga achinib, tirik qolarmikin degan umidda qozining qo'liga yashirincha pul qistirib, yalinib-yolvoribdi:

— Mayli, ikki varaq qog'ozni ol-da, biriga: "O'ldirilasan", ikkinchisiga: "Ozodsan", deb yozib, baravar qilib bukla. Aybdor bolam qog'ozlardan qay birini olsa, o'shanga hammamiz rozi bo'laylik, — debdi.

Qozi shartga ko'nibdi. Bu xabar otaning boshqa bolalariga yetib boribdi. Ular aybdorga: "Ozodsan" degan qog'oz tushib qolishidan qo'rqishibdi. Shuning uchun qoziga otalaridan ham ko'proq pul berib, ikkala qog'ozga ham: "O'ldirilasan!", deb yozdiradigan bo'lishibdi. Shunday qilib, qozi aybdorni chaqirib, unga ikki qog'ozni ko'rsatibdi-da:

— Manovilarning birida: "Ozodsan!", ikkinchisida: "O'ldirilasan!" deb yozilgan. Qay birini olsang, o'shani ochib o'qiymiz. Nima chiqsa toleyingdan ko'raverasan, — debdi.

Aybdor yigit og'alarining bir shumlik boshlayotganini sezibdi. Biroq ular bilan talashib-tortishib o'tirmabdi. Ikki qog'ozdan birini olibdi-yu, ochmasdan og'ziga solib, ikki yamlab yutib yuboribdi. Keyin: "Qozi janoblari! Mayli, toleyimdan ko'rganim bo'lsin. Qo'lingizda qolgan qog'ozni ochib o'qing!", debdi. Qozi ko'pchilikning ko'z oldida nima bahona topishni bilmay, noiloj qo'lidagi qog'ozni ochib o'qibdi. Undan "O'ldirilasan!" degan yozuv chiqibdi.

— "Ozodsan!" deb yozilgan qog'ozni topibsan. Ozod etilding! — debdi noiloj qozi.

Unga yomonlik sog'inganlar lom-mim deyisholmabdi. O'sha dono yigit, aytishlaricha, bizlarning bobokalonimiz ekan.

— Dono bir gap naq bo'zg'ingda turgan yuz qilichdan baravar xalos qiladi, — derdi momom.

Otamning hangomalaridan: Yaqinda men kolxozimizning raisi bilan gaplashib qoldim. To'g'rirog'i, u g'irt mast ekan, suyab uyiga obordim. Mastlik — rostlik, deydilar. Uning menga aytgan gaplarini aytay. "Qaipbergen, kolxozga rais bo'lib saylangan kunimdan boshlab menga qarshi so'zlaydiganlardan, yig'ilish bo'lsa, kamchiliklarimni yuzimga tap tortmay aytaveradiganlardan yo'lini topib qutulgan edim. Hozirga kelib hech kim yuzimga tik qarayolmaydigan bo'ldi. Go'yo ishlarimda hech bir kamchilik yo'qdek. Biroq brigadalarni aylansam, ko'p ishlarning o'lda-jo'ldaligini ko'raman. Yolg'on axborotlar, qo'shib yozishlarni ichim sezib turibdi. Kimdan: "Ishlar qalay?" deb so'rasam, to'tiqushday "Sizning sharofatingiz bilan hammasi yaxshi", deb javob beradi. Endi bu kamchiliklarni qanday qilib tuzatsam ekan, deb aqlim hayron. To'g'risi, avvalboshda kamchiliklarni ro'y-rost aytadiganlarni yonimdan jildirmasligim kerak ekan. Bir kunmas, bir kun ishlarimning chuvi chiqmasa deb qo'rqaman..." deydi yig'lamsirab.

Keyingi pushaymon — o'zingga dushman emasmi, bolam?

* * *

Men bobom bilan onam aytgan afsonalarni, otamning hangomasini qiziqib eshitgan bo'lsam-da, obdon o'ylab ko'rmadim. Sababi ishim ko'p, vaqtim yo'q edi. Darsdan chiqib, jamoat ishlari bilan shug'ullanaman, kechqurunlari ertangi darslarga tayyorlanaman. Bularning barchasi men uchun maroqli, biroq vaqt talab qiladigan ishlar. Qolaversa, andak bo'sh qoldim deguncha she'r mashq qilaman. Ayrimlarini redaksiyalarga yuboraman. Agar o'zim iltifotidan umidvor bo'lgan gazetaning biron sonini ko'rolmay qolsam, xuddi o'sha sonda she'rim bosilib chiqqandek tuyulaveradi. Mendan avvalroq o'quvchilarimdan biri ko'rib

tabriklab qolarmikin, degan ilinjda sinfga kirgan zahoti: "Gazetalarni o'qib turibsizlarmi?" deb so'raydigan odat chiqardim. Ular mening asl niyatimni tushunmay, rahbar bo'lgandan keyin talab qiladi-da deb o'ylab, ayrimlari: "Hovva" deydi, ba'zi birovlari: "Uyimizga gazeta kechikib kelyapti", qabilidagi bahonani ro'kach qiladi. Boshqa birovlari, xuddi siri fosh bo'lishdan qo'rqqan aybdordek, miq etmay o'tiraverishadi.

Ba'zan she'rlarimga redaksiyadan nordonroq javob kelsa, o'zimni qayerga qo'yishni bilmay, do'zax azobiga giriftor bo'lganimdan afsuslanaman. She'r yozmay desam, o'zimni to'xtatolmayman. Go'yo ko'z oldimda olam torayib, nafasim bo'g'ilib qolayotgandek bo'ladi. Yozishga berilib ketganimda-ku, dunyoni paqqos unutaman. Allakimlarning menga qilgan yomonliklari ham, redaksiyadan olganim achchiq-tiziq xatlar ham unut bo'ladi. She'rga qofiya topolmay o'zimcha terlab-tepchib o'tirganimda esa, go'yo dalada bayram bo'layotgandek. Chiqay desam, bu bayramlar mening she'rlarimsiz hech kimni quvontirolmayotgandek. Goho nazarimda bu olam odamlarning bir-birlariga til uchidagi manziratlari-yu yolg'on-yashiq gaplaridan iboratdek tuyuladi. Shuning uchun bu shovqin-suronlarga to'la olamni bir chekkada xolisona kuzatib, odamlarning qayerdan chiqib, qay tarafga borayotganini aytib (eslatib, ko'rsatib, ogohlantirib) turadigan jarchilar kamlik qilayotgandek. Bunday jarchilar, fahmimcha, shoirlar! Men ham bir jarchi bo'lishim kerak, deyman o'zimga o'zim. Shunday yurakni orziqtiruvchi o'ylar xayolimni band qilsa-da, ishni tashlab ketolmay, ikkinchi yili ham muallim bo'lib qolaverdim. Bu yili maktabimizning direktori o'zgarib, sobiq direktorimizning o'rniga respublika gazetalarida dam-badam she'rlari chiqib turadigan Tojiddin Seytjonov (hozirda Qoraqalpog'iston xalq shoiri) keldi. Bu ajoyib tashrif ko'nglimda yangi-yangi orzular uyg'otdi...

Ikkovimiz maslahatlashib, maktab o'quvchilari ishtirokida kichik-kichik pyesalarni sahnaga qo'yish orqali o'zimizni adabiyotga, adabiyotni o'zimizga yaqinlashtirish harakatiga tushdik. Bu harakatlar ham uzoqqa cho'zilmadi. Kelgusi yili rayono meni ovuldan yigirma chaqirim olisdagi boshlang'ich maktabga yubordi... Ovulimizda o'n yillik maktab bo'la turib, rayonoda yana nega

bunday yo'l tutishganiga, ochig'i, hali-hanuz hayron qolaman! Yangi maktab shundoqqina Amudaryo yoqasida edi. Bo'sh vaqtlarim daryo bo'yidagi qarag'aydek adl o'sgani uchun "Oltin to'qay" deb ataluvchi qalin to'rang'ilzor orasidan o'tadi. Qoraqalpoq tilida bosilib, qo'limga tushgan kitob borki, allaqachon o'qib tushirganman. Xalq og'zidan yozib olingan to'rtta doston, bir necha afsona-yu ertak kitoblari, o'tmishdagi to'rt-besh nafar shoirning xalq orasidan to'plab bosilgan she'riy kitoblari, sovet davridagi yozuvchilarimizning urushdan avval yozgan ikki-uch qissalari-yu hajmi oltmish-yetmish betdan oshmaydigan uch-to'rtta hikoyalar va o'ntacha she'rlar to'plamlari — hammasi shulardangina iborat, xolos.

Rus tilini qanday o'rganish kerak? Loaqal rus adabiyotidan tarjimalar ko'p bo'lsa ekan! Ular ham barmoq bilan sanarli darajada oz...

Amudaryo yoqasidagi "Oltin to'qay"da yolg'iz yurib, shularni o'ylaganim sari milliy adabiyotimizni yaratuvchilardan, yozuvchilar-u tarjimonlardan xafa bo'lib ketaman. Nega ular ko'p yozishmaydi, nega loaqal boshqa tillardan ko'proq tarjima qilishmaydi?

Bunday fikrlarni men bilan birga ishlashgan muallimlar ham, maktabimiz o'quvchilari ham, xullas, ko'pchilik aytardi...

— O'zing bajarishing mumkin bo'lgan ishni boshqalardan talab qilib o'rganma, — deb uqtirardi otam.

— Yelkamdagi yuk og'ir deb boshqalarga yuk taqsimlashga odatlanma, — deb nasihat qilardi momom.

— Bolam, biliming hali sayozga o'xshaydi, o'qishingni davom etgirsang-chi! — deb onam hafta sayin shu bir gapni qulog'imga quyardi.

...Kelasi yili yangi ochilgan pedinstitutga kirish uchun Nukusga yo'l oldim.

11

Odamning umrida nimalar ro'y bermaydi deysiz? Goho nimanidir orzu qilasiz, biroq orzuyingizning ushalishi amrimaholligi-

ga iqror bo'layozgan paytingizda kimdir o'sha orzuyingizni naq ro'parangizga keltiradi-qo'yadi.

Mening hayotimda ham shunday bo'ldi: 1950-yilning birinchi sentabr kuni qoraqalloq tili va adabiyoti fakultetining birinchi kurs talabalari auditoriyaga jam bo'lib: "Qani, dastlab qaysi fandan kim, qanday o'qituvchi kirarkin?" deb eshikka termulib o'tirganimizda ortidan bir necha odamni ergashtirib institut rektori Turdimurod Bekimbetov kirib keldi. Hammamizni birrov nazardan o'tkazgach, "Qani, sen tur! Qani, sen tur!" deb besh-oltitamizni o'rnimizdan turg'azdi. Ortidan ergashib tashqariga chiqdik. Xullas, qirqtacha talaba boshqa bir auditoriyaga yig'ildik. Rektor nutq so'zlab, gapining yakunida shunday dedi: "Sizlar rus tili va adabiyoti fakultetida o'qiysizlar. Xohlamaganlar hujjatlarini qaytarib olishlari mumkin".

Ochig'i, rus tilida o'qish men uchun ham quvonchli, ham qo'rqinchli edi. Chunki o'zim tanlagan fakultetga rus tilidan kirish imtihoni topshirayotganimda "Pushkin" so'zini — mujskoy rod, "Mi lyubim Pushkina" gapidagi "Pushkina" so'zini esa, jenskiy rod deganim uchun yiqilayozganimda, rus tili muallimiga yalinib-yolvorib bazo'r "uch" olgan edim. Sababi, o'shanga qadar xayol qilishimcha, "a", "ya" bilan tugagan so'zlarning barchasi, qay tuslanishdaligidan qat'i nazar, jenskiy rod edi... Shunda ham institut rektorining taklifini rad etolmadim.

Birinchi murabbiyim takror-takror aytganidek, rus tili bizga yuksak parvoz imkonini bera oladigan qanot ekan, balki endi chinakam qanotga ega bo'larman! Biroq... darslarni o'zlashtirolmasam-chi? O'zlashtirishim kerak! Ovulga qaytsam: "To'lepbergen o'qiyolmabdi" degan gap bo'lsa, o'lim-ku! Ovul odamlari ustingdan mazaxlab kuldimi, tamom, butun olamga masxara bo'lganing. Ana undan keyin yashashning qizig'iyam qolmaydi!

Demak, kun-u tun qattiq shug'ullanishim kerak... Ba'zi kunlari ovqatlanishga ham vaqt topolmayman. Buyog'ini so'rasangiz, bot-bot cho'ntakda ham g'irillab shabada esib qoladi...

Ustiga ustak, qattiq zo'riqishdan bo'lsa kerak, 18-sentabr kuni to'satdan shunday og'rib qoldimki, sog'ayishim gumondek edi. Bu men uchun yulqinib oldinga intilayotgan tulporning shunchaki

tiyg'anib yiqilishi emas, kutilmaganda tubsiz jarga ro'para kelishi bilan baravar bir ko'rgulik edi. Ota-onam omi odamlar, ukalarim hali kichkina, bu yerda menga bir nima bo'lib "jar"ga yiqilsam, qirq chaqirim joydagi shahardan jasadimni ovulga olib ketish ularga oson bo'lmas, deb o'ylab uyga qaytdim. Uydagilar meni har galgidek mamnun kutib olishdi. Nima gapligini avzoyimdan tushunishdi shekilli, biroq hech biri sir boy bermadi. Ertasi kuni tong-saharda qon tupurib yotganimni ko'rib onam:

— Manaman degan vrachlari bor shahardan nega kelding, bolam-ov? — deb zorlandi.

Nega kelganimni tushuntirolmadim, ko'zlarimdan yosh quyildi.

Onamning nasihatlaridan: Birinchidan, erkak kishi yig'lamasligi kerak. Ikkinchidan, sening manovi kasalingni bobong ham, men ham, otang ham, ukalaring ham davolay olmaymiz. Uchinchidan, yosh o'lsa hamma qayg'uradi. Ovul bir marta qayg'ursin deb kelgan bo'lsang, mayli! Biroq senday aqli kalta to'ng'ichning o'limidan qayg'urguncha ukalaringning tashvishini qilganim ma'qulroq!

Bobom aytgan afsona: Qadimda ko'rsavod bir elat bo'lgan ekan. Elat savodsizligi uchun atrofidagilardan ko'p xo'rlik tortsa ham hech kim o'z bolasini boshqa yurtlarga o'qishga yuborishni xohlamas ekan. Bir ona nomusga chiday olmay, o'zining yolg'iz o'g'lini o'qishga yubormoqchi bo'libdi. Bola tantiqroq ekan, uydan ketgisi kelmabdi. Ona ketishga majbur qilibdi. Shunda yigit: "Sen meni yomon ko'rganing uchun quvyapsan", deya onasidan o'pkalab, ovuldan bosh olib chiqib ketibdi. Ona o'g'lini yuborishga yuboribdi-yu, lekin ko'ngil uzolmay, baland tepalikka chiqib, u ko'zdan g'oyib bo'lguncha ortidan qarab qolibdi. Bola shu ketishda ko'p yillar o'qib, ulkan alloma bo'lib, eliga qaytibdi. Yurtiga yaqin kelaverishdanoq ovulda nima gap ekan, deya diqqat bilan qarasa, tepalik ustida qaqqayib turgan bir odam ko'rinibdi. "Kim bo'ldi bu?" deb ajablanibdi. Yaqinroq kelib qarasa, o'z onasi! "Onajon!" deb quchog'ini yozganicha u tomonga yuguribdi. Quchoqlamoqchi bo'lgan ekan, onasi yiqilib tushibdi. Ajablanib qarasa, onasi allaqachon jon taslim qilgan ekan-u, hilvillagan gav-

dasi bazo'r tik turgan ekan. Alloma ovul odamlarini yig'ib, nima gapligini so'ragan ekan, ma'lum bo'libdiki, onasi uni o'qishga kuzatib qolganicha, o'sha tepalikdan qaytib tushmagan ekan...

— O'z onang mushtini qanchalik keskin sermamasin, baribir qattiq urmaydi, — derdi otam.

— Arslon izidan, yigit niyatidan qaytmasligi kerak, — deya nasihat qilardi Ko'cha biyi.

Otam aytgan afsona: Bir yurtdagi bir dongdor kishi kasalga chalinibdi-yu, tili kalimaga kelmay soqov bo'lib qolibdi. Bu holdan qattiq xafa bo'lib, soqov yashagandan o'limni afzal ko'ribdi. Hatto o'laksa jasadi hidiniyam shamol yurtiga olib kelolmaydigan ovloq g'or topish uchun tog' oralab ketaveribdi. Kunlar ketidan kunlar o'tib, holdan toyib, bir baqaterak ostida dam olgani o'tiribdi. Tirik bandaning ko'zlariga to'yim bormi sira? Haligi soqov najot istab yuqoriga qaragan ekan, shoxlar orasidagi ulkan uyaga ko'zi tushibdi. Uyada nima borligini bilish uchun terakka o'rmalab chiqib qarasa, uchta polapon. Polaponlarning biri xomush tortib, ikkinchisi mamnun iljayib, uchinchisi xushnud kulib o'tirganmish. Odam bolasining hayron bo'lib turganini ko'rgan uchinchi polaponga birdan til bitibdi:

— Ajablanma, hoy odam! — debdi sho'x-xandonlik bilan. — Bizlar bir onadan tug'ilgan uch polaponmiz. Onamiz yemish qidirib ketgandan beri totuvgina yashab turuvdik. Kecha bir ilon o'rmalab chiqib, uchovimizdan qay birimizni qachon yutishini aytib ketdi. Mana, manovini bugun kechqurun yutadi. Shuning uchun u xomush tortib o'tiribdi. Mana, bunisini ertaga kechqurun yutadi. U o'zining yana bir kunlik umri borligidan mamnun bo'lib kulimsirab o'tiribdi. Mening oldimda esa naq uch kunlik umr turibdi. Shunga quvonganimdan chaqchaqab kulib o'tiribman.

Odam bu polaponlarni o'limdan saqlab qolish uchun kun-u tun ilonning yo'lini poylabdi. Ilon tun yarmidan oshganda bamaylixotir o'rmalab kelayottan ekan, odam uning boshini majaqlab tashlabdi.

Ertasiga qayerdandir polaponlarning onasi uchib kelibdi. U Semurg' qush ekan. Polaponlarning yonida o'tirgan odamni ko'rib, ahvolni bilgach, "Rahmat senga, hoy odam! Biz osmonda

uchib butkul olamni keza olsak ham nihoyati bir qushmiz. Sen odamsan, tirik bo'lsang, qo'lingdan kelmaydigan ish yo'q!" debdi va qayoqqadir uchib ketibdi. Ko'p o'tmay, tumshug'idabir cho'p olib kelib, odamga yedirgan ekan, unga til bitib, bemalol gapiradigan bo'libdi...

Eskilarning aytishiga qaraganda, o'sha odam bizlarning bobokalonimiz ekan.

U o'z bolalariga, "Agar kim tiriklikdan bezor bo'lsa — mening avlodim emas", degan emish...

— ...Odam bolasi o'zining bu yorug' olamda yashayotgani uchun avvalo, ota-onasi, qolaversa, jamiki jonzotlar oldida hamisha qarzdor, — deydi dono xalqimiz.

— Odamlar bir-birlaridan, avvalo, hurmat qarzdor, — degan ekan afsonaviy Maman biy.

Qariyalar gurungidan: — Har qanday olamshumul kashfiyot ko'pincha yakka shaxs aqlining mahsuli. Odamning qudrati cheksiz.

— Insonning o'zini Xudo deb e'lon qilmaganiga sabab hayotdagi nuqsonlarning sababchisi sifatida o'zini emas, boshqani ko'rsatish istagi bo'lsa kerak.

— Ha, odam bolasini ko'pincha tubanlikka mahkum etuvchi bosh illat mana shu — o'z hayotida ro'y bergan ko'ngilsizliklar uchun o'zgalarni aybdor deb bilishi.

— Lekin, baribir, har kim ekkanini o'radi, yomonlik sog'ingan — yomonlik ko'radi, yaxshilik sog'ingan — yaxshilik.

— Odam Ato: "Men o'lgach, avlodlarim g'am-tashvish chekaverib, tag'in tarkidunyo qilib yurmasin", deb har bir xalqqa bir hazilkash yaratib qoldirganmish; ruslarga — Ivan durachokni, tojiklarga Mushfiqiyni, o'zbeklarga Nasriddin afandini, qozoqlarga Aldar ko'sani, qoraqalpoqlarga O'mirbek laqqini... Xafa bo'lganingda ularning qiziq-qiziq latifalari ruhingga quvvat, taningga mador beradi.

— Odam bolasi qanday mushkulotni boshidan kechirmasin, baribir, ko'nglidagi ezgu tuyg'ularini asrab qolishga qodir.

— Yaxshilikning yaxshilik ekanini odamlar u yoqda tursin, ongsiz jonivorlar ham farqlay oladi...

— O‘zi bilan bir davrda yashab turgan dushmanini ko‘ra-bila undan avval o‘lishni ixtiyor qilgan odam nomard, — derdi Ko‘cha biyi.

— Donolar: “Tirikligimning o‘ziyoq dushmanim o‘lim bilan barobar”, deganlar, — deb uqtirardi onam.

— Ertasidan noumid yashash — shaytonning ishi, — derdi momom.

— Men boy bergan jamiki narsalarni yutib olsanggina sodiq farzandsan, — derdi otam.

...Mening o‘qishdan og‘rib kelganimdan qo‘ni-qo‘shnilar ham xavotir olishib, birin-ketin kelib ko‘ra boshlashdi. Onam ularning ko‘ngil so‘rashlariga o‘rin qoldirmaslik uchun: “Qani, qo‘shni, ayting-chi, bobongiz yo momongiz o‘lim oldidan aytgan eng so‘nggi gap yodingizdami?” deb so‘raydi. Onamning fe’lini yaxshi bilgan qo‘shnilar: “Senga buning nima keragi bor?” deb ajablanmay savolga javob qaytaradilar.

Onamning dabdurustdan bergan savoliga qo‘shnilarning javoblaridan:

“...Mening bobom to‘shak yonida o‘tirgan momomga: “Sen bilan ajrashib, o‘z erkimcha bir kun yashab o‘lsam, armonim qolmasdi”, dedi-yu dunyodan ko‘z yumdi”.

“...Mening bobom bir piyola choy so‘radi. Qaynab turgan qumg‘ondan choy damlash uchun choynakning ichidagi shamani to‘kmoqchi edim, “To‘kma, uyda choy oz, ustiga damlayver”, dedi-yu, tildan qoldi”.

“...Ne-ne azoblarni ko‘rganda ham hasrat qilmagan momom kutilmaganda: “O‘zim uchun bir kun ham yashay olmadim-ov!” deb ko‘zlariga yosh oldi”.

“...Mening bobom: “Bolalarim, o‘rnimga sizlar qolyapsizlar, armonim yo‘q...” deb bir yayrab kuldi-yu, jon taslim qildi”.

“...Bizlar yangi uy qurayotgandik. Kasalmand bobom yelkamga suyanib hali bitmagan xonalarni birma-bir aylandi. “Men mana shu xonada yashayman, tagiga to‘shaydigan taxtalaring pishiqroq bo‘laversin”, dedi-da, hushidan ketdi. Qarasak, joni uzilgan ekan”.

"...Mening bobom kitob o'qitib eshitishni yaxshi ko'rardi. "Yaxshi bo'lsam, o'zim o'qishni o'rganaman", degan kunining ertasiga qazo qildi".

"...Mening bobom "Oh, qayta tug'ilsam edi, uzoq yashash uchun nima qilish kerakligini bilib tug'ilgan bo'lardim", dedi.

...Onam kasal yotgan to'ng'ichining ustida nima uchun bunday tushkun ruhdagi yoqimsiz gaplarning aytilishiga yo'l qo'yayotganidan qattiq alamim kelib, ertasi saharmardonda uyg'ondim-da, uydagilar bilan xayrlashmay yo'lga chiqdim.

Katta yo'l yoqasida yuk mashinasini kutib turganimda, onam ortimdan yetib kelib, non-u qovurilgan tovuq solingan to'rvani jimgina qo'limga tutqazdi.

Shaharga kelishim bilan to'ppa-to'g'ri vrachga ko'rinib, shifoxonaga yotdim. Bir oycha davolandim. Butunlay sog'ayishga fursatim yo'q edi. Chidashga to'g'ri keldi — institutda o'qishni davom ettirdim.

12

Bobom bir gapni ko'p takrorlardi: "O'z hayotimda boshimdan kechirgan uch voqea hech esimdan chiqmaydi, — derdi u kishi. — *Birinchisi*: ovulning sayoz soylarida suzganimda hech kim yetolmaydigan mohir suzuvchi atanib yurib, Orol dengiziga cho'milishga borgan edim, dengizning yoqasiga yetganimdanoq tizzalarim qaltirayverdi; *ikkinchisi*: umrini ovulda o'tkazgan men sho'rlik shaharga birinchi marta borganimda tanishlarim ovozi tugul o'z tovushimni o'zim eshitolmay shahardan qaytgunimcha qulog'im batang bo'layozdi; *uchinchisi*: to'ng'ich nevaramga kitob olish maqsadida shahardagi kitob do'koniga kirayotib ovulimizning mullasini ko'rib qoldim. Unga eng yaxshi kitoblarni tanlab ber, deb qo'lidan yetaklab kirganimda "Qur'on"ni yoddan biladigan mulla deganing kitob do'konining ostonasida bir muddat anqayib turdi-yu, hushidan ketdi".

...Men institutning rus tili va adabiyoti fakultetida adabiyotdan dastlabki leksiyalarni tinglay boshlaganimdanoq bobom bot-bot

eslaydigan mana shu uch voqeaning qahramoniga aylandim-qoldim: tizzalarim qaltiraydi, qulog'im shang'illaydi, shu paytga qadar hattoki otlariyam qulog'imga chalinmagan yozuvchilar-u ular yaratgan asarlar haqida eshitib, hushimni yo'qota yozdim; shoir bo'lish orzuyim uchun atrofimdagilardan qattiq uyaldim.

Mening ahvolimni to'g'ri tushungan odam — Agan Nikiforovich Sidorov degan o'qituvchimiz bo'ldi. Garchi bu odam adabiyot nazariyasi va xalq og'zaki ijodidan dars bersa-da, nazarimda, rus va jahon mumtoz adabiyotini suv qilib ichib yuborgandek edi. Go'yo azbaroyi men uchun muallim bo'lib ishlayotgandek, ko'pincha darsdan so'ng uyiga ergashtirib ketadi. "Vaqt topib, albatta o'qishim" uchun kitoblar beradi. Uning mehribonligidan boshim osmonga yetgudek bo'lib, bergan kitoblarni tushunsam-tushunmasam o'qib chiqaman. Bu kitoblarni teranroq tushuna borganim sayin Agan Nikiforovich Sidorov bilan oramiz ham tobora yaqinlashaverdi. U meni adabiyot ummoniga yetaklab olib kirgani sari shoir bo'lish orzuyimdan xijolatligim orta bordi. O'z yog'imga o'zim qovrilayotgandekman, kalavamning uchini yo'qotib qo'yayotgandekman.

Adabiyot nazariyasidan dars bergan Agan Nikiforovich Sidorovning maslahatlaridan:

...Adabiyot — har kim kirib, to'yib ketaveradigan to'yxona emas. Shuhrat taqsimlaydigan tavanxona ham emas. Tabiat ato etgan chinakam iste'dodingga qo'shimcha atroflicha biliming, aql-farosating, odamzod uchun qimmatli ezgu niyating, pok vijdoning bo'lsagina "Adabiyot" deb atalmish muhtasham qasrning darvozasiga yaqinlashishingda ma'ni bor. Unutma, bu dargohning to'rida Gomer, Dante, Umar Xayyom, Navoiy, Shekspir, Maxtumquli, Gyote, Pushkin, Balzak, Tolstoy, Berdaqdek siymolar o'tirishibdi. Ular adabiyot dargohiga qabul qiladimi-yo'qmi, hamma gap mana shunda!

"Adabiyot" deb atalmish qasrga kirishni sidqidildan istasang, qo'lingdagi shamga mahliyo bo'lavermay, o'zing uchun bu dargohdan munosib o'rin qoldirishing kerak. Poygakroqdan o'rin topsang ham mayli, muhimi hech kim ko'kragingdan itarib: "o'rning yo'q" demasa bas! Mabodo bir muddat tashqariga chiqqudek

bo'lsang, o'rning bo'shab-huvullab qolgani boshqalarga sezilib turishi ham kerak.

Buning uchun senda ikki narsa: avvalo, bilim, qolaversa, hayotiy tajriba yetishmaydi.

...Hayotning boshqa jabhalarida birovga birov suyanchiq bo'lishi mumkin. Adabiyotda senga hech kim tirgovich bo'lolmaydi. Yozuvchilikka hech kim hech kimni o'rgatolmaydi. Birovning senga ijirg'anib qaramay, astoydil xayrixoh bo'lishi uchun avvalo, o'zingda mustahkam poydevor yaratishing shart!..

"Qani o'sha poydevor?"

"Endi men nima qilaman?"

— Kamchiligim ko'p deb qo'rqma, boshqalardan kichkinaman deb o'ksinma, tez ulguray deb shoshqaloqlik qilma, lekin xotirjamlikka ham berilma! Yodingda tut: sen yashayotgan asr nechog'li favqulodda serg'alva, suronli bo'lmasin, avvalgi asrlarning davomi, xolos.

O'zing tug'ilgan ovulda turiboq butkul insoniyat taqdirini o'ylash, kishilik jamiyati tarixi, uning kelajagi haqida qayg'urish mumkin.

Men kichkinagina bir xalq vakiliman, hammadan yuksakroq cho'qqiga intilishning nima keragi bor, dema. Hamma xalqlarning erki o'zida. Biroq hech bir xalq o'z holicha rivojlanmaydi. Adabiyot ham yaxlit bir organizm: uning kichigi yo'q.

Inson orzulari shu qadar benihoyaki, goho ular o'z sohibini yerda qoldirib, cheksiz koinotga parvoz etishi mumkin. Ezgu orzu yo'lida astoydil intilgan niyati xolis odam ertadir-kechdir murod-maqsadiga yetishi muqarrar.

Ona yurtingga, ona xalqingga qanday ko'z bilan qarash kerak — eng muhimi mana shu! Buyuk yozuvchilarning sezgirligi, savqi tabiiysi, noyob iste'dodi, butun kuch-qudrati avvalo shunda bo'lsa kerakki, ular juz'iy bir voqeada butun jamiyat ahamiyatiga molik mohiyatni ko'ra oladi.

Gomerni o'qiganda qadimgi dunyoning afsonaviy manzaralari, Danteni o'qiganda O'rta asrlarning badiiy tafakkur ufqlari, Umar Xayyom, Navoiyni o'qiganda muazzam Sharq donishmandligi, Lev Tolstoyni o'qiganda XIX asrda favqulodda junbushga kelgan

Rossiya, Mixail Sholoxovni o'qiganda inqilob davrining butun murakkabligi ko'z oldingda ro'y-rost namoyon bo'ladi.

Nima uchun shunday?

Dunyo faqat ikki qutbdan: yaxshi bilan yomondangina iborat emas. Muhimi yomonni yomondan, yaxshini yaxshidan farqlay olish. Bu ish har xil vosita-yu bo'yoqlarnigina emas, avvalo, po'latdek mustahkam iroda, qat'iy mantiqni talab qiladi.

Mumtoz adabiyotni o'qimay-bilmay turib, yozuvchi bo'lishga intilish hech bir ustaxonani ko'rmay mohir duradgor bo'lishni xayol qilish bilan teng.

...Sharq odamlarining badiiy idrok psixologiyasini ham yaxshi bilgan bu o'qituvchining nasihatlariga amal qilmaslik, nazarimda, men uchun kechirilmas gunohdek edi. Endi bu ustozning o'zini yaxshiroq o'rganay, degan qarorga kelib to'xtadim.

Qanchalik ko'p o'qib, jahon adabiyoti ummoniga teranroq sho'ng'iganim sayin rus adabiyoti menga tobora qadrdonlashib boraverdi. Bu adabiyot men uchun eng teran ummon, eng yuksak cho'qqi bo'lib ko'rinaverdi. O'zim o'qigan kitoblardagi rus kishilarining eng a'lo xarakterlarida mehribon Agan Sidorovni topgandek bo'ldim.

Buyuk rus yozuvchilaridan Uspenskiyning ko'proq statistikaga, Korolenkoning publitsistikaga moyilligi, Lev Tolstoyning avvalboshdan falsafa va tarixga mustahkam tayangani, Turgenevning davrga xos siyosat, zamon oqimiga hamohang asarlar yozgani xususida ko'p leksiyalar tinglasam-da, ularning ayrim asarlarini sinchiklab o'qish natijasida shuni fahmladimki, bu san'atkorlarning hech birini leksiyada aytilgan ayrim o'ziga xosliklar bilangina cheklab qo'yish mumkin emas ekan. Boshqacha aytganda, ularning biriga xos xususiyatlarni ikkinchisida, uchinchisida... ham topish mumkin ekan.

Lev Tolstoy ijodi xususidagi behisob qarashlar orasida, ayniqsa, bir fikr menga manzur bo'ldi: Tolstoyning buyukligi adabiyot uchun nimadir qilganidagina emas, bepoyon Rossiyani qudratli ko'zguga aylantirib, Rossiyaning o'zini o'ziga va butun dunyoga har tomonlama ko'rsata olganida. Nazarimda, bu g'oyat teran ma'noli fikr edi!

Nima uchun Lev Tolstoy o'z zamonasi uchungina emas, bizning davrimiz uchun ham ijodiy novatorlikning timsoli bo'lib xizmat qiladi?

Adabiyotdagi novatorlik eski bino o'rnida tiklangan yangi binoning o'ziga xosligidek narsa emas. Nazarimda, Lev Tolstoyga xos novatorlikning muhim belgisi hayotni, odamlar qismatini, xarakterlarni butun murakkabligi bilan bevosita yoritganida, batafsil tasvir va tahlil etganida, ularni oshirmay yo kamaytirmay aynan ko'rsata olganidadir.

Lev Tolstoyni yaqinroqdan taniganim sayin yuragimni vahima bosaverdi. Adabiyot yo'lida dastlabki qadamini qo'yayotgan menday boshlovchi ijodkor uchun o'sha san'atkordek bo'lish u yoqda tursin, u yaratgan asarlarni o'qib-o'zlashtirishning o'zi mushkul tuyuldi. Agar har bir xalqning adabiyotini uning shahodatnomasi deb bilsak, Lev Tolstoy buyuk Rossiyaninggina emas, insoniyat yilnomasida XIX asrning betakror shahodatnomasi bo'lib qoladi. Sportchilar tili bilan aytganda, Lev Tolstoy so'z san'atining eng yuksak cho'qqisiga ko'tarila olgan alpinistdir.

Xalqidan o'rganmagan yozuvchi — bemaqsad tentiragan kema. Bunday kemalar adabiyot ummonida, afsuski, oz emas. Ammo Lev Tolstoyni xalqdan o'rganish va xalqning ruhiy chanqog'ini qondirishning bemisl namunasini ko'rsatgan buyuk tolib va buyuk ustoz deyish mumkin. Adabiyot tarixi undan olamshumulroq yozuvchini hali bilmaydi.

* * *

...Bilish jarayonining cheki-chegarasi yo'q, ammo bilimning chegarasi bor. Odamning bilimi ma'naviy-madaniy saviyasi uning har bir ishi, xatti-harakati, gap-so'zida ayon ko'rinib turadi. Shu tashqi alomatlar orqaliyoq boshqa odamni bila oladigan kishi, bir so'z bilan aytganda, mutafakkirdir.

Quyosh charaqlab turganida uning qadri bilinavermagandek, adabiyot tarixida ham chinakam mutafakkirni tushunib yetmaslik hollari uchrab turadi. Tushungan taqdirda ham mutafakkirni mutaffakkir deb mardona e'tirof etgan odam xususida, o'zini ham buyuklikka daxldor ko'rsatmoqchi deb o'ylash hollari yo'q emas.

Odamni bunday manmanlikda ayblashdan avval har bir davr va uning mahsuli bo'lmish har bir shaxsga xolisona sergak nazar, ochiq ko'z bilan qarash malakasini hosil qilish bizni ko'pdan ko'p anglashilmovchiliklardan xalos qilgan bo'lur edi.

Nechog'li buyuk bo'lmasin, har bir yozuvchi avvalo tirik jon, o'z zamonasining vakili.

Odam mehnati bilan odam. U dunyoni o'ziga xos idrok etish yo'lidagi muttasil intilishi, betakror ruhiy olami tufayligina odam!

Rus adabiyotining har bir klassigi botiniy to'lqinlari bor teran ummonga o'xshaydi. Bu ummonlarda cho'kib ketish ham mumkin, keng quloch yozib emin-erkin suzish ham mumkin.

Fyodor Dostoyevskiy yaratgan ummon shu qadar teranki, uning har bir asari bilan tanishganingizda, dam yorug'likda turib qorong'ilikka qarayotganday, dam zulmat iskanjasidan xalos bo'lish uchun olis-olislarda miltiragan xira shu'laga talpinayotgandek bo'ladi kishi! Nazaringizda, shu shu'laning naryog'ida mangu farog'at o'lkasi yastanib yotgandek. Takror-takror o'qiganingiz sari xayolingizni asir etgan manzaralar tobora kengayib, joziba kasb etib, oydinlashib boraveradi. San'atning bosh maqsadi — odamdan odam qidirib topishdir, degan mutafakkir yozuvchi har bir qahramonida odam bolasining nechog'li muammoligini ko'rsatibgina qolmay, bu muammoni har bir asarida betakror tarzda yechganiga amin bo'laverasiz.

* * *

...Gogol asar yozayotganida o'z quvvayi hofizasiga ishonmay, tasvirlanayotgan voqealarga doir tafsilotlarni boshqa odamlardan, do'st-birodarlaridan so'rab-surishtirarkan. Mabodo kim bilandir tortishib qolsa, bahs paytida munosib so'z topolmay, tezda taslim bo'larkan. Lekin ertasiga o'sha bahsni kelgan joyidan davom ettirishni istab qolarkan. Bu odatdan dastlab xabar topganimda Gogolni o'zimga qiyoslab, o'zimning ba'zi odatlarimdan faxrlanganlarim hamon yodimda.

Buyuk rus adabiyoti bilan yaqinroqdan tanishish tufayli uning to'rt burjida qad ko'targan biri-biridan mahobatliroq, baquvvatroq to'rt chinor ko'z oldimda namoyon bo'ldi: Pushkin, Lev Tols-

toy, Fyodor Dostoyevskiy, Mixail Sholoxov. Bu chinorlarning har biri o'zicha, biri ikkinchisiga daxlsiz tarzda yashnab turgan bo'lsalar-da, aslida ularning ildizlari rus zaminining tub-tubida o'zaro tutashib-chatishib ketgan. Bugungi kunda jahon adabiyoti bo'stonidagi har bir nihol bu chinorlarga havaslanib bo'y cho'zadi.

Mazkur to'rt san'atkor ijodiga doir tadqiqotlar hozir shu qadar behisobki, hatto, nazarimda, ular qalamiga mansub har bir jumla tahlil etilgandek. Biroq hech bir tanqidiy-ilmiy asar bu buyuk mutafakkir san'atkorlar merosining mohiyatiga yetib borolgani yo'q. Hali-veri yetib borishi ham amrimahol. Bu san'atkorlar bilan tillashmay turib, ijod maydoniga qadam qo'yish — eshkaksiz qayiqda ummonga chiqish bilan barobar.

Ba'zi qalamkash do'stlarim o'z intervyularida Pushkin yo Tolstoy, Dostoyevskiy yo Sholoxov nomini ustoz sifatida tilga oladilar. Buyuk san'atkorlarni ustoz deb bilish yaxshi. Biroq unutmaslik kerakki, ustozdan o'zmagan shogird shogird emas. Binobarin, ustozining nomiga dog' tushirib qo'yishdan ehtiyot bo'lmoq, oqibatini o'ylab maqtanmoq zarurdek ko'rinadi menga.

13

Ko'z qo'rqoq, xayol botir... Garchi, ko'p o'qiganim sayin qo'rqoqlashayotgan bo'lsam-da, shoirlik orzusidan ko'ngil uzmadim. Bilim yurtida yozgan "Tilagim" nomli she'rimni qayta ishlab, yana redaksiyaga yubordim. Oradan ko'p o'tmay, 1951-yilning yozida Nukusdagi markaziy bog'da joylashgan kutubxonada gazeta-jurnallarni varaqlab o'tirib, respublika yoshlar gazetasi "Jas leninshi"da "Tilagim" degan she'rga ko'zim tushib qoldi. Bundoq zehn solib qarasam, mening she'rim! Kutilmaganda yuragimni tars yorgudek bu quvonchimni baham ko'rish uchun yon-verimga qarayman. Aksiga olib biron tanishim uchramasa-chi! Kutubxonachi ayolga: "Manovi mening she'rim!" deyishdan o'zimni bazo'r to'xtatib qoldim.

"Maqtanish yigit kishining ishi emas", deb ogohlantirardi onam.

Nima bo'lsa-bo'lsin, o'sha gazetani yashirincha qo'ynimga tiqib, bironta tanishim uchrab qolarmikin, degan umidda bog' oralab ketayotgan edim, qarasam, naq darvoza oldidan ovulimizning Ko'cha biyi o'tib boryapti. Quvonchim ichimga sig'may, salom bergan zahoti qo'liga gazetani tutqazdim. Ichki sahifani ochib ko'rgunicha sabrim chidamay, gazetani yozib, familiyam bilan she'rimni barmog'im bilan nuqib ko'rsatdim. Ko'z yugurtirib chiqquniga qadar o'z kelajagimni qanday tasavvur qilishimni ham aytib ulgurdim. Go'yo gaplarimni quvvatlayotganday bosh qimirlatib turgan Ko'cha biyi menga miyig'ida kulib qaradi:

— Haliyam shoir bo'lish fikridan voz kechmadingmi?

— Iye, nega voz kecharkanman? — dedim hafsalam pir bo'lib.

U andak sukut saqlab turdi-yu, tag'in savolga tutdi:

— Bu deganimki, shoirlar haqidagi latifani haligacha eshitmadingmi?

— Institutga kelganimdan beri o'zimizning qoraqalpoq shoirlaridan boshqa Pushkin, Gyote... degan shoirlarning kitoblarini o'qib yuribman. Jahon adabiyotining ulkan namoyandasi Lev Tolstoyni ham oz-moz bilaman. Biroq shu paytgacha hech biri haqida latifa eshitmadim, — deb noiloj iqror bo'ldim.

— Men ularingni aytayotganim yo'q. O'zimizning qoraqalpoq shoirlari haqidagi bir latifani so'rab turibman, — dedi Ko'cha biyi.

— Yo'q, eshitmadim. Xo'sh, qanaqa latifa ekan bu?! — deb so'radim astoydil taajjublanib.

Ko'cha biyining aytgani: Urush yillarida mahalliy hokimiyat qoraqalpoq shoirlaridan iborat maxsus bir komanda tuzmoqchi bo'libdi. Shoirlar o'taketgan vatanparvar xalqmasmi, hammalari: "Yaxshi! Zo'r!" deb bu tashabbusni qo'llab-quvvatlashibdi. Aytilgan vaqtda harbiy komissariat oldiga yig'ilishibdi. Ularni bo'y-bo'yi bilan safga tizib:

— Qani, "birinchi, ikkinchi..." deb sananglar-chi! — deyishgan ekan, har bir shoir o'ziga navbat kelganida "birinchi", "birinchi" deyaveribdi. Komandir bular tushunmayapti shekilli, deb sanashdan maqsad kimning nechanchi ekanini emas, nechta odam yig'ilganini aniqlash ekanini aytib bo'lgach, tag'in:

— Qani, qayta boshdan "Men birinchi", "Men ikkinchi", "Men uchinchi" deb hisob bo'yicha sananglar-chi! — deb buyuribdi.

Shoirlar yana avvalgidek:

— "Men birinchi", "Men birinchi", "Men birinchi" deyaverishibdi. Shunday qilib, desang, qoraqalpoq shoirlarining hech qaysisi ikkinchi bo'lishni istamagani sababli ulardan komanda tuzilmay, har biri boshqa-boshqa komandaga qo'shilib urushga ketgan ekan.

...Ko'cha biyi o'zining favqulodda ishtiyoq bilan ilhomlanib aytgan bu latifasi go'yo butun shaharni kuldirayotgandek ko'krak kerib g'oz turardi. Yashirish ne hojat, qattiq alamim keldi.

— Bu latifani faqat shoirlarga emas, hammaga nisbatan aytsa bo'laveradi, — dedim andak jahl bilan. — Bu dunyoda birinchi bo'lishni kim istamaydi?! Masalan, sexdagi ishchi birinchi bo'lishga intilmaydimi? Intiladi. Kolxozda brigadir birinchi bo'lishga harakat qilmaydimi? Harakat qiladi. Boshqa kasbdagilar ham shunday. Butun-butun rayonlar, oblastlar, respublikalar-chi? Hammalari ham birinchi bo'lishni xohlaydi. Chunki har bir odamning ko'nglida: "Men birinchi bo'lishim kerak", degan yaxshi niyat bo'ladi. Masalan, mana, men ham birinchi bo'lgim keladi. Aytaylik, siz ham Ko'cha biylarining orasida birinchi bo'lishni xohlaysiz. Bilsangiz, bu nuqson emas, fazilat. Yaxshi niyat — yarim davlat, deb bejiz aytishmaydi-ku, axir. Aslida bu hayot talabi!..

Ko'cha biyi mening qizishib uqtirishlarimdan mamnun bo'lib:

— Gap shoirlar haqida ketayotgani uchun aytdim-qo'ydimda! — dedi o'zini oqlamoqchidek.

— Shoirlarning quroli — so'z! — dedim yana bo'sh kelishni istamay. — Bilasiz, ko'pincha bir so'z bir necha ma'noni anglatadi. Men sizga hozir "yomonsiz" desam, o'ylanib qolasiz. Sababi shu birgina so'z bilan sizni tuproqqa qorishtirish ham, ko'kka ko'tarish ham mumkin. Shoirlarning so'z tizishi g'isht terishdek oson emas. Usta shogirdga: "G'ishtni qiyshiq qo'yibsan-ku", deb tanbeh bersa, u xafa bo'lmaydi-ku, to'g'rimi? Shoirlarning o'zaro talashib-tortishishlariga ham shunday ko'z bilan xolisona qarash kerak. Ular bir-birini ko'pincha matbuot orqali tanqid qiladi. Ayrim so'zlarni noo'rin qo'llab, ba'zi fikrlarni chalkashtirganini ay-

tadi. Bu bir-birini kamsitgani emas, aksincha, bir-biriga o'rgatib, xatolarni tuzatishga chaqirgani.

— Shoirlar bir-birlarining kamchiliklarini matbuotda yozib chiqquncha yuzma-yuz turib ayta qolsa bo'lmasmikin? — deb so'radi Ko'cha biyi andak yuvosh tortib.

— Shunday qilsayam bo'laveradi. Biroq gap allaqachon chop etilgan asar haqida ketadi-da. Asar matbuotda e'lon qilindimi, unga muallif javobgar bo'lsa-da, endi ko'pchilikning mulkiga aylanadi. Ko'pchilikning mulkidagi kamchiliklar yana matbuotda ko'pchilikka ochiq-oshkor aytilishi kerak, — dedim.

— Aytmoqchi, shoirga qalam haqini qanday to'lasharkin?— deb so'radi u dabdurustdan o'zgarib.

— Hozircha olib ko'rmadim-u, biroq bir shoir tanishim har satriga o'n so'mdan (1961-yildan beri — bir so'mdan) pul olganini, bu eng kam narx ekanini aytgan edi, — dedim.

— Eng ko'pi qancha ekan? — deb so'radi u.

— Har satriga yigirma so'mgacha (hozir — ikki so'mgacha) to'laydi, deyishadi.

— Kuniga nechchi satr yozsa bo'ladi? Sen, masalan, manovi yigirma satr she'ringni qancha vaqtda yozding?

— Bir kechada, — dedim jo'rttaga.

Ko'cha biyi kutilmaganda o'zgarib:

— Yursang-chi, ovqatlanaylik, — deya taklif qilib qoldi.

Iltifotiga ko'nglim bo'y bermay, istab-istamay turganimni sezdi, shekilli:

— Katta shoir bo'lib, boyib ketganingda qaytararsan. Hozircha talabaning bir to'ygani — chala boyigani. Yur, mening hisobimdan restoranga kiramiz, — deb qistalang qilaverdi.

"Noiloj" (bajonidil) rozi bo'ldim.

Restoranda quloqlarni qomatga keltirar darajada orkestr sadolari yangrayotgan ekan. Ko'cha biyi joylashibroq o'tirgach, bir sozandani oldiga chaqirib, qo'liga o'ttiz so'm berdi va bizlar ovqatlanib bo'lgunimizcha chalmay turishlarini iltimos qildi. Cholg'uvchi lom-mim demay ortiga burilib ketdi-yu, birozdan so'ng yana qoshimizga kelib, Ko'cha biyiga oltmish so'm uzatdi. Ko'cha biyining yuzi duvva qizardi, biroq pulni olmadi.

Orkestr musiqasini davom ettirdi.

— Ko'rdingmi, musiqachilar qanchalik madaniyatsiz, — deb po'ng'illadi Ko'cha biyi.

Shu orada turkmancha kuy chalinib qoldi.

— Turkmanlar musiqa bobida bizdan ortda qolib ketgan, — dedi u ijirg'anib. — Eshityapsanmi, yoqimsiz-a?

— Sizga qaysi xalqning kuylari yoqadi o'zi? — deb savoliga chap berish uchun o'smoqchiladim men.

— Zo'r kuylar qoraqalpoqlarda-da! — dedi u jo'jaxo'rozlardek ko'krak kerib.

Men o'zimning musiqa bobidagi qarashlarimni bayon qilib, aksincha, bizning bastakorlarimiz ortda sudralib qolayotganini aytmoqchi, ular bastalagan kuylar zo'r bo'lganida boshqa yurtlarda ham ijro etilmasmidi, demoqchi edim... Ko'cha biyi hisob-kitob uchun ofitsiant ayolni chaqirib qoldi.

Tashqariga chiqdik. O'tmish adabiyoti namoyandasiga o'rnatilgan haykalning naq boshida o'tirgan qarg'ani menga ko'rsatib:

— Shuyam yodgorlik bo'libdi-yu! — dedi masxaraomuz kulib. — Bu armonli dunyoda o'zidan mangulik xotira qoldirishni istovchilar juda ko'p ekan-da, a? Men, masalan, o'zimga haykal o'rnatishlarini hecham istamasdim. Manavinday boshimga qarg'a o'tiradigan bo'lsa, haykalning nima keragi bor? Sen ham shoirlikni havas qilganingda vaqti kelib o'zingga haykal o'rnatishlaridan umidvor bo'lsang kerak-da?!

Men unga javob bermay, haykalning boshiga qo'nib turgan qarg'ani hurkitib yubordim-da, shahar tashqarisiga chiqadigan avtobuslar bekati tomon yurdim.

— Shoir klassikka aylanishi uchun uning kamchiliklaridan xabardor hamma tanish-bilishlari o'lib ketishi kerak, — bilag'onlik bilan dedi Ko'cha biyi ortimdan ergashib kelar ekan. So'ng tag'in meni savolga tutdi:

— Qani, ayt-chi, she'r emas, oddiy so'z bilan yozganlarga qalam haqini qanday to'lashadi?

— Bilmasam. Har qalay, hajmiga, harflar soniga qarab aniqlashadi, deyishadi. Masalan, qirq mingta harf bir bosma toboq bo'larkan. — Javob berdim indamaslik odobdan bo'lmas deb o'ylab.

— Demak, harflarni ko'paytiraverish kerak ekan-da! Bunaqa ekan, sen oddiy so'z bilan yozishga o'tsang bo'larkan.

— Nasriy asar yozishni uddalay olishimga hozircha shubham bor. — Ochig'ini tan oldim.

— O'ylaringni she'riy yo'l bilan yozish osonmi yo qora so'z bilanmi? — deya yana o'smoqchiladi u.

— Bir xil polvonlarning o'ng qo'li kuchliroq, bir xillari, aksincha, chapaqay bo'ladi. To'g'ri, shunday polvonlar ham borki, ularga o'ngi-chapi barobar. Yozuvchilar ham shunaqa: kimdir she'rga, kimdir nasrga usta, — dedim.

— Iye, unda Yo'lmirza Oymirzayev adabiyotda o'ngi-chapi barobar polvon ekan-da! — deya u yana meni masxaralab kula boshladi. — Demak, sen ham Yo'lmirza Oymirzayev bo'lmoqchi ekansan-da, a?

— Mening Gyote yo Pushkin, Balzak yo Tolstoy, Xeminguey yo Sholoxovdek bo'lgim keladi, — dedim masxaraomuz kulgidan og'rinib.

— Bunday qayoqdagi notanish odamlarga ergashib o'zingni pastga urma, — dedi u endi menga sidqidildan joni achiyotgan mehribon aka qiyofasiga kirib.

Avtovokzalda Ko'cha biyi chiqishi kerak bo'lgan avtobus hali yo'q ekan.

— Shu paytgacha ovulimizdan shoir chiqmagan edi, — deya gapni gapga ulab ketdi u. — Bundan keyin senga maslahat berishga ham jiddiyroq tayyorlanish kerakka o'xshab qoldi. Hozircha bir-ikkita yengil-yelpi maslahatimni aytib tursam maylimi?

— Maslahat tosh emas, ko'taraversa bo'ladi, — dedim men.

Ko'cha biyining maslahatlaridan: Bu dunyoni yolg'onchi deydilar. Yolg'onchini esa, faqat yolg'onchi yenga oladi.

Odamning nodonligini ko'ra-bila turib, unga maslahat beraverma, vaqti kelib o'zining xatosi uchun ham seni ayblaydi.

Ko'pchilikning ishi uchun aybdor sanalsang xafa bo'lma, o'zingni bardam tut. Yashin ham avvalo mevali daraxtga tushadi.

Yolg'iz chopganida yugurik ko'ringan otni maqtashdan ehtiyot bo'l! Yugurik ot ko'pkarda ma'lum bo'ladi.

Yukni nor ko'taradi. Qatorda noring bo'lsin, biroq boshqalarning yukini ko'tarishdan hech qachon bo'yin tovlama.

O'zingda boshqalarni, boshqalarda o'zingni ko'r. Biroq o'zingnimas, o'zgalarni ko'proq avayla. "Pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa do'stingga ur", degan xalq maqoli bejiz aytilmagan.

Xafa bo'lsang, sababini o'zingdan axtar. Xursand bo'lsang, sababini boshqalardan axtar.

Ko'cha biyi aytgan afsona: Qadimda bir serfarzand podsho barcha o'g'il-qizlarini oldiga chaqirib: "Bu dunyoda yaxshi yashash uchun nima qilish kerakligini, o'zaro do'st-birodar, bilimli-donishmand bo'lish yo'llarini o'rgangach, qaytib kelasanlar", deb chor tarafga tarqatib yuboribdi. Har kim har yo'lga tushib, olis safarga otlaniibdi. Ozg'in-nimjonroq bir bolakay katta yo'lni qo'yib, kichkina so'qmoqdan ketaveribdi. Bir necha kun yo'l yurib, charchab-horib, yo'l ozig'i tugab, ko'zlari kirtayib, bir tepalikda dam olib o'tirgan ekan, ro'parasidan tosh darvoza ko'rinibdi. Yaqinroq borib qarasa, unga: "Shu darvozani ochib kirgan odam xazinaning kalitini topib oladi", deb yozib qo'yilganmish. Yigit suyuna-suyuna tosh darvozani o'rnidan siljitishga jon-jahdi bilan tirishib-tirmashibdi. Tirnoqlarining qonab ketganiga ham parvo qilmay, zo'r-bazo'r darvozani qiya ochgan ekan, narigi tarafidan bir ilon chiqibdi. Yigit ilondan qo'rqqanidan tosh darvozani tashlab ortiga qochgancha, bor ovozi bilan chinqiribdi. Chinqiriqni eshitgan og'alari yetib kelib, tosh darvozadagi yozuvni ko'ribdilar-da, suyuna-suyuna uni tag'in o'rnidan siljitishgan ekan, aka-ukalar nechta bo'lsa, o'shancha ilon darvozaning narigi tarafidan otilib chiqibdi. Mardroqlari tap tortmay har biri ro'parasidagi ilonni o'ldirib, ichkariga kiraveribdi. Ilondan yengilganlari tashqarida qolaveribdi. Ozg'in-nimjon bola ro'parasidagi ilonga tik borishdan qo'rqib, yana ortiga qaytibdi. Oradan bir necha yil o'tib, akalariga uchrashgan ekan, ilon o'ldirib, metin darvozadan o'tganlari olim-u shoir bo'lib, podsho otasidan o'ziga yer ajratib olib, el-yurt orasida hurmat-ehtirom-u rohat-farog'atda yashayotganmish.

Ozg'in-nimjon bolakay ulardek bo'lishga qiziqmay, podsho otasiga ham uchramay, uzoq-uzoqlarga bosh olib ketibdi.

Uning bola-chaqalari ham metin darvozaga yaqinlashay desa, otasi aytib bergan ilon voqeasi yuraklarini shuvullatar ekan...

Har gal shu afsona yodimga tushsa, o'sha "ozg'in-nimjon bola" bizning bobomizmasmikan, deb o'ylab qolaman...

...Avtobus allaqachon kelib to'xtagan, ichi yo'lovchilarga tirband bo'lib ulgurgan ekan, endi o'rnidan qo'zg'alayotganida ko'rib qoldik-da, ortidan yugurdik. Ko'cha biyi avtobusning ikki tarafga buklanib ochiladigan eshigini mahkam ushlab turib o'zini ichkariga olgan zahoti ortidan eshik yopilib, choponining bari tashqarida hilpiragancha ketaverdi. Endi u menga har doimgidan ham qadrdonroq, mehribonroq, donoroq tuyula boshladi.

* * *

Zerikishdan o'chakishish yomon.

Yoshlar gazetasida birinchi she'rim bosilib chiqqanining quvonchi tez orada ko'nglimni tark etib, endi kattalar gazetasida she'r chiqarishim kerak, degan o'y butun vujudimni qamrab oldi. Natijada ko'klamgi ekish mavsumiga bag'ishlab she'r yozdim-da, redaksiyaning adabiyot bo'limi eshigini qoqdim. Kirishga ruxsat berildi. Ichkarida bo'lim mudiri bilan gaplashib o'tirgan qoraqalpoq xalq shoiri Sodiq Nurimbetov menga o'rin bo'shatish uchun ketish taraddudiga tushgan edi, bo'lim boshlig'i:

— Sodiq og'a, andak sabr qilsangiz, yosh shoirning mashqini birga eshitardik, — deb qoldi.

Bu gapdan o'zimda yo'q suyunib ketdim: axir, she'rimni ikki shoir baravar eshitmoqchi. Ikkovida ham o'zimga nisbatan mehr-shafqat hissini tuyib, qiroat bilan she'r o'qishni boshlab yubordim. Terlab-tepchib o'qib bo'luvdim hamki:

— Nima bu, qofiyalangan agronom maslahatimi yo ko'klam manzarasimi? — dedi bo'lim mudiri.

Men endi hovurimdan andak tushib, she'rimning yetakchi g'oyasini batafsil tushuntira boshladim. U miyig'ida kulgancha, gaplarimni jimgina tinglab o'tirdi-da:

— Mana, endi tushunarli bo'ldi, — dedi dabdurustdan jiddiylashib. — Biroq bu she'ringni gazetada e'lon qilishdan avval bitta shart qo'yaman. Rozimisan?

— Roziman! — dedim.

— Gazeta chiqqan kuni ertalab qirq mingga yaqin xonadonga tarqatiladi. Bundan tashqari, avtonom respublikadagi barcha do'konlarda sotiladi. Shartim shuki, sen manovi she'ring bosilib chiqqan kuni ertalab o'sha qirq ming xonadonga birma-bir kirib chiqasan, barcha do'konchalarning oldiga borib turasan.

— Nega endi? — deb so'radim hayratdan dong qotib.

— Sadag'ang ketay, inim, yo'qsa she'ringni hozirgina menga tushuntirganingday har bir gazetxonga kim tushuntirib chiqadi? — dedi bo'lim mudiri.

Sodiq shoir aytgan afsona: "Hindlar yurtining mashhur maxorojasi Toj Mahal maqbarasini ziyorat qilishga kelganida notanish odam unga qulluq qilib, o'zini nomdor rassomman deb tanishtiribdi. Allaqanday surat ham sovg'a qilibdi.

— Bu nima? — deb so'rabdi maxoroja.

— Ajdahoning surati. Sizga sovg'a qilish uchun ataylab chizdim, — debdi notanish rassom.

O'sha paytlar hind elida ajdaholar haqida har xil rivoyatlar keng tarqalgan ekan.

— Ajdaho degani shunaqa bo'larkan-da. Bu sovg'ang uchun senga tashakkur! — debdi maxoroja. — Xo'sh, endi bu suratning bahosini ayt-chi?

— Yuz tilla, — debdi rassom.

Maxoroja unga yuz tillani beribdi-da:

— Endi sen menga manovi Toj Mahalning suratini chizib berchi, haqiga o'n ming tilla in'om qilaman, — debdi.

Rassom asta-sekin ortiga chekinib, qochib qolishning payiga tushibdi. Maxoroja uning shum niyatini sezib, soqchilariga ushlab, dorga osishni buyuribdi...

...Hech kim ko'rmagan ajdahoni chizish kabi, o'zing bilmaydigan narsani bo'rttirib yozish juda oson", deb afsonaga yakun yasadi Sodiq shoir.

— O'zing uchun qiziq tuyulgan gap boshqalar uchun ham qiziqarli bo'laveradi deb o'ylama, — derdi onam.

Bu ko'hna dunyoning o'zidek har bir odam bolasi bus-butun jumboq. Barcha janjal-u g'avg'olar ana shu jumboqlarni yechish yo'lida kelib chiqadi, — derdi bobom.

— Senga boshqa birov qanchalik sirli tuyulsa, sen ham unga shunchalik sirli tuyulasan. Biroq jumboqning mushkulligi yechilgunga qadar, — derdi momom.

Qariyalar gurungidan: — Bu yorug' olamning past-balandini, falakning gardishini to'la anglab yetishni xohlamaydigan odam bolasi yo'q bo'lsa kerak.

— Agar Yer yuzidagi barcha odamlarni bir joyga to'plab, har birining ko'rgan-bilganlari, o'y-fikrlarini o'z og'izlaridan eshitishning imkoni bo'lganida edi, xuddi tashqi qiyofalari o'xshamaganidek, gaplari ham hech qachon bir xil bo'lmasdi. Biz yashab turgan olam haqida baribir uzil-kesil fikrga kelolmagan bo'lardik...

— Shu boisdan ham kunduzni tushunish uchun tun bor, bugunni tushunish uchun o'tmish bilan kelajak bor, yolg'onni bilish uchun rost bor, — derdi otam.

— Ne-ne yolg'onlar borki, aytsang hamma ishona qoladi. Ne-ne rost gaplar borki, aytsang hech kim ishonmaydi, — deya ko'p takrorlardi Ko'cha biyi.

— Nima gapirsang ham ehtiyot bo'lib, o'ylab gapir. Og'izdan chiqqan har bir so'z uchun bosh javob beradi, — derdi onam.

14

Matbuotda bir she'rimni e'lon qilsam bas, meni hamma tanib, darrov Yozuvchilar uyushmasiga chaqirtirishsa kerak, deb o'ylardim. Ko'p o'tmay bu xomxayol ekani ma'lum bo'ldi. Lekin, baribir, ko'ngil qurg'ur bot-bot o'sha tarafga talpinaveradi. Oyoqlarim Yozuvchilar uyushmasiga yetaklayveradi. Axiri oyoqlarimga erk berdim. Raisning kabinetiga kirishga botinmay, kimsasiz qabulxonada o'tira-o'tira yana ortimga qaytdim. Har qalay, quruq qaytmadim. O'shanda Yozuvchilar uyushmasi yog'ochdan qurilgan bir qavatli binoda joylashgan edi. Qabulxonada o'tirganimda

yupqagina eshikdan ichkarida bo'layotgan suhbat baralla eshitilib turdi.

Yozuvchilar uyushmasi raisining qabulxonasida eshitganlarim: — ...Meni dinga moyil deb tushunmang, eskilarning aytishicha, har bir odamning ikki yelkasida ikki farishta o'tirarmish. Ulardan biri odamning savob ishlarini, ikkinchisi gunoh ishlarini yozib boraverarmish. Odam narigi dunyoga borganida o'sha gunoh-savob daftarlari oldiga qo'yilarmish. Bu-ku, yakka odam haqidagi diniy gap... Biroq bizda har bir odam tugul butun boshli xalqning bugunga qadar ko'rgan-kechirganlari, uning savobi u yoqda tursin, gunohi yozilgan kitob ham yo'q. Bunga sabab, gunoh-savobni qayd etib boradigan "farishtalar", hozirgi ibora bilan aytganda, nosirlarning yo'qligi-da. Agar nasriy janrlarni rivojlantirish harakatini qilmasak, xalqimiz tarixining juda ko'p sahifalari boz-boyagidek qorong'uligicha qolaveradi...

— Nasrni rivojlantirish haqidagi masala bugungi yig'ilish kun tartibiga kiritilgani juda to'g'ri bo'lgan! Bu ish urushdan avvalroq yo'lga qo'yilib, ayrim o'rtoqlar o'z qalamlarini nasrda sinab ko'ra boshlagan edi, biroq urush pand berdi.

— Barchangizga ma'lumki, she'riyat adabiyotning rivojlanish yo'lidagi bolalik davri. Biz qachongacha bola bo'lib qolaveramiz, o'rtoqlar! Bizlar ham boshqa xalqlarga o'xshab, yirik epik polotnolar yaratish yo'liga o'tishimiz kerak...

— Hoy, uka, to'xtang! Siz bunaqa she'riyatni kamsitguncha dissertatsiyangiz bilan shug'ullanib jimgina yuravering, durustmi! Buyuk Navoiyni, Jomiyni, Umar Xayyomni, Nekrasovni, Berdaqni, manovi yonimizda o'tirgan ajoyib xalq shoirlari Abboz Dobilov bilan Sodiq Nurimbetovni haqorat qilmang!

— Kechirasiz, men yaxshi shoirlarimizni kamsitmoqchimasman. Bilaman, shoir xalqning tili. Shoir xalqning faxri! Biroq...

— Buyuk Navoiy qishloq oralab o'tib borayotgan ekan, bir uydan qizlar jo'r bo'lib aytayotgan qo'shiqni eshitib, to'xtab qolibdi. Qizlar shoir g'azalini o'zlaricha kuyga solib aytishayotgan ekan, bu holdan mamnun bo'lib diqqat bilan tinglay boshlabdi. Zehn solib eshitsa, ular g'azalning ayrim satrlarini tashlab, buzib aytishayotganmish. O'shanda Navoiy uyga bostirib kiribdi. Qizlar gil-

am to'qishayotgan ekan, shoir to'ppa-to'g'ri boribdi-yu, gilamning iplarini tortqilab, gulini buzmoqchi bo'libdi.

Qizlarning jahli chiqib:

— Iye, iye, bu qanaqasi? — deya ulug' shoirning ustiga yopirilishibdi.

— Nega unda manovi gilamlaringizdek ne-ne mashaqqat-u zahmatlar bilan, yana deng, sizlardek, ko'plashib emas, yolg'iz o'zim to'qigan g'azalni buzib aytayapsizlar? — debdi shoir.

Bu odamning ulug' Navoiyligini bilgan qizlar uzr so'rashga tushibdi. Shoir ham qizlardan uzr so'rab chiqib ketibdi...

— Xo'sh, tanqidchi ukamiz, bunisiga nima deysiz endi?

— Berdaq shoirning otasi Qarg'aboy bir kuni uyiga hovliqib kiribdi-yu, ayoliga dabdurustdan: "Qani, bo'laqol, tezda Berdaqni yuvintirib-kiyintir-chi! Uni Xivaga olib bormoqchiman. Bizga baxt kulib boqadiganga o'xshab turibdi", debdi. "Nega?" deb so'rabdi ayoli uning muddaosini tushunmay. "Xivadagi xon saroyida ishlash uchun eng dono, eng barno bir bolakay qidirishayotgan ekan. Bu yorug' olamda Berdaqimizdan aqlliroq, chiroyliroq bola bo'lishi mumkinmi sira?" debdi Qarg'aboy. Ayoli fahm-farosatli ekan, ichak-sillasi qotib kulibdi. Qarg'aboy uning hay-haylashiga qaramay, o'n yashar Berdaqni tez-tez yuvintirib kiyintiribdi-da, eshagining ortiga mingashtiribdi. Kecha-yu kunduz yo'l tortib, Xivaga uch kun deganda yetib boribdi. Xon saroyiga kirish uchun birin-ketin uch soqchining oldidan o'tish kerak ekan. Birinchi soqchiyoq Qarg'aboyga: "Shu quloqlari qalqonday, burni cho'michday tasqara bolasini uyalmay olib kelib turganini qaranglar!" deb masxaralab kulibdi. Qarg'aboy bolasining suluvligini nari-beri isbotlamoqchi bo'lgan ekan, soqchilar ularni uribso'kib shahardan haydab chiqarishibdi.

Har kimga ham o'z farzandi dunyodagi eng aqli raso, barno bo'lib ko'rinaveradi. Qarg'aboy o'sha dakki-dashnomdan keyin to o'la-o'lgunicha: "Mening ham aqlli, ham chiroyli bolamni ko'ra turib saroyga kiritmagan xonning odamlariga la'nat!", deya qarg'anib yashabdi...

Shoirning she'ri ham farzandi. Uni kamsitishdan uyalsangiz bo'lardi, inim!

— Berdaq o'sha dakki-dashnomdan keyin chiroyliligi bilan emas, so'zlarining o'tkirligi, hozirjavobligi bilan xon saroyini qulatmasayam, har qalay, zir titratgan shoir bo'lgan.

— She'riyatga til tekkizilmasin!..

— Xalq hayotini qaysi janrda kengroq ko'rsatish mumkin? Shu haqda gaplashaylik, o'rtoqlar!

— Nasriy asarlarga tanlov e'lon qilish kerak!..

Onamning nasihatlaridan: Sendan fikr aytish lozim bo'lsa, xayolingga kelgan gapni tilingga chiqaraverma. Ko'zingga ko'rinib turgan narsa haqida til uchidagi gapni aytayotganingda ham avvaliga uch marta yutinib ol!

O'zing haqingda gapirishing kerak bo'lsa, to'g'ri ekan deb bilgan gapingni aytaverma. Avvalo qalbingga quloq sol, yon-veringga qara, qay gapni aytish mumkinligini bilib ol!

Agar ikki odam bir-biridan arz qilib oldingga kelsa, ikkovining ham erkin gapirishiga imkon ber. Gaplarini og'irroq bo'lib, xolis turib eshit. O'shandagina to'g'ri yechimga kela olasan. Sababi, qarg'a oppog'im, tipratikon yumshog'im deganidek, har kimning o'z gapi o'ziga eng zo'r hikmat!

...Har qalay, Yozuvchilar uyushmasida qulog'imga chalingan o'sha g'oyibona suhbat ko'nglimda chuqur iz qoldirdi.

Asrlar mobaynida og'zaki ijodiyot va ayrim shoirlarning zamona gardishlariga qarshi hasrat-nadomat, ishq-muhabbat hislariga limo-lim she'rlari ruhida yashab kelgan xalqim realistik nasrni qanday qabul qilarkin?!

Teranroq mushohada qilib ko'rsam, aksincha, bu xalq, realistik asarlarga bag'oyat chanqoqdek. Bolalik chog'imda Lev Tolstoyning "Kavkaz asiri"ning qoraqalpoq tiliga tarjimasini bobomga o'qib berganimda bobom menga o'sha kuni hech bir ish buyurmay, hikoyani o'qib tugatgunimga qadar jimgina tinglab o'tirgan-da, keyin:

— Bu dostonning so'zlari she'rday uyqashib kelmasa ham voqeasi dostonlarimizdagiday osmon bilan yerning o'rtasida osilib qolmas ekan. yerda turarkan. Havoyi gaplar emas, naq hayotning o'zi-ya, — degan edi qattiq hayajonlanib. Esimda, hatto ertasiga

Jilinning qismatini boshqa qariyalarga qoraqalpoq odamining qismatidek hikoya qilib bergandi.

O'zimdan o'zim ilhomlanib, qalamimni nasrda ham sinab ko'rish maqsadida ko'pdan beri xayolimni band qilib yurgan bir voqeani hikoya qilib yozishga o'tirdim. Ko'p o'tmay, yozib tugatdim ham. O'qib chiqsam, o'zimga ma'qul.

Farzandning ishiga ota-onasining bahosidan ham yuksakroq, samimiyroq baho bo'lishi mumkinmi sira? Ha, unga ota-ona qarg'ishidan dahshatliroq qarg'ish ham, olqishidan ezguroq olqish ham bo'lishi mumkin emas!

Yangi yozilgan hikoyani redaksiyaga jo'natishdan avval otam bilan onamning fikrini bilishni ma'qul ko'rdim. Bobom avvalgi yili qazo qilgandi...

Ota-onam hikoyamni ixlos bilan tinglashdi. Otam yetti o'lchab bir kesadigan odam edi. "Qani, sen boshlab tur-chi!" degandek onamga qiya qaradi. Onam odatdagidek o'ktamlik bilan gapni qisqa qildi:

— Nimadir yetishmaydi.

— Menimcha ham bir kamchiligi bordek, — dedi otam.

Biroq, ikkalalari ham hikoyaning qanday kamchiligi borligini, nima yetishmasligini aytib berolmadilar. O'zimcha qayta-qayta o'qib, o'ylana boshladim. Darhaqiqat, unda eng muhim nimadir yetishmay turgandek. Lekin nima? Bilolmay dog'daman!

Ertasiga ertalab onam:

— Sere, menimcha, kechagi yozganingda qo'ni-qo'shnilaringga, yurtingga mehr yetishmas ekan, — dedi.

— Hovva, yurtning ekinzorlarini, keng dalalarini ko'rganda kuyunishing, suyunishing, sog'inishing sezilmaydi, — deya otam onamning gapini to'ldirishga tushdi.

— Qo'ni-qo'shnilarga, el-yurtga, keng-yassi dalalarga mehr-muhabbatmi, sog'inch ko'ngilda yurtdan olisroqqa ketganda tug'ilsa kerak, — dedim o'zimni oqlashga tirishib.

— Yo'q, Sere, — dedi onam. — Men, masalan, har kuni ertalab qo'ni-qo'shnilarimni, manovi dala havosini, quyosh nurini sog'inib uyg'onaman. Bu ham yurtni sog'inish, yurtga mehr!

— To‘g‘ri! — dedi otam onamni quvvatlab. — Har kuni ertalab ekin dalalarini, tanish-bilishlarini, el-yurtini sog‘inib uyg‘onmagan odam, senlarning tiling bilan aytganda, vatanparvar bo‘lolmaydi.

Ularning tanqididan ko‘nglim cho‘kib-siniqib, xayollarim alg‘ov-dalg‘ov bo‘lib, Nukusga qaytdim. Xonamizga kelsam, yurist og‘aynimiz Qutlimurod og‘a O‘rozov o‘tiribdi. Bu kishining dono maslahatlari, kutilmagan mantiqiy dalillari eshitgan odamni qoyil qoldirgani uchun ham kelinlari hurmatlab “yurist qaynog‘a!”, o‘g‘il-qizlari esa “yurist ota!” deb chaqirishardi. Qulay fursatdan foydalanib, dastlabki hikoyamni shu “yurist ota”ga ham o‘qib bersammikin, degan fikrga keldim.

U birovning gapini sabr-toqat bilan eshita oladigan odam edi. Qimirlamay sukut saqlab o‘tiraverdi. Hikoyamning butun-butun sahifalari o‘zimga yod bo‘lib ketganmasmi, o‘qiyotib ko‘z qirim bilan qarab-qarab qo‘yaman. Avvaliga ishtiyoq balqigan yuzi tobora o‘zgarib boraverdi. Peshonasidagi moshdekkina xolini qayta-qayta silashga tushdi. Sezdimki, manzur bo‘lmayapti. Bir amallab o‘qishni tugatdim.

“Huquqshunos ota”ning nasihatlaridan: Biz yuristlar biron ishga hakamlik qilarkanmiz, uni keltirib chiqargan sabablarni qidiramiz. Hikoyangda bo‘lsa, ularni qidirish yo‘q. Har bir qahramoning o‘zi bilan o‘zi ovora. Yon-verida kim borligini ko‘rmaydi, nima borligini bilmaydi. Tabiatda hamma narsa bir-biriga bog‘lanib-chatishib ketgan. Biri ikkinchisini to‘ldiradi, biri ikkinchisini keltirib chiqaradi yo inkor etadi. Yozuvchi hayot darsligini yaratuvchi odam. Shuning uchun u tabiatdagi har bir hodisani chuqur anglab yetmasa, uning mohiyatiga kirib bormasa, yozganiga hech kim ishonmay qo‘yadi.

Yodingda bo‘lsinki, inson umrining mazmunini o‘lchovchi mezon — uning atrofdagilar bilan munosabatida.

Osmonga qara, quyosh nega turibdi? Shamol nega esadi? Teraklarning barglari nima deb shivirlaydi?.. Hayotning turgan-bitgani jumboq! Odam tevaragidagi narsalarni hamisha ko‘rib-sezib turgani uchun ularning o‘ziga ta’sirini aksariyat hollarda anglab yetavermaydi. Ha, endi, anovi bor narsa-da, manovi narsa o‘z

o‘rnida-ku, men yo‘q narsani qidirib topay, deydi ba’zi birovlar. Yo‘q narsani qidirish behuda ish, baribir, uni topib bo‘lmaydi. Avvalo boriga tayanib, borning borligini ko‘rsata olishning o‘zi — hikmat!

“Huquqshunos ota” aytgan bir juft afsona: Avvalboshda butun jahonga bir shoh hukmdorlik qilarkan. Yillar o‘tishi bilan qabila-yu elatlar ko‘payib, bir hukmdorning yurtni boshqarishi mushkullashibdi. Shu sababdan: “Har bir ovul saroyda men bilan o‘tirib, el-yurtni idora qiladigan bitta-bittadan donishmandni huzurimga yuborsin!” deb chor tarafga jar soldiribdi. Barcha ovullar o‘zlaricha maslahatga yig‘ilib, shohning buyrug‘ini bajo keltirishibdi. Birgina ovuldan hech kim kelavermabdi. Shoh bu holdan bezovtalanib, o‘sha ovulga maxsus chopar yo‘llabdi.

Oradan ko‘p o‘tmay, butun ovul ahli choparga ergashib saroyga kelibdi. Shoh ajablanib:

— Bu qanaqasi? — deb so‘rabdi ovuldoshlardan.

— Sizning yoningizda o‘tirishga hammamizning ham ishtiyoqimiz zo‘r. Shuning uchun oramizdan bir odamni tanlash mushkul bo‘ldi, — debdi ovul oqsoqoli.

Shohning qahri kelib:

— Bir-biringizga g‘ayirlik qilmay, xolis turib oralaringizdagi eng donishmand bir odamni qoldirmasangizlar, aytib qo‘yay, saroyimda sizlarning so‘zingizni so‘zlab, or-nomusingizni himoya qiladigan hech kim bo‘lmaydi, — deya gapni qisqa qilibdi.

Ovuldoshlardan birontasi: “Saroyda falonchi qolsin!” deb aytolmay tura-tura, axiri hammalari ortlariga qaytishibdi.

Yana: O‘sha shoh saroyida maslahatgo‘ylar ko‘payibdi, talay boylik to‘planibdi. Saroyning shuhrati kundan kunga orta boribdi. Endi bu shuhratni ko‘rolmaydigan g‘alamislar paydo bo‘libdi. Saroyni ulardan himoya qilish uchun har bir ovulga: “Bittadan navkar jo‘natilsin!” deb yana jarchilar yo‘llanibdi. Barcha ovullar bu gal ham o‘zaro maslahatlashib, saroyni himoya qilish uchun bitta-bittadan navkar yuborishibdi. Saroyga bir maslahatgo‘y yuborishning uddasidan chiqolmagan o‘sha ovul ahli yana jamul-jam bo‘lib shoh huzuriga kelibdi. “Sizni, saroyingizni urug‘-aymog‘imiz bilan hammamiz baravar himoya qilmoqchimiz!” de-

yishibdi. Shoh bu gal o'ylanib olish uchun ularga saroy tashqarisida bir oqshom tunashga ruxsat beribdi. Baxtga qarshi, o'sha tunda saroyga yov bostirib kelib, tuni bilan qirg'in-barot jang bo'libdi. Shoh ertalab uyqudan uyg'onib, saroy tashqarisiga chiqsa, talay navkarlar o'ldirilgan, yarador bo'lgan. Kecha kelgan ovul ahlidan birgina odam tirik qolibdi.

Shoh undan:

— Boshqa ovuldoshlaring seni navkarlikka qoldirib qaytib ketishdimi? — deb so'ragan ekan, u shohga saroy tevaragida har biri yovning bir navkarini quchoqlagancha o'lib yotgan odamlarni ko'rsatib:

— Mana, mening ovuldoshlarim, — debdi.

— Yov kelganida meni yoki shahzodalarni nega uyg'otmadinglar? — deb so'rabdi shoh.

— Siz bilan o'g'illaringizning, a'yonlaringizning tinchligini buzadigan bo'lsak, bu dunyoda nima qilib yuribmiz?! — debdi u.

Shoh o'sha yigitning peshonasidan silab: "Obbo bechora-yey, bir eldan yolg'iz o'zing qolibsan-da! Sen endi hamisha boshqalardan ajralib tur. O'zim-u nasl-nasabimning tinchligi uchun yovlar bilan jang qilib o'lgan elatdoshlaringni hech qachon unutmasliging uchun manovi motam belgisi bo'lsin!" deb uning boshiga qora qalpoq kiygizibdi...

...Yozuvchi bo'lsang, mana shunday afsonalarga ham suyan. Bu afsonalarda ulkan hikmat bor. Hech bo'lmaganda, xalqimizning tarixiy taqdirini, milliy xususiyatlarini ko'rsatuvchi haqiqat uchquni bor. Haqiqat deganlari kimnidir adoyi tamom qiluvchi zahar, kimgadir shifo baxsh etuvchi mo'miyoyi asl. Kitobing dushmanlar uchun zahar, do'stlar uchun dori bo'lib xizmat qilmas ekan, bunday yozuvchilikning bahridan o'tganing ma'qul! Axir, shuning uchun ham yozuvchining mehnati insoniyat kashf etgan mehnat turlarining hech biri bilan taqqoslab bo'lmaydigan darajada og'ir!..

Birinchi hikoyamning birinchi munaqqidlari, garchi adabiyotdan yiroqroq kishilar esalar-da, mening o'ylarim yana ostin-ustin bo'lib ketdi.

— Kim o‘z xalqini qanchalik sevsa, xalqi ham uni shunchalik sevadi, — deyiladi xalq hikmatida.

— O‘z onasini hurmat qilmagan odamning boshqa onalarni hurmatlay olishiga ishonma, — deyiladi jahondagi ko‘pgina xalqlar hikmatida.

— Hamma odamlar bir-birlarini baravariga yaxshi ko‘raverganlarida edi, yomon ko‘rishning nima ekani noma’lum bo‘lib qolardi. O‘zidan nuqson qidirmagan odam boshqalarning fazilatini xolis baholay olmaydi, — deb o‘rgatardi bobom...

Nazarimda endi men uchun qo‘ni-qo‘shnilarim, do‘st-birodarlarim, el-yurtimga mehr-muhabbat, sog‘inch tuyg‘ularisiz tiriklik o‘lim bilan barobardek edi.

15

Ko‘nglimdagi orzularim to‘la ro‘yobga chiqishi uchun nima qilish kerak?!

— Yer qondirib sug‘orilmasa, uni chuqur shudgorlab, ekinni bir tekis ko‘kartganingdan foyda yo‘q, hosil ololmaysan, — der edi otam.

— Yaxshilab sovutilmagan otni shoshqaloqlik qilib ko‘pkariga qo‘shavermaslik kerak, — der edi bobom.

Hali tuzuk-quruq bir she’r yozolmay yurib, dabdurustdan yozib tashlagan hikoyam tufayli eshitgan dakki-dashnomlarim o‘zimning hali qondirib sug‘orilmagan yer, yaxshilab sovitilmagan ot ekanimni ayon ko‘rsatdi.

Endi faqat badiiy asarlar bilangina emas, ularning qanday yaratilgani, umuman, qanday yaratilishi, kimlar yaratishini ham yaxshiroq bilib olishim kerak!

Qaysidir bir mutafakkirning: “San’at qurbonlik talab qiladi”, degan gapini dastlab o‘qiganimda, buning ma’nosi butun hayotingni, hatto uyquga ajratgan vaqtingni ham san’at yo‘lida sarflash ekanini tushunib yetmay, “Kim ham adabiyot uchun o‘z ixtiyori bilan jonini fido qilardi!” deya ajablanganlarim esimga tushsa, hali-hanuz xijolat tortaman.

"Men adabiyotga uchar yulduz bo'lib keldim, chaqmoq bo'lib ketaman", degan Mopassanning o'n yil ichida o'nta she'riy to'plam, oltita roman, o'n oltita novella va hikoyalar to'plami, uch ocherklar to'plami, qator xronikalar yozganini o'qiganimda, yuragim orqamga tortib ketdi.

Hali tirikligidayoq shuhrati olamni tutgan, jahon kitobxonlarining hurmatiga sazovor bo'lgan buyuk Gyotening hadeb yozish bilan mashg'ul bo'laverib, bu yorug' dunyoning gasht-u farog'atlaridan ovloqda umr o'tkazgani sababli chekkan afsus-nadomatlari! Tafakkur ufqi cheksiz Lev Tolstoyning "Uyqu" hikoyasini 29 marotaba ko'chirgani, shoh asari "Urush va tinchlik"ni esa 15 marta qayta boshdan yozib chiqqani, o'shanda ham chop etilgandan keyin o'zining ko'ngli to'lavermagan o'rinlarini eslab, qattiq o'kinganlarini o'qiganimda yuragim o'rtandi. Chexovning ko'rgan-eshitganlarini qayd etib qo'yish uchun hamisha yon daftar bilan yurganini, Buninning esa, aksincha, biron-bir yon daftar tutmaganini o'qiganimda, o'zimni ikki o't orasida qolgandek sezdim.

Necha-necha shoh asarlar yaratgan Edgar Poning sarsonlik-sargardonlikda yashab, xor-zorlikda o'lib ketganini, o'z xalqining sodiq farzandi, chinakam vatanparvar Chernishevskiy Rossiyaning dushmani sifatida jazolangani, "Bovari xonim"dek asar muallifi Floberga "Fransiyada axloq qoidalariga putur yetkazdi", deya ne-ne prokurorlar aybnomalar yozganini o'qiganimda, a'zoyi badanim titroqqa tushdi.Mixail Sholoxovning "Tinch Don" asari dastlab kichik bir kitobcha sifatida boshlanib, oxiri to'rt jildlik epopeyaga aylanib ketganini bilganimda, tizzalarim qaltirab, bo'g'in-bo'g'inlarim bo'shashib ketdi...

Mana shundan keyin har bir buyuk adibning yo'li meni qudratli ohanrabodek o'ziga tortib, o'tirgan o'rnimdan turishga vaqt topolmaydigandek ahvolda qoldim. Betinim o'qiganim sari tobora ulg'ayayotganimni his qilsam-da, nazarimda, ajabtovur gangib-esankiragandekman. Allanechuk vazminlashib qoldim. Xayolim buyuk san'atkorlar asarlari orasida sarsari kezib, ularning adabiyot maydonida chalgan qo'ng'iroq sadolaridan quloqlarim tom bitgudek bo'ldi. Orzumga erishish yo'lidagi xayol qushiga erk berishdan qo'rqinchim kun-bakun ortib, ko'zlarim tinib borayot-

gandek edi.

Onam aytgan afsona: Bir donishmand farzandlarini o'stirib-ulg'aytirib, har birining o'z aravasini o'zi tortishiga ruxsat beribdi-yu, ularni minglab so'qmoqlar kesishgan joyga olib kelib: "Qani, bolalarim, oq yo'l, har kim o'zi xohlagan so'qmog'iga tushib ketaversin", debdi. Bolalar, kimdir ikkov-uchov bo'lib birikib, kimdir yolg'iz o'zi apil-tapil bir so'qmoqqa tushib ketaveribdi. Jur'atsizroq bir yigit qaysi so'qmoqdan ketishini bilmay, turib-turib, axiyri otasining uyiga qaytib kelibdi.

— Ha, bolam, nega qaytib kelding? — deb so'rabdi otasi.

— Qay so'qmoqdan ketishni bilmadim, — debdi yigit.

— O-o, bechora bolaginam-a! Oldingga hayotning ming xil so'qmog'ini qo'ysam-u, undan o'zingga ma'qulini tanlay olmasang, qanaqa odam bo'lding sen?! — deb otasi o'g'lidan yuz o'giribdi.

Ayrim farzandlar qonida o'sha injiq, noqobil yigitning fe'li hali-hanuz saqlanib qolayotganiga o'kinadi kishi...

Ko'cha biyining aytgani: Bolalik paytimizda bir qo'shnimizning yolg'iz o'g'li bo'lardi. Cho'pdek ozg'in, o'taketgan injiq edi. Bir kuni uning onasi onamning yoniga kelib: "Bolangni berib tur-chi, men o'g'limga ovqat yegizib olay", deb iltimos qildi. Onam uning iltimosini yerda qoldirmadi. Borsam, haligi ayol bolasining oldiga bir lagan palov qo'yib: "Yeyqol, o'g'lim, yo'qsa manovi bola yeb qo'yadi", dedi. O'sha zahoti bolakay laganga chang solib, taom tugaguncha apil-tapil yeyaverdi. Ana shundan keyin haligi ayol meni tez-tez onamdan so'rab olib ketadigan bo'ldi. Birov ovqat yeyayotganda tishingning zangini so'rib o'tirishdan ortiqroq azob bo'lmasa kerak. Bir kuni chiday olmay ahvolni onamga aytuvdim, meni boshqa yubormay qo'ydi. Bu bilan qo'shnining bolasiga peshkash qilish uchun bola topilmay qolmadi, albatta. Endi otasi boshqa qo'shnilarning bolalarini so'rab olib keladigan bo'ldi. Bora-bora ovulning narigi burchidan, keyinchalik qo'shni ovullardan bola so'rab olib keladigan bo'lishdi.

O'sha cho'pdek ozg'in bola vaqti kelib semirdi, harsillab-lorsillab, oxiri kunlardan bir kun yurolmaydigan bo'lib qoldi.

Ba'zi shoirlarimizning yostiqdek-yostiqdek kitoblari qo'limga tushib qolsa, o'sha qo'shnimizning xomsemiz bolasini eslayman...

"Pala-partish o'qiyverish ham pala-partish ovqat yeyverishdek gap: oxir-oqibat machal bo'lib qolishing mumkin", derdi adabiyot muallimim.

* * *

Men endi onam aytgan afsonadagi umrning minglab so'qmoqlaridan bittasini tanlay olmagan odamning, Ko'cha biyi aytgan xomsemizning qismatini o'zimda ko'rgandek bo'ldim. Bu tasavvur ruhimni bezovta qilib, yuragimga battar g'ulg'ula soldi. Nima bo'lsa bo'lsin, menga qadar ochilgan keng-ravon ko'chalar qoshidan o'z so'qmog'imni qidirib ko'rishga ahd qildim.

O'qib-o'rganganlarimga ko'ra, Chexov iborasi bilan aytganda, odamdagi ichki go'zallik tashqi go'zallikka mutanosib bo'lsa, o'z so'zining ustidan chiqadigan lafzi halol bo'lsa, u o'ziga ham, atrofdagilarga ham ta'sir o'tkaza oladi, tarbiyalanadi, tarbiyalaydi. Bu borada ham Lev Tolstoy hammamiz uchun ibrat. U favqulodda mehnatsevar inson sifatida avvalo o'z xalqidan o'rgandi, insoniyat tarixidagi eng yetuk siymolar ruhidan oziq oldi. Oxir-oqibat o'z xalqining tarbiyachisiga aylandi. Butkul insoniyatning ustozlaridan biri bo'lib qoldi.

Lev Tolstoydek olamshumul san'atkor bo'lishni kim ham orzu qilmaydi deysiz? U dunyoni shundoqqina kaftida tutib fikr aytuvchi zakiy zot sifatida insoniyatning hayot falsafasini badiiy so'z vositasida ifodalashning betakror namunasini ko'rsatdi. Ko'hna Sharq adabiyotining boy xazinasidan ham bahramand bo'lib, bu falsafani odamzod ma'naviyatidagi umumjahon simfoniyaning muhim bir cholg'usiga aylantirishga hissa qo'shdi.

Nazarimda, bu gaplar ham hali chuqur va atroflicha bilim emas, buyuk san'atkor ijodiga oshufta boqayotgan muxlis tasavvurining ifodasi bo'lsa kerak. Chunki bilimimning hali sayozligi, kech o'qiy-o'rgana boshlaganim o'zimga ayon. Bu kemtikni to'ldirish, kechikkanimning hissasini chiqarish yo'lidagi bor imkoniyatlarimni ishga soldim. Buyuk san'atkorlarning umr yo'-

li-yu asarlariga o'zligimni, o'z bilimimni o'zimga ayon ko'rsatuvchi ko'zgu sifatida takror-takror nazar tashlashni odatga aylantirdim, Umar Xayyom va Fuzuliy, Navoiy va Berdaq asarlari ko'hna tarix kechmishlaridan zamonamizga qadar yetib kelgan nidolar, qirg'inbarot urush suronlari, qilichlar jarangi, odamzodni ezgulikka chorlovchi da'vatkor hayqiriqlar bo'lib quloqlarim ostida aks sado berib turdi.

Balzak va Flober, Dikkens va Turgenev romanlari bu san'atkorlar yashagan davrlardan bizga mangulik xotira bo'lib qolgan tarixiy voqealar tasviri sifatidagina emas, hayotning baayni o'zi, insoniyatning suronli kechmishlarini aks ettiruvchi tiniq ko'zgular sifatida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Lekin har bir odamning keng dunyoga chiqadigan eshigi — o'z uyining eshigi. Bu cheksiz olamga boqib hayratlanish uchun ham, dunyoni teranroq anglab yetish uchun ham avvalo o'z uyingda nima bor-yo'qligini yaxshi bilib, har bir buyumning sifati — fazilati va nuqsonini ilg'ab-anglab olishing shart. Men ona adabiyotimga qayta sho'ng'idim. Shu paytga qadar o'zimni azot ko'tarib yo'rtgan ona adabiyotim endi nazarimda ozg'in-nimjon toychoqqa o'xshab qoldi.

Ko'cha biyi aytgan afsona: Kunlardan bir kuni buyuk Xorazm shohi qoraqalpoqlarning bosh biyi Oydo's boboni Xivaga allaqanday bazmga taklif qilibdi. Ko'pni ko'rgan Oydo's bobo bazmga yolg'iz bormaslik uchun boshqa yurtlarda uzoq yashab, talay bilimlarni o'zlashtirib qaytgan bir odamni o'ziga maslahatgo'y qilib ola boribdi. Bundan ko'zda tutgan maqsadi: mabodo xonning ko'nglida mehr-iltifot uyg'onib, qoraqalpoq yurtiga mustaqil xonlik berish niyati paydo bo'lsa, yurtni boshqarish ishlarida mana shunday bilimdon, oqil yigitlarim menga ko'makdosh bo'ladi, demoqchi ekan. Shunday qilib, xon bazm chog'i Oydo's bobo-yu u ergashtirib kelgan yigit bilan bir lagandan osh yebdi. Bu o'sha zamonlarda xon tarafidan ko'rsatiladigan eng zo'r iltifot ekan. Palov yeyayotganlarida xonning ko'ksini qoplagan qalin qora soqoliga bir dono guruch yopishib qolibdi. Mehmonlar oldida xonning noqulay ahvolda qolganini ko'rgan maslahatgo'yi shunday bayt o'qibdi:

Sadag'ang ketayin Xivaning xoni,
Sizni ko'rsa chiqadi barchaning joni,
Xorazm to'qayida bir piyoda qoldi
Besh otliq yuborib oldiring uni.

Baytni eshitgan xon go'yo barmoqlari bilan soqolini silamoqchi bo'lib guruch donasini kishi bilmas tushirib yuboribdi.

Bu holga qoyil qolgan Oydo's bobo tashqariga yozilish uchun chiqqanlarida ergashtirib kelgan yigitni qoshiga chaqirib:

— Xonning maslahatgo'yi o'qigan haligi baytning ma'nosini tushundingmi? — deb so'rabdi. — Qara, "Xorazm to'qayi" degani xonning soqoli edi. "Bir piyoda"— soqolga yopishib qolgan guruch donasi edi. "Besh otliq" degani — besh barmoq edi. Ko'rdingmi, qanday chiroyli gap qildi!

— Oydo's bobo, hech g'am yemang! Xotirjam bo'lavering, mabodo sizning soqolingizga ham guruch yopishib qolsa, men o'sha maslahatgo'ydan oshirib yuboraman. Shuncha yildan beri bekorga o'qibmanmi? — deb yigit uni ishontiribdi.

Ertasiga ham xon ularni bazmga chaqirib, yana bir lagandan ovqat yebdi. Oydo's bobo maslahatgo'yini sinash maqsadida ataylab soqolida guruch donasini qoldiribdi. Oshalab ovqat yeyayotgan maslahatgo'yning bunga ko'zi tushib:

— Oydo's bobo! Kecha kechqurun yozilayotib aytganingiz keldi. Soqolingizni silab anov guruchni tushirib yuboring, — debdi. Xon xaxolab kulgancha:

— Oydo's bobo, o'qimishli deb maqtab yurgan manovi maslahatgo'yingning saviyasini bilmay turib, xalqingni mening xonligimdan ajratib olmoqchi, mustaqil xonlik tuzmoqchi bo'lganing qiziq! — deb o'rnidan turib ketibdi.

* * *

— Xalqimiz farzandlarining yurt boshqara olishlariga hali ertaroq, shekilli-da, — deyaverardi bobom.

— Chala bilgandan bilmagan ma'qulroq, — derdi onam.

— Odamdagi eng yomon illat — bilimdonlikni pesh qilish, — derdi otam.

— Birov bilan chinakamiga do‘stlashishning birlamchi sharti uning yomonini yashirib, yaxshisini oshirib ko‘rsatish, — deb ko‘p uqtirardi Ko‘cha biyi.

...Yoshligimda o‘zim zavq-shavq bilan o‘qigan ayrim yozuvchilarimizning asarlaridan, ko‘pdan ko‘p afsonalar-u hangomalardan yanada yaxshiroq bahramand bo‘lish, ularga balandroqdan turib chuqurroq nazar tashlash maqsadida takror-takror o‘qish va shu orqali o‘zligimni teranroq anglash mashqiga tushdim. Maqsadim o‘sha-o‘sha: xalq bilan til topishish — shoir bo‘lish!

Qariyalar hangomalaridan: Zolim xon saroyida unga sodiq, bilimdon bir xizmatchi bo‘lgan ekan. U har kuni ishga kechikib kelarkan. Bu yomon odati uchun xon uni jazolamoqchi bo‘libdi. Biroq bunday bilimdon, kerakli xizmatchining har gal ishga kechikish sababini aniqlashni boshqalarga ishonmay, bir kuni ertalab uning uyiga o‘zi boribdi. Qarasa, xizmatchi munkillab qolgan onasiga non chaynab berayotgan ekan. Ana shunda zolim xon o‘z ahdidan qaytib:

— Onasini mana shunday hurmatlay olgan odamda gunoh bo‘lmaydi, — deb uning oldida bosh egibdi.

Yana: Bir onaning yolg‘iz o‘g‘li bor ekan. U kun-u tun yakka-yu yagona arzandasining yo‘lida poy-patak bo‘lib, o‘g‘lining biron marta qovoq uyib mung‘aymasligi uchun o‘lib-tirilar, hech qachon qattiq gapirmas ekan. Nasihat qilganda ham, biron ish buyurganda ham aytadigan so‘zlari “qarog‘im”, “chirog‘im”, “bo‘talog‘im” ekan. Bolam o‘qib, qatoridan oldinda bo‘lsin, aql to‘plasin degan niyatda ayol topgan-tutganini sotib-yig‘ib, o‘g‘lini begona yurtlarga o‘qishga yuboribdi. Bola yetti yil o‘qib kelibdi. Ona tag‘in avvalgidek unga girgitton bo‘lib, topgan-tutganini o‘g‘liga ichirish, yedirish, kiydirishga tushibdi. Biroq yigitga onasining hech bir xatti-harakati yoqmasmish. Onasi oldiga ovqat olib kelsa bas, “Unaqa emas, bunaqa” deb yo‘q joydan janjal chiqaraverarkan. Tikib bergan kiyimlarini yoqtirmay haqoratlayverarkan. Onaizor javob qaytargudek bo‘lsa, unga musht ko‘tarish odati ham chiqibdi.

Arzandasining injiqligiga chiday-chiday, axiyri toqati toq bo‘lgan ona kunlardan bir kuni uni yoniga o‘tqazib nasihat qilmoqchi

bo‘lgan ekan, yigit: “Men sendan emas, sen mendan nasihat tinglashing kerak”, deb onasini urib-urib uydan bosh olib chiqib ketibdi. Ovul yaqinidagi to‘qayga borib, bir tup to‘rang‘ilning ostida yotgan ekan, qayoqdandir yolg‘iz kuchugini ergashtirib kelayotgan itga ko‘zi tushibdi. Zerikkanidan itning harakatlarini kuzata boshlabdi. Qarasa, it bir tup jing‘ilning panasida turib, shoxda qo‘nib o‘tirgan anqov chumchuqni ushlab olibdi-da, patlarini yulib-yulib, kuchugiga beribdi. O‘zi och ona it tumshug‘ini yalab-tamshanib, kuchugining to‘yganidan mamnun bo‘lib quyoshga toblanib yotibdi. Qorni to‘ygan kuchuk sakrab-o‘ynoqlab, och onasini tishlab, yumma talashga tushibdi.

Yigitning kuchukka qahri kelibdi: “Mushtday chumchuqni o‘zi yeyishga ko‘zi qiymay qornini to‘ydirgan onasini nega talaydi zang‘ar!” deya uni urush uchun o‘rnidan turgan ekan, qo‘lida ko‘za ko‘targan o‘z onasini ko‘rib qolibdi. Ona jahl ustida uydan ovqat yemay chiqib ketgan yolg‘iz o‘g‘lim ochqab qolmasin, deb uning ortidan ovqat olib kelayotgan ekan. Ana shunda o‘g‘il o‘zini gunohkor sezib, kechirim so‘rash uchun onasiga qarab yuguribdi. Ona bo‘lsa, bolamning jahli haligacha tarqamay yana urmoqchi bo‘lyapti shekilli, deb o‘ylab ortiga qaray-qaray qochib borayotgan ekan, bexosdan eski bir quduqqa tushib ketibdi-yu til tortmay o‘libdi...

Onani har qanday og‘ir vaziyatda ham onalik mehri tark etmaydi. Ammo farzand ham o‘zining farzandlik burchini unutmasligi lozim.

— Ona xalq deydilar. Har bir xalqning o‘z farzandiga mehr-saxovati cheksiz. Faqat uni his qilmoq, xalq oldidagi farzandlik burchini munosib ravishda ado etmoq kerak.

Bobomning nasihatlaridan: O‘zing haqingda gapirmoqchi bo‘lsang avvalo ota-onangni o‘yla. Agar gaplaring yolg‘on bo‘lib chiqsa, el-yurt avvalo o‘zingga emas, ota-onangga la’nat aytadi. Keyin tinglovchini o‘yla. Balki uning ham senga aytgisi kelayotgan dardlari bordir.

Qolaversa, o‘zingniyam o‘yla. O‘zing haqingda ko‘p gapirish maqtanchoqlikning bir ko‘rinishi. Maqtanish bo‘lsa, ojizlarning o‘z ojizligini yashirish usuli.

Onamning nasihatlaridan: O'zingni ikki narsadan soqit qil: birinchisi o'zbilarmonlik, ikkinchisi yolg'onchilik.

* * *

Ona adabiyotim xususida qanday xayollarga bormay, uni boshqalarga qanday ta'riflamay, bularning bir chekkasi o'zimga ham tegishli, albatta. Chunki men qanday asar yozishimdan qat'i nazar avvalo "qoraqalpoq adabiyoti" deb atalmish bog'ning mevasiman. Bu bog'ning sermahsulligidan faxrlansam yoki hosilining cho'g'i yo'qligidan afsuslansam, har ikki holning boisi xudpisandlik yo nopisandlik emas, xayrixohlik.

— O'zining ojiz tomonini yashirish xom sut emgan bandaga xos odat, — derdi bobom.

— Ojizligingni yashirganing bilan kuchayib ketmaysan, — deya ogohlantirardi otam.

— Kasalini yashirgan bemor o'limini tezlashtiradi, — deb ko'p uqtirardi onam.

...Har qalay, ona adabiyotim endi men uchun bolalik chog'imda quvona-quvona kiygan, ulg'aygach, egnimga tor kelib qolgan eng yaxshi kiyimlarimga o'xshardi.

16

Gazetalar tahririyatlariga tez-tez borib turardim-u, biroq Yozuvchilar uyushmasiga boraverishdan tortinardim. Nazarimda, u dargohda yakkash beg'araz, bilimdon, avliyosifat odamlar bo'ladi. Ular bilan bemalol, yuzma-yuz turib, hayiqmay gaplashish osonmi? Savollariga munosib javob berolmasang, bama'niroq bir gap aytolmasang, uyat-da! Ikki o'rtada mulzam bo'lganing qoladi. Yo'q, men hali yozuvchilar bilan yuzma-yuz turib gaplashishga tayyor emasman. Lekin o'sha bir gal Yozuvchilar uyushmasi raisining qabulxonasida o'tirib, eshik ortidan eshitgan suhbat esimda. "Yozuvchilar uyushmasi nasrni rivojlantirmoqchiga o'xshaydi. Biron nima yozib, men ham o'zimga yarasha "sovg'a" bilan borsam edi", deya orziqaman. Biroq uddalay olmayman. Xullas, "Nima bo'lsa bo'ldi, tavakkal, avvaliga nima haqda yozish ker-

akligini maslahatlashib ko'ray-chi", deb Yozuvchilar uyushmasiga tag'in kirib bordim. Qabulxonaga kirsam, eshik lang ochiq. Ichkarida bir guruh yozuvchilar allakimning kitobini muhokama qilmoqchi bo'lib turishgan ekan. Menga hech kim "kel" demadi ham, "kimni qidirib yuribsan?" deb so'ramadi ham. Ostona hatlab, kirgan yerdagi bo'sh o'rindiqqa omonatgina o'tirdim.

Yozuvchilar uyushmasidagi o'zim ilk bor qatnashgan muhokamadan xotiramda saqlanib qolganlari:

Taqrizchi: Men birinchi taqrizchi bo'lganligim uchun qo'lyozmani batafsilroq tahlil qilmoqchiman. Ochig'ini aytsam, to'plamning birinchi qismidagi nasriy asar menga ma'qul kelmadi. Sababi qalamga olingan rost voqealar yolg'onga, yolg'oni rostga o'xshaydi. Muallif hayotni yaxshi bilmaydi. Kolxozda qanchadan qancha odam ishlashini nazardan qochirib, ular orasida birgina zarbdorni ko'rsatish bilan kifoyalangan. Ustiga ustak, tabiat tasviri noaniq. Oltmishinchi betda qish tasvirlangan. Oltmish uchinchi betda esa, yana qish boshlandi, deyilgan. Bahor qayoqqa ketdi, yoz qani, kuz qayoqda qoldi?

Muallif: Siz sinchiklab o'qimabsiz. Men avvalgi to'rt betda to'rt mavsumni ketma-ket tasvirlab qutulganman.

Taqrizchi: Kechirasiz, men diqqat bilan o'qib chiqqanman. Biroq siz kitobingizda shunday davrni qalamga olgansizki, u paytda o'zingiz hali tug'ilmagan edingiz. O'zingiz ko'rmagan-bilmagan narsani yozib bo'larkanmi? Bu realistik adabiyotga yot!..

Savol: Bu asarda sizga ma'qul jihatlar bormi sira?!

Taqrizchi: Bor. Bu kitob shoir odamning yozgan nasriy asari ekani sezilib turibdi. Muallif voqealarni nasriy yozsayam, qahramonlarini ko'pincha she'riy yo'l bilan gapirtiradi.

Savol: Kitobning ikkinchi bo'limi-chi?

Taqrizchi: Ikkinchi bo'limda hammasi she'rlar. Men bu shoirdan yangilik kutgandim. Afsuski, topolmadim. Eski tartib bilan ikki qatorni bir, to'rt qatorni bir qofiyalashtirgan. Agar 6–8 qatorni baravariga qofiyalashtirganida edi, bugungi kunning talabiga javob bergan bo'lardi. Chunki she'rlar asosan do'stlik mavzuyiga bag'ishlangan. Shunday bo'lganidan keyin, axir do'stlik she'rlarning qofiyasida ham bir qarashdayoq ko'zga ko'rinib

turishi kerak-da! She'rning shaklidaki do'stlik yo'q ekan, mazmunida qayoqdan bo'lsin? Muhabbat mavzuyidagi she'rlar ham shaklan noma'qul. Uch satr qofiyalanadi, to'rtinchisi erkin. Bu mavzudagi she'rlarda ikki satr qofiyalanib, uchinchi satr erkin kelganida hayotiyroq bo'lardi. Mana shunda shakl bilan mazmun birlashardi. Ba'zi o'rinlarda bandning so'nggi ikki satri bir-biri bilan arazlashib qolgan er-xotinlarga o'xshaydi. Endi "Butun dunyo proletarlari, birlashingiz!" degan siyosiy she'rga kelsak, bu she'r juda yaxshi yozilgan. She'rning har bir satri chinakam proletarga o'xshaydi. Ya'ni, qisqa bo'g'inli so'zlar bir-birlariga zanjirday ulanib turibdi.

Muallif: She'rlarimga berilgan bahoga mutlaqo qo'shilmayman. Birovning bog'ini mevasiz deb yomonotliq qilish oson! Xo'sh, taqrizchining o'z bog'ida nima bor? Aytib qo'yay, she'rlarimga hech kim til tekkiza ko'rmasin! Bilsalaring, mening bir she'rim yuz ming nusxada bosiladigan jurnalda e'lon qilingan! Demak, meni yuz ming o'quvchi biladi. Qirq odam ismingni biladimi, anoyimassan, deydi xalqimiz. Ismimni yuz ming jurnalxonning bilishi mening kimligimni ko'zlaringga ko'rsatib turgan bo'lsa kerak?!

O'rtoq taqrizchi, o'qigan to'rtta kitobingiz-u yozayotgan dissertatsiyangizni pesh qilib, bu yerda og'zingizga kelgan gapni valaqlayvermang, durustmi! Ehtiyot bo'ling, siz erta-indin fan nomzodi bo'ladigan odamsiz. Shuning uchun bunaqa havoyi gaplarni qo'yib, mening bir she'rim yuz ming nusxalik markaziy jurnalda bosilib chiqqanidan butun Qoraqalpog'iston xabardor bo'lishi uchun: "Yozuvchilar uyushmasi avtonom respublikadagi hamma idora-yu tashkilotlarga maxsus xat yozsin!" degan bama'niroq bir taklif kiritsangiz durust bo'lardi.

Savol: Men bir narsaga tushunmayapman. Muhokamaga qo'yilgan to'plamning birinchi bo'limidagi asar qissami, poemami, romanmi, nima o'zi?!

Muallif: Ko'rga hassa ushlatgandek "roman" deb yozib qo'yibman-ku!

Taqrizchi: Muallif kamtarlik qilmagan.

Savol: Xo'sh, uning romanligini nima bilan isbotlaysiz?

Muallif: Adabiyotimizda hanuzga qadar roman yaratilmagan. Shunday ekan, birinchi romannavis men bo'lishim kerak.

Yig'ilishga raislik qiluvchi: Maksim Gorkiy "Ona" romanini kamtarlik bilan "qissa" deb ko'rsatgan. Gogol "O'lik jonlar" asarini nasrda yozsa ham "poema" degan.

Savol: Keyingi paytda shoirlarimiz orasida ko'chirmakashlar ham uchrab turibdi. Bugungi muhokamaga qo'yilgan kitob qanday ekan?

Muallif: ...Manovi muhokama qilinayotgan romanimni, mayli, taqrizchining kamtarlik haqidagi fikriga qo'shilib, "qissa" deb atay qolay. Men bu asarimni avvalo yuz ming nusxada chiqadigan jurnalda she'rimni chiqargan tarjimonga yuborgan edim. U o'qib, mana, qanday javob yozibdi. Aynan keltiraman: "Do'stim! Sizning bu qo'lyozmangizni o'qib chiqish men uchun juda og'ir bo'ldi. Nazarimda siz bu narsangizni katta talant bilan yozganga o'xshaysiz. Biroq uni yozishga qadar bironta kitob o'qimaganingiz sezilib turibdi!.." Ana, o'rtoqlar, gap qayoqda! Axir, ko'chirmakashlik qilish uchun avvalo o'sha kitobni o'qib ko'rgan bo'lishim kerakmasmi?!

Yig'ilishga raislik qiluvchi: Endi ikkinchi taqrizchining fikrini eshitaylik.

Ikkinchi taqrizchi: Men o'z fikrimni yozma ravishda bayon qilganman. Shuning uchun gapirishimga zarurat bo'lmasa kerak?

Muallif: Bu odam ortiqcha bosh qotirib o'tirmay, har bir yig'ilishda takrorlab yurgan fikrlarini mening kitobimga nisbatan yozibdi-qo'yibdi, mana dastlabki jumlani o'qib bera qolay: "Qoraqalpoqlar bolasi tilga kirgan kundan boshlab uni odam qatoriga qo'shilgan deb hisoblaydi. Shunga yarasha muomala qiladi. Chunki til-zaboni bor odam so'z bilan istasa suydiradi, istasa kuydiradi. Axir suyaksiz til odamlarni o'zaro yaqinlashtirish, tushunish-tushuntirish quroligina emas, ular o'rtasida nizo uyg'otish, bir-birlariga yovlashtirish vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkinki, buni inkor etish amrimahol..." Mana shu taxlitda davom etaveradi.

Luqma: Davominiyam eshitaylik.

Muallif: Taqriz sizlar uchun emas, men uchun yozilgan.

Ikkinchi taqrizchi: Davomi muallifga foydali maslahatlar.

Muallif: Nimasi foydali? Boshdan oxirigacha meni pichoqsiz so'ygansan-ku, tag'in "foydali"mish! "Asarning tili yomon" degansan, "Muallif dialog tuzishni bilmaydi" degansan... Sen ko'p haddingdan oshaverma, bola! Yaqinda bir yosh yozuvchiga mavzu bera turib, "Tez yoz, yo'qsa boshqalar ilib ketadi" deganingni eshitganman. Bu gap noqobil onaning o'z bolasiga "Tez uxla, yo'qsa hozir militsioner opketib qoladi" deganiga o'xshaydi. Bunaqa adabiyot bilan militsionerni po'pisa quroliga aylantirishga hech kimning haqqi yo'q! Odamzod bu dunyoning ustuni, gultoji! Dunyoning go'zalligi odam bilan! Shu boisdan o'tgan asrda yashagan ustozimiz Ajiniyoz shoir "Bu dunyoning ko'rki odam bolasi" deb yozgan. Afsuski, odamlar orasida bir-birlarini tushunmaydiganlar yo tushunishni istamaydiganlar hali ham ko'pchilik. Ular ayniqsa yozuvchilar orasida ko'p. Bunga til sabab emas, quyosh sabab emas, Yer yuzining qit'alarga bo'linib ketgani ham sabab emas! Xo'sh, undanimasabab? Anashumasala hammamizni jiddiy o'ylantirishi kerak!..

Ikkinchi taqrizchi: Qani endi shu gaplaringizga yaqinroq, ba'niroq fikr asarlaringizda ham bo'lsa ekan!

Muallif: Aqling yetganida topgan bo'larding! Bilsang, aqli raso odamlargina yozuvchi bo'ladi. Uni tushunish uchun tanqidchining ham aqli raso bo'lishi kerak. Oddiy odamlardan aqlliroq bo'lishi kerak.

Yig'ilishga raislik qiluvchi: O'rtoqlar, o'zimizni qo'lga olaylik! Shaxsan men bizning davrimizda yozuvchi oddiy odamlardan aqlliroq, u ulardan ko'proq o'ylaydi, degan gapga qo'shilmayman. Chunki yozuvchi ham o'z zamonasining farzandi. Yozuvchining boshqa odamlardan farqi shundaki, ko'nglidagini ma'lum tartibda, tinglovchilar va o'quvchilarga yoqimli shaklda ifodalay oladi. Afsuski, ba'zi o'rtoqlar bu o'ziga xoslikni aqli rasolik deb takabburlik qiladi-yu, asarini o'zidan aqlliroqlar o'qishini unutib qo'yadi. Men sizning ayrim she'rlaringizni o'qib ko'rdim. Bugungi kunning dolzarb mavzulariga bag'ishlangan. Hozirjavob bo'lish yaxshi. Davr nafasini his qilish ham yaxshi, albatta. Biroq shunga e'tibor beringki, dolzarb mavzularda yozilgani bilan she'rlarin-

giz xuddi chala pishirilib mehmonning oldiga qo'yilgan tansiq taomga o'xshab turibdi. Hajviy she'rlaringiz esa, uquvsiz merganning peshlanmagan o'qni duch kelgan tarafga otishini eslatadi odamga...

Muallif: Tuhmat! Bo'hton! Asli shu adabiyotni chalasavod boshqarganidan g'irt omi boshqargani ma'qulroq ekan — aqalli ko'pchilikning fikri bilan hisoblashib ish ko'rardi. Xuddi shunday, adabiyotning tanqidi bilan, chalakam-chatti bo'lsayam, o'zi asar yoza oladigan odam shug'ullangani ma'qul. Mana, ikkinchi taqrizchini qarang. O'zi hech nima yozolmaydi-yu, mening asarimga ayb taqadi. Bu odam avvalgi majlisda "O'zim aytishni istamagan yo aytolmagan gaplarni mendan talab qilmang" deb, Lev Nikolayevich Tolstoydan ko'chirma keltirgan edi. Xo'sh, bugun uyalmay-netmay nega o'zim aytmagan gaplarni mendan talab qilyapti?

Ikkinchi taqrizchi: Istasangiz, yana bir ko'chirma keltiraman: afinalik faylasuf Diogen allaqanday bazmda tinimsiz arfa chalib o'tirgan bir yigitga ishora qilib: "Qaranglar, yomon chalarkan-u, biroq chalishni bas qilmas ekan. Yaxshiyamki, har qalay, o'g'ri emas. Agar o'g'riligini mana shunday bas qilmaganida edi, juda yomon bo'lardi", degan ekan. Xo'sh, siz?..

Yig'ilish raisi: Endi, o'rtoqlar, bir qarorga kelaylik. Muallif bugungi muhokamadan tegishli xulosa chiqarib, qo'lyozmasini qayta ishlaganidan keyin yana muhokamaga qo'ysinmi yo to'ppa-to'g'ri nashriyotga olib boravergani ma'qulmi?

— Hech qayoqqa olib bormay uyida saqlagani ma'qul!

— Bu qadar noinsof bo'lmaylik! Qayta ishlab muhokamaga olib kelsin!

— Muallifni qiynab nima qildik, to'ppa-to'g'ri nashriyotga olib boraversin-da!..

* * *

...Adabiyotdan tinglagan saboqlarim, o'qigan kitoblarimga ko'ra, nazarimda yozuvchilar o'tmishdan bizning zamonamizga yetib kelgan, o'lim bilmas mo'jizaviy qudrat sohiblari. Bugungi yozuvchilar ham mening tasavvurimda zamonamizdan kelgusi

asrlarga mangulik xotira mash'alini eltuvchi avliyosifat, zakiy zotlar edilar. Shu bois yozuvchilar bilan baqamti kelish, yuzma-yuz turib gaplashish men uchun favqulodda bir hodisa bo'lib qolishiga qat'iy ishonardim. Bugungi muhokama esa mening tasavvurimni ostin-ustin qilib yubordi: uzoqdan chiroyli ko'rinib, seni o'ziga behad maftun-mahliyo etadigan dala esdaliklari bo'ladi (bunday esdaliklar ayniqsa Qoraqalpog'iston dalalarida bisyor). Ular olisdan ko'hna shahar qoldiqlaridek mahobatli ko'rinadi. Yoniga borib qarasangiz, oddiygina tuproq uyumi xolos. Bazo'r qad ko'tarib turgan devorga qo'l tekkizgudek bo'lsangiz, shuvullab tutdek to'kilib ketadi. Qo'lyozmasi muhokama qilingan yozuvchi ham, birinchi taqrizchi ham, o'sha dala esdaliklarining baayni o'zi edi. Birinchi murabbiyim Uzoqbergan Bekniyozovni yana eslab ketdim. "Eh, la'nati urush, sen bizni kimlardan judo qilding?!" deya o'zimcha g'ijindim. Bizning adabiyotimiz hozir rivojlanish jarayonining qay bosqichida turibdi ekan? Rus adabiyotidagi Karamzinning "Bechora Liza"si yozilgan davrni endi boshdan kechirmoqchimizmi?..

— Odam bolalik, balog'at, qarilik davrlarini boshidan kechiradi, — derdi bobom.

— Adabiyotning ham bolalik, balog'at va qarilik davrlari bo'ladi, — deb o'rgatgan edi maktabimizdagi adabiyot muallimi.

— Yo'q, adabiyotning emas, har bir talantning bolalik, balog'at va qarilik davrlari bor, — deya aniqlashtirdi bilim yurtidagi adabiyot muallimi.

Bular badiiy asar yaratuvchi chinakam ijodkorni nazarda tutib aytilgan gaplar. Hayotdagi eng dahshatli hol — balog'at davrini boshdan kechirmay, bolalik davridan "bir hatlab" qarilik davriga o'tish. Holbuki, "badiiy adabiyot balog'at davrida yaratilgan asarlar bilangina tirik", deydi ayrim adabiyotshunoslar.

Mabodo shunday bo'lsa, nega yozma adabiyoti o'n sakkizinchi asrdagina faol rivojlanishga yuz tutgan rus adabiyotida shu asrning o'zidayoq "inqilob" so'zini adabiyot tarixida birinchi bo'lib tilga olgan Radishchev dastlabki inqilobiy adib sifatida ko'z oldingizga keladi-yu, uning ijodkor sifatida bolalik, balog'at va qarilik davrlarini qanday boshidan kechirib ulgurganini o'ylab ham ko'rmay-

miz? "Peterburgdan Moskvaga sayohat" nomli publitsistik asari Radishchevni, qolaversa, u mansub rus adabiyotini birdaniga jahon minbariga olib chiqmaganmidi, axir?!

Yozuvchi adabiyotga qanchalik puxta tayyorgarlik bilan kirib kelmasin, u yangi asar yaratish asnosida avvalo xalqining taqdiri xususida bosh qotiradi, ana shundan keyingina o'z qismatini o'ylaydi. Chinakam ijod jarayonidagi yozuvchi yangi farzand ko'rayotgan onadek og'ir, ayni paytda, totli to'lg'oqlarni boshidan kechiradi. Ona to'lg'oq azobida qiynalib yotganida ham, "Shu farzandim qanday odam bo'lar ekan", deya o'ylaganidek, Gomer va Umar Xayyom, Shekspir va Lev Tolstoy har bir asarini yaratayotganida: "Shu farzandim bilan men insoniyatga nima demoqchiman? Kelgusi nasllarga o'zim yashab turgan davr haqida qanday yangi gap aytmoqchiman?" qabilidagi savollar ustida bosh qotirganlari aniq. Aks holda:

Gomer siymosi, ko'zlari soppa-sog' bir qariya sifatida hozirga qadar saqlanib qolishi ham ehtimol edi-yu, biroq u yaratgan "Iliada" va "Odisseya" dostonlari bir juft ko'z qorachig'idek davrlar osha bizga yetib kelmasdi;

Bir qo'lida hassa, ikkinchi qo'lida may to'la jom ushlagan darvish sifatida ko'z oldimizda gavdalanuvchi Umar Xayyom ruboiylari hayot falsafasining mumtoz badiiy ifodasi sifatida jahondagi barcha tillarda takrorlanmas edi;

Teatrning bechorahol suflyori bo'lmish Shekspir tragediyalari odam bolasining azaliy va abadiy iztiroblari sifatida jahonning sahnalarida namoyish etilarmidi?

Lev Tolstoy tarki dunyo qilgan yakka-yolg'iz qariya, xonanishin avliyo qiyofasida ko'z oldimizda gavdalansa-da, u yaratgan asarlar insoniy munosabatlar dialektikasi sifatida yashab qolmagan bo'lardi.

Xo'sh, Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasida men ilk bor ishtirok etgan muhokamaga qo'yilgan kitob-chi? Unda nima deyilmoqchi?! Muhokamada so'zga chiqqanlar-chi?..

"Hali o'rganishim kerak, o'ylanishim kerak". O'rganishga-ku, baholi qudrat o'rganyapman. Lekin hali-hanuz o'ylab o'yimning tagiga yetolmayman.

Boshqalarning savollari tugul o'zimning savollarimga ham tuzuk-quruq javob topolmasdan turib, pedinstitutni bitirishim bilan "Amudaryo" jurnaliga ishga chaqirildim. Urush munosabati bilan chop etilishi to'xtab qolgan "Qoraqalpog'iston adabiyoti hamda san'atii" (hozirgi "Amudaryo") jurnali o'sha 1955-yilning ikkinchi yarmidan qayta tiklangan edi.

Redaksiya shtatida muharrir, mas'ul kotib, mashinistka, farrosh, korrektor, men — jami olti kishi edik.

Mening zimmamdagi vazifa — redaksiyaga kelgan qo'lyozmalarni o'qib chiqish, yaroqsizlariga javob yozish, dam muharrirning, dam mas'ul kotibning buyrug'iga binoan bosmaxonaga qo'lyozma oborish, korrektorga yordamlashish, paxta terimi paytida kolxozchilarga yordam uchun idoralardan odam so'ralgudek bo'lsa, birinchi bo'lib otlanish. So'nggi vazifani ado etishda mening yonimga goho faqat farroshgina qo'shilishi mumkin edi.

O'zim uchun hali-hanuz qiziq tuyuladigan hol shundan iboratki, muharrir yo mas'ul kotib huzuriga kirishga yuragi dov beravermaydiganlar mening oldimga keladilar, Boshliqlarga arz-istaklarini men orqali ma'lum qiladilar. Ko'pchilik yozuvchilar muharrir yo mas'ul kotib oldidan chiqqach, mening yonimda andak nafas rostlashadi. Tabiiyki, hech kim jimgina o'tiravermaydi. Ba'zilari bosh muharrir yo mas'ul kotibga bo'lgan alamini mendan olib, xumordan chiqadi. Ko'pincha men bilan hasratlashadi, menga maslahat beradi. Ayrimlari esa, mening bor-yo'qligimga parvoyi falak, o'zicha g'udranib o'tiraveradi. Kim nima demasin, bu o'ziga xos arzi hol — monologga o'xshardi. Men ularni diqqat bilan eshitaman. Ayrimlari og'ziga kelgan gapni qaytarmay aytayotgandek tuyuladi. Ayrimlari tuppa-tuzuk, bama'ni gapga o'xshaydi. Menga piching qiladiganlar ham yo'q emas. Ba'zilar xuddi mening ko'nglimdagi gaplarni aytadi. Eshitganga erish tuyuladigan bema'ni gaplar ham bo'lib turadi... "Har qalay, bu gaplarni uyga borgandan keyin tanamga o'ylab ko'ray, balki adabiy jarayonga tezroq singishib ketishimga yordami tegib qolar", degan xayol bilan o'zimcha "Mualliflarning monologlari" degan umumiy nom

ostida maxsus yon daftar tutdim. Qaysi gap kimga tegishliligini faqat o'zimgina farqlashim uchun mualliflar ism-shariflarining bosh harflarini, goho oxirgi, hatto teng o'rtasidagi harfini "Ismi sharif" sifatida yozib boraverdim.

"Mualliflarning monologlari" daftaridan

1955-yil, 3-avgust

B... bunday dedi: Jurnalda ishlash — yozuvchining qitiq patiga tegish. Shuning uchun, sen, Qaipbergenov, mualliflarning qitiq patiga tegishdan avval o'zingning qitiq patingni o'ldirib olganing ma'qul. Bu o'zingga ham, mualliflarga ham foydali bo'ladi.

S... bunday dedi: ...Sharq adabiyotidagi qahramonlarga xos xususiyat shundaki, ular pand-nasihatga moyilroq. G'arb adabiyotidagi qahramonlar esa, o'sha didaktikani keltirib chiqaradigan xatti-harakatlarni bevosita amalga oshiradilar. Shu ikki tomonni o'zida birlashtirgan asar — yaxshi asar bo'ladi...

M... bunday dedi: Kecha mening oldimga Ko'cha biyimiz kelib, "Shoir oshna, bilasanmi, bola tezroq ota bo'lsam deydi, ota qaytatdan bola bo'lib qolsam, deydi. Xuddi shunday, qizlar tezroq ulg'ayishni orzu qiladi, kampirlar qaytatdan qiz bo'lib qolishni orzu qiladi. Chinakam umr shu orzularning oralig'ida. Qo'lingdan kelsa, mana shuni yoz!", dedi. Ochig'i, mening bir marta og'zim kuygan. Boshqalar fikridan foydalanaman deb ko'chirmakash atanishimga bir bahya qolgan. Agar Ko'cha biyi aytgan orzularning oralig'i — chinakam umr ekanligiga ishonsang, shuni sen yoza qolsang-chi. Yaxshi asar chiqsa, seni bunga men undaganimni tan ol, ma'qulmi? Yomon chiqsa, seni birinchi bo'lib o'zim ko'chirmakash deb tanqid qilaman...

1955-yil, 16-avgust

Sh... bunday dedi: Agar biron-bir cholg'uvchi Shalyapin ijrosini aynan takrorlasa, buyuk sozanda bo'ladi. Ammo biron-bir yozuvchi Shekspir yo Lev Tolstoyni aynan takrorlasa, nusxakashlikda ayblanadi. Nega shunday?

A... bunday dedi: Artistlar milliy xususiyatlarni namoyish qilish uchun sahnaga o'tgan asrlarning kiyimini kiyib chiqadi. Bu qanaqasi? O'tmishni qo'msashmi yo modaning zo'ri o'tmishda bo'lgan, deyilmoqchimi?

O'ylab ko'rsang, artistlarimiz sahnaga kiyib chiqadigan kiyimlarni o'sha davrlarning oddiy fuqarosi emas, manaman degan boyvachchalari kiygan. Xo'sh, shunday ekan, nega bunaqa qilamiz? Yo odamlarning aksariyati ularni o'z vaqtida kiyolmagani uchunmi?

To'g'risini tan olish kerak, artistning kiyimi, darhaqiqat, havasni keltiradi, hammaning ko'zini o'ynatadi. Bugungi kiyimlarimiz ham kelgusi asrlarda artistlar egnida ko'zlarni qamashtirib turarmikin? Biz — yozuvchilar shunday savollarga javob berolmayapmiz. Balki yangi jurnalimiz bu muammolarga doir adabiy o'ylarga ham o'rin ajratgani ma'quldir...

1955-yil, 17-avgust

I... bunday dedi: Bir shoirni bilaman. Xotiniga uzzukun kitob o'qishni buyurib qo'yadi-da, o'zi tarallabedod qilib yuraveradi. Odamlar savodsizligimni bilib qolmasin deb, xotini o'qigan kitoblarning nomini, qisqacha mazmunini imi-jimida bilib oladi. Keyin xuddi o'zi o'qiganday boshqalarga gapirib yuradi.

Nima bu, xotin-qizlarni ekspluatatsiya qilishning yangi turimi yo o'sha shoirning xotini kitob o'qish bo'yicha uning yordamchisimi?..

1955-yil, 18-avgust

S... bunday dedi: Bolalik chog'larimda kim qanday o'yin boshlasa qo'shilib o'ynayverardim. Ayrim jo'ralarim esa, o'yindan shuhrat axtarib, o'zini biron o'yinning ustasi deb e'lon qilishga urinardi... Men, albatta, bunday urinishlarning ma'nosini keyinchalik, es-hushimni tanigach, tushundim. Hozirgi yozuvchilarimiz orasida ham o'sha bolalik chog'imizdagi ayrim quvroq jo'ralarimga o'xshab faqat o'ziga shon-shuhrat qidirayotganlar borligini ko'rib turibman... Ularning aksariyati yozuvchilikni o'zlaridan emas, o'zlarini yozuvchilar orasidan axtarish bilangina mashg'ul.

H...bunday dedi: Ovulimizda Aytjon degan bir chol bo'lardi. U o'zining yigirma-o'ttiz yil avval aytgan gaplarini kimdir chippakka chiqarishidan xavfsirab, o'sha almisoqdan qolgan arzon gaplarini himoya qilish uchun jonini jabborga berardi. Shu odati uchun Aytjon cholni o'ta donishmand, bir so'zli odam deb maqtovchilar ham yo'q emasdi.

Hozir ba'zi munaqqidlar-u ularni qo'llab-quvvatlovchilar haqida o'ylasam, ovulimizdagi o'sha Aytjon chol bilan uni maqtovchilar esimga tushadi.

1955-yil, 20-avgust

G... bunday dedi: ...Bizning Sharqda "ustoz", "shogird" degan so'zlar o'zaro izzat-hurmat atamasi ekaniga e'tibor bermaydiganlarga achinaman. Masalan, mening ustozga aylanganimga roppa-rosa ikki yil bo'ldi. Biroq haligacha har yig'ilishda meni "yosh shoir" deb pichoqsiz so'yishadi.

"Qanday qilib ustoz bo'lding?" deb so'ramoqchi bo'layotganingni ko'zlaring aytib turibdi. Shu savolingga javob beray: bilsang, asaringni o'qigan odam shogirding. Ba'zi yoshlar dastlabki she'ri matbuotda e'lon qilingan kundan boshlab o'zini ustoz deb biladi. Men kamtarlik qilib, ilk to'plamim bosilib chiqqandan keyingina o'zimni ustoz hisoblay boshladim.

Sh... bunday dedi: Men umrimda qanday kitob o'qigan bo'lsam, barchasini o'zimga ustoz deb bildim. Bundan hamma kitoblar ham yaxshi, degan ma'no kelib chiqmaydi, albatta. Ayrimlaridan kitobni qanday yozmaslik kerakligini o'rgandim. Yozuvchi sifatida shakllangandan keyin ham hech bir ustozdan yuz o'girmadim. Biroq yozuv stoli oldida o'tirganimda qarshimda ustozlar emas, o'zim bilan uloq talashayotgan chavandozlar turganga o'xshaydi.

1955-yil, 22-avgust

I... bunday dedi: ...Chinakam shoirda ustoz bo'lishi shart emas. Muhimi — uning o'zi ustoz bo'lishi kerak. Men, masalan, hech kimni ustozim demayman. Chunki kitob o'qimayman. Kitob o'qiy desam, tunov kungi majlisda muhokama qilingan ba'zi oqsoqollarimizga o'xshab "ko'chirmakash" atalib qolishdan qo'rqaman. She'r iste'dod bilan yozilishi kerak, yurak qoni bilan yozilishi kerak. Balki mendan: "Hali chiqargan kitobing yo'g'-u, namuncha vahima qilasan?", deb so'rovchilar topilib qolar. Bundaylarga javobim tayin. O'tgan yig'ilishda o'qimishli bir tanqidchi shunday yangilik aytdi: ispan yozuvchisi Lopa De Vega o'z umrida 1800 ta pyesa yozgan ekan. Har uch kunda bir yangi pyesa yozib tashlayverarkan. Shuning uchun o'zining tez yozishidan xijolat

bo‘lib, vaqtida oz yozsa ham olamga mashhur bo‘lgan qadimiy Rim dramaturglari Plavt bilan Terensiyning kitoblarini yashirib qo‘yarkan.

Men esa, aksincha, shu qirq besh yoshimgacha yozganlarimdan uyalmaslik uchun o‘ttiz yetti yoshida o‘lib ketgan Pushkinning o‘n jildligini, yigirma yetti yoshida o‘lib ketgan Lermontovning to‘rt jildligini uy ichidagilarga ham ko‘rsatmayman. Agar shu kitoblarni sotib oladigan shoir bo‘lsa, aytsang-chi, hadeb yashirib yurgancha sotib qutulganim ma’qul. Puliga roman yozish uchun oq qog‘oz hamda siyohi tugab qolmaydigan avtoruchka sotib olardim.

A... bunday dedi: Ham bilimli, ham aqlli bo‘lsang, buning ustiga, kamgap, itoatkor bo‘lsang, nodon boshliqlar seni loaqal o‘zlariga yordamchi qilib olishga majbur bo‘ladi. Shu haqda bir asar yozib obkelaman, muharrirga ayt, keyingi sonidan o‘rin ajratib qo‘ysin. Hajmi qancha bo‘larkin, deb so‘rasa, ayt: “Yozuvchi birovning ko‘rsatmasi bilan o‘z fikrini chegaralab qo‘yolmaydi”.

1955-yil, 23-avgust

G... bunday dedi: Ba’zi birovlar faqat o‘zini o‘ylaydi, boshqalarga zig‘ircha nafi tegmaydi. Nafi tegmasa tegmay ketsin, loaqal ziyoni tegmay, oyog‘ing ostida o‘ralashmay bir chekkada yashaganiga ham shukur.

D... bunday dedi: Shu asarim jurnalda bosilib chiqsa, qitmir tanqidchilarning ko‘zini o‘ynatib restoranda bazmi jamshid qilish niyatim bor. Bu niyatimni muharriringga aytsang, balki ko‘ngli yumshab qolar? Nega menga olayib qaraysan?

Duch kelgan odamdan norozi bo‘lib, hammani tanqid qilaveradigan odamga amal bersang, chirillab yig‘layveradigan injiq bolaning og‘ziga so‘rg‘ich solgandek bir zumda tinchiydi-qoladi. Xo‘sh, seningcha, tanqidchilarimiz orasida mana shunday “injiq bolalar” yo‘qmi?

1955-yil, 24-avgust

K... bunday dedi: Uyimizga ertalabki soat yettida kirganida ham, kechki soat yettida kirganida ham (ishxonadagi sakkiz soatdan tashqari) hamisha yozuv stoli oldida o‘tirganimni ko‘rgan bir qo‘shnim: “Bunday mehnat qilsa, hamma ham yozuvchi bo‘laveradi-da”, dedi.

Ikkinchi qo'shnim: "Agar shu mehnatingni paxta dalasida qilganingda, allaqachon mehnat qahramoni bo'larding", dedi.

Uchinchi qo'shnim: "Sen bu mehnating bilan mashhur quruvchi bo'larding", dedi.

O'ylab ko'rilsa, qo'shnilarimning gapida jon bor. Yo ular menga g'ayirligi kelganidan shunday deyishdimikan? Nachora, tabiatim shunaqa: qanchalik ko'p yozsam, shunchalik yengil tortaman, allanechuk rohatlanaman. Yoza-yoza charchaganimda, qorong'ulikdan yorug'likka qarab yotib o'ylashni xush ko'raman. Buning uchun qulay imkoniyat hamisha bo'lavermaydi albatta. Biroq mening o'z usulim bor: ko'chma chiroqni uyning bir burchiga yoqib qo'yaman-da, o'zim ikkinchi burchida o'tirib olaman. Ba'zan kechalari xonamdagi hamma chiroqlarni yoqib qo'yamanu tashqariga — qorong'ulikka termulaman. Nimani qidirayotganimni o'zim ham bilmayman. Har qalay, xayolim tiniqlashadi, fikrim teranlashib, ko'z oldimda yaxlit bir manzara hosil bo'ladi. Afsuski, ko'chma chirog'im sinib qoldi-da, yo'qsa... Shu she'rim tezroq bosilib chiqsa edi, ko'chma chiroq sotib olardim.

Y... bunday dedi: Rostini aytganda, yosh yozuvchilarimiz haddan tashqari taltayib ketishyapti. Bu kam o'qishning natijasi bo'lsa kerak. Ko'pchiligi bir juft she'r yo hikoya yozib, maqtov eshitdimi, tamom, yo burni ko'tariladi, yo o'zini-o'zi maqtashga tushib ketadi. Ba'zilar o'zini munosib baholashmayotgandek, hech kim tushunib yetmayotgandek, tan olinmagan dahodek tutishadi. Sababini so'rasang, javoblari ham tayin: "Zo'r shoirlar tirikligida tan olinmaydi. Chinakam shoir isyonkor bo'ladi". Bunisi yetmagandek, ko'chada tentirab yurgan mast-alastnimi, maqtanchoq-mahmadona odamnimi ko'rsa bas, "Manavi shoirtabiat ekan", deyishadi. Bu shoirlikni jo'n tushunishmi yo masxaralashmi? Xo'sh, sen nima deysan?

1955-yil, 25-avgust

P... bunday dedi: Umar Xayyomning men yaxshi ko'radigan ikki satrini eshit:

Men o'lganim bilan kamaymas dunyo,
Men kelganim bilan to'ldimi dunyo?

Buyuk san'atkorlarning kamtarligi ham buyuk bo'larkan-da! Umar Xayyom o'zining tug'ilishi bilan dunyo to'lib, o'lishi bilan kamayib qolmasligini bilganligi uchun maqtangisi kelmagan. Holbuki, har bir shoir dunyoni to'ldirish uchun keladi. O'lsa, dunyo huvullab qoladi. Mana, o'zimdan qiyos!..

D... bunday dedi: Yozuvchilar uyushmasidan tuzukroq bir yordam ko'rmadim-ko'rmadim-da! Kelajakda tinchgina o'tirib katta-katta asarlar yaratishim uchun kengroq uy qurib olmoqchi edim. Qurilish materiallari sotib olishga yetgulik pul bo'larmikin deb ikki turkum she'r yozib, Yozuvchilar uyushmasining maslahatchisiga ko'rsatdim. U bo'lsa, qo'lyozmalarimni o'qib, o'zi u yoq-bu yog'ini epaqaga keltirish o'rniga bir chekkadan kamchiliklarini ko'rsatishga tushib ketsa bo'ladimi! Shoirlarning chalaroq she'rlarini silliqlab berolmasa, qanaqa maslahatchi bo'ldi bu! U yerini tuzat, bu yerini tuzat, deb maslahat berishni hamma ham biladi. Mana, men ham bilaman. Biroq qanday tuzatish kerak? Hamma gap shunda-da!

1955-yil, 26-avgust

U... bunday dedi: Yozuvchilar uyushmasi bizlardek she'r ishqibozlarini tarbiyalab shoir qilmasa, bunaqa uyushmaning boridan yo'g'i! Bir kuni de, gazeta redaksiyasiga she'r olib borgan edim. Adabiy xodim qo'lyozmamni o'qib ko'rdi-yu, yuzimga tikilib turib: "Ichasanmi?" deb so'radi. Shoir rostgo'y bo'lishi kerak. Men ochig'ini tan oldim. "Ichib turaman", dedim. U mening qo'lyozmamni qaytarib berayotib: "She'ringdan pivo hidi anqib turibdi", dedi. Jahlim chiqib, to'ppa-to'g'ri Yozuvchilar uyushmasiga bordim, adabiy maslahatchi mening dardimni jimgana eshitib o'tirdi. Keyin bir piyola issiq choy bilan mehmon qildi, hol-ahvol so'rashga tushdi. She'rim haqida lom-mim demadi-yu, lekin shunaqangi xushmuomalalik bilan shirin gaplar aytib, ko'nglimdagi g'uborni tarqatib yubordiki, u yerga nega borganimni paqqos unutib qo'yibman. Ana, kiroyi maslahatchi!

D... bunday dedi: ...Yig'ilish paytida oqsoqol yozuvchilarimiz: "Hozirgi yoshlar bizdan aqlliroq. Chunki ularning o'qib-yozishi uchun istagan narsasi muhayyo. Maslahat beradigan ustoz yozuv-

chilar ko'p", deyishadi. Bu bekor gap! Axir, mana, mendan hech kim maslahat so'ramayapti-ku?..

M... bunday dedi: ...Ba'zi shoirlarning azbaroyi uyiga mehmon chaqirish uchun she'r yozib redaksiyama-redaksiya sarson bo'lib yurganini eshitsam kulgim keladi. Menga o'xshab avval mehmon kut, keyin yur-da!

I... bunday dedi: Qadimgi Rim hukmdori Yuliy Sezar kemadan Afrika qit'asiga qadam qo'yayotib, oyog'i toyib ketibdi-yu, yerga mukkasidan yiqilibdi. Bu, rimliklar aqidasicha, yomon alomat ekan. Biroq Sezar darrov yo'lini topibdi. Yerda cho'zilib yotgancha: "Afrika, mana, sen mening quchog'imdasan!" deb baqiribdi. Mabodo nashriyotimizga borib qolsang: "Mana, nashriyot mening qo'limda!" deb o'z kitoblarini quchoqlab o'tirgan talay "Yuliy Sezar"larni uchratasan.

1955-yil, 27-avgust

O... bunday dedi: Yozuvchi ulg'aygani sari boshqalarni emas, o'zini o'zi takrorlab qo'yishdan xavfsirab qoladi. Shu jihatdan qaraganda, fransuz yozuvchisi Jorj Simenon qo'rqmas yozuvchi. Uning ko'pdan ko'p kitoblarini o'qisang, butun bir qumtepani g'alvirdan o'tkazib, arzimas oltin zarralarini topgandek bo'lasan. Mixail Sholoxovni o'qisang, bir hovuch qum ostidan hayratomuz ulkan yombi topgandek bo'lasan.

Men o'zimga Sholoxovning yo'lini tilab yuribman.

R... bunday dedi: Yozuvchilarimiz orasida bir voqeani har xil janrda yozib chiqadiganlari ham bor. Buni men sigirning dalada o'tlab kelib, qo'rada kavsh qaytarishiga o'xshatgim keladi. Muharriringga ayt, sigirga o'xshab kavsh qaytaradigan yozuvchilarni bosmasin.

1955-yil, 30-avgust

J... bunday dedi: Yozuvchi tanho o'tirib qanchalik ko'p mehnat qilsa, xalq ommasi bilan shunchalik yaqinroqdan turib gaplasha oladi. Biroq kabinetiga biqinib olib: "Yozganlarimni kim o'qiydi?" deb o'ylab ko'rmay yozaverish — grafomanlik.

Menimcha, yozuvchiga ikki xil chidam kerak: biri — fikrning pishiq-puxtaligi, ikkinchisi — bir joyda qadalib o'tirishiga chidam-toqat.

Mayli, chidam-ku, o'z yo'li bilan, lekin muharrirga eslatib qo'yishni unutmaki, shu asarni yozishdan maqsadim — o'g'ilchani tezroq uylantirmoqchi edim-da...

Z...bunday dedi: Bir shoirni bilardim. Kitoblari tez-tez bosilib turardi. Baribir u har yig'ilishda: "Xalqim mening qadrimga yetmayapti. Keyin hali afsuslanib yurasizlar" deb nolinaverardi. U o'lib ketdi-yu, yozgan kitoblari ham biryo'la unutildi... Mening yo'rig'im boshqa. Agar jurnal menga qarshilik qilib, yozganlarimni bosib chiqarmaydigan bo'lsa, tushkunlikka berilib o'lib qolishim mumkin. Muharriring bu fojianing oldini olishi kerak.

1955-yil 31-avgust

M... bunday dedi: ...Biz yozuvchilar yaxshi bilishimiz kerakki, masalan:

"O'lgan odamning soyasi yo'q" deydi ba'zi birovlar. Bu xato. Aks holda nega allaqachon o'lib ketgan shoirlarni tanqid qilamiz?

Atom bombasi qon qaqshatgan Xirosima va Nagasaki shaharlari kimlarning soyasi? Ular tiriklik dushmanlarining soyasi emasmi?

Qadimda gullab-yashnagan shaharlar o'rnidagi uyum-uyum xarobalar-u odam suyaklari kimlarning soyalari?..

"O'lgan odamning nuri bo'lmaydi" deydi boshqa birovlar. Bu ham xato. Aks holda nega allaqachon o'lib ketgan shoirlarning umr yo'llari-yu yozgan kitoblarini ibrat qilib ko'rsatamiz?

Qadim zamonlardan beri toshlarga, oshlangan terilar-u charmlarga yozilgan xatlar, sahifalari sarg'ayib-titilib ketsa-da, har qalay, bizgacha yetib kelgan kitoblar kimlarning nuri?

Insoniyat hali-hanuz ildizini quritolmayotgan dahshatli yovuzliklar o'lib ketgan yovuzlarning bugungi kunda ham sudralib yurgan soyalari. Bugungi ayrim nodon tirik murdalar ana shu soyalardan o'zlariga panoh qidiradilar.

Odam bolasining bir-birini tushunib, o'zaro do'st, o'rtoq, birodar tutinishi — o'zi o'lsa ham ruhi tirik ziyolilardan qolgan nur. Aqli raso tiriklar nurga nur qo'shib yashaydilar.

N... bunday dedi: Har bir odamning ko'nglida nur ham, zulmat ham bor. Bularning qay birini kamaytirib, qay birini ko'paytirish odamning o'ziga bog'liq.

Inson qalbidagi nurning uchta nomi bor: mehnatsevarlik, ezgulik, kamtarlik.

Inson qalbidagi zulmatning ham uchta nomi bor: yalqovlik, hasadgo'ylik, manmanlik.

Yurak qo'rini kuchaytirgan odam, avvalo, o'zini, keyin do'st-birodarlarini, qolaversa, butkul odamzodni baxt sari yetaklaydi.

Yuragini zulmat bosgan odam, avvalo, o'zini, keyin do'st-birodarlarini, qolaversa, butkul odamzodni baxtsizlik sari yetaklaydi.

Insoniyat uchun eng dahshatli zulmat — yuraklarni bosgan zulmat. Mana shundan ehtiyot bo'lmoq lozim.

Adabiyotning vazifasi — insonning ruhiy olamidagi nur bilan zulmat o'rtasida kechayotgan ziddiyatlarni yaqqol ko'rsatib berishdan iborat.

1955-yil, 1-sentabr

Ko'cha biyining aytgani: Yoshligimda uyning ikki tarafiga ikki nihol o'tqazgan edim. Ikkovi baravar ko'kardi. Lekin biri ko'kargan kundanoq ko'zni quvnatib gurkirab o'sa boshladi. Ikkinchisi talay vaqtgacha bir maromda turaverdi. Oradan ikki yilcha o'tib, avvaliga gurkirab o'sayotgan nihol nimagadir asta-sekin so'lib, quriy boshladi. Sust o'sayotgan nihol esa, qulf urib o'sa ketdi. Bir gurkirab, so'liy boshlagan nihol parvarishini kuchaytirdim: o'g'it berib, suv quydim. Nafi bo'lavermadi. Tobora qurib boryapti. Axiyri uni qo'porib tashlash niyatida tagini ochsam, ildizi yapaloq toshga borib tiralgan ekan. Ikkinchi niholning turib-turib, birdaniga qulf urib o'sa boshlashiga nima sabab bo'ldiykin deb uning tagini ham avaylab ochib ko'rdim. Qarasam, ildizi soz tuproqqa yetgan ekan.

U bir tomonini ochganimga qaramay o'sha-o'sha gurkirab o'saverdi. Vaqti kelib ulkan gujumga aylandi. Hozir ana o'sha gujum butun ovulimizning ko'rki bo'lib turibdi. "Gujumli ovul" deyilsa bas, hamma bizning ovulimizni tushunadi.

Yosh qalamkashning zabardast yozuvchi darajasiga o'sib chiqish yo'li o'sha men ekkan ikki tup niholning qismatiga o'xshab ketadi. Kimning iste'dodi cheklangan, bilimi chalakam-chatti bo'lsa, bir marta "yalt" etadi-yu, tez orada ildizi toshga borib tiral-

gan niholdek o'sishdan to'xtab qoladi. Mehnatkash, bilimi teran, chinakam iste'dodli yosh yozuvchi esa, asta-sekin ildizi suvga yetib borgan niholdek qulf urib o'sa-o'sa kunlardan bir kuni kattakon gujumga aylanadi...

1955-yil, 2-sentabr

D... bunday dedi: Qaipbergenov, sen nega yozuvchilikka xomtama bo'lib jurnalda ishlab yuribsan o'zi? Sening ismi sharifing yozuvchi bo'lishga nomunosib. Haddan tashqari uzun. Eshitib ko'r: To'lepbergen Qaipbergenovich Qaipbergenov. Kitobga yozganlaring sig'adimi yo ism-sharifingmi?

Nega ajablanasan? Haliyam kech emas, o'ylab ko'r!

1955-yil, 3-sentabr

Ko'cha biyining aytgani: 5-sentabrdan boshlab bir oyga paxta terimiga ketasiz, deb eshitdim. Shuning uchun avvalgi safar kelganimda aytishni unutgan gaplarimni aytay deb yana keldim. Qoraqalpog'istonda paydo bo'lgan ko'pgina shoirlarning tarjimayi holini o'qisang, yo bolalar uyida tarbiyalangan, yo allakimlarning qo'lida poda boqib yurgan bo'lib chiqadi. Hatto kimsan Maksim Gorkiy ham yetimlikda o'sgan sarkash bola bo'lgan ekan. Xo'sh, sening umringda hayron qolarli nima bor? Bobong bilan momong yaqindagina qazo qildi. Otang savodsiz kolxozchi. Uddaburoligi tufayli urush yillarida traktor haydaganini aytmasang, onang ham shunday. Mayli, Berdaq shoirning ham ota-onasi savodsiz bo'lgan, degan gapga ishona qolaylik. Lekin Berdaqning oti-ovozasi, she'rlari bizning zamonamizga nima sababli yetib kelganini o'ylab ko'rganmisan? U o'zi yashagan davrdagi amaldorga, hokimiyat egalariga qarshi turgan. Ularning kirdikorlarini fosh qiluvchi isyonkor she'rlar yozgan. Eshitishimcha, Pushkin-u Shevchenkolar ham shunday qilishgan ekan. Sen ham shoir bo'lib, oting-ovozang kelgusi asrlarga yetib borishi uchun kolxozimiz rahbarlariga, ularning ayrim ishlariga qarshi she'r yozaman deb o'ylaysanmi? Shunaqa xayoling bo'lsa, tarjimayi holingda tug'ilgan ovulim deb bizning Cho'rtanboyni zinhor ko'rsata ko'rma! Men bunga yo'l qo'ymayman. Yaxshisi, ovulga qaytib bor-da, muallimligingdan qolma. Dongdor shoir bo'laman deb ovulimizning ahilligiga putur yetkazma, ota-onangga isnod keltirma, deyman-da.

Qadimgi qoraqalpoq biylari: "Burgutning uyasidan burgut, yapaloqqushning uyasidan yapaloqqush uchadi", deyishardi. To'g'ri, bizning sovetlar zamonida burgutning uyasidan yapaloqqush, yapaloqqushning uyasidan burgut uchib chiqsa ne ajab? Yo ovulimiz butkul Qoraqalpog'istonga shoir tayyorlab beradigan darajaga yetib qoldimi?

Qariyalar hangomalaridan: Buyuk Xorazm xonlaridan biri qattiq kasalga chalinib, og'ir ahvolda yotganida undan hol so'rashga borgan qoraqalpoq biyiga:

— Yurtingga ayt, menga uzoq umr tilab duo qilsin, — deb buyuribdi. Qoraqalpoq biyi yurtiga qaytgach, odamlarni yig'ib, hammalariga qarzga don-dun, qo'y-echki, pul ulasharkan:

— Xorazm xoni o'lgan kuni olib kelasanlar, — deyaveribdi.

Bu gap xonning qulog'iga yetib kelibdi-yu, o'sha biyni dorga ostiribdi. Berdaq shoir bu nohaqlikka chidayolmay, xonning oldiga borib:

— Buyrug'ingizni ko'ngildagiday bajo keltirgan biyni nega dorga ostirdingiz? — deb so'rabdi.

— Aqling yetmagan ishga aralashma! — debdi xon g'azablanib. So'ng andak yuvosh tortib so'rabdi: — Xo'sh, seningcha, buyrug'imdan foydalanib: "Xon o'lgan kuni qaytib berasanlar" deb odamlarga qarz ulashavergan biyga qanday jazo berishim kerak edi?

— Siz noto'g'ri tushunibsiz, xon hazratlari! O'sha biydan qarz olgan jami odamlar to'lov muddatini uzaytirish umidida: "Ulug' xonimizning umri uzun bo'lsin!" deb har kuni uch mahal haqqingizga duo qilib yurishibdi-ku, axir!" debdi shoir.

Bu gapni eshitgan xon barmog'ini tishlab qolibdi...

"Arzgo'y dono bo'lsa-yu tinglovchi nodon bo'lsa, bundan ortiq xo'rlik bormikin! Iloyo boshliqlar aqlli bo'lsin!", derdi otam.

"Nodon boshliqqa maslahat berishga jazm etish malaqayingni yonib turgan o'tga to'ldirib kiyish bilan baravar", derdi bobom.

"Shoir bo'lish ham olovli kursida o'tirishdek gap ekan-da", derdi mening yozuv stoli oldida uzoq o'tirganimni ko'rgan onam.

Otam aytgan afsona: Qadimda Odilbek degan bir odam yashagan ekan. U yoshi bir joyga borganida insofga kelib, endi qol-

gan umrimni odamlarga savob ishlar qilish bilan o'tkazay, deb ahd qilibdi. Shu maqsadda boshqalarga yaxshilik qilish qanday bo'lishini duch kelgan odamdan so'rayveribdi. Ko'p yurtlarni kezgan darvish unga: "Bir mahallar Qoraqalpoqning Ustyurt nomli sahrosi orqali Sharqdan G'arbga, G'arbdan Sharqqa qatnaydigan karvon yo'li bor edi. Hozir o'sha yo'l yo'q bo'layozdi. Qadimiy quduqlar bekilib qolgan. O'n kunlik yo'lni suvsiz bosib o'tish og'ir. Agar shu sahroning qoq o'rtasida boshpana tiklab, u yoq-bu yoqqa o'tgan yo'lovchilarni suv bilan ta'minlab tursang, savobning koni mana shu!" debdi.

Maslahat Odilbekka ma'qul tushibdi. Ustyurtdagi o'n kunlik cho'lning qoq o'rtasida boshpana tiklab, besh kunlik yo'ldan tuyada suv tashib, yo'lovchilarga suv ulashib o'tiraveribdi. Shu yo'l bilan ko'pdan ko'p duo-yu olqishlar eshitishga muyassar bo'libdi.

Kunlardan bir kuni bir yo'lovchi obdan chanqab kelib, chanqog'ini qondirganidan so'ng, undan chilim so'rabdi. Odilbek o'zi chekmasligini, shuning uchun uyida chilim saqlamasligini aytibdi. Yo'lovchi dabdurustdan g'azablanib, uning yetti pushtigacha bir chekkadan la'natlab ketibdi.

Odilbek yo'lovchining haqoratlaridan alami kelib shuncha toat-ibodati xayf ketganidan hafsalasi pir bo'lsa-da, savobli ishini kanda qilmabdi. O'sha kundan boshlab uyida chilim ham saqlaydigan bo'libdi.

Ko'pchilikka bir ishni yo so'zni manzur qilish oson emas!..

Bobomning nasihatlaridan: Kimdir ezgu ishlarimning qadriga yetmaydi, deb yaxshilikdan o'zini tiygan odam — nomard-baxil. Nomardlik, baxillik — qing'ir niyatli odamning ishi.

Yaxshi niyat bilan savob ishlar qilaver, qadringga yetadiganlar topilmay qolmaydi.

Birovga siringni aytishdan avval yaxshilab o'ylab ol: aytsa bo'ladimi-yo'qmi? Chunki o'ylamay-netmay birovga siringni aytsang, sening siring uning siriga aylanadi-da, u ham sirlashadigan odam qidiradi. O'ttiz ikki tish orasidan chiqqan so'z o'ttiz ikki urug'-aymoqqa tarqaladi, demoqlikning ma'nosi shu.

Birovga siringni aytishga ahd qilsang ham, avvalo uning qosh-qovog'iga qara. Kallasi o'z sirlari bilan tirbandligini sezsang, lom-

mim demaganing ma'qul. Qo'raga qo'tir echki oralasa, qo'tiri boshqa echkilarga ham yuqadi. Avvalo, aytar gaping kimni qo'tir echkiga aylantirishini yaxshilab o'ylab ol.

18

Yana "Mualliflarning monologlari" daftaridan

1955-yil, 6-oktabr

N... bunday dedi: Paxta terimidan yaxshi keldinglarmi? Jurnalda ishlagan bir oylik davringni xayol elagidan o'tkazib, endi qanday shumlikni boshlasam ekan, deb o'ylab olishing uchun paxta asqotib qolgandir-a?..

Kecha bir tanqidchimiz o'z maqolasida hammaning Sholoxov, Xemingueyga o'xshatib yozishini talab qilib chiqibdi. Bizda jahon adabiyotidan xabardor bo'lish u yoqda tursin, bir-birining asarlarini o'qimay turiboq qalam tebratayotgan, yoshlikdagi hayajoni bilan adabiyotga kirib qolib, endi chiqar eshigini topolmay yurganlar ozmunchami?

Qizig'i shundaki, Sholoxov bilan Xemingueyga o'xshatib yozish qanday bo'lishini o'sha tanqidchining o'zi ham tuzukroq tushunmasa kerak, deyman. Chunki badiiy adabiyotda yozuvchilarning biri ikkinchisiga qo'y-qo'zidek ergashib kelaverishi yaxshi emas. O'quvchi ko'pincha qatordagi birinchini — asl nusxani o'qiydi. Qolgani — taqlidchilik. Har bir yozuvchi o'z qiyofasiga ega bo'lishi kerak.

Darvoqe, men ham paxtada bo'ldim. Qoraqalpoq ovullarida sut-qatiq sotish uyat hisoblanardi. Bu gal biz borgan ovulda bu taomilni buzishibdi. Xo'sh, ovulda sut-qatiq sotilsa, xalqning qon-qoniga singib ketgan mehmondo'stlik qayoqda qoldi? Shu muammoni roman qilsammikin-a? Nima maslahat berasan? To'g'risini aytaver. To'g'ri so'z avvaliga achchiqdek tuyulsa ham, bora-bora boldek tatiydi.

1955-yil, 10-oktabr

M... bunday dedi: Bizlar endi-endi qaddimizni tiklab, qardosh xalqlar adabiyotida titig'i chiqib ketgan mavzularda o'zimizcha so'qmoq ochmoqchi bo'lib kalovlanib yuribmiz. Ya'ni, boshqa-

lar allaqachon yozib ulgurgan mavzular biz uchun ochilmagan qo'riqdek tuyuladi. Buning bir xatarli jihati borki, biz boshqa xalqlarning adabiy obidalariga o'xshash asarlar yaratsak, ularni takrorlagan bo'lib chiqamiz. Adabiyot takrorni, boshqalar ochgan ravon yo'lda quruq aravani shaldiratib haydayverishni yoqtirmaydi. Buyuk san'atkorlarning ijodiy yo'llari yangi yo'l ochishda biz uchun namuna bo'lishi kerak xolos. Men taqliddan qo'rqaman. Taqlidchilik o'g'rilik bilan barobar. Darvoqe, o'g'rilik deganimga esimga tushib ketdi. Yaqinda shahar sudyasi bilan gaplashib o'tirgan edim. Birov ruxsatsiz kirib keldi-da, qo'shnisining kichkintoy o'g'li qo'lida uch so'm ushlab turganida avrab olib qo'yganini tan oldi. Uning ortidan yana bir odam hovliqib kirib, qotillik qilganini tan oldi. Shu ikki odam haqida o'ylay-o'ylay, qay biri insofliroq ekanini bilolmay muharrirning oldiga maslahat so'rab kirsam: "Menga tayyor asar kerak", deydi. Xo'sh, shu aytganlarim tayyor asarmasmi? Shu ikki odamning qay birini ijobiy qahramon qilib olsam ekan, deb boshim qotib yuribdi...

Sh... bunday dedi: Har bir yozuvchining o'z uslubi bo'ladi. Uslub deganda asarning shaklini tushunib, "bayon uslubi", "birinchi shaxs tilidan hikoya qilish uslubi" deyish xato. Duradgor yog'ochni qaysi tomonidan yo'nsa eshik oson va chiroyli chiqishini bilganiday, yozuvchi o'zi tanlagan hayotiy materialni o'quvchiga sodda va qiziqarli qilib yetkaza oldimi, mana shu uslub. Uslub bu "polvon kurashda raqibini o'ng qo'li bilan yiqitadimi, yo chap qo'li bilanmi?" degan savolga beriladigan javobga o'xshaydi.

Afsuski, iste'dodli yozuvchilar ham uslub tanlashda goho xatolikka yo'l qo'yadilar.

Adabiyotda ham hayotdagidek: qiyshiq o'tirsang o'tir, lekin to'g'risini ro'y-rost gapir, ana o'shanda ayrim nuqsonlaring ham bilinmay ketadi.

A... bunday dedi: Bir mavzuda har xil asar yozishni oshpazlarning bir xil masalliqdan turlicha taom pishirishiga qiyoslash noto'g'ri. U birov "o'laman" deb nola qilsa, boshqa birovning "kulaman" deb suyunishidek gap.

M... bunday dedi: Boshliqning oldiga kirgandim, u: "Sizningcha, hozirgi yoshlarimiz orasida kim iste'dodliroq?" deb so'rab

qoldi. Men unga: "Bu shaxsiy sirim. Maqtasam o'zim maqtayveraman. Senga aytib maqtatib, o'zim to'tiqushga aylanib qolishni istamayman", dedim. Qalay? To'g'ri aytibmanmi?..

1955-yil, 11-oktabr

T... bunday dedi: Xolis tanqid do'stlikdan nishona. G'arazli tanqid senga pand bermoqchi bo'layotgan dushmanlaring ham borligini ko'rsatuvchi bir vosita. U seni hushyor torttiradi. "Yomonlikning oyog'i ko'p bo'ladi, biri tegmasa biri tegadi", "Burgaga achchiq qilib ko'rpaga o't qo'yma", qabilidagi maqollar hamisha yodingda bo'lsin.

M... bunday dedi: Ba'zi munaqqidlarning yozganini o'qisang, bir kaft tuproq bilan butun bir ko'lni loyqalatmoqchi bo'layotgan tentak esingga tushadi.

Yana bir xil munaqqidlarning ko'plab asarlarga berayotgan yalpi bahosini teranroq mulohaza qilib ko'rsang, o'zining torgina qo'rasiga uyur-uyur yilqi, poda-poda qoramol, qo'y, cho'chqa, tovuqlarni aralash-quralash qamamoqchi bo'layotgan nodon cho'pon xayolingga keladi...

Xullas, bu dunyoda nodonlikning turlari ko'p ekan-da, inim.

1955-yil, 13-oktabr

Z... bunday dedi: Bir joydan ochilgan kon butun bir ovulning nomini jahonga tanitishi, shu ovulga yangi nom bag'ishlashi mumkin. Xuddi shunday, birgina yozuvchi ham o'z adabiyotini dunyoga tanitishi, bu adabiyotning qiyofasini belgilab kelishi mumkin. Goho mana shu oddiy haqiqatga asoslanib butun romanning bir bobi, butun dostonning ayrim parchalari o'sha asarning o'zidan ajratib olinadi-da, osmonga chiqarib qo'yiladi. Bu to'g'ri emas.

Asarni baholash odamni baholashga o'xshaydi. Faqat ko'zlar yo quloqlargina odamni odam qilib ko'rsatmaydi-ku, axir.

T... bunday dedi: Yaqinda shahar tashqarisidagi temir-tersak handag'iga borib mashinamga bir murvat qidirdim. Qarasam, ne-ne kuzovlar, ne-ne kabinalar-u rullar ayqashib yotibdi. O'ylab qoldim: "Manavi rulni bir paytlar kim boshqargan? Anovi kuzovlarda kimlar o'tirib, qanday yaxshi-yomon ishlar qilgan ekan?.." Shu o'ylarimni qog'ozga tushirib jurnalga olib kelmoqchiman. Qalay, shunday o'ylarga ham jurnaldan joy tegarmikin?

Mayli, tashlandiq narsalarni qo'yib turaylik, meni bugungi kunda shu hol qattiq hayron qoldiradiki, ba'zi munaqqidlar yaxshi asarni maqtasa, muallifiga yaxshilik qildim deb xayol qiladi. yomon asarni tanqid qilsa, "muallifni bopladim" deb gerdayib yuradi. Axir, yaxshini — yaxshi, yomonni — yomon deb aytish munaqqidning vazifasi-ku!..

1955-yil, 14-oktabr

A... bunday dedi: Ulug'larning asarlarini o'qisam, buyuk san'atkorlar faqat o'tmishdagina yashagandek.

Odatda har bir buyuk san'atkor o'z davrining mahsuli. Buyuk shaxslarni tarix yaratadi, deymiz. Xo'sh, zamondoshlarimiz orasida ham klassiklar bormi? Yo ularni kelgusi avlodgina farqlay oladimi? Nega bugun farqlash mumkin emas? Yo muharrir, yo sen buning sababini aytib bersangizlar-chi!

Y... bunday dedi: Bir gal men olma bozorida bir dallolning xatti-harakatlarini kuzatib turdim. U o'zi shartlashgan sotuvchining chirik olmalaridan birini qo'liga oldi-da, xaridorlarga tangadekkina sog' joyini ko'rsatib: "Mana, eng yaxshi olma! Maza qilib yesa bo'ladi!" deb qichqira boshladi. Shu payt ikkinchi sotuvchining olmasi atrofida uymalashayotgan xaridorlarni ko'rib qoldi-yu, yugurib borib uning zo'r olmalari orasidan moshdekkina dog'i bor olmani qo'liga oldi.

Xaridorlarga ko'rsatib: "Mana, ko'rdingizlarmi, chirigan-ku! Shu olmani yeb bo'larkanmi?" deb baqiraverdi.

Milliy adabiyotimiz tanqidida ana o'sha dallolning xatti-harakatiga o'xshash hollar ham goho ro'y berib turadi.

Ilonga ovqat bersang, oyog'ingga o'ralaydi. Jurnalga ehtiyot bo'linglar!

1955yil, 15-oktabr

J... bunday dedi: Bir yosh yozuvchiga jurnal orqali oq yo'l tilamoqchi edim, "Kimga yozsam ekan?" deb so'rasam, muharriring lom-mim deyolmadi. Chamasi u menga ro'yxushlik bergisi kelmadi. Nega bunaqa qiladi, a? Axir, Maksim Gorkiy ko'p yoshlarga oq yo'l tilab, kitoblarini chiqartirgan-ku.

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash ekin dalasiga o'g'it to'kish bilan barobar. O'g'itni me'yoridan oshirib to'kaverishning zarari

bor, albatta. Biroq bundan qo'rqib o'g'itsiz qoldirish ham yaxshi emas. Bu borada aqlli yozuvchilar me'yorni saqlagan. Ular xalqimizning: "Uying tor bo'lsa-da, ko'ngling keng bo'lsin", degan dono naqliga hamisha amal qilib yashashgan.

U... bunday dedi: "Katta yesang ye, lekin katta gap qilma", degan bobolarimiz. Menimcha, ba'zan katta gaplar aytilsa ham, zarur maqolalar ham bosilgan. Hozirgi tanqidchiligimiz esa, xuddi o'tmas boltaga o'xshaydi: pachoqlaydi-yu, kesmaydi. Bu hol adabiyotimizning rivojiga to'sqinlik qiladi xolos.

1955-yil, 17-oktabr

O... bunday dedi: Adabiyotda ham ustoz-shogirdlik taomili bo'lishi kerak. Chinakam ustozlik — to'tini parvarishlash emas, o'zingdek yozuvchilarning yetishib chiqishiga qulay imkoniyatlar yaratib berish.

Muharriringga ayt, menga ustozlik qilsin.

S... bunday dedi: Yaqinda qabriston oralab yurganimda bir qabrning o'yilib, ichi o'radek qorayib turganini ko'rib qoldim. Tikilib qarasam, kattakon bir bosh suyagi oqarib yotibdi. "Tirik bo'lganida, qabrini tuzatib olardi-ya", degan fikr xayolimdan o'tdi. Tezda uyga borib yozuv stoliga o'tirdim. Stolga o'tirdim-u: "Bunaqa gaplarni jurnal bosarmikin?" deb ikkilanib qoldim. O'shanga maslahatlashgani keluvdim.

B... bunday dedi: "Konfliktsizlik nazariyasi" degan nazariya bo'lishi kerakmi? Yo'q. Bu haqda bosh qotirish devorsiz uyni qanday jihozlash yo'lida bosh qotirish bilan barobar.

Bir donishmand: "Umr yig'i bilan kulgi birlashgan tugun" degan ekan. Bu gap-ku to'g'ri. Lekin asar yo yig'i, yo kulgi bilan xotima topishi shartmi? Menimcha, shart emas.

Hayotiy asar o'zining hayotiy, tabiiy xotimasini topaveradi. Zamonamizda hamma narsa ezgulik tomon borayotgani aniq. Lekin shunda ham konfliktsizlik bo'lishi mumkin emas. Odamzod o'zining ertasini bugunidan, bugunini kechagi kunidan go'zalroq ko'rgisi keladi. Shu xohishning o'zidayoq qanchadan qancha qarama-qarshilik, kurash, ruhiy behalovatliklar mujassamlashgan. Faqat ularni ko'ra bilmoq kerak. Avvalo hayotning murakkabligini, davrga xos ziddiyatlarni teran anglab yetmoq lozim.

Sh... bunday dedi: "Kofnliktsizlik" degan so'zning o'zi konflikt. Biroq meni hayratga solayotgan narsa adabiyotdagi konflikt emas, yozuvchilar o'rtasidagi konflikt masalasi. Ayrim yozuvchilar o'taketgan takabbur!..

— Qaysi yozuvchilar?

— Iste'dodsiz, savodsiz, adabiyotga adashib kirib qolganlari.

— Tag'in ularning oshig'i olchiligiga nima deysiz?

— Bu "Yaxshini maqtasang tog' oshadi, yomonni maqtasang yoqangdan oladi" degan dono naqlga beparvo qarashning oqibatimi deyman-da!

1955-yil 18-oktabr

N... bunday dedi: Men ota-bobolarimizning: "Yaxshi yo'ldosh yaxshilar bilan tanishtiradi, yomon yo'ldosh yomonlar bilan", "Chillaki chillakini ko'rib chumak uradi" degan hikmatli gaplariga amal qilib yashadim.

She'rlarim matbuotda e'lon qilina boshlagach, yozuvchilar bilan yaqinroqdan tanishay deb ular bilan ulfat tutindim. O'tirishlarda hammalari boshqalarni qoyil qoldiradigan yangi gap aytish uchun zo'r berib urinadi de. Bunday gaplar ko'proq Moskvaga borib kelganlardan chiqadi. Nima gap ekan deb so'ramaysanmi? Boshidan oxir Moskvaning ajoyib restoranlari haqidagi gaplar!

Qrim bilan Kavkazga borib kelganlarning gaplarini ham ko'p eshitdim. Tog' cho'qqisida turib qanday ichgani-yu qanday yiqilib-surinmasdan pastga tushib olganini aytib maqtanadi. Men har gal og'zimdan suv kelib, tamshanib o'tiraverardim. Shuning uchun Moskvaga dastlab borganimda avvalo restoranlarni birma-bir kezib chiqdim. Go'yo qancha ko'p restoranni ko'rib ulgursam, o'zimga qadar kelgan yozuvchilarni o'shancha qoyil qoldiradigandek edim... hovva, mana shunaqa qilib desang, inim, buyog'ini o'zing ko'rib turibsan...

U... bunday dedi: ...Insof bo'lmasa qiyin ekan!.. Anovi kungi majlisda (otini aytib o'tirmay, o'zingdan qolar gap yo'q, g'iybatga o'xshab qoladi) yozuvchilar uyushmasining a'zosi bo'lgan bir nodonning avvalo ko'chirmakashligi, keyin "Sen iste'dodlisan, shuning uchun boshqalar seni ko'rolmaydi!" deb o'ziga o'zi xat yozgani fosh bo'lib, muhokama qilinganidan beri yozuvchi bo'lish

orzuyimdan voz kechdim. Bunaqangi yozuvchi bo'lgandan!.. Muharriringga aytib, bosmaxonaga tushib ketgan she'rimning bahridan o'tishimga yordam bersang-chi?..

D... bunday dedi: Kechagi yig'ilishda ko'chirmakashligi fosh qilingan shoir o'zini o'zi o'ldirmoqchi bo'lgan ekan, birdaniga ahdidan qaytib qolibdi. Xotini "Ha, nima gap?" deb so'ragan ekan, u "Xalqimizning urf-odatlariga ko'ra, o'z joniga o'zi qasd qilgan odamning jasadi og'ziga tezak tiqib ko'miladi. Bunday o'likning janozasiga hattoki qo'ni-qo'shnilar ham qatnashmaydi. Nachora, urf-odatlarimiz o'zgargunicha yashab turishimga to'g'ri keladi!" deb vaj ko'rsatibdi. Xotini bo'lsa, "O'g'ri!" degan tavqi la'nat bilan endi qanday yashaysan? Bu kuningdan o'lganing yaxshiroq emasmi?" desa ham... Ana senga tomosha, dardi bedavo!

1955-yil 19-oktabr

T... bunday dedi: Yozuvchi shunday favqulodda iste'dod sohibiki, u yangi asar yaratar ekan, ssenariyachi, rejisser, rassom, aktyor, operator, hattoki svetoforning vazifasini ham bitta o'zi bajara oladi. Shunga qaramasdan hozirgi adabiyotga nisbatan kinoda reklama ishi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Endi sizlar jurnalning adadini oshirishga astoydil harakat qilishlaringiz kerak. O'zing shu fikrimni bosh muharriringga ayt. Mening uyimdagi jomadonimda talay qo'lyozmalarim taxlanib yotganini ham eslatib qo'y. Agar ularni bosib chiqarsa, jurnal yana bitta jurnalxonga ko'payishi aniq. Ayrim o'quvchilarni o'zim aytib obuna bo'ldirtiraman.

Yodingda bo'lsin, xalqimiz "Hurmat qilsang hurmat ko'rasan" degan. Mendan hurmat umidvor bo'lsang, shunga yarasha ish qilda endi!

1955-yil 20-oktabr

T... bunday dedi: Shahar tashqarisidagi qabristonni oralab yurib, bir holga qattiq ajablandim: aksariyat qabrtoshlarga o'lgan odamning ismi sharifi, tug'ilgan va qazo qilgan yillaridan tashqari, uning qay urug'ga mansubligi ham yozib qo'yilibdi. Eshityapsanmi, qay urug'ga mansubligi!

Bu qanaqasi? Yo o'liklar ham yotgan yerida, ba'zi nodon tiriklarga o'xshab, o'zaro urug' talasharmikin? Sening muharriring qayerlik? O'zing qayerdansan, urug'ing nima??? Gumrohlar!!!

1955-yil, 21-oktabr

N... bunday dedi: Yaqinda juda antiqa voqea ro'y berdi. Bir pixini yorgan o'g'ri do'kon yopilar paytda ichkarida, sotuvchilarning ko'zini shamg'alat qilib, yashirinib qolibdi-da, tunda o'ziga keragini olib, oynani sindirib chiqib ketibdi? Sarguzasht qissa yozish niyatida tergovchidan hujjatlarni olib, tanishib chiqqan edim. Qarasam, o'sha muttaham mening yaqin qarindoshim bo'lib chiqdi. Shu qadar alam qildiki, endi uni o'zim o'ldirib qutulmoqchiman. Muharrirga ayt, kimgadir men haqimda qissa yozishni topshiraversin!

T... bunday dedi: Bizda ilgari bo'lmagan elegiya, sonet janrlarining namunalarini oldiga qo'yib she'r yozganlar ham novatorlikdan umidvor bo'lib yurishibdi. Xo'sh, boshqa ovullarda shiferli tomlarni ko'rib, o'z ovuliga kelgach, uyini shiferlagan odam novatormi? Yo'q! Bunday odam o'z ovuliga yangi narsa olib kelgani uchun tegishli bahosini oladi. Tamom!

Z... bunday dedi: Sonet deb atash uchun she'r o'n to'rt satrdan iborat bo'lishi kerak, degan qoida — "Manovi falon litrlik idish", degandek bir gap. Sening o'sha idishga quyganing yog'mi, suvmi, simobmi — asosiy gap mana shunda!.. Nafaqat sonet, har qanday she'rda ham muhimi — shu!

S... bunday dedi: Men chinakam novator bo'lmoqchiman. O'qigan bo'lsang, bobomiz Berdaq shoirning "Shajara"sida "...shundan beri g'ulpoq bo'lgan ekan", degan gap bor. Demak, xalqinizning nomi "qoraqalpoq" emas, aslida "g'ulpoq" ya'ni, tulum! Tulumning nimaligini bilarsan? Qo'y terisidan tikilgan guppida! Endi shoshilish kerak! Hamma hujjatlarni o'zgartirib, "Millati" degan joyga "g'ulpoq" deb yozdirishimiz kerak. Mana, ko'rasan, shu ishning to'g'riligini isbotlayman. Meniki novatorlik! Qoraqalpoq deganiyam nom bo'libdi-yu! G'ulpoq yaxshi, g'ulpoq!..

1955-yil, 22-oktabr

N... bunday dedi: Yaxshining yaxshiligi har yerda oldingdan chiqadi. Yomonning yomonligi tor yerda halqumingdan oladi...

Yaqinda kitobimga qo'yilgan epigraf tanqid qilindi. O'shandan keyingi uchrashuvda o'quvchilarimdan biri: "Epigrafingizni tanqid qilgan munaqqidga qanday qaraysiz?" deb so'rab qoldi.

Qanday qarashim mumkin? Kunlardan bir kuni "Qirq qiz" restoranida ovqatlanib o'tirib, shunday bir voqeaning guvohi bo'lganman: bir xomsemizroq odam o'zini ofitsiantkaga "jurnalistman" deb tanishtirib, ovqat ichidagi lavr yaprog'ini sanchqiga ilib ko'z-ko'zladi-da, bosh oshpazni chaqirtirdi.

— Bu qanday madaniyatsizlik?! — deb dag'dag'a qildi u, bosh oshpazga yaproqni ko'rsatib. — Ovqatga yaproq tushganini ko'rmaydigan darajada so'qirmisan? Shu kaltafahmligingni gazetaga yozib, sharmandangni chiqaraymi?

Bosh oshpaz restoranda shovqin chiqarmaslik uchun jurnalistning qulog'iga ohista shivirladi:

— Bu lavr yaprog'i-ku! Adashib tushgan emas, ataylab solganmiz. Ovqatni xushta'm qiladi. O'zini yemaysiz. Xohlamasangiz olib tashlab, ovqatni ichaverasiz.

— Yolg'on! Kimni laqillatmoqchisan? — o'shqirdi jurnalist bo'sh kelmay.

Janjalga qo'shni stoldagilar aralashgach, bosh oshpaz bamaylixotir ortiga qaytdi.

Asarim tanqid qilinganda o'sha jurnalist esimga tushdi.

Muharriringdan so'rab ko'r-chi, shu gaplarimni jurnalda bosib chiqararmikin? Lekin bir ishkalni boshlaydi, deb qo'rqmasin. Maqolamni "Epigraf — paltoning yoqasiga qadalgan taqinchoq" deb nomlay qolaman.

1955-yil, 24-oktabr

J... bunday dedi: Yaqinda ovullarni aylanib yurib: "Haq gap aytganni xalq suyar", degan maqol eshitdim.

O'ylab ko'rsam, shu vaqtga qadar xalqning kimni yaxshi ko'rishini bilmay, she'r yozib yuravergan ekanman.

Rostini aytsam, shoir bo'lish osonmasga o'xshab qoldi. Endi adabiy tarjima bilan shug'ullanish kerak. Ammo... Bir kuni de, bir qozoq shoirining she'rini tarjima qilib, ism-sharifimni ostiga emas, adashib ustiga yozib yuboribman. Matbuotchilar ham ovsarroq, yo'qsa, o'shandayoq bilib, xatoyimni tuzatishsa bo'lardi-ku! Nachora, tuzatishmabdi. Men ham indamay qo'ya qoldim. Chunki otam aytib bergan shunday bir voqea esimda edi: kolxozlashtirish yillari sigirsizlarga sigir berish boshlangan paytda otam qo'shni

ovuldagi allakimning bo'g'oz sigirini o'g'irlab kelib qo'rasiga bog'lab qo'yibdi. Kolxoz boshlig'i uning qo'rasida sigiri borligini ko'rib: "Iye, bunga sigir kerak emas ekan-ku", deb o'tib ketibdi. O'shanda boshliq: "Sigirni qayoqdan olding?", deb so'ramagani uchun otam o'zicha: "O'g'irligim boshliqqa ham ma'qul tushdi shekilli", degan xayolga boribdi. O'sha sigir ikki marta bolalagandan keyin, endi uyat bo'lar, deb egasiga oborib bergan ekan, egasi quvona-quvona:"Qara-ya, sigirning topilishidan umidimni allaqachon uzib qo'ygan edim. Halolliging uchun rahmat", debdi. Ikki o'rtada sigirlik bo'lib qolganidan otam ham xursand bo'libdi.

Shunga o'xshab men ham qozoq shoirning she'ri tufayli "Shoir" degan nom oldim. O'sha she'rim vaqti kelib rus tiliga tarjima qilindi. She'r so'ngida "Qoraqalpoq tilidan tarjima qilingan", deb ko'rsatildi. Xo'sh, bu milliy adabiyotimizning sharafi uchun yomonmi? Attang, kaltafahmroq bir munaqqid meni "o'g'ri!" deb tanqid qilib chiqdi-yu, ishning beliga tepdi. Mayli, tanqidchi deganlari tanqid qiladi-da. Lekin o'sha she'rni o'z sahifalarida mening nomim bilan bosib chiqargan jurnal aqalli o'z sha'nini o'ylamay, munaqqidga qo'shilib shovqin-suron ko'targaniga, o'sha munaqqidning milliy adabiyotimiz shuhratiga putur yetkazadigan maqolasini e'lon qilganiga nima deysiz endi? Unga raddiya yozib, muharriringga berib chiqdim. Sen ham ko'z-quloq bo'lib, unutsa eslatib tur! Meni himoyangga ol!

Lekin ogoh bo'l, bola, o'zing o'tirgan shoxni kesib yurma tag'in!

1955-yil, 25-oktabr

A... bunday dedi: Yaqinda bir she'riy to'plamga taqriz yozgan munaqqid; "Bu shoir nega Shekspir yo Pushkin darajasida yozmaydi? O'zining milliy qobig'ida o'ralashib qolgan", deb menga ayb taqamoqchi bo'libdi. O'zing ayt-chi, menga ular darajasida yozish uchun bosh qotirishning nima keragi bor! Axir, Shekspir bilan Pushkinga Yer yuzining turli burchaklarida haykal qo'yilgan. Menga esa, o'z ovulimda kichkinagina byust o'rnatilsa, shuning o'zi kifoya. Odam deganda qanoat bo'lishi kerak. "Kamtarga — kamol", deydi xalqimiz. Shuning uchun muharriringga ayt, maqolamni zudlik bilan bosib chiqarsin! Mendan va yana boshqa

qoraqalpoq shoirlaridan Shekspir, Pushkin darajasida yozishni talab qilish mutlaqo noto‘g‘ri!..

A...ga Sodiq shoirning javobi: Qadimgi zamonlarda ko‘p bolali bir otaning kenja o‘g‘li vaqtidan avval chalaroq tug‘ilgan ekan. Bunday chaqaloqni tug‘ilishi lozim bo‘lgan vaqtgacha qalpoqqa solib, o‘tovning keragasiga osib qo‘yish rasm bo‘lgan. Ota-onasi darrov bir qora qalpoq topib, chala tug‘ilgan bolani unga solishibdi-da, keragaga osib qo‘yishibdi. Oradan ko‘p o‘tmay kutilmaganda yurtga yov bostirib kelib, elni talon-taroj etib, makonidan badarg‘a qilibdi. Chala tug‘ilgan bola qalpoqda keragaga osilgan ko‘yi unutilib qolaveribdi. O‘sha qalpoqning ichida o‘sib-ulg‘ayibdi. Esini tanigach, yolg‘izlikdan zerikib, tug‘ishganlarini axtarishga tushibdi. Inim, men senga aytsam, hozirgi chalamulla yozuvchilarni chala tug‘ilib, qalpoqda ulg‘aygan o‘sha odamning avlodi, degim keladi. Yana: “O‘ylamay so‘ylagan og‘rimay o‘ladi”, degim keladi. “Boltani ehtiyot bo‘lib urmasang, oyog‘ingga tegadi. Har bir so‘z — bolta, uning sopini durustroq ushla”, degim keladi!..

1955-yil, 26-oktabr

N... bunday dedi: Yozuvchi bilan munaqqid bir maqsaddagi odamlar. Agar yozuvchi hayotni badiiy so‘z vositasida tasvirlab ko‘rsatuvchi rassom desak, munaqqid ko‘rgazmalar zalining mas’ul xodimi. Ana shu mas’ul xodimga, uning ko‘rgazmadagi suratlarni qanday tushuntirishiga ko‘p narsa bog‘liq.

G... bunday dedi: Munaqqidning o‘zini-o‘zi sharmanda qilib, burdini ketkazib qo‘yadigan narsa hali asarni qo‘lga olmasdan turib qat’iy bir fikrga egaligi. Kechagi gazetada mening kitobimni tanqid qilib chiqqan munaqqid ham shunday. Qolaversa: “Shu kitobdan kamchilik topmasam, ko‘proq maqtab yuborsam, o‘zim bilimsiz ko‘rinib qolmasmikinman”, deb qo‘rqqan. Bunday qo‘rqoqlarni fosh qiladigan maqola uyushtirish kerak. Muharrirga aytib o‘tirmay, o‘zing kimgadir buyurtma beraver. Yo sening nomingdan o‘zim buyurtma bera qolaymikan?..

1955-yil, 27-oktabr

Sh... bunday dedi: Men munaqqidlar orasida g‘arazli niyat bilan qalam ushlaydiganlari bor, degan fikrlarga qo‘shilmayman.

Goho o'zim aytgan fikrning to'g'riligiga o'zim ishonmay qolaman. Yozuvchi ba'zan to'g'ri o'ylab turgan bo'lsa-da, o'zi bilmagan holda to'g'ri fikrini xato ifodalab qo'yishi ham ehtimoldan xoli emas.

Bu yog'ini so'rasang, kundan kunga salomatligimdan putur ketyapti. Mabodo vasiyat aytolmay o'lib qolsam, dafn komissiyasiga ayt: meni shahardagi arboblar qo'yiladigan qabristonga ko'mishmasin. To'g'risi, ular bilan yotishga hushim yo'qroq. Chunki ular qabr tepasiga qimmatbaho yodgorlik o'rnatish uchun zimdan harom pul yig'ib yurishibdi. Menda esa, unaqa pul yo'q. Qimmatbaho yodgorlik o'rnatishga yetarli pul qoldirolmaganim uchun narigi dunyoda ham bezovta bo'lib yurmay tag'in. Ustiga ustak, kelgusi avlodlar ularning qing'ir yo'llar bilan qabr tepasiga qo'ydirishga muvaffaq bo'lgan haykallariga qarab: "Manavilar zap buyuk odamlar bo'lishgan ekanmi?" deya oldilarida bosh egishlarini ko'rgudek bo'lsam, chidayolmay, o'zimning o'likligimni ham unutib qo'yaman-da, bu haykallarni buzib tashlash maqsadida go'rimda tikka turib, kelgusi nasllarni dahshatga solishdan qo'rqaman.

1955-yil, 28-oktabr

S... bunday dedi: Rostini tan oladigan bo'lsak, bizning xalqimiz o'tmishning to's-to'polon suronlarida ko'p bora makondan makonga quvilaverishi natijasida ruhan xastalanib qolgandek. Buning dalili sifatida inqilob yillarida yashagan shoirlarimizning umr yo'llarini ko'z oldimizga keltirish kerak.

Qoraqalpoq sovet adabiyotining asoschilaridan biri hisoblanuvchi Ayapbergan Musayev 1917-yilda o'ttiz sakkiz yoshda, Qoraqalpog'iston xalq shoiri unvoniga ilk bor sazovor bo'lganlardan Abboz Dobilov yigirma, Sodiq Nurimbetov esa o'n sakkiz yoshda edi.

Mayli, o'sha yillar ona tilida matbuot yo'q edi, deylik. Agar ular davrni tushunib she'rlar yaratganlarida edi, og'zaki adabiyotga o'rgangan xalq bu she'rlarni yod aytib yurgan bo'lmasmidi?..

Men yaqinda keksa ziyolilardan biri bilan gaplashib qoldim. U: "Qoraqalpog'istonda 1939-yilda ilk bor kino ko'rdim. O'sha kinoda bir qahramon pulemyotning og'zini zalga qaratgan edi,

hamma qo'rqqanidan o'rindiqlar ostiga yashirinib yotib oldi", deb kuldi.

Hozir bu, darhaqiqat, kulgili tuyuladi. Lekin biz kimlarning ustidan kulyapmiz o'zi? O'ylash kerak! O'tmishni baholashda kallani tuzukroq ishlatish kerak!

1955-yil, 29-oktabr

G... bunday dedi: Bizda keyingi yillarda avvaldan shakllangan qat'iy tasavvurlarni imkon qadar orqaroqqa surib, ba'zi hodisalarga tarixning to'rrog'idan o'rin qidirish hollari uchrab qolmoqda. Bu ochiqdan ochiq sun'iylikni keltirib chiqaradi. Bunday qilish uyat, juda uyat!

Abboz shoir aytgan afsona: Begona yurtlardan charchab-horib qaytayotgan bir darvish bir kecha qo'noq bo'lish uchun yo'l yoqasidagi ovulda to'xtashga ahd qilibdi. Chekkaroq bir xonadonga yaqinlagan paytida, uy egasining o'zi qo'lida tayoq o'ynatib chiqib qolibdi. Darvish hang-u mang bo'lib serrayganча turgan ekan, haligi odam darvishga qaramay, qo'shnilarining darvozalarini shahd bilan qoqib: "Yur-ho-yur!", deya baqirib-chaqirib, izidan odamlarni ergashtiribdi-da, qo'shni ovul bilan o'z ovullari oralig'idagi kichik bir ariqning bo'yiga chiqibdi. Allakimlarning ismlarini aytib so'kinishga tushibdi. So'kish eshitgan narigi ovul odamlari ham xezlanib chiqib kelishibdi. Ariq yoqasida ikki ovul odamlari ur kaltag-u yoqalashishni boshlab yuborishibdi.

Yoqalashish tugagach, darvish tunab o'tishni mo'ljallagan uy egasi ortiga qaytib kelib: "Yuring, mehmon!", deb uni ichkariga boshlab kiribdi.

Darvish andak nafas rostlagach, uy egasidan hozirgina ko'z oldida bo'lib o'tgan yoqalashish sababini so'rabdi.

— Ariqning naryog'i boshqa urug' edi, — debdi uy egasi.

— Yurtingizda urug'lar o'rtasidagi janjalga chek qo'yadigan umumiy boshliq yo'qmi? — deb so'rabdi darvish.

— O'sha boshliq ham biror urug'dan chiqadi-da, — debdi uy egasi.

— Chiqsa nima qilibdi? — deb ajablanibdi mehmon.

— Biz unga ishonib ortidan ergashdik deguncha u, baxtga qarshi, o'z urug'iga og'a boshlaydi. Qarabsizki, janjal kelib to'xtagan joyidan davom etaveradi.

— Demak, bu ovul falonchining ovuli, bu ovulda falonchi degan aqlli odam bor, deb aytish mushkul ekan-da! — debdi darvishning hafsalasi pir bo'lib. — Yo narigi ovuldagilar begonami?

— Nega endi? — ajablanibdi uy egasi. — Ikkalasi qoraqalpoq ovullari. Oz sonli bo'lsak ham, ovullar o'zaro janjallashsa ham, har qalay, bir ota-onaning farzandlarimiz.

— Nima uchun hanuzgacha boshqa yurtlarga noma'lum qolayotganliklaringizning asl sababini endi tushundim, — debdi darvish. — Hamma balo urug'chilikda ekan!

Ba'zi munaqqidlarimizning ona adabiyotimizga munosabati xuddi o'sha darvishning xulosasidek, u guvoh bo'lgan mojaroni beixtiyor yodga tushiradi.

"Mualliflarning monologlari" yuzasidan qavs ichiga yozgan fikrlarim:

Jurnalga keladigan mualliflar ko'pchilik emas. Shu bois "monolog"lar siyqasi chiqqan plastinkadek takrorlana boshladi. Ularni hadeb yozaverish bir xonada to'rdan poygakka, poygakdan to'rga bo'zchining mokisidek borib kelaverishdek bo'lur edi. Holbuki, yurish kerak, olg'a yurish kerak!

Har qalay, "Mualliflarning monologlari"ni daftarga tushirib borganim men uchun o'ziga xos saboq bo'ldi. Saboqning ham ikki turi bor: yoqimlisi, yoqimsizi. Biroq ikkalasidan ham o'rgansa bo'ladi. Keltirilgan "monologlar" orasida ikkalasidan ham topiladi.

"Yo'l qo'yilgan xato uchun kechirim so'rash donolik, biroq kechirim so'rash o'z sha'nini yerga urish darajasiga tushib ketmagani ma'qul", derdi bobom.

Goho tuzukkina, goho chalakam-chatti tushunchalar asosida aytilgan fikrlarni aynan yozganim uchun "monologlar"ning mualliflaridan kelajakda ham kechirim so'ramoqchimasman. O'z paytida xomroq fikrlar bildirgani uchun ularning ham mendan kechirim so'rashlari shart emas. Yuqoridagi monologlar adabiyotimiz saviyasini ko'rsatuvchi misollardir...

Odamzod bino bo'lganidan beri hammani bir qolipga tushirish yo'lida qanchadan qancha tajribalar o'tkazilmadi deysiz? Ulardan hozir har kim har xil foydalanib yuribdi. Kimdir to'g'ri tushunib foydalanadi. Kimdir ayni holida foydalanaveradi. Har halay, hech kim "Men ahmoqman" demaydi. (Goho deyishi ham mumkin, biroq bu gapni u sidqidildan aytmaydi, albatta.) Hammaning ham, ozdir-ko'pdir, o'ziga yarasha aqli bor. Och qolsangiz, bir tishlam non berolmasa-da, har nechuk kam deganda bir og'iz maslahat berishga yaraydi.

Ba'zi birovlar puxta o'ylab ko'rmay qilgan pala-partish ishi xususidagi yoxud o'ylana-o'ylana aytgan xato fikri borasidagi rost gapni e'tirof etishni shuning uchun istamaydiki, u o'zining aqlsiz ko'rinib qolishidan o'lgudek qo'rqadi.

Donolar: "Shum niyat bilan ekilgan niholning danagi achchiq bo'ladi", deganlarida ayrim ustasi faranglarni nazarda tutganlar. Ba'zilar aqldan naq tuzoq qursam, deydi. Ular orasida o'z tuzog'iga o'zi tushib qoladiganlar ham ko'pchilik.

Tarixdan tajriba o'zlashtirish yo'lidagina emas, tarixga tajriba qoldirish yo'lida jon fido qilayotganlar ham bisyor. Bu, har qalay, yomon xislat emas. Biroq ular o'zlarining bu dunyoga ustunligini, ya'ni odamligini unutib qo'ymasalar — yanada a'loroq ish mana shu edi. Ularning insoniy qiyofalarini o'zlariga badiiy yo'sinda ko'rsatish yozuvchining bosh vazifasi. Qariyalarning yoshlarga qarata aytgan: "Onangni otangga bepardoz ko'rsatma", qabilidagi nasihatlari ham shunchaki pand-nasihat emas, bus-butun hikmat. Har bir odam uchun tarix — ona, xalq — ota!

Jurnalda ishlash qanchalik qiyin bo'lmasin, nazarimda men uchun bu yana bir dorilfunun bo'ldi. Shu bois har bir ishni, boshliqlarning har bir topshirig'ini yaxshiroq bajarishga astoydil harakat qildim. Bu hol Yozuvchilar uyushmasi raisining menga bo'lgan xayrixohligini kuchaytirib, ishonchini oshirdi. Tahririyatdagi maoshli ishimdan tashqari Yozuvchilar uyushmasida o'tkaziladigan har xil majlislarning bayonnomalarini yozib borish ham menga topshirildi.

Stenografist emasman. Shu bois ulgurganimcha yozaman. Har bir notiq gaplarining mag'zini chaqib, ulardagi yilt etgan yangi

fikrni ilg'ab olishga, oqizmay-tomizmay qog'ozga tushirishga urinaman. Birovlar o'zi sezmagan holda tesha tegmagan aqlli gaplar aytishadi. Boshqalari ko'ra-bila turib noo'rin-nojo'ya gaplar qilishadi. Yana birlari matbuotdan o'qib olgan fikrlarni xuddi o'zi aytayotgandek bayon qiladi. Ayrimlari o'z fikrlarini boshqalarning tilidan aytishadi...

Majlislarga Yozuvchilar uyushmasiga a'zo bo'lmaganlar ham qatnashib, muhokamaga qo'yilgan asar xususida o'z fikrlarini aytishi mumkin edi. Goho o'shalarning fikrlari qarorga asos bo'lib xizmat qilardi. Ayrimlarining gaplari bir qarasang nodonligi, bir qarasang donoligi, bir qarasang quyushqonga sig'masligi bilan ovulimizning Ko'cha biyini eslatardi.

O'zimning adabiyotga kirib kelishimda bamisoli alifbodek xizmat qilgan shu bayonnomalarning xotiramga muhrlanib qolganlari asosida bugun ayrimlaridan ko'chirmalar keltirarkanman, ularga andak o'zgarishlar kiritdim: Yozuvchilar uyushmasidagi yig'ilishlarga goho ataylab taklif qilingan, gohida esa, maxsus takliflarsiz kelib so'zga chiqqan barcha notanishlarni "Ko'cha biyi" deb nomladim. Asari muhokama qilinayotgan yozuvchini, kimligidan qat'i nazar, "muallif" deb ola qoldim. Ayrim qalamkash do'stlarim quloqlarini ding qilib, menga olayib qaramasliklari uchun yoxud o'sha paytlarda aytgan siyqa gaplari sabab o'kinib-o'ksinib, bosh qashib qolmasliklari uchun taqrizchilar ismini ham sir tutdim. Majlis davomida so'zga chiqqanlarni "notiq", deb belgiladim. Abboz shoir bilan Sodiq shoir betakror gaplar qiladigan, hech kimga o'xshamaydigan odamlar edi, shu bois ularni o'z ismlari bilan atashni ma'qul ko'rdim.

1-son protokoldan ko'chirma

Majlis raisi: Qoraqalpoq adabiyotida katta o'rin tutuvchi oqsoqollarimizdan birining dastlabki she'ri yozilib matbuotda e'lon qilinganiga chorak asr to'libdi. Bu sanani tantanali ravishda nishonlashni muallifning o'zi talab qilgani sababli Yozuvchilar uyushmasi uning barcha asarlarini to'plab, yig'ilganlarga batafsil ma'lumot berish uchun maxsus ma'ruzachi tayinlagan edi. So'z ma'ruzachiga.

Ma'ruzachining aytgani: Men sevimli shoirimizning o'zi bilan birgalikda uning bugunga qadar matbuotda e'lon qilingan va hech qayerda e'lon qilinmagan she'rlarini to'plab bo'ldim... Muhokama qatnashchilari erkinroq fikr yuritishlari uchun qo'lyozma ko'pchilikka besh-o'n sahifadan taqsimlab berilgan. Bundan tashqari maxsus uch taqrizchi gapirishga tayyor. Shu bois mening ko'p gapirishimga zarurat bo'lmasa kerak. Muhokama davomida savollar tug'ilsa, muallif bilan bab-baravar yeng shimarib javob berishga tayyorman.

Muallifning aytgani: Milliy adabiyotimizga otalarcha g'amxo'rligi uchun Yozuvchilar uyushmasiga va uning topshirig'iga ko'ra ko'p ishlar qilib hozir sizlarga axborot bergan ma'ruzachiga rahmat. Bunday yordam bo'lmaganida, uzzukun she'r yozish bilan mashg'ulligim sabab o'z she'rlarimni o'zim gazetalardan qidirib topib, yaxlit to'plam holiga keltirolmagan bo'lardim. Avvalgi to'plamlarimga kiritilmay qolgan talay she'rlarim arxivlardan topildi. Muhokamada so'zga chiqadigan o'rtoqlarga ham oldindan rahmat aytib qo'ymoqchiman.

Savol: To'plamning hajmi qancha? Unga necha she'r kiritilgan, jami necha misra?

Muallifning javobi: Men qator sanamay yozadigan shoirman. Qo'limga qalam ushlab o'tirsam bas, she'r deganining o'zi miyamga quyilib kelaveradi.

Ma'ruzachining javobi: Kulliyotga shoirning avval matbuotda e'lon qilingan 206 nomdagi she'ri kiritildi. Hajmi o'n ming satrdan ko'proq. Juda salmoqli, og'ir to'plam. Agar nashriyot yaxshi bezaklar uchun xarajatni ayamay, charmdan 7-son muqova ishlatsa, oliy navli qog'oz bersa, o'quvchilar shaxsiy kutubxonasiga qo'yganda uyalmaydigan vazni bir yarim-ikki kilogrammlik salmoqligina kitob bo'ladi.

Muallifning iltimosi: Qo'shiq qilib aytiladigan she'rlarim ham bor. Agar ularni ham notasi bilan birga kiritilsa, to'plam tag'inam salmoqliroq bo'lardi-da.

Ko'cha biyining aytgani: Shoir o'z xalqining tili. Uning erinmay aytgan har bir so'zi kelgusi avlodlarga meros bo'lib qolishi uchun bu "Kulliyot" zap ish bo'libdi-da!

Ovozlar:

— Siz chetdan kelib, yozuvchilarning ishiga aralashavermang!

— To'plovchiga rahmat emas, la'nat aytish kerak!

— To'plovchida nima ayb?

— Shoirda nima ayb? Avtonom respublika hukumati unga yuksak unvonni bekorga bermagan bo'lsa kerak?

Savol: Keyingi paytlarda ko'chirmakashlik faktlari uchrab turibdi. Bu shoirda boshqalardan ko'chirilgan satrlar yo'qmikan?

Ma'ruzachining javobi:

— Yo'q, hammasi o'ziniki, faqat o'ng cho'ntagidan chap cho'ntagiga, qo'yin cho'ntagidan sirtqisi, sirtqisidan ichki cho'ntagiga ko'chirib, o'zidan o'zi qarz olgan satrlar, bandlar bor.

Ovoz:

— To'plam mazmuni bayon qilinsin!

Savol: Bu nomdor shoirimizning har bir sanaga bag'ishlangan yigirma besh she'ridan bittasini, o'n to'qqizdan bittasini, degandek, tanlab olib, jami olti-yetti she'rinigina chiqarib qo'ya qolsak nima bo'larkin?

Muallifning javobi: Shuni unutmanglarki, ko'pchiligingiz mening she'rlarimni o'qib tish chiqargansizlar!

Ovozlar:

— Sizning she'rlaringizni o'qib chiqqan tishlarning hammasi so'yloq!

— Sizdan o'rgangan hozirgi shoirlar tishlarim ko'rinmasin deb boshqa joylarda og'iz ochib gapirishga qo'rqib yurishibdi.

Ma'ruzachining aytgani: O'rtoqlar, yozuvchining shuhrat qozonishi uchun ko'p narsa kerakmi? Yo'q! Masalan, Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik", "Anna Karenina", "Tirilish" degan uch-to'rtta asarinigina tez-tez tilga olib turamiz. Griboyedov degan shoirning bitta-yu bitta "Aqllilik balosi", Furmanov degan yozuvchining faqat "Chapayev", Ostrovskiy degan ko'zlari ko'r yozuvchining "Po'lat qanday toblandi?" degan yagona kitobini bilamiz, xolos. Hammamiz ham bu asarlarning nomlarini maktab partasidayoq eshitganmiz. Shunga qaramasdan necha-necha kolxozlar, maktablar, ko'chalar ular nomi bilan ataladi. Mixail Sholoxov degan yozuvchi esa, "Tinch Don", "Ochilgan qo'riq"

nomli ikkita asari bilanoq munaqqidlar yozgan maqolalarda birinchi bo'lib tilga olinadi. Binobarin, bu "Kulliyot"ning hajmi katta deydigan ichi torlar bo'lsa, mayli, olti-yetti she'rinigina nashr etib qo'ya qolaylik! Shunday taqdirda ham bu aqli raso, mehnatkash, donishmand, faylasuf shoirimiz qalamiga mansub she'rlar son jihatidan men yuqorida tilga olgan shoir va yozuvchilarnikidan bir necha barobar ko'proq.

Ovozlar: — Hoy, siz bu maddohni Tolstoy, Griboyedov, Furmanov, Ostrovskiy, Sholoxovlarga tenglashtirgani uyalmay sizmi?!

— Ma'ruzachi savodsiz ekan-ku!

Ma'ruzachining javobi: Men o'zimizga ma'lum asarlarni miqdor nuqtayi nazaridan qiyosladim!..

Qavs ichiga yozgan izohlarim: Avvaliga "Ma'ruzachi piching qilayotgan bo'lsa kerak", deb o'ylagandim. Keyingi so'zlarini astoydil jon kuydirib aytayotgani ko'zlaridan, xatti-harakatlaridan ro'y-rost sezilib turganini ko'rib, savodsizligi uchun qattiq achindim, alamim keldi. Yo muallif tomonidan maxsus yollanganmi ekan?.. Nachora, majlis ahli orasida uni qo'llab-quvvatlovchilar ko'pchilik.

Birinchi taqrizchining aytgani: Qoraqalpoq adabiyotida mashhur shoirlar ko'p. Biroq, baxtga qarshi, ularning mashhur asarlarini topish qiyin.

Qoraqalpoq adabiyoti darsligiga kirgan siymolar biri ikkinchisidan nimasi bilan qanchalik farqlanishini bilish ham oson emas...

Ovozlar:

— Ona adabiyotimiz bunaqa kamsitilmasin!

— Atoqli shoirning chorak asrlik mehnatiga til tekkizilmasin!

— Pushkin: "Ilhom sotilmaydi, biroq ilhom mevasi bo'lmish qo'lyozma sotiladi", degan. Shoirimizning o'z ilhom mevasini sotishiga to'sqinlik qilinmasin!

— Puli to'langan buyumga sotgan odam emas, sotib olgan odam xo'jayin, deydi xalqimiz. Axir, bu shoirning she'rlari gazetalar-u radio tomonidan allaqachon qayta-qayta sotib olingan-ku!

— Shoir bu she'rlarini chorak asrdan beri sota-sota obdan xumordan chiqqandir. Bas-da endi! Buyog'iga u emas, biz xo'jayinmiz! Boshqa pul to'lanmasin!

— XIX asrning boshlarida yashagan rus shoiri A.S. Koziyanov "Shoir mangulikka sudlanuvchi odam, unga odil vaqtning o'zi hukm o'qiydi", degan. Bizning xalq shoirimizga ham, mayli, kelgusi avlodlar hukm o'qisin. "Kulliyot"ni shu turishicha bosib chiqarsak chiqara qolaylik!

Ikkinchi taqrizchining aytgani:

— O'rtoqlar! Mavsumiy she'rlarga, hozirjavoblikka qarshi so'zga chiquvchilarga qarab: "Shunday hozirjavob she'rlarni o'zlari yozolmagani uchun alami kelganidan gapiradi shekilli", degan xayolga bormangizlar! Odamzod har bir yangi hodisaga o'z vaqtida tezkorlik bilan javob berishga odatlangan. Javob shoirning tili bilan she'riy shaklda berilar ekan, buni qo'llab-quvvatlash kerak! Men aytmoqchi bo'layotgan asosiy gap shuki, hali adabiyoti yaxshi rivojlanmayotgan xalqda kichikroq bir iste'dod paydo bo'lsa, bu qorong'ida xira nur sochayotgan zaifgina shamning ko'pchilik nazarida oydek ko'rinishiga o'xshash hodisa. Zaifgina shamni milliy madaniyat osmonida yangidan paydo bo'lgan yorug' yulduzga tenglashtirish hollari uchrab turadi.

Xalqimiz adabiy asarlarni kitoblardan o'qib emas, quloq bilan tinglash orqali baholashga ko'nikma hosil qilgan. Bunday vaziyatda muallifning o'z asarini boplab, qiroatini joyiga qo'yib aytishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ko'cha biyining aytgani:

— Ovulimizda Boynazar degan mulla bo'lardi. Ma'raka paytlari uning Qur'on o'qishini eshitgan qariyalar: "Oh-oh-oh! Qiroatingga balli-yey! Mulla deganlari Boynazardek bo'lsa-da!", deb tanglaylarini takillatishardi. Qaysidir ovulda chol yo kampir qazo qilgudek bo'lsa, albatta uni chaqirtirishardi. Borib-kelib yurganida qo'shni ovul bizdan ko'proq izzatini joyiga qo'ydi, shekilli, u ovulimizdan butunlay ko'chib ketdi. Xuddi o'sha yili otam og'rib, jon berish oldidan "O'ligim ustida Boynazar mullaning ovozi eshitilsin", deb vasiyat qildi. Qiblagohimning so'nggi istagini, albatta, bajo keltirdim. Menda ruscha-arabcha lug'at bor edi. Nima uchundir Boynazar mullaga uning arabchasini o'qitib, qoraqalpoqcha ma'nosini so'ragim keldi.

Lug'atni oldiga qo'ydim-da:

— Taqsir, o'qib ma'nosini tushuntirib berasizmi? — dedim.

U lab-lunjini qo'llari bilan qayta-qayta silab:

— Savodim yo'q-ku, qarog'im. Shunchaki bolalik chog'imda bir mulladan eshitib, esimda qolganlarini yoddan o'qib yuribman-da! — dedi. Bunday javobdan hayron bo'layotganimni sezdi shekilli, ma'noli iljaydi. — Bilasanmi, Ko'cha biyi, umrida kitob betini ochib ko'rmay, faqat qulog'iga ishonib o'rgangan odamlar sening savoding bor-yo'qligini surishtirib o'tirishmaydi. Tiniq ovozing, yoqimli qiroating bo'lsa bas!

Ovozlar:

— To'gri gap! Ba'zi shoirlar o'z she'rlarini o'zlari o'qiganida mahliyo bo'lib eshitasan. Biroq o'sha she'rlar bosilib chiqqanidan keyin olib o'qisang, xuddi qo'lingda pufak yorilgandek bo'ladi.

— Bizda azbaroyi qiroati bilan Boynazar mulladek shuhrat qozonib yurgan shoirlar ozchilik emas!

Ma'ruzachining javobi:

— Ba'zi odamlar bolalarini sovg'a-salomga o'rgatishadi. Agar sovg'a-salom bir xil bo'laversa, bolalar unga loqayd qarashadi. Keyingisi avvalgisidan pastroq bo'lsa, ko'ngli qoladi. Agar har safar avvalgisidan yaxshiroq sovg'a olib kelinsa, endigisini orziqib kutadi. Shoir ham o'z o'quvchisi oldida bamisoli bolasini sovg'a-salomga o'rgatgan otaga o'xshaydi.

Ovoz:

— Uyning poydevori yomon bo'lsa, devorning yaxshiligidan nima foyda? Gapni nazariy jihatdan yetuk taqrizchilardan eshitaylik.

Uchinchi taqrizchining aytgani:

Tagzamini mustahkam bo'lgani bilan ustida turgan devor yaroqsiz bo'lsa ham yomon. Poydevor yomon bo'lsa, devor yaxshi chiqavermaydi. Xayriyatki, ayrim mohir ustalar yaxshi poydevor ustida yaxshi devor tiklashadi. Har qanday ish o'z ustasidan qo'rqadi. Biz "Kulliyoti"ni muhokama qilayotgan shoirga kelsak, uning ham o'z poydevoriga loyiq devori bor. Yana nima deyish mumkin? Bunday jarayonni har bir adabiyot boshidan kechiradi. Biz andak kechikibroq boshdan kechirmoqdamiz. "Kulliyot" bosilmasa ham hech kim "Nega bosilmadi" demaydi. Bosilsa

ham, hozircha o'z o'quvchilarini topib ketishi ehtimol. Men hurmatli oqsoqolimizga sihat-salomatlik tilayman, yangicha ilhom tilayman!

Ko'cha biyining aytgani:

Bizning Qoraqalpog'istonimizda chinakam ijodkorlarga nisbatan adabiyot bo'yicha "olim" atanish niyatida mushtiga puflovchilar ko'proq. Undaylarning yozganlarini o'qisang yo o'zlari bilan ikki og'iz gaplashib qolsang, qattiq achinib ketasan kishi! Ular adabiyotda filni pashsha, pashshani fil qilib ko'rsatib yurishibdi. Ayrim shoirlarimiz esa "men" deb so'zlash erkini suiiste'mol qilib, xalqning yelkasiga o'tirgan holda "Men xalqman!" deb xitob qilayotgandek. Keyingi paytlarda qora so'z bilan yozilgan qissa, romanlarni ko'p o'qishga odatlandim. Ularni qoraqalpoq yozuvchilari yaratayotganlari yo'q. Tili bizning tilimizga o'zakdosh o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman yozuvchilari-yu shu tillarga tarjima qilingan rus yozuvchilarining kitoblaridan o'qiyapman. Ularni o'qiy boshlaganimdan beri "Men xalqman!" deya ko'ksiga uradigan ba'zi shoirlarimiz nazarimda xuddi yolg'iz daraxtga qo'nib shaq-shaqlagan hakkaga o'xshab qoldi. O'zim o'qigan ko'plab kitoblarning mualliflari esa, ortiqcha chiranmaydi: xalqining oyog'i ostida yotib, uning qaddini aqalli bir qarichga yuqoriroq ko'tarib, "Men emas, xalqning o'zi xalq!" demoqchi bo'ladi. Bizga xalqning o'zi haqida o'zini gapirtiradigan asarlar kerak, do'stlar!

Ko'p o'qib-o'rganish natijasida shunga amin bo'ldimki, shoir xalqning tili, qora so'z bilan roman yozuvchilar xalqning kotibi-mirzasi-munshiyi ekan. Xalqimizga til bo'lolgan odamlar qadimdan bor. Agar chinakam mirzosi-kotibi ham bo'lsa edi, aniq bir shaklga tushgan badiiy tariximiz yaratilarmidi. Barchaga ma'lumki, xalqimiz ming yillardan beri o'z tarixini o'zi bilan birga olib yuradi. Ya'ni xalq o'z tarixini ko'ksida ardoqlab saqlayapti. Bir yurakka hamma narsani sig'diraverish, yuk ustiga yuk qo'shib ko'taraverish osonmi? Ne-ne kerakli yuklar tashlab yuborilgan, unutilgan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. Xalqimizning ham sarkotibi tug'iladigan vaqt, menimcha, yetib keldi, yozuvchi do'stlarim! Shu haqda jiddiyroq o'ylab ko'rishlaringizni istardim...

Qavs ichidagi izohlarim: Bu odamning gaplarida jon bor. O'ylab ko'rish hech kimga zarar qilmaydi.

Birinchi notiqning aytgani:

— O'tmishdagi buyuk Xorazm xonligining poytaxti Xiva shahrida 64 ta madrasa bo'lgan. Biz uchun o'sha madrasalarning qurilish tarixi qiziqmi yo shu madrasalarda tahsil ko'rgan ilm-u she'r ahlining taqdiri qiziqroqmi?

Ma'lumki, badiiy adabiyotning o'z tarixi bor. Biroq bu tarix uni yaratuvchilarning tariximi yo yaratilgan asarlarning tariximi?

To'g'ri gapni tan olmoq kerak: milliy adabiyotimizda ko'pgina shoirlarning hayot yo'lini biz tarixga aylantirsak ham ularning asarlari tarixiy voqeaga aylanmayapti. Adabiyotni chinakam iste'dod yaratadi. Chinakam iste'dod mahsuli bo'lgan asar orqali nafaqat yakka shaxslar, balki butun bir xalq tarbiyalanadi. U kelgusi nasllarni ham tarbiyalaydi.

Insoniyat tafakkuriga ta'sir ko'rsatadi. Kelgusi avlodni o'z xalqining tarixiy taqdirini yoritish orqali ham tarbiyalash mumkin. Buning uchun xalq tarixi badiiy shaklga tushirilmog'i kerak bo'ladi. Shu maqsadda milliy adabiy an'analarimizni har tomonlama boyitish talab qilinadi. Qisqasi, bizga keng ko'lamdagi yirik nasriy asarlar kerak.

Nasrda xalqimizning ibratli ishlarini bo'rttirib ko'rsatish xalqchil an'analarni buzish emas, uni boyitish demakdir. Mana shuning o'zi ham novatorlik! Yangilik yaratish yo'q narsani to'qib chiqarish emas, xalqning o'zida bor narsalarni badiiy yo'sinda ishonarli shaklda o'ziga ko'rsatishdan iborat. Bu tiniq ko'lga suv quyadigan va undan suv oqib chiqadigan yangi ariqlar qazib, suvni harakatga keltirishga o'xshash ish.

Harakatsiz tiriklik yo'q!

Bugungi avlodning tafakkuri uchqur. U metindek mustahkam do'stlikka tayangan holda butun dunyoga o'z ta'sirini o'tkaza oladigan avlod. Bu baxtimiz, bu kuch-qudratimiz uchun kimdan minnatdor bo'lishimiz kerak, mana shuni yashirmay, bo'yab-bejamay ro'y-rost yozishimiz kerak.

Noma'lum ovoz: Hozir "minnatdor" degan so'z, ko'pincha, o'zining tub ma'nosida qo'llanilmaydi.

Ikkinchi notiqning aytgani: Har bir tilning tub lug'at boyligi ko'proq adabiy asarlarda saqlanib qoladi. Qoraqalpoq tili Berdaq shoirning asarlari orqali bizga asl holida to'la yetib keldi. Afsuski, ba'zi tilshunoslarimiz ona tilida bir necha asrlik qadimiy yozma adabiyot an'analari mavjud tillardan o'rganish namunalarini qoraqalpoq adabiyoti asarlaridan ham izlashga kirishib, keyingi yetmish-sakson yil ichida qoraqalpoq tili tubdan o'zgarishga uchragan, deb ko'rsatmoqchi bo'layotganini o'zlari ham sezmay qoladilar. Masalan, XIX asrda yashab o'tgan shoirlarning she'rlarini xalq og'zidan yozib olishda ijrochining tilga g'oyat mas'uliyatsizlik bilan qarashi, o'zini yoxud o'sha she'rni yaratgan odamni tilga kambag'al qilib qo'yish hollari seziladi. Hatto bu tilni xalq tilidan yuqori qo'yishga moyillik ham ko'zga tashlanadi. Misol uchun, XIX asrning ikkinchi yarmida yashagan Ajiniyozga nisbat beriluvchi quyidagi lirik she'rga diqqat qiling:

Ay — alifkim, oq yuzingdur, oyna olam anvari,
Be — belingdur, xipchagina, ko'zlaring shahlo, bale,
Te — tishingdur, dona-dona, lablaringning bollari,
Se — so'rib shirin labingdin, yonadurman, ey pari!

Avvalo, shu holni eslatib o'tmoqchiman: harflarga she'r bag'ishlash Sharq mumtoz she'riyatida an'ana bo'lganligi ma'lum. O'qimishli shoir Ajiniyozning bu an'anani o'z adabiyotining she'riy tarkibiga olib kirishga intilgani o'z-o'zidan tushunarli. Biroq biz bu she'r tilini qoraqalpoqlarning adabiy tili yoxud yozma tili deya olamizmi? Bu masalaga juda ko'p milliy xususiyatlarni nazarda tutgan holda yondashish kerak bo'ladi. Basharti qoraqalpoqlar XIX asrning ikkinchi yarmida bir-birlari bilan "ko'zlari shahlo, bale", "yuzing oyna olam anvari"... qabilida gaplashgan bo'lsalar, bundan chiqdi, atigi oltmish-sakson yil ichida til batamom o'zgarib ulgurgan ekan-da?..

Ajiniyoz shoirning sozanda bo'lgani bizga ma'lum. Binobarin, Ajiniyoz bu she'rni musiqaga moslab yozgandir, deya tusmol qilsa bo'ladi. U mung-hasratga limo-lim "Bo'zatov" dostoni va nihoyatda ohangdor lirikasi bilan milliy adabiyotimizning eng yuksak cho'qqilaridan biri bo'lib qolaveradi. Shu yuksaklikda o'zini ham ko'rish ilinjida Ajiniyozning so'zdan musiqiy ohanglar qidirib to-

pish usullarini "yangilik","novatorlik" deb ko'klarga ko'tarishga moyillik bildiruvchilar ham yo'q emas. Bu noto'g'ri qarash, albatta. Aks holda bugungi shoirlarimiz: "Men seni jonimdan lyublyu, Qoraqalpog'iston" qabilida "til" yaratsalar, ularga ham novatorlik namunalari sifatida qarash lozim bo'lmasmidi?..

Ovozlar:

— Ikkinchi taqrizchining gaplari menga ma'qul, ular haqida jiddiy o'ylab ko'rishimiz lozim.

— Atoqli shoirimizning "Kulliyot"ini unutib qo'ymaylik-da!

— Unutganimiz yaxshi!

— Unutilgani yo'q, yig'ilishda yangicha fikrlarga keng o'rin berilyapti...

— O'rtoqlar, gapni chuvalatmaylik. "Kulliyot" kitob holida bosilsinmi-yo'qmi?

— Bosilmasin!

— Bosilsin!..

Sodiq shoir aytgan afsona: Bir odamning egizak o'g'illari bor ekan. Balog'at yoshiga yetganlarida otasi ularni baravar uylantiribdi. Ikkoviga yonma-yon uy qurib, o'z erkicha yashamoqqa izn beribdi. Otasining mehribon quchog'ida yashashga o'rganib qolgani uchun o'z kunini o'zi ko'rish dastlabki kundanoq mushkul tuyulgan bolalardan biri ertasiga saharda osmonga qo'l cho'zib:

— Ey, qodir Xudo, meni o'zing panohingda asrab, bir suruv qo'ylik qilsang-chi! — deya iltijo qilibdi.

Egizaklardan ikkinchisi birinchisining Xudoga nima deb iltijo qilayotganini eshitib qolibdi-da, darrov yoniga borib u ham osmonga qo'l cho'zibdi:

— Ey, qodir Egam, o'zing panohingda asrab, menga bir juft qashqir ato qilsang-chi! — deya yolvoribdi.

Birinchi egizak undan:

— Hoy, yaramas, senga qashqirning nima keragi bor? — deb so'ragan ekan, ikkinchi egizak:

— Senga Xudo bermoqchi bo'layotgan bir suruv qo'yni bo'g'izlataman, — deb javob beribdi. — Yo'qsa nega menga ham qo'shib so'ramaysan! — deb to'ng'illabdi bo'sh kelmay.

Bugungi yig'ilish mohiyatan, o'tmishdagi o'sha egizaklarning avlodlari kimlar degan savolga javob topib berdi, shekilli.

Abboz shoirning aytgani: "Oqtovon chuvrindi" yillarida Turkistondan chiqib afsonaviy Maman biy boshchiligida Xorazm vohasiga omon-eson yetib kelgan qoraqalpoqlar orasidan bir egizak pul to'plab arava sotib olish uchun Xiva shahriga boribdi. Yaxshigina ot-arava sotib olishibdi. Ikkovlon ikki otni qo'shib, aravada qaytishayotgan ekan, kutilmaganda janjal chiqib qolibdi. "Oldingi o'rindiqda men o'tiraman" debdi birovi. "Yo'q, men o'tirishim kerak", debdi ikkinchisi. Janjal kuchayib, mushtlashishga aylanibdi.

Ularning egizakligini bilgan bozor ahli oqilona maslahat berishga qiynalib, qozini chaqiribdi. Qozi so'rab-surishtirib, ahvoldan xabar topgach, aravani buzdiribdi-da, egizaklarning har biriga bittadan g'ildirak, bittadan shotipoya beribdi. Har biri o'z chekiga tushgan shotipoyani g'ildirakka bog'lab, otiga sudratib bazo'r uylariga yetib olishibdi. O'sha kuni uylarida o'tin tugab qolgan ekan, har ikki egizakning ayollari: "Erim buni o'tin uchun olib kelgan ekan-da", deb o'ylab, shotipoya-yu g'ildiraklarni yoqib yuborishibdi.

Bugungi yig'ilish ham o'sha arava sotib olgan egizaklarning ahvolini eslatyapti.

Ovozlar:

— Noto'g'ri!

— Bu hangomalarning "Kulliyot"ga daxli yo'q!

— Shoirlar kamsitilmasin!

— Naqllar ham, hikmatli gaplar ham farosat bilan aytilsin!

— O'z o'rnida aytilsin!

Yig'ilish raisi: — Hurmatli shoirimizning "Kulliyot"i nashrga tavsiya etilsin, deganlar qo'l ko'tarsin!

— Qarshilar?

— Yo'q!

— Betaraflar?

— Yo'q!

— Demak, bir ovozdan nashrga tavsiya etildi. Oqsoqol, sizni tabriklaymiz!

Muallifning aytgani: Hammalaringizga o'z yo'limni, o'z shuhratimni tilayman. Ko'p yashanglar!

Bayonnoma oxiridagi izohlarim: Odatda o'z zamondoshi aytgan hikmatni hikmat deb e'tirof etish u yoqda tursin, loaqal yangicha fikr sifatida tan olishga ham ko'pchilikning bo'yni yor beravermaydi. Chunki ayni o'y-fikrlar ularning ham ko'nglidan kechayotgan bo'ladi. "Zamoni birning ori bir" deb xalq bejiz aytmagan. Shu bois kimdir birovga dono kengash bermoqchi bo'lsa, ota-bobolar, qadimda yashab o'tgan donishmandlar nomidan ham qilich, ham qalqon sifatida foydalanadi.

Bugungi muhokama shuni ko'rsatadiki, odam xato qilmasligi uchun uch a'zosiga: noo'rin gap qilmasligi uchun tiliga, chaqirilmagan majlisga bormasligi uchun oyoqlariga, iflos narsani ushlamasligi uchun qo'liga ehtiyot bo'lishi lozim.

Ayni paytda, xatoga yo'l qo'yishdan qo'rqib jim yuraversang, yakkalanib qolish xavfi bor; noo'rin deb hech qayerga bormasang, o'z uyingga qamalib qolish xavfi bor; ifloslikka duch kelaman deb hech nimaga qo'l urmasang, qattiq bilan yumshoqni, issiq bilan sovuqni bilolmay dog'da qolish xavfi bor.

"Yangi ishga tavakkal qilishdan qo'rqma", deb ko'p o'rgatgan edi onam.

"Xudoning o'zi ham men tavakkalchidan qo'rqaman degan", deb uqtirardi otam.

Odamlar bilan uchrashib gaplasharkanman, majlislarda qatnasharkanman, ulardan nimadir o'rganishga astoydil harakat qilar edim. Bugungi majlisdan ham ko'p narsa o'rgandim. Aynan nimani o'rganganim hozircha sir bo'la qolgani ma'qul.

Maksim Gorkiy ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, hech kim o'zining qanday odamligi, qay yurtga mansubligi, nima uchun yashayotganini unutishni istamaydi. Bularni unutish odamning o'z-o'zini tubanlikka mahkum etishi demakdir.

"Pichoqni o'zingga ur, og'rimasa birovga", deydi dono xalq. Kishi boshqalarga nasihat qilishdan avval shu xalq maqolini birrov xayolidan o'tkazib, ana shundan keyingina tiliga erk bergani ma'qul. Demoqchimanki, har bir odam donolikni ham, nodonlikni ham avvalo o'zidan izlashi kerak bo'ladi. Biz yashab turgan

yer tep-tekis emas, nihoyatda o'ydim-chuqur. Aftidan, mana shu notekislik inson ruhiyatida ham o'z in'ikosini topgan. Ayniqsa, bizning ijodkor ziyolilarimiz ruhiyatidagi notekisliklarni bartaraf etish uchun, aftidan, talay achchiq ter to'kish, achchiq gaplar aytish kerak bo'ladi.

Yoshligimdan meni tarbiyalagan ona adabiyotimning mavjud tajribalariga, yetakchi asarlarida badiiy gavdalantirilgan xarakterlar mohiyatiga teranroq nazar tashlasam, shoirlarimiz odamga piching gaplar qilish, uning o'ziga nisbatan soyasini bo'rttirib ko'rsatishga moyilroq ekanlar. Har bir aktyorimiz Yagoga o'xshash rollarni nisbatan osonroq ijro etaveradilar. Milliy dramaturgiyamizda bag'rikeng, yalangto'sh, ko'ksida quyoshi, ko'kragida yoli bor odamlar hali juda kam. Bunday obrazlar yaratilgan taqdirda ham, avvalo, ko'pgina aktyorlarimiz uchun begona tuyuladi. Bu ahvoldan qattiq kuyunaman, ko'nglimda achinish, malol, norozilik uyg'onadi. Odamlarga yomonlikning nimaligini ko'rsatish bilangina kifoyalanib qolmay, ularni yaxshilikka, ezgu tuyg'ularga ergashtirishni diqqat markazida tutish ulkan ahamiyatga ega. Shuning uchun ham, agar men yozuvchi bo'lsam, avvalo xalqning qalbidan nur qidirib yashashim, ona xalqimning tarixiy taqdirini uni qurshagan xalqlarning taqdirlarida va aksincha, ularning taqdirlarini o'z xalqimning taqdirida ko'rishim, shu oraliqdagi g'oyat chigal munosabatlarni atroflicha o'rganishim lozim. Buning uchun ko'plab arxivlar bilan tanishish, uzluksiz o'qish-o'rganish kerak bo'ladi. Ona tilimizda yaratilgan barkamol asarlar, yaxshi tarjimalar hali g'oyat kam.

19

2-son protokoldan ko'chirma
Yig'ilish raisining aytgani:

— Noma'lum muallifning "Qoraqalpoq qo'shig'i" nomli roman qo'lyozmasi kelib tushdi. Roman uch bo'limdan iborat. Birinchi bo'lim "Hayot", ikkinchi bo'lim "Muhabbat", uchinchi bo'lim "Do'stlik" deb nomlangan.

Savol:

— Pochta muhriga ko'ra muallif qoraqalpog'istonlikmi?

Javob:

— Qoraqalpog'istonlik. Ehtimol, oramizda o'zi ham o'tirgandir.

Ovoz:

— O'tirsa o'tiraversin, rost gapni aytishdan qo'rqadigan qoraqalpoq yo'q!

Taqrizchining aytgani:

— Qo'lyozmaning nomlanishidanoq sezilib turibdiki, muallif loaqal qo'shni xalqlarning adabiyotidan ham xabardor emas. Men, masalan, o'zbek, qozoq, turkman, qirg'iz adabiyotlarida bunday nomdagi, ya'ni, "O'zbek qo'shig'i", "Qozoq qo'shig'i", "Turkman qo'shig'i", "Qirg'iz qo'shig'i" degan asar borligini hech qayerdan o'qimaganman ham, eshitmaganman ham. Qo'shiq xalqning quvonchi va qayg'usi, orzu-armonga limmo-lim qalbi. Bas, shunday ekan, butun boshli xalqning qo'shig'ini birgina odam aytib yo yozib chiqa oladimi? To'g'ri, yaxshi niyat — yarim davlat. Muallifning niyati yomon emas. Lekin muallif bir narsani yoddan chiqarmasligi lozim: avlodlar avlodlarga, qo'shiq qo'shiqqa estafeta topshiradi. Bu kitob nimaga estafeta topshiradi? Shu narsani o'ylab boshim qotib qoldi...

Savol:

— Romanning yozilish uslubi qanday?

Taqrizchining javobi:

— Muallif mumtoz adabiyot namunalariga tayansa-da, bugungi sarguzasht asarlarga ishqiboz yoshlarga mosroq uslub tanlashi kerak edi. Yozuvchi dastlabki asari bilan o'quvchilarni o'zidan bezdirib qo'ysa, oqibati yomon bo'ladi. Nomi chiqmay turib izsiz yo'qoladi. Noma'lum muallif haddan tashqari o'jarga o'xshaydi. Yo'qsa, hozir g'arbiy Yevropada "Roman kerakmi?" degan savol atrofida bahslar avjiga chiqib yotgan bir paytda bunaqangi romanga qo'l urmagan bo'lardi...

Birinchi notiqning aytgani:

— Menimcha, muallifning savodi puxta. Aftidan u Mixail Sholoxovning g'arbiy Yevropadagi adabiyotchilarning "Roman

kerakmi?"si "Dehqon ekin ekishi kerakmi?" deganidek gap" qabilidagi zukko fikrlari bilan tanish bo'lsa kerak. Agar buyuk adib Mixail Sholoxov bu fikrini aytmaganida, roman ustaxonasi eshigidan kirib kelgan talaygina yozuvchilarning holi ne kechardi? To'g'ri, bugungi kunda roman janrining miqyoslari torayib borayotganga o'xshaydi. Asar ixcham, tugallangan bo'lishi shart. Shu shartni ro'kach qilib, ko'p planli romanlardan chekinish ayon sezilmoqda. Balki bu hozirgi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sur'atlari bilan bog'liq holda kitobxonlar ruhiyatidagi o'zgarishlarni hisobga olish natijasidir?

Lekin samolyotlarda, poyezdlarda, elektrichkalarda hajman salmoqli kitoblarni o'qib ketayotganlarning ko'pligi bu fikrlarni rad qila oladi. Hayotning behad ko'p qirraliligi, murakkabligi, azaliy va abadiy jumboqligini atroflicha badiiy gavdalantiruvchi keng miqyosli roman janri hech qachon o'lishi mumkin emas. Chunki odam bolasi bu yorug' olam sirlarini ochish, jumboqlarini yechish bilan hamisha shug'ullanaveradi.

Asarning nomi mazmuniga mos bo'lmog'i lozim. Menimcha, noma'lum muallif o'z fikr-mulohazalari, ko'rgan-kechirganlari, o'qib-o'rganganlarini keragicha saralab, o'zi tanlagan nom ostiga uyushtirishga harakat qilgan. Bu intilishni qo'llab-quvvatlasa arziydi.

Ikkinchi notiqning aytgani:

— Odatda, har bir yozuvchining o'z geografiyasi va shunga muvofiq o'z xaritasi bo'ladi. U hayotning o'zi yaxshi anglab yetgan qirralarini ana shu geografik iqlim doirasida xaritaga tushirar ekan, har xil bo'yoqlardan, chiziqlardan foydalanadi. Har bir kitob muallifning o'ziga xos geografiyasi-yu xaritasida muayyan o'rin tutadi. U hadeb o'rnini o'zgartiravermay, uzoq asrlarga xizmat eta olishi shart. Gomer bobodan boshlab to bizning zamondoshimiz, buyuk adib Sholoxovga qadar mumtoz adabiyot namoyandalari ijodi, ularning barchamizga ma'lum va mashhur shoh asarlariga qo'yilgan nomlar buning yaqqol dalilidir. To'g'ri, men ham hech qayerda "Rus qo'shig'i" yoxud "Eston qo'shig'i", "O'zbek qo'shig'i" ... degan asar o'qimaganman. Noma'lum muallif yangi yo'l ochmoqchi bo'lgan. Albatta, buning uchun yozuvchini ayblab

bo'lmaydi. Chunki odam bolasi birovlardan o'rganishni o'z oldiga nechog'lik maqsad qilib qo'ymasin, ularni takrorlashni, o'zligini yo'qotib qo'yishni istamaydi. Biroq har bir ish bamaslahat hal qilingani ma'qul. Masalan, Lev Tolstoydek daho san'atkor ham romanlarida, aytaylik, ayollar kiyimini tasvirlab bo'lgach, uni umr yo'ldoshi Sofya Andreevnaga ko'rsatib, shu asosda qayta ishlarkan. Adabiyot tarixida ko'pgina buyuk yozuvchilar yangi asariga munosib nom qo'yishda eng yaqin do'stlari bilan maslahatlashgani xususida o'qiganmiz. Noma'lum muallifning kim bilan maslahatlashgani ham noma'lum!..

Uchinchi notiqning aytgani:

— Kitobning nomlanishi xususidagi masala juda to'g'ri va o'z vaqtida ko'tarildi. Agar odamzod bino bo'lgan dastlabki chog'larda quyoshni "yulduz" deb, yulduzni esa, "dengiz" deb ataganida edi, hozir hamma "Quyosh qizdirayapti" deyish o'rniga "Yulduz qizdirayapti", "Osmon to'la yulduzlar" deyish o'rniga "Osmon to'la dengizlar" tarzida gapirgan bo'lardi. Shuningdek manovi ro'paramizda o'tirgan yosh yozuvchi Genjemurot Izimbetovning otasi o'z o'g'liga bir paytlar Genjemurot emas, Qallibek deb ism qo'yganida yoxud manovi yosh shoir Qallibek Bekjonovning otasi o'z o'g'liga Qallibek emas, Genjemurot deb ism qo'yganida ikkalasi ham, o'ylaymanki xafa bo'lmasdi. Ana o'shanda biz hozir ularga yosh yozuvchi Qallibek Izimbetov, yosh shoir Genjemurot Bekjonov deb murojaat qilgan bo'lardik. Yoinki buyuk Lev Tolstoy "Urush va tinchlik" romanini "1812-yil voqealari" deb nomlaganida, Mixail Sholoxov "Tinch Don" o'rniga "Melexovlar taqdiri" deya nom qo'yganida nima o'zgarardi? Bu nomlar romanlarning miqyosiga nomuvofiq, degan e'tirozlar uyg'onib, ularni baholashda mezonlar o'zgarib qolarmidi?

Tuproqqa yarasha hosil-da!

"Mo'yloviga yarasha eshkagi, kuvisiga yarasha pishkagi", deydi xalqimiz. Nom asarga yarasha, to'g'ri qo'yilmog'i lozim.

To'rtinchi notiqning aytgani:

— Ergashish yozuvchi uchun eng oson yo'l. Odatda kimgadir ergashgani uchun muallifni hech kim ayblamaydi, ammo baribir, chinakam yozuvchi sifatida tan olavermaydi ham. Bunga Sharq

adabiyoti tarixi ham guvoh. Navoiydan keyin necha asrlar o'tdi. Nega Navoiydek shoirlar dunyoga kelmadi? Umar Xayyomdan so'ng nega Umar Xayyomdek so'z zargari tug'ilmadi? Berdaqdan so'ng nega yana Berdaq paydo bo'lmadi? Buning bosh sababi Sharq adabiyoti an'analariga ko'ra, biron-bir ustozga ergashish bo'lsa kerak. Davr o'tishi bilan xalq ergashuvchilarni o'qimay qo'yadi, hatto adabiyot tarixidan chiqarib tashlanadi.

Asarning nomi ham yangicha va asrlar sinoviga dosh bera oladigan bo'lishi kerak.

Ko'cha biyining aytgani:

— Ikki narsa esimga tushib qoldi.

Birinchisi: o'ninchi sinfni endigina bitirgan yilim edi. Kolxoz raisining qizi turmushga chiqadigan bo'lib qoldi. Sinfdoshlar yig'ilib uyiga bordik. Qutladik. O'shanda u: "Meni yangi ko'ylak bilan tabriklashga kelgandir desam, erga chiqayotganim bilan tabriklash uchun kelgan ekansanlar-da. Erga chiqishning nimasi qiyin", deb hammamizni hayron qoldirgan edi. Bugun kitobning nomi muhokama qilinadimi yo uning mazmunimi?

Ikkinchisi: bu 1938-yilda bo'lgan voqea. Shahardagi maktabda o'qiydigan tog'avachcham uyimizga mehmon bo'lib kelib, maktablarida Lev Nikolayevich Tolstoy tug'ilgan kunining 110 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rayotganini, bayramda o'zi "Kavkaz asiri" degan asar haqida so'zga chiqishini maqtanib aytayotgan edi, tanchaga toblanib jimgina yotaveradigan bobom: "Mendan boshqa yana kim bir yuz o'nga chiqibdi?" deb so'rab qoldi. "Lev Tolstoy degan ulug' rus yozuvchisi", dedi tog'avachcham. "Tengdoshlarim orasida mendan boshqayam tiriklari bor ekan-ku!" dedi bobom. Men undan "Bobo, siz Lev Tolstoyni bilasizmi?" deb so'radim. Bobom umri bino bo'lib bunday odamni bilish tugul nomini ham eshitmaganini tan oldi. Shunda men, bola emasmanmi, bobomdan: "Sizning 110 yoshingiz ahamiyatlimi yo Lev Tolstoyning 110 yoshi qimmatliroqmi?" deb so'radim. U javob o'rniga yuzini burdi... Bunga nima deyish mumkin? Yozuvchilar uyushmasining yig'ilishiga biron narsa o'rganarmikinman, deb kelaman. Meni kechirasizlar-u, ochig'i, na bama'ni gaplaringiz bor, na yozgan tuzuk-quruq asarlaringiz...

Beshinchi notiqning aytgani:

— Dunyoda abadiy narsa yo'q. Hamma narsa eskiradi, o'zgaradi, yangilanadi. Ayni paytda dunyodagi hamma narsa abadiy. Quyosh abadiy. Quyosh nurlari bor ekan, soya ham abadiy. Kun bilan tun abadiy. Bu yorug' olamda hayot abadiy, muhabbat abadiy, do'stlik abadiy! Muallif bu uch abadiy nomni uch bob qilgani ma'qul. Agar muallif hozir oramizdan chiqib, "Qoraqalpoq qo'shig'i"ni men yozganman, deya o'zidan darak bersa, unga yordam sifatida xalqimizda mavjud uch foydali maslahatni aytib, romanning har uch bobini baravar boyitishga munosib ulush qo'shgan bo'lardim.

Ovozlar:

— Bu yer muallifni emas, asarning o'zini muhokama qiladigan idora!

— Beradigan maslahatingni shundog'am aytaver-da!

Beshinchi notiqning maslahatlari:

— Hay, mayli, qo'ymadilaring. Avvalo "Hayot" deb atalgan bo'lim uchun bir maslahat: qachonlardir men Moskvadan poyezdda qaytgan edim. Kupeli vagonda o'rin bo'lmay, umumiy vagonda qaytishga to'g'ri keldi.

Dastlab yo'lga chiqqanimda talay odamlar bilan tanishdim. Nukusga yetib kelgunimcha nechtasi tushib, yana nechtasi chiqqanini bilmayman. Har qalay, odamlar ko'p marta almashdi. Men bilan birga chiqqanlardan ayrimlari yana oldinga o'tib ketishdi. Uyga kelib, shular haqida juda ko'p o'yladim. Hayot deganlari ham poyezdga o'xshaydi. Kimning qachon chiqib, kimning qayerda tushib qolayotganini bilavermaysan. Faqat tanish-bilishlaring sen bilan birga poyezdga chiqib, birga tushsa-ku, yaxshi, avvalroq tushib qolsa, yuraging o'rtangudek bo'ladi. Xo'sh, kimning yuragi o'rtanmagan, huvullab qolmagan? Kim aqalli bir bor dard chekmagan?..

Endi "Muhabbat" deb nomlangan bo'lim uchun maslahat. Ovulimizda bir odam o'zining erkaroq bolasini majburan uylab qo'ydi. To'y tarqagach, oradan uch kun o'tib, "Bu arzanda o'g'il bir baloni boshlamadimikin, vaqtida maslahat beraylik", deb besh-olti odam birgalashib bordik. "Xo'sh, inichak, muhabbatning

ta'mi qanday bo'larkan?" deb so'radi oramizdagi sharttakiroq bir odam. "Muhabbat deganlarining turgan-bitgani mazaligini shu paytga qadar menga aytmay, o'zi bilib, o'zi rohatlanib yuravergan otamga qoyil emasman!", dedi yigit. Bu ham o'ylab ko'rishga arziydigan gap!..

Endi "Do'stlik" deb nomlangan bo'lim uchun bir maslahat: Mening Davlatboy degan do'stim bor edi. Otasi boshqa ovulga ishga o'tgani sababli ko'chib ketdi. Ko'zimga olam torayib qolganday bo'ldi. Qaddimni ko'tarolmay qoldim. Boshqa hech kim bilan o'ynagim kelmaydi.

Buni sezgan onam bir kuni:

— Davlatboyning uyiga borib kela qol! — dedi.

— Yo'l uzoq-ku, — dedim.

Onam mening ko'zlarimga tikilib turib:

— Do'st uyiga boradigan yo'l hech qachon uzoq bo'lmaydi, — dedi.

Bu gap menga dalda bo'ldi. Ertasi Davlatboyning ovuliga bordim. Keyin u meni izlab keladigan bo'ldi...

Oltinchi notiqning aytgani:

— Men "Qoraqalpoq qo'shig'i"ni boyitish uchun ko'p ezmalik qilmay, uchala bo'limga bab-baravar taalluqli ikki voqeani aytib bermoqchiman:

Birinchi voqea: Ovulimizda Asan, Do'san degan ikki do'st bor edi. Ularning ayollari ham, bolalari ham qadrdon edi. Bir gal yozda Amudaryoga cho'milishga borgan edim, ular ham kelib qolishdi. Hammamiz bir sidra suvga sho'ng'ib chiqib, qumloq sohilga o'tirdik. Bir payt Do'san Asanning qornida xoli borligini ko'rib, uning bolalariga birma-bir qarab chiqdi-da, zavqlanib xitob qildi:

— Obbo, Asan-ey, qanday baxting bor yigit ekansan-a! Qara, xoling bolalaringga ham aynan ko'chib o'tibdi-ya! — dedi.

— E-ey, Do'san, namuncha hayron bo'lasan! Bunday xol o'z bolalaringning ham qornida bor-ku, — deb yubordi Asanning xotini. Shu payt Do'sanning ayoli nimagadir qip-qizarib ketdi. Asan ayoliga olayib qaradi. Do'san o'z bolasining tanasida ham xuddi o'shanday xoli borligini endigina ko'rib, qoshida quyoshga tob-

lanib o'tirgan ayolining yuziga to'satdan tarsaki tortib yubordi. Ayol ulardan ko'z yoshini yashirish maqsadida ohista borib suvga sho'ng'idi. Allamahalda odamlar uning o'ligini suvdan sudrab chiqdilar. Do'san bu fojiaga chidayolmay, pichog'ini Asanning ko'kragiga sanchdi...

Mana sizlarga hayot! Mana sizlarga do'stlik! Mana sizlarga muhabbat! Buni muallifga eslatish kerak!

Ikkinchi voqea: Teatrda o'rtadagi qatorlardan birida o'tirgan edim. Oldimdagi qatorda yoshgina kelin-kuyovlar o'tirishibdi. Sezishimcha, o'zaro totuv. Dam-badam kulishadi. Agar qarsak chalish kerak bo'lsa, ikkovlon birgalikda qarsak chaladi: yigit bir kaftini tutadi, kelin bir kafti bilan erining kaftiga uradi. Shu orada kelinchak nimagadir erining ko'zini shamg'alat qilib, ortiga qarayveradigan odat chiqardi. Unga sezdirmaygina ortimga qarasam, boshqa bir juft oshiq-ma'shuqlar o'tirishibdi. Endi men uchun qiziq tomosha dam oldimdagi, dam ortimdagi juftlar bo'lib qoldi. Ortimdagilar ham totuvga o'xshaydi. Biroq erkakning olazarak ko'zlari oldimda o'tirgan kelinchakda. Har biri o'z juftiga sezdirmay o'zaro imlashadi. Bir payt ortimda o'tirgan yigit xotiniga boshi og'rib qolganini, tashqarida andak shabadalab kelmoqchiligini aytdi. Oldimda o'tirgan juftdan biri — kelinchak eriga: "Judayam havo isib ketdi-yey. Yuragim siqilib boryapti", dedi. Konsertning qiziq paytida qo'zg'alish eriga yoqmadi, shekilli, kelinchak: "Unday bo'lsa, o'tirib tur, ozgina shabadalab kelmasam bo'lmaydi", dedi-da, o'rnidan turib, eshik tarafga yurdi. Qiziquvchanligim ortib ohista izlaridan ergashdim.

Tashqari nimqorong'i. O'sha ikkovidan boshqa hech kim yo'q. Ular menga parvo ham qilmay, qorong'iroq burchakda quchoqlashib, cho'lp-cho'lp o'pishib turishibdi. Naryog'ini kutmay tezda ortimga qaytdim. Birozdan so'ng ortimdagi yigit qaytib kelib, juftidan uzr so'ragandek qo'lidan bir o'pib, joyiga o'tirdi. Oldimda o'tirgan yigit esa, yon-veridagilarni bezovta qilayotganidan xijolat bo'lib: "Xotinim og'iroyoq edi, tag'in boshi aylanib qayerdadir yiqilib qolgan bo'lmasin", deya o'zicha ming'irlagan ko'yi tashqariga yo'naldi. Mana, sizlarga yana bir umr! Yana bir do'stlik! Yana bir muhabbat!

Sodiq shoirning aytgani:

— Aytilayotgan hangomalarga qaraganda, roman hech nimaga to'lmaydigan sehrli qopga o'xshar ekan. Milliy adabiyotimizga shuhrat keltiruvchi yangi roman bosilib chiqadigan bo'lsa, men ham bunga o'z hissamni qo'shay.

Naql: Berdaq shoir bir guruh shogirdlari bilan allaqanday ovul oralab borayotgan ekan, yo'l chekkasida turgan bir ayolga ko'zi tushib to'xtab qolibdi-yu, unga qarab ta'zim qilibdi.

Chekkaroqqa chiqishgach, bir o'ktam shogirdi:

— Ustoz, siz bizni poklikka undaysiz, do'stlarimizga, jufti halolimizga sadoqatli bo'lishga chaqirasiz. Lekin o'zingiz bu ayolning ovulda ma'lum va mashhur yengiltakligini bila turib, nega unga ta'zim qildingiz? — deb so'rabdi.

— Gap shundaki, — debdi Berdaq, — har gal bu ayolni ko'rganda o'zimning xotinim ko'z oldimda bamisoli farishta bo'lib gavdalanadi. Men o'sha farishtaga ta'zim bajo keltirdim.

Romannavis bu naqldan o'zicha foydalansa yomon bo'lmas, deyman.

Abboz shoirning aytgani:

— Agar xalqimizga foyda keltirsa, uning dong'ini chiqaradigan bo'lsa, shaxsan men har qanday ishga tayyorman. "Qoraqalpoq qo'shig'i"ga kelsak, afsuski, bu asarni yaratgan odam noma'lum ekan. Biroq, har qalay, men ham unga bir juft maslahat aytmoqchiman.

Birinchi maslahat: Bobolarimiz sarsonlik-sargardonliklardan so'ng axiyri azaliy makonlari Xorazm vohasida qo'nim topgach, ko'pchilik tavbasiga tayanib, o'zaro birlashishga yuz buribdi. Rahmatulla ismli bir fahm-farosatli odam bu holdan suyuna-suyuna Xiva xoni huzuriga boribdi. Xon bilan maslahatlashib, o'z yurtiga qozilik farmonini olishga muyassar bo'libdi. To ovuliga yetgunga qadar o'zining qozi bo'lganini hech kimga bildirmabdi. Biroq xon odamlari bu xushxabarni u yetib borgunga dovur qoraqalpoq ovullariga tarqatib ulgurishgan ekan. Bundan bexabar Rahmatulla qozi Amudaryoning narigi sohiliga o'tsa, ovuldoshlari peshvoz chiqib turishganmish. Ahvolni ko'rib, hayron bo'libdi. Ovuldoshlari uning hayron bo'layotganiga parvo qilmay: "Kerak bo'lsa biz

sizga jonimizni ham fido qilamiz!", deyishibdi-da, otdan ko'tarib yerga emas, to'ppa-to'g'ri gilamga tushirishibdi. Ovul ahli avvallari juda tarqoq bo'lgan ekan. Rahmatulla qozi ulardan bunday birlikni, bahamjihatlikni kutmagani uchun o'zicha, qayoqdan oftob chiqdi, deya ajablanib:

— Bu izzat-ikrom mening o'zimgami yo qozi bo'lganimdan xabar topib, laganbardorlikni boshlab yubordingizlarmi? — deb so'rabdi.

— O'zingizga, o'zingizga! — deya chuvullabdi hamma.

— Unday bo'lsa, mening aytganimga yurasizlarmi? — so'rabdi qozi.

— Yuramiz, yuramiz! Sizning buyrug'ingizni bajarmaganning tili kesilsin! — debdi odamlar yana chuvullashib.

— U holda sinab ko'raman, — debdi Rahmatulla qozi.

— Mayli, sinasangiz sinayvering. Sizning buyrug'ingizni bajo keltirishdan bo'yin tovlagan odamning bo'yni uzilgani yaxshi! — deyishibdi ovuldoshlari jo'rovoz bo'lib.

Ertasiga Rahmatulla qozi ovulning qoq o'rtasiga ulkan bir qozon qurdiribdi. Ustiga jips yopiladigan qopqoq ham ishlatibdi. Lekin qopqoqda barmoq sig'adigan teshik qoldiribdi. Odamlarni to'plab:

— Ovuldoshlarim! Sut bu dunyodagi eng halol-pokiza ne'mat. Shuning uchun ham bizda "Onamning suti harom bo'lsin!" degan gap eng og'ir qarg'ish hisoblanadi. Hindistonda azbaroyi oq suti uchun sigirni muqaddas deb biladilar. Keling, biz manovi qozonni sutga to'ldirib, atrofida oppoq, halol sut ichib o'tirib, sutdek oydin, pok niyat bilan o'z ovulimiz-u xalqimizning kelajagi haqida maslahatlashaylik, — debdi. So'ng kichkina bir qovoqchani ko'rsatib: — Qani, har xonadon bir qovoqdan sut olib kelib manovi teshikdan qozonga quysin, — deb buyuibdi.

Hamma xo'p bo'ladi deb tarqalibdi. Birin-birin odamlar qozonga sut olib kelib quyaverishibdi... Eng so'nggi xonadon egasi sut olib kelayotganida Rahmatulla qozi uning yo'lini to'sib, qo'lidagi qovoqni olib ichiga qarasa, ichi to'la.. suvmish! Qozi tezda ovuldoshlarini yig'ib, o'sha odamning qovog'ida nima borligini ularga ko'rsatibdi.

— Xo‘sh, bu noinsof qanday jazoga loyiq? — deb so‘rabdi.

Yig‘ilganlar qattiq g‘azablanib:

— Tili kesilsin! Oyog‘idan dorga osilsin! — deyishibdi.

— Men xom sut emgan bandani kechiringlar! — deya yolvoribdi gunohkor. — Shuncha odam sut olib kelganida bitta mening suv olib kelganim bilinmasa kerak, deb o‘ylagandim.

Atrofni “Ahmoq!”, “Tullak!”, “Aldoqchi!” degan xitoblar tutib ketibdi.

Qozi aldoqchini jazolashdan avval unga:

— Qani, qozonning qopqog‘ini och-chi! — deb buyuribdi.

Aybdor titrab-qaqshab qozonning qopqog‘ini bazo‘r ko‘targan ekan, qarashsa, qozon to‘la... suv emish! Hamma o‘z o‘rnida qoqqan qoziqdek dong qotib qolibdi. Aybdor o‘z quvonchini ichiga sig‘dirolmay, og‘zi qulog‘iga yetgudek bo‘lib qozonga tikilibdi. Shunda Rahmatulla qozi ovuldoshlari uchun nomusga chidayolmay, alam bilan:

— Ovuldoshlarim! — deya xitob qilibdi. — To‘g‘ri, o‘z foydasini ko‘zlamaydigan odam kamdan kam. O‘z foydasini bilmagan odamni ko‘plar tentakka chiqarib qo‘yishadi. Lekin noinsoflikning ham chegarasi bo‘lishi kerak-da!.. Mayli, nachora, endi har kim o‘zidan ko‘rsin: kesiladigan tili-yu osiladigan oyog‘iga ehtiyot bo‘lsin!..

Ikkinchi maslahat: O‘n yashar bola chog‘imda bir kuni tog‘amning uyiga borsam, qozon to‘la palov damlanayotgan ekan. Qornim och edi. Suyuna-suyuna kennoyimga qarashib yubordim. Ovqat dam yeganida er-xotin qo‘shnilar chiqib, qozonni shu turishicha ko‘tarib olib ketishdi. Hayron bo‘lib kennoyimga qaragan edim, kennoyim izoh berdi:

— To‘g‘ri, o‘choq bilan o‘tin bizniki. Lekin qozon bilan masalliq ularniki edi-da!..

Men tishimning kirini so‘rib qolaverdim. “Qoraqalpoq qo‘shig‘i”ning muallifi shu voqeadan ham foydalansa bo‘lardi.

Yettinchi notiqning aytgani:

— Badiiy asarga “o‘lmas obida” degan yorliq yopishtirishda uning qanday yozilgani va kim uchun yozilganidan kelib chiqib hukm o‘qishimiz kerak bo‘ladi. Bunday hukmni odatda davr

chiqaradi, kelajak chiqaradi. Hammamiz uchun shu hol shak-shubhasizki, Gomer, Dante, Lev Tolstoy, Mixail Sholoxovlar o'z zamonasining asosiy xususiyatlarini anglab yetganlar. Shoh asarlari bilan kelgusi avlodga o'zlari mansub zamonni to'g'ri tushunish uchun qudratli qurol yaratib qoldirganlar. Biroq bugun muhokama qilinayotgan "Qoraqalpoq qo'shig'i"da men o'zim kutgan voqealarni uchratmadim.

Ovoz:

— Siz asarni hali o'qib chiqmadingiz, shekilli?!

Javob:

— Xo'sh, oramizda kim "Qoraqalpoq qo'shig'i"ni o'qib gapiryapti o'zi?!.

Ko'cha biyining aytgani:

— Qadim zamonda bir jabrdiyda odamning o'g'li balog'at yoshiga yetganda baxil qo'shnisi uning ustidan: "Bu bolaning qulog'iga azon ayttirilmay ism qo'yilgan" deb qoziga arz qilibdi. Qozi ota-yu o'g'ilni oldiga chaqirtirib, har biriga to'qqiz darradan urishni buyuribdi. Avvaliga otasini uribdilar. U to'qqiz darra urgunlaricha miq etmabdi. Navbat o'g'liga kelibdi. U ham otasining yo'lini tutib, tishini tishiga qo'ygancha jimgina yotaveribdi. Ammo endi ota chidayolmay, o'g'liga darra urilgan sayin yuragini changallab:

— Oh! Oh! — deya ingranaveribdi. Qozi bu ahvoldan ajablanib:

— Hoy, ovsar! Nega sen o'zingni urganlarida indamay chidab berding-u, endi o'g'lingni urayotganlarida muncha oh chekyapsan? — deb so'rabdi.

— Avvalgi to'qqiz darra mening tanamga teggan edi, bolamga urilgan darra jonimga tegyapti-da! — debdi ota.

Qozi befarzand ekan, bu gapni eshitib yig'lab yuboribdi...

"Qoraqalpoq qo'shig'i"ning muallifi oramizda miq etmay o'tirgan bo'lsa, bugungi gaplardan yuragi yorilib ketmasin tag'in. Muallifgayam rahm qilish kerak.

Menimcha, adabiy asar yarim latifa, yarim afsonadan tarkib topadi. Bu asar ham latifa bilan afsonaning yangicha qotishmasi. Bas, shunday ekan, bu roman nashrga tavsiya etilsin!

Ovozlar:

— Allaqanday notayin odamga adabiyotimizdagi dastlabki romanning muallifi, degan atoqni qo'shqo'llab topshirib qo'yaveramizmi endi?!

— Muallif oramizda bo'lsa "Mana men" desin-da! Balki, aft-angoriga qarab qat'iy bir xulosaga kelarmidik?..

Abboz shoirning aytgani:

— Bolalik paytlarimda bir qo'zichog'imiz bo'lardi. Qo'shnimiz bir kunda necha marta uyimizga kirsa, har gal: "Hoy qo'shni, itingga qarasang-chi!" deya baqirib-chaqirib kirib kelardi. Bir kuni otamdan: "Bu kishi itimiz yo'qligini, atigi shu nimjongina qo'zimiz borligini ko'ra-bila turib nega bunaqa deydi?" deb so'raganimda, u kishi: "Ko'kragida iti bor odamga boshqalarning qo'zichog'i ham it bo'lib ko'rinaveradi" deb javob bergan edi. Bu gapni eslab qolganimning boisi shuki, yig'ilishimiz achchiq ichakdek cho'zilib ketyapti-da...

Ovozlar:

— Hali men gapirmadim-ku!

— Menda ham maslahat bor edi-da!

— Men ham gapiray...

Qavs ichiga yozgan izohlarim: ochig'ini aytsam, yozaverib charchadim. Bildirilgan fikr-mulohazalarning ayrimlaridagi favqulodda donolik menga ma'qul. Ammo, afsuski, talay gaplarning bir xilligi, yengil-yelpiligi, chalakam-chattiligidan toqatim toq bo'ldi.

"Chala yongan olovdan qo'rq", derdi onam.

"Totli taom ham, hadeb tanovul qilaversang, axiyri me'dangga tegadi", derdi Ko'cha biyi.

"Dono fikr takrorlansa-ku, mayli-ya, chala fikrning hadeb takrorlanavergani xavfli", derdi bobom.

"Chalasavodlik savodsizlikdan yomonroq", derdi birinchi muallimim.

Nazarimda, hali o'z fikrlarim ham pishib yetilmagan, ko'plariga shubha bilan qarayman. O'zimga o'zim ishonavermayman... Lekin...

Yo adabiyotda dastlabki romanning maydonga kelishi oldidan bunday antiqa tortishuvlarning bo'lishi tabiiy holmi? Ochig'i, ko'nglim xijil, ruhimda allaqanday mahzunlik...

"Yurtiga botir tug'ib beradigan ayolning to'lg'og'i uzoqqa cho'ziladi, bunday to'lg'oq og'ir kechadi", deyishardi qariyalar. Chamasi, biron-bir adabiyotda romanning maydonga kelishi elda botir tug'ilishiga o'xshash bo'lsa kerak.

Chaqaloq yorug' dunyoga kelgan zahoti chirillab yig'laydi. Naql qilishlaricha, bunga sabab tug'ilishidan yashashning qiyinligini hattoki chaqaloqlar ham bilisharmish. Dastlabki romanning muallifi ham o'z farzandining tug'ilishidan yashashi mushkulroqligini yaxshi bilganligi uchun o'zini panaga olib o'tirganmikin?..

Ko'cha biyining aytgani:

— Ilm-fanning aniqlashicha, odam maymundan tarqaganmish. Bir qarashda bu ilmiy xulosani hamma e'tirof etayotgandek, uning to'g'riligiga ishonayotgandek. Ammo zehn solib qarasang, barcha faqatgina o'zini nazardan soqit qilib, boshqalarni nazarda tutib shunday deydi. Hattoki odamzodning bobokaloni maymun ekanligini o'zi tadqiq etayotgan olimga ham: "Hoy, maymundan tarqagan!", desangiz, achchig'i chiqib yoqangizga yopishmasa, mana menga ayting! Bu gapni menga aytsa, men ham, sizga aytsa, siz ham shunday yo'l tutgan bo'larmidik!.. Hay, mayli, kim maymundan tarqagan — bunisini bilolmayman-u, lekin bugungi muhokama hammamizni maymunga yaqinlashtirib qo'ygani aniq.

Sakkizinchi notiqning aytgani:

— Pedinstitutda o'qib yurganimda mantiq darsi o'tilayotgan edi. Domlamiz "Odamning bobokaloni maymun" deganida men "Domlamiz odam", degan edim, gurra kulgi ko'tarildi. Domla menga "a'lo" baho qo'ydi. Biroq o'shandan keyin u anchagacha menga yovqarash qilib yurdi.

Ovozlar:

— Odamzodning turq-u tarovati maymunga o'xshagani uchun shunday deyiladimi yo fe'l-atvori o'xshagani uchunmi?

— Ayrim odamlar ilondan tarqagan, desak adashmaymiz. Oramizda ilonlar ham yo'q emas.

— Ko'rsichqondek duch kelgan narsani iniga tashmalayveradiganlar ham bor oramizda!

Ko'cha biyining aytgani:

— Odamlar orasida fe'l-atvori mushukka o'xshaydiganlar ham bo'ladi. Mushuk issiqqina joy qidirib qo'yningga kirib yotadi. Biroq kutilmaganda tirnab olishi ham mumkin. U ovqat yeyayotganida ko'zlarini yumib oladi. Shuning uchun ovqat berayotganda peshonasiga nuqib turish kerak. Aks holda kim to'ydirayotganini bilmay, avvalo o'zingga chang soladi.

Odamlar orasida fe'l-atvoriga ko'ra itmijozlar ham uchraydi. It ostonangda yotaveradi, uyingni-yu o'zingni balodan asraydi. Qornini to'ydirishni unutsang ham, senga vafodorligini tark etmaydi. It hech qachon egasini qopmaydi.

Har qalay, odam bolasi hayotning turfa jumboqlarigagina emas, o'z fe'l-atvoriga ham teranroq nazar tashlay olganida edi, o'z-o'zidan qattiq uyalgan bo'lardi. Chunki u goho tilda, goho amalda yerda uzala tushib yotganini tan olavermaydi-yu, oqsoqlanib bo'lsa-da, har qalay, yurib ketayotganni masxaralashni yoqtiradi. Boshqacharoq aytganda, ishtoni yo'q tizzasi yirtiqqa kulishni xush ko'radi.

Yig'ilish raisining aytgani:

— Yer kurrasi olti qit'adan tarkib topganidek, inson umri ham muhabbat va do'stlik deb atalmish ikki mintaqadan iborat. Biz muhokama qilgan "Qoraqalpoq qo'shig'i" nomli asar "Hayot", "Muhabbat", "Do'stlik", deb atalmish uch qutbni o'zida birlashtirgan. Avvalo, mana shunisi bilan asar roman janri talablariga javob bera oladi...

Ovozlar:

— Menimcha, muallif shuni unutib qo'yganki, "Qoraqalpoq qo'shig'i" "Kulfat", "Balog'at", "Baxt" degan tag'in uch qutbni birlashtirishi kerak edi.

— "Qoraqalpoq qo'shig'i" bir odamga shaxsiy tomorqa bo'ladigan mavzu emas!

— Bunday osmondan keladigan muallifga "Qoraqalpoq qo'shig'i" degan nomdan voz kecching, deb dangal aytish kerak!

Yig'ilish raisining aytgani:

— Hali muallifi aniqlanmagan qo'lyozma xususidagi o'z fikrlarini ro'y-rost aytgan notiqlarga chin dildan tashakkur!

Yig'ilish qarori:

Agar kimdir "Qoraqalpoq qo'shig'i"ni men yozganman, deb bo'yniga olsa, manovi bayonnomadan ko'chirma berilsin va qo'lyozma muallifning ishtirokida qayta muhokama qilinsin.

Shu qarorga roziman, deganlar qo'l ko'tarsin!

Qaror bir ovozdan qabul qilindi!

Qavs ichiga yozgan izohlarim: Hamma jimgina birin-ketin o'rnidan turdi. So'zga chiqqanlar ko'nglini bo'shatib olganidan mamnun. Kimdir nimadandir afsusda, kimdir nimadandir xafa...

Bobom bir paytlar: "Bolam, tiriklikning sharti — o'zingni buyuklar orasidan axtarish emas, o'zingdan buyuklik axtarish", degan edi. Bugungi majlisda tiriklikning bu ikki turini ham uchratish mumkin edi. O'zaro zid ikki taraf!..

Xo'sh, o'zim qay tarafdaman?

Rostini aytsam, bilmayman.

Bobomning yana bir nasihati hamon esimda: "O'zidan buyuklik axtargan odam uch holda boshqalar oldiga o'tmog'i lozim: zimistonda, notanish ko'prikdan o'tishda, qurolli yovga qarshi yurganda".

Bugungi muhokamadan keyin shunday uzil-kesil xulosaga kelib to'xtadimki, yozuvchining boshqa odamlardan farqi o'zini buyuklar safida ko'rish yoxud o'zidan buyuklik axtarishdan ham avvalroq o'z xalqini buyuklar safida ko'rish va o'z xalqidan buyuklik qidirib topishga jonini fido etishida!..

20

Bobomning nasihatlaridan: Har qanday savolga eng qisqa uch xil javob bor: "Hovva", "Yo'q", "Qaydam".

Men dastlabki ikki javobga o'rganganman. Ammo hayotda omadi chopib yurganlarning aksariyati "Qaydam" deb javob beradiganlar. Ularni jinimdan battar yomon ko'raman. Chunki, mening tushunishimcha, har bir tirik jon yo "Hovva" yo "Yo'q" deyishi kerak. "Qaydam"— g'aflatda yotganlar va nochor-notavonlarning

javobi. "Hovva" va "Yo'q" degan javoblaring uchun og'ir turmush kechirsang ham aslo nolinma. Bu javoblar boshqalar oldida sening yuzingni yorug' qiladi. Har qanday og'ir sharoitda ham odamlar seni to'g'ri tushunishga qodir. Agar bola-chaqalarim shu nasihatlarimga amal qilmasalar, erta bir kun go'rimda tik turishim aniq.

Men har bir ishim, har bir so'zim bilan bobomning ruhini shod qilishga harakat qildim. Darhaqiqat, mujmallik umr yo'li emas, kiroyi umr ham emas!

Bizning milliy adabiyotimiz umumjahon taraqqiyotidan ortda qolib, so'nggi yillardagina rivojlanishning maqbul yo'liga tushib oldi. Ayniqsa, badiiy nasr bu adabiyot maydoniga juda hayallab, taysallab kirib keldi. Jahon adabiyoti yuksakliklariga ko'tarilish maqsadida shoshilinch olg'a intilish asnosida ikki o'rtada yastanib yotgan ulkan jarlikning nurli va soyali tomonlarini biryo'la bosib o'tishga to'g'ri keladi!

Soyali tomon deganda men taqlidni nazarda tutyapman. Nurli tomon esa o'zingdan talaygina olislab ketgan ilg'or adabiyotlarning boy tajribalarini o'rganib-o'zlashtirish, o'z xalqingning taqdirini teranroq mushohada qilish, uning xalq sifatidagi o'ziga xosligini jahon miqyosida anglash, davr va zamon iqlimida tushuna olish imkoniyati.

Taqlid — chinakam adabiyotning soyasi, ya'ni sho'rvasining sho'rvasi. Bu ijoddagi eng oson yo'l. Aftidan, osonni xohlamaydigan odam kam bo'lsa kerak. Men ham, garchi soyada bo'lsa-da, dadilroq qadam tashlash ilinjida avvaliga Vladimir Mayakovskiyga ergashib uning "She'r qanday yoziladi?" ("Kak delat stixi?") maqolasini qoraqalpoqchaga tarjima qila boshlagan edim. Tarjima payti shoir bo'lish orzuyim o'rnini she'r yozishdan butkul voz kechib qo'ya qolganim ma'qulmikin, degan ishtiboh egallab oldi. Biroq hayotdan o'zimga munosib yo'l topish orzuyim yuragimda toshdek qotib qolaverdi. Nazarimda, uni ushatmaguncha jonim to'zim topmaydigandek. Kechalari uxlayolmayman. Tajribali yo o'zim qatori yosh ijodkorlar bilan gaplashganim sayin ular ko'nglidagi ushalishi mushkul orzu toshlari ko'nglim ko'chalariga ortiqcha yuk bo'layotgandek. Bora-bora shoirlik qo'limdan kelmasligiga ishonib qoldim. Lekin... Ba'zi kashandalar chekishning

zararligini bila turib undan voz kecholmaydi-ku. She'r yozish ishtiyoqi men uchun kashandaning xumoriga o'xshab qoldi, shekilli.

Ikki o't orasida ovora-sarsonligim uchun shahardagi ishxonam gunohkordek, uni tashlab, tag'in ovulga qaytdim.

Onam aytgan afsona: Qadim zamonda, har bir el-elat bu dunyoda o'zlaridan boshqa elatlar ham bor-yo'qligini bilish ishtiyoqida poyi piyoda bo'lsa ham safarga chiqishni xush ko'ruvchi davrda ko'p yo'llar kelib tutashgan joyda chor tarafdan yig'ilib, oziq-ovqatlarini o'zaro baham ko'rib, gurunglashib o'tirgan bir guruh odamga allaqanday bir darvish kelib qo'shilibdi. Uning yeb-ichgulik hech narsasi yo'q ekan. Shu bois chekkaroqda o'tira qolibdi. Ovqatlanib bo'lgan odamlar unga bir kishi to'ygulik ovqat qoldirishibdi-da, yo'l taraddudini ko'rishga tushishibdi.

Shunda darvish:

— Meni ham ola ketinglar, — deb yolvoribdi.

Odamlar orasidan kimdir:

— Bizning umum dasturxonimizga qo'shadigan hech vaqoying yo'qqa o'xshaydi-ku, — debdi norozi bo'lib.

Darvish gunohkorona yelka qisib:

— To'g'ri, mening yegulik hech vaqoyim yo'q. Lekin sizlarning uzundan uzoq yo'llaringizni qisqartirish qo'limdan keladi, — debdi.

— Nima, sehrgarmisan? — deb piching qilibdi yana kimdir.

— Yo'q, sehrgarmasman, — debdi darvish. — Ammo men sizlar eshitmagan ko'pdan ko'p hangomalar, afsonalar, dostonlarni bilaman. Oyoqlarim harakatdan, tilim kalimadan qolgunga qadar yoningizda yurib shularni sizlarga aytib berishim mumkin.

Hamma sukut saqlab turganida bir nuroniy chol:

— Bu bizga kerakli odamga o'xshaydi, — debdi.

Ana shundan keyin odamlar o'sha darvishni o'zlariga bir umrlik hamroh qilib olibdilar.

"...Esli-hushli odam, kim menga muhtoj bo'lar ekan, deb qo'l qovushtirib turavermaydi. Kerakli odamga aylanish ishtiyoqi o'zingda bo'lishi kerak", deb nasihat qilardi otam.

Mening ko'nglimda ham ko'pchilik bilmaydigan talay hangomalar, afsonalar, har xil odamlardan eshitganim ibratli naqllar

yig'ilib qolganga o'xshaydi. Ularni yo'l-yo'lakay aytish maqsadida xalqimga ergashish, unga yo'ldosh bo'lish va uni o'zimga yo'ldosh qilishdan yaxshiroq, to'g'riroq yo'l topish mumkinmi sira? Shubhasiz, meni hamma tinglayvermasligi, tinglasayam yoqtiravermasligi, yoqtirsayam keragicha anglab yetavermasligi mumkin. O'zim ham tushunarli va mukammal shaklda o'rinlatib aytolmasligim mumkin. Ko'ngildagi eng muqaddas botiniy tuyg'ularni izhor etishdan mushkulroq ish bo'lmasa kerak.

Balki men o'ylagandek mushkulmasdir? Axir Yer yuzi tep-tekis, silliqqina bo'lmaganidek, dunyodagi hech bir odamning umri silliqqina kechavermaydi. Bir odamning qismatini ikkinchi odam hech qachon takrorlamaydi. Ularning tushunchalari esa, taqdirlariga bog'liq. Bas, shunday ekan, ikkilanish-u hadiksirashlarni qo'yib, tavakkal ham qilish kerak-da!

"Dunyo bir tekis bo'laman deguncha yigitga bir ish bo'ladi", derdi onam.

Tinglovchilarning tushunchalari qachon baravarlasharkan, deb kutib yuravergan odam tildan qolishi mumkin.

Adabiyot xalqning ma'naviy xazinasi, ruhiy ozuqasi. Xalqimga yo'ldosh bo'lish uchun uning umum dasturxoniga qo'shishim lozim bo'lgan yo'l ozig'ining o'rniga, afsonadagi darvishga o'xshab, to ko'zlarim yumilib, tildan qolgunimcha, xalqimning kechmish-kechirmishlarini doston qilib o'ziga aytib berishdek g'oyat mushkul va sharafli vazifani zimmamga olmog'im lozim! Bu fikr xalqim oldidagi muqaddas qasam yanglig' ruhimda betinim aks sado berib turgandek.

"Xalqining oldida muqaddas qasam ichgan va qasamiga sodiq qolgan odamni hech bir kuch, hatto o'lim ham yengolmaydi", deya ko'p takrorlashardi uyimizga kelgan qariyalar.

"Xalqi oldidagi qasamini buzganning ko'zlari ko'r, oyoq-qo'li kishanda bo'ladi. Bunday odamning ko'rgan kuni qiyomat", deya qo'rqitardi Ko'cha biyi.

O'z qasamimga sodiq qolish uchun tag'in shahardagi ishxonamga qaytdim...

Xalq o'zi haqidagi balandparvoz gaplarni, kim o'zarga maqtovlarni, sirti yaltiroq, ichi qaltiroq "asar"larni yoqtiravermaydi.

zararligini bila turib undan voz kecholmaydi-ku. She'r yozish ishtiyoqi men uchun kashandaning xumoriga o'xshab qoldi, shekilli.

Ikki o't orasida ovora-sarsonligim uchun shahardagi ishxonam gunohkordek, uni tashlab, tag'in ovulga qaytdim.

Onam aytgan afsona: Qadim zamonda, har bir el-elat bu dunyoda o'zlaridan boshqa elatlar ham bor-yo'qligini bilish ishtiyoqida poyi piyoda bo'lsa ham safarga chiqishni xush ko'ruvchi davrda ko'p yo'llar kelib tutashgan joyda chor tarafdan yig'ilib, oziq-ovqatlarini o'zaro baham ko'rib, gurunglashib o'tirgan bir guruh odamga allaqanday bir darvish kelib qo'shilibdi. Uning yeb-ichgulik hech narsasi yo'q ekan. Shu bois chekkaroqda o'tira qolibdi. Ovqatlanib bo'lgan odamlar unga bir kishi to'ygulik ovqat qoldirishibdi-da, yo'l taraddudini ko'rishga tushishibdi.

Shunda darvish:

— Meni ham ola ketinglar, — deb yolvoribdi.

Odamlar orasidan kimdir:

— Bizning umum dasturxonimizga qo'shadigan hech vaqoying yo'qqa o'xshaydi-ku, — debdi norozi bo'lib.

Darvish gunohkorona yelka qisib:

— To'g'ri, mening yegulik hech vaqoyim yo'q. Lekin sizlarning uzundan uzoq yo'llaringizni qisqartirish qo'limdan keladi, — debdi.

— Nima, sehrgarmisan? — deb piching qilibdi yana kimdir.

— Yo'q, sehrgarmasman, — debdi darvish. — Ammo men sizlar eshitmagan ko'pdan ko'p hangomalar, afsonalar, dostonlarni bilaman. Oyoqlarim harakatdan, tilim kalimadan qolgunga qadar yoningizda yurib shularni sizlarga aytib berishim mumkin.

Hamma sukut saqlab turganida bir nuroniy chol:

— Bu bizga kerakli odamga o'xshaydi, — debdi.

Ana shundan keyin odamlar o'sha darvishni o'zlariga bir umrlik hamroh qilib olibdilar.

"...Esli-hushli odam, kim menga muhtoj bo'lar ekan, deb qo'l qovushtirib turavermaydi. Kerakli odamga aylanish ishtiyoqi o'zingda bo'lishi kerak", deb nasihat qilardi otam.

Mening ko'nglimda ham ko'pchilik bilmaydigan talay hangomalar, afsonalar, har xil odamlardan eshitganim ibratli naqllar

yig‘ilib qolganga o‘xshaydi. Ularni yo‘l-yo‘lakay aytish maqsadida xalqimga ergashish, unga yo‘ldosh bo‘lish va uni o‘zimga yo‘ldosh qilishdan yaxshiroq, to‘g‘riroq yo‘l topish mumkinmi sira? Shubhasiz, meni hamma tinglayvermasligi, tinglasayam yoqtiravermasligi, yoqtirsayam keragicha anglab yetavermasligi mumkin. O‘zim ham tushunarli va mukammal shaklda o‘rinlatib aytolmasligim mumkin. Ko‘ngildagi eng muqaddas botiniy tuyg‘ularni izhor etishdan mushkulroq ish bo‘lmasa kerak.

Balki men o‘ylagandek mushkulmasdir? Axir Yer yuzi tep-tekis, silliqqina bo‘lmaganidek, dunyodagi hech bir odamning umri silliqqina kechavermaydi. Bir odamning qismatini ikkinchi odam hech qachon takrorlamaydi. Ularning tushunchalari esa, taqdirlariga bog‘liq. Bas, shunday ekan, ikkilanish-u hadiksirashlarni qo‘yib, tavakkal ham qilish kerak-da!

“Dunyo bir tekis bo‘laman deguncha yigitga bir ish bo‘ladi”, derdi onam.

Tinglovchilarning tushunchalari qachon baravarlasharkan, deb kutib yuravergan odam tildan qolishi mumkin.

Adabiyot xalqning ma’naviy xazinasi, ruhiy ozuqasi. Xalqimga yo‘ldosh bo‘lish uchun uning umum dasturxoniga qo‘shishim lozim bo‘lgan yo‘l ozig‘ining o‘rniga, afsonadagi darvishga o‘xshab, to ko‘zlarim yumilib, tildan qolgunimcha, xalqimning kechmish-kechirmishlarini doston qilib o‘ziga aytib berishdek g‘oyat mushkul va sharafli vazifani zimmamga olmog‘im lozim! Bu fikr xalqim oldidagi muqaddas qasam yanglig‘ ruhimda betinim aks sado berib turgandek.

“Xalqining oldida muqaddas qasam ichgan va qasamiga sodiq qolgan odamni hech bir kuch, hatto o‘lim ham yengolmaydi”, deya ko‘p takrorlashardi uyimizga kelgan qariyalar.

“Xalqi oldidagi qasamini buzganning ko‘zlari ko‘r, oyoq-qo‘li kishanda bo‘ladi. Bunday odamning ko‘rgan kuni qiyomat”, deya qo‘rqitardi Ko‘cha biyi.

O‘z qasamimga sodiq qolish uchun tag‘in shahardagi ishxonamga qaytdim...

Xalq o‘zi haqidagi balandparvoz gaplarni, kim o‘zarga maqtovlarni, sirti yaltiroq, ichi qaltiroq “asar”larni yoqtiravermaydi.

Chunki, xalq baayni daryo, ko'lmak emas! Har bir xalqning bugunida uning o'tmishi-yu kelajagi, butun olam tarixi jamuljam, deyish mumkin. O'z xalqimni ana shu olam ichidan qidirib topishim kerak! Qolaversa, xalqimning orasidan o'zimni o'zim qidirib topishim ham kerak!

Bu ish yana ko'pdan ko'p izlanishlar, tayyorgarliklar, o'qish-o'rganishlarni talab qiladi.

Talabalik yillarimda tuzukroq tushunib yetmadim chog'i, deya o'ylab jahon adabiyoti durdonalarini, ayniqsa, rus adabiyotini yana chuqurroq o'qish-o'zlashtirishga kirishdim. Jahon adabiyotini-ku loaqal tasavvurda qayta tiklash mushkulligi barchaga ma'lum. Chunki u bamisoli cheki-chegarasi yo'q ummon; unga bir sho'ng'isang, qayog'idan suzib chiqishni bilmay esankirab qolasan kishi!

"Tavakkalchidan hatto Xudo qo'rqaman degan", derdi bobom. Ochig'i, men ham Xudoni qo'rqitadigan bir ish qilgim kelardi. Bu yo'lda betinim o'qish-o'rganish kundalik mashg'ulotim, hayotimning ma'nosiga aylanib qoldi.

Men ham oz sonli xalqimning ma'naviyat bayrog'i dastasiga kiftimni tutishga qat'iy jazm etdim. Bayron va Pushkinni o'qirkanman, odam bolasining qalbi ummondek teran va mehri osmondek cheksizligiga imon keltirdim. Pushkinning nima uchun "Qo'l bilan tiklab bo'lmas haykal qo'ydim o'zimga", deya xitob qilgani, bu hayqiriqning tub mohiyati xususida xayolga cho'mdim va shunday xulosaga keldimki, bu buyuk Rossiyaning jamiki ezgu niyatli asl farzandlari sha'niga bitilgan faxriya ekan. Balzak meni odamlarning tabiatni teran tadqiq etishga o'rgatdi. Lermontovni takror-takror o'qib, uning hamisha ko'z oldimizda yigirma yetti yashar mangu navqiron yigit bo'lib gavdalanishi sabablarini anglab yetgandek bo'ldim. "Urush va tinchlik" epopeyasi bilan jahon adabiyotini aql bovar qilmas yuksaklikka ko'targan Lev Tolstoyni yana o'qib, daho san'atkorlik qanday bo'lishini yaqqol tasavvur qildim. Bu mutafakkirning nega Shekspir tragediyalariga har xil davrda turlicha baho berganini o'zimcha mushohada qilib, Tolstoy Shekspir ijodiga san'atkor qalbiga xos yuksak mezonlar bilan yondashganini, qolaversa, har qanday mutafakkir ham, av-

valo, tirik jon, xom sut emgan banda ekanligini anglab yetgandek bo'ldim. Sirasini aytganda, har bir inson qalbida ziyo va zulmat, nur va soya o'zaro kurashib yashaydi. Har bir tirik jon bu dunyoni o'zigagina xos taroziga qo'yib o'lchaydi. Ko'p narsa ana o'sha taroziga bog'liq. Ayni paytda har bir odam o'zining qandaydir sa'y-harakatlarida hammaga — menga ham, sizga ham, unga ham o'xshash jihatlarga ega. Fyodor Dostoyevskiyning serbo'yoq tasvirlarida ko'hna Rossiya siynasini qoplab yotgan yara-chaqalarni ko'rgandek bo'ldim. Jek London so'z qudratini inkishof etishimda madad berdi. Chexovning ulkan bir mamlakatini mayda bo'laklarga parchalab, muxtasar hikoyalarga sig'dira olish mahoratidan hayratga tushdim. Buyuk zamondoshim Mixail Sholoxovni o'qish orqali keksa tarixning azaliy karvonini yangi yo'lga burish chog'i rus xalqi qismatida ro'y bergan chigalliklarni yakka shaxslar taqdirida badiiy gavdalantirish san'atini uzoq-uzoq tunlarda "tanamga hazm qildim".

Qozoq yozuvchisi Muxtor Avezovni, o'zbek yozuvchilari Oybek bilan Abdulla Qodiriyni o'qishdan ham cheksiz bahra oldim. Ulardan aynan nimalarni o'rganganimni qo'l bilan ko'rsatgudek lo'nda qilib tushuntirish mushkul, albatta. Biroq shu holga qat'iy amin bo'ldimki, o'zim endi-endi o'qib-o'zlashtirayotgan rus va jahon adabiyotini ular mendan avvalroq o'rganib, har biri o'z yo'lini topib olgan ekan.

Garchi bu izlanishlardan hali ko'nglim to'lmayotgan bo'lsada, har qalay, ko'z oldimda biri ikkinchisiga o'xshamaydigan ko'plab so'qmoqlar paydo bo'ldi. Nazarimda, ularning hammasi ham qat'iy shakllangan, yo'lovchini adashtirmaydigan so'qmoqlar edi.

"Ko'zlagan manzilingga olib boradigan yo'llar ko'p bo'lsa, dam unisiga, dam bunisiga yuguravermay, bittasini uzil-kesil tanlab ol-da, qismatingga shukur qil", deb o'rgatgan edi onam.

"Adabiyotdan o'ziga yo'l axtarish ko'pchilikning qo'lidan kelaveradi, biroq o'zidan adabiyot axtarish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi", deya yana bir karra uqtirgandek bo'ldi allaqanday noma'lum ovoz.

* * *

O‘zingdan adabiyot izlab topish eng mushkul, eng serzahmat yo‘l ekan. Maksim Gorkiy: “Iste’dodning to‘qson to‘qqiz foizi mehnat”, deb bejiz aytmagan ekan. Menda naq do‘zax azobi boshlandi, desam, mubolag‘a bo‘lmas! Shukrkim, shu vaqtga qadar odamlar haqida, o‘z xalqim va boshqa xalqlar haqida eshitganlarim, o‘qiganlarim mushkulimni osonlatuvchi son-sanoqsiz yordam qo‘llari bo‘lib o‘zim tomon cho‘zildi.

“Ming odam bilan yuz tanish bo‘lguncha, bir odamning ismini bil”, deb ko‘p nasihat qilardi bobom. Men tomonga cho‘zilgan behisob qo‘llar orasida shunday qudratli bir qo‘lni ko‘rdimki, ugina meni yuksaklarga ko‘tara oldi. Bu — xalqimning qo‘li edi! Biroq xalqim tarixini hali tuzuk-quruq bilmasligim aniq edi. Endi uni yaxshiroq bilish, yaqindan tanish ishqiga tushdim. Bu ishq menga sahifalari sarg‘aygan, hatto yirtilib-titilgan talay-talay kitoblarni takror-takror o‘qitdi. Ko‘pdan ko‘p obidalarning changini arttirdi. Ko‘plab odamlar bilan uchrashtirdi. Ko‘pgina xarakterlar bilan to‘qnashtirdi. Talay-talay millat-u xalq vakillari bilan yuzlashtirdi. Nimaiki o‘qimay, kim bilan suhbatlashmay, qay xalq vakili bilan osh-qatiq bo‘lmay, ulardan eng avvalo o‘z xalqimning xarakterini, tarixini axtardim. Xalqimni jahondagi boshqa xalqlarga qiyosan izlashlarim va o‘rganishlarim natijasida viqorli tog‘ yonbag‘rida yo‘l topmay, yalangto‘sh yugurgilab yurgan bir to‘p talabgor fidoyilar ko‘z oldimda namoyon bo‘ldi. Ular andak qo‘nim topib, yangi boshpana tikladim deganida beshafqat tog‘ cho‘qqilaridan olamni larzaga solib pastga quyilgan ko‘chkilar tufayli bu boshpanalarning necha-nechasidan judo bo‘lganini ko‘rdim. “Yordam bering! Yordam bering!” degan iltijoli chinqiriqlar, garchi suv ostidagi tovushdek noaniq gumbirlab, o‘z zamonasida hech kimga eshitilmagan bo‘lsa-da, yigirmanchi asrning yuksak cho‘qqisida qad tiklagan mening qulog‘im ostida betinim aks sado berib turgandek...

O‘tmish qa’ridan eshitilgan minglab hasratli nidolar orasida: “Men qoraqalpoqman, men ozman, menga madad bering!” degan zorlanish-u iltijolar nisbatan qattiqroq eshitilib, bugunim uchun, bugungi baxtim uchun bu odamga, kelgusi nasllarga “Men

qoraqalpoqman!" deya faxrlanib jar solgim keladi. Albatta, hamma xalqlarning o'tmishda ham hasrat nidolari oz bo'lmagan. Ammo men o'z xalqimning tarixiy taqdirida sog'lar orasidagi bemorning, kattalar orasida yashagan bolakayning, mazlum Sharq ayollarining ayanchli qismatini ko'rgandek bo'ldim.

Yer-u ko'kni zir titratib hayqirishni istardim. Attang, birgina odamning ovozi butun bir xalqning ovoziga aylanishi mushkul. Bunga-ku, fahmim yetadi. Lekin, baribir, tavakkal qilgim keldi. Modomiki jamiyat o'zimga o'xshash oddiy odamlarning manfaatlarini himoya qilar ekan, u har xil shovqin-suronlar orasidan xalqning oh-u zorini, orzu-armonlarini ajratib olish, unga yordam qo'lini cho'zishga qodir deb o'yladim. Bu haqiqat meni ruhlantirdi. Shunday qilib, asriy metin qatlamlar ostidan zor-nochor nido qilgan chinakam jafokash mening xalqim ekanligini badiiy so'z vositasida kelgusi nasllarga hikoya qilish yo'lida aql-u shuurimni, butun umrimni bag'ishlaganim bo'lsin, deb uzil-kesil ahd-u paymon qildim... Lekin:

Kim ummonlar ostidan noyob gavhar topib, uni o'z uyiga olib kelishni istamaydi?

Kim jamiki yerosti xazinalariga o'z uyidan to'ppa-to'g'ri yo'l ochishni istamaydi?

Kim o'z xalqining taqdiri haqida olamga jar solgisi kelmaydi???

...Uzoq-uzoq xayolga cho'mdim.

Nima bo'lsa bo'lsin, bir roman boshlashim kerak, degan jur'at tug'ildi ko'nglimda. Tug'ilishga tug'ildi-yu... romanchilikning buyuk otaxoni Lev Tolstoy so'zlari bilan aytganda, "...Ekin maydonini qondirib sug'organday, dastlabki tayyorgarlik ishlari men uchun qanchalik og'ir kechayotganini ehtimol siz tasavvur qilolmassiz. O'ylab olish, qayta boshdan o'ylash... millionlab ehtimollarni puxta o'ylab ko'rib, milliondan birini tanlash — aql bovar qilmas darajada mushkul ish..." edi.

Yana ikkilanib qoldim.

"Huquqshunos ota" aytgan afsona: Erta bahorda do'l aralash yomg'ir chelaklab quyib turganida uy to'la odam eshikni ochib qo'yib, bir donishmandning hangomalarini tinglab o'tirgan ekan.

Donishmand yomg'ir ostida ingichka oyoqlari bot-bot toyg'anib bazo'r kelayotgan bolakayni ko'rib qolibdi-da, uning oldiga yugurib chiqib, uyga olib kiribdi. Sovqotganidan tishlari takillab, titrab-qaltirab turgan bolakayni apil-tapil yechintiribdi. Kiyimlarini o'tga toblab quritibdi. Yomg'ir tinguncha quritgan kiyimlarni egasiga qaytarib, ketishga ruxsat beribdi.

— Ota, sizni Xudo quritsin, — debdi bola eshikdan chiqar ekan.

Donishmand bolakayning boshini silab, erkalabdi. "Ko'p yasha, o'g'lim, aytganing kelsin", deb duo qilib qolibdi.

Uyda o'tirganlar ajablanib:

— Iye, oqsoqol, bola rahmat aytish o'rniga "Sizni Xudo quritsin", dedi-ku. Bu qarg'ish emasmi? — deb so'rashibdi.

— Yo'q, qarg'ish emas, — debdi o'shanda donishmand. — Bu bola "Yana ko'p yashang!" deb chin dildan tiladi. Aytuvchi nodon bo'lsa bo'lsin, lekin tinglovchi dono bo'lishi kerak.

"...Albatta, tinglovchiga ishonib ko'nglingni ochganing yaxshi, lekin tinglovchilarning o'zingdan aqlliroq ekanini unutib qo'yma", derdi onam.

Bobom har gal menga: "Bolam, ko'rgan-bilganlaringni aytmoqchi bo'lsang, avvalo, tinglovchining yuragiga qo'l solib ko'r. U yerda gapingga joy bo'lmasa, tinglamay yuragingni qon qiladi", deb uqtirardi.

"Tinglovchi dono bo'lsayam uning vaqtini avayla", derdi otam.

"Yozuvchi bo'lish uchun yozuv stoli oldida soatlab o'tirishga chidam-toqat oz, o'y-fikrlarning chidamliligi, pishiq-puxtaligi va obrazliligi kerak!" derdi adabiyot muallimi.

Bu fikrlarni eslab yana xayolga toldim.

"Bir kunlik yo'lga chiqsang ham, bir haftalik yemishing bo'lsin", derdi qariyalar.

Agar men "adabiyot" deb atalgan yo'lga chiqar bo'lsam, "yo'l ozig'im" mo'l-ko'lmi?

Oldimda uzundan uzoq yo'l yastanib yotgan ekan, yo'ldoshlarimni zeriktirmaydigan maroqli hangomalarim yetarlimi? Nimaga, qay bir afsonaga tayanib gap boshlayman? O'tmishni zamondoshlarim xush ko'rarmikin?

Xush ko'rmaganlarni qanoatlantira olarmikinman?

Ko'cha biyining aytgani: Bir kuni ovulimizga shahardan lektor keldi. Undan: "Boshqa sayyoralarda ham tirik mavjudotlar bormikin? Bor bo'lsa, rivojlanish darajasi qanday?" deb so'radik. "Bizdan boshqa tirik mavjudotlar bo'lishi ehtimoldan xoli emas, — dedi lektor. — Buning isboti uchun qoraqalpoqlar orasida keng tarqalgan "Iso payg'ambar afsonasi"ni keltirish mumkin. Afsonada aytilshnicha, Iso payg'ambar musulmonlarning orasiga uchib tushib, ularning o'z dinidan qaytmasligiga aqli yetgach, tezda ikki yelkasi-yu peshonasini barmoqlari bilan bosib-bosib, birdan osmonga uchib ketganmish. Menimcha, u Iso payg'ambar emas, yerga boshqa sayyoradan kelgan odam bo'lsa kerak. U yashagan sayyorada taraqqiyot bizdagidan yuqoriroq bo'lgan. Yerdagi odamlarga imlab nimalarnidir tushuntirishga urinib ko'rgan. Tushunishavermagach, bular yovvoyi ekan, deb o'ylagan-u, ikki yelkasi va peshonasidagi tugmachalarni bosib-bosib, o'z sayyorasiga qayta uchib ketgan..." Lektorning bu xulosasini eshitganlar: "Yolg'on!", "Uydirma!" deb chuvullashdi. Jim qolganlar ham bo'ldi, albatta. Har qanday afsonada odam ishongulik hayotiy asos bo'ladi.

Qariyalar gurungidan:

— Gapga chechanlikning birlamchi sharti yolg'onni ham kishi ishonadiganday qilib aytish.

— Yolg'onchining rost so'ziga ham hech kim ishonmaydi.

— O'ylamay so'zlagan og'rimay o'ladi.

— To'g'ri, til suyaksiz, lekin tilingdan surilsang boshing balo-ga qoladi, yotar yering qorong'i bo'ladi...

* * *

Yana bir necha oy kalavamning uchini topolmay bosh qashib yurdim.

Xayolimga o'rnashib olgan har xil afsonalar, rivoyatlar, hayotiy hangomalar, qiziq-qiziq voqealar ko'nglimni bezovta qilib tashqariga yo'l qidirayotgandek. Ilojini topsang-u, ko'nglingdan kechayotgan o'y-tuyg'ularni bir ipga marjondek tizib ko'rsatsang...

Yana ikki o‘t orasida qovrilib yurganimda, Ivan Sergeyevich Turgenevning “Otalar va bolalar haqida”gi ocherkida shunday fikrni o‘qib qoldim: “...Adabiyot veteranlari urush veteranlariga o‘xshaydi: qariyb barchasi mayib-majruh. Ular orasida vaqtida iste’foga chiqqanlargina omadli”.

“Adabiyotda mayib-majruhlik darajasiga yetib borishim shartmikin?” deb so‘rayman o‘zimdan.

“Yetti kunini oldindan o‘ylab olmagan ayoldan ehtiyot bo‘lish kerak”, deb ko‘p uqtirardi onam.

“Yetti yilini oldindan o‘ylab olmagan erkakdan ehtiyot bo‘lish kerak”, deb tez-tez nasihat qilardi otam.

Men necha kunimni, necha yilimni oldindan o‘ylab yashayapman?.. O‘ylab o‘yimning tagiga yetolmay, boshi-oxiri yo‘q xayollarimga o‘ralashib yiqildim — institutga kirgan yilim orttirgan kasalim tag‘in qo‘zib qoldi...

Shifokorning dorisi: Andak o‘zimga kelgach, shifokor yonimga o‘tirib, hol-ahvol so‘rab, ko‘nglimning ko‘chalaridan xabar topgach, tumbochka ustida yotgan daftarimning ochiq sahifasiga analgin tabletkasini qo‘ydi. Antiqa ruchkasi bilan tevaragini chizib chiqdi. Keyin menga yanada antiqaroq gap qildi:

— Manovi aylanani kattalashtirib yo kichraytirib bera olasanmi? Shart shuki, o‘ziga qalam urmaysan.

Bu qanaqa topishmoq bo‘ldi? Yostiqqa ko‘ksimni bosib andak o‘ylandim. Ruchka tekkizmay kattalashtirish ham, kichraytirish ham mumkin emas shekilli? Vrach meni ko‘p urintirgisi kelmadimi, penitsillindan bo‘shagan shishani oldi-yu, qog‘ozning ustida ushlab turib uning ham aylanasini chizdi.

— Xo‘sh, ayt-chi, qay biri kichikroq, — deb so‘radi miyig‘ida kulib.

— Avvalgisi, — dedim.

Endi u qog‘ozga darmon doridan bir donasini qo‘yib, uning ham aylanasini chizdi.

— Bu aylana avvalgisidan ham kichikroq, — dedim uning savolini kutmay.

— Mana shuni unutmaslik kerak edi-da, — dedi shifokor yana miyig‘ida kulib.

— Ha, endi, bu Eynshteynning nisbiylik nazariyasi-da! — dedim men hafsalam pir bo'lib.

— Xo'sh, nima qipti? Men ko'rsatmaguncha fahming yetmadi-ku. Fahming yetganida, hayotni durustroq tushunarding. Axir, hayotdagi kasb-korlar ham xuddi shu aylanalardek gap! Kattani katta deyish uchun yonida kichkinasi bo'lishi, aksincha, kichkinani kichkina deyish uchun yonida kattasi bo'lishi shart. Agar dunyoda nodonlar bo'lmaganida, donolarning qandayligini, donolar bo'lmaganida, nodonlarning qandayligini hech kim bilmasdi. Yozuvchi bo'lishni astoydil niyat qilgan bo'lsang, tavakkal deb qo'lingdan kelganicha yozaverishing kerak. Ana shunda loaqal boshqa birovning sendan zo'rroq yozuvchi ekaniga odamlarning ishonch hosil qilishlari uchun sababchi bo'larding. Balki o'zingdan ham uquvsizroq yozuvchilar borligiga ishontirarmiding...

Shifokorning mana shunday "dori"sidan so'ng o'zim yotgan to'shak bamisoli adabiyot osmoniga olib chiqadigan sarmaydonchaga, betizgin uylarim — olovga, orzularim — qanotga aylanib qolgandek tuyuldi.

Mayli, afsonalar, rivoyatlar, naqllarni hozircha qo'yib turayda, avvaliga o'zim tanigan-bilgan odamlar, qo'ni-qo'shnilarim, tengdoshlarim haqida bir narsa yozib ko'ray-chi, deya astoydil yeng shimardim.

Shunday qilib, urush vaqtidagi ovul bolalarining hayotidan olib yozilgan "Kotib" nomli ilk qissam yuzaga keldi.

Yozuvchi uchun har bir yangi asar faxrlanishga emas, ko'proq qo'rqishga asos bo'ladi.

Ilk qissam kitob holida nashr etilganidan so'ng, holi ne kechdi, uni kimlar sotib olib, kim qanday gap qilyapti — o'z ko'zim bilan ko'rib, o'z qulog'im bilan eshitay, degan niyatda kitob do'koniga bordim.

Qarasam, kitobchamni Navoiy, Jomiy, Maxtumquli, Abay, Berdaq, Lev Tolstoy, Dostoyevskiy, Gogol, Chexov, Mopassan, Sholoxov, Xeminguey kitoblari bilan yonma-yon terib qo'yishibdi. To'g'ri, avvaliga bu manzaradan ko'nglim tog'day yuksalib, ich-ichdan g'ururlanib qo'ydim. Lekin, ko'p o'tmay, boshimdan muzdek suv quyilgandek bo'ldi. Eynshteyn nazariya-

si bilan aytganda, shu qadar ulkan "aylana"lar orasida ko'zga ko'rinar-ko'rinmas nuqtadek, uni ham o'zimdan boshqa odam ko'rmasdek bo'lib, mening kitobcham harakatsiz yotibdi! Sotuvchidan kitobimning ahvolini so'rab-surishtirish, o'zimning yozuvchi ekanligimni ma'lum qilishga yuragim dov bermadi, Go'yo Shekspir, Lev Tolstoy, Balzak, Dostoyevskiy, Dikkens, Gogol, London, Chexov, Mopassan, Sholoxov, Xeminguey — hammalari jo'rovoz bo'lib: "Sen ham yozuvchiman deb keldingmi? Manavi matohingni yonimizdan yo'qot!" deb xitob qilayotgandek. Sotuvchining oldida kechirilmas gunoh qilgan odamday, do'kondan tashqariga qochib chiqdim. Tashqarida ham ortimdan: "Manavi matohingni yonimizdan yo'qot!" degan xitob paydar-pay eshitilib, qulog'im qomatga kelgudek bo'ldi. Quloqlarim ostida allaqanday shovqin...

Uyga kelib ham halovatim bo'lmadi. O'tirib-o'tirolmayman, turib-turolmayman. Butun vujudimda bezovtalik. Bu tuyg'udan qanday xalos bo'lish mumkin?!

Ko'cha biyining aytgani: "Jahondagi boshqa xalqlar kabi qoraqalpoqlar ham bir paytlar mustaqil xonlik tuzgan ekan. Oradan biroz vaqt o'tib, xon o'zicha o'ylay-o'ylay: "To'rt-besh odamning so'ziga ishonib yurt boshqarguncha el oralab ko'ray", deya ahd qilibdi. Xonlik libosi o'rniga darvish jandasini kiyib, tun chog'i saroydan chiqib ketibdi. Qal'a chekkasida qad ko'targan bahaybat va metindek mustahkam binoning eshigi oldida nayzalariga tayanib turgan uch navkarning qoshiga yaqinroq borib:

— Manavi qanaqa bino? Sizlar nima qilib turibsizlar? — deb so'rabdi.

— Iye, shu binoni bilmasang, osmondan tushganmisan, nima balo? — ajablanishibdi navkarlar.

— Begona yurtlardan kelgan darvishman, — debdi xon.

— Esing borida bu yerdan tuyog'ingni shiqillat! Manavi ortimizdagi metin qo'rg'onda xonimizga qarshi so'z aytganlar qamalib yotibdi. Sen bilan alahsib turganimizda ular qochib ketishi mumkin, — deb navkarlar "darvish"ning ko'kragidan nayza bilan itarishibdi.

Darvish jimgina o‘z yo‘lida davom etibdi, Bir ovuldan o‘tib borayotgan ekan, qarasa, ikki otliq arqonga qo‘ydek ko‘kanlangan bir guruh odamlarning boshi-yu ko‘zi demay qamchilayotganmish.

— Bu bechoralarning yozug‘i nima? — deb so‘rabdi “darvish” otliqlardan.

— Oyoq ostida o‘ralashmay, nariroq tur, nariroq! — dag‘daga qilibdi otliqlardan biri unga qamchi o‘qtalib. — Xo‘sh, sen o‘zing xon solig‘ini to‘laganmisan yo seni ham manavilarning yoniga tirkaylikmi?

“Darvish” gap nimadaligini tushunib, yana jimgina o‘z yo‘lida davom etibdi. Tag‘in bir ovulga kelganida bir guruh bolakaylarning g‘ovur-g‘uvur qilishib: “Endi xon o‘yinini o‘ynaylik!” deyishayotgani qulog‘iga chalinibdi-da, to‘xtab qolibdi. Shu orada bir bolakay qora qarg‘aning dumini manglayiga ukpardek qadab: “Men xonman!” deb baqiribdi. Boshqalari yugurgilab kelib, uning oldida ikki bukilib: “Qulluq, xonimiz!”, “Qulluq, xonimiz!” deya ta’zim bajo keltirishaveribdi. “Xon” iflos oyog‘i bilan ularning boshlariga birma-bir turtib chiqibdi-da: “Charchadim!” deb zorlanibdi. Bolalar ildamlik bilan bir-birlariga yelka suyab turgan ekan, “xon” ularning ustiga chiqar-chiqmas: “Jallod!” deb baqiribdi. Chetda turgan ikki bolakay “xon”ni o‘z kiftida ko‘tarib turgan bolakaylarni chiviq bilan ura boshlabdi. Bolakaylar “xon”ni yiqitib qo‘ymaslik uchun yelkalarini qimirlatmaslikka tirishib, nari-beri yo‘rtishga tushibdilar. Kutilmaganda “xon”ning ostidagi bolalardan biri surinib ketib, “xon” bir tomonga og‘a boshlabdi. Endi oyog‘i yerga tegay deganda “jallod”lardan biri qoqilib yiqilgancha, hali o‘rnidan turolmayotgan bolakayni qurshab: “Xon hazratlarini yiqitganning jazosi shu!” deya dam savalab, dam tepkilab “o‘ldiribdi”.

Darvish kiyimidagi rostakam xon bu manzarani tomosha qilishga ortiq chidab turolmay, saroyga qaytib, fuqarolarini to‘plabdi-da:

— Odam bolasining aqli yangi bir tuzumni o‘ylab topib, unda xalqimiz hech kimdan ko‘rqmay, bahamjihat, baxt-saodatda yashaydigan vaqt kelmaguncha, qoraqalpoq xonligi tarqatilsin! — deb farmon chiqaribdi...

Qariyalar aytgan afsonalardan: "Qoraqalpoq xalqi yovuz bosqinchiliklar tufayli o'z makonidan ayrilib, ellardan ellarga sarson-sargardon yura-yura axiri shavkatli Kiyev Rusining qo'l ostida qo'nim topibdi. Ixtiyoriga allaqanday bir elat kelib qo'shilganidan xabar topgan shavkatli Kiyev knyazi bu xalqning nima bilan shug'ullanishini, Kiyev bozoridan nimalarni sotib olib, nimalarni sotishini aniqlash uchun ayg'oqchi yuboribdi. Ayg'oqchi bir necha kun qoraqalpoqlar orasida bo'lib, ularning dehqonchilig-u chorvachilik bilan mashg'ulligini, bozorga don-dun, sut-qatiq olib chiqib, evaziga arzon-garov kiyim-kechak, bolalari uchun beshig-u tuvak sotib olayotganligini kelib aytibdi.

Bu vaqtda Kiyev Rusida temirdan har xil qurol-aslahalar, sovutlar yasash avj olgan bo'lib, qo'shni knyazliklarga qarashli savdogarlar ma'dandan ishlangan qurol-aslahalar va har xil sovutlarni sotib olish uchun tez-tez kelib turisharkan.

Shavkatli Kiyev knyazi o'ylanib o'tirib:

— Temir sovutlar bilan savdo qilmayotganiga qaraganda, qoraqalpoqlar o'ta tinchliksevar xalqqa o'xshaydi. Ularga mustahkam boshpana berganimiz bo'lsin! — debdi.

Yana: Bobolarimiz yana bir makonidan ayrilib, afsonaviy Maman biy boshchiligida qadimiy makonlari — Amudaryoning quyi sohillari, Orolning janubiy qirg'og'i, bino bo'lgandan beri suv ko'rmagan Ustyurt hamda mushuk oyog'i botmas changalzor, to'rang'ilzor, qamishzorlar orasida o'rnashayotgani haqidagi xabar bu atroflarning hukmdori Xorazm xoniga yetib boribdi. Xon, bu xalq nafas rostlayotgan bosqinchilar bo'lib chiqmasin tag'in, degan xayolni ko'nglidan kechirib, ularga o'z ayg'oqchilarini yuboribdi.

Ayg'oqchi ular orasida talay kun yashab, xonga:

— Qoraqalpoqlar kecha-yu kunduz tinim bilmay qo'lda yer ag'daradi, baliq ovlaydi. Tomog'idan ortib qolgan ozgina don-u baliqni Xiva bozoriga olib kelib, paxta bilan kandir ipga ayirboshlaydi. Qaytishida bola-chaqasini sho'rvaga bir to'ydirish uchun lahm go'sht emas, arzon-garovga ichak-qorin sotib oladi, — debdi.

Xorazm xoni bu xabardan juda mamnun bo'lib:

— Itni quvaversang qopag'on bo'ladi, bolani azoblayversang qonxo'r bo'ladi deganlaridek, makondan makonga ko'p quvilgan bu xalqning bolalari o'zgargan chiqar, qonxo'r bo'lgan chiqar, ota makoniga o'rnashib bo'lgach, bizga hujum qilar, deb xavotirlangan edim. Xayriyatki, bunday emas ekan. O'sha-o'sha mo'min-qobilligicha, mehnatkashligicha qolibdi. Asrlar osha foydalanilmay ishdan chiqib qolgan bo'z yerni o'zlashtirishlariga yordam beraylik, qo'shni Buxoro, Astraxan xalqlariga, turkmanlarga maktub yozaman. Ular ham yordam qo'lini cho'zsin! — deb, o'sha zahoti devonbegisini huzuriga chaqirtiribdi. Barcha qo'shnilari nomiga maktub yozdirib, choparlar yuboribdi...

Xullas, bu jahon ayvonida xalqingning ko'rmagani kam qolgan bo'lsa, buyog'i jahon adabiyoti durdonalari ro'parangda ko'zguday yarqirab tursa, sening shu bir mittigina kitobchang e'tiborsiz yotganiga sotuvchi aybdormi, o'quvchimi, o'zingmi, azizim Qaipbergenov? Astoydil ixlos bilan ishlash kerak! Shuhrattalab bo'lma! Toki sog' ekansan, yozib qolsang-chi, yozsang-chi!

"Odam bolasi bemalol chopqillab ketishi uchun avvaliga emaklaydi, keyin tetapoya turadi, so'ng nimagadir tayangan holda oyoqlarini ko'tarib bosishni o'rganadi", derdi onam.

"Polvonlar polvon atalgunlaricha, kurashlarda talay marta yiqiladilar", derdi bobom.

"Xato qilganingga o'kinma, xatoyingni tuzatolmaganingga o'kin, degan gap bor, bolam! — derdi onam. — Yozuvchi bo'laman dedingmi, niyatingga yet! Maqsadga erishish uchun o'limdan ham qo'rqmaslik kerak! Yoz, suyukli nuridiydam!"

"Donishmandlar adasha-adasha dono bo'larmish", derdi Ko'cha biyi.

...Odam bu dunyoning jamiki savollariga javob bera oladigan donishmand bo'lganida ham, baribir unga mudom nimadir yetishmayotganday, yana allanarsani qo'msaydi, mushtoqlik bilan kutaveradi.

Goho nima uchun yashayotganini bilolmay boshi qotadi. Goho esa ko'nglidagi bunday bezovtalikni kutilmagan birgina ish, birgina gap tumandek tarqatib, charchab turganingda charchog'ing,

xafa bo'lib o'tirganingda xafagarchiliging unutiladi. Ko'ngling ko'tarilib, qarshingdagi minglab umr so'qmoqlaridan biriga "tavakkal" deb dadil qadam qo'yasan. Ana shunda minglab rishtalari chatishib-chirmashib ketgan fikr-tuyg'ularga boy bu ko'ngil qattiq dovul haydagan qora bulutlar ostidan chaqnab-charaqlab chiqib kelayotgan yulduzli osmonga o'xshaydi.

Ko'pdan ko'p izlanishlar-u iztiroblar nihoyasida mening ko'nglimda ham shunday bir holat paydo bo'ldi-yu, hayotning "adabiyot" deb atalmish, borsa kelmasdek mushkul, xatarli yo'liga dadil qadam qo'ydim. Ne baxtki, hali-hanuz shu yo'ldaman...

XOTIMA O'RNIDA O'ZIMDAN O'ZIM OLGAN INTERVYU

Savol: Agar menga o'z hayotimni qaytadan boshlash imkoniyati berilsa, nima qilardim?

Javob: Ba'zi birovlarning bunday savollarga: "Hozirgacha qanday yashagan bo'lsam, xuddi shunday yashardim" qabilidagi javoblarini goho matbuotdan o'qib qolaman. Ehtimol ular o'zlari aytayotgan gapning to'g'riligiga astoydil ishongani uchun shunday deyishar. Men boshqacharoq fikrdaman.

Bobom: "Endi bola bo'lib qolsam, juda aqlli, shum bola bo'lardim-da", degan gapni ko'p takrorlardi. Men bu gapning to'g'riligiga ishonardim. Chunki har kuni kechagi xatolarim uchun o'kinib, ko'p hollarda tushgacha qilgan ishimni tushdan keyin buzishdan qaytmasdim. Hozir ham o'sha odatim odat. Goho o'ylab-o'ylab, bugunga qadar yaratgan asarlarimdagi kamchiliklarni qayta ishlagim kelaveradi.

Savol: Har xil afsonalar, hangomalar, hikmatlar, hatto ayrim tarjimayi hollardan iborat bu kitobning janri nima uchun roman-esse deb ko'rsatildi?

Javob: Oydo's bobo haqida shunday naql bor: Oydo's bobo bir inisini uylantirganida, to'yga kelgan urug'doshlarini astoydil xursand qilish maqsadida qaytishida ularning har biriga bitta-bittadan qo'y beribdi-yu, biroq qo'ylarga boshbog' bog'lashni unutibdi.

Shunda qo‘y olganlar norozi bo‘lib, “To‘y bergan zang‘ar, qo‘y bergan zang‘ar, qo‘y yetaklash uchun bir quloch ipni ayagani nimasi?” deya po‘ng‘illashib, Oydo‘s boboga ko‘p malomat toshlarini otgan ekan...

Kitobning janri qo‘yning boshbog‘idek narsa. Men ham Oydo‘s boboga o‘xshab qo‘y haqida, ya’ni, kitobning o‘zi haqida qayg‘urdim. Faqat xotimadagina, Oydo‘s boboga otilgan malomat toshlari menga ham qaratilmasin, deb “qo‘yim”ga boshbog‘ taqib qo‘ya qolishni ma’qul ko‘rdim. Ya’ni, kitobni yetaklaydigan janrni “roman-esse”, deb belgiladim. Bu “boshbog‘” ehtimol kimgadir uzun, kimgadir qisqa, yana kimlargadir erish tuyular. Lekin men uchun muhimi qo‘y berish. Ya’ni, shu kitob bilan o‘quvchimni qo‘lga olsa olgulik bir nimaga ega qilish. Kimning qanday tushunib, qaysi janrga og‘dirishi uning o‘z ixtiyorida, uning adabiy tushunchalariga bog‘liq.

Savol: Bu kitob memuar-essega yaqinroq turadi. Demak, uni roman deyish to‘g‘ri bo‘larmikin?

Javob: Adabiyot nazariyasi qoidalariga har bir yozuvchining o‘z qo‘shimchasi bo‘ladi. Masalan, kim bilan gaplashmang, u o‘zining taqdiri xususida gapirgudek bo‘lsa, “Mening taqdirim butun boshli roman” deya izohlaydi. Yoxud “Menda roman ko‘p!” deydi. Sevaishganlar o‘z muhabbatlarini “Mening romanim” deya ta’riflaydilar. Xullas, roman g‘oyat ko‘p unsurlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Buyuk gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadze romanni bugungi kundagi changyutgichga qiyoslaydi. Nazarimda bu bilan yozuvchi changyutgichning o‘ziga nimalarni tortayotganinigina emas, uning tozalash fazilatini ham nazarda tutgan bo‘lsa kerak.

Roman, mening tushunishimcha, inson hayotining muayyan bir davri — bir formatsiyasi. Roman — inson ruhiyatining o‘ziga xos inqilobi va tadrijiy takomili. Roman — boshqa birovning umrini ko‘z oldingga yaqin keltirib tasvirlash orqali o‘z umringni qayta nazardan o‘tkazishga undaydigan sehrli ekran. Tom ma’nodagi yangi roman — yangi sayyora. Undan kutilmagan unsurlar, favqulodda mo‘jizalar topilishi shart. Aks holda yangi sayyoraning qizig‘i yo‘q!

Romanning yana bir o'ziga xosligi — kichik bir nom orqali butun dunyoning qiyofasini, bir inson taqdiri orqali butun boshli xalqning, birgina xalq taqdiri orqali butun bashariyatning taqdirini ko'rsatishga qodirligi. U badiiy so'zdan yaralgan tilsimlarga boy ko'zgu.

Roman — miniaturadagi olam!

Savol: O'zimdan o'zim intervyu olish orqali o'quvchilarimga nima demoqchiman?

Javob: Har bir yozuvchi o'zi yaratgan kitobning dastlabki o'quvchisi hamdir. Binobarin, o'quvchilarimga qanday tilak bildirmayin, uning bir jihati o'zimga ham tegishli...

Avvalo shu "Qoraqalpoqnoma" barcha asarlarimning asospoydevori ekanligini ro'y-rost tan olib, hayajonlar-u g'alayonlarga to'la ko'nglimga aqalli bir qur tasalli-taskin berishga urinib ko'rmoqchiman. Shunday deyman-u, lekin ruhimda ko'pdan ko'p o'kinch-armon tugunlari hali ham qatlanib yotganini ayon sezib turibman. Odatda har kim har xil narsaga o'kinadi. Mening o'kinch-armonlarim o'z ishlarimdan hamisha qanoatlanmaydigan o'jar fe'limning har doimgidek bir ko'rinishi bo'lishi ham ehtimoldan holi emas.

Hayotda har bir inson uchun salmog'i bab-baravar ikki xil dahshatli o'kinch-armon, afsus-nadomat bor: birinchisi — muhabbatga xiyonat, ikkinchisi — do'stga sotqinlik. Qoraqalpoqlar har qancha g'azab otiga minmasinlar, hattoki xundor odamiga ham "Ayoling g'ar bo'lsin!" demaydilar, "Do'sting sotqin bo'lsin!" demaydilar. Ne baxtki, men o'z xalqimning farzandiman!

"Kiroyi odam bo'laman desang "men" deb ko'ksingga urma!" derdi otam.

"Ko'ksing "men-men"ga to'lib ketsa qabriston orala!" derdi momom.

"O'zing bilan o'zing yoqalashib yashashni qay kuni bas qilsang, o'sha kundan boshlab do'stlaringdan judo bo'lasan", derdi onam.

Bobomning nasihatlaridan: Umr yo'lingda oltin hassadek foydalan deb uch hikmatni yana eslataman.

Birinchi hikmat:

Ardoqlim! Sen toki tirik ekansan, uch holda, birinchidan, isming aytilganida, ikkinchidan, xalqingning nomi aytilganida, uchinchidan, "Bu yerda odam bormi?" deb so'ralganida "Mana men!" deyishga va o'zingning o'shanday ekaningga to'la ishontirishga hamisha shay tur!

Bilsang, bu sen uchun ham farz, ham qarz, qo'zichog'im!

Ikkinchi hikmat:

Ardoqlim! Insondagi eng bebaho boylik va eng go'zal umr — odamlar nazaridan qolmay yashashdir. Hatto begona-notanish odamlarning ko'nglida ham senga yaxshi tilak borligiga sidqidil ishon. Shu ishonchni yo'qota ko'rma, bo'talog'im!

Uchinchi hikmat:

Ardoqlim! Odam bolasining qoniga singgan bir odat — boshqalardan o'ziga mustahkam suyanchiq axtarish. Shunday ekan, seni ham o'ziga suyanchiq deb yurganlar borligini zinhor unutma, chirog'im!

Bu kitobni xotimalar ekanman, men ham o'quvchilarimga bobomning shu uch nasihatini yana eslatib, "Xalq uchun va xalqqa foydali, chinakamiga baxtiyor umr suringlar, mening ardoqli suyanchiqlarim!" deb qolaman.

Savol: Shu bilan "Qoraqalpoqnoma" tamommi?

Javob: Har gal yangi kitobimni "bitdi-bitdi" qilsam-da, aytmoqchi bo'lgan gaplarim ado bo'lgani uchun emas, aslida meni yangi o'ylar, yangi-yangi kitoblar navbat kutib shoshiltirayotgani uchun shunday qilaman.

"Agar boshqa bemorlar kutib turmaganida, birinchi bemorni batamom sog'aytirmagunimcha kasalxonadan chiqarmasdim", deyishadi mening shifokor qizlarim.

"Gazeta har soniga yangi material talab qilmasa, hayotda yangi-yangi o'zgarishlar ro'y bermasa, bir materialning ustida uzoq ishlab, uni xotiradan hech qachon o'chmaydigan qilib yozardim", deb o'kinadi jurnalist o'g'lim.

"Mendan keyin darsga kiradigan muallim bo'lmaganida edi, o'z fanimni sizlarga to'la o'rgatmagunimcha sinfdan chiqmasdim", derdi adabiyot muallimimiz.

"Agar hech kim yangi bir jinoyatga qo'l urmaganida edi, men tergov qilayotgan jinoyatchi batamom tuzalmaguncha uning ortidan yuraverardim", deydi yurist o'g'lim.

"Kattalar ish buyurib, kuchlilar qo'rqitavermaganlarida edi, hamisha bola bo'lib qolaverardik", deydi maktabda o'qib yurgan o'g'il-qizlarim.

"Hamma tengdoshlarimiz yashayverganida, bizlarning ham o'lgimiz kelmasdi-ya", derdi bobom bilan momom.

Bu kitobga "tamom" deya so'nggi nuqta qo'yganim bilan, xalqim haqida aytilgan barcha hangomalarga qo'shimcha uning tinchliksevarligi, mehnatsevarligi, oqko'ngilligi, topgan-tutganini, avvalo, mehmonga ilinishi, bunyodkorlik fazilatlarini ko'rsatuvchi hangomalar va afsonalarni hikoya qilishdan toki ko'zlarimda nur, tanimda mador bor ekan, charchamayman...

Yangi kitob sahifalarida yana uchrashguncha omon bo'linglar, mening buyuk suyanchiqlarim!

MUNDARIJA

Xalq bitigi *(Otauli)* 3

Qoraqalpoqnoma

Birinchi qism 11
Ikkinchi qism 159
Xotima o‘rnida o‘zimdan o‘zim olgan intervyu 370

T 96 To‘lepbergen Qaipbergenov [Matn]: nasr/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Orziqul Ergash. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 376 b.
ISBN 978-9943-8570-3-2

UO‘K 821.512.121-3
KBK 84(5O‘zb-6Qor)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

TO‘LEPBERGEN QAIPBERGENOV

36-jild

Adabiy-badiiy nashr

Tarjimon
Otauli

Muharrir *Odil Ikromov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 23,5. Nashriyot-hisob tabog‘i 22,13.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 103-1/22 Buyurtma raqami № 22-319

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TO'LEPBERGEN QAIPBERGENOV